ISLOM MA’RIFATI - AXLOQIY VA MA’NAVIY BARKAMOLLIK ASOSI



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

TO‘PLAMI

15-may 2025-yil
BUXORO

O’ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI

MIR ARAB OLIY MADRASASI

ISLOM MA’RIFATI - AXLOQIY VA MA’NAVIY BARKAMOLLIK ASOSI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Buxoro - 2025

“Islom ma’rifati - axloqiy va ma’naviy barkamollik asosi”// Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Ilmiy to’plam [Mir Arab oliy madrasasi. Mas’ul muharrir . f.f.d.prof.X.X.Rahmatova] Buxoro: 2025.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “O’zbekiston Respublikasida 2024 yil 27 dekabrdagi xalqaro va respublika miqyosida o’tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnika anjumanlar rejasi to’g’risida”gi 490-sonli buyrug’i ijrosini ta’minlash maqsadida 2025 yilning 15 may kuni Mir Arab oliy madrasasida o‘tkazilgan “Islom ma’rifati - axloqiy va ma’naviy barkamollik asosi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanining materiallari e’lon qilinmoqda.

Anjuman Mir Arab oliy madrasasi va hamkor tashkilotlar –O’zbekiston musulmonlari idorasi, Buxoro viloyat hokimligi, O’zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyat vakilligi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Mas`ul muharrir:

Xolida Rahmatova – Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori.

Taqrizchilar:

**Azizxo`ja Inoyatov** – Chor Bakr jome’ masjidi imom-xatibi, islomshunoslik fanlari bo`yicha falsafa doktori(PHD), dotsent.

Zoirov Erkin –Buxoro davlat texnika universiteti «Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat» kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

Tahrir hay`ati:

Jobir Elov – O`zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyati vakili, Mir Arab oliy madrasasi rektori

Uchqun Avliyoqulov – Mir Arab oliy madrasasi «O`quv ishlar» bo`yicha prorektori

Mir Arab oliy madrasasining 2025 yil 13 may kuni bo‘lib o‘tgan 3-sonli Kengashi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya qilingan.

©Mir Arab oliy madrasasi, 2025

IMOM BUXORIYNING TA’LIMOTIDA ODOBNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTUGAN O‘RNI

Jobir Elov
Buxoro viloyati bosh imom xatibi,
Mir Arab oliy madrasasi rektori

“Al-adab al-mufrad” asariga sharh yozgan olimlardan biri kitob haqida shunday deydi: «hadis bobida mo‘minlar amiri bo‘lgan Buxoriyning ushbu kitobi hajmi kichik bo‘lishiga qaramay Rasulullohning sunnatlarida kelgan yuksak odob va komil axloqlarni o‘z ichiga qamrab olgan»[1]. Hozirgi kunda ulamolar darslik sifatida ushbu muxtasar (Sahihul Buxoriyga nisbatan hajmi kichik bo‘lgani e’tiboridan shunday nomlandi) asarni tanlasalar, ilm toliblari uchun manfaatliroq bo‘lardi. Hozirgi yumushlar ko‘p bo‘lgan bir davrda diniy ta’lim muassasalarining ustozlari ushbu kitobdan dars berishlari munosib ish. Sababi kitob hajmi kichik bo‘lgani uchun ham uni darslik sifatida o‘qib chiqish nari borsa bir yil vaqt oladi[2]. Kitob haqida bildirilgan ushbu fikrlarning o‘zi ham asarning jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar muhim o‘rin tutishini anglatadi.

Muallif butun boshli bir kitobni insonning bir shaxs va jamiyat bilan munosabatlarida zarur bo‘ladigan nabaviy odoblar asosida yozgani uning ta’limotida odobning alohida o‘rin tutishini anglatadi. Shu o‘rinda odob so‘zining ta’rifiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Bu haqida Ibn Hajar shunday degan:

«Adab – so‘z va amal e’tiboridan maqtovga sazovor jarayonlarni qo‘llashdir. Ba’zi olimlar, odob yuksak axloqlar majmu’i degan. Ayrimlar, u – o‘zidan yuqori bo‘lganga hurmat ko‘rsatish, o‘zidan quyi bo‘lganga yumshoq munosabatda bo‘lish, degan. Bu so‘z arab tilidagi «**مأدبة**» ya’ni, taomga chaqiriq, ma’nosidan kelib chiqqan, deydiganlar ham bor»[3].

Imom Buxoriy kitobini Ankabut surasining 8-oyati bilan boshlaydi:

وَوَصَّيْنَا ٱلْإِنسَٰنَ بِوَٰلِدَيْهِ حُسْنًا

«Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik». (Ya’ni ota-ona xoh yaxshi, xoh yomon bo‘lsin, xoh musulmon, xoh kofir bo‘lsin ularga yaxshilik qilish farzandning burchidir)[4]. Bu oyat Sa’d ibn Abu Vaqqos borasida nozil bo‘lgan. U zot Islomni qabul qilganidan so‘ng onasi, u to dindan qaytmaguniga qadar unga gapirmaslikka qasam ichadi. Men onangman, bu dindan qaytishingni buyuraman deganda shu oyat nozil bo‘ladi[5].

Muallif kitobining avvalida ushbu oyatni keltirishi Buxoriyning g‘oyasini ifodalaydi. Unga ko‘ra xalq bilan munosabatda eng yuksak odob ko‘rsatilishga haqli

[1] Fazlulloh Jiyloniy. Fazlullohi as-Somad fi tavziyhi al-adab al-mufrad. – Qohira,1378. – B.21-22.
[2] Avvalgi manba. B. 33.
[3] Ibn Hajar. Fath al- Boriy. 1-juz. Riyoz: dor as-Salom, 2000. B.400.
[4] Shayx Alouddin Mansur. Qur’oni azim muxtasar tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2019. – B.575.
[5] Ibn Hajar. Fath al- Boriy. 1-juz. Riyoz: dor as-Salom, 2000. B.309.

kishilar bu ota-onadir[6]. Shuning uchun ham imom Buxoriy quyida ota-onaga yaxshilik qilish, ota-onaga muloyim gapirish, ota-onaga oq bo‘lish hamda ularning vafotidan keyin ham ularga yaxshilik qilish kabi mavzularni qamragan 24 ta bob keltiradi. Uning ketidan qarindosh-urug‘chilik aloqalari haqidagi hadislarni taqdim qilishni boshlaydi. Bu masalaga doir birinchi bob «**وجوب صلة الرحم**» deb atalgan. Bu tarjimatul bobdan imom Buxoriyning fiqhda mohir bo‘lganini ham tushunish mumkin. Imom Haskafiy silayi rahmning hukmi borasida shunday degan: «silayi rahm vojibdir. So‘rashib qo‘yish, hadya berish, hamsuhbat bo‘lish bilan bo‘lsa ham uni ado etish shart»[7].

Ibn Obidin: «Agar qarindoshlar uzoqda bo‘lsa, ularga xat bilan bo‘lsa ham aloqa qilib turish zarur. Agar borib ko‘rishga imkon qila olsa, shunisi afzal», degan. Demak, imom Buxoriy bu islomiy mafkura hamda yuksak odob jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishining asosi deb hisoblagani uchun ham ota-onaga doir hadislardan keyin keltirdi.

Imom Buxoriy kitobdagi boblarni tartiblashda eng zarurlaridan boshlab quyilab boradi. Yuqoridagi ikki mavzudan keyin rahbar-xodim munosabatlariga e’tibor qaratadi. Ikki tarafga ham doir odoblarni qamragan hadislarni keltiradi. Keyin esa musulmon kishining atrofdagilarga munosabatini tartibga soluvchi alohida bob ajratadi. Imom Buxoriy 135-bobni «**حسن الخلق**» deb nomlaydi va unda quyidagi hadisni 270-raqam ostida keltiradi:

عن أم الدرداء عن أبي الدرداء عن النبي ﷺ قال: « ما من شيء في الميزان أثقل من حسْن الخُلُق»

Ummu Dardo Abu Dardodan u Nabiydan ﷺ rivoyat qiladi, u zot ﷺ dedilar: **«yaxshi xulqdan ko‘ra mezonda og‘irroq keladigan biror nima yo‘q»[8].**

Xulq bu – odat, tabiat bo‘lib, inson jismining shakli va sifatlari bo‘lgani kabi uning ichki olami bo‘lgan nafs va ruhning ham o‘ziga xos ma’nolari bo‘lib, bu xulqdir[9]. Demak, imom Buxoriy bu kitobi orqali musulmon jamiyatlari islomiy xulq hamda odoblarni o‘zida jamlashini istagan deyish xato bo‘lmaydi.

Rasulullo ﷺ Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: **«Sizlarning eng yaxshilaringiz xulq jihatidan yaxshi bo‘lganingizdir»,** deganlar. Demak, jamiyatning yaxshi ekani, uning taraqqiyoti uning a’zolari kasb qilgan odob-axloq darajasi bilan belgilanar ekan. Imom Buxoriy kitobida keltirgan hadislarni nafaqat rivoyat qilgan. Balki ularni o‘z hayotiga tatbiq ham etgan muhaddislar imomidir. Shuning uchun ham odob va yuksak xulq jamiyat taraqqiyotining asosi ekanini yaxshi anglagan va shu yo‘lga chorlab o‘tgan.

[6] Al’ulum: majallatul ilmiyya. 2015-yil, noyabr,9-son. – B. 10.
[7] Imom Haskafiy. Durr al-muxtor sharhi tanviril absor va jome’il bihar. – Bayrut: DKI,2002. – B.518.
[8] Muhammad ibn Ismoil buxoriy. Al-adab al-mufrad. – Bayrut: doru as-siddiq, 2000. – B.100.
[9] Фазлуллоҳ Жийлоний. Фазлуллоҳи ас-Сомад фи тавзийҳи ал-адаб ал-муфрад. – Qoҳира,1378. – Б.369.

Buxoriyning manoqiblari haqida kelgan ma’lumotlar orasidan olingan kichik iqtibos ham bunga dalolat qiladi: «Muhammad ibn Abu Hotim aytadi: «Men Husayn ibn Muhammad samarqandiyning bunday deyotganini eshitdim: «Muhammad ibn Ismoilning ko‘plab maqtovga sazovor jihatlari bo‘lishi bilan bir qatorda, undagi uch xislat alohida ajralib turardi. U kam gap edi. Odamlarning qo‘lidagi narsaga tama’ qilmasdi. Odamlarning ishlariga aralashmasdi. Asosiy mashg‘uloti ilm bo‘lgan»[10].

NAQSHBANDIYLIKNING JAHONIY TA’LIMOTGA AYLANISHIDA XOJA AHROR VALIYNING O‘RNI

Raxmatova Xolida Xolikovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
professori, falsafa fanlari doktori(DSc)

Bugungi kunda o‘zlikni anglash baxtiga erishganimizga shukronalar ila tabarruk zaminimizda etishib chiqqan ulug‘ avliyolar, olimu fuzalolarning hayoti, faoliyati va ijodlarini o‘rganishga musharraf bo‘ldik. Shunday ulug‘ ajdodlarimiz qatorida Xoja Ahror Valiyning ham insoniyat oldidagi xizmatlari e’tirof etildi. Xoja Ahror Valiy - temuriylar davrida yashab faoliyat ko‘rsatgan, XY asr Sharq falsafiy tafakkurining rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, naqshbandiya ta’limotining yirik namoyandasi, islohotchisi va davomchisi, naqshbandiylikni jahoniy ta’limotga aylantirishda munosib hissa qo‘shgan mutasavvif.

Xoja Ahror Valiyning eng katta xizmatlaridan biri naqshbandiylik ta’limotini jahoniy ta’limotga aylantirishda qo‘shgan hissasidir. Mutasavvifning bu xizmatlari haqida hazrat Alisher Navoiy “Nasoyim – ul muhabbat” asarida fikr yuritar ekanlar, u kishini nafaqat Movarounnahrda, balki Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, hattoki Rum[11] va Misr, Xitoy va Hindistonda mashhur shayx, orif, murabbiy, ustoz va tasavvuf ta’limotining buyuk namoyandasi sifatidagi qiyofasini tarannum etadilar. Asarda shunday deyiladi: “Hazrat Xojag‘a oncha muknat dast berdiki, ma’lum emaski, mashoyixdin hech kimga ul dast beribdur, yo yo‘q. Mulkka ajab isilo va salotin va mulukka g‘arib isrofu hukm, Movarounnahr salotini o‘zlarin alarning muridzodalari va mahkumi hukmi tutorlar erdi. Yo‘qki, yolg‘iz Movarounnahr salotini, balki Xuroson va Iroq va Ozarbayjon, hattoki bir soridin Rum va Misrg‘acha va bir soridin Xito va Hindg‘acha barcha muluk va salotin o‘zlarin Xojaning mahkumi hukmi va ma’muri farmoni tutarlar erdi va ruq’alari bu salotinga oncha muassir erdikim, alarning ahkomi o‘z xuddomig‘a bo‘lmag‘ay va Hazrat Xojaga zohir jamiyati barcha abnoi zamondin ko‘prak voqe’ erdi.”[12]

[10] Imom Zahabiy. Siyar a’lamin nubalo. 12-juz. – Bayrut: muassasatu ar-risala, 1983. – B.448.
[11] Rum – manbalarda Turkiya davlati Rum deb yuritiladi.
[12] Alisher Navoiy. Nasoyim – ul muhabbat. T.2001. 20 – tomlik. 17-tom. 280 – b.

Alisher Navoiy yozgan har bir misrada olam – olam ma’no bor. Demakki, Xoja Ahrorning naqshbandiylik tariqatini jahonga yoyishdagi xizmatlari o‘rganishga molik masaladir. Professor Aleksandr Knыsh “Musulmanskiy mistitsizm” kitobida Eron va Turkiyada naqshbandiylikning kirib kelishida Xoja Ahrorning rolini alohida qayd etadi. Eronning shimoliy g‘arbida Movarounnahr va Hirotga nisbatan naqshbandiylik tariqati sekinlik bilan tarqalgan.[13] Eronning shimoliy g‘arbida joylashgan Kazvin shahrida tariqat targ‘ibotchisi Xo‘ja Ahror Valiyning muridi Shayx Ali Kurdiy bo‘lgan.[14]

Naqshbandiylik ta’limoti g‘arbiy turklar orasida tariqatning buyuk asoschisi Naqshband vafotidan bir asr o‘tgach, XV asrdan yoyila boshlandi. Bu naqshbandiylikning Movarounnahr doirasidan chetga chiqishida juda muhim qadam bo‘ldi. Usmoniylar saltanatida naqshbandiya tariqati islomning sunniylik yo‘nalishiga sodiqligi, shariat ahkomlariga izchil rioya qilishi sabab turk aholisi orasida ko‘p sonli tarafdorlarni qisqa muddatda jalb etishga muvaffaq bo‘ldi.

Turkiyada naqshbandiya so‘fiylik usullarining birinchi targ‘ibotchisi Mulla Abdulloh Ilohi Samoviy (vafoti 1490) edi. U kishi Samarqandda Xo‘ja Ubaydulloh Ahror qo‘lida tahsil topgan. Tahsili tugagach, Mulla Abdulloh Ilohi bir necha yil o‘zi tug‘ilgan shaharda, keyinchalik Istambulda tariqatni tarqatdi. Zeyrek machitida birinchilardan bo‘lib naqshbandiya markazini tashkil etdi va ko‘plab tariqat tarafdorlarini jalb etdi. Shunga qaramasdan, Mulla Abdulloh Ilohiy xilvatda yashashni ixtiyor etar va o‘zini diniy ilmlarga bag‘ishlashni afzal ko‘rardi. Ilohiyning muridi Amir Ahmad Buxoriy(v.1516). Ilohiyning Samarqandda bo‘lgan vaqtidanoq uning ortidan qolmas, Xo‘ja Ahror saboqlarini murshididan olmoqqa intilardi.

Amir Ahmad Buxoriyning say’i harakati ila Istambulda uchta naqshbandiylik markaziga asos solindi va tariqat saflari ko‘plab olimu, adabiyotchilar bilan to‘lib bordi. Ulardan biri Burs shahridan Mahmud Laliy Cho‘lobiy (vafoti 1532y) edi. Buxoriy tomonidan asos solingan markaz XX asr boshiga qadar faoliyat ko‘rsatdi. Xo‘ja Ahrorning Turkiyadagi yana bir muridi Bobo Haydar Samarqandiy (vafoti 1550y) edi. U sulton Sulaymon Kanuniyning hurmatiga molik bo‘lgani bois, sulton u kishiga Ayyub shahrida tekka[15] qurdirib berdi. Bu markaz 1912 yilda yong‘in oqibatida vayron bo‘ldi. Markaz o‘z vaqtida O‘rta Osiyodan keladigan so‘fiylar joylashadigan maskan bo‘lgan.[16] O‘sha davrlardan “Buxoro”, “Qashg‘ar”,

[13] Xuroson davlati hozirgi shimoliy sharqiy Eron, Afg‘onistonning shimoliy va shimoliy - g‘arbiy va Turkiston katta hududlarini qamrab olgan.XIV-XV asrlarda bu davlatning markazi Hirot shahri edi.
[14] Knsh. A.D. Musulmanskiy mistitsizm. Moskva – Sankt-Peterburg. “Dilya”, 2004g 254 str.
[15] Tekka – Turkiyada so‘fiylarning xonaqohlari shunday deb atalgan. (Xonaqoh -
[16] A.D.Knsh. Musulmanskiy mistitsizm. Moskva – Sankt-Peterburg. “Dilya”, 2004. S. 258.

“O‘zbeklar” degan tekkalarning nomlari hanuzga qadar saqlanib qolgan. O‘rta Osiyodan keladigan so‘fiylar qatorida Haziniy[17] ham bo‘lgan.

Hindistonda naqshbandiylik tariqati XV asrdan yoyila boshlandi. Naqshbandiylikning Hindistonda tarqalishi Muhammad Zahiriddin Bobur nomi bilan bog‘liqdir. Mirzo Bobur u kishini “Mullo bobo” deb ataydiki, soddadillik bilan aytilgan bu so‘zda beqiyos mehr yashiringandir. Mirzo Bobur o‘z esdaliklarida otalari Umarshayx Mirzo naqshbandiya tariqatining peshvosi Xoja Ahrorning muridi bo‘lganligi va o‘zlari Xoja Ahrorni ma’naviy pir deb bilganligi, ul zotdan ruhiy madad olganliklari haqida yozadilar.

Xoja Ahrorning “Anfosi Nafiysa” asarida tariqat yo‘lidagi kishilarning amal qilishi zarur bo‘lgan masalalarning bayoniga bag‘ishlangan. Bu risola ham Hindistonda boshqa mutasavviflarning asarlari bilan birga nashr qilingan.[18] “Risolai Volidiya” asari haqida afg‘onistonlik olima Shafiqa Yorqin shunday yozgan edi: “Xoja Ahrorning “Risolai Volidiya” nasriy asarining mavzui inson zohiri va botinini pokiza qilmoqdan iborat bo‘lib, Abul Fazl Allomiy uni “Ma’rifat dengizining durdonasi” deb biladi. “Masmu’ot” asarining muallifi Mir Abdulavval Nishopurdan kelib etti yil muddat davomida Xoja Ahrorning xizmatlarida bo‘ladilar va ul zotdan tariqat ilmini o‘rganadilar. Mir Abdulavval Xoja Ahrorning bevosita yordamida Nishopur(Eron)da jahoniy ta’limotni targ‘ib etishga muvaffaq bo‘ldi.

Xoja Ahror Valiyning yana bir xizmatlari – u kishi naqshbandiylik ta’limotining islohotchisi sifatida mashhurdirlar. XV asrga qadar tasavvuf ahli davlatdorlar bilan bordi-keldi qilmas, bir-biriga ixtilof tutar edi. Mutasavvifning davlatdorlar bilan murosayu-madora qilish, kelishish yo‘lini tutishi, ixtilofdan ixtilotga o‘tishi, so‘fiyning jamiyatda faol bo‘lish g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan naqshbandiylikdagi strategik burilish, desak arziydi. Xoja Ahror Valiy ochib bergan podshohlar bilan ixtilot yo‘li tariqat rivoji va obro‘-e’tiborining oshishiga olib kelgan hamda hukmdorlarga ijobiy ta’sir o‘tkazish, ularning davlatdorlik faoliyatini fuqarolarga nisbatan adolat mezoni asosida nazorat qilish uchun imkoniyat yaratgan edi.

Bu tadbir Xoja Ahror Valiyning faoliyatiga ijtimoiy tus berdi, tariqat arbobini ulkan jamoat arbobiga aylantirdi. Tariqat esa jamiyat va dunyoviy hayot bilan bog‘lanib, katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylandi. Bunday qarash naqshbandiylikda islohot edi. Podshohlar bilan ixtilotda bo‘lish tadbiri naqshbandiyaning “suhbat tariqasi” shioridan kelib chiqqan bo‘lib, Xoja Ahror Valiy uni rivojlantirdi va

[17] Sulton Ahmad Haziniy al-Hisoriy(1533-1596) o‘zining “Javohir ul – abror min amvojil bihor” asarida ko‘plab mashoyixlar qatori Xoja Ubaydulloh Ahror ta’rifiga ham to‘xtalib o‘tadi. (Bu haqda qarang: Nodirxon Hasan. Haziniy Xoja Ahror Valiy haqida. Hidoyat. 2004, № 12. – B 14).

[18] Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolayi anfosi nafisa. Laknav,1871y., 2-b.; Xoja Ubaydulloh Ahror. Faqarotu-l-orifiyn. Tabarruk risolalar../ Tarjimonlar Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoq, Hamidulloh Amin. T.; Adolat. 2004. – B. 13.

ijtimoiy-siyosiy hayotda faol qatnashish, davlat ishlarida ishtirok etish darajasiga ko‘tardi[19].

Biz yuqorida Xoja Ahror Valiyni naqshbandiylik ta’limotining davomchisi deb ta’kidladik. Chunki mutasavvif Xoja Ahrorning xalqimiz oldidagi xizmatlari tariximiz uchun nihoyatda ardoqlidir, bugungi kunda mutasavvifning falsafiy va ijtimoiy qarashlari, pandu nasihatlari yosh avlod qalbi va ongida ezgulik, ma’naviy komillikka chorlovchi g‘oyalarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi va istiqlol g‘oyasini takomillashtirishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

"التَّنْويرُ الإسْلامِيُّ أسَاسُ الْكَمَالِ الأخْلَاقِيِّ والرُّوحِ"

د. أيمن عثمان عبد العليم الشريعي- أستاذ بجامعة بخارى الحكومية

المقدمة:

يمثّل التنوير الإسلامي تيارًا فكريًا وروحيًا يعكس جوهر الإسلام في دعوته إلى العقل، والعلم، والنور الداخلي.

إن التنوير في الإسلام ليس مجرد إدراك عقلي للحقائق، بل هو إشراق روحي يهدي القلب ويزكي النفس، ويتجلى أثره في تهذيب الأخلاق وبلوغ الكمال الإنساني. فقد اهتم الإسلام منذ فجره بإبراز العلاقة بين **النور الإلهي** وبين **صفاء السريرة واستقامة السلوك**، وهو ما يُؤسس لفهم التنوير لا كمجرد معرفة، بل **كمسلك أخلاقي وروحي متكامل**.

وقد عبّر عن هذا المعنى عدد من شعراء المسلمين، من بينهم **أبو العتاهية** الذي قال:

وكم من عقلٍ قد رأينا بهاءً ولكنْ بلا دِينٍ فلا يُنتَفعْ[20]

فالعقل، مهما بلغ من الذكاء، يظل ناقصًا إن لم يهتد بنور الإيمان. وكذلك عبّر **الإمام الشافعي** عن هذا المعنى بقوله:

شكوتُ إلى وكيعٍ سوءَ حفظي فأرشدني إلى تركِ المعاصي

وأخبرني بأن العِلـــــمَ نـــورٌ ونورُ الله لا يُهدى لعاصي[21]

وهو تأكيد على **أن نور العلم لا ينفصل عن صفاء القلب وترك الذنوب.**

وقد ذهب **أحمد شوقي** في دعوته إلى ضرورة الأخلاق كأساس لبقاء الأمم إلى قوله:

وإنما الأممُ الأخلاقُ ما بقيَت فإن هُمُ ذهبتْ أخلاقُهم ذهبوا[22]

ولعل التنوير الإسلامي في جوهره هو إعادة الإنسان إلى هذا المعنى: أن الحضارة لا تُبنى بالعلم المجرد، بل بالخلق المصاحب له.

وفي السياق نفسه، قال **محمد إقبال:**

إذا الإيمانُ ضاعَ فلا أمانُ ولا دُنْيا لِمَن لم يُحيِ دينا[23]

أي أن **الإيمان نور يضيء الحياة**، وضياعه يُفضي إلى التيه الأخلاقي والمعنوي.

---

[19] Sa’diev Sadri. Naqshbandiya tariqatining ulug‘ islohotchisi. // Sino. –Toshkent, 2004. -№ 13. – B.21.

[20] . أبو العتاهية، ديوان *أبو العتاهية*، تحقيق: خليل مردم بك، بيروت: دار صادر، 1994، ص88.

[21] . الإمام الشافعي، *ديوان الشافعي*، تحقيق: أحمد فريد المزيدي، بيروت: دار الكتب العلمية، 2004، ص27.

[22] . أحمد شوقي، *ديوان الشوقيات*، بيروت: دار الكتاب العربي، 2001، ج1، ص78.

[23] . محمد إقبال، *تجديد الفكر الديني في الإسلام*، ترجمة عباس محمود، القاهرة: دار المعارف، 2015، ص112.

أما الحكماء والعلماء، فقد تركوا لنا أقوالًا تلخص طبيعة التنوير الإسلامي. فقد قال **الإمام علي -رضي الله عنه:**

"أضئ قلبك بنور الحكمة، فإن القلب إذا لم يُنر، أظلمت الجوارح. [24]

أما **مالك بن نبي**، فكان له فهم عميق لأزمة العالم الإسلامي، فقال:

"لا يمكن أن تكون هناك نهضة حقيقية إلا على أساس من التنوير الفكري والخلق القويم." [25]

ويسعى هذا البحث لتوضيح مفهوم التنوير الإسلامي، وبيان أثره في تهذيب النفس وتحقيق السمو الروحي، بوصفه طريقًا إلى الكمال الإنساني الحقيقي.

أولًا: مفهوم التنوير الإسلامي:

- **التنوير لغةً** : مصدر من الفعل "نَوَّر"، أي أضاء وأشرق.
- **اصطلاحًا** : يرى الدكتور عبد الكريم بكار أن "التنوير الإسلامي هو إشراق القلب بنور الوحي، لا بانطفاء الروح تحت ضوء العقل وحده." [26] فالتنوير الإسلامي حالة من الانكشاف العقلي والروحي المستند إلى نور الوحي والعقل، يسهم في تحرير الإنسان من الظلمات: ظلمات الجهل، والهوى، والتقليد الأعمى.
- **في الفكر الإسلامي** : التنوير ليس حركة ضد الدين كما في بعض السياقات الغربية التي تدعو إلى تحرير الإنسان من الجهل والتسلط الديني والسياسي، عبر الاعتماد على العقل والتجربة والعلم فقط، بل هو حركة نابعة من جوهر الدين الإسلامي نفسه، إذ يدعو الإسلام إلى التفكر، واتباع الحق، والتحلي بالحكمة والموعظة الحسنة.

ثانيًا: التنوير في القرآن والسنة:

- القرآن الكريم وصف الله تعالى بأنه **نور السماوات والأرض**، كما في قوله تعالى:
"اللَّهُ نُورُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ[27] **"**
- وصف القرآن بأنه نور: **"قَدْ جَاءَكُمْ مِنَ اللَّهِ نُورٌ وَكِتَابٌ مُبِينٌ "** [28]

النبي ﷺ دعا إلى التنوير العقلي والإيماني، عن أبي هريرة رضي الله عنه قال: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم:

"إِنَّ اللهَ لَا يَنْظُرُ إِلَى صُوَرِكُمْ وَأَمْوَالِكُمْ، وَلَكِنْ يَنْظُرُ إِلَى قُلُوبِكُمْ وَأَعْمَالِكُمْ (رواه مسلم)[29]

يدل هذا على أن التنوير في الإسلام لا ينفصل عن الإيمان والخلق، بل يُعد أساسًا لهما.

ثالثًا: علاقة التنوير الإسلامي بالكمال الأخلاقي:

التنوير الإسلامي يربط بين العلم والعمل، ويقوم على:

- تهذيب النفس.
- الالتزام بالقيم العليا.
- اتباع المنهج النبوي في المعاملات.

قال رسول الله ﷺ:

"إنما بعثت لأتمم مكارم الأخلاق"[30]**.**

وهذا الحديث يختصر جوهر التنوير الإسلامي الذي يقود إلى الكمال الخلقي.

فالكمال الأخلاقي في الإسلام مرتبط بالنية الخالصة، وحسن المعاملة، والصبر، والرحمة.

---

[24] . علي بن أبي طالب، *نهج البلاغة*، تحقيق صبحي الصالح، بيروت: دار المعرفة، 2000، ص229.
[25] . مالك بن نبي، *شروط النهضة*، دمشق: دار الفكر، 2006، ص54.
[26] . عبد الكريم بكار، *رؤية إسلامية في التنوير*، القاهرة: دار السلام، 2012، ص35.
[27] . سورة النور: 35.
[28] . سورة المائدة: 15.
[29] . صحيح مسلم (2564) (4/ 1986).
[30] . رواه مالك في الموطأ، كتاب "حسن الخلق"، رقم الحديث: 1614.

- والتنوير يهدي إلى هذه الصفات من خلال:
  - **تحرير العقل** من الخرافة والهوى.
  - **الالتزام بالوحي** بوصفه مصدرًا للهداية.
  - **إحياء الضمير** واستشعار رقابة الله.
  - **السمو فوق المصالح المادية**.

قال الإمام الغزالي: "العلم نور، ونور الله لا يُهدى لعاصٍ" – مما يدل على أن النور المعرفي لا ينفصل عن النور الخلقي.

رابعًا: التنوير الإسلامي والكمال الروحي:

- **الكمال الروحي** يتمثل في صفاء النفس، والاتصال بالله، والزهد، والتوكل، وحسن الظن بالله. و يرى الإمام الغزالي أن إصلاح النفس هو أساس كل إصلاح[31] ، وأن القلب لا يصفو إلا بذكر الله واستحضار مراقبته.[32]
- التنوير الإسلامي لا يقتصر على ظاهر المعرفة، بل يمتد إلى باطن الإنسان، ويزكيه من الداخل.
- يُسهم في:
  - تخليص الروح من التعلق بالدنيا.
  - ربط القلب بالخالق أكثر من الخلق.
  - بث الطمأنينة والسلام الداخلي.

قال تعالى: **"أَفَمَنْ شَرَحَ اللَّهُ صَدْرَهُ لِلْإِسْلَامِ فَهُوَ عَلَى نُورٍ مِنْ رَبِّهِ "** [33]

خامسًا: خصائص التنوير الإسلامي:

1. **رباني المصدر** : يستمد نوره من الوحي.
2. **شامل** : لا يجزئ الإنسان بين روح وعقل وجسد.
3. **واقعي** : يتعامل مع مشكلات الحياة لا بمعزل عنها.
4. **مقاصدي** : يسعى لتحقيق العدل والرحمة والحرية.

سادِسًا: تطبيقات واقعية للتنوير الإسلامي:

- **في التربية** : ترسيخ قيم الحق والعدل والنقد الذاتي.
- **في السياسة** : اعتماد الشورى، وتحكيم العقل والشرع.
- **في الاقتصاد** : التوازن بين المصلحة الفردية والمصلحة العامة.
- **في السلوك الفردي** : تهذيب النفس، والمسامحة، والتواضع.

سابِعًا: أثر التنوير الإسلامي في بناء الفرد والمجتمع:

- **على مستوى الفرد** :تنمية الضمير، تهذيب السلوك، وضبط الشهوات.
- **على مستوى المجتمع** :نشر القيم، تعزيز المسؤولية، محاربة الفساد والانحراف.

ثامِنًا: تحديات أمام التنوير الإسلامي المعاصر:

1. **الغزو الثقافي :** الذي يُروج لتنوير علماني مفرغ من القيم.
2. **الجهل بالدين** : الذي يخلط بين التدين الشكلي والتنوير الحقيقي.
3. **الانغلاق** : من بعض التيارات التي تحارب التجديد والاجتهاد.

الخاتمة:

لقد حاول هذا البحث تسليط الضوء على التنوير الإسلامي بوصفه أحد الركائز الأساسية لتحقيق الكمال الأخلاقي والسمو الروحي في حياة الفرد والمجتمع. وقد تبيّن من خلال العرض أن:

---

31 . أبو حامد الغزالي، إحياء علوم الدين، بيروت: دار المعرفة، 2013، ج3، ص122.

32 . المرجع السابق: ج1، ص42.

33 . سورة الزمر: 22

1. **التنوير في الإسلام مفهوم متجذر في الوحي والعقل معًا،** وليس مستوردًا من الفكر الغربي، بل هو نابع من آيات القرآن الكريم وأحاديث النبي ﷺ التي تحث على التأمل، والعلم، والتزكية.
2. **الكمال الأخلاقي والروحي في الإسلام لا يتحقق إلا من خلال نور الهداية الإلهية،** فالعقل وحده لا يكفي ما لم يستنر بالوحي ويهتدِ بضوئه.
3. **الربط بين التنوير والخلق في الإسلام عضوي وأصيل،** إذ إن النور الحقيقي لا يكون إلا في قلب طاهر، وسلوك مستقيم، وعقل منفتح.
4. **التنوير الإسلامي يجمع بين إصلاح الذات والمجتمع،** وهو ليس فرديًّا فقط، بل له أبعاد تربوية واجتماعية وسياسية واقتصادية.
5. **التراث الإسلامي زاخر بنماذج فكرية وأخلاقية تمثل التنوير الحقيقي،** مثل الغزالي، وابن رشد، وابن القيم، ومالك بن نبي، الذين قدموا رؤى متوازنة بين الروح والعقل.
6. **التنوير الإسلامي يدعو إلى تحرير الإنسان من العبودية لغير الله،** سواء أكانت عبودية الشهوات، أو التقاليد الفاسدة، أو الجهل، أو السلطة الجائرة.
7. **تحقيق الكمال الروحي لا يكون بالانفصال عن الواقع،** بل عبر التفاعل الواعي مع الحياة ومشكلاتها بنور الإيمان والعقل، وبالسير على منهج الوسطية.

<u>وفي الختام،</u> فإن المجتمعات الإسلامية اليوم أحوج ما تكون إلى:

1. **إحياء مفهوم التنوير الإسلامي في الخطاب الديني والتربوي**: فيجب أن يُعاد تقديم التنوير الإسلامي بوصفه عملية متكاملة تجمع بين العقل والإيمان، وبين السلوك الظاهري والنقاء الداخلي، بعيدًا عن التصورات الغربية التي تفصل الدين عن التنوير.
2. **تعزيز دور المؤسسات التعليمية والدعوية في ترسيخ قيم التنوير الإسلامي** ينبغي إدماج مفاهيم مثل: التفكير النقدي، تزكية النفس، نور الوحي، والتأمل، في المناهج التربوية والدينية.
3. **تشجيع الشباب على الجمع بين المعرفة العقلية والنمو الروحي** من المهم أن يُربّى الجيل الجديد على فهم أن الكمال لا يتحقق إلا بصفاء الروح وصلاح الأخلاق، وأن النور الحقيقي هو ما يجمع بين العلم والإيمان.
4. **الاستفادة من التراث الإسلامي في إحياء نماذج التنوير الأخلاقي** مثل الإمام الغزالي، وابن القيم، وابن رشد، وغيرهم، الذين قدموا نماذج متكاملة تجمع بين العقلانية والتزكية.
5. **مواجهة مظاهر الظلام الأخلاقي والفكري في المجتمعات المسلمة** من خلال ترسيخ قيم التنوير الإسلامي لمكافحة الغلو، والانحراف الأخلاقي، والتقليد الأعمى، والانغلاق الفكري.
6. **إقامة دورات وندوات حول التنوير الإسلامي وتطبيقاته المعاصرة** لنشر الوعي بمفهوم التنوير النابع من داخل الثقافة الإسلامية، وتطبيقه في المجالات الحياتية: الشخصية، الاجتماعية، والسياسية.
7. **ربط مفهوم التنوير الإسلامي بمقاصد الشريعة** بما يُحقق حفظ الدين، والنفس، والعقل، والنسل، والمال، حتى يكون التنوير وسيلة للبناء لا للهدم، وللارتقاء لا للذوبان في الآخر، وغاية ذلك كله : تحقيق الكمال الأخلاقي والروحي الذي ينشده الإسلام للإنسان خليفةً في الأرض وعبدًا لله الواحد القهار. ويجعل من التنوير أساسًا لتحقيق السعادة في الدنيا والآخرة.

SOG‘LOM E’TIQODNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Avliyoqulov Uchqun Mardanovich
Mir Arab oliy madrasasi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

Jamiyat - bu yagona tizimga birlashgan barcha insonlar va ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi bo‘lib, unda insonlar o‘zlari kelishgan holda faoliyat ko‘rsatishadi. Bugungi kun jamiyatlarida sodir bo‘layotgan murakkab o‘zgarishlar, ulardagi taraqqiyot, albatta, ularga ta’sir ko‘rsatayotgan turli omillar sabab bo‘lmoqda. Har qanday jamiyat borki uning rivojlanishiga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, sodir bo‘layotgan demografik o‘zgarishlar, aholining ijtimoiy kayfiyati, aholining ijtimoiy himoyalanganligi va aholining moddiy faravonlik darajasi kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar qatoriga jamiyatda sog‘lom e’tiqodning qaror topishi omilini ham kiritishimiz mumkin. Sababi, bugungi kunda e’tibor beradigan bo‘lsak, aynan e’tiqodiy masalalar sababli ko‘plab jamiyatlarda turli fitnalar, bahs-tortishuvlar va eng yomoni urushlar kelib chiqmoqda. Har qanday an’anaviy yoki zamonaviy ko‘rinishdagi jamiyatlar bo‘lmasin, diniy e’tiqod u yerdagi ijtimoiy nazoratning muhim bir shakli bo‘lib, jamoat tartibini mustahkamlashga xizmat qiladi. Sog‘lom diniy e’tiqod jamiyatdagi insonlarga axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish orqali jamiyatning yaxshi a’zosi bo‘lishga undaydi. Aynan u ta’lim va kasbiy yutuqlarga erishishga, shuningdek, jamiyatdagi insonlar orasida tarqalgan yot illatlardan bo‘lgan nikohdan tashqari tug‘ilish, giyohvandlik, alkogolizm, jinoyatchilik va huquqbuzarlik kabi jiddiy ijtimoiy muammolardan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi.

Hozirgi ko‘plab zamonaviy g‘arb jamiyatlarida yuqorida aytib o‘tilgan illatlar sabab ko‘zga tashlanayotgan ijtimoiy muammolar soha mutaxassislari tomonidan o‘rganilar ekan, sog‘lom e’tiqodning nechog‘lik muhimligi quyidagi omillar bilan izohlab o‘tilgan.

1. Oilaviy rishtalarning mustahkam bo‘lishi amaliy diniy e’tiqod bilan bog‘liq. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ibodat maskanlariga boruvchilar aksariyat hollarda rasmiy nikohda bo‘lib, kamdan-kam holatlarda ajrashgan yoki aksariyat hollarda nikohlaridagi juftlarini o‘zi bilan qanoatlanadilar.

2. Sog‘lom e’tiqodda bo‘lish farovon va baxtli nikohning omillaridan biri sanaladi.

3. Sog‘lom va mustahkam e’tiqodda bo‘lish nochor insonlarni kambag‘allikdan chiqishlariga yordam beradi.

4. Diniy e’tiqod va unga to‘g‘ri amal qilish shaxsiy axloqiy mezon va sog‘lom axloqiy mulohazalarni shakllantirishga katta hissa qo‘shadi.

5. Sog‘lom e’tiqod odamlarni turli ijtimoiy muammolardan, jumladan, o‘z joniga qasd qilish, giyohvandlik, nikohdan tashqari tug‘ilish, jinoyatchilik va ajralishlardan himoyalanishga chaqiradi.

6. Doimiy bo‘ladigan diniy amaliyot va sog‘lom e’tiqod ruhiy salomatlik uchun foydali bo‘lib, tushkunlikni kamaytirish (zamonaviy epidemiya desa bo‘ladi), o‘z-o‘zini hurmat qilish va oilaviy baxtni oshishiga sabab bo‘ladi.

7. Alkogolizm, giyohvandlik, nikoh buzilishi natijasida etkazilgan ruhiy zararni davolashda diniy e’tiqod kuchli bo‘lish va tiklanishning asosiy manbai hisoblanadi[1].

Kaliforniya universitetida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom e’tiqoddagi insonlar e’tiqodsiz insonlarga nisbattan kamroq ruhiy stress holatiga tushishadi[2].

Stenford universiteti professori Tani Lurmann fikricha, diniy e’tiqoddagi insonlar va ularning kundalik amallari sababli hayotlarida pozitiv o‘zgarishlar doimiy sodir bo‘ladi[3].

Shu sababli, jamiyatda e’tiqod sog‘lomligini ta’minlash uchun eng avvalo davlat darajasida olib borilayotgan sohaga oid islohotlar hajmini oshirish, e’tiqod bilan bog‘liq ilmlarini mustahkamlashlari uchun aholi murojaat qiladigan manbaalarni ko‘paytirish, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlardan sanaladi.

E’tiqodi to‘g‘ri shakllangan va tarbiyalangan jamiyatda inson moddiy va ma’naviy qadriyatlardan o‘z turmushida to‘g‘ri foydalana boradi va turli zararli va bid’atga o‘ralgan qadriyatlardan voz kecha boradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda ko‘rish mumkinki, sog‘lom e’tiqodda bo‘lgan insonlar sabab jamiyatda turli ijtimoiy muammolar o‘z-o‘zidan barham topar ekan. Bu esa jamiyatning turli sohalarda stabil rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni oldi olinishiga va fuqarolar uchun davlat tomonidan va’da qilayotgan farovon hayotni barpo etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Why Religion Matters: The Impact of Religious Practice on Social Stability//https://www.heritage.org/civil-society/report/why-religion-matters-the-impact-religious-practice-social-stability

[2] Rodney Stark: "Psychopathology and Religious Commitment," *Review of Religious Research*, Vol. 12 (1971), pp. 165-176.

[3] Sandra Feder. Deep faith beneficial health. Stanford report. November 13th, 2020. https://news.stanford.edu/stories/2020/11/deep-faith-beneficial-health

O‘RTA ASRLAR ISLOM SIVILIZATSIYASI DAVRIDA ILM FAN RAVNAQI

Hanifa Bo‘ronovna Haydarova,
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti
“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti

Dinoza Vohidova,
Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa” kafedrasi tayanch doktoranti

Islom sivilizatsiyasi islomni qabul qilgan xalqlar madaniyatining natijasidir. Islom sivilizatsiyasining arabcha nomlanishi “al-hazora al-islamiya” bo‘lib, bu erdagi al-hazora so‘zi ko‘chmanchi, badaviy tarzida yashamaydigan, balki o‘troqlashgan holda madaniy hayot kechiradigan ma’nolarini anglatadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ushbu so‘zga dastlabki ta’rif bergan olimlar uni hayot uchun zarur narsalardan ortiqcha bo‘ladigan har qanday narsalarni al-hazora deb hisoblaganlar. Unga birinchilardan ta’rif bergan olimlar qatorida XIV asrda yashagan buyuk musulmon faylasufi va tarixchisi Ibn Xaldun shunday degan:“sivilizatsiya bu –farovonlik sirlarini yaxshi bilish, taom, kiyim, yotoq, bino va yashash uchun barcha vositalarni qo‘llay olishdir”. Ibn Xaldun sivilizatsiyani yashash uchun zarur narsalarga ziyoda bo‘ladigan odatiy holatlar deya baholab, bu ziyodalik farovonlik va sivizilatsiyaga intilayotgan xalqlarda turlicha, ya’ni kimdir ko‘proq va yana kimdir kamroq erishishi mumkin deb bilgan. Shu ma’noda Ibn Xaldun G‘arb mutafakkirlaridan, jumladan britaniyalik tarixchi Arnold Toyinbiydan oldin sivizilatsiyaga ta’rif bergan deyishga etarlicha asoslar mavjud.

Birgina Yevropa ilm fanida fanlarning otasi deb tanilgan falsafa fanining rivojini o‘rganaylik. Alambe Jourdanning 1819-yilda nashr etilgan “Arastu asri yunon hujjatlarining arab tiliga qilingan tarjimalari tanqidi” kitobi yunon madaniyati va ilmiy merosining arab mintaqasiga kirib kelishi va ko‘rsatgan ta’sirini yorituvchi dastlabki manbalardan biridir. Bu manbada islom falsafasiga xristian sivilizatsiyasi, yunon falsafiy ta’limotlari va lotin tilidagi ilmiy yutuqlarning ta’siri ochib berilgan. 1852-yili Ernest Renanning “Ibn Rushd va uning falsafasi” nomli kitobi nashr etilgan va unda bu mutafakkirning qarashlari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar va yunon falsafasining ta’siri yoritib berilgan. Solomon Munkning “Yahudiy va arab falsafasi majmui” nomli asarida yahudiylar va arablarning ilmiy-intellektual faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, o‘xshash jihatlar va vorisiylik asoslari tahlil qilingan. Islom falsafasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. G‘arb madaniyati an’analari va diniyta’limotlarining asoslari o‘rganilgan va bu asar hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan1. Abbosiylar davrida islom ilm-fani va madaniyati rivojiga ta’sir ko‘rsatgan eng asosiy omillardan biri erkin ijtimoiy muhit va rag‘batlantiruvchi

sharoit yaratilishi bo‘lgan. Bu davrda ilm va ilm ahliga nisbatan izzat-hurmat shunchalik yuqori darajada ediki, bunday holatni na biror davr, na biror mamlakatda, hatto ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan. Yevropada ham uchratmaymiz. Faylasuf olim M.Qodirovning fikricha:“Eng qadimgi arab tilidagi manba bo‘lgan Ibn Nadimning “Al-fehrist” (“Ro‘yxat”) kitobidagi ma’lumotlarga ko‘ra, birinchi marta kimyo, astronomiya va tabobatga doir asarlarni arab tiliga tarjima qilish tashabbusi Ummaviy amir Xolid ibn Yazidga taalluqli ekan. Ilgari zardushtiylik dinida bo‘lib, keyin islomga kirgan Abdullo ibn Muqaffaning hind olimi Bidpoy Hakimning “Kalila va Dimna” asarini paxlaviy tilidan arabchaga tarjima qilgani katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning qadimgi fors tilidan arab tiliga qilgantarjimalaridan “Xudoynoma” (“Qadimgi fors davlatchiligi tarixi”), “Oyinnoma” (“Yo‘l-yo‘riqlar, urf-odatlar”), “Mazda kitobi”, “Anushervonning hayot yo‘li” va boshqa adabiy-axloqiy risolalari islom mintaqasi madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan”. Shunday ekan, islom falsafasi o‘z davrida turli madaniyatlar kesishuvi, uchrashuvi, hamkorligi va o‘zaro sintezlashuvining hosilasi sifatida yuzaga keldi va o‘zida boshqa madaniyatlarning eng go‘zal an’analarini takomillashtirganini namoyon qildi Islom sivilizatsiyasi o‘rta asrlarda o‘zining etuk darajasiga etdi. G‘arb dunyosining ayrim vakillari bu paytni “zulmat” davri, deya hisoblab turganbir vaqtda ajdodlarimiz nurli davrni boshidan o‘tkazganlar. Vaholanki, amerikalik olim Jorj Sarton o‘zining “Introduction to the History ofScience” (“Fan tarixiga kirish”) nomli kitobida ilmiy bosqichlarni yarim asrlardan iborat 50 yillik bir necha davrlarga bo‘lib chiqqan. Xususan, 750-yildan 1100-yilgacha –350 yil mobaynida yashagan olimlarning nomlarinisanab o‘tgan. Diqqat bilan kuzatgan o‘quvchi ushbu olimlar musulmon olamivakillari ekaniga amin bo‘ladi. Bunday olimlar qatorida kimyo, matematika,tibbiyot, geografiya, falakiyot, tabiiy ilmlarda ulkan faoliyat olib borgan Jobir ibn Hayyon, Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Mas’udiy, Abul Vafo, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom singari arab, turk, afg‘on, fors musulmon olimlari keltiriladi. Sharqshunos olim Frants Rouzental Islom va ilm munosabatlariga bag‘ishlangan «Ilm tantanasi» nomli yirik asarida Islom dini mag‘iz-mag‘zigacha ilm olishga da’vatdan iborat, deb ta’kidlaydi. 1Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. –T.: HILOL-NASHR nashriyoti. 201922M.Qodirov. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O‘rta asrlar).O‘quv qo‘llanma. –T.: ToshDSHI nashriyoti. 2009.

Kitobning kattagina bir qismiga esa, «Ilm –islomdir» degan nom berilgan. Fransuz faylasufi Jan Kondorse «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasiga chizgilar» nomli asarida: «O‘rta asrlar musulmon olamida to‘plangan ilmiy bilimlar g‘arbda Uyg‘onish davrini tayyorlash uchun xizmat qilmaganida insoniyat uchun besamar yo‘qolib ketardi», deb yozgan. Falakkiyot ilmi ajnabiy

tilda astronomiya deyiladi. Dunyo xalqlarining ko'pchiligi osmon jismlariga "Xudo yoki unga tegishli askarlar" degan nazar bilan qarab turgan bir paytda musulmonlar Qur'oni Karim oyatlaridan ruhlanib, falakiyot ilmiga asos soldilar. Boshqa barcha ilmlar qatori, falakiyot ilmidagi kashfiyotlarga ham musulmonlarni islom ta'limotlari chorlagan. Bir guruh falakiyot ilmi mutaxassislari o'z kasblariga oid bir kitobni muzokara qilib o'tirganlarida diniy ulamolardan ba'zilari o'tib qolib: "Nima qilyapsizlar?" deb so'rabdilar. Shunda falakiyotchilar: "Alloh taoloning "Tuyaning qanday xalq qilinganiga, osmonning qanday ko'tarilganiga nazar solmaydilarmi?" degan oyatining sharhini o'rganmoqdamiz", deb javob bergan ekanlar. Falak ilmi haqidagi kitoblarning avvalida bu ilm osmondagi narsalarni o‘rganish orqali Allohning Biru Borligi, qudrati cheksizligining aqliy isbotiga olib boruvchi ilm ekanligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham musulmonlar bu ilmga katta e'tibor berganlar. Uni o‘rganishga talab kuchli bo‘lganligidan musulmon olamining Samarqand, Bag‘dod, Damashq, Qohira, Fas, Tulaytila (Toledo), Qurtuba va boshqa ko‘pgina shaharlarida mazkur ilmga xos o'quv yurtlari ishlab turgan. Shu bilan birga, ko‘plab rasadxonalar barpo etilgan va ularda muvaffaqiyat ila ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur rasadxonalardan ba'zilarini eslabo'tishimiz ham mumkin. Xalifa Ma'munning Bag'dodda bitta, Damashqda bitta rasadxonasi bo‘lgan. Ikki xalifa Aziz Biamrillah va Hokim Biamrillahlar Qohirada bittadan ikkita rasadxona qurganlar. Buyuk vatandoshimiz Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi rasadxonasi, Xulaguxonning Murg'onadagi rasadxonasi va boshqalar shular jumlasidandir. O'sha paytlarda musulmonlar ichidan butun dunyoga dong taratgan buyuk falakiyot olimlari etishib chiqdi. Ana o‘sha ulug‘ musulmon olimlar ichida bizning vatandoshlarimiz ham borligi, ularning etakchi o'rinlarni egallaganliklari biz uchun faxrdir

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islom sivilizatsiyasi asrlar o’sha o‘zining yangilanib turuvchi, o‘zgarishlar bilan hamohang bo‘ladigan, rivojlanishlarga moslashadigan, insoniyat sivilizatsiyalariga zid bo‘lmaydiganligini isbotlab berdi.Bugun islom olami insoniyat tamaddunini rivojlantirishga yaqin turibdi va qo‘ldan boy berilgan barcha sohani egallashga harakat qilmoqda. Chunki bashariyatga ma’rifatning turli sohalarini taqdim qilgan va taraqqiyotniato etgan islom sivilizatsiyasi yana rivojlantirish salohiyatiga ega. Aniqki, islom sivilizatsiyasi ertaning Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 2-kitob –T.: HILOL-NASHR nashriyoti. 2017 sivilizatsiyasi. Islom dunyosi bugungi holida qolib ketmaydilar, bu uzoq davom etmaydi ham. Chunki bu holat tabiiy jarayonva insoniyatning hayot yo‘liga to‘g‘ri kelmaydi. Musulmonlar o‘z sivilizatsiyalarini yangidan barpo qilishlari uchun o‘zaro jipslashishlari va bir-birlariga yordam berishlari lozim. Shundagina ularning sivilizatsiyalari barcha

insoniyatga yana namuna bo‘la oladi. Aslida ham islom sivilizatsiyasining rivojlanishi musulmonlarning buguni va kelajagi uchun ulkan mas’uliyatdir.

ISLOMIY QADRIYATLAR VA TARBIYANING AHAMIYATI

Djuraev Husen Xayrulloevich,
Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
husaynbuxoriy@mail.ru; x.x.djuraev@buxdu.uz.

Xayrulloev Saidjon Husenovich,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti
saidjonhusaynzoda@gmail.com

Islomda quyidagi asosiy qadriyatlar ajratiladi: iymon, hayot, aql, nasl, mulk. Bu qadriyatlar shariat himoyasining asosiy ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi.

Islomda qadriyatlar ierarxiya[1]sining tepasida iymon turadi. Insonning boshqa muhim qadriyatlarga munosabatini belgilab beruvchi va keyinchalik belgilab beruvchi va rivojlantiruvchi iymon, uning besh ustuni – islomning asosiy qoidalaridir.

Islomning ikkinchi qadriyati hayotdir. U Allohning in’omi, Alloh taolo har bir jonzotga ato etgan narsalarning eng qimmati sifatida qabul qilinadi. Hayot in’omi va uni olish faqat Allohning imtiyozidir. Musulmon uchun boy hayot kechirish va uni qaytarishga doim tayyor turish muqaddas burch sanaladi – Allohning birinchi so‘ralishi bilan.

Islom dinining uchinchi qadriyati aql – insonning tushunish, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatidir. Insonning boshqa jonzotlardan farqi shundaki, unga ong va iroda erkinligi berilgan. Ammo turli omillar ta’sirida ongga tajovuz qilish va zarar etishi yoki zarar etkazishi mumkin. Jumladan, jahldorlik, g‘azab, o‘z manfaatini ko‘zlash, o‘zini tutmaslik va hokazolar shular jumlasidandir. Demak, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) sunnatlari hadislarida g‘azab ko‘ngilni xira qiladigan narsa sifatida qayta-qayta tilga olinadi. Islomning to‘rtinchi qadriyati mulkdir. Islomda mulk muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Bu qoida hozirda islomga e’tiqod qiluvchi ko‘plab davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Bunda asosiy e’tibor mazkur davlatlarning iqtisodiy asosi bo‘lgan xususiy mulkni har tomonlama

[1] Ierarxiya (qadimgi yunoncha: ιεραρχία — «oliy ruhoniyning hukumati», ιερός— «muqaddas» va ἀρχή — «kuch») — qismlar yoki elementlarning eng yuqoridan eng pastgacha tartibida joylashishi. Etimologicheskiy slovar russkogo yazыka Shanskogo N. M., statya «Ierarxiya»; Ierarxiya: [arx. 17 oktyabrya 2022] / A.G. Bondach, D.G. Podvoyskiy; V.A. Popov // Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya: [v 35 t.] / gl. red. Yu.S. Osipov. — M.: Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 2004-2017.

mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilmoqda. Mulk – halol, vijdonli mehnat samarasidir. Shuning uchun islomda mehnat katta ahamiyatga ega.

Naslning davom etish islomning beshinchi qadriyatidir. Naslning davom etish iymon va hayotning davomi sifatida qaraladi. Shu sababli shariat homiladorlikni sun’iy ravishda to‘xtatish, turmush qurmaslik va’dalarini va hokazolarni taqiqlaydi. Islomda monastizm yoki yolg‘izlik institutlari mavjud emas. Shariat me’yorlari oilaviy va maishiy munosabatlarni juda batafsil tartibga solib, er-xotinning bir-biriga nisbatan aniq huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Islom dinida ham boshqa dinlar kabi o‘z joniga qasd qilishni taqiqlash, mehmondo‘stlikka rag‘batlantirish, muhtojlarga yordam berish, adovatdan ko‘ra ezgu ishlar yo‘lida birlashish kabi umuminsoniy qadriyatlar mavjud[2].

Musulmon Sharqida asosiy tadqiqot sohasi axloqiy qadriyatlar edi. Axloq - bu jamiyatdagi inson hatti-harakatlarini tartibga soluvchi, tarixan o‘zgarib turadigan qoidalar, tamoyillar, me’yorlar yig‘indisidir. Jamiyatning har bir fuqarosining o‘ziga xos axloqiy qadriyatlar tizimi, xulq-atvor normalari, yaxshilik va yomonlik tushunchalari mavjud bo‘lib, ular pirovardida uning ijtimoiy mavqei va manfaatlarini ifodalaydi. Din ahloqni yaratadi, uning qonun-qoidalarini yoritadi, deyishadi ko‘pchilik din ulamolari. Bu so‘zlar Islomning xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Diniy musulmon odob-axloqining asosiy xususiyati shundaki, uning me’yor va qoidalari Alloh tomonidan belgilab berilgan va jamiyat tomonidan qabul qilinganidek tushuntiriladi. Islom odob-axloqining e’tiborga molik xususiyati shundaki, musulmonlarning axloq haqidagi ta’limoti “ommaviy foydalanish axloqi”, o‘ziga xos axloqiy xususiyatga ega, chunki u musulmonning kundalik hayotini diqqat bilan tartibga soladi, axloq va urf-odatlarni, jamiyat hayoti qoidalarini axloqiy bahoga bo‘ysundiradi[3].

Zamonaviy islom madaniyati IX-XII asrlardagi klassik musulmon madaniyatiga borib taqaladi. Uning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu davr mumtoz musulmon madaniyatining asosiy tarkibiy elementlari ko‘p fanlar emas (G‘arbiy Yevropa tafakkurida bo‘lgani kabi), balki bilimning mohiyatini belgilovchi, dunyo manzarasini talqin qiluvchi qadriyat-mafkuraviy oqimlardir. Bu oqimlar umumiy paradigma[4]ga ega bo‘lib, ular islom dunyoqarashida o‘z aksini topgan insonning dunyoda mavjudligining pirovard asoslari, uning o‘z tabiati va koinot bilan aloqasi bilan bog‘liq ma’lum baho va g‘oyalar majmuasiga asoslanadi.

[2] Тууакова Н.Б. Система ценностей в современном исламском обществе // Вестник Карагандинского государственного университета. Сер. «Право». 2010. № 2 (58).

[3] Гилмутдинов Б.Р. Тенденции развитиуа и педагогические условиуа исползованиуа прогрессивной мысли ислама в современной школе: Дис. канд. пед. наук. Казан. 2002.

[4] Paradigma (grekcha — “namuna, andoza”) — ilmiy yutuqlar majmui. Paradigma u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot uchun namuna asos bo‘lib xizmat qilishi zarur.

Aynan muammoli bilim sohasida (islomdagi bilim ideali asosida) musulmon o‘rta asrlari mutafakkirlari har bir muammoni: madaniyat va siyosat, axloq va estetika, falsafa va huquq masalalarini alohida hal qilganlar. Musulmon o‘rta asrlarining barcha asosiy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy oqimlari faqat birgina ma’lum bilim predmeti bilan cheklanib qolmay, siyosiy muammolarga nisbatan siyosiy nazariyalar, falsafiy muammolarga nisbatan falsafiy nazariyalar, huquqiy muammolarga oid huquqiy nazariyalar, axloqiy nazariyalar hamda shu tariqa musulmon madaniyatidan kelib chiqadigan vositachilik muammolari va boshqalar paydo bo‘ldi. Yaxlit va to‘la, o‘ziga xos kompleks deb atash mumkin bo‘lgan bilim idealiga yo‘naltirilgan.

Islomiy qadriyatlar turli xalqlar va millatlar hayotiga kirib kelganida, ular dastlab bir-biriga zid edi. Islom o‘zining gumanistik qadriyatlar tizimini tavsiya qilib, murosa yo‘lini oldi.

Qadriyatlar haqidagi zamonaviy fanda milliy qadriyatlar odamlarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Ularning ta’kidlashicha, u turli ko‘rinishlarda, turli tasavvurlarda namoyon bo‘lib, odamlarning ongi va turmush tarziga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlarni odamlarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatda ko‘rinib turishidan, shuningdek, ushbu qarashlar, faoliyatlar, maqsad, ehtiyoj va intilishlarning axloqiy asoslaridan ham bilib olish mumkin.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ular bilan bog‘liqligi ifodasi bo‘lgan qadriyatlar tizimi xalqimiz tarixi, zamon o‘zgarishlari, turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllangan. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqishi va hududiy makonining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti ularning milliy-hududiy qadriyatlarini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib bordi. Shunday qilib, xalqimiz o‘ziga xos rang-barang qadriyatlarini takomillashtirish natijasida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirdi.

Milliy qadriyatlar tabiatan tor doirada to‘xtab qolmaydi, balki hayot jarayonida gullab-yashnaydi, yangilanadi, boshqa xalqlar qadriyatlari yutuqlari bilan boyib boradi. Ko‘rinib turibdiki, har bir millat, qabila yoki xalqning urf-odatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘z qadriyatlaringizni boshqa joyda yashaydigan odamlarning tarozilari bilan o‘lchash yoki boshqalarga bu masalada hakam bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Umumjahonlik tuyg‘usi nafaqat o‘z xalqining qadr-qimmatini ulug‘lash, uni maqtanish va boshqalar orasida yoyish istagiga asoslanadi, balki har bir millat, el va urug‘ning qadriyatlarini qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish va hurmat qilishdan boshlanadi. Milliy qadriyatlarimiz rivojida islom dinining ahamiyati va o‘rni g‘oyat katta bo‘lib, milliy qadriyatlarimizni boyitgan. Islom dini keltirgan

insonparvarlik g‘oyalari xalqimiz ma’naviy qadriyatlarining yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Islom dini kirib kelganidan so‘ng O‘rta Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi, zaminimizdan ko‘plab mutafakkirlar, qomusiy olimlar etishib chiqdi. Bu din o‘z ijodiga ko‘ra ko‘plab me’moriy yodgorliklar va shaharlarning yaratilishiga ham sabab bo‘ldi. Milliy qadriyatimizga aylangan islom dinining g‘oya va ta’limotlari xalqimizning tabiiy-tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, u yaratilgan hudud va hokazolar bilan uzviy bog‘liqdir. U milliy qadriyatlarimiz bilan birgalikda, bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi va milliy qadriyatlarning o‘ziga xos tizimini shakllantirdi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – yagona e’tiqod, qarindoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros, Vatan tuyg‘usi va boshqalar barqarordir.

Milliy qadriyatlarimiz tarkibiga kiruvchi islomiy qadriyatlarimizning bir qismi odamlarning yashash joyi, turmush sharoiti bilan bog‘liq holda shakllangan. Shu boisdan ham viloyatimizda turmush tarzimiz va sharoitimizga mos shariatning hanafiylik yo‘nalishi shakllangan.

Xalqimizning ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlari, adabiyoti, san’ati va umuminsoniy qadriyatlarning milliy miqyosda namoyon bo‘lish shakllari islom qadriyatlari bilan bog‘liq. Ular xalqimizning tarixiy taraqqiyoti davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o‘z ifodasini topadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Har qanday ijtimoiy hodisa singari milliy qadriyatlarning ham o‘ziga xos rivojlanish qonuniyati bor. Bu haqiqatni unutish, milliy qadriyatlarni biryoqlama, sun’iy ravishda ulug‘lash va ideallashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi hayotda ko‘p bora o‘z isbotini topgan. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi ko‘pmillatli, ko‘pkonfessiyali mamlakatda bunday harakatlar oxir-oqibatda millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy va diniy betoqatlik kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin.[5]”. Demak, din qonimizga, ongimizga shu qadar chuqur singib ketganki, uni hech qanday kuch bilan olib tashlab bo‘lmaydi.

An’anaviy islom qadriyatlari ko‘plab davlatlar va mamlakatlarni o‘z ichiga olgan kuchli islom zamonaviy sivilizatsiyasini shakllantirgan. Musulmonlarning islom sivilizatsiyaviy o‘ziga xosligi fuqarolik milliy o‘ziga xosligi va diniy madaniy o‘ziga xoslik bilan mustahkamlanadi. Musulmonlarning madaniy qadriyatlari va o‘z taqdirini o‘zi belgilashining yagona to‘plami madaniy yaxlitlik va an’anaviy qadriyatlar daxlsizligi shartini o‘z ichiga oladi.

[5] Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008. – B. 52.

Markaziy Osiyoda islom madaniyati va tarixiy rolida an’anaviy islom qadriyatlarini saqlab qolish asosiy sivilizatsiya vazifalaridan biridir. Bu vazifaning amalga oshirilishi globallashuv muammolari oldida xalqimizning madaniy suvereniteti va ma’naviy xavfsizligini asrab-avaylash, ma’naviy salohiyatini mustahkamlash imkonini beradi. Musulmon madaniyati islom dinini qabul qilgan turli xalqlar madaniyatining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanganligini ko‘ramiz. Ularning har biri islom an’ana va urf-odatlari, ijtimoiy norma va asoslari rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan. Ta’kidlash joizki, islom madaniyatining an’anaviy ma’naviy qadriyatlari mamlakatimizdagi barcha xalqlar o‘rtasidagi baynalmilal do‘stlikka zamin yaratadi, chunki islom dinining to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘li barcha qardosh xalqlar uchun Qodir Allohga ma’naviy xizmat qilishda ishonchli yo‘lboshchi bo‘lishdan iborat.

Alloh taolo Qur’oni karimda barcha insonlarni shunday: وَٱلتَّقۡوَىٰۖ وَلَا تَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡإِثۡمِ وَٱلۡعُدۡوَٰنِۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَۖ إِنَّ ٱللَّهَ شَدِيدُ ٱلۡعِقَابِ “Yaxshilik va taqvo yo‘lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo‘lida hamkorlik qilmang. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh iqobi shiddatli Zotdir.” da’vat etadi. (“Moida”[6] surasi 2-oyat.)

Odamlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni saqlash islom tamoyillarining asosidir, shuning uchun har bir musulmon har doim turli millat va e’tiqod vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga intilishi kerak. Islomda aytilishicha, musulmonlar har doim Alloh taolo oldida solih bo‘lishga harakat qilgan va harakat qilmoqda, bu esa ularni boshqa madaniyat yoki din vakillari bilan halol, olijanob va ishonchli bo‘lishga to‘sqinlik qilmaydi.

Dinimizning ma’naviy salohiyati islom olamining tarixiy maqsadini amalga oshirishning asosi, jamiyatni yuksak qadriyatlarga xizmat qilish ruhi yo‘llari bo‘ylab sivilizatsiyaviy modernizatsiya qilishning shartidir. An’anaviy islom qadriyatlarini, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati, an’analari va mentalitetini himoya qilish va asrab-avaylash zamonaviy islom sivilizatsiyasini saqlab qolishdir. Musulmon madaniyati insonparvar, chunki inson uning asosiy qadriyati va vositasidir. Islom dini barcha harakatlarimizni butun insoniyat uchun tinchlik va totuvlik, baxt va farovonlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishga chaqiradi. Inson boshqalarga nisbatan mehribon va adolatli bo‘lishi kerak. Boshqalarga nisbatan mehribon va to‘g‘ri munosabat ko‘p so‘zlar va ko‘rsatmalarga qaraganda samaraliroq ishlaydi. Odamlar ularga aytgan so‘zlaringizni unutishlari mumkin, ammo ularga bo‘lgan mehribon munosabatingizni uzoq vaqt eslab qolishadi. Munosabatlarda boshqalarga nisbatan yumshoq va sabrli bo‘lish, Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan o‘rnak olish Islomdagi

[6] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. – T.: Sharq. 2008. – B. 106.

munosabatlarning asosidir. Qur’oni karimda hamda suyukli Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning fazilatlari haqida: فَبِمَا رَحْمَةٍ مِّنَ ٱللَّهِ لِنتَ لَهُمْۖ وَلَوْ كُنتَ فَظًّا غَلِيظَ ٱلْقَلْبِ لَٱنفَضُّواْ مِنْ حَوْلِكَۖ فَٱعْفُ عَنْهُمْ وَٱسْتَغْفِرْ لَهُمْ وَشَاوِرْهُمْ فِي ٱلْأَمْرِۖ فَإِذَا عَزَمْتَ فَتَوَكَّلْ عَلَى ٱللَّهِۚ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُتَوَكِّلِينَ “Allohning marhamati sababli ularga muloyim bo‘ldingiz. Agar qo‘pol, toshbag‘ir bo‘lganingizda edi, atrofingizdan aniq tarqalib ketardilar. Bas, ularni afv eting, ular uchun Allohdan mag‘firat so‘rang va ishlaringizda ular bilan maslahatlashing. (Bir ishni) qasd qilsangiz, Allohga tavakkal qiling! Albatta, Alloh tavakkal qiluvchilarni sevadi.” deb, Alloh taolo tomonidan aytilgan. (“Oli Imron”[7] surasi, 159-oyat.)

Islom dinining ma’naviy va diniy qadriyatlari o‘z tabiatiga ko‘ra bizni ushbu hodisani - insonning ichki dunyosini tushunishda sezilarli darajada rivojlantirishga qodir. Har qanday dinning asosi - odamning shov-shuvlardan uzoqlashish, o‘tgan narsaga qaytish, e’tibor berish, haqiqatan ham jiddiy narsa haqida vijdonan va sinchkovlik bilan o‘ylash qobiliyatidir. O‘zagi islom bo‘lgan milliy madaniyat zamirida yotgan an’anaviy islomiy qadriyatlar va ma’nolar insonning ma’naviy kamolotini uning tabiatiga mos keladigan muhim yuksalish sifatida ta’kidlaydi. Bu jahon umuminsoniy qadriyatlarini konkretlashtiradi va musulmon jamiyatining gumanistik g‘oyalarini oziqlantiradi. Aytish kerakki, har qanday milliy jamoaning an’anaviy ma’naviy qadriyatlarining manbai diniy g‘oyalar, millatlar, elatlar va shaxslarning eng barqaror mafkuraviy qadriyatlaridir. Islomning an’anaviy ma’naviy qadriyatlari jahon ta’lim tizimlarining asosini bevosita yotib, ularga barqarorlik berib, ularning o‘ziga xosligini, madaniy va mafkuraviy o‘ziga xosligini belgilab beradi. Yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotiga oid g‘oyalarning asosiy fondini o‘zida mujassam etgan dinimizning an’anaviy ma’naviy qadriyatlari ta’lim tizimi orqali uzoq davrlar davomida pedagogik tushunchalarni shakllantirib, bugungi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda, jumladan, iqtisodiyoti, fan va texnikasi eng rivojlangan musulmon davlatlarida.

Mo‘minlar xudojo‘y va solih bo‘lishga intilayotgan, ezgu va xayrli ishlar qiladigan zamonaviy musulmon olami er yuzidagi barcha insonlarga hamisha o‘ziga xos tarzda tinchlik va totuvlik olib keladi. Sevimli Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: “Boshqalar bilan do‘stlik va totuvlik izlab, do‘stlikni qabul qilgan mo‘minning o‘zi yaxshilik keltiradi, so‘ngra aytdilar: “O‘zgalar bilan do‘stlasha olmaydigan va do‘stlashish imkoni bo‘lmagan kishida yaxshilik yo‘qdir, odamlarning eng yaxshisi odamlarga foydaliroq bo‘lgandir”. Bu hadisni olim Tabaroniy keltirgan. Musulmon olamida hayot sifatini oshirish, savodxonlik va bilimlarni tarqatish, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, inson huquqlarini

[7] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. – T.: Sharq. 2008. – B. 71.

ta’minlash va himoya qilishga alohida e’tibor qaratildi. Islomdagi eng muhim qadriyatlardan biri ma’naviy totuvlik bo‘lib, ularsiz na shaxsiy baxtni, na jamoat farovonligini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Biz Qur’oni karimda Alloh taolo inson zimmasiga er dunyosini obod etish mas’uliyatini yuklaganini, unga noiblik huquqini berganini, er yuzidagi va uning qa’ridagi barcha ne’matlardan foydalanishga ilhomlantirganini, toki inson munosib hayot kechirishi, Allohga ibodat qilib, kelajak avlodlarga yo‘l ko‘rsatganini ko‘ramiz. Bu maqsadni amalga oshirish uchun insonga chuqur bilim kerak, shuning uchun islom dini ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni o‘rganishga katta ahamiyat beradi. Musulmon madaniyati bilim va ma’rifat madaniyati ekanligini unutmasligimiz kerak. Islom ta’limoti izlanuvchan ongni uyg‘otib, ilm-fanni yosh avlodga etkazishga ilhomlantirib, ularga bu dunyoda e’tirof va yaxshi so‘z, kelajak hayotida esa saxovatli mukofotni va’da qilmoqda. Musulmonlar hamisha ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga e’tibor berib, boshqa sivilizatsiyalar yutuqlarini osongina o‘zlashtirib, jahon ilm-faniga hissa qo‘shganlar. Islom olami ulamolari tomonidan yozilgan kitoblarda ko‘pincha quyidagi so‘zlarni eshitamiz: barchamiz musulmon an’analari tashuvchilari bilan gaplashishni o‘rganishimiz, tushunish va tushunishni o‘rganishimiz kerak. Faqat shu yo‘lda biz islom dunyoqarashining asl boyligini kashf etamiz va zamonaviy musulmon madaniyati bilan samarali suhbat boshlaymiz.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Hech bir ota o‘z farzandiga go‘zal tarbiyadan qimmatroq narsani bera olmaydi”. Islom dini oilaviy tarbiya tizimining ma’naviy-axloqiy asosidir. Din sifatida VII asrda vujudga kelgan va ota-onaga hurmat, kattalarni e’zozlash, mehmondo‘stlik, do‘stlik, o‘zaro yordam, mehnatga muhabbat kabi axloqiy qadriyatlarni oilaviy tarbiyaga olib kelgan.

O‘rta Osiyoning ko‘plab mutafakkirlari: Al-Forobiy, Yassaviy, Musulmon Uyg‘onish davri allomalarining insonni ma’naviy-axloqiy kamolot va takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan asarlari muqaddas oyatlar, suralar va hadislar asosida yaratilgan bo‘lib, ularda tarbiya ota-ona, jamiyat, davlat uchun eng muhim masala hisoblanadi.

Islom dinining pedagogik salohiyati juda katta. Vijdonlilik, adolatlilik, halollik, mas’uliyat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Qur’oni karimda: خُذِ ٱلۡعَفۡوَ وَأۡمُرۡ بِٱلۡعُرۡفِ وَأَعۡرِضۡ عَنِ ٱلۡجَٰهِلِينَ “(Ey Muhammad alayhis-salotu vas-salom), marhamatli bo‘ling, yaxshilikka buyuring va johillardan yuz o‘giring!”, deb, Alloh taolo marhamat qiladi. (“A’rof”[8] surasi, 199-oyat).

[8] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. – T.: Sharq. 2008. – B. 176.

Janob Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ham ummatlariga murojaat qilib ilmga ishtiyoq haqida shunday deganlar: اُطْلُبُوا الْعِلْمَ وَلَوْ بِالصِّينِ فَاِنَّ طَلَبَ الْعِلْمَ فَرِيضَةٌ عَلَى كُلِّ مُسْلِمٍ Ya’ni: “Ilm Xitoyda bo‘lsa ham, uni izlab topib, egallangiz. Zero, ilmni talab qilish har bir musulmonga farzdir”, deganlar. Ya’ni juda uzoqda bo‘lsa ham.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam inson vafot etgandan keyin faqat uning muruvvatli amallari (sadaqalari) xotirasi va u uchun duo o‘qiyotgan solih farzandga o‘tkazishga qodir bo‘lgan ilmigina qolaveradi, deb ta’kidlaganlar.

Imom G‘azzoliy shunday yozgan edi: “Bilingki, bola ota-onaga asrab-avaylash uchun beriladi. Uning pokiza qalbi bebaho marvariddir va unga qanday naqsh o‘yib qo‘ymaylik, uni qabul qiladi”.

Mustaqillik yillarida ulkan ma’naviy yuksalish islom dinining oila tarbiyasiga samarali ta’siri uchun keng imkoniyatlar ochdi. An’anaviy islom qadriyatlari bugungi kunda axloqni mustahkamlash va tiklash uchun tayanch bo‘lishi mumkin.

2017-yil 15-iyun kuni “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev yosh avlod tarbiyasi masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Bizni doimo tashvishga soladigan muhim masalalardan biri bu yoshlarimizning ma’naviy-axloqiy fazilatlari, dunyoqarashi bilan bog‘liqdir”[9].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oila tarbiyasining Qur’on va hadislar asosida shakllangan eng muhim jihatlarini qayd etish lozim:

- bilimning shaxsning ma’naviy kamoloti va ijtimoiy nufuzi uchun qadri;
- erta axloqiy tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalik davrida ota-onalarga, kattalarga hurmatni shakllantirish;
- Клан va oila tarixi bilan tanishtirish, unga hurmatni tarbiyalash;
- bolalarning kundalik turmush tarzini tartibga solishda, xalq hunarmandchiligi va milliy hunarmandchiligini o‘zlashtirishda mehnatsevarlik va maqsadga muvofiq ishtirok etish;
- Millatlararo munosabatlarda mehmondo‘stlik va xushmuomalalik;
- mahallada faol o‘zaro yordam (hashar).

[9] “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ma’ruzasi; 2017 yil 15 iyun Toshkent.

AYOLNI E’ZOZLASH - OILANI, VATANNI, HAYOTNI ULUG‘LASH DEMAKDIR.

Raxmatova Xolida Xolikovna-
Buxoro davlat pedagogika instituti professori, falsafa fanlari doktori(DSc)

Haqnazarova Iroda Ismoilovna
Miri Arab oliy madrasasi 4 bosqich talabasi

Ayolni ulug‘lash oilani, Vatanni, hayotni ulug‘lashdir. Davlatimiz rahbarining yuksak e’tibori, har bir chiqishlarida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvvatlashi, jamiyatdagi mavqeini yanada yuksaltirishga doir bildirayotgan fikr va takliflari ayollarni yangi-yangi maralar sari chorlaydi va qalbimizda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Ayol bor joyda go‘zallik, mukammallik, baxt va halovat bordir. Prezident Sh.M.Mirziyoevning “Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi”, - deb e’tirof etganlari bejiz emas.

Ayol, ona — buyuk zot. U barcha jamiyatlarda va dunyoda mavjud minglab tillarda yuksak qadrlangan va e’zozlangan. “Onalar oyog‘i ostidadir behishti rizvon”, ya’ni, “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” deyilgan hadislarda. Bu borada siyrati hamda suratida ilohiylik va insoniylik mujassamligini topgan orifa ayollarning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rnini o‘rganish va uni hayotga tadbiq etish ahamiyatlidir. Ulardagi qudrat, karomat, hamda ma’naviy etuklikni o‘rganish, tushunib etish ham insonning o‘zligini anglash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq tasavvuf falsafasida orifa ayollar va ularning jamiyat va oiladagi o‘rni masalasi nisbatan kam o‘rganilgan mavzular sirasiga kiradi.

Tasavvufiy bilimlar taraqqiyotida orifa ayollarning o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, ma’rifat va haqiqat, irfonda etuk bo‘lganlar. Orifa ayollarning hayot yo‘li va ibratiga bo‘lgan munosabatlar Ibn Arabiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abu Said Abulxayr, keyinchalik Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ibn Arabiy “Alloh orifa ayollarni o‘z hijobi ostida saqlaydi” degan g‘oyani ilgari surgan. E’tirof etish o‘rinliki, “Tazkirat ul-avliyo”da faqat Robi’a Adaviyya, “Nafahot ul-uns”da 34 nafar, “Nasoyim ul-muhabbat”da 35 nafar orifa ayollar haqida ma’lumot berilgan. Allohning fazlu marhamati va hidoyatini istagan ayollar eranlar, mardlar qatoridadir. Abdurahmon Jomiy tavhid, ilm, irfon, ishq-muhabbatda sodiq orifa ayollarni yuksak baholaydi: “Agar ayollar

ma’rifat va haqiqat yo‘lida bo‘lsalar, erkaklardan afzaldirlar. Quyoshning muannas(ayol) ismida ekanligi unga ayb emas, Oyning muzakkar ismida(erkak) ekanligi unga faxr emas,”- deydi. Alisher Navoiy insoniylik yo‘lida jonini fido etgan so‘fiy ayollarni yomg‘irga o‘xshatgan, ya’ni erga tushsalar don bo‘lib unganlar, daryoga tushsalar durga aylanganlar[10],- degan.

Olmon islomshunos olimasi Annemarie Shimmel «Jonon mening jonimda» nomli asarida “***Men orifa ayollar mavzusiga faqat uning adabiy muhimligi uchungina emas, balki avliyosifat ayollar, Islom dunyosidagi so‘fiy rahnamo ayollar bilan uchrashganlarimda, Turkiya, Hindiston va Pokistondagi nomlari tillarda doston bo‘lib qolgan ayollarning qabrlarini ziyorat qilganimda qalbimda allaqanday tasvirlab bo‘lmas bir tuyg‘u paydo bo‘lib, faqat borlig‘imnimas, balki barcha fikru zikrim, ruhimni o‘ziga rom etgani uchun qo‘l urmoqdaman,”*[11]- deydi. Demak, orifa ayollarga bag‘ishlangan mavzular nafaqat musulmon olamida, balki G‘arb olimlari uchun ham tadqiqot obekti hisoblanishi e’tiborga molikdir.

Onalar yorug‘ hayot, baxt, to‘kin-sochinlik, fayzu baraka, tinch-totuv hayot ramzidir. Ona zamin, Ona Vatan, Ona tabiat deb atalishi ham shundan bo‘lsa ajabmas. Tarixiy manbalarda xam bu munis zotlarning barkamolligi, afsonaviy imkoniyatlari to‘g‘risida juda ko‘p ma’lumotlar bor. Ular vaslida ne-ne shoiru ulamolar qalam tebratgan, mo‘tabar ayol siymosi bitmas tuganmas ilhom sarchashmasi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Hayot lekin o‘zining yozilmagan qonunlariga ham egadir. Hozirgi bozor siyosatining iqtisodiy qiyinchiliklari ayolga ham, erkakka ham shafqat qilmay qoldi. Tabiatan zukko, teran fikrli, tadbirkor, mushohadali ayollar albatta, tezda vaziyatga tushunib, faoliyatini shunga muvofiqlashtirib, jamiyatni ham, oilasini ham to‘g‘ri yo‘lga kirita oladilar. Zero, ro‘zg‘or yuritish san’ati, tejamkorlik, chuqur mulohaza, oilasi, farzandlariga cheksiz muhabbat, sadoqatli, andisha, ibo kabi xislatlar bilan ayolni tabiatning o‘zi siylagan. Bir donishmand «agarda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojingiz bo‘lsa, ayollarga buyuklik va fazilatni o‘rgatingiz», deb aytgan ekan. Kuzatishlar shu xulosaga kelayaptiki, qaysi oilada ayol farosatli, didli, adolatli-andishali bo‘lib, farzandlariga to‘g‘ri tarbiya bera olsa, farzandlar ma’naviyatli bo‘lib voyaga etadilar. Orifa ayollar farosat va ma’rifat bobida o‘rnak bo‘lishgan. Tasavvuf shayxlaridan biri Sufyon Savriy (vaf. 778 y.) kufalik Ummi Hassonni ziyorat qilib, uning irfoniy tafakkurga yo‘g‘rilgan

[10] Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. 487-bet.

[11] Annemarie Shimmel. Jonon mening jonimda. Islom olamida xotin-qizlar siymosi. Olmon tilidan Yo‘ldosh Parda tarjimasi. – T.: Sharq, 1999.

purma’no majlisida qatnashgan[12] bo‘lsa, Fuzayl ibn Iyoz (vaf. 803 y.) Sha’vona ismli so‘fiy ayoldan duo qilishini so‘ragan[13] .

Ayol islom dini uchun ham faxr hisoblanadi. Sababi birinchi bo‘lib payg‘ambarimiz Muhammad sallolohi alayhisalomga iymon keltirgan va mol-mulkini hech ikkilanmasdan fido qilgan ayol bu Hadicha onamizdir. Birinchi bo‘lib islom dini uchun jonini fido qilgan ayol bu Sumayya raziyalloxu anhu. Birinchi bo‘lib, er yuzidagi eng pok zam-zam suvini ichishga erishgan, Safo va Marva orasida yugurgan ayol Hojar onamiz. Demakki, islomda ham ayolning qadr-qimmati o‘tmish davrlarga borib taqaladi.

Islom dini esa, birinchilardan bo‘lib, ayol kishi ham xuddi erkak kishidek teng asoslarda inson ekanligini e’lon qildi va Qur’oni karimning bir qancha oyatlarida ayolning huquqlarini mustahkamladi. Xususan, Qur’oni karimning 35 ta sura va 100 dan ortiq oyatlarida ayol so‘zining ishlatilishi va suralardan biri aynan «Niso» ya’ni «Ayollar» deb nomlanishi va unda ayolning mavqei, uning hayotdagi o‘rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi, ayollarga bo‘lgan e’tiborning yorqin misolidir.

Ko‘p ming yillik davlatchiligimiz tarixida buyuk namoyandalar, mohir sarkarda va siyosatchi ota-bobolarimiz yonida hamisha oqila, jasur va fidoyi momolarimiz ham yuksak aql-zakovati bilan mamlakat ravnaqiga munosib hissalarini qo‘shib kelgan. Ma’lumki, hozirgi davrda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Lekin ularning barcha sohalardagi samarali mehnati, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hisobga olib aytadigan bo‘lsak, jamiyatdagi o‘rni, O‘zbekistonimiz erishayotgan yutuqlardagi beqiyos hissasini hech narsa bilan o‘lchab baholab bo‘lmaydi. O‘zbekiston tarixida ilk marta ayol kishi Senat raisi bo‘ldi. Uning nomzodini Konstitutsiyaga muvofiq prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan tavsiya qilinishining o‘zi ham prezidentimiz, qolaversa, mamlakatimiz tomonidan ayollarga yuksak ishonch bildirilayotganligining nishonasidir. Nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ham ayollar rahbarlarning salmog‘i anchagina. Juladan; bugungi kunda 55 mamlakat parlamentini ayollar boshqaradi. Tanzila Norboeva bu ro‘yxatda 56 bo‘lib qayd etilgan.

Ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning yurtimiz ravnaqiga qo‘shayotgan hissasi haqida to‘xtalar ekanmiz, xotin-qizlarimizning yurtimizda tinchlik osoyishtalikni saqlash, oilalarni mustahkamlash, jamiyatimizda mehr-oqibat muhitini kuchaytirishdagi o‘rni va ta’siri, chidam va sabr-bardosh, oqilalik va shukronalik kabi fazilatlarini hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo‘lmasligini ta’kidlash o‘rinlidir. O‘zining go‘zalligi va fidoyiligi, mehnatkashligi va

[12] Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulum id-din. Muhabbat, shavq, uns va rizo kitobi. 487 bet.
[13] Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulum id-din. Muhabbat, shavq, uns va rizo kitobi. 485 bet.

bag‘rikengligi bilan bizning yurtimiz ayollari tahsinlarga sazovor desak mubolag‘a bo‘lmas. O‘zbek xalqida xotin-qizlarga yuksak ehtirom ko‘rsatib yashash el-yurtimizga xos azaliy qadriyatga aylangan. Ayolni, onani e’zozlagan yurtning qudrati ortib boraveradi, kelajagi buyuk va nurafshon bo‘ladi.

MOVAROUNNARHLIK MUHADDIS HAKIM AT-TERMIZIYNING NODIR ASARLARI

Akbar Axtamovich Allamov,
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti
“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti.

Saidjon Husenovich Xayrulloyev,
O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi magistranti.
saidjonhusaynzoda@gmail.com

Imom at-Termiziyning to‘liq nomlari Muhammad ibn Iso ibn Savra Muso ibn az-Zahhoq as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug‘iy at-Termiziy bo‘lib, kunyalari Abu Isodir. Hijriy 209 (milodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida o‘rtahol oilada tavallud topganlar. Markaziy osiyolik mashhur tarixchi Abu Sa’d Abdulkarim as-Sam’oniy (1113-1167) Imom at-Termiziyning Bug‘ qishlogida vafot etganliklari uchun Bug‘iy nisbasi bilan ham atalganlari, (ustozlari Imom al-Buxoriyning vafotlari tufayli) ko‘p yig‘laganlaridan umrlarining oxirida ko‘zlari ojiz bo‘lib qolgani va shu bois “Zariyr” laqabini olganlari xususida yozadi.

Imom at-Termiziyning ajdodu ota-onalari haqida aniq ma’lumotlar keltirilmagan, tarixchilar “Bobosi asli marvlik bo‘lib, keyinchalik Termizga ko‘chib kelgan” degan xabarni keltirishadi, xolos. Imom at-Termiziyning ko‘zlari ojizligi xususida ham yozma manba’larda turli-tuman ma’lumotlar mavjud. Ba’zi mualliflar “Ko‘zlari tug‘ma ojiz bo‘lgan” – desa, boshkalari: “Keyinchalik, umrlarining oxirida ko‘zlari ojiz bo‘lib qolgan”, - deyishadi.

Imom at-Termiziy yoshliklarida g‘oyat tirishqoq, idrokli va zakovatli bo‘lib, bu fazilatlari bilan o‘z tengdoshlaridan batamom ajralib turganlar. O‘tkir aql-zakovatlari va ilmga o‘ta chanqoqliklari tufayli o‘sha davrning ko‘pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini mukammal egallaganlar. Yoshlik paytlaridanok Markaziy Osiyoning Termiz, Samarkand, Marv va boshqa yirik shaharlaridagi mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini kunt bilan o‘rgana boshlaganlar. Ulg‘aygach, ya’ni 25 yoshga kirganlarida Islom ilmi talabida uzoq xorijiy mamlakatlarga safar qilganlar. Masalan: Hijoz, Iroq va Xurosonning qator shaharlarida ko‘plab muhaddislar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan ta’lim olganlar, qizg‘in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok qilganlar. Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiyning ta’kidlashicha, Imom at-

Termiziy Misr va Shomda bo‘lmaganlar, shu boisdan ham u kishi u mamlakatlar ulamolaridan bilvosita hadislar rivoyat qilganlar. Imom at-Termiziy uzoq yillar davom etgan safarlari chog‘ida ham ilm bilan bir qatorda ilm al-qiroat, al-bayon, Fiqh, tarix kabi fan sohalari bo‘yicha ham ko‘plab ustozlardan saboq olganlar. Ammo ul kishi asosiy e’tiborlarini Payg‘ambar alayhissalomning hadislarini to‘plab o‘rganishga qaratganlar. Imom at-Termiziyga bu borada Imom al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud, Qutayba ibn Sa’iyd, Is’hoq Ibn Muso, Mahmud ibn G‘iylon, Sa’iyd ibn Abdurahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar al-Marvaziy, Ahmad ibn Muniy’, Muhammad ibn al-Musanno, Sufyon ibn Vaqiy’ kabi allomalar ustozlik kilishgan. Keyinchalik, Imom at-Termiziyning o‘zlari ham ko‘pgina shogirdlarga ustozlik qilganlar. Makxul ibn al-Fasl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad an-Nasafiy, Hammod ibn Shokir, Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abul-Abos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiy kabilar shular jumlasidandir.

Imom at-Termiziyning zehnlari o‘tkir va quvvai hofizalari kuchli bo‘lgani haqida tarixiy manba’larda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Masalan: arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning “Tazkirat al-hufoz” (“Hofizlar haqida tazkira”) nomli asarida bunday deyilgan: “Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganlarida yo‘l-yo‘lakay ko‘plab mashhur muhaddislar bilan uchrashib, ularning biridan hadis ilmidan saboq bermog‘ini iltimos qiladilar, shunda ul kishi: “Mayli, qo‘lingizga qog‘oz-qalam olingiz!” – degan. Aksiga olib, shu payt at-Termiziy qalam topa olmaganlar-da, olim ro‘parasida o‘ltirib, eshitgan hadislarini go‘yo yozib olayotgandek qog‘oz ustida qo‘llarini harakat qildiraverganlar. Olim esa bundan bexabar, yetmishga yaqin hadis rivoyat qilgan. Nogahon, olim qog‘ozga qarab, unda hech qanday yozuv yo‘qligini ko‘rganda, at-Termiziyning bu ishlaridan jahli chiqib: “Nima, sen meni bekorchi deb uylading” – deb o‘shqirgan. At-Termiziy bo‘lsalar, bamaylixotir: “Siz aytgan hadislarni yoddan aytib beraymi?” – deb, hozirgina eshitgan hadislarining hammasini birin-ketin aynan aytib berganlar. Shunda boyagi olim at-Termiziy quvvai hofizalarining bag‘oyat kuchli ekanidan hayratlangan ekan. Bu xususida Imom at-Termiziyning o‘zlari quyidagicha hikoya kiladilar: “Bir shayx to‘plagan hadislarning ikki qismini yozib olgan edim, Makkaga ketayotib o‘sha shayx bilan uchrashmog‘imga to‘g‘ri kelib qoldi. U haqda so‘rab-surishtirgan edim, qaerdaligini aytishdi. Keyin, men uning xuzuriga yo‘l oldim. Ilgari unda o‘zim yozib olgan hadislar yonimda deb uylagan edim, o‘rniga yanglishib boshqa hadislarni olgan ekanman. Shu bois men mazkur hadislarni yana aytib bermog‘ini iltimos qildim. U rozi bo‘lib o‘sha hadislarni yoddan hikoya qila boshladi. Keyin menga qarab, qo‘limdagi qog‘ozga hech narsa yozmaganimni ko‘rgach: “Bu qilig‘ing uchun mendan uyalmaysanmi?” – dedi, (Chunki, qalamimni

tushirib qo‘yganim uchun). Men uzur aytib: hadislarning hammasini yoddan bilaman”, - dedim-da, birin-ketin barchasini so‘zma-so‘z aytib berdim. Shunda shayx so‘zlarimga ishonmay: “Nima, mening huzurimga kelishdan oldin ularni maxsus yodlagan edingmi?” – dedi. Men: “Yo‘q, unday emas, agar so‘zlarimga ishonmasangiz, boshqa hadislardan ayting!” – dedim. Shayx o‘zi bilgan hadislardan yana qirqtasini hikoya qildi. So‘ng men ularni ham boshidan oxir birma-bir aytib berdim. Shayx hayratomuz: “ Sen kabi xotirasi kuchli kimsani sira ko‘rmaganman”, - dedi.

Imom at-Termiziy xorijiy mamlakatlarga qilgan safarlari chog‘ida ilmi hadisdan saboq olish bilan birga, hadislarni to‘plab, kitoblar ta’lif qilishga ham kirishadilar. O‘z yurtlariga qaytgach, mahalliy olimlar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadilar, ko‘plab ilm toliblariga ustozlik qiladilar. Imom at-Termiziyning ko‘pchilik tasniflari, jumladan “Al-Jome’” ham o‘z vatanlariga qaytganlaridan keyin yaratilgan. Imom at-Termiziy 892 yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida vafot etib, shu yerga dafn qilinganlar.

“Al-Jome’” asari

Bu kitob Imom at-Termiziyning eng yirik va ahamiyatli asarlari bo‘lib, u “Al-Jome’ as-sahih”, “Al-Jome’ al-Kabiyr”, “Sahih at-Termiziy”, “Sunan at-Termiziy” nomlari bilan ham ma’lum. Tarixchi Ibn Hajar al-Asqaloniyning yozishicha, Imom at-Termiziy bu asarni 270 xijriy (884 melodiy) yilda, ya’ni qariyb oltmish yoshlarida yozib tugatganlar. Uning qo‘lyozma nusxalari dunyoning bir qancha shaharlarida, jumladan Toshkentda O‘zbekiston Fanlari akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. U Qohira va Bayrutda bir necha marta nashr qilingan.

Tarkibiy jihatdan bu asar tahorat, salot (namoz), zakot, ro‘za, haj, janoza, nikoh, emizish, taloq, savdo-sotiq, qoziliya ahkomlari, tovon to‘lash, me’yor, ov, qurbonlik, nazr, iymon, siyrat, jihod, libos, taomlar, ichimliklar, hayr-ehson, saxovat, tabobat, farzlar, vasiyatnomalar, xayrixohlik, taqdir, xuruju fitnalar, bashoratlar, shahodatlar, zohidlar, jannat sifatlari, jahannam sifatlari, ilm, izn so‘rash, odob, masalalar, Qur’on fazilatlari, qiroat, tafsir, duolar, manoqiblar (fazilatlar), illatlar haqidagi boblardan iborat.

Imom at-Termiziy har bir bobga (mavzuga doir bir yoki bir necha hadisni keltirgach, boshqa ulamo-yu faqihlarning o‘sha hadis yoki hadislar xususidagi fikrlarini bayon qiladilar, shundan keyingina bu haqda uz fikrlarini aytadilar. Bu asar uzoq izlanishlar va bahsu muhokamadan keyin mo‘min-musulmonlarga havola qilingan bo‘lib, Imom at-Termiziy bu xususda o‘zlari: “Al-Jome’”ni yozib tugatganidan so‘ng, uni Hijoz, Iroq va Xuroson olimlariga ko‘rsatdim. Shunda ular uni katta mamnuniyat bilan ma’kul topdilar. Chindan ham kishining uyida bu kitob

bo‘lsa, o‘sha uyda guyoki Payg‘ambar alayxissalomning o‘zlari so‘zlayotgandekdir, deydilar. Mashhur olim Toshkubriyzoda Imom at-Termiziyning ijodlariga yuqori baho berib, bunday deydilar: “Imom at-Termiziyning hadis ilmi sohasida ko‘plab tasnifotlari bor. “Al-Jome’” ularning eng yaxshisi va g‘oyatda foydalisidir. Bu asarni mutolaa qilgan har bir kishiga uning qadr-qimmatli ekanigi maxfiy qolmaydi”. Bundan tashqari juda ko‘p zamondosh va keyin yashab o‘tgan taniqli muhaddislar at-Termiziyning hadis ilmi sohasidagi ulkan xizmatlarini yuqori baholaganlar. Hadis ilmi imomlaridan biri Abdurrahmon ibn Muhammad al-Idrisiy: “At-Termiziy hadis ilmida iqtido qilinadigan imomlardan biridir” – deb yozsa, Takiduddin Taymiya: “Abu Iso at-Termiziy birinchilardan bo‘lib hadislarni sahih, hasan va zaif guruhlarga ajratgan olimdir” – deb, guvohlik beradi.

Shuni kayd etish zarurki, Imom at-Termiziyning bu asarlarida hadis ilmining turli masalalari bilan bir qatorda, roviylar masalasiga ham alohida e’tibor berilgan. Bu jihatdan u katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molikdir. Kitobda sahih (to‘g‘ri) hadislar bilan bir qatorda hasa, zaif va illatli hadislar ham keltirilgan. Kitobning ushbu foydali tomonlari xususida Al-Hokim an-Naysoburiy va al-Muqaddasiy o‘z asarlarida alohida ta’kidlab o‘tganlar. Shu bilan birga hadis ilmining istilohlarini yaratishda ham Imom at-Termiziyning xizmatlari katta bo‘lib, hadis ilmiga doir istilohlarni o‘rganishda asosiy manba’ hisoblangan “Ulum al-hadisin” (Hadis ilmlari”) kitobida uchraydigan istilohlar Imom at-Termiziyning “Al-Jome’” asarida mavjud.

“Ash-Shamoil An-Nabaviya” asari

At-Termiziyning boshqa bir yirik asarlari – “Ash-Shamoil an-nabaviya” ba’zi manba’larda “Ash-Shamoil fi shamoil an-nabiy sallalohu alayhi va sallam” va “Ash-Shamoil al-Muhammadiya” nomlari bilan bu asar Payg‘ambar alayhisalomning qiyofalari, siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to‘rt yuzu sakkiz hadisi sharifni o‘zida jamlagan qimmatli manba’dir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki ushbu mavjud, ya’ni Payg‘ambar alayhissalomning fazilatlari, odatlari haqidagi hadislarni to‘plash bilan juda ko‘p olimlar, muhaddislar shug‘ullanganlar va bu xildagi hadislar turli tuman kitoblardan o‘rin olgan. Lekin, at-Termiziyning “Ash-Shamoil an-nabaviya nomli asarining afzalligi va farqi shundaki, unda Payg‘ambar alayhisallomning fazilatlariga doir barcha hadislar mantiqiy izchil tartibda joylashtirilgan va u o‘ziga xos alohida kitob shaklida tasnif qilingan. “Ash-Shamoil an-nabaviya” ning tili oddiy va ravon, uslubi g‘oyatda soddadir. U fors va turk tillariga tarjima kilingan. At-Termiziyning ushbu asariga sharh yozgan shayx Ibrohim al-Bojuriy: “Imom at-Termiziyning “Ash-Shamoil an-nabaviya” asari o‘z bobida yakkayu-yagonadir. Tartibi va o‘z ichiga olgan mavjulari jihatidan nodir kitoblar jumlasiga kiradi. Uning ovozi Mag‘ribu Mashriqqa borib yetdi”, - deb

ta’kidlaydi. Mashhur olim Ali ibn Sulton al-Hiraviy al-Qori’ o‘zining “Jam’ ul-vasoil fi sharh ash-shamoil” nomli sharhida at-Termiziyning mazkur asarlari xususida bunday deb yozadi: “Rasulullox sallalloxu alayxu va sallamning fazilatlari, axloqlari haqida bitilgan musannafotlarning eng chiroyli va yaxshisi Imom at-Termiziyning Payg‘ambar alayhissalom siyratlari haqidagi mukammal va muxtasar kitobidir. Bu kitobni mutolaa qilguvchi Janob Payg‘ambarni qurgandek va ul zotning har bobdagi muxosini shariflaridan bahramand bo‘lgandek bo‘ladi”. Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, bu asarning Sayyid Mahmud Taroziy tomonidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi Toshkentda 2 marta nashr kilindi.

“Ash-Shamoil an-nabaviya” ellik olti bobga bo‘lingan bo‘lib, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ikki asosiy qismdan iborat. Birinchi qismda Payg‘ambar alayhissalomning qiyofalariga doir hadislar, ikkinchi qismida esa ul zotning siyratlari haqidagi xadislar bayon qilingan. Payg‘ambarimiz alayhissalomning yuksak insoniy fazilatlari, go‘zal xulqlari haqidagi hadisiy shariflar to‘plami bo‘lmish bu nodir kitob xalqimizni ma’naviy kamolot cho‘qqisiga olib chiqishda behad ahamiyatlidir.

“Ash-Shamoil an-nabaviya” yozma nusxalari O‘zbekiston Musulmonlari diniy boshqarmasi kutubxonasi va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

ISLOM DINING TARQALISHI VA MADRASA TA`LIMI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY MADANIY HAYOTGA TA`SIRI.

Rajabov Alisher Shavkatovich,
Buxoro davlat Pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti.

Islom dinining O’rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablar ko’p asrlik hukmronligining o’rnatilishi bilan bog’liq. O’rta Osiyoga arab yurishlari qariyb 643-644 yil atroflarida boshlangan bo’lsa ham, o’lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so’ng faqat arab qo’mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo’lishi oqibatida O’rta Osiyo ikki qismga bo’lindi: 1) Movarounnahr («Ikki daryo oralig’i») va 2) Arodi at-turk («Turklar erlari», ya’ni arablarga bo’ysunmagan hukmdorlar erlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi.Movarounnahrning islomlashuviga quyidagi ikki omil bevosita o’z ta’sirini o’tkazdi. Abu Muslim (747-755) qo’zg’oloni davrigacha O’rta Osiyo islomdan oldingi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) o’z mavqelarini saqlab

turdilar. Jumladan, ular mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig’ish vazifalarini bajardilar. Umaviy hukmdorlari mamlakat ichki ishlariga bevosita aralashmasdan, mahalliy sulolalardan o’lpon olish bilan cheklanardilar. Ba’zida bu o’lpon mahalliy aholidan yig’ilgan jizya (boshqa din vakillaridan yig’iladigan soliq) sifatida qabul qilinar edi. Bu esa keyinchalik islom dinini qabul qilgan aholidan oddiy soliq yoki jizya yig’ish masalasida chigallikning kelib chiqishiga sabab bo’ldi. Ikkinchi omil Umaviylar davrida (661-750) arablarning mahalliy aholi tarafidan islom dinini qabul qilishga monelik qilishlari bilan bog’liqdir. Chunki arablar ilk davrda talay imtiyozlarga ega edilar. Bu davr qoidalariga ko’ra, islom dinini qabul qilgan kishi «arab»ga aylanar, ya’ni jamiyatda arablar kabi imtiyozlarga ega bo’lardilar.Bu holda mahalliy musulmonlardan jizya olmaslik, arab va arab bo’lmagan musulmonlarning teng huquqliligi uchun kurash olib borgan islom dini ichidagi murji’iylar diniy-siyosiy harakat g’oyalari Movarounnahrda keng tarqalish imkoniyatlariga ega bo’ldi. Chunki o’lkada arab bo’lmagan musulmonlarning haq-huquqlari arablar tomonidan poymol etilardi. Murji’iylarning faol harakatlari VII asrning 20-40 yillariga to’g’ri keladi. Murji’iy al-Horis ibn Surayj qo’zg’oloni (734-746) Movarounnahr aholisi tarafidan qizg’in qo’llab-quvvatlandi. I/VII asrda shakllana boshlagan murji’iylarning aynan imon va amalning ayri-ayri ekanligi haqidagi qarashlari bu hududda erli aholining hech bir qiyinchiliksiz islomni qabul qilishlariga, shuning barobarida, yangi shakllanayotgan islom jamiyatida teng huquqlilikka erishishlariga qulay sharoit yaratib berdi; keyinchalik esa – ular garchi arab tilini, qiyin diniy amallarni, o’zlariga butkul yot muhitni to’la anglab etmasalar-da, ijtimoiy mavqelari va milliy-madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo’ldilar. Abu Muslim (749 yil) harakati g’alabasi oqibatida arab bo’lmagan musulmonlarning arablar bilan teng huquqlilikka erishishi natijasida murji’iylik g’oyalari siyosiy-ijtimoiy sohadan ilohiyot fani jabhasiga ko’cha boshladi.G’arbda Shom va Misrning Sharqda Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlarining islom ta'siriga o’tishi Yangi tamaddun shakllanishini tezlashtirdi. Zero, bu mamlakatlarda ma'naviy madaniyat, ayniqsa, ilm-fan, adabiyot va san'at hamda iqtisodiyot, savdo-sotiq, hunarmandchilik va siyosiy institutlar Xijozga nisbatan ancha rivojlangan va qadim an'analarga ega edi. Arab xalifaligi bu borada o’z tarkibiga kirgan mamlakatlarda ilgari erishilgan yutuqlarning ko’pchiligiga voris bo’ldi. Ular islom mafkurasiga moslashtirilib Yangi tamadduning asosiga qo’ydi.Islom tamadduning shakllanishi va ravnaq topishiga bizning ajdodlarimiz ham munosib hissa qo’shdilar. Bu moddiy madaniyatning dehqonchilik, chorvachilik tarmoqlarning ba'zi sohalarga, geodeziya, er o’zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya, sug’orish inshootlari qurish, shaharsozlik bilan bog’liq ayrim yutuqlarga tegishli. Ipakchilik, paxtachilik,

to’qimachilik, polizchilik, bog’dorchilik, qishloq xo’jaligi va chorvachilik maxsulotlarini qayta ishlash bo’yicha ajdodlarimiz to’plagan tajriba, shuningdek parvarish qilinadigan o’simliklarning ba'zi turlari arab mamlakatlariga tarqaldi.Davlat boshqaruv va harbiy san'atni rivojlantirishga ham ajdodlarimiz qo’shgan hissa benihoya katta. X asr oxiridan boshlab XVII asrgacha islom mamlakatlarining aksariyati (aholisi turkiy bo’lmaganlari ham), ayrimlarini esa XIX-XX asrgacha turkiy sulolalar boshqargan, Mahmud Gaznaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk sarkardalar bobokalonlarimiz orasidan chiqqani buning dalilidir. Somoniylar, Gaznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlarning davlat tizimi, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”si, Temurning «Tuzuklar»i, Temur va temuriylar davrida er, mulk munosabatlari, suvdan foydalanish tartibi, bojxona va soliq tizimi, savdo yo’llarining, bozorlarning davlat himoyasida bo’lishi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi davlat vazifalarini kengayishiga va takomillashuviga xizmat qildi.Islom ilmi birdaniga etuk holda shakllanib qolmagan. Muhammad payg’ambar (s.a.v) vafotidan keyin bir oz muddat o’tkach, islomning asosi bo’lmish Qur'oni Karimni kitob holatiga keltirib, unga tartib berish, so’ngra Qur'onga, payg’ambar ko’rsatmalariga muayyan misollar bo’yicha bildirilgan fikrlar, mulohazalari, amaliy qarorlariga tayanib, islomiy dunyoqarashni hamda islom ibodati, axloq huquq me'yorlarini, ya'ni shariatni va fiqhni yaratish zarurati tug’ildi.Islom bizga etib kelib, bir ikki avlod davomida xalq ongida mahkam o’rnashgunga qadar, Qur'onga tartib berilgan fiqh maktablari (mazxablar), shariatning ko’pchilik me'yorlari belgilangan va jadal sur'atlarda rivojlanishi, boyishi, takomillashuvi davom etmoqda edi. Bu davrda islom olimlarining asosiy e'tibori payg’ambar hadislarini to’plab, ular negizida ibodat, axloq va huquq, ya'ni shariat masalalarini yoritishga qaratilgan edi.Yuksak madaniy, ilmiy-intellektual salohiyatga ega bo’lgan Markaziy Osiyo xalqlari islomni qabul qilgach, ular orasidan etishib chiqqan olimlarning bir qismi islom ilmini rivojlantirish bilan shug’ullana boshladi va ulardan eng buyuklari o’z sohalarida etakchi o’rinlarga chiqib oldi.

ISLOM DINING ASOSIY QOIDALARI, URF ODATLARI AN’ANALARI VA ULARNING MADANIY HAYOTDAGI O‘RNI

Behzod DEHQONOV,
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti
“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd)

Shahnoza SULTONOVA,
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti
“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Islom dini nafaqat e’tiqod va ibodat tizimi, balki inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi muhim qadriyatlar majmuasidir. U insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy pokligi va jamiyatdagi munosabatlarini tartibga soluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Islomiy qoidalar, urf-odatlar va an’analarning shakllanishi asrlar davomida jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida katta rol o‘ynagan. Ushbu maqolada Islom dinining asosiy qoidalari, uning urf-odat va an’analari hamda ular madaniy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashuvi va milliy madaniyat bilan bog‘liqligi ham yoritib beriladi.

Diniy marosimlar - fuqarolarning diniy ta’limotlardan, ularning qonunqoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari. Diniy e’tiqod, ibodatning amaldagi ko‘rinishidir. Barcha dinning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Diniy tasavvur va sig‘inishlar orqali vujudga kelgan. Qadimda odamlar g‘ayritabiiy kuchlarga turli marosimlar orqali ijobiy yoki salbiy ta’sir etish mumkin deb hisoblaganlar. Diniy marosimnini bajarishda kohinlar, keyinchalik ruhoniylar boshchilik qilgan. Ular o‘z marosimlarini asta-sekin muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojiga moslagan. Islom dinida aqiqa, amri maruf, xatna, ro‘za tutish va ramazon hayiti, qurbonlik qilish va qurbon hayiti, namoz, haj, janoza, sunnat, nikoh, dafn va b. marosimlar bor. Yahudiylikda — ibodat, shanba kuni, tug‘ilish, liniy balog‘at, nikoh va dafn marosimlari alohida o‘rin tutadi. Xristian dini marosimlari misteriyalar (qad. dinlarning maxfiy marosimlari) ta’sirida shakllangan va asosan Iso Masiq shaxsi bilan bog‘liq. Xristianlikdagi pravoslav va katoliklar etti sirli marosim — cho‘qintirish, non va vino totish, xushbo‘y moy surish, badanni yog‘lash, nikoh, tavbatazarru va kashishlik (rohiblikka qabul qilish)ni tan oladilar.

Protestantlar esa faqat cho‘qintirish, non va vino totish marosimini e’tirof qiladilar. Buddizmda ertalabki va kechki ibodat, monaxlarga oziq-ovqat keltirish, tiyilish kuni, dunyoga kelish va balog‘at eshini nishonlash, nikoh, yangi uyga ko‘chish, ajdodlarni xotirlash va dafn marosimlari mavjud.Diniy marosimlar, insonlar uchun muhim bo'lgan va ularning hayotida ahamiyatli o'rin tutgan

marosimlardir. Bu marosimlar, bir necha millat va dinlarda o'ziga xos adabiyoti, adablari, ibodatlari va rasmiga ega bo'lishi bilan tanish bo'lishi mumkin. Bu marosimlar, insonlarning ruhiy hayotida ham muhim o'rin tutadi va ularning rag'batlari va qiziqishlari bilan aloqada bo'lishadi.

Diniy marosimlar, bir ummat yoki dinning ahamiyatli tadbirlari va bayramlari hisoblanadi. O'zbek xalqida ham bu tadbirlar va bayramlar muhim o'rin tutadi. Bu marosimlar o'zining tarixiy, madaniy va diniy ko'rsatmalariga ega. Ramazon oyining boshlanishi, musulmonlar uchun eng muhim oy hisoblanadi. Bu oyda roza tutiladi va diniy tadbirlar o'tkaziladi. Ramazon oyining boshlanishi, Islom dinining hijriy yilining birinchi oyining boshlanishiga to'g'ri keladi. O'zbek xalqida ham bu oyga katta e'tibor beriladi va iftorlik tadbirlari o'tkaziladi.Bayramlar ham o'zbek xalqining hayotida muhim o'rin tutadi. Qurbonlik bayrami, Eid al-Fitr va Eid al-Adha kabi bayramlar ham o'zbek xalqida kutlanadi. Qurbonlik bayrami, qurbonga qurban kesilishi va uning go'shtini qo'shni bilan taqsimlashiga asoslangan bayramdir. Eid al-Fitr esa Ramazon oyining tugatilishiga bag'ishlangan bayramdir. Bir boshqa muhim diniy tadbir, hajj hisoblanadi. Hajj, musulmonlar uchun besh marta farz bo'lgan yagona ibodat hisoblanadi. Bu tadbir Makkaga safar qilish va umrani bajarishni o'z ichiga oladi. Hajj, Islom dinining eng katta tadbirlaridan biri hisoblanadi va dunyo bo'ylab musulmonlar tomonidan kutlanadi. O'zbek xalqi o'zining milliy bayramlari ham kutlaydi. Navro'z bayrami, O'zbekiston Respublikasi ramzlari va bayrog'i kabi milliy belgilarga ega bo'lgan bayram hisoblanadi. Bu bayramda bahor kelishini va yangi hayotga boshlashni kutlash uchun ko'plab tadbirlar o'tkaziladi.Boshqa milliy bayramlar, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kuni ham O'zbekiston xalqining kutlamalari orasida joy olishadi. Diniy va milliy tadbirlar o'zbek xalqi uchun ahamiyatli o'tkaziladi va ularning har biri tarixiy, madaniy va diniy ko'rsatmalar bilan bog'liq bo'ladi. Bu tadbirlar o'zbek xalqining hayotida muhim o'rin tutadi va ularni kutlash, o'rganish va boshqa insoniy qadrlarni ko'zdan kechirish uchun fursatlar yaratadi. O'zbekiston xalqi, boshqa mamlakatlarda kutlanadigan bayramlarga ham qatnashadi. Masalan, Yangi Yil, Xristianlar tomonidan qutlanuvchi bayram hisoblanadi. Shu bilan birga, Xitoy yangi yilini ham qutlaydi va bu bayramning o'ziga xos tadbirlari mavjud.O'zbekiston xalqi, milliy sport tadbirlarini ham yoqtiradi. Masalan, Oliy Ligada o'yinlar o'tkaziladi va futbol, basketbol, voleybol va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Bu tadbirlar, sportning tarqalishiga va milliy sportchilarimizning rivojlanishiga yordam beradi.O'zbekiston xalqi, san'at tadbirlariga ham qiziqadi. Masalan, Sharq Taronalari festivali, O'zbekiston va dunyo bo'ylab mashhur hisoblanadi. Bu festivalda musiqachi va raqschi kabi san'atkorlar ko'plab mamlakatlardan kelib o'tadilar va ularning ijodiy

ishlarini ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi. Barcha bu tadbirlar, O'zbekiston xalqining insoniy qadrlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular tarixiy, madaniy va diniy ko'rsatmalar bilan bog'liq bo'lib, O'zbekiston xalqining milliy identitetini saqlashga yordam beradi. Bu tadbirlar o'zbek xalqining hayotida muhim o'rin tutadi va ularni kutlash, o'rganish va boshqa insoniy qadrlarni ko'zdan kechirish uchun fursatlar yaratadi. O'zbekiston xalqi, milliy bayramlarini ham yoqtiradi. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro'z va Ramazon hayit bayramlari ham xalqimiz tomonidan kutlanadi. Bu bayramlar, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida rivojlanishini, milliy madaniyatini va tarixini yoritadi. O'zbekiston xalqi, xayriya tadbirlariga ham qatnashadi. Masalan, Ramazon oyida xayriya tadbirlari o'tkaziladi va ko'p kishi xayrda ishtirok etadi. Bu tadbirlar, insoniylik va xayriya ruhini rivojlantirishga yordam beradi.Diniy marosimlar, insonlar uchun butun dunyoda ko'p yillar davomida ahamiyatli bo'lgan va ularning hayotida muhim o'rin tutgan marosimlardir. Bu marosimlar, bir necha millat va dinlarda o'ziga xos adabiyoti, adablari, ibodatlari va rasmiga ega bo'lishi bilan tanish bo'lishi mumkin. Misol uchun, Islomda Ramazon oyida iftorlik, tajriba qilish va qurbon bayramlari kabi marosimlar mavjud.Bu marosimlar, insonlarning ruhiy hayotida ham muhim o'rin tutadi va ularning rag'batlari va qiziqishlari bilan aloqada bo'lishadi. Bu marosimlar, insonlarga bir-biriga yaqinlashish, xayrlashish va do'stlarni kutlash imkoniyatini beradi. Bu marosimlar, insonlar uchun bir-biriga qarshi hurmatni o'rgatadi va ularning jamiyatdagi o'rinini yuksaltadi.Bundan tashqari, bu marosimlar, insonlar uchun salomatlik, xayrli kasblar va baraka olib kelishi mumkin. Bu marosimlar, insonlarga hayotda qanday yashash kerakligini o'rgatadi va ularning maqsadli hayoti uchun qo'llaniladigan qoidalarni ta'lim etadi.Lekin, avtomatik tizimda ishlaydigan dastur tuzuvchilari kabi, bu marosimlarga qatnashishni bilmaydigan insonlar ham bor. Bu insonlar, ularning jamiyatdagi o'rinlarini kamaytirishi mumkin va ularning o'zlariga xos hayotlarini yo'q qilishi mumkin.Shuning uchun, diniy marosimlarga qatnashishning muhimligi va ularning insonlar uchun ahamiyati haqida bilish kerak.

Islom dinining asosiy qoidalari va urf-odatlari nafaqat diniy hayotni, balki madaniy va ijtimoiy jarayonlarni ham chuqur belgilaydi. Ushbu qadriyatlar jamiyat barqarorligini ta’minlash, axloqiy me’yorlarni shakllantirish va milliy madaniyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Islom an’analari oilaviy qadriyatlar, xayriya ishlari va jamiyat birdamligini mustahkamlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.Bundan tashqari, Islom dini turli xalqlarning urf-odatlari va an’analariga singib, ularning milliy madaniy merosi bilan uyg‘unlashgan. Bu esa Islom qadriyatlarining universal va barqaror ekanligini tasdiqlaydi. Globalizatsiya sharoitida Islom urf-odatlari zamonaviy hayot talablariga mos ravishda shakllanib, ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Kelgusida ushbu

mavzuda yanada chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish, ayniqsa, zamonaviy jamiyatda Islom qadriyatlarining o‘zgarish dinamikasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

HAKIM TERMIZIY “XATM UL-AVLIYO” ASARINING TASAVVUFIY TAHLILI VA UNDA VALIYLIK MASALASI

Xaitov Lazizbek Azamatovich
BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
falsafa.phd.1991@mail.ru

Diniy va dunyoviy fanlarning yirik bilimdoni mutasavvif va muhaddis, faylasuf va psixolog Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Xasan ibn Bashir ibn Xorun al Hakim at-Termiziy (820-932) Termizdan etishib chiqgan, uni butun dunyoga mashhuri jahon qilgan zabardast olimdir.

Al-Hakim at Termiziy diniy va dunyoviy fanlarga oid 400 dan ortiq asarlar muallifi bo’lib, bizgacha uning 60 ga yaqin asarlari etib kelgan. U ko’plab asarlar muallifi lekin uning shuhrati boshqa sohalardan ko’ra tasavvufda ko’proq namoyon bo’ldi. Mutasavvifning eng mashhur asari “Xatm ul-avliyo” ham tasavvufga bag’ishlangandir.

Tasavvuf tarixida “xotam al-avliyo” iborasini birinchi marta Hakim Termiziy qo‘llab, Qur’oni karimdagi “...Va xotam un-nabiyyin”[14] (“...payg‘ambarlarning muhridir”) oyatiga muvofiq, “Nabiylarning xatmi (muhri) bo‘lgani kabi valiylarning ham xatmi bor va valoyat olamidagi “Xotam al-avliyo” nubuvvat olamidagi “Xotam al-anbiyo” kabidir”, degan fikrni ilgari surgan. Bu haqda o‘zining “Xatm al-avliyo” (“Valiylarning muhri”)[15] nomi bilan mashhur – “Sirat al-avliyo” asarini yozgan.

Hakim Termiziy “Xatm al-avliyo” asarida valoyatning o‘n xususiyati, vahiy, ilhom, karomat, farosat, qurb mavzulariga alohida to‘xtalib, haqiqatga etishishda ilm va aqldan tashqari yana bir ilohiy narsa – valiylik ham borligini bir necha o‘rinlarda ta’kidlab o‘tgan. Bu asar shayx va murid o‘rtasida bo‘lib o‘tgan savol-javob tarzida yozilgan bo‘lib, muqaddima va quyidagi 29 fasldan iborat:

1. Haqqulloh valiyligi. 2. Xudoning da’vati va bandaning ijobati. 3. Haqqulloh valiyligi va valiyulloh. 4. Ruhoniy savollar. 5. Avliyo va anbiyo ilmi. 6. Valiyulloh

7. Valoyatning o‘n xususiyati. 8. Xotam al-avliyo va xotam al-anbiyo. 9. Nubuvvat va valoyat. 10. Valiylar alomatlari. 11. Shaytoniy xavotirlar va nasxi ilohiy. 12. Ahl al- qurba (muqarrablar). 13. Xotam al-avliyo. 14. Bashorat. 15. Qur’on va ruh. 16. Mo‘minlar va valiylar tafakkuri. 17. Valoyat va nubuvvat

[14] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004 y. 423-b
[15] Uvatov U. Ikki buyuk donishmand. – T.: Sharq, 2005. – B. 63

o‘rtasidagi ahd. 18. Avliyo ahvolini inkor etuvchilar. 19. Valoyat, saodat, muhabbat. 20. Valiy va gunoh. 21. Valiy va ilohiy sirlar. 22. Hidoyat etilgan va tanlangan insonlar. 23. Vaqt va jazba. 24. Majzub. 25. Xotam al-avliyo. 26. Soxta avliyo. 27. Yaxshi va yomon davlat. 28. Din ahli. 29. Amallar va darajalardir va unda o’rtaga tashlangan masalalar savol -javob shaklida bayon etilgan.

“Xatm ul avliyo” asarida valiylik masalasi, bir tomondan so’fiylikning markaziy masalasi sifatida yoritilsa, ikkinchi tomondan islomiy aqidaning muhim unsurlaridan biri sifatida talqin qilingan.

Tasavvuf nazariyotchilari ham valiylikni kengroq ma’noda ikki turga bo’lishgan. 1) Avom kishilar valiyligi yoki umumiy valiylik (valoyati omma)-barcha mo’minlarga xos bo’lgan valiylik (mo’minlar xudoning valiylari, ya’ni do’stlaridir, degan qarash asosida). Mo’minlar ommasining valiyligi ular tomonidan iymonda sobit qolish va shariat ahkomlaridan rioya qilinishi bilan belgilanadi. 2) Xos kishilar valiyligi yoki xususiy valiylik (valoyati xossa)-xudo xoslashtirgan, saylab olgan va siylagan kishilarga-xos kishilarga xos bo’lgan valiylik. Xos kishilarning valiyligi ularning zohir va botinda xudoga xilof biror ish qilmasliklari, faqatgina xudoga mashg’ul bo’lishlari (faqatgina xudoga qarash, xudoni eshitish, xudodan umid qilish, xudodan qo’rqish va xudo bilan b’lishlari), natijasida o’z sifatalari va irodalaridan ajralib, xudoning sifatlari va irodalariga qoyim bo’lishlari, shunda ulardan o’zlarining emas, balki xudoning iroda qilgan narsalari sodir bo’lishi bilan belgilanadi.

Boshqacha qilib aytganda, so’fiylar nazdida umumiy valiylik shariat ahkomlariga rioya qilib yurgan barcha musulmonlarga, xususiy valiylik esa faqatgina so’fiylarga xosdir.

Al-Hakim at Termiziy ham “Xatm ul avliyoda” valoyatni ikki tur (valoyati omma va valoyati xossa)ga, valiylarni[16][3.10] ham ikkiga avliyo haqquloh (Haqquloh valiylari, Ollohning haq valiylari) va avliyoulloh (Ollohning valiylari)ga ajratadi, Haqquloh valiylari deganda barcha mo’minlar, shariat ahkomlariga rioya qiladigan barcha kishilar, Ollohning valiylari deganda esa xos kishilar nazarda tutiladi.

Hakim Termiziy valiylik masalasini batafsilroq tasniflar ekanlar, valiylar quyidan yuqoriga qarab boradigan quyidagi to’rt tabaqaga bo’linadi: [3.10] 1.Sodiqun (sodiqlar), 2.Axror al-kirom (ulug’ xurlar, ulug’ ozodlar) 3.Siddiqun (siddiqlar), 4.Munfarid (yagona). Aytib o’tish lozimki, ushbu tabaqalardan birinchisi yoki eng quyidagisi bo’lmish sodiqlar tabaqasida turgan kishi Haqqulloh valiylari, qolgan uch tabaqa vakillari esa Ollohning valiylari jumlasiga kiradilar.

[16] Al Hakim at-Termiziy. “Xatm ul-avliyo”(Valiylar-muhri) Tarjimon:Komiljon Raximov Noshir nashriyoti Toshkent-2017.B-10

Hakim Termiziy e’tiqodlaricha, Ollohning valiysi har biri mulk (podshohlik, mamlakat, yurt) deb atalmish quyidagi o’n bosqichni bosib o’tgandan so’nggina xatm ul-valoyat (valiylikni so’ngiga etkazuvchi) darajasiga erishadi: Jabarut (kuch-qudrat) mulki, Sulton (hukmronlik) mulki, Jalol (xashamat) mulki, Jamol (go’zallik) mulki, Azamat (ulkanlik) mulki, Xaybat (xayiqish) mulki, Rahmat (kechirimlilik) mulki, Baho (yarqirash) mulki, Baxjat (quvonch) mulki, Fardoniyat (yagonalik) mulki.

Hakim Termiziy “Xatm ul-avliyo” bu to’g’risida shunday deydi. “ {Valiy} qachonki biror mulkka o’tmoqchi bo’lsa, unga o’sha {Mulkka berilgan} nom beriladi. Nihoyat, bu mulkllarning barchasidan fardoniyat mulkiga o’tgan kishi Ollohga xos bo’lgan o’sha ismlardan barcha nasibalarni olgan kishi bo’ladi. Bunday kishi o’z Parvardigori tomonidan o’sha ismlardan nasibalar olish ko’rinishida bahramand qilingan va valiylarning peshvosi bo’lgan kishi bo’lib, Parvardigori tomonidan ato etiladigan xatm ul-valoyat uning uchun bo’ladi.”

Al-Hakim at-Termiziy ta’kidlashlaricha, valiylikni inkor qilgan kishi kofir bo’lmaydi, ammo noumid bo’lib, omadi yurishmaydi va nima qilishini bilmay hayronu sarson qoladi. Chunki u haqiqatdan ham Ollohning muhabbati bilan Uning ilmidan yuzaga kelgan, haq uni qalbga kirgizib, shu orqali tasdiqlagan narsani inkor etgan bo’ladi.

Hakim Termiziy zamonlarida “Xatmul avliyo” kitobini yozganliklari uchun Abu Abdurahmon Sulamiy aytadilar: “Kofirlikda ayblab Hakim Termiziyni Termizdan chiqardilar.[17] Bunga Termiziyning “Payg’ambarlarning so’nggisi bo’lgani kabi avliyolarning ham so’ngisi bo’ladi”, degan so’zlarini dalil qilishgan. Bu kishi go’yo “Ularning maqomlarini Payg’ambarlar va shahidlar havas qiladi”, degan hadisni hujjat etib valiylikni Payg’ambarlik maqomidan yuqori qo’ygan emishlar. Aslida bu kitoblarda bunga sabab bo’ladigan hech narsa yo’q. Hakim Termiziy valiylikni hech qachon nabiylikdan ustun qo’ymaydi, balki valiylikni kengroq ma’no anglatishini tushuntirishga harakat qiladi. Afsuski, odamlar buni to’g’ri tushunishdan yiroq edi. Abdurahmon Sulamiy ham“Xaqoiqut tafsir” kitobini yozganlari uchun shunday malomatlarga duchor qilinganlar.

Hakim Termiziy Termizdan chiqib, Balxga keldilar. Balx ahli u kishini bir mazhabda bo’lganliklari uchun qabul qildi. Bu erda ham ba’zi g’alamis shaxslarning ig’vo va g’avg’olariga qaramasdan Hakim Termiziyni Balx aholisi va hokimi o’z himoyasiga olgan. Hakim Termiziy yashagan davr notinch va g’alayonlar davriga to’g’ri kelgan bo’lsa olim ijod qilishda to’xtamadi. Ahmad ibn Iso Juzjoniy aytganlaridek Hakim Termiziy “Biror kitobni oldindan o’ylab

[17] Imom Shamsiddin Zaxabiy. Siyaru a’lamin nubalo. Mashhur daholar siyrati (Kitobdan saylanma).Sharq nashriyot-matbaa.Aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent 2015.B-429

(rejalashtirib), menga biror narsaning nisbat berilishini istab yozmadi. Lekin ilhomim jo’sh urgan vaqtda kitob bitish bilan huzur qilardim” deganlarini eshitdim.[18]

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki Hakim Termziy birinchilardan bo’lib tasavvuf ta’limotida “valoyat” mavzusiga tizimli yondashgan hamda shu asosdan kelib chiqib, “Xatm al-avliyo” masalasini o’rtaga tashlab, o’zining asarlarida bu tushunchalarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab, so’fiylarning muhim mavzularidan biriga aylantirgan bo’lsa, keying davr olimlari Ali ibn Usmon Jullabiy Hujviriy, Abu Homid G’azzoliy, Ibn al-Arabiy, Bahouddin Naqshband asarlarida bu mavzu tasavvufdagi komil inson haqidagi mukammal va tizimli ta’limotni yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

IMOM BUXORIY ILMIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’RNI

To‘xtayeva Matluba Xakim qizi
University of Management and Future Technologies
“Gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b
E-mail: tuxtaeva@umft.uz

Buyuk millat tarixi, ajdodlar hayoti va ilmiy ma’naviy merosini keng tadqiq etish bugungi va kelajak avlodlar ma’naviy komilligini yuksaltirishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Har qanday davr va har qanday jamiyatda ham olimu ulamolar, mutafakkiru donishmandlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. El - yurt o‘zining shunday aziz va buyuk farzandlari bilan xaqli ravishda farqlangan, ko‘ngli tog‘day ko‘tarilib, g‘ururu iftixorga to‘lgan. Bu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, Jannat makon yurtimiz – O‘zbekiston zaminidan azal -azaldan o‘zlarining ilmiy – ma’naviy, ma’naviy – falsafiy meroslari bilan jumla jahonga tanilgan ko‘plab buyuk allomalar va mutafakkirlar etishib chiqib, samarali faoliyat ko‘rsatganlar. Ular aql – zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo‘lgan bebaho asarlari hamda buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahon ahlining qudratli ma’naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi. Bu umumbashariy meros dunyo tamadduni rivojiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lganligi hozirgi vaqtda ilm ahllariga ham, keng jamoatchilikka ham yaxshi ma’lum.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “Imom al Buxoriy va Burxoniddin Marg’iloniy, Iso va Xakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Hoji Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy

[18] O’sha erga qarang, 430

va Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy kabi ko‘plab daholar nomi jahon sivilizatsiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan.”[1.28]

Darhaqiqat, yurtimizdan shunday buyuk allomalar etishib chiqqanki, ularning hayoti va ilm - ma’rifati dunyo ahli tomonidan doim e’zozlanib, o‘rganilib kelinmoqda. Bu kabi allomalar bizning diyorimizda juda ko’p bo‘lib, ularning hayoti va ilmiy merosi keng tadqiq etilmoqda. Buyuk allomalarimiz o‘z davrlari uchungina emas, balki kelgusi avlodlar uchun, kelajak zamon va davrlar uchun ma’naviy kuch-quvvat manbasi bo‘lgan bebaho ma’naviy meros qoldirganlar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev fikrlarini davom ettirarkan, “Markaziy Osiyo uyg’onish davrining ko‘plab yorqin namoyondalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o‘z ahamiyatiga ko’ra islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “Sahihul Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan[19].”

Muhaddislar sultoni bo‘lgan Imom Buxoriy hayoti va ma’naviy merosini keng tadqiq etish yuzasidan nafaqat yurtimiz balki butun musulmon olamida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Imom Buxoriyning hayoti va faoliyati, u meros qoldirgan shoh asarlar davrlar osha axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur o‘rganilmoqda.

Islom dinining musaffoligini saqlash, uning asl mohiyatini ochib berish, sof e’tiqodni targ‘ib etish yurtimizdan etishib chiqqan buyuk allomalar hayoti va ilmiy-ma’naviy merosini mukammal o‘rganish asosida bo‘lib, yurtimizda mavjud kutubxona va qo‘lyozma fondlaridan saqlanib kelinayotgan 100 mingdan ziyod arab, fors va eski turkiy tillardagi noyob asarlarni o‘rganish, keng tatbiq etish bilan amalga oshirilmoqda.

Islom dinining asl mazmun – mohiyatini teran anglashda ijtimoiy axloqiy masalalarga targ‘ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida olib borilishida Imom Buxoriy merosining ahamiyati kattadir. Islom dinining tom ma’noda komillikka chorlaydigan, insoniy fazilatlarga targ‘ib qiladigan, botil mafkuralardan saqlaydigan din ekanligi to‘g‘risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday fikrni keltirib o‘tdilar: “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini etkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Bu muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamiligining ifodasi sifatida behad

[19] Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz – Toshkenz: O’zbekiston, 2017 yil, I tom. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr kuni AQShda bo‘lib o‘tgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so‘zlagan nutqidan.

qadrlaymiz... Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab – avaylashga da’vat etadi.[20]”

Hadis (arab. الحديث) - musulmon jamoasining hayotining turli xil diniy va huquqiy jihatlariga ta'sir qiluvchi Payg'ambar Muhammad (s.a.v) ning so'zlari va harakatlariga oid afsonalar[21]. Hadis - Payg'ambar (s.a.v) ning barcha musulmonlarga obro'li va shariatning asoslaridan birini tashkil etadigan sunnatni bayon qiladigan Muhammad (s.a.v) ning (Kaul), tasdiq (takrir) Payg'ambarlarning sheriklari orqali hadislar naql qilingan.

Arab tilidan tarjima qilingan "Hadis" so'zi, "yangi" yoki "suhbat", "an'analar", "hikoya"[22] degan ma’nodan olingan. Har bir aytilgan gap - so‘z yangi hodisa bo‘lgani uchun arablarda so‘zni «hadis» deyishgan. Hadis deganda Nabiy alahissalomning aytgan gap-so‘zlari ko‘zda tutiladi va tushuniladi. Ulamolar istilohida esa «hadis» quyidagicha ta’riflanadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan osor bo‘lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy sifatlar, xulqiy sifatlar hamda tarjimai holga tegishli ma’lumotlar «hadis» deyiladi»[23].

Demak, hadislar payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati, u zoti sharifning diniy, axloqiy, ma’naviy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan eng mo‘tabar va bebaho hikmatlar majmuasidirki, ularda shariat axkomlari, Qur’oni Karimda ifoda etilgan barcha ilm-amaliyotlar, g‘oyalar har tomonlama chuqur talqin etilib, batafsil izohlanadi.

Ustoz akademik M.Xayrullayev ta’kidlab o’tganlaridek, “Islom dinining manbalari “Qur’oni karim” va Payg‘ambarimizning muborak hadislarida “… ilohiyot, diniy masalalar bilan birga o‘z davrining axloqiy va siyosiy an’analari, insonparvarligi, insonlarni qovushtiruvchi, ular o‘rtasida ziddiyat, nizolarning oldini oluvchi, adolat o‘rnatishga qaratilgan axloqiy fikrlar ham keng o‘rin olgan”[24].

Imom al – Buxoriy hadislarni yodlashni 10 yoshidan yoki undan ham ilgariroq boshlaydi. Imom al – Buxoriyni hadis ilmiga bu darajada tez yuz tutmoqlikka undaydigan ko‘pdan – ko‘p sabablar bo‘lgan. Ya’ni birinchidan, olim bo‘lmish otasini eslamoq tuyg‘usi uni to‘ldirib, uning zohiriy aqlini uyg‘otgani bo‘lsa, ikkinchidan o‘z Vatanida hadis imomlarini, ya’ni islom dunyosining turli joylaridan kelgan peshqadam olimlarning rivoyat qilgan hadislari, olimni hadis olamiga chorlagan. Imom al – Buxoriy dastlab hadis ilmidan Buxoroda, o‘z davrining taniqli muhaddisi ad-Doxiliydan saboq oladi. Hadislarni o‘rganish

[20] O’sha joyga qarang
[21] https://ru.wikipedia.org/wiki/ Islam: ES, 1991
[22] Баранов Х. К. Арабско-русскиу словар: ок. 42000 слов. -3-е изд.- М., 2001
[23] Hayrullaev M.M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati.- Toshkent, FAN, 1994, 17-18-betlar.

[24] Hayrullaev M.M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati.- Toshkent, FAN, 1994, 17-18-betlar

bo‘yicha ushbu olim tashkil etgan xalqaning shuhrati keng tarqalgan edi. Shu tariqa Imom al – Buxoriy 16 – yoshigacha o‘z Vatani tarixini va Movarounnahrdagi mashhur ulamolardan hadis ilmini chuqur o‘rgandi. Shuning barobarida u hadis ilmi bo‘yicha o‘z ustozlari bilan ilmiy baxslar olib bordi. Ayni vaqtda mashhur bo‘lgan Abdulloh ibn al –Muborak va al-Vaki ibn Jarroh kabi olimlarning to‘plamlarini yod olgan[25]. Uning ustozlari va zamondoshlari bu yosh yigitning ilmiga bo‘lgan chanqoqligini ko‘rib taajjubda qolishardi. U hadislarni yod olibgina qolmay, balki yoshligidan boshlab sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayrisahihlarga ajratish, ularning illatini aniqlash, hadis roviylarini o‘rganib tahqiq qilish, ular rivoyatining adolatligini, hadis ilmining turli masalalarini tadqiq etish, ularni jamlash va Qur’on oyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish kabi masalalar bilan qiziqdi. Imom al-Buxoriy o‘zining ilmga bo‘lgan muhabbati tufayli Movarounnahrdan ko‘zga tanildi va zehni o‘tkirligi tufayli mashhur olimlarning e’tiborini jalb etdi. Bu hol shu darajaga etdiki, hatto taniqli olimlar ham o‘z darslarida Imom al-Buxoriyning hozir bo‘lishidan tashvishlanib uning huzurida biror xato yoki kamchilikka yo‘l qo‘yishdan xavotirlanadigan bo‘lib qoldilar.

Imom al-Buxoriy ilmiy uslubi boshqalardan farqlanardi, u har bir hadisni rivoyat qilgan sahoba va tobeinlarning tug‘ilgan va vafot etgan yillarini va ularning yashagan davr va makonlarini aniq bilar edi. Imom al –Buxoriy 100 mingdan sahih hadis va 200 ming sahih bo‘lmagan hadislarni yoddan bilgan.Imom Buxoriyning eng muhim asari, shubhasiz, “Al-jome’ as - sahih” (Ishonchli to‘plam)dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhurdir. Uning g‘oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar o‘z to‘plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o‘tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom al - Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo‘lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi[26]. Darhaqiqat, Imom Buxoriyning «Al-Jome’ as-sahih» deb nomlangan hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan to‘plamlar orasida eng ishonarli va mukammalidir.

Imom Buxoriyning ushbu kitobi ma’naviy qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarda axloq - odob, halollik, rostgo‘ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirishda katta o’ringa egadir.

Urganish davomida shunga guvoh buldikki, bu ta’limotlar davr tanlamasligi namoyon buldi. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” va ularning shogirdlari

[25] Eshonjonov B.I. IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning “Al-Jomiy As-Sahih” asaridagi fikhiy masalalar “ dissertatsiya avtoreferati. 2000 yil

[26] Eshonjonov B.I. IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning “Al-Jomiy As-Sahih” asaridagi fikhiy masalalar “ dissertatsiya avtoreferati. 2000 yil

hadislari jamlangan asarlarida axloqiy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy masalalar va ularning echimlari bayon qilingan muborak hadislar ham, ya’ni g‘iybat, chaqimchilik, gap tashish, hasad, arazlashish kabi salbiy illatlar va savdo-sotiqda hallollik, zakot berish, etimlar haqqiga xiyonat qilmaslik, qarindoshlar o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, yoshi ulug‘larni hurmat qilish kabi o‘zaro muammolar echimi o‘z o‘rnini topgan.

Odob-axloq masalasi millatimiz madaniy hayotining ajralmas qismi, ezgu qadriyatlarimizdandir. Har bir fuqaro ma’naviyatining shakllanishi va kamol topib borishida odob-axloqni ta’sir ko‘rsatishi muqarrar. Odob-axloq o‘ziga xos qonunlar, udum va ananalarga amal qiladi. Har bir fuqaro odob-axloqni ahamiyatini yaxshi anglab etishi zarur. Bu mas’uliyat esa aql idrok amriga rioya qilish, halollikni hayot qonuni deb bilish, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda odob-axloq munosabatini ham e’tiborda tutish, yuksak odob va madaniyat sohibi bo‘lib yurtdoshlar diliga xushnudlik, yaxshi kayfiyat bag‘ishlash, hamisha adolatli va haqqo‘niy, shirin so‘z va muloyim, kamtar va saxovatli bo‘lish, mahalla ahliga hech qachon ozor etkazmaslik, g‘iybat, hasad, tuhmat, chaqimchilik, manmanlik kabi illatlardan yiroq bo‘lish, ichkilikbozlik va giyohvandlikdan hazar qilish singari xislatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Imom Buxoriyning ma’naviy merosini ulkan ummonga qiyoslash mumkin. Chunki allomaning buyuk merosi har bir davr uchun dasturilamal sifatida tadqiq etiladi. Muhaddis «Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay»., degan shiorga har doim sodiq qolib, ilm talabida o‘zga yurtlarda, mashaqqatli hayot kechirgan. Imom Buxoriy ma’naviy ilmiy merosini o‘rganish davomida asarlari falsafiy-metodologik asosga ega ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Hadis islom aqidaviy tizimning mustahkam qismi bo‘lib, u islom shariatining Qur’ondan keyingi bosqichida islom ulamolari, ahlul ray mantiqiy metodi orqali ob’ektiv va amaliy jihatdan inson hayoti uchun foydali bo‘lib shakllandi. Muhammad Payg‘ambarning so‘zlarini ob’ektiv etkazilishining ta’minlanishi falsafiy-mantiqiy tizimni talab qildi va ushbu tizim ishlab chiqildi. Sunna islom shariatining mustahkam aqidasi sifatida turli millatlarni islomga e’tiqod qilishini huquqiy, ijtimoiy jihatdan kuchaytirgan holda, islomgacha bo‘lgan etnik-milliy urf-odat va marosimlarni ham maksimal tarzda legitimlashtirish, shu yo‘l bilan milliy hamda diniy qadriyatlarni sinkretlashtirishga asos bo‘ldi. Hadislarni X asrdan jamlash boshlangan bo‘lsa, minglab muhaddislar hadisshunoslik ilmini takomillashtirishda o‘z uslubini yaratishga harakat qilishdi. Markaziy Osiyo hadisshunoslari Vatanimiz zaminidan chiqqanini ta’kidlagan holda, nafaqat Imom Buxoriy yoki Imom Termiziy balki, boshqa ko‘plab olimlar ham islom manbalarini

yoyishda o‘z yondashuvlariga ega bo‘lganligi, mantiqiy uslublarni dasturulamal qilib olganligini tarixiy manbalardan ko‘rish mumkin. Ularda:

birinchidan, ulamolarning mulohazalarida mantiqiy qiyosiy tafakkur usuli etakchilik qilgan eng kuchli mantiqiy bog‘lanish Muhammad Payg‘ambar shaxsigacha hadislar bilan mustahkamlanadi;

ikkinchidan, ular hadis zanjirining amaliyot bilan parallel aloqasiga e’tibor berganlar. Bu usulning egallanishi xanafiy mazhabida hadislarning sahih qismlarida yuqori aniqlik, xolislik va chuqur mushohadaviy yondashuvni ta’minlagan. Abu Xanifa o‘z davrida o‘sha yurtning milliy qadriyatlariga alohida yo‘l ochib bergan yirik tarixiy shaxs hisoblanadi. Chunki, Abu Xanifa targ‘ibotida islom va uning ratsional yo‘nalishining uslub jihatdan birligi, bu hududda islom dini manbalariga bo‘lgan yondashuvda ilmiy, hadisshunoslik tizimini milliy va diniy qadriyatlarning aksiologik uslublar bilan bog‘lanishi o‘ziga xos tamoyil sifatida shakllantirdi.

Hanafiyada eng asosiy an’analardan biri mo‘tadil islom ta’limotini mustahkamlash hisoblanadi. Hanafiya va mo‘tadil islomni tahlil qilishda islom dini aqidaviy manbalaridan bir bo‘lgani bilan, uning hududlarda sotsiallashuv xususiyatlari ma’lum farqlarga ega ekanligiga e’tibor qaratish zarur bo‘ladi. Islom dinini turli hududlardagi ta’sirini kuchaytirishda Hanafiya mazhabining ratsional-mantiqiy uslubi ta’sirini ko‘ramiz. Hanafiya mazhabi tarixi va uning fiqhiy yo‘liga nazar tashlasak, bu mazhab, eng avvalo, sotsial muammolarni islom dini me’yorlari asosida tushunishda ray usulidan borgan. Bu usul “Islomning birinchi asrlarida, musulmon aqidasi va huquqi hali rivojlanish bosqichida bo‘lganida, Hanafiya qolgan uchta mazhabga qaraganda ancha ilg‘or bo‘lib chiqdi, chunki ustozlari Abu Hanifadan o‘rnak olib, ular ko‘proq Qur’on va sunnaning harflariga emas, ruhiga rioya qilishga moyil edilar. Bu ruhni "hukm" (ray) va "qiyos" (qiyos) bilan aniqladilar. Shuning uchun Hanafiya "as’hab ar-ray" va "ahl al-qiyas" ya’ni mustaqil fikr tarafdorlari yoki qiyos ahli nomi bilan ham tanilgan” .

Ray – as’hobul ray – mustaqil fikr tarafdorlari bo‘lib, ularning mulohazalarida mantiqiy qiyosiy tafakkur usuli etakchilik qilgan. Bu usullar egallanishi hanafiy mazhabida hadislarning sahih qismlarida yuqori aniqlik, xolislik va chuqur mushohadaviy yondashuvni ta’minlagan. Markaziy Osiyoda Hanafiya maktabining keyingi shakllanish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani yoritiladi va Imom Buxoriy hanafiylik mazhabi asosiga kengroq yondoshuv orqali hadislarni isnoddan foriq qilishga kirishadi.

Xulosa qilganda, Imom al-Buxoriy hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go‘zallik tuyg‘ularini mujassamlashtiradi. Ilm-fanda "Hadis ilmining amiri" deb bir ovozdan tan olingan Imom Ismoil al Buxoriy hadislari mehr-

oqibat, sahiylik, ota-ona va kattalarga omad, etim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o‘zaro do‘st, tinch-totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlari barkamol avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Imom Ismoil al-Buxoriy hadislari yoshlarni mehnatsevarlik va erksevarlik, har qanday og‘ir vaziyatda ham mustahkam iroda, vazminlik bilan ish tutish va omilkorlik, kelajakka, insonga doir udum va an’analar ruhida shuningdek shaxs ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga katta imkoniyat beradi. Imom al-Buxoriy hadislari o‘z Vatanini sevuvchi uning ravnaqi va istiqboli uchun fidoiy yoshlarimiz, barkamol avlod uchun albatta dastrulamal bo‘lib qolishi shubhasizdir.

IBN SINONING AXLOQIY QADRIYATLAR TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI

R.N.To‘xtasinov
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD
Buxoro davlat universiteti doktoranti
Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi

Sharq mutafakkirlari orasida chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan va o‘zining boy falsafiy merosi bilan jahonga tanilgan shaxslar qatorida Abu Ali Ibn Sino alohida o‘rin egallaydi. U faqat tibbiyot va tabiiy fanlar emas, balki axloq, ruhshunoslik va ijtimoiy hayotga oid fikrlari bilan ham o‘z zamonasining ilg‘or allomalaridan biri bo‘lgan. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari, odob va fazilat tushunchalariga bergan bahosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Ibn Sino axloqni shunchaki ijtimoiy yoki diniy talab emas, balki inson kamolotining ajralmas bir bo‘lagi deb tushunadi. Uning nazarida, chinakam baxt va saodatga erishish uchun inson o‘z nafsini tarbiyalashi, ichki dunyosini tozalashi va yuksak axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishi lozim. U fazilatni aql, adolat, jur’at va iffat singari to‘rt asosiy fazilatga asoslaydi. Bu fazilatlar har bir insonning ruhiy barkamollikka erishish yo‘lida zaruriy mezonlar hisoblanadi.

Uning asarlari – xususan, “Al-Ishorat va at-tanbihat”, “Kitob al-Najat” va “Dono kishining risolasi” – insoniyat axloqiy-ma’naviy olamining chuqur tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ular nafaqat o‘z davrining, balki bugungi jamiyat axloqiy tarbiyasining ham nazariy asosi sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, ushbu maqolada Ibn Sinoning axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlarini tahlil qilish, ularning manbaviy asoslarini ko‘rsatish va amaliy ahamiyatini yoritish maqsad qilingan.

1. Axloq falsafasining asoslari

Ibn Sino axloqni inson hayotining mohiyatini tashkil qiluvchi eng asosiy tamoyillardan biri deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, inson faqat jismoniy mavjudot emas, balki ma’naviy va ruhiy olamga ega bo‘lgan murakkab mavjudotdir. Shu bois inson hayotining haqiqiy maqsadi nafaqat moddiy ne’matlar ortidan quvish, balki ruhiy barkamollikka erishishdir. Bu yuksak maqsadga erishish yo‘lida esa axloqiy tarbiya va hikmatli hayot tarzining tutgan o‘rni beqiyosdir.

“Kitob al-Najat” asarida Ibn Sino axloqni baxt-saodatga eltuvchi asosiy yo‘l sifatida baholaydi[27]. Unga ko‘ra, baxt — bu ruhiy totuvlik, xotirjamlik va haqiqatga yaqinlashish holatidir. Bu holat esa axloqiy tozalik, yaxshi niyat va pok xulq orqali vujudga keladi. Ibn Sino hikmat, odob, fazilat kabi tushunchalarni o‘zaro bog‘liq tarzda talqin qiladi hamda ularni insoniy kamolot sari eltuvchi zinapoyalar sifatida ko‘rsatadi.

Ibn Sino axloqiy bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishni zarur deb biladi. U axloqiy fazilatlarni o‘rgatish va tarbiyalashga oid masalalarni bevosita amaliy falsafaning bir bo‘lagi sifatida ko‘radi. Bu yondashuvda u Aristotel falsafasining ta’sirida bo‘lsa-da, uni islomiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos falsafiy maktab yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muhitidan kelib chiqqan bo‘lib, ular universal xarakterga ega.

Shu tarzda, Ibn Sino axloqni faqatgina bir ijtimoiy tartib yoki diniy talab sifatida emas, balki insonning ichki hayotiga, ruhiy komillikka etaklovchi zaruriy vosita sifatida ko‘radi. Uning axloq haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham insonni o‘z-o‘zini anglashga, ichki dunyosini tartibga solishga va jamiyatda uyg‘un hayot kechirishga chorlaydi. Bu yondashuv uning axloq falsafasini doimiy dolzarb mavzuga aylantirib turadi.

2. Nafs va uning tarbiyasi

Ibn Sino axloqiy komillikka erishish yo‘lida eng avvalo nafs tarbiyasiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. U nafsni ruhiy kuch sifatida ko‘radi va uni uch asosiy bo‘limga ajratadi: shahvoniy nafs, g‘azabiy nafs va aqliy nafs. Shahvoniy nafs insonning lazzat va foydaga intilish istaklarini ifodalaydi, g‘azabiy nafs esa himoya va hiddat kuchi bilan bog‘liq. Aqliy nafs esa ularni boshqaruvchi, tafakkur va aql-idrok bilan bog‘liq bo‘lgan eng oliy kuchdir.

Ushbu nafsiy kuchlarning uyg‘unligi va muvozanatini ta’minlash axloqiy hayotning asosi deb qaraladi. Ibn Sinoning fikricha, inson shahvoniy va g‘azabiy nafsini jilovlash orqali o‘zini tarbiyalaydi, bu esa fazilatli hayot tarzining shakllanishiga olib keladi. “Al-Ishorat va at-tanbihat” asarida bu uch nafsiy kuch

[27] Ibn Sino. Kitob al-Najot (Najot kitobi). — Qohira: Al-Maktaba al-Azhariyya, 2003.

tafsilotlari bilan yoritilib, har birining ijobiy va salbiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi[28].

Ibn Sino nafsni tarbiyalashda bosqichma-bosqich yondashuvni tavsiya qiladi. Avvalo, inson o‘zida mavjud ehtiros va istaklarni tan olishi, keyin ularni anglab, tahlil qilishi, oxir-oqibat esa aqliy nafs yordamida ularni nazoratga olishga intilishi kerak. Bu jarayon davomida insonning irodasi kuchayadi, ichki barqarorlik yuzaga keladi va axloqiy fazilatlar shakllanadi. U bu jarayonni “tazkiyatun nafs” (nafsni poklash) deb ataydi.

Nafs tarbiyasi nafaqat shaxsiy poklik, balki ijtimoiy uyg‘unlikning ham kafolatidir. Inson o‘z nafsini boshqara olsa, u boshqalar bilan ham murosali, halol va adolatli muomala qila oladi. Shu jihatdan Ibn Sinoning nafs tarbiyasiga oid qarashlari hozirgi davrdagi shaxsiy rivojlanish va psixologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan dolzarb g‘oyalarni o‘z ichiga oladi.

3. Fazilat va yomon odatlar muvozanati

Ibn Sino fazilat tushunchasini Aristotelning "oltin o‘rtalik" nazariyasiga asoslangan holda sharhlaydi. Unga ko‘ra, har bir fazilat haddan oshish va kamchilikning o‘rtasidagi me’yoriy holatdir. Masalan, saxovat — bu isrof va xasislik orasidagi muvozanat, jasorat esa haddan oshgan jur’atsizlik va qo‘rqoqlik orasidagi fazilatli holatdir. Fazilat insonni ijobiy xulqqa olib boruvchi asosiy mezondir.

Fazilatlar aqliy, amaliy va irodaviy kuchlar vositasida shakllanadi. Ibn Sino insonning xulqi faqat odat yoki nasl tufayli emas, balki ongli ravishda tanlangan va tarbiyalangan fazilatlar orqali shakllanishi kerak, deb hisoblaydi. Shu sababli u fazilatlarni tarbiyalashga alohida e’tibor beradi. Fazilatli hayot, uning nazarida, aqlga tayanib yashash, har bir ishni me’yor asosida qilish va har bir narsaning haqiqiy qiymatini anglash orqali yuzaga chiqadi.

Ibn Sino har bir fazilatga qarshi turgan ikki nuqsonni alohida ko‘rsatib beradi va ularni tan olish orqali inson o‘zini rivojlantirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan, or-nomusli bo‘lish — bu haddan oshgan iffatparastlik yoki loqaydlik emas, balki o‘zini va boshqalarni qadrlash hissining me’yoriy ko‘rinishidir. Bu yondashuv Ibn Sinoning axloqiy ta’limotini juda nozik, murakkab va mukammal sistemaga aylantiradi.

Bu qarashlarning bugungi kundagi dolzarbligi shundaki, zamonaviy axloqiy inqirozlar ko‘p hollarda ekstremallik — ya’ni haddan oshish yoki beparvolikdan kelib chiqadi. Ibn Sinoning “oltin o‘rtalik” g‘oyasi esa insonning o‘z xatti-harakatlarini ongli nazorat qilishiga, hissiy barqarorlikka va ruhiy uyg‘unlikka erishishiga xizmat qiladi. Bu esa axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadidir.

[28] Ibn Sino. Al-Ishorat va at-Tanbihat. — Beyrut: Dar al-Fikr, 1996.

4. Axloq va jamiyat

Ibn Sino axloqni faqat shaxsiy kamolot vositasi sifatida emas, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotining asosiy omili deb qaraydi. Uning fikricha, adolat, to‘g‘rilik, fidoyilik kabi axloqiy qadriyatlar jamiyatdagi ishonch, hamjihatlik va baraka manbai hisoblanadi. “Kitob al-Najat”da u axloqiy qadriyatlar bo‘lmagan jamiyat tanazzulga uchrashi, odamlar orasida adovat, nifoq va buzuqlik avj olishini ogohlantirib yozadi[29].

Shuningdek, Ibn Sino axloqiy qadriyatlarning shakllanishi oiladan boshlanishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bola odobni oilada, atrof muhitda, ustozlar ko‘magida egallaydi. Axloqiy tarbiya esa faqat jazo yoki mukofotga asoslangan bo‘lmasligi, balki aqliy idrok, tushuncha va iymon asosida olib borilishi kerak. Tarbiya jarayoni doimiy bo‘lishi va jamiyat tomonidan rag‘batlantirilishi kerak.

Ibn Sino siyosiy axloq masalasiga ham alohida to‘xtalib, rahbarlar, shohlar va olimlarning axloqiy darajasi jamiyat axloqiy holatining asosiy belgisi ekanini ta’kidlaydi. Adolatli va pok rahbar xalqning to‘g‘ri yo‘ldan borishiga zamin yaratadi. Shuning uchun hukmdorlar eng avvalo axloqiy barkamol bo‘lishi, xalq oldida halol va xolis bo‘lishi lozim, deb yozadi Ibn Sino “Siyosat risolasi”da[30].

Bugungi kunda jamiyatda uchrayotgan axloqiy muammolarning ildizi ko‘p hollarda asosiy qadriyatlarning zaiflashuvi yoki unutilishidan kelib chiqadi. Ibn Sinoning bu boradagi g‘oyalari – ya’ni axloqni davlat siyosatining asosiy tamoyili qilib belgilash, ta’lim va tarbiyani axloqiy me’yorlar asosida olib borish — zamonaviy axloqiy tizimlar uchun muhim yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin.

5. Diniy-axloqiy yondashuv

Ibn Sino axloq falsafasida diniy qadriyatlarni asosiy mezon sifatida qabul qiladi. U axloqiy hayotni islomiy aqidalar va Qur’oni karim oyatlari, Payg‘ambarimiz (s.a.v) hadislariga tayangan holda talqin qiladi. Garchi u yunon falsafasidan ilhom olgan bo‘lsa-da, axloqiy tizimini sof aqliy asoslar bilangina emas, balki islomiy e’tiqod bilan uyg‘un holda shakllantiradi. Bu uning g‘oyalarini musulmon dunyosida keng qamrovli va qabul qilingan ta’limotga aylantirdi.

Uning fikricha, har bir inson Alloh tomonidan berilgan aql ne’mati orqali yaxshi bilan yomonni ajrata oladi. Bu ajratish esa insonni Allohga yaqinlashtiradi. Ibn Sino axloqiy poklikni faqat dunyoviy muvaffaqiyat emas, balki oxirat saodati uchun ham asosiy omil sifatida ko‘radi. “Ishorat va tanbihot” asarida u, “qalb pokligi bo‘lmasa, ilm va amal foyda bermaydi”, deya ta’kidlaydi[31]. Bu g‘oya Qur’oni

[29] Ibn Sino. Kitob al-Najot (Najot kitobi). — Qohira: Al-Maktaba al-Azhariyya, 2003.
[30] Ibn Sino “Siyosat risolasi”. — Qohira: Al-Maktaba al-Azhariyya, 2003.
[31] Ibn Sino. Al-Ishorat va at-Tanbihat. — Beyrut: Dar al-Fikr, 1996.

karimning “Qalb salomatligi” haqidagi oyatlari bilan hamohangdir (Shuaro, 88-89-oyatlar).

Ibn Sino axloqiy komillikni “taqvo” tushunchasi bilan chambarchas bog‘laydi. Taqvo, ya’ni Allohdan qo‘rqish va Uning rizoligini ko‘zlab yashash, axloqiy hayotning mohiyatidir. Bu tushuncha, insonning har bir harakati oldidan o‘zini nazorat qilishi, halol va halokatli yo‘llarni ajratishi, har qanday ishda niyatning pok bo‘lishini talab qiladi. Ibn Sino shunday iymonli axloqni eng yuksak darajadagi fazilat deb hisoblaydi.

Shunday qilib, Ibn Sino axloqni sof aql mahsuli sifatida emas, balki iymon va aql uyg‘unligi sifatida talqin qiladi. U axloqiy komillikni diniy mas’uliyat bilan bog‘laydi, inson o‘zini Alloh oldida mas’ul his qilsa, axloqan to‘g‘ri yashaydi deb hisoblaydi. Bugungi kunda bu yondashuv nafaqat diniy doirada, balki zamonaviy axloqshunoslikda ham chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb masaladir.

Ibn Sino o‘zining axloqiy qarashlari orqali Sharq falsafasida chuqur ta’sir qoldirgan mutafakkirdir. U axloqni inson hayotining asosiy tamoyili sifatida qarab, uni nafaqat nazariy, balki amaliy yo‘nalishda ham rivojlantirgan. Axloqiy tarbiyaning mohiyati — nafsni poklash, fazilatlarni shakllantirish, adolat va to‘g‘rilikni hayot mezoniga aylantirishdir. Bu borada Ibn Sino yondashuvi chuqur ilmiy va hayotiy asosga ega.

Uning axloqiy qarashlari nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Insoniy qadriyatlarning susayib borayotgan zamonida Ibn Sino kabi mutafakkirlarning axloqiy ta’limotlari yana-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. U o‘z asarlarida insonni ruhiy va axloqiy barkamollikka chorlaydi, bu esa jamiyatdagi barqarorlikning ham kafolatidir. Shaxsiy komillik jamiyat kamoloti sari olib boruvchi yo‘ldir.

Ibn Sino axloqni iymon bilan bog‘lagan holda, uni diniy mas’uliyat va ilohiy rizolik asosida talqin qilgan. Bunday yondashuv axloqni faqatgina ijtimoiy tartib emas, balki abadiy qadriyatlar bilan uyg‘un holda ko‘rishga undaydi. Bu esa uning axloqiy qarashlarini chuqurroq o‘rganish, amaliyotga tadbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino axloq falsafasi — bu insonni o‘zligini anglash, o‘z ustida ishlash va komil inson bo‘lish sari etaklovchi yuksak tafakkur maktabidir. Bu ta’limot yosh avlod tarbiyasida, ijtimoiy axloqiy islohotlarda va ma’naviy hayotda asosiy mezon bo‘lib xizmat qila oladi.

ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON HAQIDAGI QARASHLARI - MA’NAVIY BARKAMOLLIK ASOSI

Rahmatullo Xaydarov,
falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Andijon davlat universiteti MG’MAHT kafedrasi katta o’qituvchisi
E-mail: tillo.r@mail.ru

Bugungi globallashuv sharoitida xalqlar o’rtasida milliylik va umuminsoniy tamoyillarining integratsiyalashuvi natijasida kishilar axloqi, xalqlarning milliy o’zligi va ma’naviyatiga salbiy ta’sir etuvchi individualizm, egoizm, kosmopolitizm, nigilizm, pessimism, amoralizm, sinizm va “ommaviy madaniyat” (ommaviy madaniyatsizlik)ning turli ko’rinishlarining keng yoyilishi jamiyatga bo‘lgan mas’uliyat hissining pasayishiga ham olib kelmoqda. Jumladan, individualizm g’oyasining noto’g’ri talqin etilishi natijasida insonning shaxsiy hayoti jamoaga, jamiyatga bog’liq bo’lmagan, faqat uning o’ziga tegishli alohida bir hodisa deb qaraydigan, jamiyat manfaatlaridan o’z huquq va erkinliklarini mutlaq ustun ko’radigan ta’limot sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa shaxs va jamiyat manfaatlari o’rtasida keskin va jiddiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyotini ta’minlashda yuqoridagi kabi ya’ni, g’oya va qarashlarning yangi talqinda targ‘ib etilishini kuzatilishi, milliylikdan ajratib, sohta qadriyatlarni targ‘ib etuvchi xalqaro tashkilotlarning paydo bo‘lishi yuqori tafakkur madaniyatiga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Sababi, professor, S.Otamurodov ta’kidlagandek, “...bugun insoniyatning tabiati, mentalitetida ham salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Xususan: a) inson sifatida o‘zligidan begonalashuv; b) milliy o‘zligidan begonalashuv; v) bevatanlikka moyillik; g) nafsga erk berish, moddiy boylikka mukkasidan berilish, “taka bo‘lsin-u, sut bersin” tamoyiliga amal qilib yashashga intilish; d) oila, ota-ona, qarindoshchilik tuyg‘ularidan begonalashuv; e) dunyoda o‘z “men”ligini namoyon etish borasida quyushqondan chiqib ketish; yo) yovuz niyatli kuchlar tomonidan shakllantirilgan “ommaviy ma’naviyat”ni o‘zlashtirishga moyillik kabilar yuzaga keladi”[32]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “Tafakkur [arabcha – fikr yuritish, o‘ylash, fikrlash] 1 Ob’yektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in’ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash”[33] ma’nolarini ifodalashi izohlagan. Falsafada esa, “predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari

[32] Otamuratov S. Globallashuv: Millatni asrash mas’uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari) [Matn] –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2018. – B. 6

[33] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Tartibot-Shukr / Mas’ul muharrir A.Madvaliev. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B. 13

aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi”[34] sifatida talqin qilinadi. Agarda predmet voqea va hodisalarning umumiy va xususiy jihatlarini o‘zaro qiyoslab, inson manfaatlarini himoya qilish, qadriyatlarini e’zozlashga qaratilgan tarzda fikr yuritilsa, tafakkur madaniyatining ifodalanganligi kuzatiladi. Tafakkur madaniyati deganimizda, Navoiy ta’biri bilan aytganda, komil insonning inson va inson, inson va tabiat, inson va muhit, inson va jamiyat ko‘rinishidagi munosabatlarida “Had” va “Rasm”, “O‘zlik uyi”ga qat’iy amal qilib, taqvoli amallarni bajarilishi tafakkur madaniyatining namoyon bo‘lishidir.

“Har birisiga biridin taqviyat,
Har biri birin topibon tarbiyat”[35].

Taqviyat deganda, Allohning jamolini ko‘rishga jazm etib, barcha harakatlarini xarom-halol, farz va bid’at, jannat va do‘zax tarzidagi qiyoslar asosida xulq namunasini ifoda etishni nazarda tutgan. Navoiy komillikka erishishda islomiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratib, tarbiyalanganlikni insonning ziynati deb e’tirof etadi va bunda ma’naviy dunyoning substansiyaligini ko‘rsatib o‘tadi:

“Ziynati andoqki, badan paykari,
Vus’ati andoqki, ko‘ngul kishvari”[36].

Ko‘ngil kishvari – ma’naviyat dunyosi, inson siyratining asosiy manbasi sanalib, har turli davru zamonlarda ibratli zotlarni - oriflarni, muhaddislarni, zohidlarni fuqarolar uchun namuna bo‘lishlarida ham asos bo‘lganini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy ma’rifat sohibiga orif deb murojaat qilgan, ilm egalarini olim deb ko‘rsatgan[37]. Har ikkala tushunchaning negizida inson tafakkurining mahsuli mujassamlashgan. “Kasbi kamol” asarida Mir Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarida iqtiboslar keltirish va tushunchalarning talqini asosida atroposentrizm g‘oyasi ifodalangan bo‘lsa-da, ammo insonning kamol topishida amal qiluvchi mexanizm ko‘rsatib o‘tilmagan. Bu masalada M.Quronov “Milliy tarbiya” tushunchasining falsafiy, sotsiologik va pegagogik jihatlariga e’tibor qaratib, tarbiyaning ta’lim bilan aloqadorligi komillikka erishishning shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, “Milliy tarbiyaning mazmunini to‘latmoq uchun milliy tarbiya uslublarini tiklamoq kerak. Zero, o‘zbek tarbiyachilik madaniyati o‘zining boy uslubiy manbalariga ega”[38], deya olim tarbiya jarayonida

[34] Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B. 390
[35] Alisher Navoiy. Xamsa. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 62
[36]Alisher Navoiy. Xamsa. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 62
[37]Haqqul Ibrohim. Kasbi kamol o‘zni tanishdir [Mant] sharh, tahlil va talqinlar. – T.: -“Yoshlar matbuoti”, 2021. –B. 90
[38] Quronov M. Milliy tarbiya. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma’naviyat, 2007. – B. 114

mol-dunyo ketidan yugurmaslik xilqatini shakllantirish mumkinlini nazarda tutgan. Komil inson konsepsiyasining ham maqsadi insonni umri davomida ibratli sifatlarni o‘zlashtirib, komillikka erishishni o‘zi uchun kasbi kor sifatida ta’minlashdan iboratligini uqtirishdir. R.S.Samarov komillikka erishishni jarayon sifatida o‘rganib, “Bunda insonda individual istak mavjud bo‘lmasa, komillikka erishish davomida paydo bo‘ladigan ob’yektiv va sub’yektiv mazmundagi ziddiyatlarga bardosh berib, o‘zida namunaviy sifatlarni uzluksiz mujassam etishi uchun ongli harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutgan”[39]. Bu yondashuv I.Haqqul, N.Komilov, M.Quronov va boshqa olimlarimizning kamol topishga doir qarashlarining mantiqiy bayoni sanaladi. Olimning yozishicha, “kamol topish jarayoni bu: “a - A” tarzida davom etib, bunda jismoniy rivojlanish, aqliy (kognetiv, affektiv, motivasion, “Men konsepsiyasi” hamda xulq-atvor) rivojlanishning ham kamol topishi kuzatilsa, kamolot jarayoni samarali kechganligini”[40] ta’kidlab o‘tadi.

Yangi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy hayotini yangilash uchun olib borilayotgan o‘zgarishlar inson va uning manfaatlari oliy qadriyat ekanligini nazarda tutadi. Alisher Navoyining Komil inson konsepsiyasida “Had”, “Rasm”, “O‘zlik uyi”, “Ma’naviylik”, “Haqqa intilish” kabi tushunchalar asosida insoniyatning o‘tmishi va bugunida inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘luvchi omillar belgilab berilgan. Uning fikricha, axloqiy me’yorlarga amal qilmaslik, e’tiqod, iymon va sabrli bo‘lmaslik, havoi orzularga mast bo‘lib, “yerdan uzilish – makonni anglamaslik” inqiroz sanalishi ko‘rsatib o‘tiladi. Navoiyning fikricha, komillikka intilishda inson turli ziddiyatlarga duch keladi:

“Har kishini ko‘rsa o‘zin yor etar,
Mehru vafo gavharin izhor etar.
Ul kishi razl o‘lsun, agar baxtiyor,
Kim munga yo‘q shafqatida ixtiyor”[41].

Baxtiyorlik ijobiy ruhiy holat sanalib, ijtimoiy munosabatlar tizimida ifodalanadi. Bunda hayot yo‘li, hayot mazmuni, hayot strategiyasi kabi konseptlar ijtimoiy-falsafiy mushohadaning muhim mavzusi hisoblanadi. Sababi, etnik birlikning shakllanish jarayoni, ijtimoiy munosabatlar dinamikasi, ijtimoiy institutlar faoliyati, axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy munosabatlar madaniyati, ijtimoiy bilish kabilar bevosita ijtimoiy-falsafiy tadqiqotning predmeti sanaladi[42]. Masalaga komil inson konsepsiyasining shakllanishi, mazmundorligining ta’minlanishi va

[39] Samarov R. Inson kamolotini ta’minlashda adabiyot: strukturaviy-funksional jihat. O‘zbekistonda xorijiy tillar ilmiy metodik elektron jurnal №1 2017
[40] Samarov R. Axborot psixologik xavfsizligini ta’minlash mexanizmi (uslubiy qo‘llanma).
– T.: Universitet, 2015. –B. 30
[41] Alisher Navoiy. Xamsa. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 31
[42] Крапивенский С.Э. Социалнауа философиуа. Уснебник длуа студентов вузов. – М.: ВЛАДОС. 1998. – С. 16

rivojlanishi jihatidan e’tibor qaratilsa, “Jamiyat va uning tarkibiy qismlari – Tarixiylik - Geografizm – Insoniyat o‘tmishi va kamol topishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar – Teologizm – Biologizm – Texnitsizm = Komil inson haqida ta’limotlar” tarzidagi o‘ziga xos mantiqqa ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy jarayonni kuzatish mumkin. Qaysi makon va zamonda bo‘lmasin ibratli insonni tarbiyalash dolzarb sanalgan.

KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISHNING TUZILMAVIY KONSEPSIYASI

1. **Tarixiylik** - O'tmishni o'rganish va uning insoniyat rivojiga ta'siri.
2. **Geografizm** - Geografik omillar va ularning inson hayotiga ta'siri.
3. **Insoniyat o‘tmishi va kamol topishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar** - Insoniyat tarixi va rivojlanishidagi muhim omillar.
4. **Teologizm** - Din va e'tiqodlarning inson hayotidagi roli.
5. **Biologizm** - Biologik omillar va ularning inson hayotiga ta'siri.
6. **Texnitsizm** - Texnologiyaning rivojlanishi va uning jamiyatga ta'siri.

Ushbu qismlar birgalikda "Komil inson" tushunchasini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Har bir qism insonning kamolotida, uning dunyoqarashida va hayotdagi o'rnida o'ziga xos rol o'ynaydi.

Masalaga komil inson konsepsiyasi madaniy ahamiyatdorligi jihatidan qaralsa, ma’naviyatga ega bo‘lish va jamiyatda qabul qilingan me’yorlarga qat’iy rioya qilish insonning rivojlanishi uchun muhim shartlardan sanalishini “Hayrat ul-abror”da o‘z tasdig‘ini topgan. Yangi O‘zbekistonda fuqarolarni bunyodkorlik sari yo‘naltirishda uning komil inson konsepsiyasining ahamiyatdorlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. “Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o‘ylaydi, bu borada amaliy choralarni ko‘radi. Aks holda, u hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o‘zligini boy beradi”[43]. Bu o‘z navbatida salbiy tahdidlarning ta’siriga tushmaslik uchun ma’naviyatni ta’minlashni taqozo etadi. Professor F.Yuldasheva “Ma’naviyatning mohiyati davr xususiyatlarini aks ettiradi, insonlar va jamiyatlar o‘zaro munosabatlarining kengayishi asosida yanada rivojlanadi. Iqtisodiy islohotlar ma’naviyat bilan uyg‘unlashganda jamiyat taraqqiyoti yanada yuksaklikka erishadi. Ma’naviyat shakllari (axloq, din, fan, huquq, siyosat va san’at) kundalik axloq qoidalarini aks ettiruvchi quyi daraja (butun jamiyat tomonidan yaratiladi) va milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi yuqori daraja (axloqiy ideallar, huquq, milliy g‘oya)da namoyon bo‘ladi, salohiyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, yaratuvchilikka

[43] Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] – T.: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 292

asoslanadi”[44], deya ma’naviyatni ta’minlash har zamonning dolzarb muammosi ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Shu sababli, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy hayotidagi yangilanish har bir fuqaroning ma’naviy dunyosidan boshlanishi lozim. I.M.Jabborov o‘zbek xalqining etnik ildizi, an’anaviy kasb-kori, moddiy va ma’naviy madaniyatining o‘ziga xosligini falsafiy tahlil qilib, o‘zbeklarni yuqori pog‘onalardan joy egallashlarida milliy-ma’naviy madaniyat muhim o‘rin tutganini ta’kidlagan[45].

Xaulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida kamol topishning bosqichli rivojlanishini amal qilishi uchun me’yorlarga amal qilish va antroposetrizmning qonuniyatlarining ifodalanganligini va islomiy ta’limotlarning amal qilishini ko‘rish mumkin. Gohida komil inson konsepsiyasining badiiy, diniy, falsafiy, pedagogik, tibbiy, biologik va sotsiologik yondashuvlarning talqini asosidagi bayonlariga duch kelasiz. Bizningcha, inson konsepsiyasining yagona bosh o‘zagi – Inson sanaladi. Sifatlar nazariyasi bo‘yicha bu masalaga yondashsak, insonda sabr, shijoat, sharaf, g‘urur kabilarni ifodalanishi bu sifatlarni egallamagan insonlardan ajralib turuvchi ijobiy belgi tarzida baholanadi. Vaholanki, u yoki bu sifat insonda mujasamlashagan bo‘ladi. Bunda ibrat tariqasida tanlangan siymoning ta’sir darajasi hamda jamiyatda qabul qilingan me’yorlar jarayon dinamikasini belgilab beradi. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy hayotini yangilashda Alisher Navoiyning Komil inson konsepsiyasidagi har bir konseptni hayotga tadbiq etish hayrli ish sanaladi. Buning uchun Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson va uning manfaatlarining himoyalanganligi, kamol topishga doir bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlash uchun ijtimoiy va siyosiy institutlarning faoliyatini takomillashtirish lozim bo‘ladi. Bunda bu institutlarning rag‘batlantiruvchi va yo‘naltiruvchi funksiyalarining mental xususiyatlarni inobatga olgan holda mazmunan boyitish tavsiya etiladi.

[44] Yuldasheva F. O‘zbekistonda globallashuv sharoitida ma’naviy yangilanishning o‘ziga xos xususiyatlari // Diss. Avt.ref. –T.: - 2019. –B.16

[45] Джабборов И. Узбеки: (Этнокултурные традиции, быт и образ жизнии) – Т.: «Шарк». 2007 - С. 212

HAKIM TERMIZIY ILMIY MEROSIDA ISLOM MA’RIFATI VA AXLOQ MASALALARI

Baxodirjon AZAMOV
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti o‘qituvchisi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti

Islom ma’rifati mavzusi bugungi kunda har doimgidanda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bu masalaga dinimizda alohida urg‘u berilgani bejiz emas. Avvalo, ma’rifatni islomdan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, uning asosini ilm-ma’rifat va odob-axloq tashkil etadi. Zero, Qur’oni karimda insoniyatning yaratilishi xususida:

“وَمَا خَلَقْتُ الْجِنَّ وَالْإِنْسَ إِلَّا لِيَعْبُدُونِ”. “Men jinlar va insonlarni faqat menga ibodat qilishlari uchun yaratganman” (“Zoriyot” surasi, 56-oyat), deb e’lon qilingan. Ushbu oyatdagi “Menga ibodat qilishlari uchun” jumlasini Abdulloh ibn Abbos (vaf. 687) roziyallohu anhu va tobein mufassirlardan Mujohid ibn Jabr al-Makkiy (vaf. 722) rahmatullohi alayh: “Men haqimda ma’rifatga ega bo‘lishlari uchun” degan ma’noda ekanini aytganlar. Jumladan, Abu Bakr Ahmad ibn Marvon Daynuriy (vaf. 945) ham asarida aynan shu mazmundagi tafsirni rivoyat qilgan[46].

Oyat tafsiriga atroflicha to‘xtalgan mufassir Abdurahmon ibn Nosir Sa’diy (1889-1956) uning ma’nosini ma’rifatga bog‘lab, quyidagicha ifoda etgan: “Alloh taolo insoniyat va jinlarni yaratishidagi va payg‘ambarlarni yuborishi-yu, ularning da’vatidan ko‘zlangan bosh maqsad bu – U zotga ibodat qilishdir. Ibodat esa, ma’rifat – Allohni tanish va Unga muhabbat qilish, Ungagina yuzlanib, Undan o‘zgalardan yuz o‘girish ma’nosini o‘zida mujassam etgan. Zero, Allohga to‘la-to‘kis ibodat qilish Uning ma’rifatiga bog‘liq. Bandaning o‘z Rabbisini tanish darajasi ortib borgani sari uning ibodati mukammal bo‘lib boraveradi. Alloh taolo O‘z bandalarini faqat shu uchun yaratgan”[47].

Demak, bu oyati karima mazmunidan ma’rifat masalasi inson hayotining barcha jabhasini qamrovchi omillardan biri ekani anglanadi. Darhaqiqat, ushbu masalaning islom manbalarida katta ahamiyatga egaligini uning barcha ta’limot va ko‘rsatmalarida aks etib, shariat hukmlari buyuk hikmat va oliyjanob maqsadlar asosida joriy etilganini ko‘rish mumkin.

[46] Abu Bakr Ahmad ibn Marvon Daynuriy. Al-Mujolasa va javohir al-ilm. – Bayrut: Dor Ibn Hazm, 1998. – J. II. – B. 93.
[47] Abdurahmon ibn Nosir as-Sa’diy. Taysir al-Karim ar-Rohman fi tafsiri kalom al-Mannon. – Bayrut: Muassasat ar-Risola, 2002. – J. I. – B. 318.

Islomda ma’rifatning ahamiyati haqida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan “Uyning tayanchi poydevori bo‘lsa, dinning tayanchi Allohni ma’rifati, mustahkam iymon va egasini gunohlardan to‘sib, yaxshiliklarga undovchi aqldir”, degan rivoyat mavjud[48].

Bu rivoyatda islomning asosini ma’rifat, iymon va sog‘lom aql tashkil etishiga urg‘u berilgan. Haqiqatda, islom dini ta’limotida mazkur tamoyil to‘la aks etgani shariat ahkomlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Ma’rifat” so‘zi lug‘atda “anglash”, “tanish”, “maorif”[49] ma’nolarini bildiradi. Uning o‘zagi “irfon” lafzi bo‘lib, tasavvuf ulamolari nazdida, xususan, Hakim Termiziyning fikriga ko‘ra, uning ma’nosi “ilm” so‘zidan kengroq mazmunga ega. Chunki, “ilm” so‘zi sezgi a’zolari orqali his etilgan narsani anglatadi[50]. Bu esa, biror narsaning zohiriy haqiqatini anglashdir.

Ma’rifat masalasi ayniqsa, tasavvuf ilmida alohida e’tiborga molik. Bu fan olimlari qarashlarida ma’rifat nazariyasiga alohida urg‘u berilgan. Unga ko‘ra, ma’rifat atamasiga inson Alloh taoloning roziligiga yetishida bosh omillardan biri sifatida qaraladi. Mavzuga to‘xtalgan alloma Abulqosim Abdulkarim Qushayriy vaf. 986-1072) o‘zining “Ar-Risola” nomli asarida “ma’rifat” istilohi tasavvuf olimlari nazdida quyidagi ma’nolarga ega ekanini aytib o‘tgan:

“Ulamolarning so‘zlaridagi ma’rifat u ilmdir. Zero, har bir ilm u ma’rifat va har bir ma’rifat ilmdir. Alloh taoloni tanigan har bir olim orifdir, har bir orif kishi esa olimdir. Tasavvuf ahli ta’rifiga ko‘ra, ma’rifat bu Alloh taoloni buyuk ism va oliy sifatlari bilan tanigan, Unga muomala va munosabatida sodiq-to‘g‘ri so‘z va to‘g‘ri amalli bo‘lgan va razil axloqlaridan poklangan kishining sifatidir...”[51].

Ushbu ta’riflardan ma’rifatning mazmuni keng qamrovli va bevosita ilm, yaxshi amal va go‘zal axloq mavzulari bilan bog‘liq ekani anglanadi.

Hakim Termiziyning tasavvuf ilmidagi yirik olimlardan biri ekani aytilgan edi. Olimning “al-Amsol min al-kitob vas-sunna” asarida ham ma’rifat mavzusiga alohida to‘xtab o‘tilgan. Unga ko‘ra, “ma’rifat” atamasi kengroq ma’noga ega bo‘lib, u narsa va hodisaning faqat zohirini tushunish bilan cheklanib qolmay, uning botiniy haqiqatlarini ham qamrab oladi. “Al-Amsol” asarida unga turlicha ta’riflar berilgan. Ularning birida ma’rifat bu aql, ilm, fahm, fatonat, hifz, zikr va zehn kabi ma’naviy ozuqalardan kuch oluvchi va ular vositasida himoyalanuvchi bir

[48] Abulqosim Abdulkarim Qushayriy. Ar-Risola al-Qushayriya. – Jidda: Dor al-Minhoj, 2017. – B. 638.
[49] Abulfazl Muhammad ibn Mukrim ibn Manzur Misriy. Lison al-arab. Bayrut: Muassasat al-a’lamiy lil-matbuot, 2005. J. II.B. 2582.
[50] Abulqosim Husayn ibn Muhammad Rog‘ib Isfahoniy. Mufradotu alfoz al-Qur’on. – Damashq: Dor al-Qalam, 2014. B. 580.
[51] Abulqosim Abdulkarim Qushayriy. Ar-Risola al-Qushayriya. – Jidda: Dor al-Minhoj, 2017. – B. 638.

qimmatbaho ma’naviy jihoz sifatida tasvirlanadi[52]. Asarning boshqa bir o‘rnida muallif ma’rifat tushunchasi yanada kengroq mazmunga egaligini ta’kidlab, “Ma’rifat Alloh taoloning ismlari va Uning qudratiga dalolat qiluvchi sifatlar ilmini o‘zida mujassam etgandir. Bu ilmlarning har bir sho‘basi Arsh va tuproq (er) orasini to‘ldiradi”[53], deb uning nechog‘li buyuk ilm va hikmat sifatida ta’riflaydi.

Hakim Termiziy Qur’oni karim va hadisda uchraydigan istilohlarning zohiriy va lug‘aviy ma’nosini bilish bilan cheklanib qolmay, ularning tub mazmunini anglashga undaydi. Shu ma’noda uning qarashlari boshqa olimlar fikrlariga taqqoslansa, albatta, Hakim Termiziy tasavvufiy nazariyalari botiniy ma’nolari jihatidan ken qamrovli ekani bilan farq qiladi. Buni Hakim Termiziy ilmiy merosini o‘rgangan doktor Abdulmuhsin Husayniy, doktor Muhammad Juyushiy kabi islomshunos va tasavvufshunos olimlar tadqiqotlarida e’tirof etilgan. Har ikkala olimning mazkur e’tiroflari aynan Hakim Termiziyning asarlarida ma’rifat mavzusining yoritilishiga qaratilgani bilan ahamiyatli. Xususan, M.Juyushiy bu fikrni “al-Amsol” asari haqidagi ilmiy tavsifida bayon etgani alohida e’tiborga molik. Olim mazkur asar mazmuni va Hakim Termiziyning tasavvufiy qarashlariga doir fikrlarini quyidagicha ifoda etgan: “Hakim Termiziy bu asarida o‘zi doim urg‘u beradigan tasavvufiy tushunchalarga to‘xtalib, ulardan ko‘zlangan g‘oya va maqsadlarni bayon qilgan. Bu kabi atama va tushunchalar boshqa mashoyixlar asarlarida uchramaydi. Ular hikmat, ma’rifat, ummolus-sidq (sidqidildan amal qiluvchilar), ummolulloh (faqatgina Allohning rizoligi uchun amal qiluvchilar), oriflar, siddiqlar, qalb va nafs kabi lafz (atama)lar bo‘lib, Hakim Termiziyning aksar risola va bahslari ularga yo‘naltirilgan”[54].

Abdulmuhsin Husayniyning bu boradagi fikri aynan Hakim Termiziy asarlaridan o‘rin olgan ma’rifat mavzusiga asoslangan xulosalari bo‘lib, uni “al-Ma’rifatu inda-l-Hakim at-Termiziy” (Hakim Termiziy nazdida ma’rifat nazariyasi) nomli asarida quyidagi qayd etgan:

“Hakim Termiziyning o‘ziga xos istilohlari va ilmlar tasnifiga doir qarashlariga ko‘ra, ma’rifat tushunchasi keng qamrovga ega. Uning nazarida ma’rifat bu zohiriy ilmni qamraydi. Bunga fiqh ilmlari, din odoblari, urf va umumiy odob masalalari kiradi. U zohiriy hikmat yo‘li – axloq, tasavvuf, taqvo va zuhdlarni ham o‘z tarkibiga oladi. Shuningdek, u oliy hikmat ya’ni aqoid, astronomiya, metafizika va ma’rifatni o‘z ichiga oladi. Mana shu o‘zaro farqli uch yo‘nalish –

[52] Doktor Ali Muhammad Bijoviy tadqiqoti. Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy. Al-Amsol min al-kitob vas-sunna. – Qohira: Maktabatu Dor at-turos, 1975. – B. 224.
[53] Doktor Ali Muhammad Bijoviy tadqiqoti. Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy. Al-Amsol min al-kitob vas-sunna. – Qohira: Maktabatu Dor at-turos, 1975. – B. 88.
[54] Doktor Muhammad Juyushiy. Al-Hakim at-Tirmiziy: dirosa li osorihi va afkorihi. – Qohira: Dor an-nahda al-arabiyya, 1980. – B. 80.

zohiriy ilm, zohiriy hikmat va oliy hikmat – Hakim Termiziy nazdida ma’rifat nazariyasining tarmoqlaridan hisoblanadi”[55].

Bu fikrdan Hakim Termiziyga ko‘ra, ma’rifat keng qamrovli tushuncha bo‘lib, zohiriy va botiniy ilmlar va odob-axloq masalalarini ham o‘zida mujassam etgani anglanmoqda. Shuningdek, Hakim Termiziy ilmiy merosida ma’rifat tushunchasi doimo odob-axloqning asl ma’dan va manbasi sifatida bayon etiladi. Bu esa axloqiy tanazzul kuchayib borayotgan bugungi davrda Hakim Termiziy asarlariga murojaat etish bilan axloqiy muammolarga yechim izlash va yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalashda ta’lim va odob-axloq masalalarini birgalikda olib borish davr talabi ekanini ko‘rsatadi. Axloqiy kamolotni esa islom ma’rifatisiz tasavvur qilish qiyin. Zero, islomdan boshqa biror din va ta’limot axloq masalasini o‘zining bosh g‘oyasi darajasiga ko‘targan emas. Islomda ilm-ma’rifat masalasiga katta ahamiyat berilgani aytib o‘tildi. Shuni alohida aytib o‘tish lozimki, Qur’oni karim va hadisi shariflarda ilm-ma’rifatga targ‘ib etish qatorida odob-axloq va tarbiya masalalariga ham teng e’tibor qaratilgan. Bu uslub Sharq olimlari ilmiy merosida to‘la aks etgan bo‘lib, ularning asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya va odob-axloq mavzulariga birdek ahamiyat berilgani ma’lum. Chunki, islomning asl maqsadi axloqli va fozil jamiyat qurishdan iborat. Bunday jamiyat yoshlarga ilm va odob, ta’lim va tarbiyani uyg‘unlikda o‘rgatish orqali yuzaga keladi.

Islom dinining bosh manbasi Qur’oni karim oyatlarida imon va axloq doim birga zikr etilib, imon keltirgan kishilar haqida so‘z borganda ular yaxshi amal qiluvchi go‘zal axloqli shaxslar sifatida sanaladi. Mavzu bo‘yicha izlanish olib borgan tadqiqotchi olima Oisha bint Abdurahmon (vaf. 1999) Qur’oni karimning 75 ta oyatida imon va yaxshi amal birga zikr etilganini bayon etgan[56]. Bu esa, Qur’oni karimning birinchi maqsadi imonga chaqirish, ikkinchi g‘oyasi axloqni sayqallash va solih amalga targ‘ib etishdan iborat ekanini anglatadi. XX asrning yirik mufassirlaridan Muhammad Tohir ibn Oshur (vaf. 1973) ham tafsir asarida ushbu fikrni aytib o‘tgan[57].

Darhaqiqat, Qur’oni karimda payg‘ambar Muhammad alayhissalomning eng go‘zal xulq egasi va musulmonlarga go‘zal o‘rnak-namnuna ekani aytilgan. Jumladan, “Qalam” surasining 4-oyatida Muhammad alayhissalomning xulqi haqida “وَإِنَّكَ لَعَلَىٰ خُلُقٍ عَظِيمٍ” ya’ni “Albatta, sen ulug‘ xulq sohibidirsan”[58], deyilgan. “Ahzob” surasining 21-oyatida esa, U zotning go‘zal xulqidan o‘rnak olishga targ‘ib etilib,

[55] Abdulmuhsin Husayniy. Al-Ma’rifatu inda-l-Hakim at-Termiziy. – Qohira: Dor al-kotib al-arabiy, 1963. – B. 175.
[56] Oisha bint Abdurahmon bint Shoti’. At-Tafsir al-bayoniy lil-Qur’on al-karim. – Qohira: Dor al-Maorif, 1990. – J. II. – B. 86.
[57] Muhammad Tohir ibn Oshur. Muqaddimatut-tahrir vat-tanvir. – Tunis: Ad-Dor at-Tunisiya, 1984. – J. I. – B. 38.
[58] Tarjima va izohlar muallifi: Shayx Muhammadjon mullo Rustamjon o‘g‘li. Bayon ul-Furqon fi tarjimatil-Qur’on. – Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2022. – B. 753.

bunday deyilgan: “لَّقَدْ كَانَ لَكُمْ فِى رَسُولِ ٱللَّهِ أُسْوَةٌ حَسَنَةٌ” ya’ni “Sizlar uchun Allohning Rasulida go‘zal o‘rnak bordir”[59]. Ushbu oyatlardan islomda odob-axloq masalasining o‘rni katta ekanini anglash mumkin. Bu haqda Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadislardan birida Muhammad alayhissalomning payg‘ambar etib yuborilishidagi bosh maqsad va u zotning asosiy vazifasi odamlarga ma’rifat o‘rgatib, ularning axloqini sayqallashdan iborat ekani ochiq bayon qilingan. U zot “Men solih (yaxshi) xulqlarni – yana bir rivoyatda – karamli (go‘zal) xulqlarni mukammal qilish uchun payg‘ambar qilib yuborildim”, deganlar[60]. Bu esa, islom ma’rifatida axloq masalasining katta o‘rin tutishiga dalolat qiladi.

Tarixda islom hazorasi kirib kelgan mintaqalardagi aholining axloq-odob va insoniy fazilatlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz bergani manbalarda qayd etilgan. Jumladan, ayrim zamonaviy tadqiqotlarda “... Islom dini kirib borgan o‘lkalarda kishilar xulq-atvorida soddalik, muloyimlik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat, kichilarga izzat kabi insoniy fazilatlarning yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgani va shu asosda ilm-fan taraqqiy etib, insonlar hayoti farovon bo‘lib, jamiyatda osudalik va barqarorlik ustuvor bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz”[61], deb e’tirof etilgan.

Qur’oni karim va hadisi shariflardagi axloq mavzusiga berilgan katta e’tibor natijasida Sharq olimlari imliy merosida ushbu masalaga alohida o‘rin ajratilgan. Ayniqsa, tasavvuf olimlari ilmiy merosining bosh g‘oyasi nafs tarbiyasi va odob-axloq mavzusidan iboratdir. Ular qatorida Hakim Termiziy ilmiy merosidagi odob-axloqqa oid asarlarni eslab o‘tish o‘rinli. Xususan, uning “Kitob ar-Riyoza va adab an-nafs”[62] (Riyozat va nafs odobi kitobi) nomli asari nafs tarbiyasi va odob-axloqqa bag‘ishlangan.

Hakim Termiziyning “al-Amsol min al-kitob vas-sunna” asarida axloq masalasiga o‘ziga xos yondashilib, uning bevosita ma’rifatga bog‘liq ekani bayon qilingan.

Muallif “al-Amsol” asarida inson tabiatida axloq urug‘i mavjudligi, biroq, uni o‘z holicha qo‘yilsa, go‘zal axloq sifatida shakllanmasligi, uning go‘zallik kasb etishida ma’rifat – Allohni tanish bosh omil hisoblanishi haqida to‘xtalib o‘tgan. Bu fikrlari “Axloqning asl o‘zaklari” nomli sarlavha doirasida quyidagicha aks etgan:

[59] Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. Tafsiri irfon. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019. – J. IV. – B. 460.
[60] Al-Imom al-Hofiz Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. Bayrut: Shirkatu Dor al-mashori’, 2021. B. 249.
[61] A.Abdullaev, I.Usmonov va boshqalar. Islom ma’rifati va hozirgi zamon. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017. – B. 3.
[62] Dr.A.J.Arberri va Dr.Ali Hasan Abdulqodir tadqiqoti. Kitob ar-Riyoza va adab an-nafs. Al-Hakim at-Termiziy. – Qohira: Matbaa Mustafo al-Bobiy al-Halabiy, 1947.

فالأخلاق أصولها في الطبع، ومادتها من المعرفة والعلم بالله تعالى. ... فالموحدون هذه صفتهم. والكفار أخلاقهم أصولها في الطبع، ... ومادتها فى الفرح بِمَدْح الناس، وطلب العلو والشرف والذكر[63].

“Inson tabiatida axloq urug‘i mavjud bo‘lib, uning asl moddasi Alloh taoloni ma’rifati va Uni anglab yetishdadir. ... Alloh taoloni yagona deb biluvchi kishilarning axloqiy fazilat va sifatlari asosi bu ma’rifatdir.

U zotni inkor etuvchilar tabiatida ham axloq urug‘i mujassam. ... Ammo ulardagi axloqning moddasi insonlarning maqtovlaridan quvonish, obro‘ va sharafga erishish hamda yaxshi nom qoldirishga intilishdadir”.

Muallif bu satrlarda musulmon va g‘ayridin shaxslar tabiatida axloq urug‘i birdek mujassam bo‘lishini ta’kidlab, har ikki tomonning axloqini yuzaga chiqaradigan o‘rinlari ko‘kslarida ekanini bayon etgan. Biroq, bu ikki axloqning ozuqa olish jihatlari tubdan farqli bo‘lib, ularning omillari negizida farq borligini aytib o‘tgan. Jumladan, musulmonlar Allohning ko‘rsatmasiga bo‘ysunib, axloqini doimiy nazorat qilib, uni shariat mezoni doirasida tutishga harakat qilsalar, Allohni tan olmagan kimsalar esa, o‘zlarining obro‘lari va sha’nlariga dog‘ tushirmaslik, odamlar ongida o‘ziga nisbatan yaxshi fikr uyg‘otish ilinjida jamiyatdagi axloq normalariga rioya qilishlarini ochiqlab bergan.

Darhaqiqat, bu ikki mezon orasida katta farq bor. Birinchi tomonning axloqi ma’rifat va qalb amriga muvofiq, ikkinchisiniki esa, odamlarning nazariga asoslangan me’yordir. Bundan ma’rifat asosidagi xulqni ilohiy xulq, ikkinchisini esa, tabiiy – barchada uchraydigan xulq deb, xulosa qilish mumkin.

Hakim Termiziyning «Al-Amsol min al-kitob vas-sunna” asarida odob-axloq masalasiga alohida e’tibor qaratilib, uning ma’rifatga bog‘liq ekaniga alohida urg‘u berilgan.

Xulosa qismida shuni aytib o‘tish joizki, islom ma’rifati va odob-axloq masalasini bir-biridan ajratish imkonsiz bo‘lgan tushunchalar ekan. Ta’limni tarbiyadan ajratmay, farzand tarbiyasida ilm, odob-axloqni birga olib borish masalasi Sharq allomalari ilmiy merosidan keng o‘rin olgan. Jumladan, Hakim Termiziy o‘z zamonasida ilmiy merosining aksari axloqqa bag‘ishlangan olimlardan biri sifatida tanilgan bo‘lib, uning “Kitob ar-Riyoza va adab an-nafs” (Riyozat va nafs odobi kitobi) nomli asarlari nafs tarbiyasi va axloq mavzusiga bag‘ishlangani bilan ahamiyatli. Shu ma’noda alloma ilmiy merosida ko‘tarilgan islom ma’rifatining muhim tarmoqlari – odob va husni xulqqa oid mavzular bugungi kundagi axloqiy muammolarga yechim topish va ularni bartaraf etishda ahamiyatlidir.

[63] Doktor Ali Muhammad Bijoviy tadqiqoti. Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy. Al-Amsol min al-kitob vas-sunna. – Qohira: Maktabatu Dor at-turos, 1975. – B. 76.

SOG‘LOM E’TIQODNI TARG‘IB QILIShDA ShABBIR AHMAD USMONIYNING O‘RNI

Oybek Hoshimov
Hadis ilmi maktabi “Hadis ilmlari” kafedrasi
katta o‘qituvchisi
hashimiy@mail.ru

Shabbir Ahmad Usmoniy moturidiy e’tiqodini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashda mo‘tadil yo‘l tutadigan hanafiy olimlardan bo‘lgan. Sog‘lom e’tiqodni targ‘ib qilgan va g‘uluvga ketgan insonlarga ilmiy dalillar asosida raddiya berib kelgan. Chuqur nazar va teran fikrli bo‘lgan olimning dalillariga javob berish muxoliflarga oson bo‘lmagan. Mana shunday bahs-munozaralardan biri Saudiya olimlari bilan ham sodir bo‘lgan.

Shabbir Ahmad hijriy 1344 yil hajga “Hind ulamolari jamiyati” a’zosi bo‘lib bordi. U yerda tashkil etilgan anjumanda qatnashdi. Bir qancha fiqhiy masalalarda o‘z fikrini bildirgan. Jumladan, o‘sha vaqtlarda sahobalar maqbarasini buzib, tekislash haqida bahs-munozaralar bo‘layotgan edi. Saudiya olimlari odamlar qabrga sig‘inyapti, bu kufr bo‘ladi, degan sababni keltirib, maqbaralarni buzishga fatvo bergan edilar. Saudiya podshohi Abdulaziz Oli Saud va bir qancha olimlar oldida maqbaralar masalasi ham ko‘rildi. Shabbir Ahmad Usmoniy kufrning darajalari bor ekani, qabrga sig‘indi deganda ham ular gunohkor bo‘lishi, lekin butparastlar kabi kofir bo‘lmasligini dalillar asosida isbotlab berdi. Bu gaplarni eshitgan podshoh Abdulaziz jim bo‘lib qoldi. Bu masala yuzasidan hech narsa deya olmasligini aytib, masalani olimlarga havola qildi. Saudiya olimlari kattasi Aldulaziz Atiqiy ham bu gaplarni birinchi marta eshitayotgani aytdi. Uning teran fikri va fiqhiy masalalarni chuqur anglashi ko‘pchilikning e’tirofiga sazovor bo‘ldi[64].

Shabbir Ahmad risola va maqolalarida ham sog‘lom e’tiqod masalasini ko‘p yoritib borgan. Jumladan, “Dorul oxirat” risolasi ilmiy maqola bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan. Masalan, islomdagi asosiy e’tiqod va oxirat masalasi haqida so‘z yuritilgan. 1912 yil tashkil qilingan tadbirda nutq qilgan maqolasi asosida yozilgan.

Olimning “Shihob” asarida islomdan chiqqan odamning hukmi borasida so‘z borgan. Uni yozilish sabab bor edi. Afg‘oniston podshohi Omonullohxon ikki kishini odamlar oldida islomdan chiqqan deb hukm qiladi va shunga yarasha jazo beradi. Ular qodiyoniy toifasida bo‘lgan Ne’matullohxon va hamrohi Abdulatif

[64] Muhammad Anvar Hasan Shirkutiy. Kamolati Usmoniy. - Multan: Idora ishoatil xayr, 2006. - B. 352-353.

bo‘lgan. Qodiyoniy bo‘lgani uchun dindan chiqdi, deb hukm qilinishi qodiyoniylar e’tiroziga sabab bo‘ldi. Ular dalil-hujjatlar keltirib bu hukm va jazo xato ekanini aytadi. Shunda Shabbir Ahmad oyat, hadis, ijmo va qiyos asosida bu hukm to‘g‘ri bo‘lganini isbot qilgan[65].

“Hadiyati saniyya” risolasida bir odam jannat va do‘zaxga imon keltiradi. Lekin haqiqiy bo‘lishiga imon keltirmaydi. Jannat ne’matlari va do‘zax azoblari haqiqiy bo‘lishiga ishonmaydi. Balki shunday bo‘lib ko‘rinadi, deydi. Uning imoni qabul bo‘ladimi? Yigirma varoqli risolada shu masalani ham yoritib bergan[66].

“Islom ki bunyadi aqaid” asari. “Islomning asosiy e’tiqodi”, deb nomlangan risolada islomning asosiy e’tiqodi haqida falsafiy bahs yuritilgan. Masalan, Yaratuvchining borligi, tavhid, payg‘ambarlar yuborilishi, farishtalar borligi kabi e’tiqodiy masalalar yoritib berilgan[67].

Shabbir Ahmad oyat-hadislarni sharhlashda ham mo‘tadillik yo‘lini tutgan. Hamda jamiyatdagi vaziyat va odamlarning islom haqidagi bilimlarini ham hisobga olib fatvo aytish kerak ekani haqida fikrlarini olg‘a suradi. Masalan, “Sahih Muslim”da kelgan hadisda Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Kishi bilan shirk va kufr orasida namozni tark qilish bor”, dedilar[68]. Hadisga bir qaraganda namoz o‘qimaslik kufr va shirkka sabab bo‘ladi, deb tushunish mumkin.

Lekin Shabbir Ahmad, “Olimlar bu hadisni namozni farzligini inkor qilib o‘qimaydiganlar, deb ta’vil qiladilar”, degan[69]. Hadisda aytilgan so‘zlarga izoh berish kerak bo‘lar ekan. Boshqa hadislarni ham o‘rganish orqali yana ham yaxshiroq tushunish mumkin.

Yana bir hadis Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Odam bolasi sajda oyatini o‘qib sajda qilsa, shayton yig‘lab, “Holimga voy bo‘lsin! Odam bolasi sajdaga buyurilganda sajda qilgan edi, unga jannat bo‘ldi. Men sajdaga buyurilganimda bosh tortgan edim, menga do‘zax bo‘ldi”, deb uzoqlashadi”, dedilar[70]. Bu hadisda ham sajda qilmagani uchun do‘zaxga tushdi, kofir bo‘ldi, degan ma’no kelib chiqishi mumkin. Shu sababli ayrimlar namoz o‘qimagan odamga nisbatan ham do‘zaxda abadiy qolish va kufr so‘zlarini ishlatadi.

Shabbir Ahmad: “Menimcha, iblis kibr qilib sajdadan bosh tortgani uchun imoni inkor qilingan. Iblisning qilmishi va kofir bo‘lishi sababi ham oyatda sajda

[65] Muhammad Anvar Hasan Shirkutiy. Hayoti Usmoniy. - Karachi: Dorul ulum, 1985. - B. 182.
[66] Shabbir Ahmad Usmoniy. Fathul mulhim. - Damashq: Dorul qalam, 2006. - J.1. - B. 10-11.
[67] Shabbir Ahmad Usmoniy. Islom ki bunyadi aqoid. - Devband: Maktaba millat divband (nashr yili ko‘rsatilmagan). - B. 6.
[68] Abul Husayn Muslim ibn Hajjoj. Sahih Muslim. Bushro: Karachi, 2020. J. 1. - B. 148.
[69] Shabbir Ahmad Usmoniy. Fathul mulhim. Damashq, Dorul qalam, 2006. J. 2. - B. 37.
[70] Abul Husayn Muslim ibn Hajjoj. Sahih Muslim. Bushro: Karachi, 2020. J. 1. - B. 148.

qilishdan bosh tortgani va kibr qilgani aytilgan[71]. Bu yerda esa namozni dangasalik va beparvolik qilib o‘qimaslik haqida gap ketyapti”[72], degan.

Hadis “...bosh tortgan edim, menga do‘zax bo‘ldi”, deb keltirildi. Imom Muslimning maqsadi ayrim amallarni qilmaslik bilan haqiqiy kufr bo‘lishi ham mumkin yoki nomlanishda kufr bo‘ladi, deyish bo‘lgan.

Namoz o‘qimagan odam namozni farz ekanini butunlay inkor etsa musulmonlar ijmosiga ko‘ra kofir bo‘ladi va islom dinidan chiqqan sanaladi. Farzligini bilmagan va inkor qilmagan odam istisno bo‘ladi. Bu haqida “Fathul mulhim”da, “Yangi musulmon bo‘lib, namozning farzligini bilmaydigan darajada bo‘lsa dindan chiqib ketmaydi. Lekin hozirgi kundagi ko‘p odamlar kabi e’tiqodida namozni farzligini bilib, dangasalik qilib namoz o‘qimayotgan bo‘lsa butkul kofirga chiqarib bo‘lmaydi”[73], deb keltirilgan. Shabbir Ahmad kufr so‘zini qo‘llashda islom hukmlarini yaxshi bilmaydigan va islomni endi qabul qilingan odamlarni rioyasi qilinishi kerak ekanini ta’kidlamoqda. Shuningdek, namozni inkor qilmaydi, lekin dangasalik qilib o‘qimaydigan odamlarga ham kofir deb hukm o‘qishdan qaytaryapti. Bugungi kunimizdagi dolzarb muammoga yechim taqdim qilib o‘tmoqda.

Shabbir Ahmadning fikricha, katta gunoh qilsa imondan chiqib ketmaslik masalasi Qur’on, islom, kufr va sabablarini hammadan yaxshi biladigan sahobalarning so‘zlaridan olingan. Bu kabi masalalar sahobalardan olinishi kerak. Keyingi davr olimlari sahobalarning maqsadini tushunmasdan ikki toifaga bo‘lindilar. Ayrim toifa olimlar katta gunoh qilgan odamni dindan chiqarib yuboradilar. Dindan chiqqani uchun do‘zaxda abadiy qolishiga hukm qildilar. Boshqa toifa olimlar esa katta gunoh qilgan odamning imoni mukammal qolishini aytdilar[74].

Xulosa qilib aytganda, Shabbir Ahmad Usmoniy sog‘lom e’tiqodni yetkazishda o‘zining teran fikri bilan yondoshgan. Oyat-hadislarni sharhlash va tushunishda salaf-solihlarning yo‘lini tutgan edi. Radikal fikrda va e’tiqodi xato bo‘lgan odamlarga sof islomni anglatgan. Ularga ilmiy raddiya berish orqali botil g‘oyalar oldini olishga harakat qilgan. Olimning merosini o‘rganish orqali sog‘lom e’tiqodni targ‘ib qilishni va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashishda ilmiy uslubni o‘rganish mumkin.

[71] Qarang: Baqara surasi, 34-oyat.
[72] Shabbir Ahmad Usmoniy. Fathul mulhim. Damashq, Dorul qalam, 2006. J. 2. - B. 36.
[73] Shabbir Ahmad Usmoniy. Fathul mulhim. Damashq, Dorul qalam, 2006. J. 2. - B. 36.
[74] Qarang: Shabbir Ahmad Usmoniy. Fathul mulhim. Damashq, Dorul qalam, 2006. J. 2. - B. 39.

IBN SINONING ISLOMIY BILIM VA ILM-FAN UYG‘UNLIGI TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI

R.N.To‘xtasinov
Buxoro davlat universiteti doktoranti
Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi

Islom tarixida ilm-fan va diniy bilimlar o‘rtasidagi munosabatlar har doim diqqat markazida bo‘lgan. Musulmon mutafakkirlari, xususan, buyuk faylasuf va tabib Abu Ali Ibn Sino ushbu ikki sohani bir-biridan ajratmasdan, ularni uyg‘un holda rivojlantirish tarafdori bo‘lgan. U diniy haqiqatlar va ilmiy haqiqatlar bir-birini inkor qilmasligini isbotlashga harakat qilgan.

Ibn Sino fikricha, Qur’on va hadislar insoniyatga yo‘l ko‘rsatuvchi ilohiy manba bo‘lish bilan birga, tafakkur va ilmga undaydi. Shu boisdan ham u falsafiy tafakkurini ilohiy bilimlar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Uning asarlarida nafaqat tibbiyot va mantiq, balki tafsir, kalom va fiqh masalalari ham yoritilgan.

Uning “ash-Shifo”[75], “an-Najot”[76], “Al-Ishorat va at-Tanbihat”[77] kabi asarlarida ilm-fanning nazariy asoslari va islomiy tafakkur uyg‘un ravishda ko‘rinadi. Mazkur maqolada Ibn Sinoning ayni shu uyg‘unlik borasidagi qarashlari, ularning asoslari va hozirgi davr uchun dolzarbligi yoritiladi.

1. Ilm-fanning islomiy asoslari haqida Ibn Sino qarashlari

Ibn Sino ilm-fanni islom dini asoslariga zid bo‘lmagan holda rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, aqlni ishga solish Qur’oni karimda ko‘p bora targ‘ib qilingan va bu insoniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

O‘zining “ash-Shifo” asarida u falsafa va tabiiy fanlarni tafsir va hadis ilmi bilan uyg‘unlashtirib tahlil qiladi[78]. Ibn Sino ilm-fan va vahiy o‘rtasida tafovut emas, balki uyg‘unlikni izlagan. Unga ko‘ra, haqiqatga etishishda ikkala manba muhim.

Shuningdek, u ijtihod va tafsirni ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda olib borish tarafdori bo‘lgan. Ilm-fan Allohni bilish vositasi bo‘lishi kerak, degan nuqtai nazarni ilgari surgan[79].

Bu qarashlar orqali u musulmon ilm-fan an’anasiga chuqur falsafiy asos yaratgan va bu an’ana keyinchalik G‘arb uyg‘onish harakatlariga ham ta’sir qilgan.

2. Qur’on va tafsir ilmining ilmiy tafakkurdagi o‘rni

[75] Ibn Sino. *Kitob ash-Shifo*. — Qohira: Dar al-Ma’arif, 1952.
[76] Ibn Sino. *Kitob al-Qonun fit-tibb*. — Istanbul: Matbaa al-Kubra, 1877.
[77] Ibn Sino. *Al-Ishorat va at-Tanbihat*. — Beyrut: Dar al-Fikr, 1996.
[78] Ibn Sino. *Kitob ash-Shifo*. — Qohira: Dar al-Ma’arif, 1952.
[79] G‘ulomov A. *Ibn Sino va islom falsafasi*. — Toshkent: Fan, 1998. - B. 56.

Qur’oni karimda ilm va tafakkurga oid ko‘plab oyatlar mavjud bo‘lib, ular Ibn Sino tafakkurining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Masalan, “Aql yuritmaydilarmi?” degan oyatlar (Yunus, 100; G‘ofir, 54) u uchun ilm-fanga undov bo‘lgan.

Ibn Sino tafsir ilmini ilmiy izlanishlar bilan bog‘lab, har bir ilohiy oyatni ilmiy tushuncha bilan sharhlashga uringan. U matnni tanqidiy tahlil qilish bilan birga, uning falsafiy mohiyatini anglashga harakat qilgan[80].

Al-Ishorat va at-Tanbihat asarida u Qur’ondagi ba’zi falsafiy iboralarga sharhlar keltirib, tafsirni mantiqiy va metafizik tahlil bilan boyitgan. Bu yondashuv tafsir va falsafa o‘rtasida yangi maktab asoslarini yaratdi.

Ushbu yondashuv zamonaviy tafsir maktablariga ham ta’sir ko‘rsatib, Qur’on ilmini chuqur va analitik o‘rganishga zamin yaratgan.

3. Diniy bilimlar va tabiiy fanlar o‘rtasidagi uyg‘unlik

Ibn Sino nazarida, diniy bilimlar va tabiiy fanlar bir-birini to‘ldiradi. Ular qarama-qarshi emas, balki uyg‘un holda inson tafakkurini boyitadi.

U ilm-fan orqali Yaratganning qudratini anglash mumkinligini ta’kidlagan. Tabiatdagi muvozanat, tartib va qonuniyatlar Allohning hikmatidan dalolat berishini u o‘z asarlarida qayd etgan.

Ushbu yondashuv G‘arbdagi sekulyar tafakkurdan farq qiladi. Unga ko‘ra, haqiqat yagona bo‘lib, u diniy va ilmiy haqiqatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Bu fikrlar o‘rta asr musulmon dunyosida ilmiy izlanishlar uchun zamin bo‘lib, Bag‘dod, Buxoro, Kordova kabi markazlarda ilm-fanning yuksalishiga sabab bo‘lgan.

4. Ibn Sinoning tibbiy-ilmiy ishlari va diniy qarashlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ibn Sino tibbiyot va ruhiy-ma’naviy salomatlikni bir butun holda ko‘rgan. Uning “Qonun fit-tibb” asari buni yaqqol ko‘rsatadi[81].

Ushbu asarda Ibn Sino inson salomatligini nafaqat jismoniy, balki ruhiy, ma’naviy muvozanat bilan bog‘liq deb tushuntiradi. Unga ko‘ra, qalb salomatligi ham tananing salomatligidek muhim.

Bu yondashuv islomda ruh va jism uyg‘unligiga asoslanadi. U kasallikdan davolanishda tibbiy muolajalar bilan bir qatorda duo, Qur’on tilovati va iymonning ham rolini ta’kidlaydi.

Bunday integrativ yondashuv hozirgi zamon psixosomatik tibbiyotining falsafiy asoslariga o‘xshashdir va zamonaviy meditsina uchun ham dolzarb.

5. Ibn Sino merosining hozirgi ilmiy-ta’limiy tizimga ta’siri

[80] Ibn Sino. *Al-Ishorat va at-Tanbihat*. — Beyrut: Dar al-Fikr, 1996.
[81] Ibn Sino. *Kitob al-Qonun fit-tibb*. — Istanbul: Matbaa al-Kubra, 1877.

Bugungi kunda Ibn Sino qarashlari zamonaviy integratsion ta’lim tizimi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilm-fan va islomiy bilimlar uyg‘unligiga oid g‘oyalari hozirgi o‘quv dasturlarida tatbiq etilmoqda.

Uning ilmiy-metodik ishlari ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida o‘rganilmoqda. Ayniqsa, falsafa, tibbiyot, ilohiyot sohalarida uning merosi fundamental manba sanaladi[82].

Ibn Sinoning ilmiy maktabi G‘arb Uyg‘onish davrida ham katta ta’sirga ega bo‘lgan. Uning asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, evropalik faylasuflar tomonidan o‘rganilgan.

Shuningdek, u nafaqat olim, balki ma’naviy murabbiy sifatida ham tan olingan. Uning qarashlari bugungi musulmon jamiyatining ma’naviy barkamolligi uchun muhim yo‘nalishdir.

Ibn Sino o‘z asarlari va ilmiy-ma’rifiy faoliyati orqali ilm-fan bilan islomiy bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur falsafiy tahlil etgan va ularni bir-birini to‘ldiruvchi haqiqat manbalari sifatida qaragan. Unga ko‘ra, haqiqat faqat diniy manbalardan yoki faqat aql orqali emas, balki ikkisi uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv nafaqat o‘rta asrlarda, balki hozirgi zamonaviy ilm-fan va ta’lim tizimi uchun ham muhim metodologik asos yaratadi.

Ibn Sino Qur’oni karim oyatlarini falsafiy tafakkur bilan talqin qilgan, tafsir ilmini mantiq, metafizika va tabiiy fanlar bilan uyg‘unlashtirishga uringan. Uning fikricha, ilm — bu ilohiy haqiqatga etishish yo‘lida inson aqlining faoliyati bo‘lib, u din bilan to‘qnashmasligi, balki uni to‘ldirishi kerak. Aynan shu yondashuv tufayli Ibn Sino musulmon olamida “Shayx ur-Rais” (Olimlar peshvosi) sifatida e’tirof etilgan.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlar, ayniqsa integratsion ta’lim, multidisiplinar tadqiqotlar va insonparvarlik asosida qurilgan tibbiyot tizimlari Ibn Sinoning qarashlariga yaqinlashmoqda. Bu, o‘z navbatida, uning ilmiy va axloqiy merosini bugungi kun uchun ham dolzarb va zarur ekanligini tasdiqlaydi. Ilmning din bilan muvozanatli rivojlanishi jamiyatda ma’naviy barkamollikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, Ibn Sino merosi bizga islomiy ma’rifat va ilm-fan uyg‘unligini qanday samarali amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Uning bu boradagi qarashlari hozirgi musulmon jamiyatlari oldida turgan ilmiy, madaniy va ma’naviy muammolarga echim topishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ibn Sino nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham o‘chmas ilmiy va ma’naviy meros qoldirgan allomadir.[83]

[82] G‘ulomov A. *Ibn Sino va islom falsafasi*. — Toshkent: Fan, 1998.

YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xaitov Azizbek Azamatovich
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti
azizbekxaitov5253@gmail.com

Mamlakatimizda ajdodlarning qadimiy tarixi va boy madaniyatini qayta tiklash, buyuk allomalar ilmiy-ma`naviy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yosh avlodda milliy an`analar va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ularga ehtirom ko‘rsatish, ulardan har jihatdan saboq olishga qaratilgan oqilona siyosat olib borilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganidek, “Bu sohada qilayotgan ishlarimizdan maqsad – islomga e’tiqodimizni, alloma bobokalonlarimizga hurmatimizni ilm bilan bildirish. Ajdodlarimizga munosib bo‘lish biz uchun juda katta burch[84]”. Imom Buxoriy kabi islom olamida yuksak e`tirofga sazovor allomalar hayot yo‘li va ilmiy merosni chuqur tadqiq etish hamda asarlarini keng jamoatchilikka targ‘ib qilish muhim masalalardan sanaladi.

Ta’lim muassasalarida talabalarni sharq mutafakkirlarining hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish, ularda sharqona ma’naviyat va tarbiyani samarali tashkil etishda Qur’oni Karimdan keyin Hadisi shariflarni keltirishimiz muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonlarining jadallik bilan o‘sib borishi, “Internet” tarmog‘ining keng yoyilishi xalqlararo yaqinlikni, o‘zaro madaniyat almashinuvini tezlashtirmoqda. Bu esa yoshlarni milliy iftixor tuyg‘usi bilan kamol topishlari, ularda milliy urf-odatlar, an’analar va qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish pedagogika fani oldidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) tomonidan to‘plangan, hadis ilmining sultoni, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sahih (ishonchli) hadislari o‘n ikki asrlik bo‘lib, butun insoniyatni hidoyat yo‘liga boshlaydi. Buyuk allomaning hayoti va ilmiy faoliyati butun dunyoda azaldan doimiy o‘rganilib kelinmoqda, bu haqda Sharq va G‘arbda ko‘plab ilmiy-ommabop asarlar yaratilgan. Binobarin, yurtimiz nomini jahonga mashhur qilgan ana shunday buyuk allomaning avlodi, munosib davomchisi bo‘lish biz uchun katta sharaf, ayni paytda katta mas’uliyatdir.

Barkamol avlodni tarbiyalash pedagoglardan alohida e’tiborni talab qiladi. Barkamol avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida xalqimiz tomonidan,

[84] https://www.president.uz/oz/lists/view/4288

ularning milliy urf-odatlaridan, an’analaridan tajribalar xalq tomonidan yaratilgan ijod namunalaridan va ilmiy amaliy asarlari va qoldirgan boy meroslarida o‘z ifodasini topgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki ilm -fanda hadis ilmining amiri deb tan olingan Imom Ismoil Al-Buxoriy hadislari ko‘p aql durdonalarini yoshlar tomonidan yanada ko‘proq o‘zlashtirilishi bugungi Yangi O‘zbekiston ehtiyojlariga mos kelib ahloqiy fazilatlarni o‘rganish ya’ni pedagogik psixologiya fanlarini o‘qitishda yoshlarda ajoyib ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Xullas Imom Ismoil al-Buxoriy hadislari yoshlarni mehnatsevarlik va erksevarlik, har qanday og‘ir vaziyatda ham mustahkam iroda, vazminlik bilan ish tutish va omilkorlik, kelajakka, insonga doir udum va an’analar ruhida shuningdek shaxs ilmiy dunyoqarashinni shakllantirishga katta imkoniyat beradi.

Imom Buxoriyning musulmonlar uchun Qur’oni karimdan keyingi maqomda hisoblangan “Al-Jome’ assahih” asari arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Imom Ismoil Buxoriyning “Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari)”, „Al Jome’ as-sahih” (Ishonchli to‘plam),kabi ko‘plab axloq-odobga oid asarlari mavjuddir.

Quyida Imom Buxoriy kitoblaridan olingan ilmning fazilati to‘g‘risidagi hadislaridan keltirib o‘tamiz. Alloh taolo Qur`oni karimda:” Alloh taolo sizlarning orangizdagi imon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug‘ qilg‘aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Alloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir”,-deyilgan. Yana boshqa oyati karimasida esa: ”Yo Rabbiy, ilmimni ziyoda qilg‘aysen, deb ayt!”-deyilgan.Rasullulloh sollallohu alayhi vassallam aytganlar: “Alloh taolo menga yuborgan hidoyat singari ilm ham ko‘p yog‘gan yomg‘irga o‘xshaydi. Ba`zi er sof, unumdor bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradi-da, har-xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradi va ba`zi er qurg‘oq qattiq bo‘lib, suvni emmasdan, o‘ziga to‘playdi, undan Alloh taolo bandalarini foydalantiradi. Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarni va ekinlarni sug‘oradi. Ba`zi er esa, tekis bo‘lib suvni o‘zida tutib qolmaydi, ko‘katni ham ko‘kartirmaydi. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: Bir kishi Alloh ilmini (islomni) teran o‘rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi. Va Alloh buyurgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadi. Ikkinchi bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga ham o‘rgatadi. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o‘zi ham o‘rganmaydi, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo‘min, ikkinchisi fosiq va uchinchisi kofirdir”.

Imom al- Buxoriy “Al-Jome’ as-sahih” asarining “Ilm kitobi”: 10-bobida Bir ishni qilishdan ham, so‘zlashdan ham avval ilm darkorligi to‘g’risida gapirib: “Ilmga

faqat ta’lim olish bilan erishiladi[85]” deb aytgan. Mazkur hadisdan shunday xulosaga kelish mumkinki, ilm izlamoq har bir musulmonga farzdir.

Islom ta’limotida bilmagan narsasini bilishga harakat qilish, har bir musulmon erkak va ayolga buyuk vazifadir.

Demak, hadis kitoblarida ilm yo‘liga kirgan kishining niyati xolis bo‘lishi, kishi botinini to‘g’rilashi,ilm ko‘zi ojizlar uchun qalbning hayoti, zulmatda ko‘zning nuri bo‘lishi, ilm bilan fikr qilmoq ro‘zaga barobarligi, ilm darsi kechalari qilingan ibodatga tengligi, u tufayli halol va haromning farqlanishi, baxtli insonlar unga erishishi, badbaxtlar esa undan mahrum bo‘lishi haqida yozilgan. Muhaddislar ilmning ofati unutish, uni loyiq bo‘lmagan kishiga so‘zlash uni zoye qilishdir deb o‘rganilgan ilmni unutmaslik va loyiq bo‘lmagan odamlarga so‘zlashdan saqlanish zarur deb etkazganlar.

Imom al- Buxoriy “Ilmni yozish bilan qayd qilinglar[86]” degan hadisni keltirib, ilmni saqlash uchun uni yozib, qayd qilib qo‘yish yaxshi ekan, shuning uchun ham o‘quvchilarni, talabalarni o‘zi bilan birga yon daftari va yozuv qurollari olib yurishga odatlantirish kerak.

Imom al- Buxoriy “Al-Jome’ as-sahih” asarining “Ilm kitobi”: 15-bobida “Ikki narsadan o‘zgasiga hasad qilish joiz emas, biri- kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersayu, uni haq yo‘lida sarflayotgan bo‘lsa, ikkinchisi- kishiga Alloh taolo ilmu hikmat bersa va shu bilan hukm qilib, odamlarga bilganini o‘rgatayotgan bo‘lsa” deganlar[87].

Imom al- Buxoriy “Sahihul Buxoriy[88]”da uyatchan ham, dimog’dor ham ilm o‘rgana olmaydi deb aytganlar. Demak, talaba yoshlarni ilmli qilish, barkamol avlodni tarbiyalash pedagoglardan alohida e’tiborni talab qiladi.Barkamol avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida xalqimiz tomonidan, ularning milliy urf-odatlaridan, an’analaridan tajribalar xalq tomonidan yaratilgan ijod namunalaridan va ilmiy amaliy asarlari va qoldirgan boy meroslarida o‘z ifodasini topgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki ilm -fanda hadis ilmining amiri deb tan olingan Imom Al-Buxoriy hadislari ko‘p aql durdonalarini yoshlar tomonidan yanada ko‘proq o‘zlashtirilishi bugungi Yangi O‘zbekiston ehtiyojlariga mos kelib, axloqiy fazilatlarni o‘rganish, ya’ni pedagogika, psixologiya fanlarini o‘qitishda yoshlarda ajoyib ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Xullas, Imom al-Buxoriy hadislari yoshlarni mehnatsevarlik va erksevarlik, har qanday og‘ir vaziyatda ham

[85] Sahihi-Buxoriy: diniy ma’rifiy /Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy.- Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2021.40-b

[86] 101 hadis: diniy-ma’rifiy/ Anvar Ahmad.- Toshkent: “Book Media Shop” MChJ qoshidagi “Munir” nashriyoti, 2022. B-22

[87] O’sha erga qarang, 42-b.

[88] Oltinsilsila: CahihulBuxoriy, 1-juz-Toshkent: Hilol-nashr, 2023.- 216-b.

mustahkam iroda, vazminlik bilan ish tutish va omilkorlik, kelajakka, insonga doir udum va an’analar ruhida shuningdek shaxsda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga katta imkoniyat beradi.Yuqorida keltirilgan ma`lumotlarga tayangan holda Imom Buxoriy hayot tarzi, ilm uchun fidoiyligi, e`tiqodining pokligi bilan barchaga ibrat bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin. Demak, ilm-ma`rifatni jam qilgan, ilm egallagan kishining ikki dunyosi oboddir.

Imom al- Buxoriy hadisalaridan ilm egallash va ma’rifatga erishish yo‘llariko‘zlangan maqsad:

- Yoshlarni ilmu ma’rifatga chorlash hadis kitoblarining xizmati bo‘lib, ularda ilm talab qilish har bir musulmon va muslima uchun bir umrga farz qilingan;Har bir sog’lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasbukorni halol olib borishiga, vatanparvar bo‘lishiga ya’ni hadisi shariflar barchani to‘g’ri yo‘lga boshlashga xizmat qilishini etkazish;

- Hadislarning jamiyatimiz a’zolarini axloqiy tarbiyasi bo‘yicha ahamiyati beqiyos, insonni tarbiyalash ayniqsa bolalarga, talabalarga odob va axloqdan puxta ta’lim va tarbiya berish uning muhim vazifalaridan biridir. Chunki jamiyat a’zolarining yaxshi xulqli, halol va pok bo‘lishini orzu qilsak-u, ammo o‘sha jamiyatning kelajagi bo‘lmish bolalar, talabalar tarbiyasi haqida qayg’urmasak niyatlarimiz sarobligicha qolaveradi;

- Hadislarda jamiyat a’zolari iqtisodiy tarbiyasi uchun keltirilgan foydalar benazir, ularda halol kasb, halol luqma, haromdan hazar qilish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan hadislar ma’rifatli shaxs tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi;

Hadisi shariflarda bugungi kunimizda jamiyat uchun zarur bo‘lgan barcha ezguliklarga chaqiriq va jamiyatga zarar keltiradigan barcha razilliklardan qaytariqlar etarlicha. Imom al-Buxoriy hadislari o‘z Vatanini sevuvchi uning ravnaqi va istiqboli uchun fidoiy yoshlarimiz, barkamol avlod uchun albatta dastrulamal bo‘lib qolishishubhasizdir[89].

Shu sababli ma’naviy merosimizni tiklash,o’rganish va hayotga tatbiq etish, jahon andozalari darajasiga ko’tarish va o‘quvchilarni ajdodlarimiz asarlari bilan tanishtirish, maktablarda, litsey va kasb hunar maktablarida, texnikum va oliy ta'lim muassalarida ham shu asarlar asosida tarbiyaviy soatlar, ilmiy amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, ochiq darslar, Imom al-Buxoriy ziyoratgohiga (Samarqand), Imom al Buxoriy muzeyiga sayohat (Buxoro) o‘tkazilishiga alohida e’tibor qaratish darkordir[90].

[89] Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadic ilmi rivojida tutgan o‘rni. – T., 2004, 123-bet

[90] Xaitov Azizbek Azamatovich Imom Al – Buxoriy merosi asosida talaba yoshlarga ma’rifatparvarlik fazilatlarini tarbiyalash va rivojlantirish. Ta’limda istiqbolli izlanishlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 6. 2024. 222-b.

Imom al-Buxoriy ta’limotlarni o’rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarasosida Yangi O’zbekiston yshlarining ma’naviy barkamol jihatdan kamolotga erishishlari, egallagan bilim va malakalarni o’z faoliyatlarida, jamiyatimiz taraqqiyoti yo’lida to’la namoyonetish imkoniyatiga ega bo’ladigan darajada tarbiyalash muhim vazifalardandir. Albatta, bu ezgu vazifani ijobiyhal etishda xalqimiz ma’naviy merosining ahamiyati kattadir.

Xulosa sifatida aytish joizki, o‘zbek xalqi o‘zining o‘tmishi bilan har qancha fahrlansa, g‘ururlansa arziydi. U jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga shu qadar katta hissa qo‘shganki, buni butun dunyo allaqachon tan olgan. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shganlar, xalqimizning milliy iftixori bo‘lib kelmoqdalar.

TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH MOTIVLARI

Bozorov Vahobiddin
Mir Arab oliy madrasasi
o‘qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari moliyaviy ta'minotining huquqiy asoslari “Ta'lim to‘g‘risida” gi qonunda va O‘zbekiston respublikasi Prezidenti farmon va qarorlarida, Vazirlar mahkamasining qarorlarida va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining qator me'yoriy-xuquqiy hujjatlarida o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi qonuniningTa'lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish nomlangan 38- moddasida, jumladan, Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to‘lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi”, deb ko‘rsatilgan.

Qonunning bu moddasiga muvofiq hozirgi kunda ta'lim muassasalarini moliyalashtirish davlat byudjetidan o‘qitishning ta'lim granti shaklida va

o‘qitishning to‘lov kontrakt shakli hisobidan amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu qonunning “Ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash” degan 9-bobining “Ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish degan 62-moddasida Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirishO‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va

shaharlar byudjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag‘lari hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish muassislarning, kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi ham belgilab qo‘yilgan[91] .

Xorijiy pedagog olimlar G.Onushkin va E.Ogareva tomonidan o‘rganilgan “o‘qitish” atamasi, ta'limning amaliy vazifalari bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi, qachonki u ma'lum bir turdagi faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy, o‘quv-bilish yoki o‘quv dasturining o‘ziga xos vazifalarini amalga oshirish uchun keyinchalik qo‘llash maqsadida pedagogik tajribani rivojlantirishni anglatadi. Bu atama ikki ma'noda ishlatiladi:

a) o‘rganish - oldinda turgan vazifalarni bajarishga tayyorlikni shakllantirish, faoliyatning ikki turini aks ettiradi - o‘qitish va o‘qish, tor ma'noda maxsus tayyorgarlik;

b) tayyorlik - berilgan vazifalarni bajarish uchun kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarning mavjudligidir.

Boshqa bir xorijiy olima V. A. Polyakovaning so‘zlariga ko‘ra, pedagogik ta'lim - bu ma'lum bir kasbda muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatini beradigan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalar, fazilatlar, ish tajribasi to‘plamidir, shuningdek talabalarga tegishli bilim va ko‘nikmalarni berish jarayonidir. Malaka darajasi o‘zlashtirilishi va murakkabligiga qarab, boshlang‘ich ta'lim, umumiy o‘rta ta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limni o‘z ichiga oladi. Yana bir olim Yu.N. Galaguzova bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilib, uni “maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarning tegishli to‘plamini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish jarayoni va natijasi ekanligiga e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning natijasi bitiruvchining pedagogik faoliyatga tayyorligidir. Ushbu fenomen tegishli hujjat taqdim etilishi bilan e'tirof etiladi[92].

Har bir o’qituvchi avvalom o’quvchiga qanday yondashishni bilishi kerak,o’quvchilarning har tamonlama etuk va ertangi kunda mustaqil inson bo’lishda o’z oldiga qo’ygan maqsadlarini amalga oshirishda, kelajakda tanlaydigon kasbini haqiqiy egasi bo’lishda o’quvchilarga motivatsiyon yondashishni o’rgatib borish zarur.Pedagog o’qituvchi o’qitish jarayonida yani dars berish davomida

91 https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1746948047&tld=ru&lang=uz&name=28_Karimov_Buzrukxonov.pdf&text

92 https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1746949875&tld=ru&lang=uz&name=12

psixolik ham bo’lishi kerak o’quvchining qiziqishlarini o’rgangan holda, qanday qilib o'rganishlari va o'qishlari kerakligini o'rganishlari uning o'quv motivatsiyasini oshirishga yordam berish kerak. Ular o'zlarini o'rganish usullari va ilmiy tadqiqotlar orqali o'quvishning qanday yaxshi natijalarni olib chiqarishi mumkinligini tushunishlari kerak.O’quvchi yuqori bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun ta’lim-tarbiya faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o’quvchilarning motivlari sohasini o’rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O’quvchilarni o’qishga bo’lgan qiziqishida oilaning o’rnini alohida e’tiborga olish bilan bir qatorda, maktab ta’limiga ilg’or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o’quv dasturini to’laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritishni ham unutmaslik lozim. Respublikamizda maktab ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiytexnika bazasini mustahkamlash, Respublikamizda yigit va qizlar o’quv-tarbiya muassasalarida tarbiyaviy-axloqiy ishlarni takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2022-2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11- maydagi № PF-134-son Farmonida o‘quvchilar tarbiyasida ota-onalar, mahallalar va ta’lim muassasalari hamkorligini tizimli tashkil borasidagi burch va massuliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.

O`zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta`lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga-ta`lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta`kidlab o`tiladi. Shu munosabat bilan ta’lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o`qituvchi va o`quvchi o’rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o`quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi.Ta’limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan yoshlarni tarbiyalashdir. Chunki ta’lim yoshlar ma’naviyatiga yaratuvchanlik baxsh etishi, o’sib kelayotgan yosh avlodning barcha orzu-umidlari zamonaviy ta’lim-tarbiya orqali ro’yobga chiqishi aniq va ravshandir.

O’quvchilarda o’quv davrida, o’quv motivatsiyasi shakllanishida oilani rolini o’rganish ta’lim samaradorligini aniqlab beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Motiv va motivatsiya muammolari jahon psixologlari L.S.Vigotskiy, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov, D.B.Elkonin, A.N.Leontev, B.G.Ananev, L.I.Bojovich, A.V.Zaporojets, V.G.Aseev, P.Ya.Galperin, A.K.Markova, N.E.Efimova, M.V.Matyuxina, V.I.Kovalyov, M.Sh.MagomedEminov, D.N.Uznadze va boshqa psixologlar asarlarida o‘rganilgan. Motiv va motivatsiya muammolarni o’zbek psixologlardan M.G.Davletshin, E.G’.G’oziyev,

G.B.Shoumarov, V.A.Tokareva R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullayev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova, F.I.Haydarov kabi psixolog olimlar o’rganib, bu sohada o’ziga xos yo’nalish yaratishga muvaffaq bo’lishdi. Olimlarning fikricha, o’quvchilarda o’qish motivlarini shakllanishiga qadriyatlar, oilaviy an’analar, ijobiy pedagogik munosabatlar va o’quvchilarni o’z-o’zini anglash kabi omillar o’quv motivatsiyasining shakllanishiga olib keladi.

O'quv motivatsiyalarini o'quvchilarda shakllantirish va rivojlantirish uchun eng muhim narsa, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini va talablarini hisobga oluvchi shakilda yondashish va o'rganishdir.

Pedagogik odob qoidalari va muomala qilish, ta’sir o’tkazish mexanizmlariga rioya qilish shaxslararo munosabatni barqarorlashtiradi. O’qituvchi nafaqat o’qitish motivlarini bilishi, balki o’quvchilarni tushunish va ularning motivatsion sohasiga ta’sir qilish uchun bu bilimlarni qo’llay olishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, o’smirlarning o’qishga bo'lgan munosabati birinchi navbatda o’qituvchining ish sifati va uning o’quvchilarga bo’lgan munosabati bilan bog’liq.

Ta’lim-tarbiya jarayonida ota-ona va o’qituvchining o’quvchilarga nisbatan munosabati va pedagogik odobi, psixologik qobilyati muhim ahamiyat kasb etadi, Umumiy xulosa qiladigan bo’lsak o’qituvchi va ota-onalarning farzanlariga bo’lgan munosabatini ularning o’qishga bo’lgan motivatsiyasi va bilimlarni egallashdagi harakatlarida namoyon bo’lishida odob axloqi ham katta ahamiyatga egadir, bolaning yoshligidan to’g’ri motivatsiya berib qilgan ishidan rag’batlantirib kelajakdagi ishlariga yo’naltira olsa, har bir bola o’z qobilyatlarini yaxshi rivojlantirib namoyyon qila oladi, o’z oldiga maqsadlar qo’ya oladi va maqsadlar sari intilishda o’zida motivatsiya topa oladi[93].

O'qituvchilar uchun o'z-o'zini rag'batlantirish ularning motivatsiyasini saqlab qolish va turli sabablarga ko'ra o'zlarini yoqib yuborganlarida o'z kasblari bilan davom etishlari uchun juda muhimdir. O'qituvchilar dars berishni yaxshi ko'radilar, lekin yomon o'quv muhiti, past maosh, hurmatsiz talabalar va qiyin hamkasblar kabi juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelganlarida. va yana ko'p narsa, bu boshqa hikoya. Bunday holda, o'qituvchilar uchun ichki motivatsiya asosiy rol o'ynaydi. O'qituvchilar uchun o'qituvchining ichki motivatsiyasini oshirish uchun bir nechta maslahatlar mavjud:

Maqsad va ishtiyoq haqida o'ylang: O'qituvchilar birinchi navbatda nima uchun bu kasbni tanlaganliklarini o'zlariga eslatishlari kerak. Ularning ta'limga bo'lgan ishtiyoqi va talabalar hayotiga ta'siriga e'tibor qaratish ularning motivatsiyasini qayta tiklashi mumkin.

[93] https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25369?ysclid=majcbtcccs479743091

Talabalarning o'sishiga e'tibor qaratish: E'tiborni tashqi omillardan talabalarning taraqqiyoti va o'sishiga o'tkazish katta qoniqishni ta'minlaydi. Talabalarning muvaffaqiyatini ko'rish juda motivatsiya bo'lishi mumkin.

O'qituvchilar uchun ilhomlantiruvchi kitob katta yordam berishi mumkin. Ko'proq tegishli kitoblarni o'qish o'qituvchilarga yangi istiqbollar, strategiyalar va o'z kasbining qiyinchiliklarini hal qilish uchun motivatsiya berishi mumkin.

Bundan tashqari, ilhomni ham topishingiz mumkin o'qituvchilar uchun motivatsion suhbatlar. Ushbu suhbatlarni tomosha qilish o'qituvchilik sohasida shaxsiy va professional o'sish uchun yangi tushunchalar va strategiyalarni taqdim etishi mumkin.

Talabalarni ilhomlantiradigan o'qituvchilar yangilik emas, lekin talabalar o'qituvchilarni qanday qilib ilhomlantirishi mumkin? Agar siz o'qituvchingizni qanday qadrlashni bilmoqchi bo'lsangiz, to'g'ridan-to'g'ri maqtovlarni ko'rib chiqing yoki kichik sovg'a bilan minnatdorchilik xati ortiqcha bo'lishi mumkin. Bu erda o'qituvchilar uchun talabalarning hurmat va minnatdorchiliklarini ko'rsatish uchun eng ilhomlantiruvchi xabarlar mavjud.

Muvaffaqiyat va hissa uchun e'tirof etish - bu alohida daqiqa. Atrofdagilarning tan olinishi hamma narsadan ko'ra kuchliroqdir. Bu o'qituvchilik faoliyati bilan ham xuddi shunday. Ta'lim muhitida e'tirof etish madaniyatini rivojlantirish uchun maktablar va ma'murlar o'qituvchilarni taqdirlash tadbirlari, mukofotlar, xodimlar yig'ilishlari paytida hayqiriqlar va boshqalar kabi tashabbuslarni amalga oshirishlari mumkin. talabalarni rag'batlantirish va ota-onalar o'qituvchilarga minnatdorchilik bildirishlari kerak. O'qituvchilarning yutuqlari va hissalarini doimiy ravishda e'tirof etish orqali maktablar o'qituvchilar uchun yanada rag'batlantiruvchi va qoniqarli muhit yaratishi mumkin.

Hatto o'qituvchilar ham o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab turishlari kerak. Ular o'quv dasturlarini loyihalash, o'qitish usullari, muloqot qobiliyatlari, texnologiyalar va talabalar uchun fikr-mulohazalar bo'lishi mumkin. Bu ta'limni yangi va qiziqarli davom ettirishi mumkin. Bundan tashqari, motivatsion o'qituvchilar har kuni qiladigan narsadir.

O'qituvchilarga har tomonlama ta'lim berishlari uchun jamiyatdagi o'zgarishlar va tendentsiyalardan xabardor bo'lish juda muhimdir. Bundan tashqari, siz o'qitish va o'qitish jarayonini yaxshilash, shuningdek, talabalarning faolligi va qiziqishini oshirish uchun jonli viktorinalar, so'rovlarni birlashtira olasiz.

O'qituvchilarning birgalikda ishlashi ularga sinflarga ko'proq innovatsiyalarni olib kirishda sezilarli darajada yordam berishi mumkin. O'qituvchilar va o'qituvchilarning hamkorlikdagi jamoasi aql bo'roni va muammolarni yanada samarali hal qilishlari mumkin. Turli nuqtai nazarlar talabalarning faolligi, xatti-

harakatlarini boshqarish va o'quv dasturlarini ishlab chiqish kabi umumiy muammolar uchun ijodiy echimlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar birgalikda ishlaganda, ular ko'pincha qo'llab-quvvatlanayotganini va qadrlanishini his qilishadi, bu esa ishdan qoniqishning oshishiga olib keladi[94].

TUSTARIY TA'LIMOTIDA OCHLIK MO‘JIZASI

Raximov Xolmurod Majitovich,
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti,
Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi
raximovxolmurod697@gmail.com

Bugungi kunga kelib yurtimizda ajdodlar merosini o‘rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu qo‘llov moddiy va ma'naviy ko‘rinishlarda aks etmoqda. Tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan ko‘p ilmiy ishlar qilindi va qilinmoqda. Ayniqsa, ilmiy uyg‘onish davrida ijod qilgan olimlarning ma'naviy merosi bizni ko‘plab sirlardan voqif qiladi. Shunday allomalardan biri Sahl ibn Abdulloh Tustariydir.

IX asrda yashab ijod qilgan tasavvuf mutafakkirlaridan biri Sahl ibn Abdulloh Tustariy o‘zidan katta ilmiy meros qoldirgan. Hujviriyning keltirishicha, u “Sahliya” tariqatiga asos solgan[95].

Tustariyning o‘ziga xos jihatlaridan biri uch yoshligida tog`asidan zikr qilishni o‘rganganidir. Olti – etti yoshlarida Qur'onni to‘liq yod olgach, ilmga qiziqishi kuchayadi. Tariqat vazifalarini yoshligidan boshlagan Tustariy, nafsini tarbiyalash uchun ro‘za tutishni ham boshlaydi. Tustariy yoshlik vaqtlarini shunday hikoya qiladi:

“Quvvatimni cheklash maqsadida bir dirhamga arpa sotib olib un qilib, keyin non pishirtirib faqat sahar vaqtida iftorlik qilar edim. Nonga hech bir qo‘shimcha hatto tuz ham qo‘shmasdim. Shu tariqa bir dirhamlik arpa uni bir yilga etdi.

So‘ng har uch kunda bir iftor qilishni maqsad qildim. So‘ng besh kunda, so‘ng o‘n besh kunda bir iftorlik qilar edim. Shu holatda yigirma yil o‘tdi. So‘ng chiqib bir necha yil turli shaharu qishloqlarga sayohat qildim. So‘ngra Tustarga qaytdim va tunlari to‘liq ibodatda bedor bo‘lar edim ” dedi[96].

---

[94] https://ahaslides.com/uz/blog/motivation-for-teachers/

1. ابو الحسن علي بن عثمان الهجويري. كشف المحجوب. القاهرة, طلعت الشليب. م2007. ص. 426

[96] سهل ابن عبد الله التستري. تفسير القران العظيم. بتحقيق طه عبد الرؤوف سعد و سعد حسن محمد علي. بيرت - لبنان. دارالحرم للتراث. 1425ه- 2004م.ص.348

Sahl bin Tustariy nafsni engish uchun o‘n besh kunda bir marta ovqatlanar ekan va shu bilan ham juda uzoq umr ko‘rgan[97].

Tustariy yashagan davrda un mahsulotlari qo‘l mehnati bilan etishtirilgani uchun non eng qimmatli mahsulotlardan hisoblanar edi. Bir dirham kumush tangaga olgan arpa unini bir yilga etkazgan. Tegirmonda haydalgan unning noni bugungi kundagidek sifatli chiqmas edi. Shunday nonni o‘n besh kunda bir marta tanovul qilar edi.

U o‘n yoshligida zuhd, ibodat, taqvo kabi irfoniy savollarga mukammal javob berar edi. Uning bir yillik taomiga bir dirham kumush tanga etar edi. Tustariy o‘ttiz va qirq kunlab hech narsa emas edi. Agar och qolsa quvvatga to‘lar edi va to‘yib ovqatlansa zaiflashib qolar edi.

Imom G‘azzoliy aytdi: “bir qancha kishilar bu darajaga etishgan. Ulardan, Muhammad ibn Amr al-Mag‘ribiy, Ibrohim at-Taymiy, Hajjoj ibn Qurofasa, Sulaymon al-Xoss, Ibrohim al-Xoss va boshqalarni keltirish mumkin[98].

Tustariy ro‘za va ochlikni o‘n besh kunda bir marta taomlanishdan bir oy yoki qirq kunda bir ovqatlanishga etkazgan. Bu darajaga etganlar ko‘p bo‘lgani haqida G‘azzoliy ma'lumotlar bergan. Bugungi kunda ham medisinada ochlik bilan davolash usullari mavjud. Organizmini ochlikka asta-sekin o‘rgatib, qirq kun taom emaslikka erishganlar juda ko‘p kasalliklardan tuzalgani va qor sovug‘ida yuvinsa ham sovuq ta'sir qilmasligi bor gap.

Tafsiri Tustariyda shunday ma'lumot keltiriladi: “Sahl etmish kun taom emasdan vajd holatidan quvvat olar edi. Do‘stlariga ibodatdan zaiflashib qolmaslik uchun har juma kuni go‘sht eyishni buyurar edi. Sahl agar taom esa zaiflashar va agar och yursa, kuchli bo‘lar edi. Qishning qattiq sovuq kunlarida bir ko‘ylakda ham terlab ketar edi ”[99].

Tustariy riyozat va mujohadalar natijasida shu darajaga erishganki, etmish kunlab taom emagan ekan. Buning ustiga taom esa zaiflashar ekan. Bu shundan dalolat beradiki, Tustariy bashariy tabiatdan chiqib, farishtalar tabiatiga erishgan. Zero farishtalar taom emaydilar va shu bilan bir qatorda ularning energiyalari tugab qolmaydi. Ular energiyani zikrdan oladilar. Tustariy kam bo‘lsada, taom eyishi uni qiynab qo‘yishi, uning farishtalar kabi ruhiy quvvatlanishga o‘tib ketganiga dalil bo‘ladi. U Allohning oshiq bandalaridan bo‘lib, oshiqqa ishqning o‘zi ozuqadir.

[97] A. Abdullaev. Tasavvuf va uning namoyandalari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. B. 212

[98] سهل ابن عبد الله التستري. تفسير القران العظيم. بتحقيق طه عبد الرؤوف سعد و سعد حسن محمد علي. بيرت - لبنان. دارالحرم للتراث. 1425ه- 2004م.ص.348

[99] سهل ابن عبد الله التستري. تفسير القران العظيم. بتحقيق طه عبد الرؤوف سعد و سعد حسن محمد علي. بيرت - لبنان. دارالحرم للتراث. 1425ه- 2004م.ص.348

Ishqning haroratidan sovuq kunlarda bir qavat ko‘ylakda ham terlab ketar ekan. Bu ham bashariy sifatlardan ko‘tarilib ketganining dalilidir.

Bugungi kundagi ochlik bilan davolanayotgan insonlarning asosiy maqsadi shifo topishdir. Ular o‘z maqsadlariga etmoqdalar. Lekin, Tustariy ochlik va ro‘zani ruhiy komillikka vosita qilgan va shunchalik kam taom eb, uzoq yashash mumkinligini isbotlagan.

Tustariy o‘z nafsini ochlik bilan chiniqtirar va boshqalarni ham ochlik mo‘'jizasidan foydalanishga targ‘ib qilar edi.

Sahl do‘stlariga aytar edi: “agar nafs sizdan gunoh ishlarni talab qilar ekan, unga ochlik va chanqoqlik bilan odob beringlar. Agar u (nafs) sizdan gunoh ish talab qilmasa, xohlaganicha taomlantiring va tunda to‘yganicha uxlashiga qo‘yib bering[100] ”

Nafslar har xil bo‘ladi. Ba'zilarning nafslari yomonlikka boshlasa, Tustariyga ko‘ra uni ochlik va chanqoqlik bilan odob berish kerak. Agar nafs gunoh talab qilmasa, uni rohatlantiravering, demoqda. Nafs tabiatan gunoh ishlarni xohlaydigan bo‘ladi. Uni qahr qilib sindirilsa, keyin u itoat qiladi. Nafsni itoat qildiradigan eng samarali vosita bu, ochlik va chanqoqlikdir.

Imom Javziy aytadi: “Sahl ibn Abdulloh Tustariydan so‘rashdi: “bir kunda bir marta (taom) eydigan kishi haqida nima deysiz”? Sahl: “bu siddiqlar eyishidir”, dedi. Yana so‘rashdi: “bir kunda ikki marta (taom) eydigan kishi haqida nima deysiz”? Sahl: “bu mo‘minlar eyishidir”, dedi. Yana so‘rashdi: “bir kunda uch marta (taom) eydigan kishi haqida nima deysiz”? Sahl: “uning ahliga aytinglar somonxona qurib berishsin”, deb javob berdi [101].

Tustariy fikricha bir kunda ikki marta taom eydiganlar mo‘tadil musulmonlardir. Lekin uch mahal taomlanadiganlar haqida eshitib, buni hazm qila olmadi. Albatta, etmish kunda bir taom eydigan inson bir kunda ikki mahal taom eyishni tasavvur qilishi ham qiyin. Lekin ro‘zada saharlik va iftorlik bo‘lgani uchun bu tartibni qabul qila olgan. Bizning davrdagi uch yoki to‘rt mahal ovqatlanishni esa tasavvur qila olmagan.

Sahl aytdi: “albatta, ochlik – erdagi Alloh sirlaridan bir sirdir. Buni fosh qiladiganga omonat qo‘ymaydi[102] ”.

Tustariyning ta'kidlashicha, ochlik Alloh sirlaridan bir sirdir. Bundagi hikmatlarni fosh qilishga ruxsat yo‘q. Albatta, bu o‘rinda nazarda tutilgan hikmatlar

[100] سهل ابن عبد الله التستري. تفسير القران العظيم. بتحقيق طه عبد الرؤوف سعد و سعد حسن محمد علي. بيرت - لبنان. دارالحرم للتراث. 1425ه- 2004م.ص.73

[101] O’sha erga qarang

[102] O’sha erga qarang, 148.

ruhiy kamolotlardir. Bu holatlar banda va Robbisi o‘rtasidagi sirdir. Jismoniy foydalarini esa, Tustariyning o‘zi ham fosh qilgan.

Sahl aytdi: “kim nafsini och qoldirsa, shuning miqdoricha qoni kamayadi. Ochlik sabab qoni kamaygani miqdoricha qalbidan vasvasa uziladi. Agar majnun (jinni) o‘zini och qoldirsa, sog‘ayib ketadi [103]”.

Tustariy bu o‘rinda ochlikning tibbiy jismoniy foydalari haqida ma'lumot bermoqda. Vasvasani to‘qlik bilan aloqasi bor ekan. Doimo to‘yib ovqatlanganda qon ko‘payadi, natijada qalbda vasvasa paydo bo‘ladi. Ochlik qonni kamaytirsa, vasvasa o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lar ekan. Tustariy bu o‘rinda bir tibbiy sirni ochib bermoqda. Aqldan ozganlarni och qoldirish natijasida davolash mumkin ekan.

Tustariydan: “ochlik nima?”, deb so‘rashdi. U: “ochlik faqat gunohkor bandalardan sodir bo‘ladi. Agar banda tavba bilan poklansa, uning iymonidagi ochlik ketadi va uning tabiatidagi ochlik qoladi. Bu ochlik iymondagi ochlikdan engilroqdir”, dedi.

Tustariy aytdi: “banda to‘qlik bilan eng kam etadigan yomonligi – Allohning haqini ado etishni xohlagan ilmni yo‘qotadi. Banda ochlikdan eng kam etadigan yaxshiligi – Allohning haqini ado etadigan ilmga etadi. Bu esa xushu'dir.

Tustariy aytdi: “kim o‘zini och qoldirsa, unga shayton yaqinlashmaydi. Kim ilm talabi va Qur'on qiroati bilan shug‘ullansa, unga mijoz buzilishi kasali etmaydi[104]”. [5,83.]

Tustariy bu erda iymondagi ochlik masalasida iymonning ma'naviy ochligini nazarda tutmoqda. Bu ochlik gunohlar sabab paydo bo‘lganini va tavba bilan poklanishini ta'kidlaydi. Demak, jismoniy ochlikdan ma'naviy ochlik qiyinroq ekan.

To‘qlikning zararlari haqida to‘xtalgan Tustariy, eng kamida ilmdan mahrum bo‘lishni bashorat qilmoqda. Aksincha, ochlik bilan esa kamida o‘sha ilmga etishni va'da qilyapti. Ochlik insonni har xil vasvasaga moyillikdan saqlaydi va insonda shayton vasvasasiga xohish bo‘lmaydi. Natijada uning oldiga shayton kelmaydi. Shayton esa insonni xohish-istaklari tomonidan keladi.

Tustariy ochlik mo‘'jizasidan juda ko‘p foyda va barakalar hosil qilgan va boshqalarni ham shunga targ‘ib qilgan. U to‘qlikni vasvasa uchun o‘rin deb bilgan va beg‘am to‘q insonlarni tanqid qilgan. Ehtimol uning tanqidlari o‘z vatanini tark qilishga majbur qilgan bo‘lishi mumkin.

---

[103] سهل ابن عبد الله التستري. تفسير القران العظيم. بتحقيق طه عبد الرؤوف سعد و سعد حسن محمد علي. بيرت - لبنان. دارالحرم للتراث. 1425ه- 2004م.ص.197.

[104] كوپريلى زاده نعمان باشا. تهذيب كلمات سهل بن عبد الله التستري و كراماته. عمان, دار الرياحين. ه1444-م2023. ص. 232

ISLOM AXLOQIYATI – ZAMONAVIY JAMIYAT MA’NAVIYATINING ASOSI SIFATIDA

Saidov Shaxboz
Mir arab oliy madrasasi mudarrisi, Buxoro davlat universiteti Falsafa tarixi yo’nalishi doktoranti

Bugungi kunda jahon miqyosida ma’naviy tanazzul va axloqiy inqiroz hodisalari kuzatilmoqda. Insoniyatning eng katta fojialaridan biri – bu jamiyatning asrlar davomida shakllangan axloqiy qadriyatlardan uzoqlashib borishidir . Xususan, yosh avlod tarbiyasida ma’naviyatga e’tibor susayishi, oilalarda notinchliklar, yoshlarda axloqiy buzilishlar ko‘zga tashlanmoqda . Shu bois zamonaviy jamiyatda axloqiy inqirozning oldini olish va ma’naviy tiklanishni ta’minlash dolzarb masalaga aylangan.

Islom dini boshidan axloqiy tarbiyani markaziy o‘ringa qo‘ygan bo‘lib, islom axloqiyati mukammal va komil bir tizim sifatida takdim etiladi. Payg‘ambarimiz uhammad Mustafo ﷺ o‘z nubuvvat missiyasining maqsadini aynan olijanob axloqni kamol toptirishda ko‘rsatganlar: “Men faqat go‘zal axloqlarni mukammallashtirish uchun yuborildim” degan hadis mashhurdir[105]. Demak, Islom ta’limotida axloq shunchaki ixtiyoriy fazilatlar to‘plami emas, balki dinning asosiy maqsadi va mohiyatidir. Qur’oni karimda ham Payg‘ambarimiz ﷺning axloqan oliy maqomi e’tirof etilib: *“Albatta, Siz buyuk xulq-atvorga egadirsiz”* deya ta’kidlangan[106].

Mazkur maqolada Islom axloqiy tizimining manbalari va uning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, islom axloqi prinsiplari zamonaviy jamiyat hayotiga tadbiq etilganda yoshlar tarbiyasi, axloqiy inqirozning echimi va ijtimoiy barqarorlikka qanday hissa qo‘shishi ilmiy nuqtai nazardan yoritib beriladi. Tadqiqot natijasida Islom axloqiy tizimining mukammalligi va uning bugungi jamiyat ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni xulosa qilinadi.

Islom axloqiyoti o‘z manbalarini bevosita ilohiy vahiy va Payg‘ambar ﷺ sunnatidan oladi. Eng asosiy manba – Qur’oni karim bo‘lib, unda axloqiy hayotning barcha jihatlari bo‘yicha ilohiy ko‘rsatmalar mavjud. Qur’on bandalarni adolatli, halol, sabr-qanoatli, shukrli bo‘lishga chaqiradi, zulm va fahsh ishlardan qaytaradi. Masalan, Qur’onda shunday umumiy axloqiy tamoyil bayon etilgan:

“Albatta, Alloh adolatni, ezgulikka intilishni va qarindoshlarga saxovat qilishni buyuradi; u behayolikni, yomonlik va zulmni man etadi. Alloh sizlarga nasihat qilur, shoyad eslasangiz”[107].

[105] Al-Bayhaqiy. *Shu’ab al-īmān*, Bāb fī ḥusn al-khuluq, Hadis № 273, Bayrut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 1990.
[106] Qur’oni Karim, Surat al-Qalam, 68:4
[107] Qur’oni Karim, an-Nahl surasi, 90-oyat

Ushbu oyatdan ko‘rinib turibdiki, Qur’on odil va ezgu axloqni targ‘ib etib, axloqsizlikning har qanday ko‘rinishini qat’iyan qoralaydi. Sunnat – Payg‘ambarning ﷺ hadis va hayotiy namunalari – islom axloqiyotining ikkinchi asosiy manbaidir. Rasulullohﷺning shaxsiy xulqlari, boshqalarga muomalasi, sabr-qanoati va rahm-shafqatlari mo‘minlar uchun tirik namunadir. Payg‘ambar ﷺ: *«Mo‘minlarning iymon jihatidan eng mukammali – xulqi eng go‘zal bo‘lganidir»* deganlar (Hadis, Imom Termiziy rivoyati) – bu sunnatda axloq naqadar yuksak qadrlanishini ko‘rsatadi[108].

Islom axloqiy talimoti shakllanishida sahobalar va tobeiynlarning roli ham katta. Ular Qur’on va Payg‘ambarﷺdan olgan axloq saboqlarini hayotda namoyon etib, keyingi avlodlarga etkazganlar. Masalan, xalifa Hazrati Abu Bakrning siddiqligi (rostgo‘yligi), Hazrati Umar davridagi adolatli boshqaruv, Hazrati Usmonning saxovatpeşaligi va Hazrati Aliyning hikmatli odilligi – bular ilk islom jamiyatida axloqiy me’yorlarning qanday tatbiq etilganiga yorqin misoldir. Sahobalar “xitoyu hasana”, ya’ni go‘zal o‘rnak ko‘rsatish orqali islom axloqini targ‘ib qildilar.

Shuningdek, islom tarixida ko‘plab allomalar va mutafakkirlar axloq ilmi (ilm ul-akhloq) sohasida maxsus asarlar bitib, Islom axloqiyotini nazariy jihatdan boyitganlar. Jumladan, Imom al-G‘azzoliy “Ihyā’ ‘ulūmiddīn” asarida qalbni poklash, fazilatlarni egallash va illatlarni tark etish haqida atroflicha so‘z yuritgan. Xuddi shuningdek, Xoja Abdulloh Anvariy, Imom Buxoriy (masalan, *“Al-Adab al-mufrad”* kitobi), Imom Termiziy (*“Birr va sila” boblari*) kabi hadis va tasavvuf ulamolari axloqiy fazilatlar sharhini berganlar. Markaziy Osiyolik alloma Alisher Navoiy ham *“Mahbub ul-qulub”* asarida axloq-odob masalalarini she’riy yo‘sinda bayon etib, islomiy axloqiy qarashlarni o‘zbekona uslubda tarannum etgan.

Shu tariqa, Qur’on va Sunnatdan boshlangan islom axloqiyoti sahobalar amaliyoti va olimlarning asarlari orqali boyib, izchil bir axloqiy tafakkur an’anasi yuzaga kelgan. Bu manbalar bir-birini to‘ldirgan holda, Islom axloqiy tizimining uzviyligi va mukammalligini ta’minlaydi.

Islom axloqi mukammal fazilatlar majmui bo‘lib, unda inson kamolotiga doir barcha xulqiy sifatlar qamrab olingan. Jumladan, halollik, adolat, sabr, hayo, shukr, tavoze’, rostgo‘ylik, muomala madaniyati kabi asosiy axloqiy fazilatlar Islom axloqiy tizimining tayanch komponentlaridir. Quyida ushbu fazilatlarning har biri qisqacha tahlil qilinadi.

Halollik (halol-poklik va insoflilik): Islomda halollik nafaqat oziq-ovqat yoki daromadning halol-bo‘lishi, balki har qanday ishda pok vijdon va insoflilikka amal

[108] At-Termiziy, *Sunan*, Kitab al-Birr was-Sila, Bob: “Xulqning fazilati haqida”, Hadis № 1162.

qilishni anglatadi. Halol inson birovning haqqiga xiyonat qilmaydi, yolg‘on va firibdan yiroq bo‘ladi. Payg‘ambar ﷺ halol savdogar haqinda *“Halol va rostgo‘y tijoratchi qiyomatda payg‘ambarlar, siddiq va shahidlar safida bo‘lur”* deganlar[109]. Aksincha, haromga qo‘l urish qattiq qoralangan. “Kim (bizni) aldaydigan bo‘lsa, u bizdan emas”[110] degan Rasululloh ﷺning so‘zlari halollik me’yorini buzgan kimsaning jamoatdan chiqarilib, haqiqiy mo‘minlar safida sanalmasligini bildiradi. Shunday ekan, halollik jamiyatda ishonch muhitini yaratadigan, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni sog‘lomlashtiradigan eng muhim axloqiy prinsipdir.

Adolat: Adolat – Islom axloqining markaziy tushunchalaridan biridir. Alloh taolo Qur’onda mo‘minlarga *“qullararo adolatda mustahkam turishni”* amr etadi[111]. Ya’ni, musulmon kishi o‘ziga, qarindoshiga yoki hatto dushmaniga qarshi bo‘lsa-da, haq tarafida guvohlik berib, adolatdan og‘masligi shart. Islom ta’limotida adolatning o‘rni shu qadar yuksakki, u hech bir sharoitda buzilmas asosiy mezon hisoblanadi. Payg‘ambar ﷺning odil boshqaruvi, sahobalarning qozilikdagi xolisligi bunga amaliy misoldir. Adolat jamiyatda huquqiy tartib va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, islomiy axloqiy fikr adolatni keng ko‘lamli axloqiy-huquqiy tamoyillar bilan uyg‘unlashtiradi va uni jamiyat barqarorligi va inson qadr-qimmatining asosi sifatida talqin etadi . Demak, adolat bor joyda ishonch, barqarorlik va taraqqiyot bo‘ladi.

Sabr (chidam va matonat): Sabr – musulmon axloqining yana bir asosiy unsuridir. Qur’onda ko‘plab oyatlarda mo‘minlar sabr-matonatli bo‘lishga undaladi: “Ey iymon keltirganlar! (musibatlarda) sabr qilinglar va (bir-biringizni) sabrga undanglar…”[112]. Sabr – imtihon va qiyinchiliklarga bardosh berish, shoshma-shosharlikka berilmaslik, hayotning sinovlariga qanoat va matonat bilan yondashish demakdir. Payg‘ambar ﷺ: *“Mo‘minning ishi ajablanarlidir – uning har bir ishi hayrli: agar quvonch etssa shukr qiladi – bu uning uchun hayr; agar musibat etssa sabr qiladi – bu ham uning uchun hayr”* deganlar[113]. Sabrning mukofoti behisob va’d qilingan – Qur’onda: “Haqiqatan, sabr qilguvchilarga ajrlari behisob-chet berilur” deyilgan[114]. Demak, sabr – har bir mo‘min o‘zida tarbiyalashi lozim bo‘lgan, bandani ruhiy kamolotga etaklovchi va sinovlarda himoya qiluvchi yuksak fazilat.

---

[109] At-Tirmiziy, *Sunan*, Kitab al-Buyu‘ (Savdo bo‘limi), Bob: “Halollik va rostgo‘ylik haqida”, Hadis № 1209.
[110] Muslim, *Sahih Muslim*, Kitab al-Imon, Bob: “Halollik va rostgo‘ylik”, Hadis № 102.
[111] Qur’oni Karim, an-Niso surasi, 135-oyat
[112] Qur’oni Karim, Oli Imron surasi, 200-oyat
[113] Muslim, *Sahih Muslim*, Kitab az-Zuhd wa ar-Raqa’iq (Taqvo va zuhddan), Bob: “Mo‘minning sabri va shukri haqida”, Hadis № 2999.
[114] Qur’oni Karim, az-Zumar surasi, 10-oyat

Hayo (ibo, uyatchanlik va odob): Islom axloqida hayo nihoyatda qadrlanadi. Hayoli bo‘lish – gunoh va yomon ishlardan, odobsiz xatti-harakatdan o‘zini tiyadigan ichki tuyg‘udir. Payg‘ambar ﷺ: “Hayo iymondandir (iymon shoxchalaridan biridir)[115]” deganlar . Bu hadisi sharif hayoning mo‘min hayotidagi o‘rnini juda aniq ifodalaydi – hayo bor joyda iymon bor, hayo yo‘q joyda iymon zaiflashadi. Yana bir hadisda: *«Har bir dinning o‘ziga xos (eng noyob) xulqi bor, Islomning xos xulqi – hayo»* deyilgan[116]. Hayo nafaqat kiyinish va muomala madaniyatida, balki insonning iymon-diyonatida, ichki dunyosida poklik sifatida namoyon bo‘ladi. Hayo kishini gunohdan qaytaradi, axloqan yuksak tutadi. Zamonaviy jamiyatda ayniqsa yoshlarda hayoning susayishi turli axloqiy muammolarga olib kelayotgani sir emas; shunday sharoitda Islomning hayo haqidagi ta’limoti jamiyatni ma’naviy inqirozdan saqlashda muhim omildir.

Shukr (minnatdorlik): Shukr – yaxshilikka nisbatan minnatdor bo‘lish, ne’matni qadrlash va unga yarasha amal qilishdir. Islomda shukr avvalo Alloh taologa bandaning shukronasi sifatida ko‘riladi: bandaga berilgan har bir ne’mat uchun Unga hamd aytish, ibodat va itoatda davom etish shukr ifodasidir. Qur’onda Alloh: *«Agar shukr qilsangizlar, albatta, (ne’matni) ziyoda qilurman»* deb va’da qilgan[117]. Shuningdek, odamlarga nisbatan shukr qilish ham ta’kidlanadi – Rasulullоh ﷺ: *«Odamlarga shukr qilmagan – Allohga ham shukr qilmaydi»* deganlar[118]. Demak, mo‘min kishi ota-onasi, ustozlari, unga yaxshilik qilgan har bir inson oldidagi minnatdorlik burchini unutmasligi kerak. Shukr fazilati insonni kibru havodan forig‘ etib, unda kamtarlik va qanoat hissini shakllantiradi. Shukr qiluvchan jamiyatda esa norizolik, buzuqlik kamroq bo‘ladi, ne’matning qadriga etish ko‘payadi.

Tavoze’ (kamtarlik, xoksorlik): Tavoze’ – o‘zini boshqalardan ustun qo‘ymaslik, kibr-havoga berilmaslik, sodda va kamtar bo‘lish demakdir. Alloh taolo kibru mag‘rurlikni qoralab: *«Yer yuzida kekkayib yurma, zero, na erni yara olursan, na tog‘larga etasan»* deb nasihat qilgan[119]. Payg‘ambar ﷺ esa: *«Kim Alloh uchun tavozu’ qilsa (kamtar bo‘lsa), Alloh uning darajasini yuksaltirur»*[120] deb marhamat qilganlar . Islomda haqiqiy ulug‘lik tavozu’da deb ko‘riladi – inson qanchalik kamtar bo‘lsa, Alloh va bandalar nazarida shunchalik aziz bo‘ladi. Rasulullоh ﷺning hayotlarida kamtarlikning buyuk namunalarini ko‘ramiz: oddiy odamlar bilan

[115] al-Buxoriy, *al-Jāmiʿ aṣ-Ṣaḥīḥ*, Kitāb al-Īmān, Bob: “Iymonning bo‘laklari”, Hadis № 9.
[116] Ibn Māja, *Sunan Ibn Māja*, Kitāb az-Zuhd, Bob: “Hayo haqida”, Hadis № 4181.
[117] Qur’oni Karim, Ibrohim surasi, 7-oyat
[118] at-Tirmiziy, *Sunan at-Tirmiziy*, Kitāb al-Birr was-Silah, Bob: “Shukr haqida”, Hadis № 1954.
[119] Qur’oni Karim, Isro (Banu Isroil) surasi, 37-oyat
[120] Muslim, *Sahih Muslim*, Kitāb al-Birr was-Silah, Hadis № 2588.

oddiychasiga suhbatlashganlar, kibr bilan hech kimni rad etmaganlar, hattoki o‘z dushmanining janozasi o‘tganida ham hurmat yuzasidan o‘rinlaridan turganlar . Kamtarlik jamiyatda tenglik va o‘zaro hurmat muhitini yaratadi, kibru havo esa adovat va nifoq keltiradi. Shu sabab, musulmon kishi qanday mavqe’ va mansabda bo‘lmasin, tavozedan chetga chiqmasligi lozim.

Rostgo‘ylik (to‘g‘riso‘zlik): Rostgo‘ylik – haqiqatparvarlik va sofdillik bo‘lib, musulmonning ajralmas sifati sanaladi. Qur’onda: *«Ey mo‘minlar! Allohdan qo‘rqingiz va sodiqlar (rostgo‘ylar) bilan birga bo‘lingiz»* deb buyrilgan[121]. Payg‘ambar ﷺ esa rostgo‘ylikning fazilati haqida: *«Albatta, rostgo‘ylik ezgulikka olib borur, ezgulik esa jannatga yo‘llar. Kishi doimo rost gapiraversa, Alloh huzurida siddiq (rostgo‘y bandalar)dan deb yozilir. Yolg‘on esa fisq-fujurga olib borur, u esa do‘zaxga eltadi…»*[122] mazmunidagi mashhur hadisini bildirganlar. Rostgo‘ylik – ishonch asosi. Agar jamiyatda har bir kishi rost so‘zlasa, yolg‘on gapirmasa, yolg‘ondan qo‘rqsa, o‘zaro ishonch va hamjihatlik mustahkamlanadi. Rostgo‘ylikka zid bo‘lgan sifat – yolg‘onchilik esa munofiqlik alomati bo‘lib, jamiyat taraqqiyotiga g‘ov va iymon barkamolligiga putur etkazadi. Shu bois har bir musulmon, xususan yoshlar yoshlikdan rost gapirishga, va’dasida turishga o‘rgatilishi lozim.

Muomala madaniyati (odob-axloq qoidalari): Islom odob-axloq dinidir – kundalik hayotda boshqalarga qanday muomala qilishdan tortib, so‘zlashish madaniyati, qo‘ni-qo‘shnichilik va boshqalar haq-huquqini ado etishgacha barcha jihatlar yuqori axloqiy me’yorlar bilan tartibga solingan. Payg‘ambar ﷺ: *«Kim Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa – yaxshilik so‘zlasin yoki jim qolsin; kim Alloh va oxiratga iymon keltirgan bo‘lsa – qo‘shnisiga ozor bermasin; kim iymon keltirgan bo‘lsa – mehmoniga ikrom qilgin»*[123] deb uqtirganlar. Bu hadisdagi pandlar musulmonning ijtimoiy muomalasida mezon bo‘lishi kerak: faqat yaxshilikni gapirish, qo‘shni va mehmon haqlariga rioya etish. Yana bir hadisi sharifda: *«O‘zing sevgan narsani boshqalar (din birodaring) uchun ham sevmaguncha haqiqiy mo‘min bo‘lolmaysan»*[124] deyilgan. Demak, o‘zaro hurmat, insonparvarlik, birodarlik islom muomala odobining tamal toshlaridir. Muomalada muloyimlik va kechirimlilik ham targ‘ib etiladi – Qur’onda Payg‘ambarga xitoban: *«Allohning rahmati tufayli ularga muloyim bo‘lding. Agar qo‘pol va qattiqqo‘l bo‘lganingda,*

[121] Qur’oni Karim, Tavba surasi, 119-oyat
[122] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ* (Sahih al-Buxoriy), Kitāb al-Adab, bob: *Bābu mā yuqālu li-l-walad*, Hadis № 6094.
[123] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb al-Adab, bob: *Man kāna yu’minu billāh…*, Hadis № 6018.
[124] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb al-Īmān, bob: *Hubb al-rajul li-akhīhi mā yuhibbu linafsih*, Hadis № 13.

ular atrofingdan tarqalib ketgan bo‘lur edilar» deyilgan[125]. Shunday ekan, musulmon kishi o‘z muomalasida yumshoqlik, shirinso‘zlik va boshqalarga hurmat bilan yondashmog‘i darkor. Muomala madaniyati yuksak bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy totuvlik, mehr-oqibat va birdamlik mustahkam bo‘ladi.

ISLOMDA BOLA VA UNING HUQUQLARINING TA’MINLANISHI

Xalxodjayeva Nargiza Yusupjonovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
tayanch doktoranti

Islom huquqi, arab tilida “shariat” (شريعة) deb ataladi, islom dinining asosiy manbalari – Qur’on va Sunnatga (Muhammad s.a.v. ning so‘zlari, amallari va hayot tarzi) asoslangan qonunlar va ko‘rsatmalar majmuasidir. U musulmonlarning hayotining barcha jabhalarini, jumladan shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan.

Bugungi kunda islom huquqi musulmon mamlakatlarida turli shakllarda qo‘llaniladi. Ba'zi mamlakatlarda shariat qonunlari to‘liq amal qiladi, boshqalarida esa oilaviy huquq, meros va muomalot sohalarida qo‘llaniladi. Ba’zi mamlakatlarda esa shariat faqatgina axloqiy va ma’naviy tamoyil sifatida qabul qilingan. Zamonaviy davrda islom huquqini modernizatsiya qilish, zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish va xalqaro huquq normalari bilan uyg‘unlashtirish masalalari muhokama qilinmoqda.

Avvalo bola va bola huquqi tushunchalari, uning paydo bo`lishiga nazar soladigan bo‘lsak, uning uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, jamiyatning bolalarga nisbatan munosabatining o‘zgarishi, ularning ehtiyojlarini anglash hamda ularning jamiyatdagi o‘rnini belgilash bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz.

Mualliflar jamoasining[126] “Bola huquqlari va ijtimoiy ish” nomli maqolada Yevropada bola huquqlari tarixi haqida so‘z yuritilib quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: Bola huquqlari haqidagi munozara, hatto zamonaviy inson huquqlari muhokamasi doirasida ham, nisbatan yangi hisoblanadi. Yaqin o‘tmishda bolalar huquqlari haqida gapirish bema’ni tuyulgan. Bola huquqlari tushunchasi faqat so‘nggi o‘n yilliklarda keng qo‘llab-quvvatlandi. Bolalar huquqlari nafaqat nisbatan yangi g‘oya, balki bolalik va bola tushunchalari ham nisbatan yaqinda shakllangan.[127]

[125] Qur’oni Karim, *Oli Imron* surasi, 159-oyat.
[126] Hanita Kosher, Yael Hendelsman, Asher Ben-Arieh, 2016
https://www.researchgate.net/publication/315862642_The_History_of_Children's_Rights
[127] Hart, S. N. (1991). From property to person status: Historical perspective on children's rights. *American Psychologist, 46*(1), 53–59. https://doi.org/10.1037/0003-066X.46.1.53

Tadqiqotlari, asosan, bolalar huquqlari, yoshlar jinoyatchiligi va ijtimoiy adolatga qaratilgan Shotlandiyaning Stirling universiteti professori Sharon Skott ma’lumotlariga ko‘ra, Spartada bolalar tug‘ilganidanoq saralanardi. Sog‘lom bolalar yashab qolgan, zaif bolalar esa o‘ldirilgan. Bolalar hayotining dastlabki etti yilida ota-onalar ishtirokisiz enagalar tomonidan tarbiyalangan. U yana shuni qo‘shimcha qiladiki, etti yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’limga qobiliyatsiz deb hisoblanib, Gretsiyaning bilimga asoslangan tizimida ahamiyatsiz sanalgan.

Yevropa huquqining tarixiy ildizi hisoblangan Rim huquqida oilaboshlig‘i bolaga nisbatan mulkka o‘xshash huquqqa ega deb hisoblangan. Oila boshlig‘i bolani qul sifatida sotishi, xohlasa o‘ldirishi mumkin edi. Rim imperatori Yustinian davrigacha bu amaliyot davom etdi va bu davrda bolaning manfaatlarini ko‘zlab o‘zgartirishlar kiritildi. Qadimgi yunon huquqida ham vaziyat boshqacha emas edi, Arastu va Aflotun bolani o‘ldirish huquqi otada bo‘lishi kerakligini ta’kidlashgan. Qadimgi Yunon davlatlaridan Spartada esa yangi tug‘ilgan chaqaloqlar kohinlar tomonidan jismoniy tekshiruvdan o‘tkazilardi, bolada biron-bir nuqson bo‘lsa, unga yashashga ruxsat berilmasdi. Nogironligi bo‘lgan yoki tashqi ko‘rinishida nuqsoni bo‘lgan shaxslar Sparta jamiyatini orqaga surishi mumkinligi fikri bilan bu amaliyotlarni marosimga aylantirgandilar[128].

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, qadimgi davrda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, ekspluatatsiya va e’tiborsizlik keng tarqalgan edi. Bolalar huquqi haqida hech qanday tushuncha mavjud bo‘lmagan.

Islomdan oldingi Arab yarimoroli tarixi islom tarixining to‘liq yoki bir qismini o‘rganadigan tarixchilar tomonidan odatda e’tiborsiz qoldirilmaydigan sohadir. Islom dinining qanday muhit va sharoitlarda insoniyatga taqdim etilganligi, olib kelgan yangiliklari, ayniqsa uning ustunligi, “johiliyat davri” deb ham nomlangan bu davr bilan taqqoslanib, ochib berilishga harakat qilingan. Johiliyat davri tushunchasi doirasida odatda geografik jihatdan Arab yarim oroli, vaqt jihatidan esa islom dinidan oldingi davr nazarda tutiladi[129].

Islomgacha bo‘lgan arablarda qiz bolalarning sha’niga dog‘ tushirishi va oilasining obro‘siga putur etkazishi xavfi tufayli, ularni tiriklayin ko‘mish odati bor edi. Qiz bolalarning esa har qanday meros huquqi yo‘q edi[130].

Odatda bolalar uchta sababdan biri tufayli o‘z ota-onalari tomonidan o‘ldirilgan.

1. Ba’zi savodsiz va xurufotga berilgan qabilalar o‘zlarining yasab olgan xudolarini rozi qilish uchun buni marosim sifatida qilishgan. Ular xudolari

[128] Zorlu, S. E. & Bilgin, A. S. / Gaziantep University Journal of Social Sciences 2024 23(2) 763-780
[129] Yrd. Doç. Dr. Yavuz Yildirim* Islam Öncesi Arap Yarimadasinda Çocuk Öldürme Olgusu. https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/10133
[130] Zorlu, S. E. & Bilgin, A. S. / Gaziantep University Journal of Social Sciences 2024 23(2) 763-780

tinchlansin, yomg‘ir, urushda g‘alaba, sog‘liq va hokazolar ato etishi uchun o‘z farzandlarini qurbon qilishar edi. Ba’zan agar duolari ijobat bo‘lsa, qurbongohda o‘z farzandlarini qurbon qilishga va’da berishgan. Eng ajablanarlisi, ayollar ham bu dahshatli jinoyatlarning ishtirokchisi bo‘lgan.

2. Farzand tarbiyasidagi moddiy yuk tufayli odamlar o‘z farzandlarini o‘ldirishgan. Bunday ota-onalar bolalarini o‘z elkalariga keraksiz yuk deb o‘ylashgan.

3. Uchinchi sabab eng g‘ayriinsoniydir. Islomdan oldingi davrdagi arablar soxta mag‘rurlik, xudbinlik va manmanlik tufayli sharmandalikdan qo‘rqib qizlarini tiriklayin ko‘mishgan.

Qur’oni karim johiliyat davrida odamlarning qiz bolaga bo‘lgan munosabatini ochiq tasvirlaydi:

وَإِذَا بُشِّرَ أَحَدُهُم بِمَا ضَرَبَ لِلرَّحْمَٰنِ مَثَلًا ظَلَّ وَجْهُهُ مُسْوَدًّا وَهُوَ كَظِيمٌ (١٧)

“Qachonki ulardan birortasiga, Rohmanga misol keltirgan narsaning xushxabari berilsa, g‘azabga to‘lib, yuzi qorayib ketur.”[131]

Mushriklar, Allohning farishtadan qizi bor, deyishadi-yu, o‘zlariga, qiz ko‘rding, degan xushxabar kelsa, xafa bo‘lib, g‘azabga to‘lib, yuzlari qorayib ketadi. O‘ziga qiz farzand bo‘lishini shunchalar yomon ko‘radi[132].

Boshqa bir oyatda:

وَإِذَا بُشِّرَ أَحَدُهُم بِالْأُنثَىٰ ظَلَّ وَجْهُهُ مُسْوَدًّا وَهُوَ كَظِيمٌ (٥٨) يَتَوَارَىٰ مِنَ الْقَوْمِ مِن سُوءِ مَا بُشِّرَ بِهِ ۚ أَيُمْسِكُهُ عَلَىٰ هُونٍ أَمْ يَدُسُّهُ فِي التُّرَابِ ۗ أَلَا سَاءَ مَا يَحْكُمُونَ (٥٩)

“Qachonki ulardan biriga qizning xushxabari berilsa, g‘am-alamga to‘lib, yuzi qorayib ketur. Unga berilgan xushxabarning yomonligidan (uyalib) qavmidan berkinur. U (qiz)ni xorlik-la olib qolsamikin yoki tuproqqa ko‘msamikin? Ogoh bo‘ling! Ular qilgan hukm naqadar yomon.”[133]

Arab yarimroli, qolaversa, butun dunyo ham shunday jaholat va fasodga to‘lib ketgan mahalda go‘zal xulq uzra bo‘lgan, olamlarga rahmat o‘laroq yuborilgan payg‘ambar Muhammad s.a.v. adolat dini bo‘lgan islomni olib keldilar.

Islomda “inson huquqlari bola huquqlaridan boshlanadi,” degan tushuncha mavjud bo‘lib, bu huquqlar shunchaki axloqiy tavsiyalar bo‘lib qolmay, balki Shariatda qonuniy asosga ega bo‘lib, bolaga huquqlarning to‘liq tizimini kafolatlaydi. Bola huquqlari har bir fuqaro, jamoa va butun jamiyat uchun majburiy qo‘llanma hisoblanadi. Bola uchun oila, fuqarolik jamiyati va hukumat mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladi[134].

[131] Zuxruf surasi, 17-oyat
[132] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol, 2013. – T.: Hilol-Nashr. – B. 373.
[133] Nahl surasi, 58-59-oyatlar
[134] Ирис Сафуат. Права ребенка в исламе. https://idmedina.ru/books/history_culture/minaret/16/safuat.htm

Islom o‘z qonunchiligi va huquqiy qoidalarida bolalar va bolalikka alohida e’tibor qaratadi. Aytish mumkinki, bolalik masalasi islom qonunchiligining asosiy maqsadlaridan birini tashkil etadi. Islomdagi faqihlar va ulamolar islom shariati inson beshta maqsad yoki vazifani bajarishga qaratilganiga ittifoq qilishgan. Bular: naslni saqlash, hayotni himoya qilish, aqlni muhofaza etish, mulkni asrash va e’tiqodni himoyalash. Islom ulamolari bu besh oliy maqsadni besh zaruriy narsa deb ataydilar. Ular “zaruriy” so‘zi bilan asoslarni nazarda tutadilar, ularsiz hayot mumkin bo‘lmaydi. Agar bu asoslardan birontasiga putur etsa, hayot murakkablashadi va tartibsiz bo‘lishi mumkin. Natijada insoniyat aziyat chekadi. Yo‘qotish ikki darajada bo‘ladi: bu dunyoda qisqa muddatli va oxiratda uzoq muddatli[135].

Bolalik masalasi birinchi maqsadning asosini tashkil etadi, ya’ni bolalarni himoya qilish va ularni xavf-xatarlardan saqlashdir. Bu mavzuda islom dini boshqa dinlar yoki ijtimoiy tizimlarda deyarli uchramaydigan ko‘plab aniq qonun-qoidalarni taqdim etadi. Bola haqidagi qat’iy qonunchilik onaning qornida shakllanishning dastlabki kunlaridan to balog‘at yoshiga etguncha davom etishini ta’kidlash kifoya. Bu orada homiladorlik, tug‘ilish, emizish, ko‘krakdan ajratish, o‘ynash, tarbiya va ta’lim, do‘stlik va hamrohlik hamda oxir-oqibat mustaqillik va o‘z kuchiga tayanish kabi turli bosqichlar mavjud. Ushbu bosqichlar davomida bolaga qoidalar, qonunlar va ko‘rsatmalar bilan munosabatda bo‘linadi, bular birgalikda “bolalik huquqshunosligi” ni tashkil etadi. Bu bolaning tarbiyasi va ota-ona, oila hamda jamiyat himoya qilishi kerak bo‘lgan huquqlarni qamrab oladi. Islom dini yangi tug‘ilgan o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasidagi tenglikka alohida e’tibor qaratadi. U bolalar o‘rtasida g‘amxo‘rlik va e’tibor ko‘rsatish yoki ularga sovg‘alar, grantlar yoki mukofotlar berishda kamsitishni taqiqlaydi[136].

Musulmon bolaning shaxsiyati, ongi va vijdonini tashkil etuvchi asosiy unsurlar barcha islom tizimlarida mavjud bo‘lgan ikkita muhim yo‘naltiruvchi omilga bo‘ysunadi.

Birinchi omil shundan iboratki, musulmon kishi, u xoh o‘smir, xoh yosh bola yoki katta yoshli odam bo‘lsin, halol (ruxsat etilgan) va harom (taqiqlangan) doirasida harakat qiladi. Buni fiqh asoslari ulamolari beshta huquqiy layoqat qoidasi sifatida o‘rgatadilar.

Ikkinchi omil shundan iboratki, musulmonning harakati, u bola yoki katta yoshli bo‘lishidan qat’i nazar, axloqning keng qamrovli tizimi tomonidan boshqariladi. Bu tizim bolaga erkinlik yoki shaxsiy huquqlar bayrog‘i ostida, har

[135] Children in Islam their care, upringing and protection. Al-Azhar University in cooperation with UNICEF, 2005. – B. 3-4.

[136] Children in Islam their care, upringing and protection. Al-Azhar University in cooperation with UNICEF, 2005. – B. 3-4.

qanday taqiqlangan g‘ayritabiiy holatga jalb bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ular aql yoki ilohiy dinlar tomonidan qoralanuvchi hech qanday mafkuraviy yoki xulq-atvor og‘ishlariga aralashmasligi kerak. Ba’zi pedagogik tizimlar erkinlik va zo‘ravonlikning oldini olish bahonasi bilan bolalarga bunday faoliyat bilan shug‘ullanish uchun imkoniyat yaratsa-da, Islom o‘zini og‘ishlar, kasalliklar va illatlar deb hisoblaydigan va qarshilik ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan hamdayosh avlod himoya qilinishi lozim bo‘lgan holatlarni qoralaydi[137].

Bola islom huquqida muayyan davrlar tarzida ko‘rib chiqilgan va bu davrlar ichida uning huquqiy holatida o‘zgarishlar ko‘rsatilgan. Islom huquqshunoslari bolalik davrlarini homila, bolalik, farqlash yoshi, balog‘at va etuklik deb besh davrga bo‘lib o‘rganganlar. Bundan tashqari, islom huquqida bolalik davri bolaning qobiliyatlari rivojlanishini hisobga olgan holda majburiyatlar oshirilgan[138].

Turkiyalik doktor Sharif Gedik islomda bola huquqlariga oid ilmiy maqolasida[139] quyidagi ma’lumotlarni keltiradi Islom huquqi bo‘yicha tug‘ilishdan to balog‘at yoshigacha bo‘lgan davr “bolalik”, bu davrda bo‘lgan shaxs esa “bola” deb ataladi. Tasarruf qilish mas’uliyatini hisobga olgan holda berilgan ta’rifga ko‘ra esa, bola “yoshi kichikligi sababli hali mukallaf bo‘lmagan va har qanday muomalani amalga oshirishga vakolatli bo‘lmagan shaxsdir”. Islom huquqida bola ona qornida shakllana boshlagan paytdan e’tiboran daxlsiz deb e’tirof etilgan va sog‘ tug‘ilishi sharti bilan unga tegishli bo‘lgan huquqlar kafolatlangan. Bolalik davri asosan ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: tamyiz oldi va tamyiz davri. Tamyiz oldi davridagi (0-7 yosh oralig‘i) bolaga “g‘ayr-i mumayyiz”, tamyiz davridagi bolaga esa “mumayyiz” deyiladi. Tug‘ilish bilan boshlanadigan bolalik, balog‘at bilan yakunlanadi. Islom huquqiga ko‘ra, balog‘atga etgan shaxs namoz, ro‘za, zakot va haj kabi ibodatlarni ado etish bilan mukallaf bo‘lgani kabi, jinoiy javobgarlik va muomala layoqatiga ham egadir.

Islom dini farzand ko‘rishni rag‘batlantirish bilan birga, ota-onalarning moddiy-ma’naviy jihatdan katta mas’uliyatga ega ekanligiga ishora qilgan. Ota-onaning beqiyos mehri va g‘amxo‘rligi bolani mutlaq zaiflik va ojizlik bosqichidan mukammal kuch va mustaqillikka olib chiqadi. Quyida Islom tomonidan har bir bolaga, shu jumladan etimlarga berilgan asosiy inson huquqlari keltirilgan:

1. Yashash va uning zaruriyatlariga bo‘lgan huquq.
2. Tarbiya olish huquqi.
3. Mehr-muhabbat olish huquqi.

[137] O‘sha manba.

[138] Büyük Haydar Molla, 1990, s. 27; Çeker

[139] Gedik, Ş. (2024). Aile Birliğine Bir Müdahale Biçimi Olarak Çocuğun Devlet Koruması Altına Alınmasının İslâm Hukuku Açısından Değerlendirilmesi. İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi(43), 269-302. https://doi.org/10.59777/ihad.1419576

4. Umumiy g‘amxo‘rlik olish huquqi.
5. Nasl-nasabga ega bo‘lish huquqi.
6. Merosga bo‘lgan huquq.
7. Tenglik huquqi.
8. Ta’minot olish huquqi.
9. Ta’lim olish huquqi.
10. Moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanish huquqi.
11. Himoyalanish huquqi.

Bularning har biri tegishli Qur’on oyatlari va Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) hadislari bilan birma-bir va batafsil muhokama qilinadi[140].

Islomda ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar ham huquqiy, ham axloqiy jihatdan muayyan asoslarga bog‘langan. Bolani musulmon qilib tarbiyalash, dunyo va oxirat saodatini e’tiborga olish, milliy qadriyatlari bilan uyg‘un bo‘lishi, madaniyatli va sog‘lom shaxs sifatida jamiyatga qo‘shish ota-onaning asosiy mas’uliyatlaridandir. Garchi bu mas’uliyat birinchi navbatda otaga tegishli bo‘lsa-da, ona ham bu mas’uliyatda sherik bo‘ladi. Shuningdek, bolaning shaxsiy huquqlari va mol-mulkini himoya qilish ham otaning asosiy vazifalaridan biridir. Islom huquqida turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, umumiy qabulga ko‘ra, farzand balog‘atga etgunga qadar uning shaxsi ustidan, to rushd bo‘lguncha esa mol-mulki ustidan tasarruf qilish huquqi birinchi navbatda otaga tegishli. Valiylikka bog‘liq holda otaga berilgan bu tasarruf huquqi otalik xususiyatidan kelib chiqadi va har qanday sud qaroriga yoki vakolatlarni topshirishga muhtoj emas. Zero, bu valiylik majburiy bo‘lib, bu valiylikdan voz kechish yoki qochish mumkin emas. Otaning yo‘qligi yoki valiylikka layoqatsiz bo‘lgan taqdirda, bu vakolat boshqa qonuniy vakillarga beriladi.

Bolalar farovonligi insoniyatning yorqin kelajagi poydevori ekanligiga hech qanday shubha yo‘q. Islom inson hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi mukammal va yaxlit tizim bo‘lgani uchun, u bola huquqlarini ta’minlaydigan va uni to‘g‘ri tarbiyalashni kafolatlaydigan huquqiy va ijtimoiy tuzilmalar asosini yaratadi. Farzandlar har bir millatning boyligi va insoniyat naslining davomchilaridir. Ayni paytda, ular Allohning in’omi bo‘lib, ota-onalar, qarindoshlar va jamiyatga ishonib topshirilgan. Shu sababli, bola ehtiyojlari islom huquqi va axloqining asosiy e’tibor markazida turadi.

[140] Dr. Nooreen Zaidi. Human rights of children in Islam International Journal of Criminal, Common and Statutory Law www.criminallawjournal.org

SAHLIYA TA'LIMOTIDA TAQVO MASALASI

Raximov Xolmurod Majitovich,
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti,
Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi
Email: raximovxolmurod697@gmail.com

Bugungi kunda dunyo davlatlari taraqqiyot sari jadal odimlamoqda. Texnologik imkoniyatlar insonni juda ko‘p sohalarda og‘irini engil qilmoqda. Rivojlangan davlatlarda og‘ir jismoniy mehnat ham texnika vazifasiga aylanib ulgurdi. Lekin insoniyat oldida turgan eng katta muammo ma'naviyat va odob-axloq masalasidir. Texnologik rivojlangan jamiyatlarda axloqiy qadriyatlar zavol topayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Lekin biz butun dunyoga ma'naviyat, ilm va axloq beshiklaridan biri ekanimizdan faxrlanishimiz mumkin. Bizda boy ma'naviy meros mavjud bo‘lib, bu meros tarixiy manbalarimizda saqlanib qolgan. Bizning yagona qiladigan ishimiz ma'naviy merosni o‘rganib, xalqimizga, xususan yosh avlodga etkazib, ajdodlarimiz ta'lim-tarbiyasidan o‘rnak olishga chaqirishimizdir. Yillar davomida fan bo‘lib shakllangan Tasavvuf fani to‘lig‘icha odob-axloqdir. G‘arbda “etika va estetika” deb ataladigan axloqiy qadriyatlarni bizga Tasavvuf fani ortig‘i bilan bera oladi. Tasavvufda insonni g‘ayriaxloqiy sifatlardan, nafs xohishlaridan tiyib turuvchi xislatni “taqvo” deb ataladi.

“Taqvo” so‘zi – arab tilidan olingan bo‘lib, “taqvo”, “xudodan qo‘rqish”, “dindorlik” kabi ma'nolarni anglatadi[141].”

Taqvo borasida Qur'on va Hadis asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsada, mutafakkirlar bu g‘oyalarni rivojlantirib, o‘z nuqtai nazarlarini va ta'limotlarini tuzganlar. Shunday allomalardan biri Sahl ibn Abdulloh Tustariydir. Tustariy “Sahliya” ta'limotiga asos solgan[142] va taqvo masalasida ham uning qarashlari aks etgan.

Sahl ibn Abdulloh Tustariy aytdi: “taqvo – o‘z botiniy va zohiriy hollarini ulardan ajralgan holatda mushohada qilish (kuzatish)dir. Buning ma'nosi: Allohdan boshqalardan saqlanmog‘i, Allohga xotirjam bo‘lib, undan halovat istamog‘idir. “Qudratingiz etgunicha Allohga taqvo qiling”, oyatini: “Barcha qudratingiz bilan va qudratingiz etgancha unga muhtojlik izhor qilish bilan bo‘ladi", deb tafsir qildi. Sahl:

[141]An-Na‘ym ul-Kabyr. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – T.: muharrir. – 2021. B. 805
[142] A. Abdullaev. Tasavvuf va uning namoyandalari. – T.: A. Navoiy

“Sizlardan Allohga faqat taqvolaringiz etib boradi” oyatidagi taqvoni – amaldan o‘zini uzoq tutish va ixlos, deb tafsir qildi[143].

Bandaning holi ikki xildir. Zohiriy hol: bu toat ibodatlardir. Botiniy hol: bu mushohada, xavf, rajo va boshqalardir. Banda bu hollaridan ajralishi, ya'ni ularni bor deb ko‘rmasligi lozimdir. Amalini arzimas deb bilib, uni borligini unutishdir. Keyin esa Alloga xotirjam bo‘lib, undan halovat istaydi. undan boshqalardan ajraladi.

Alloh taolo: “qudratingiz etganicha taqvo qiling”, deganining ma'nosi: barcha qudratlaringiz etganicha, deganidir.

Bu oyatning ma'nosi: taqvoni boshqa amal va xizmatlar kabi toqatingiz etganicha bajaring degani emas, balki taqvoni butun bolig‘ingiz va barcha qudratlaringiz bilan bajaringki, biror narsa oraga kirib sizlarni mendan to‘sib qo‘ymasin, deganidir.

Sahl ibn Abdulloh Tustariy aytdi: “ya'ni quvvatingiz etganicha Allohga yo‘qsilligingiz va muhtojligingizni izhor qilishingizdir”.

Chunki bandani sifati muhtojlik va yo‘qsillikdir. Shu sababli Allohga bu sifatlar bilan yuzlanadi va o‘ziga tegishli barcha narsalardan yuz o‘giradi.

Sahl ibn Abdulloh Tustariy Allohning: “sizlardan Allohga faqat taqvolaringiz etib boradi” iborasi borasida shunday dedi: “bu qilgan amallaridan o‘zini uzoq va bexabar tutish, hamda ixlosdir.

Bu oyat qurbonlik haqida bo‘lib, ma'nosi: “Menga qurbonligingizdan go‘sht va qon etib kelmaydi, balki taqvolaringiz keladi”, deganidir. Sahl bu oyatdagi “taqvo”ni – amallardan o‘zini uzoq tutish, ya'ni amalini ko‘rmaslik bilan tafsir qildi. Banda o‘zini amali va barcha narsalaridan uzoq tutishidir. Banda qancha amalidan o‘zini uzoq tutsa, shuncha taqvoliroq bo‘ladi. O‘zini uzoq tutish bu – ixlosdir[144].

Sahl aytdi: kim Allohni azamati va odilligi bilan tanisa, undan qo‘rqadi. Qo‘rquvining alomati Alloh qaytarganlaridan uzoq bo‘lishidir. Kim Allohni saxiyligi va karami bilan tanisa, undan umid qiladi. Umid qilishining alomati, Uning toati va xizmatida bo‘lishidir. Kim Allohni fazli va rahmati kengligi bilan tanisa, Uni yaxshi ko‘radi. Uning muhabbatining alomati nafsida, ruhida, ahlida va molida ishora qilib turadi. Kimda bu alomatlar topilmasa, u da'vo qiluvchi xolos[145].

Bu erda Tustariy taqvo va Allohdan qo‘rqishni ham ma'rifatga bog‘lamoqda. Uning ta'limotida barcha xislatlar bir-biriga bog‘liq bo‘lib, hammasi kompleks bo‘lganda natija beradi.

---

143 ابي بكر محمد بن اسحاق الكلابادي. التعرف لمذهب اهل التصوف. طشقند, ماوراءنهر. ه1439-م2018. ص 69

144 علاء الدين ابو الحسن علس بن اسماعيل بن يوسف القونوي. شرح التعرف لمذهب اهل التصوف. بيروت-لبنان, كتاب-ناشرون. 1440ه- 2019م.ج2, ص295

145 سهل بن عبد الله التستري. المعارضة و الرد على اهل الفرق و اهل الدعاوى في الاحوال.تحقيق الدكتور محمد كمال جعفر. القاهرة, دار الانسان. ه1400- م1980. ص 132

Sahl aytdi: Parhez qilmasdan ilmni da'vo qilmanglar. Ixlos qilmasdan amalni da'vo qilmanglar. Sunnatga ergashmasdan ixlosni da'vo qilmanglar. Allohga sodiq bo‘lmasdan sunnatga ergashishni da'vo qilmanglar. Unda qo‘rqmasdan sidqni da'vo qilmanglar. Qo‘rquvni da'vo qilmanglar, unga muhtoj bo‘lmasdan turib. Har qanday kuch – quvvatdan Allohni kuch-quvvatiga o‘tmasdan muhtojlikni da'vo qilmanglar[146].

Tustariyga ko‘ra parhezkorlik, ya'ni luqmani pok saqlamoq ruhiy kamolotning asosidir va busiz ilm hosil bo‘lishi mumkin emas.

Sahl aytdi: uch narsa borki, olimlar bu narsalarni taniganlaridan so‘ng ularga nazar solmasliklari lozim bo‘ladi: 1. Dushmanni tanigandan keyin unga aldanmasliklari kerak. 2. Dunyoni taniganlaridan keyin u bilan mashg‘ul bo‘lmasliklari kerak. 3. Nafsni tanigandan keyin, uni qabul qilmasliklari kerak[147].

Tustariyga ko‘ra bu uch narsani tanigandan keyin undan ehtiyot bo‘lishi, unga qarshi kurashishi zarur va aldanib qolmasligi kerak bo‘ladi.

Sahl aytdi: olimni adashishini tutib olmanglar. Kimda hol bo‘lsa, ilm bilan o‘sha adashishdan saqlansin. Agar olimda hol bo‘lmasa, u insonlarni do‘zaxga boshlaydigan yo‘lboshchidir. Ya'ni unda taqvo hollaridan bir hol bo‘lmasa: hayo yoki xavf yoki parhezkorlik, yoki muroqaba, yoki zuhd yoki shunga o‘xshashlar[148].

Tustariyning fikricha olim ham adashishi mumkin va buni mahkam ushlab olmaslik kerak. Agar olimda botiniy ilm ham bo‘lmasa u adashishi muqarrar demoqda.

Tustariy ta'limotidagi taqvo ham inson o‘zini hamma vaqt nazorat qilishi va jamiyatga zarar keltirishdan saqlanishiga sabab bo‘ladigan xislatlardandir. Agar yoshlar tarbiyasiga o‘zini jilovlash tushunchasi singdirilsa, odob-axloq va halollik keng tarqalishiga sabab bo‘ladi.

[146] O’sha erga qarang, 133.

[147] سهل بن عبد الله التستري. المعارضة و الرد على اهل الفرق و اهل الدعاوى في الاحوال.تحقيق الدكتور محمد كمال جعفر. القاهرة, دار الانسان. 1400ه- 1980م. ص 138

[148] O’sha erga qarang, 90.

SOG’LOM E’TIQOD JAMIYAT TARAQQIYOTINING GAROVIDIR

Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o‘g‘li,
O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi maqsadli tayanch doktoranti.
Mir Arab oliy madrasasi o’qituvchisi

“E’tiqod” arabcha so’z bo’lib, qattiq ishonch, Alloh taologa bo’lgan imon ma’nolarini anglatadi. E’tiqodning mazmunini ilm tashkil qiladi. Chunki kishi nimaga e’tiqod qilayotganini, nimaga ishonayotganini anglashi lozim. Ilmsiz e’tiqod yo’q, bo’lishi ham mumkin emas. Inson e’tiqod bilan tirik, e’tiqod bilan aziz va mukarram. E’tiqodi sof inson jamiyatning pokligi uchun kurasha oladi. E’tiqodi mustahkam inson o’z dinidan voz kechmaydi. Shuningdek, e’tiqod bir narsani ikkinchisiga mahkam bog’lash ma’nosini ham ifoda etadi. Islom aqidasi musulmon insonni ma’lum bir narsalar bilan mahkam bog’lab turadigan tushunchalar majmuasidir. Inson biror narsaga e’tiqod qilishi uchun uni hech qanday shubha qoldirmaydigan darajada yaxshi bilishi lozim bo’ladi. Islom dinida Allohning yagonaligi va payg’ambarlarning haqligiga e’tiqod qilish va ishonish shart. Bu borada Qur’oni karimda**: “Ey imon keltirganlar! Allohga, Payg’ambariga,** (shu) **Payg’ambariga nozil qilgan Kitob** (Qur’on)**ga hamda ilgari nozil qilingan Kitoblarga imon keltiringiz! Kimki Allohni, farishtalarini, kitoblarini, payg’ambarlarini va “Oxirgi kun** (qiyomat)”**ni inkor etsa, demak, u juda uzoq** (qattiq) **adashibdi”** (Niso surasi, 136 -oyat), deb ogohlantirilgan. Aqida masalasida kishilar tafakkurini to’g’ri shakllantirish yoshlar, qolaversa, butun jamiyatning e’tiqodini noto’g’ri aqidalardan asrash, axloqiy va ma’naviy kamolotga etkazish dolzarb vazifadir[149].

Har bir jamiyatning poydevorini ma’naviy qadriyatlar va ma’lum bir e’tiqod tizimi tashkil etadi. Sof aqida, ya’ni insonning dunyoqarashi, hayotiy tamoyillari va qadriyatlari majmui jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va a’zolarining farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix shohidlik beradiki, o’z e’tiqodiga sodiq bo’lgan, uni hayotining asosiy mezoni deb bilgan jamiyatlar turli sinovlardan muvaffaqiyatli o’tgan va yuksalishga erishgan. Aksincha, ma’naviy zaiflik, e’tiqodiy bo’shliq hukm surgan jamiyatlar esa tanazzulga yuz tutgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va turli mafkuraviy ta’sirlar kuchaygan bir davrda sog’lom e’tiqodning jamiyat hayotidagi o’rnini chuqur o’rganish va anglash dolzarb

[149] Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o’quv qo’llanma/ M. Amin Yahyo; Mas’ul muharrir A. Hasanov. Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 10-11 6.

ahamiyat kasb etadi. Zotan ibodadlarni qabul bo’lishiga asos bo’ladi. Bu borada So’fi Ollohyor rahmatullohi alayh shunday deganlar:

Aqida bilmagan shaytona eldur,
Agar ming yil amal deb qilsa eldur.

Sog’lom aqida — bu insonning o’z diniga, e’tiqodiga aql-idrok, dalil va hujjatlar asosida yondashuvidir. U diniy bilimlarni chuqur o’rganish, noto’g’ri va mutaassib qarashlardan saqlanish, insonparvarlik va adolatga asoslangan yashash tarzini anglatadi. Sog’lom e’tiqod aqidaviy soflik, diniy bag’rikenglik, fikrlar xilma-xilligiga hurmat kabi muhim tamoyillarga tayanadi. Bu e’tiqod insonning ichki dunyosini boyitib, uni ma’naviy etuk shaxs sifatida tarbiyalaydi. Sog’lom e’tiqod egasi fan va din o’rtasida ziddiyat ko’rmaydi, balki ularni bir-birini to’ldiruvchi ikki bilim manbai sifatida qabul qiladi va o’z e’tiqodini mutlaq haq deb bilish va boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan xoli bo’ladi hamda insonparvarlik va adolatni shunchaki ijtimoiy tamoyillar emas, balki diniy buyruqlar va e’tiqodning ajralmas qismi sifatida qabul qiladi. U boshqa e’tiqod vakillariga hurmat bilan yondashadi va muloqotga ochiq bo’ladi. U olamdagi ilohiy hikmatni ilmiy kashfiyotlar orqali ham anglashga intiladi. Insonni nafaqat o’z dinidagi birodarlariga, balki butun insoniyatga, hatto hayvonot va o’simlikot olamiga ham mehr-shafqat ko’rsatishga undaydi, chunki barcha mavjudotlarni Yaratuvchining maxluqoti deb biladi.

Musaffo e’tiqod sohibi o’z jamiyatidagi muammolarga befarq bo’lmaydi, balki ularni hal qilishda faol ishtirok etadi. U zaiflarni qo’llab-quvvatlaydi, muhtojlarga yordam beradi va jamiyat farovonligi uchun o’z hissasini qo’shadi va o’zining e’tiqodidan farqli bo’lgan fikrlarga ham hurmat bilan yondashadi va ular bilan o’zaro manfaatli muloqot qilishga tayyor bo’ladi. U boshqa fikrlarni rad etish uchun emas, balki o’z bilimini boyitish va haqiqatga yaqinlashish uchun imkoniyat sifatida qabul qiladi.

Sog’lom e’tiqod insonlarning axloqiy tarbiyasida asosiy rol o’ynaydi. Bu e’tiqod insonni nohaqlik, poraxo’rlik, zo’ravonlik kabi salbiy holatlardan saqlaydi. Jamiyatda shunday aqidalar ustuvor bo’lsa, odamlar o’zaro ishonch va hamjihatlikda yashaydi hamda jamiyatda turli buzg’unchi g’oyalar tarqalishining oldini oladi. Noto’g’ri talqin qilingan diniy qarashlar yoshlarni radikal oqimlarga og’dirishi mumkin. Ilmiy asoslangan dinshunoslik ta’limi orqali bunday xavflarni kamaytirish mumkin. Ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashda sog’lom e’tiqodli fuqaro har doim tinchlik va hamjihatlikni afzal ko’radi. Bu e’tiqod jamiyat a’zolarining o’zaro hurmatini mustahkamlab, ziddiyatlar kelib chiqishiga yo’l qo’ymaydi. E’tiqodli inson mehnatni muqaddas deb biladi. U halol mehnat bilan

yashashni va rivojlanishni o’zining burchi deb hisoblaydi. Bu esa jamiyatning iqtisodiy o’sishiga turtki beradi.

Islom dini ham insonni adolat, samimiyat, hurmat va mehr-shafqatga chorlaydi. Qur’oni Karim va Payg’ambarimiz alayhissalomning hadislarida ham doimo ilohiy muhabbat va ijtimoiy mas’uliyat alohida o’rin olgan.

Alloh taolo kalomida shunday marhamat qiladi: **“Albatta, Alloh adolatga va ehsonga buyuradi...”**[150] (Nahl surasi, 90-oyat).

Imom Tobaroniy o’zlarining “Al-Mu’jam al-Avsat” kitoblarida Nabiy alayhissalomdan quydagi hadisni keltiradi: **“Insonlarning yaxshisi – boshqalarga foydasi tegadiganidir”**[151]. Bu oyat va hadislardan ma’lumki, e’tiqodli inson jamiyat manfaati uchun faol bo’lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, sog’lom e’tiqod jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim o’rin tutadi. U ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda, axloqiy normalarni shakllantirishda, psixologik farovonlikni oshirishda, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda va madaniy rivojlanishga hissa qo’shishda beqiyos ahamiyatga ega. Sog’lom e’tiqodga ega bo’lgan jamiyat a’zolari o’zaro hurmat, ishonch va hamjihatlik ruhida yashaydilar, umumiy maqsadlar sari intiladilar va farovon kelajakni barpo etadilar. Shu bois, jamiyatda sog’lom e’tiqodni mustahkamlash va uni yosh avlodga etkazish har bir davlat va jamiyatning muhim vazifalaridan biri bo’lib qoladi.

IMOM BUXORIY MEROSIDA MA’RIFIY G‘OYA VA AXLOQIY YUKSAKLIKNING GAVDALANISHI

Saidov Shaxboz
Mir arab oliy madrasasi mudarrisi, Buxoro davlat universiteti
Falsafa tarixi yo’nalishi doktoranti

Imom al-Buxoriy (810–870) islom ilmining ulkan yulduzlaridan biri, hadisshunos olimlar ichida “muhaddislar sultoni” unvoniga sazovor bo‘lgan ulug‘ allomadir . U kishi qoldirgan boy ilmiy meros – xususan, mashhur “Al-Jomi’ as-sahih” (odatda “Sahih al-Buxoriy” deb ataladi) – nafaqat diniy bilim manbai, balki musulmon ummatining ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi va axloqiy kamolotida mustahkam asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Imom Buxoriy hadislar to‘plamini tuzishda payg‘ambarimiz Muhammad ﷺning sahih (ishonchli) hadislarini jamlab, ulardan musulmonlar uchun hayotiy dasturilamal yaratishni maqsad qilgan . Ushbu

[150] Azizxo’ja Inoyatov, G’ani Zikrillaev. Qur’oni karim oyatlari mazmun-ma’nosining o’zbekcha izohli tarjimasi -T.: «Hilol-Nashr, 2022. 688 6
[151] Sulaymon ibn Ahmad Tobaroniy. “Al-Mu’jam al-Avsat”. Darul haromayn. 1995.

maqolada Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosiga umumiy nazar tashlanadi, “Sahih al-Buxoriy” asarining ma’rifiy (ta’limiy) va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur hadis to‘plamida targ‘ib etilgan asosiy axloqiy fazilatlar (halollik, sabr, rahm-shafqat, ota-ona haqqiga hurmat) va hadis ilmining tarbiyaviy hamda ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Oxir-oqibat, Imom Buxoriy merosining zamonaviy musulmon jamiyatiga ta’siri haqida so‘z yuritilib, mavzu yuzasidan tegishli xulosalar beriladi.

Islom axloqiy ta’limotida halollik (halol-harom chegarasini saqlash) va rostgo‘ylik eng oliy fazilatlardan sanaladi. Imom Buxoriy keltirgan ko‘plab hadislar musulmonlarni doimo rost so‘zlashga, har ishda halol va pok bo‘lishga undaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad ﷺ marhamat qilib shunday deganlar:

“Doimo rost gapiring, zero rostgo‘ylik ezgulikka etaklaydi, ezgulik esa jannatga boshlaydi. Kishi rostgo‘y bo‘lib, doimo rostlikni istasa, Alloh huzurida siddiqlar (rostgo‘y bandalar) qatoriga yoziladi. Yolg‘ondan saqlaning, chunki yolg‘on fojirlikka (gunohga) etaklaydi, fojirlik esa do‘zaxga eltadi. Kishi yalqovlik bilan (uzr) hamisha yolg‘on gapira bersa, oxiri Alloh huzurida katta yolg‘onchi deb yoziladi.”[152]

Ushbu mashhur hadis halollik va rostgo‘ylikning nechog‘li ulug‘ qadriyat ekanini ko‘rsatadi. Rostgo‘ylik – barcha ezguliklarning asosi: musulmon kishi qalbida rostlikka intilish bo‘lsa, u boshqa fazilatlarni ham osonlik bilan o‘zida shakllantira oladi. Hadisdagi “rostlik jannatga etaklaydi” degan so‘z halol-haromga qat’iy rioya qilish oxirat saodatiga sabab bo‘lishini anglatadi. Imom Buxoriy “Sahih”ida rostgo‘ylikning fazilati haqida alohida boblar keltirgan. Masalan, “Odob” kitobida halollik va yolg‘onning oqibatiga oid hadislar jamlangan. *Rivoyat qilinishicha, Rasulullohﷺga bolaligida ham hech qachon yolg‘on gapirmagan bir sahobani maqtashganda: “Mening oldimga musulmon bo‘lib, hech qachon yolg‘on so‘zlamagan holda kelgan kishi kiraversin”*[153] *– deb izn berganlar*, deyiladi (mazmunan). Bu kabi rivoyatlar sahih hadislar orqali rostgo‘ylik musulmonning hayotiy shiori bo‘lishi lozimligini o‘rgatadi. Imom Buxoriy halollikni imon bilan bog‘liq fazilat deb biladi – imon keltirgan inson halol yo‘ldan yurib, tilidan faqat rost so‘z chiqarishi shart.

Aksincha, yolg‘onchilik eng qabih illatlardan ekani “Sahih al-Buxoriy”da qayta-qayta uqtiriladi. Hadisi shariflarda yolg‘on – munofiqning belgisi, iymon nurini o‘chirmoqchi bo‘ladigan og‘ir gunoh sifatida bayon qilingan. Buxoriy keltirgan hadisda Rasulullohﷺ: *“Katta gunohlardan sizlarga xabar beraymi?”* deb

[152] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, **Kitāb al-Adab**, bob: *Man kāna yu’minu billāh…*, Hadis № 6018.
[153] Imom at-Termiziy. *Sunan*, Kitāb al-Buyūʿ, bob: Mā jā’a fī as-Ṣidq fī al-bayʿ, Hadis № 1209.

uch marta takror so‘raganlarida, sahobalar *“Ha, ayting, yo Rasulalloh”* deyishgan. Shunda Najotkor: *“Allohga shirk keltirish, ota-onaga oq bo‘lish (hurmatsizlik)”*, deb turganlarida qaddini rostlab, *“Yana yolg‘on gapirish va yolg‘on guvohlik berish”* deb takror aytaverganlar . Payg‘ambarimiz yolg‘onning xavfini bu qadar ta’kidlaganlaridan sahobalar: *“Qani endi jim bo‘lsalar”* deb achinganlar[154]. Ushbu hadisdan ma’lum bo‘ladiki, ota-onaga nisbatan hurmatsizlik qilish va yolg‘on gapirib, yolg‘on guvohlik berish – eng katta gunohlardandir. Yolg‘on kishi axloqini tubanlashtirib, jamiyatda ishonchni yo‘qotishga, fitna va nizolarga sabab bo‘ladi. Shu sababli, Imom Buxoriy *halollikni barcha ezguliklarning kaliti, yolg‘onni barcha yovuzliklarning eshigi* sifatida talqin etuvchi sahih hadislarni keltirib, musulmonlarni ogohlantirgan. Xulosa qilib aytganda, halollik va rostgo‘ylik – Imom Buxoriy merosida ideal mo‘min sifatining ajralmas qismi bo‘lib, har bir musulmonni bu fazilatlarni o‘zida qaror toptirishga undaydi.

Sabr – musulmon axloqining eng ulug‘ fazilatlaridan biri bo‘lib, bardosh, matonat, chidam ma’nolarini qamrab oladi. Qur’on va sunnatda sabr so‘zining o‘rni beqiyos: Alloh taolo sabr qiluvchilarni suyukli bandalari deb madh etadi, *“Albatta Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir”* deb marhamat qiladi[155]. Hadis shariflarda ham sabrning savobi ulug‘ligi va uning har bir yaxshilikning asosi ekani ko‘plab misollar bilan bayon etilgan. Imom Buxoriy “Sahih”ida sabr haqidagi hadislarni alohida boblarda jamlagan. U zotning o‘zi hayotida ko‘p sinovlarga sabr qilgan, ilm yo‘lida qanchadan-qancha mashaqqatlarga chidagan. Sahihi Buxoriyda keltirilgan quyidagi hadis sabr fazilatini yorqinroq anglashga yordam beradi:

Ma’nosi: *“Kim (odamlardan biror narsa) tilamaslikka harakat qilsa, Alloh uni behojat qiladi; kim qanoatli bo‘lishga harakat qilsa, Alloh uni boy qiladi; kim sabr qilishga intilsa, Alloh unga sabr (matonat) ato etadi; bandaga berilgan ne’matlarning ichida sabrdan ko‘ra yaxshiroq va kengroq ne’mat yo‘qdir.”*[156]

Ushbu hadisi sharifga ko‘ra, sabr inson hayotidagi eng ulug‘ ne’mat va xususiyatdir. Darhaqiqat, sabrli bo‘lish – mo‘min uchun bitmas-tuganmas xazinadir: sabr bilan har qanday qiyinchilikni engib o‘tish, har qanday boylik va muvaffaqiyatga erishish mumkin. Hadisda keltirilgan *“kim sabr qilishga harakat qilsa, Alloh unga sabrni beradi”* degan so‘z sabrning ta’lim olish kabi orttirish mumkin bo‘lgan fazilat ekanini bildiradi. Yani, inson o‘zini sabrli bo‘lishga o‘rgatsa, Alloh unga yordam berib, haqiqiy sabr-matonat nasib etadi. Sabr – irodaviy tarbiyaning mezoni bo‘lib, Imom Buxoriy merosida doimo ulug‘lanadi.

[154] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb al-Adab, bob: Al-kabā’ir, Hadis № 5976.
[155] Al-Qur’an al-Karim, Surah al-Baqara, 2:153.
[156] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb az-Zakāt, bob: Al-iʿfāfʿan as-su’āl, Hadis № 1469.

Sahih al-Buxoriyda sabrning turli ko‘rinishlariga oid hadislar mavjud. Masalan, *musibatlarga sabr qilish*: Rasulullоh ﷺ bir ayol farzandi vafoti sabab qabr boshida yig‘lab o‘tirganida, unga sabr qilishni nasihat qilgan va ayol tushunmagach: *“Albatta, (asl) sabr – musibatning birinchi zarbasi chog‘ida bo‘lur”* deb eslatganlar[157]. Bu hadis musibat kelganda o‘sha zahotiyoq nolimasdan, sabr bilan qarshi olish eng afzal ekanini ko‘rsatadi. Yana bir mashhur rivoyatda: *“Qaysi bir bandaga sabr qilsa, Alloh sabr beradi. Hech kimga sabrdan-da ulug‘ va kengroq ne’mat berilmagan”* deb kelgan[158]. Demak, sabr – mo‘min hayotining har jabhasida zarur bo‘lgan oliy fazilat bo‘lib, Allohning cheksiz in’omi hisoblanadi.

Imom Buxoriy sabrli bo‘lishning o‘zi bir ibodat ekanini anglatadigan hadislarni ham keltiradi. Jumladan, *“Kim xalqdan hech narsa so‘ramay o‘tishga odatlansa – Alloh uni behojat etadi”, “kim qanoat qilsa – Alloh boy qiladi”* kabi so‘zlar sabr-qanoatli bandaga Allohning o‘zi madadkor bo‘lishini bildiradi . Sabr-bardosh nafaqat musibatda, balki ibodat va taqvo yo‘lida barqaror bo‘lishda ham muhimdir. Mo‘min kishi namoz, ro‘za kabi farz amallarda bardavom bo‘lish uchun sabr qiladi; gunohlardan tiyilishda sabr qiladi; g‘azabini yutishda sabr qiladi. Shuning uchun ham hadisda *“sabr – iman yarmidir”* deb ham aytiladi (mazmunan). Imom Buxoriy merosida sabr-bardosh eng oliy axloqiy ideal sifatida, har bir musulmon uchun zarur xulq sifatida targ‘ib qilingan.

Zamonaviy davrda Imom Buxoriy merosining ta’siri bir necha yo‘nalishda yaqqol seziladi:

1. Ilmiy-adabiy sohada: Imom Buxoriy nomi bilan ataluvchi ilmiy markazlar, institut va madrasalar dunyoning turli burchaklarida faoliyat yuritmoqda. Xususan, Imom Buxoriy yurti – O‘zbekistonda bu ulug‘ zot nomini abadiylashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilib, olimlar uning merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish yo‘lida ish olib bormoqda . Shuningdek, yurtimizdagi oliy o‘quv yurtlari va madrasa-diniy maktablarda Sahih al-Buxoriy alohida fan sifatida o‘qitilmoqda. Ilmiy konferensiya va anjumanlar o‘tkazilib, Buxoriy merosining hozirgi zamondagi ahamiyati haqida bahs va munozaralar qilinmoqda. Ulug‘ muhaddis qabrining Samarqanddagi majmuasi ham obod qilingan va u er har yili minglab ziyoratchilar oqimini qabul qilmoqda . Bularning barchasi Imom Buxoriy merosini nafaqat diniy, balki madaniy meros sifatida ham qadrli ekanini ko‘rsatadi.

2. Ta’lim-tarbiya va targ‘ibotda: Bugungi kunda musulmon dunyosida turli yo‘nalish va oqimlar paydo bo‘lgan, ayrimlarda dinga noto‘g‘ri talqinlar ham uchraydi. Bunday sharoitda Sahih al-Buxoriy asosiy haqiqat mezoni bo‘lib xizmat

[157] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb al-Jana’iz, bob: Ziyārat al-Qubūr, Hadis № 1283.
[158] Ibn Māja. *Sunan*, Muqaddima, bob: Fadl al-ʿilm, Hadis № 224.

qilmoqda. Imom Buxoriy keltirgan aniq sahih hadislar har xil bid’at va xurofotlarning ildizini qirqishga yordam beradi. Masalan, ayrim yoshlar noan’anaviy oqimlarning targ‘ibotiga uchib qolsa, ularni sahih hadislar asosida Qur’on va sunnatga muvofiq tarbiyalash mumkin. Hozirgi imom-xatiblar va da’vatchilar Imom Buxoriy merosiga tayanib, xalqimizga islomning asl go‘zal qiyofasini tushuntirishyapti. Jumladan, respublikamiz bo‘yicha masjidlarda o‘tkaziladigan *“Hadis saboqlari”*da asosan Buxoriy va Termiziy hadislaridan foydalaniladi. Natijada, yoshlar orasida soflik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlar targ‘ib qilinmoqda. Ayniqsa, ota-ona hurmatini oshirish, oila mustahkamligini ta’minlash, zo‘ravonlik va g‘arazning yomon oqibatlari bo‘yicha hadisi shariflar targ‘iboti yaxshi samara bermoqda. Ko‘plab ota-onalar farzandlariga “Sahih al-Buxoriy”dan qisqacha hikoyatlar o‘qib bermoqda, bu orqali bolalarda diniy tarbiya shakllanyapti.

3. Madaniyat va ma’naviyatda: Imom Buxoriy merosi musulmonlarning kundalik turmush tarzida ham chuqur iz qoldirgan. Bugungi kunda musulmon oilalarida to‘y-ma’rakalar, hayit bayramlari, turli tadbirlarda hadislarni keltirish odat tusiga kirgan. Masalan, Ramazon hayitidagi va’zlarda yoki juma namozlarida imomlar doim Buxoriy va Muslim hadislaridan misollar bilan mav’iza qiladilar. Ko‘plab musulmonlar hadislarni yod olishga harakat qilishadi – ayrim yoshlar uchun hatto hadis aytish musobaqalari ham uyushtirilmoqda. Bu jarayonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Buxoriy merosining ta’siridir. Ba’zi hikmatli hadislar xalq maqoliga ham aylanib ketgan: masalan, *“Ota rozi – Xudo rozi”* degan naql xalqimiz orasida keng tarqalgan bo‘lib, u bevosita hadisi sharifga borib taqaladi. Yoki *“Haloling – hotirjamlik, haroming – xijolat”*[159] kabi naql ham halollik haqida payg‘ambarimizning ko‘rsatmalaridan kelib chiqqan. Demak, Buxoriy va boshqa muhaddislar keltirgan hadislar ummat tafakkuriga singib ketgan, ular milliy-ma’naviy merosning ajralmas qismiga aylangan.

4. Islom birlik va bag‘rikengligidagi o‘rni: Sahih al-Buxoriy nafaqat ahli sunna, balki barcha musulmonlar hurmat qiladigan manbadir. Hatto ayrim shia manbalari ham Imom Buxoriyni tan oladi (garchi farqlar bo‘lsa-da). Zamonaviy davrda islomofobiya va turli ekstremistik qarashlar avj olayotgan bir paytda, Imom Buxoriy hadislarining tinchlikparvar va bag‘rikeng mohiyatini ko‘rsatish nihoyatda muhim. Uning to‘plamidagi *“Dinda zo‘rlash yo‘q”*[160], *“Musulmon – tilu qo‘lidan boshqalar omonda bo‘lgan kishi”*[161], *“Kuchsizlarga, etimlarga, bechoralarga*

[159] Imom at-Tirmiziy. *Sunan at-Tirmiziy*, Kitāb al-Qiyāmah, bob: *Ma jā’a fī tark al-rayb*, Hadis № 2518.
[160] Qur’oni karim, *Baqara* surasi, 256-oyat
[161] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb al-Imān, bob: *Al-Muslim man salima al-muslimūna min lisānihi wa yadihi*, Hadis № 10.

g‘amxo‘r bo‘l”[162] singari hadislar islomning asl tinchlik dini ekanini isbotlaydi. Bu hadislar targ‘iboti tufayli ko‘plab no-musulmonlar ham islomga xayrixoh bo‘lmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar Imom Buxoriy hayoti va asarlarini o‘rganib, butun dunyoga tanitishga hissa qo‘shmoqda. Masalan, 2019 yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan YUNESKO shafeligida “Imom Buxoriy yilini nishonlash” tadbirlari o‘tkazilgani (misol tariqasida) dunyo e’tiborini tortdi. Bu ham ulug‘ muhaddis merosining jahon madaniyatiga ta’sirini ko‘rsatuvchi dalildir.

5. Huquqiy-axloqiy me’yorlardagi ta’siri: Ko‘plab musulmon mamlakatlarning konstitutsiyalari va qonunlarida shar’iy normalar aks etgan bo‘lib, bevosita Qur’on va hadisga asoslanadi. Imom Buxoriy hadislarining huquqiy me’yorlarni shakllantirishga ham ta’siri katta. Masalan, aksar islom davlatlarida qasamyod yoki sud jarayonida “Alloh nomi bilan qasam ichaman” deyish odatiy hol. Bu Sunnatga borib taqaladi: sahih hadisda payg‘ambarimiz: *“Kim qasam ichmoqchi bo‘lsa, Alloh nomi bilan ichsin”*[163] deganlar. Yoki islom davlatlarida iqtisodiy muomalalarda halollik qoidalari (foizga man’lik, harom tovarlar taqiqligi) joriy qilingan bo‘lib, Buxoriy keltirgan ko‘plab hadislar bunga asos bo‘lib xizmat qilgan. Demak, bugungi musulmon jamiyat tuzilmasida ham Imom Buxoriy hadislarining ruhini his etishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida, Imom Buxoriyning boy merosi – uning o‘lmas asarlari va undagi ma’rifiy g‘oya va axloqiy ideallar – zamonaviy musulmon jamiyatini tarbiyalashda, unga ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilishda davom etmoqda. Allomaning sahih hadislar to‘plami asrlar osha ozgina ham qadrsizlanmay, aksincha, dolzarbligi yanada oshib bormoqda. Zero, bugungi axborot xurujlari davrida odamzod halollik, sabr, rahm-shafqat va ota-ona hurmati kabi umuminsoniy fazilatlarga qattiq muhtojdir. Imom Buxoriy merosi esa aynan shu fazilatlarni targ‘ib etuvchi ishonchli manbadir. U kishining o‘zi aytganidek: *“Har bir ilmning boshlanishi – sahih hadislarni bilishdir”*. Bugungi kunda ham ta’lim-tarbiya jarayonida, jamiyatni ma’naviy yuksaltirishda Imom Buxoriy hadislariga murojaat qilish – eng to‘g‘ri yo‘ldir. Shunday ekan, ushbu nodir merosni chuqur o‘rganish, avlodlar qalbiga singdirish va undan to‘g‘ri xulosa chiqarib amal qilish har birimizning zimmamizdagi vazifadir.

[162] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb at-Tarīq, bob: *Bir al-Yatīm*, Hadis № 6005;
[163] Imom al-Buxoriy. *Al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ*, Kitāb al-Ayman wa an-Nuzūr, bob: *Man kāna ḥālifan fal-yaḥlif billāh aw liyasmut*, Hadis № 6646.

FIQH ILMI VA UNING MO‘JAZ TARIXI

Ro‘zmetov Muhammad Mustafo
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktaranti, Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

“Fiqh” so‘zi lug‘atda daqiq fahmni, ya’ni bir narsani nozik joylarigacha tushunishni anglatadi. Shariat istilohida esa, “Shar’iy dalillardan far’iy hukmlarni chiqarib olishga fiqh deb aytiladi. Ushbu ta’rifdagi “shar’iy dalil” deganimizda, asosan, Qur’oni Karim va Nabiyimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini tushunamiz. “Far’iy hukmlar” esa, asliyning teskarisi, ya’ni shahobcha, kichik ahamiyatli, deganidir. “Shariatda esa, ibodatlar va muomalotni o‘z ichiga oluvchi hukmlar hisoblanadi.

Fiqhning ma’nosi va uning ahamiyati qanchalar yuksakligiga Qur’oni Karimning “Tavba” surasida kelgan quyidagi oyati karima ham dalolat qiladi:

وَمَا كَانَ الْمُؤْمِنُونَ لِيَنْفِرُوا كَافَّةً فَلَوْلَا نَفَرَ مِنْ كُلِّ فِرْقَةٍ مِنْهُمْ طَائِفَةٌ لِيَتَفَقَّهُوا فِي الدِّينِ وَلِيُنْذِرُوا قَوْمَهُمْ إِذَا رَجَعُوا إِلَيْهِمْ لَعَلَّهُمْ يَحْذَرُونَ

“Mo‘minlar yoppasiga (jangga) chiqishlari shart emas. Ularning har bir guruhidan bir toifa chiqmaydimi?! (Qolganlari Payg’ambardan) dinni o‘rganib, qavmlari ularga (jangdan) qaytib kelgach, (gunohdan) saqlanishlari uchun ularni ogohlantirmaydilarmi?!

Bu oyati karima diniy ilmlarni chuqur egallagan ulamolarni kerakligicha tayyorlashga Islom jamiyati alohida e’tibor berishi lozimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ulamolarning jamiyatdagi o‘rinlari va masuliyatlari yuksak ekanini ham ta’kidlaydi. Shuningdek, Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham o‘z hadisi shariflarida dinda faqih bo‘lishni yuqori baholab quyidagicha marhamat qilganlar: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih qilib qo‘yadi”,- dedilar” .

“Fiqh” so‘zidan kelib chiqqan holda shariat hukmini daqiq joylarigacha tushunishni taminlaydigan ilm ham “fiqh” deyiladi. Ana shunday ilmiy malakaga ega bo‘lgan olim esa “faqih” deyiladi.

Yuqoridagi oyati karima va hadisi shariflardan ko‘rinib turibdiki, din ta’limotlarini yaxshi tushuninishga intilish banda uchun katta baxt-saodatdir. Unga Alloh taolo yaxshilikni iroda qilganining alomatidir.

Fiqh ilmining tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, Islomning avvalgi davrida tafsir, hadis, usulul fiqh va boshqa ilmlar kabi fiqh ilmi ham alohida ilm shaklida ajralib chiqmaganligini ko‘ramiz.

Dastlab Makkai Mukarramada o‘n uch yil davomida asosan aqiydaga taalluqli oyatlar tushdi. Keyinroq, Madinai Munavvaraga hijrat qilinganidan so‘ng, shar’iy hukmlarga tegishli oyatlar ham tusha boshladi. Ularning hammasini Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam hali uncha ko‘paymagan musulmonlar jamoasiga o‘qib, tushuntirib berar edilar. U vaqtdagi musulmonlarning deyarli barchasi arablar bo‘lib, arab tilini nozik joylarigacha yaxshi tushunishar, Qur’oni Karim oyatlari va Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini hech qiynalmay anglashar va ularga amal qilishar edi.

Saodat asrida moboda ba’zi tushunmovchiliklar bo‘lsa, darrov Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning o‘zidan so‘rab olishar, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam esa ularga masalaning javobini bayon qilib berar edilar. O‘sha vaqtda sahobalarning sodda hayotlaridagi asosiy ishlari ham shundan iborat edi.

Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning muborak hayotlarining oxiriga kelib Qur’oni Karim oyatlari tushishi nihoyasiga etib qoldi. Keyingi bosqichdagi oyatlarning ko‘plari fiqhiy hukmlarga tegishli edi.

Turli qabila va yurt odamlari Islomni qabul qilishdi. Yangi musulmonlar qarshisida deyarli yigirma uch yil davomida tushib to‘plangan oyatlarni o‘qib-o‘rganish, ularga amal qilish, shariat ahkomlarini o‘z hayotlariga tadbiq qilishdek ulkan vaziyfa turar edi. Tabiiyki yosh sahobalar o‘zlaridan kattalardan, yangi musulmonlar eskilaridan, bilmaydiganlar esa biladiganlardan shar’iy masalalarni so‘ray boshlashdi. Bu ishlarda ba’zi sahobalar o‘z ilmlari, topqirliklari bilan boshqalardan ajralib chiqdilar. Ulamolarimiz fiqh bilan mashhur bo‘lgan sahobalarga Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Mas’ud, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Amr ibn Oss, Zayd ibn Sobit roziyallohu anhum va Oisha onamiz roziyallohu anhoni misol qilib keltiradilar.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam uzoq yurtdagi musulmonlarga shariat ahkomlarini o‘rgatish, ularning hayotida yangi paydo bo‘ladigan masalalarni hal etish uchun ilmli sahobalardan o‘z vakillarini yuborganlar. Jumladan, Yamanga Muoz ibn Jabal roziyallohu anhuni yubordilar.

Hijriy birinchi asrning ikkinchi yarmi va ikkinchi asrda Islom dini dunyo bo‘ylab keng tarqaldi. Arab bo‘lmagan turli xalqlar ham musulmon bo‘ldilar. Tabiiyki, ular o‘zlariga Qur’oni Karim va Nabiyimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlaridan shariat ahkomlarini chiqarib, tartibga solish imkoniga ega emas edilar. Bir tarafdan til bilmaydilar, qolaversa ilmlari ham yo‘q. Nima qilish kerak? Albatta bilganlardan so‘rash kerak. Shunday qilib, asta-sekin, kishilarga diniy hukmlarni o‘rgatadigan, ularning savollariga javob beradigan kishilar ajrab

chiqa boshladi. Keyinchalik, sharoit butun boshli kitoblar ta’lif qilish, masalalarni jamlab bayon qilishni ham taqozo qilib qoldi.

Asta sekin Islom olamining turli joylarida faqih ulamolar etishib chiqa boshladilar. Mazkur ulamolar o‘z ilmiy ishlarida fiqhiy ijtihodlariga to‘rtta narsani asosiy manba qilib olganlar edilar.

Birinchisi: Qur’oni Karim. Ya’ni, faqih Islomda biror narsaning hukmi qanday ekanligini bilmoqchi bo‘lsa, avvalo Qur’oni Karimga murojaat qiladi. Unda nima hukm bo‘lsa, hech qanday ikkilanishsiz qabul qiladi.

Ikkinchisi: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari. Agar faqih biror narsaga javobni Qur’oni Karimdan topa olmasa, sunnatga murojaat qiladi. Uni topib, hukmini bayon qiladi.

Uchinchisi: Ijmo – bir davrning ijtihod ahli bo‘lgan ulamolarining bir ovozdan biror masalani qabul qilishlaridir. Misol uchun, Qur’oni Karimni kitob holiga keltirish zarurligi Qur’onning o‘zida ham Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarida ham takidlanmagan. Ammo, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning vafotlaridan keyin urushlarda Qur’oni Karimni yod olgan qorilarning ko‘pi shahid bo‘layotganidan tashvishlangan hazrati Umar roziyalllohu anhuning takliflari bilan xalifa Abu Bakr Siddiq roziyalllohu anhu Qur’onni jamlashga buyruq berdi. Bunga hamma rozi bo‘ldi, hech kim qarshi chiqmadi. Bu ish “ijmo” orqali amalga oshdi.

To‘rtinchisi: Qiyos. Ya’ni, avvalgi manbalarda hukmi kelmagan masalani, shunga o‘xshash mazkur manbalarda hukmi bor narsaga qiyos bilan hukm chiqarish. Misol uchun, Qur’onda xamr, ya’ni o‘sha vaqtda uzum, arpa, asal, xurmo kabi narsalarni achitish yo‘li bilan olinadigan mast qiluvchi ichimlik xarom qilingan. Ulamolar shunga qiyoslab, ulardan boshqa mast qiluvchi ichimliklarni ham xarom deb aytganlar. Faqihlar mazkur dalillar vositasida ko‘plab hukmlarni istinbot qilib ommaga taqdim qilganlar.

“HIKMAT AL-AYN” RISOLASINING SOG’LOM E’TIQODAGI O’RNI

Aliqulov Raxmonqul Abduqayumovich
Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi,
Buxoro davlat texnika universtieti mustaqil izlanuvchisi

Borliqning mohiyatini, xususan uning cheksizligi va inson hayotining unga bog‘liqligini o‘rganish bugungi kunda ham falsafaning asl mazmun-mohiyatini ifodalovchi sifatlarini namoyon etadi. Bu muammolar bugun ham barcha avlod faylasuflarini qiziqtiradi. Zero, hozirgi borliq masalasi ko‘p jihatdan muammoli

bo‘lib qoldi, ya'ni dunyoda ekologik tanglik tobora kuchayib bormoqda, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining salbiy ta'siri yaqqolroq sezilmoqda, yadro urushi xavfining dahshatli qiyofasi yorqin ko‘rinish kasb etmoqda. Borliqning bunday muammoliligi nafaqat uni tabiiy jarayon sifatida, balki insonning butun hayot yo‘li davomida anglab etiladi.

“Hikmat al-ayn” (arab. حكمت العين) — Najmiddin Ali ibn Umar ibn Ali Qazviniy (vaf. 675/1276) tomonidan yozilgan mantiq va metafizikaga oid asar bo‘lib, o‘rta asrlarda Sharqda mantiq ilmida juda mashhur bo‘lgan. Bu asarga bir qancha sharhlar yozilgan, ulardan biri Shamsiddin Muhammad ibn Muborak Shoh Buxoriyning "Sharh hikmat al-ayn" asari hisoblanadi. Ushbu sharh mantiq ilmidan asosiy darslik sifatida o‘rta asr madrasalarda keng foydalanilgan.

Mutafakkir asrad borliq va yo‘qlik masalasiga alohida e'tibor qaratib, bahs yuritadi.

البحث الأول: في الوجود والعدم

المسألة الأولى :في أن تصور الوجود والعدم بديهي

. تصور وجودي بديهي, والوجود جزء منه, وتصور جزء المتصور بالبديهية بديهي, فالوجود بديهي

Mazmuni: Birinchi bahs. Borlik va yo‘qlik masalasi bo‘lib, bu kategoriyalar o‘z-o‘zidan tushunarli haqiqatdir. Mening borligim aniq haqiqat bo‘lib, mutlaq borliq uning bir qismidir. O‘z-o‘zidan tasavvur qilinayotgan narsaning bir bo‘lagini tasavvur qilish ham o‘z-o‘zidan haqiqat bo‘ladi. Demak, borliq o‘z-o‘zidan ravshan haqiqatdir[164].

المسألة الثانية: في أن الوجود مشترك

وهو مشترك وإلا لزال اعتقاد الوجود بزوال اعتقاد الخصوصيات، ولبطل انحصار الشيء في الموجود والمعدوم ضرورة أن الواقع في مقابلة المعدوم وجود خاص حينئذ ولما صح انقسامه إلى الواجب والممكن، والتوالي باطلة. أما الأول؛ فلأنا إذا اعتقدنا أن الممكن الموجود له سبب ممكن الوجود جزمنا بوجود السبب، وإذا اعتقدنا أن ذلك السبب واجب الوجود زال اعتقاد كونه ممكن الوجود، ولا يزال اعتقاد وجوده .وأما الآخران فظاهران .والشرطية الأولى ممنوعة، لاحتمال أن يكون وجود كل ماهية ممكنة زائد عليها ولجواز قيام بعض أفراده بنفسه وهو الوجود الواجبي، فلا يجب زوال اعتقاده بزوال اعتقاد الخصوصية. وكذا الثانية، لأن المقابل لعدم كل ماهية هو وجودها الخاص بها. وأما ما ذكروه لبطلان التالي فضعيف، لجواز أن يكون الاشتراك لفظياً. ولهذا لا يزول اعتقاد الوجود بزوال اعتقاد الخصوصية، وعلم منه ضعف بطلان تالي الشرطية الثالثة. والأولى أن يقال: الوجود كون الشيء في الأعيان. ولا شك في أن الموجودات بأسرها مشتركة في هذا المعنى.

Ikkinchi masala. Vujud mushtarakdir ya'ni, yagona narsaga tegishli bo‘lmagan umumiy tushuncha. Mavjudlik mushtarak bo‘lishi shart. Aks holda, birinchidan, xususiyatlar haqidagi e'tiqod yo‘qolishi bilan mavjudlik haqidagi e'tiqod ham barham topadi. Ikkinchidan, narsalar borliq va yo‘qlik doirasiga cheklanishi bekorga aylanadi. Chunki u holda yo‘qlikning muqobilida xos

[164] 195نجم الدين دبيران كاتبي قزويني. حكمة العين. تهران, انجمن آثار و مفاخر فرهنگی, 1384ش. ص

mavjudlik turishi kerak bo‘ladi. Uchinchidan, narsaning vojib (ya'ni, mavjud bo‘lishi shart, bo‘lishi zaruriy) va mumkin (ya'ni, bor bo‘lishi ham, yo‘q bo‘lishi ham mumkin, bor bo‘lishi mantiqan zarur bo‘lmagan narsa) ga bo‘linishi durust bo‘lmay qoladi.

Albatta, ushbu uch faraz botildir. Birinchisiga kelsak, agar biz mavjud mumkin narsaning qandaydir mumkin sababi bor deb bilsak, o‘sha sababning borligiga jazm ila hukm qilgan bo‘lamiz. So‘ngra o‘sha sababni vujudi vojib narsa deb bilsak, uning vujudi mumkin ekanligi tushunchasi yo‘qoladi, lekin mavjudligi e'tiqodi qolaveradi. Ikkinchi va uchinchilarning botilligi esa ko‘rinib turibdi.

Birinchi sharti noto‘g‘ridir. Negaki, u holda har bir mumkin mohiyatning vujudi mohiyatning o‘zidan ortiqcha narsa bo‘lishi mumkin hamda ayrim bo‘laklari o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lishi joiz. Vojib vujud aynan shu narsadir. Shu sabab, xususiyat e'tiqodi bekor bo‘lishi bilan uning ham bekor bo‘lishi shart emas.

Ikkinchisi ham shunday. Negaki har bir mohiyatning yo‘qligi muqobilida uning o‘ziga xos vujudi yotadi.

Bu farazning botilligi haqida ayrim olimlar aytgan gap zaifdir. Chunki mushtaraklik lafziy bo‘lishi mumkin edi. Shu sabab xoslik e'tiqodi bekor bo‘lishi ketidan vujud e'tiqodi bekor bo‘lib qolmaydi. Bundan ma'lum bo‘ladiki, uchinchi shartining natijasi botilligi zaifdir. Buning munosib javobi quyidagicha: Vujud degani narsaning muayyan mohiyatlarda joylashishini anglatadi. Shubha yo‘qki, mavjud narsalarning barchasi bu ma'noda mushtarakdir[165].

Borliq - olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya bo‘lib, faylasuflar tomonidan turli g‘oyalar berilgan. Tasavvufda borliq tushunchasi vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi tahlil qilingan. Mazkur nazariya ham falsa¬fiy, ham irfoniy asoslarga tayanadi.

Sharq faylasuflarlari ayniqsa, Qazviniy ta'limotida borliq va yo‘qlik masalasi tajriba va kuzatuv, mantiqiy tahlil va umumlashmalar orqali tabiat, inson va jamiyatni tadqiq etish yo‘lidan borgan. Ko‘rinadiki, ahli kalomda ham, ahli hikmatda ham aqliy-mantiqiy ilm, tajriba qilish, bilim asosiy o‘ringa ega bo‘lgan.

[165] 196نجم الدين دبيران كاتبي قزويني. حكمة العين. تهران, انجمن آثار و مفاخر فرهنگی, 1384ش. ص

SOG‘LOM E’TIQOD — BARQAROR JAMIYAT TAYANCHI VA MA’NAVIY TARAQQIYOT KAFOLATI

Maxmudov Asrorxon Yusufxonovich,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi erkin tadqiqotchisi,
Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi

E’tiqod (iymon) – inson hayotidagi eng muhim ma’naviy tayanchlardan biri bo‘lib, uning aqliy, axloqiy va ijtimoiy faoliyatiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Qur’oni Karimda iymon qalbning tasdiqi o‘laroq ko‘rilsa-da, uning amal bilan bog‘liqligi ko‘p o‘rinlarda ta’kidlanadi hamda uni ezgu amallar uchun asos sifatida talqin qilinadi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham iymonni 70 yoki 60 dan ortiq shoxchalari bor deya ta’riflaganlar (Sahih Muslim, 1/63).

Ahli sunna val-jamoa e’tiqodi inson hayotida to‘g‘ri ishonch tizimini shakllantirishni maqsad qilgan. Undan farqli ravishda, g‘uluv va ifrot oqimlari e’tiqodni yo aqldan to‘liq xoli qiladilar (hashviya toifasi kabi) yoki mutlaq mantiq va falsafaga burib, islomiy manbalarni chetga chiqaradi (falosifalar kabi).

Moturidiylik ta’limoti esa bu ikki og‘ishdan xoli holda, naql (Qur’on va Sunnat) asosida aqlni shar’iy doirada ishlatishni ilgari suradi (Griffel, 2021).

Moturidiy ta’limotida e’tiqod insoniy aql, iroda va bilim asosida shakllanadi. Imom Moturidiy (333 h.) o‘zining “Ta’vilot ahlu-s-Sunna” asarida zikr qilganidek, iymonni to‘g‘ri anglash insonning o‘z mas’uliyatini to‘g‘ri anglashidan boshlanadi. Bu esa uni axloqli, adolatli, bag‘rikeng va foydali shaxsga aylantiradi.

Islom ulamolari fikricha, e’tiqod nafaqat diniy ibodatlarda, balki axloq, muomala, oila va mehnat sohalarida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi (Ibn Ashur, 2006). Masalan, sog‘lom e’tiqodga ega inson turli sinovlarda muvozanatni saqlaydi, hayotga ijobiy qarash bilan yondashadi va jamiyatga foyda keltirishga intiladi.

Ahli sunna ta’limotiga ko‘ra, jamiyat barqarorligi — insonlarning e’tiqodi to‘g‘ri bo‘lsagina ta’minlanadi. Qur’oni Karimda jamoat bilan birga bo‘lishga, ўzaro maslahat bilan ish kўrishga, fitnadan uzoqlashishga chorlov bor (Qur’on, 3:103; 42:38). Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Kim jamoatdan bir qarich uzoqlashsa, u o‘zini halokatga etaklagan bo‘ladi” (Imom Muslim, Sahih, Kitobul-Imom: 1851).

Moturidiylar aqiydada bo‘linish va g‘uluvni qoralaganlar. Imom Nasafiy (537 h.) o‘zining "Aqoidun-Nasafiya" asarida ixtilofni yumshatish va ahli qiblaga nisbatan mўʼtadil munosabatni saqlash zarurligini ta’kidlaydi.

Bugungi kundagi ifrotchi oqimlar jamiyatda nafrat, tafriqa va zo‘ravonlikni avj oldirayotgan bir paytda, Moturidiy ta’limoti — aql va e’tiqod uyg‘unligini ta’minlovchi tayanch maktab sifatida yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Moturidiy aqidasiga kўra, din va ilm o‘rtasida ziddiyat yo‘q, balki ular bir-birini to‘ldiradi, deb hisoblanadi. Olam haqida fikr yuritish esa ibodat deb baholanadi. Aql va naql uyg‘unligini ta’minlagan bu maktab jamiyat a’zolarining ham din, ham tabiiy fanlarda yuksalishiga yo‘l ochgan.

Imom Moturidiy ta’limotida aql Allohning mavjudligi va Uning ba’zi sifatlarini anglay olishi mumkin. Shu sababdan moturidiylik ulamolari aql va ilmni ulug‘lagan holda, uni shar’iy chegaralar ichida rivojlantirganlar.

Qur’oni karimda Alloh taolo aytadi:

«Ayting: biladiganlar bilan bilmaydiganlar barobar bo‘lurmi?» (Zumar: 9).

«Ey Parvardigorim, mening ilmimni ziyoda qil!» (Toha: 114).

Mazkur oyatda Alloh taolo banlalariga ilmlarini ziyoda qishini so‘rab O‘ziga duo qilishlarini o‘rgatmoqda. Bu esa Alloh taoloning nazdida ilmning ahamiyati va fazilati naqadar yuksak ekanini kўrsatadi.

Moturidiylik maktablarida falsafa, mantiq, tib va astronomiya kabi ilmlar o‘qitilgan. Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar dalilga asoslangan ilmga e’tiqoddan ayro holda qaramaganlar.

Islom aqidasi oqilona, ijobiy harakatga undaydigan va mas’uliyatni anglashga da’vat etadigan aqidadir. Moturidiy maktabining «kasb» nazariyasi Alloh taoloning mutlaq irodasi ostida insonning ixtiyori va harakatini tan oladi va insonni o‘z qasdi va bajargan ixtiyoriy faoliyati uchun mas’ul sifatida ko‘radi. Qasd qilgan ishlari ezgu va foydali bo‘lsa, Alloh taoloning fazli ila dunyoda maqtov, Oxiratda esa buyuk ajr-savoblarga sazovor bўlishini ta’kidlaydi. Aksincha, qasd qilgan ishi yomon va zararli bўlsa, Alloh taoloning adolati ila dunyoda javobgarlik va qoralov, Oxiratda esa qilmishiga yarasha jazo bo‘lishidan ogohlantiradi.

Bu muvozanat insonni faol, mas’uliyatli, ishchan va samarali shaxsga aylantiradi. Bunday e’tiqod tarixda islom sivilizatsiyasining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Alloh taolo buyuradi:

«Amal qilinglar, Alloh amalingizni ko‘radi» (Tavba: 105).

Rasulullohﷺ: «Alloh biror biringiz amal qilsa, uni puxta bajarishini yaxshi ko‘radi».

Bu ta’limotning tarixda yuz bergan amaliy natijalari:

1) Ilmiy akademiyalar va turli sohalar bo‘yicha ta’lim muassasalarining tashkil etilishi;

2) Vaqflar tizimi va ijtimoiy xizmat muassasalarining keng tarqalishi;

3) Islom shaharlarida hunarmandchilik va sanoat rivoji yuqori bo‘lgani bilan izohlanadi.

Moturidiy aqidasi insonni zotan mo‘tabar deb bilib, adolat va insofni e’tiqodiy asos sifatida belgilaydi. U insonning jon, aql, din, mol va nomusi kabi asosiy huquqlarini himoya qilishni farz deb biladi.

Alloh taolo Qur’oni Karimda shunday marhamat qiladi:

«Biz Odam bolalarini azizu mukarram qildik» (Isro: 70).

«Bir insonni nohaq o‘ldirgan kishi, go‘yo butun insoniyatni o‘ldirgandek bo‘ladi» (Moida: 32).

Tarixda moturidiylik ta’limoti ta’sirida bo‘lgan islom mamlakatlarida zimmiylar huquqi himoyalangan, ularga o‘z dinida erkin ibodat qilish imkoni berilgan edi.

Hozirgi kunda g‘uluv, mutaassiblik va adashishlar keng tarqalgan bir paytda, Moturidiy aqidasi aql va naql o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydigan, mo‘’tadil echimlarni taqdim etadigan mustahkam dastur sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Moturidiy maktabi haddan tashqari tanqidiy fikrdan va zo‘ravonlikdan yiroq, ilmiy va mulohazali yo‘l orqali e’tiqodni himoya qiladi. Bu esa uni zamonaviy dunyodagi islomiy mafkura orasida markaziy o‘ringa chiqaradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sog‘lom e’tiqod – shaxs, oila va jamiyatning ma’naviy poydevoridir. U insonni hayotda ezgu maqsadga etaklaydi, uni mas’uliyatli, adolatli va foydali shaxsga aylantiradi. Ahli sunna val-jamoa, xususan, moturidiylik ta’limoti — e’tiqodda mo‘’tadillikni hamda aql va naql uyg‘unligini ta’minlagan muvozanatli maktabdir. Bugungi kunda ushbu ta’limotning ilmiy va amaliy asoslarini tiklash, bu ta’limot orqali yosh avlodga sof islomiy aqidani etkazish, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining kafolati hisoblanadi.

BORLIQ VA MA’RIFAT BORASIDAGI IMOM NASAFIYNING QARASHLARI

Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o‘g‘li
Buxoro Davlat universiteti tayanch doktoranti
Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

Islom tafakkuri tarixida borliq (vujud) va ma’rifat (bilish) masalalari eng muhim falsafiy va kalomiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Bu borada Moturidiylik maktabi vakillari, xususan, Imom Abu Hafs an-Nasafiy o‘zining "al-‘Aqida an-Nasafiyya" asarida chuqur qarashlarni ilgari surgan. Ushbu maqolada Imom

Nosafiyning fikrlari, shuningdek, Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Ibn Sino, Imom al-G‘azoliy va boshqa mutafakkirlarning yondashuvlari asosida tahlil qilinadi.

1. Borliq (vujud) masalasiga yondashuv

Imom Nosafiy:

U Allohning mavjudligini zaruriy (vajibul-vujud) deb belgilaydi, barcha borliq esa mumkinul-vujud (yaratilgan, mavjud bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin) sifatida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, borliq Allohning irodasi va qudrati bilan bog‘liq:
“Alloh qadim, abadiy, mavjud, hech narsaga muhtoj emas, barcha mavjudot esa Uning ixtiyori bilan vujudga kelgan.” [166]

Imom Moturidiy:

Moturidiy ham Allohning mavjudligini aql orqali bilish mumkinligini ta’kidlaydi. Uningcha, borliqdagi tartib va hikmat aql egasini yaratuvchi mavjudligiga olib keladi:
“Aql o‘z yo‘lida yurib, mavjudotni kuzatib, yaratuvchini bilishga etaklaydi.”[167]

Borliq - olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya bo‘lib, faylasuflar tomonidan turli g‘oyalar berilgan. Tasavvufda borliq tushunchasi vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi tahlil qilingan. Mazkur nazariya ham falsa¬fiy, ham irfoniy asoslarga tayanadi.

Sharq faylasuflarlari ayniqsa, Qazviniy ta'limotida ham borliq va yo‘qlik masalasi tajriba va kuzatuv, mantiqiy tahlil va umumlashmalar orqali tabiat, inson va jamiyatni tadqiq etish yo‘lidan borgan. Ko‘rinadiki, ahli kalomda ham, ahli hikmatda ham aqliy-mantiqiy ilm, tajriba qilish, bilim asosiy o‘ringa ega bo‘lgan.

Ma’rifat (bilish) yondashuvi:

Imom Nosafiyning ma'rifat (bilish) yondashuvi, xususan Allohni bilish, Uning sifatlarini anglash va aqidaviy e'tiqod asoslarini to'g'ri tushunishga qaratilganligi uning "At-Tamhid li-qava'id at-tavhid" ("Tavhid qoidalariga tayyorgarlik") asarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu asarida Nosafiy aqida masalalarini bayon qilishda naqliy dalillarga (Qur'on va Sunnatga) alohida e'tibor qaratadi, shu bilan birga aqlning ham muhim rolini inkor etmaydi, lekin uning o'rnini vahiyga nisbatan ikkinchi darajaga qo'yadi.

Nosafiy "At-Tamhid" asarida ma'rifatning asosini Alloh taoloning O'zi haqidagi, sifatlari va fe'llari haqidagi xabarlari tashkil etishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson aqli o'zicha Allohning zoti va sifatlarini to'liq idrok eta olmaydi. Aqlning vazifasi, asosan, vahiy orqali kelgan ma'lumotlarni tushunish, ularni tasdiqlash va ularga dalillar keltirishdan iboratdir.

[166] Abu Muin an-Nasafiy “Kitab at-Tamhid”– Bayrut. Dor ul-ilmiyya. 1971.
[167] Abu Mansur Moturidiy “Kitab at-Tavhid”– Bayrut. Dor ul-ilmiyya. 2006.

Nosafiyning "At-Tamhid" asarida ma'rifat borasidagi quyidagi fikrlarini kuzatish mumkin: Vahiyning ustunligi: Nosafiy Alloh taoloni bilishning eng ishonchli va to'g'ri yo'li vahiy ekanligini qat'iy ta'kidlaydi. Uning fikricha, Qur'on va Sunnatda Alloh haqida, Uning sifatlari va ismlari haqida bayon qilingan ma'lumotlar inson aqli etishi mumkin bo'lgan eng oliy haqiqatlardir. Aql bu haqiqatlarni qabul qilishi va ularga bo'ysunishi lozim.

Aqlning roli: Nosafiy aqlning rolini mutlaqo inkor etmaydi. Uning fikricha, aql vahiyning to'g'riligini anglash, uning mazmunini tushunish va turli xil shubhalarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Aql vahiyning haq ekanligiga dalillar keltirishi, uni mantiqiy jihatdan asoslashi mumkin. Biroq, aql hech qachon vahiyning o'rnini bosa olmaydi va unga zid keladigan xulosalar chiqarmasligi kerak.

Ma'rifatning chegaralari: Nosafiy inson aqli Allohning zoti va sifatlarini to'liq idrok eta olmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Allohning ulug'vorligi va mukammalligi inson aqliy qobiliyatlaridan ancha yuqori turadi. Shuning uchun ham inson Alloh haqidagi bilimlarni, asosan, vahiy orqali oladi va o'z aqli bilan faqat uning ma'nolarini tushunishga harakat qiladi.

Aqidaviy asoslarni tushunish: Nosafiy ma'rifatning muhim bir qismi sifatida aqidaviy e'tiqod asoslarini to'g'ri tushunishni belgilaydi. Bunga Allohning yagonaligi (tavhid), payg'ambarlik, oxirat kuni, qadar va boshqa islom aqidalariga oid masalalarni Qur'on va Sunnat ko'rsatmalariga muvofiq ravishda anglash kiradi. Aql bu asoslarni tushunishda yordam beradi, lekin asosiy manba hamisha vahiy bo'lib qoladi.

"At-Tamhid" asarida Nasafiy ko'plab aqidaviy masalalarni aynan shu yondashuv asosida sharhlaydi. U har bir masalaga Qur'on oyatlari va hadislardan dalillar keltiradi, so'ngra aqliy mulohazalar bilan ularni mustahkamlaydi. Uning maqsadi, musulmonlarni islom aqidasining to'g'ri tushunchalari bilan qurollantirish va turli xil bid'atlar va noto'g'ri e'tiqodlardan saqlashdir. Imom Moturidiy aqlni bilish vositasi sifatida yuksak darajada qadrlaydi. Uningcha, aql Allohni va haqiqatni anglashda asosiy vositadir, lekin aql vahiy bilan muvofiqlashgan holda ishlashi kerak. “Aql tafakkur qiladi, vahiy yo‘l ko‘rsatadi.” [168]

Imom Abu Hafs an-Nasafiyning borliq va ma’rifatga oid qarashlari islom kalom ilmi va falsafiy tafakkurida muhim ahamiyat kasb etadi. Borliqni tahlil qilishda u Allohning zaruriy mavjudligini asosiy tamoyil sifatida olib chiqadi va olamdagi barcha narsalarning Uning irodasi bilan yaratilganligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv Yaratuvchining mutlaq qudratini va olamning unga bog‘liqligini

[168] Abu Muin an-Nasafiy “Kitab at-Tamhid”– Bayrut. Dor ul-ilmiyya. 1971.

ifodalaydi hamda Imom Moturidiyning aqlning borliqni bilishdagi roli haqidagi fikri bilan uyg‘unlashadi.

Ma’rifatga kelganda, Nosafiy vahiyga ustunlik beradi. Uning fikricha, Alloh va aqidaviy asoslarni to‘g‘ri anglashning eng ishonchli manbai Qur’on va Sunnatdir. Aqlning vazifasi esa vahiyning haq ekanligini tushunish va tasdiqlashdan iborat bo‘lib, u ilohiy xabarlarning o‘rnini bosa olmaydi. Nosafiyning bu qarashlari islomiy bilish nazariyasida naqliy manbalarga tayanish tamoyilining muhimligini ko‘rsatadi. Uning vahiy va aqlning o‘zaro munosabatiga oid yondashuvi islom tafakkurida muvozanatli pozitsiyani aks ettiradi.

ISLOMDA KO‘ZGA KO‘RINGAN ILK FAQIHLAR

Ro‘zmetov Muhammad Mustafo
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktaranti, Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

Sahobalar davrining ikkinchi yarmiga kelib fiqh ilmida peshqadam bo‘lganlar asta sekin ajralib chiqa boshladilar. Albatta, bu hol Islom olamining qalbi bo‘lgan Makka va Madina shaharlarida birinchi bo‘lib yuzaga keldi. Islomdan avval qaqroq cho‘l bo‘lgan bu joylar ilm ma’rifatga ham chanqoq edi. Bu erlar o‘z tarixida o‘qish, yozish yoki biror ilmiy baxs ila mashhur bo‘lmagan edi. Ammo Islom dini bilan bu diyorga ham ilm-marifat, fan-madaniyat kirib keldi. Qur’oni Karimning ayni shu tuproqda nozil bo‘lishi, Rosulullоh sollollohu alayhi vasallamning va sahobalarning ayni shu erlarda yashashlari bu holning asosiy omili edi. Sahobai Kiromlar fiqh ilmi hamda fatvo berishlikda uch hil martabada edilar:

1) Ko‘p fatvo chiqargan sahobalar;
2) O‘rtacha miqdorda fatvo chiqargan sahobalar;
3) Oz fatvo chiqargan sahobalar.

Bu haqda Ibn Qoyyum shunday deydi: ”Rosulullоh sollallohu alayhi vasallam sahobalaridan fatvolari olinadigan kishilar soni 130dan ortiqdir. Ular orasida erkaklar bilan ayollar ham bor. Eng ko‘p fatvo chiqargan sahobalar 7 kishidir: Umar ibn Xattob, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Mas’ud, Oisha roziyallohu anho, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar”. Abu Muhammad Hazm: ”Bu sahobalardan har biri chiqargan fatvolarni alohida olib, katta kitob qilib jamlash mumkin”, deydi.[169]

[169] Abdusattor Shayx. Abdulloh ibn Masu’ud. Movarounnahr, Toshkent – 2004. – B. 233.

Makka faqihlari

Makka Islomning asl vatani bo‘lib, Nabiy sollollohu alayhi vasallam shu erda tug‘ilib o‘sganlar. Qur’oni Karim dastlab shu erda nozil bo‘lgan va dinning avvalgi o‘n uch yillik bosqichi ham shu erda kechgan edi. Dastlabki musulmonlar ham ayni Makka shahri aholisi edi.

Rasulullоh sollollohu alayhi vasallam Makkani fath qilganlaridan keyin, Madinaga qaytishlaridan ilgari faqih sahobalardan bo‘lgan Muoz ibn Jabal roziyallohu anhuni Makka ahliga Qur’oni Karimni va halol-xaromni talim berishlik uchun qoldirdilar. Huddi shu kundan boshlab Makkada Islomiy fiqh rivojlana boshladi. Makkada mashhur bo‘lgan faqihlar quyidagilardan iborat:

1. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhu.
2. Mujohid roziyallohu anhu.
3. Ato ibn Abu Raboh.
4. Tovus roziyallohu anhu.
5. Ikrima roziyallohu anhu.

Madina faqihlari

Qur’oni Karimning fiqhga oid hukmlari ayni shu shaharda nozil qilingan. Islom tarixiga oid ko‘plab voqealar bo‘lib o‘tgan. Hadislarning ko‘pi ham shu erda rivoyat qilingan. Madinai Munavvara Islom davlatining poytaxti, ilmiy va fiqhiy markazi bo‘lib, sahobalarning kattalari, roshid xalifalar yashagn joy edi.

Shuning uchun Madinai Munavvara fiqhi boshqalariga qaraganda kuchli va mashhur bo‘lishi turgan gap. Madinada quyidagi faqihlar mashhur bo‘lishgan:

1. Zayd ibn Sobit ibn Zahhoq Ansoriy al-Hazrajiy roziyallohu anhu (kunyalari Abu Said).
2. Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhu.
3. Said ibn Musayyab.
4. Urva ibn Zubayr ibn Avvom Asadiy.
5. Ibn Shihob Zuhriy roziyallohu anhu.
6. Abu Bakr ibn Abdurrohman ibn Xoris ibn hishom Mahzumiy,
7. Ali ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib Hoshimiy,
8. Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Utba ibn Mas’ud,
9. Solim ibn Abdulloh ibn Umar,
10. Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr,
11. Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhuning mavlolari Nofe’ kabi mashhur faqihlar etishib chiqdilar. Madinai Munavvara fiqh ilmidagi keyingi davr faqihlari ichida: Abu Jafar ibn Muhammad ibn Ali ibn Husayn Boqir, Abu Zinod Abdulloh ibn Zakvon va Yahyo ibn Said Ansoriylar mashhur bo‘lganlar.

Basra faqihlari

Dajla va Furot daryolari qo‘shilgan joyda Umar ibn Xattob roziyallohu anhuning amrlariga binoan Basra shahri tashkil qilindi. Sharar qurilishiga Utba ibn G‘azvon rahbarlik qildi. Ibn Sa’d Abul Asvad ad-Dualiydan rivoyat qilib aytadi:

“Basraga borsam, Imron ibn Husoyn Abu Najid roziyallohu anhu bor ekan. Uni Umar roziyallohu anhu ahli Basraga fiqh o‘rgatish uchun yuborgan ekan”. Basrada fiqh bilan mashhur bo‘lgan faqihlar quyidagilardan iborat:

1. Abu Muso Ash’ariy roziyallohu anhu.
2. Anas ibn Molik roziyallohu anhu.
3. Imom Hasan Basriy.
4. Muhammad ibn Siyrin.

Ulamolarimiz yana Basra fiqhida Abul Oliya Rofiy ibn Mehron Riyohiy, Hasan ibn Abdulhasan Yasor, Abu Shaso Jobir ibn Zayd, Qatoda ibn Dioma Davsiylarni alohida tilga oladilar.

Ko‘fa faqihlari

Ko‘fa diyori ham tashkil qilingandan qisqa vaqt o‘tishi bilan fiqh markazlaridan biriga aylanib ketdi. U erda juda ko‘plab faqihlar etishib chiqdi. Jumladan:

1. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu.
2. Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu.

Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu sahobalarning eng ko‘p fatvo chiqaradiganlaridan edi.

Muhammad Zohid Kavsariy aytadi: “Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu Ko‘fa ahliga Qur’on va fiqhdan ta’lim berdi. Ko‘fa shahri shu darajada qoriyu, faqihlarga, muhaddislarga to‘lib ketdiki, fiqhni puxta bilgan va boshqalarga ham o‘rgatuvchi ishonchli ahli ilmlarning soni to‘rt ming nafarga etdi[170].

Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhuning olti shogirdi Ko‘fadagi eng katta faqihlarga aylandilar. Ular: Alqama, Asvad, Masruq, Ubayda, Xoris ibn Qays va Amr ibn Shurahbiydirlar. Keyichalik bu erdan Shurayh ibn Xoris Kindiy, Ibrohim ibn Yazid Nahaiy va Said ibn Jubayr kabi mashhur faqihlar etishib chiqdi.

Basra va Ko‘fa fiqh ilmining gultoji Abu Hanifa rohmatullohi alayhi bo‘ldilar.

[170] Abdusattor Shayx. Abdulloh ibn Masu’ud. Movarounnahr, Toshkent – 2004. – B. 250.

Shom faqihlari

Shom qadimdan ilm – ma’rifat markazi bo‘lib kelgan. Bu o‘lkaning odamlari islomga kirganlaridan keyin uni zavqu shavq bilan o‘rgana boshladilar. Ularga mashhur sahobalar ustozlik qildi. Shom diyorida mashhur bo‘lgan faqihlar quyidagilar:

1. Muoz ibn Jabal ibn Amr Ansoriy al-Hazrajiy.
2. Abdurrohman Avzoiy.

Shom madrasasida Abu Idris Havloniy, Makhul ibn Abu Muslim Dimashqiy, Umar ibn Abdulaziz, Rajo ibn Hayva Kindiy kabi boshqa mashhur ilm sohiblari ham etishib chiqqanlar.

“Hoshiyatu Roddul Muxtor aladdurrul Muxtor sharhu Tanviyrul Absor” kitobida zikr qilinadi: Fiqh ilmini Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu ekkan, ya’ni fiqhning furu’larini istinbot qilish haqida birinchi so‘z yuritgan inson bu Abdulloh ibn Mas’uddir. Imom Navaviy aytadi: Sahobalarning ilmi olti sahobiyda tom bo‘lgan. Ular: Umar, Ali, Ubay, Zayd, Abu Dardo va Ibn Mas’ud roziyallohu anhum. Bularning ilmi ham ikkitasida jam bo‘lgan: Ali va Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhumo. So‘ngra uni Alqama ibn Qoys ibn Abdulloh ibn Molik Naxaiy sug‘organ, ya’ni uni mustahkamlab, ravshanlashtirgan. Ibrohim Naxaiy Ko‘vfiy uni o‘rib yig‘ishtirib olgan, ya’ni navodir va foidalaridan tarqab ketganlarini jamlagan hamda foyda olishlikda oson bo‘lishi uchun tartibga solgan va shakl bergan. So‘ngra Hammod ibn Maslama Ko‘vfiy uni bosib yanchigan, ya’ni qayta ko‘rib chiqish, to‘g‘rilash va ochiq bayon qilib berishlikda katta ijtihod qilgan. Abu Hanifa esa uni maydalab, un qilganl, ya’ni usullarini va fu’ru’larini ko‘paytirgan. Imomi A’zam rohmatullohi alayhi fiqhni birinchi bo‘lib tadvin qilgan. Bugungi kundagi kabi kitoblar va boblar ko‘rinishida tartiblamagan. So‘ngra Abu Yusuf uni hamir qilib qorgan, ya’ni Imomning qoidalari va usullarining nazaryasini daqiqlashtirgan. Undan furu’larni istinbot qilishda ijtihod qilgan. Imom Muhammad non qilib yopgan, ya’ni furu’larni istinbot qilishda qo‘shimchalar qo‘shgan va boshqa biror narsaga hojat tushmaydigan qilib tartiblab chiqqan. Insonlar esa undan bugungi kungacha iste’mol qilib kelmoqdalar.

ISLOMDA TABIATNI MUHOFAZA QILISH: EKOLOGIYA, AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Sharapov Mamur
Buxoro davlat universiteti ijtimoiy falsafa yo’nalishi doktoranti.

Hozirgi davrda atrof-muhitni muhofaza qilish global miqyosda eng dolzarb masalalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ekologik muvozanatni saqlash va tabiatni asrash nafaqat inson salomatligi, balki butun insoniyat kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Islom dini tabiatni Allohning ne’mati sifatida qadrlagan va uni muhofaza qilishni har bir kishining axloqiy va diniy burchi deb biladi. Qur’oni Karim va Hadislarda ekologiyaga oid ko‘plab o‘gitlar va ta’limotlar mavjud bo‘lib, ular bugungi zamonaviy ekologik muammolar echimida muhim manba bo‘la oladi.

Hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi global miqyosda eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Tabiyatni asrash va ekologik muvozanatni ta'minlash insoniyatning kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yadro halokati va boshqa tabiiy ofatlar bilan taqqoslanadigan darajada tahdid soluvchi ekologik muammolarni e'tiborsiz qoldirish nafaqat zamonaviy jamiyatni, balki kelajak avlodni ham xavf ostiga qo'yadi. [171]Bu borada Islomning ekologiyaga oid ta'limotlari va prinsiplariga, Qur'oni Karimdagi oyatlarga murojaat qilish juda muhimdir. Islom, asrlar davomida tabiatga mehr-muhabbat va hurmatni targ'ib qilgan va bugungi kunda ushbu ta'limotlar atrof-muhitni muhofaza qilishga yuksak yordam berishi mumkin. Islomda tabiat Alloh taoloning mo‘'jizaviy yaratishi sifatida e'tirof etilgan. Qur'onda aytilganidek, "Albatta, biz har bir narsani o’lchov bilan yaratdik"[172] . Bu oyat, barcha tabiat hodisalari, hayvonlar, o'simliklar va umuman borliq muvozanatli va bir-biriga bog‘liq ekanligini ta'kidlaydi. Tabiatdagi har bir elementning o'z o‘rni bor va ularni me'yorida ishlatish insoniyat uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Alloh taolo dunyodagi barcha narsa va mavjudotlarni bir-biriga o‘zaro muvofiqlikda yaratgan. Agar bu muvozanat buzilsa, natijada jiddiy ekologik muammolar, havoning, suvning, erning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishlari va boshqa salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Qur'oni Karimda, insoniyatning tabiatni buzishi va bunga qarshi kurashmasligi haqida ogohlantiruvchi ko‘plab oyatlar mavjud. Masalan, "Qilgan amallarining ba’zisining (jazosini) tortishlari uchun, odamlar qo’li kasb qilgan narsalar tufayli quruqlikda va dengizda fasod zohir bo‘ldi"[173]. Ushbu

[171] Abdullayev, S. (2020). “Islomda ekologik muvozanat va atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillari”, O‘zbekiston Islom Akademiyasi Ilmiy axborotnomasi, №2, 45–50-betlar.
[172] Qamar surasi 49-oyat
[173] Rum, 41-oyat

oyatda inson faoliyatining tabiatga zarar etkazishi, ayniqsa, atrof-muhitning buzilishi haqida gapiriladi.

Tabiatni Asrash: Islomning Falsafiy Yondashuvi

Islomda tabiatga zarar etkazmaslik, uni asrash va avaylash zarurati har bir musulmonga yuklatilgan mas'uliyatdir. Qur'oni Karimda bu masala bir nechta oyatlarda koʻrsatilgan. Masalan, "Va isloh qilingandan keyin er yuzida fasod qilmang" [174]. Ushbu oyat, insoniyatni tabiatga zarar etkazmaslikka va uni avaylashga chaqiradi. Tabiatni buzish "fasod" (buzilish) deb ataladi va bu yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Islomda, har bir dindor, Alloh taolo yaratgan muvozanatni saqlab qolish uchun kurashishi zarur.[175]

Islomda Hayvonot va Nabotot Olami Muhofazasi

Islomda hayvonot va nabotot olamiga katta e'tibor qaratilgan. Qur'onda hayvonlar, oʻsimliklar va jonzotlar ham Alloh tomonidan yaratilib, oʻzaro muvozanatda mavjuddir. Hayvonot dunyosining muhofazasi, ularni himoya qilish, zoʻravonlik va zulmdan saqlash — bu ham Islomning asosiy prinsiplaridan biridir. Qur’oni Karimda "Albatta, siz uchun chorva hayvonlarida ibrat bordir" (Mu’minun, 21-oyat) degan oyat bilan insonlarga hayvonlarni ularga zarar etkazmasdan, ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishligi ta'kidlanadi.

Nabotot olami ham juda muhim ahamiyatga ega. Qur'oni Karimda erning oʻsimliklar bilan bezatilishi, suvning oʻsimliklarga quvvat berishi va ulardan insonlar va hayvonlar uchun foyda olishlari mumkinligi eslatiladi. Shuningdek, Islomda oʻsimliklarni kesish, ularga zarar etkazish faqatgina maxsus holatlarda ruxsat etiladi. Tabiatni asrash mas'uliyati butun jamiyatga tegishlidir.

Shu bilan birga, ekologik masalalar bilan shugʻullanishda Islom ta'limotlari juda ahamiyatli. Tabiatni asrash va himoya qilish nafaqat jamiyatning, balki butun insoniyatning burchidir. Qur’oni Karim va Hadislar orqali tabiatni avaylash, muvozanatni saqlash, hayvonlar va oʻsimliklarni himoya qilish boʻyicha Islom juda aniq yoʻriqnomalar beradi. Shuning uchun, har bir musulmon tabiatni avaylab, Alloh taoloning ne'matlarini qadrlab, uni kelajak avlod uchun saqlashga intilishi kerak.

[174] A'rof, 56-oyat

[175] Az-Zarqoni, M. A. (2001). Sharh az-Zarqani ʻala al-Mawahib al-Ladunniyyah. Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyyah.

NAJMIDDIN QAZVINIYNING BORLIQ BORASIDAGI E’TIQODIY QARASHLARI

Aliqulov Raxmonqul Abduqayumovich
Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi,
Buxoro davlat texnika universtieti mustaqil izlanuvchisi

Borliq, uning shakllari, atributlari va asosiy prinsiplari haqidagi ta'limot falsafaning “Ontologiya” qismida o‘z ifodasini topgan. “Ontologiya” atamasi birinchi marta R.Gokleniusning asarlarida qo‘llanilgan, falsafiy tushuncha sifatida esa ilk bor nemis rasionalist faylasufi X.Volf (1679-1754) tomonidan ta'riflangan. XIII asr oxiri va XIX asrda ontologiya muammolari doirasi ancha toraydi, natijada falsafiy hayotning kichik qismiga aylanib qoldi.

Abu Nasr Forobiy borliq muammosini hal qilishda “vujud”, “vujudi vojib” (vojib ul-vujud) va “vujudi mumkin” (yaratilgan vujud) kabi atamalarni falsafiy kategoriyalar darajasiga ko‘taradi. Mutafakkir borliq falsafasini hal etishda quyidagi uch holatga e'tiborini qaratgan:

- Forobiy asarlarida “Vojib” (zaruriyat, zarurlik), “Mumkin” (yaratilgan) o‘rtasidagi farqlarni aniqlab, “vujud vojib” barcha mavjud yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarning birinchi sababi ekanligini uqtiradi.

- Forobiy birinchi sabab sifatida “vojib ul-vujud” o‘zga sabab yoki turtkiga muhtoj emas, uning zotiga nuqson va qusurlar, ziddiyat, nomutanosiblik, beqarorlik, bilmaslikdan bilishga qarab yo‘nalish kabi jarayon yo‘q. “Vujudi mumkin”da esa, aksincha, doimo o‘zgarishda, ziddiyatli, munosobatlarda, unda barcha narsalar oddiylikdan murakkablikka, tartibsizlikdan tartiblikka, norasolikdan kamolotga qarab yuz tutadi[1] .

Najmiddin Ali ibn Umar ibn Ali Qazviniy “Hikmat al-ayn” (arab. حكمت العين) asarida borliq ilmi, jism va unga tegishli masalalar, harakat va uning turlari, javhar (substansiya) va araz (aksidensiya) masalalrni irfoniy-falsafiy tahlil qilgan.

المسألة الثالثة: في أن الوجود زائد على ماهيات الممكنة

وهو ليس نفس الماهية ولا داخل فيها وإلا لكان تعقل كل ماهية ممكنة هو عين تعقل وجوده أو مستلزماً لتعقله، والتالي باطل لأنا قد نعقل المثلث مع الشك في وجوده، ولما كان ضمه إليها مانعاً من صدق ما هو صادق عليها والتالي باطل لأن السواد يصدق عليه أنه قابل للوجود والعدم، والسواد مع الوجود لا يصدق عليه ذلك .ولأنه لو كان داخلاً فيها لكان أعم الذاتيات المشتركة فكان جنساً، فامتياز الأنواع الداخلة فيه بعضها عن البعض بفصول موجودة مميزة عن الأنواع بفصول أخر موجودة، وهكذا إلى غير النهاية، ولكان امتياز الواجب عن الممكن بفصل مقوم فيكون الواجب مركباً وإنه محال .

[1] Falsafa: qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: “Sharq”, 2004. – B. 431.

Mazmuni: Aytish lozimki, vujud mumkin mohiyatning aynan o‘zi ham, ichiga doxil tushuncha ham emas. Yo‘qsa, birinchidan, barcha mumkin mohiyatlarni anglash ularning vujudini anglashning aynan o‘zi yoki anglashning taqozosi bo‘lib qolar edi. Bu natija esa botil. Negaki, biz gohida uchburchakni tasavvur qilamiz va ayni vaqtda uning borligidan shak qilamiz. Ikkinchidan, vujudni moxiyatga qo‘shish mohiyatga to‘g‘ri keladigan narsalarning haqiqatga to‘g‘ri kelishiga qarshilik qilmas edi. Lekin bu natija ham botil. Chunki qoralik mavjudlik va yo‘qlikni qabul qilishi mumkin, lekin vujuddagi qoralikka bu to‘g‘ri kelmaydi. Uchinchidan, agar vujud mohiyatga kirganida, u mushtarak zotlar (ya'ni, o‘zliklar, muayyanlar) ning eng umumiysi bo‘lib, jins (ya'ni, umumiy guruhlar) hisoblanib qolardi. Unga kiruvchi navlar (ya'ni, ichki guruhlar) esa mavjud ayrim fasllar (ya'ni, kichik guruhlar) sababli, ushbu fasllar esa boshqa mavjud fasllar sababli mazkur navlardan ajralib qoladi va shu tarzda cheksiz davom etaverardi. To‘rtinchidan, Vojibning mumkindan ajralishi kuchaytirilgan fasllar orqali bo‘lib qoladi, natijada vojib narsa murakkab (bo‘laklardan tuzilgan) deyishga to‘g‘ri keladi. Bu esa imkonsizdir[2].

المسألة الرابعة: في أن الوجود نفس حقيقة الواجب الوجود

وهو نفس حقيقة الواجب الوجود، وإلا لكان داخلاً فيها أو خارجاً عنها والأول يستدعي التركيب، والثاني كونه ممكناً لافتقاره إلى الماهية، وكل ممكن لا بد له من علة، فعلته إن كانت تلك الماهية لزم تقدمها عليه بالوجود لوجوب تقدم العلة على المعلول بالوجود، فيكون الماهية موجودة مرتين، وإن كانت غيرها لزم افتقار واجب الوجود في وجوده إلى سبب منفصل وما كان كذلك لا يكون واجبا لذاته .ولئن منع وجوب تقدمها عليه بالوجود لجواز أن يكون الماهية من حيث هي هي علة له من غير اعتبار وجودها أو عدمها كما في القابل، فنقول العلم بما ذكرنا من المقدمة ضروري لأن المفيد للوجود لا بد أن يكون له وجود بخلاف القابل، فإنه يستفيد الوجود، والمستفيد للوجود يمتنع أن يكون موجوداً .لا يقال، الوجود من حيث هو وجود يقتضي اللاتجرد، وإلا لكان مقتضياً للتجرد أو غير مقتض لشيء منهما والأول يقتضي أن يكون وجود الممكنات مجرداً، والثاني افتقار واجب الوجود في تجرده إلى سبب منفصل ولأن وجوده معقول وحقيقته غير معقولة، ولأن وجوده لو كان عين حقيقته لما كان واجباً. لأن الوجوب أمر إضافي لا يمكن تعقله إلا بين أمرين .لأنا نجيب عن الأول؛ بأن التجرد عدمي فلا يفتقر إلى سبب، وعن الثاني، بأنا لا نسلم أن وجوده معقول، بل المعقول الوجود من حيث هو وجود، وعن الثالث، بأنا لا نسلم عروض الوجوب له، بل الوجوب عين ماهيته .ويجب أن يعلم أن إطلاق لفظ الوجود على حقيقة واجب الوجود وعلى سائر الموجودات الممكنة بالتشكيك. فإن بذلك ينحل لك كثير من الشبه .

Mazmuni: Darhaqiqat, u zaruriy mavjudning ayni mohiyatidir. Yo‘qsa, u ichkarida yoki tashqarida bo‘lib qoladi. Birinchisi bo‘laklardan tuzilish (murakkablik)ni taqozo etsa, ikkinchisi uning zaruriy emas, mumkin bo‘lishini keltirib chiqaradi. Negaki bu holda mohiyatga muhtojlik kelib chiqadi. Binobarin, har qanday mumkin narsaga illat (ya'ni, mantiqda narsa yoki hodisa paydo bo‘lishining asosiy sababchisi nazarda tutiladi) kerak. Agar uning illati mazkur

[2] Falsafa: qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: “Sharq”, 2004. – B. 431.

mohiyat bo‘lsa, ushbu mohiyat vujudga kelishda undan muqaddam bo‘lishi kerak bo‘ladi. Negaki, sabab oqibatdan oldin kelishi shart. Shunday qilib, bu holatda mohiyat ikki marta mavjud bo‘lib qoladi.

Agar vojibul vujudning sababi mazkur mohiyatdan o‘zgasi bo‘lsa, u vujudida alohida sababga muhtoj bo‘lib qoladi. Bunday narsa esa o‘zidan-o‘zi zaruriy zot bo‘la olmaydi.

Agar mohiyat, mavjudligi yoki yo‘qligini e'tiborga olmasdan, o‘z holicha vojibul vujudning illati bo‘lishi joizligi sababli, illat undan muqaddam bo‘lishi lozimligi inkor etilsa va bunga vujudni qabul qiluvchi misol keltirilsa, javobimiz bunday: Zikr qilganimiz muqaddimani bilish zaruriydir. Negaki, vujudga ma'no beruvchi vujudga ega bo‘lishi kerak, qobil esa aksincha. Zero u vujuddan ma'no oluvchidir. Vujuddan ma'no oluvchi esa mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Endi quyida ayrim noto‘g‘ri fikrlarni keltirib, so‘ngra ularga birma-bir javob beramiz:

“Vujud o‘z holicha tajarrudsizlik (ya'ni, yaxlit emaslik) ni anglatadi, deyilmaydi. Aks holda u, birinchidan, tajarrudlik (yaxlitlik)ni taqozo qilar edi yoki ikkisidan hech birini taqozo qilmas edi. Birinchi variantga ko‘ra, mumkinotlarning vujudi mujarrad (yaxlit) bo‘lib qoladi. Ikkinchi variant esa vojibul vujud o‘z yaxlitligida tashqi sababga muhtoj bo‘lishini taqozo etadi. Ikkinchidan, uning mavjudligi ma'qul (ya'ni, aqlga sig‘adigan, aql ko‘taradigan) tushuncha, mohiyati esa ma'qul emas. Demak, uning mavjudligi mohiyatidan boshqa narsa. Uchinchidan, agar uning mavjudligi mohiyatining aynan o‘zi bo‘lganida, vojib bo‘la olmas edi. Negaki vojiblik qo‘shimcha (tashqi) masala bo‘lib, uni faqat ikki narsa orasida tasavvur qilish mumkin.[3]”

Ushbu fikrlarning birinchisiga javobimiz shuki, tajarrud (yaxlitlik) bu 'adamiy (ya'ni, g‘ayrivujudiy, yo‘qlikka oid, salbiy) tushuncha bo‘lgani uchun biror sababga muhtoj emas. Ikkinchi fikrga kelsak, vujudi zaruriyning borligi ma'qul ekanini qabul qilmaymiz. Aksincha, vujudning o‘zi ma'qul tushunchadir. Uchinchi fikrga javobimiz shuki, zaruriy vujudga zaruriylik sifati qachondir kelib qolganini qabul qilmaymiz. Bil'aks, zaruriylik uning ayni mohiyatidir. Demak, mavjudlik atamasini zaruriy vujud va boshqa barcha mumkin vujudlarga nisbatan qo‘llash ehtimoliy va shubhalidir. Mana shu tarzda ko‘plab shubhalarni bartaraf qilishingiz mumkin.

[3] Falsafa: qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: “Sharq”, 2004. – B. 98.

O‘Z YURTIDA ILM TARQATGAN OLIM ABU ISO TERMIZIY

Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich –
Mir Arab oliy madrasa o‘qituvchisi,
Buxoro Davlat unversiteti mustaqil tadqiqotchisi
ibrohim9107@gmail.com

Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy 209/824-yili tug‘ilgan va 279/892-yilda dushanba kuni, Rajab oyining 13-kuni Termizda vafot etgan[4]. Imom Termiziyning hayoti yaxshilab o‘rganilsa, u kishining hijriy 235-yildan keyin ilm talabida safar qilganlari ma’lum bo‘ladi. Chunki bundan oldinroq vafot etgan Ali ibn Madiniyga, (vaf. 233/848 y.), Muhammad ibn Abdulloh Ko‘fiyga (vaf.233/ 848 y.) o‘xshagan roviylardan o‘rtada bir vosita ustozi ila rivoyat qiladi[5].

Bundan ma’lum bo‘ladiki, 235-yillar atrofida 25 yoshida turli xil shaharlar Buxoro, Xuroson, Iroq, Hijoz va boshqa diyor olimlaridan ilm tahsil qilgan. O‘z o‘rnida eng buyuk olimlardan dars olgan. Natijada zamonasining etuk imomlaridan bo‘lib etishdi. Xususan, mashhur ustozlaridan sahih to‘plam sohiblari Muhammad ibn Ismoil Buxoriy va Muslim ibn Hajjoj Qushayriy, “Sunan Abu Duvud” sohibi Sulaymon ibn Ash’as, “Sunan Dorimiy” muallifi Abdulloh ibn Abdurrahmon Dorimiy Samarqandiylar bilan ko‘rishib ilm olgan va hadis rivoyat qilgan deyishimiz mumkin.

“Al-Jome’” va “al-Ilal al-kabir” asarlaridagi shayxlari 221 taga etishi va ular orasida 8 “maqbul”, 3 “layyin”, 2 “zaif”, 2 “mastur”, 1 “majhul”, 1 “qaviy bo‘lmagan” va 3 “matruk” darajasidagi, jami 20 ta zaif sanaladigan roviy borligi qayd etiladi. Tadqiqotlarda ularning nomi batafsil keltirilib, Imom Termiziyning ulardan rivoyat qilish sabablari atroflicha o‘rganilgan va bunga etarli asoslar keltirilgan[6].

Imom Termiziy juda ko‘p roviylardan hadis rivoyat qilgan. U uzoq safari davomida ko‘plab ustozlardan saboq oladi. Imom Termiziy “al -Jome’da “ ba’zi ustozlaridan ko‘proq, boshqa roviylardan esa, kam hadis rivoyat keltiradi. Imom Termiziy roviylarning shaxsini yaxshilab o‘rganib, ishonchliligini, rostgo‘y va adolatliligi kabi sahih hadis rivoyat qiluvchi kishilarga qo‘yiladigan barcha

[4] Habiburrohman al-Xoyrobodiy. Al-Miskush shaziy sharhu Jome’ at-Termiziy. Devband: Maktabat al- Ashrafiyya, 2017. – B. 31

[5] Nuriddin Itr. Al-Imam Termiziy val muvozanatu bayna Jameihi va baynassahihayn. – Qohira: Lajnatut ta’lif vat tarjima va nashr. 1970. – B.21.

[6] Cho‘tmatov J. Imom Abu Iso Termiziy hayoti va ijodi sahifalari. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi: – Toshkent-2019, – B.430.

shartlarga alohida e’tibor berib, har bir hadisni sinchiklab tekshirib chiqqan. Eng ko‘p rivoyat qilgan shayxlari quyidagilardir:

1. Qutayba ibn Said ibn Jamil ibn Tarif Saqafiy (vaf.240/854 y).U etuk muhaddis ilmda peshqadam, ishonchli va ko‘p safar qiluvchi kishi bo‘lgan. Imom Termiziy rahmatullohi alayh ushbu roviydan “al-Jome” asarida 601ta hadis rivoyat qilgan.

2. Muhammad ibn Bashshor ibn Usmon Ibn Dovud ibn Kayson Abdiy (vaf.252/866y.). U “Bundor“ (monopolist savdogar) nomi bilan mashhur bo‘lib, o‘z davrida hamda yashagan diyorida eng ko‘p hadis yod olgan, bunday nom olganining sababi quvvai hofizasi kuchli bo‘lgan olimlarga nisbatan shunday nisba berilgan. Imom Termiziy rahmatullohi alayh undan 442 ta hadis rivoyat qilgan. Imom Termiziy rahmatullohi alayh yuqoridagi kabi “bundor “ muhaddislardan hadis rivoyat qilishiga sabab, bu roviylarning hadis ilmida mashhur bo‘lib, yuqori martabalarga erishganidir. Bu borada “Sihohi sitta “ (“olti ishonchli hadis to‘plamlari “) sohiblaridan biri bo‘lgan etuk muhaddis Abu Dovud (202/817-275/888) bunday deydi: “Men Bundordan ellik mingtagacha hadis yozib oldim”.

3. Maxmud G’aylon Adaviy (vaf.249/863 y.). Imom hofiz hujja, hadis rivoyat qilishda eng peshqadam olimlardan biri edi. U hadislarni bexato rivoyat qiluvchi, o‘ta ishonchli va omonatdor edi. Imom Termiziy rahmatullohi alayh undan 292 ta hadis rivoyat qilgan.

4. Hannod ibn Sirriy ibn Mus’ab ibn Abu Bakr ibn Shibr ibn Sa’fuq (vaf.243/857y.). U hadis ilmida “Zayn al-obidin “ (Obidlar ko‘rki”), imom, hujja va namuna kabi yuksak unvonlarga sazovor bo‘lgan. Imom Termiziy rahmatullohi alayh)mazkur roviy sanadining ishonchliligi, buyukligi, ibodatda mustahkamligi va ustozlarining etukligi sabab undan 280 ta hadis rivoyat qilgan.

5.Ahmad ibn Mani Bag’aviy Bag’dodiy ibn Abdurrahmon (Abu Ja’far Bag’aviy Bag’dodiy (vaf.244/858y.) imom, hofiz va eng ishonchli hadis roviylaridan bo‘lib, ilm yo‘lida ko‘plab safarlar qilib,”al-Musnad” asarini yozgan. Imom Termiziy rohmatullohi alayh undan o‘zining hadis to‘plamida 249 ta hadis rivoyat qilgan[7].

Shuningdek, Tadqiqotchilar Imom Termiziy “Sunan” asaridagi roviylar orasida 11 ta Termizlik muhaddis olimlarni keltirganini aytadilar.

Imom Termiziy ilm safarini tugatganidan keyin o‘z yurtiga kelib, hadis ilmini vatandoshlariga tarqargan. Allomani juda ko‘p shogirdlari bo‘lgan ularning mashhurlari 30 taga etadi. Ularning ba’zisi haqida keltirib o‘tamiz:

[7] S.Siddiqov, J.shodiyev, U. Mirsodiqov. Imom Termiziyning al-Jome’ as-sahih asariga kirish. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – B.129.

1. Mahbubiy: Imom, Muhaddis, Marv olimi Abu Abbos Muhammad ibn Ahmad ibn Mahbub ibn Fuzayl Marvaziy. Jome’ at-Termiziyni Abu Iso Termiziydan rivoyat qilgan. Shogirtlarining ichida eng mashhuri, Imom Termiziyning yoniga “Jome” kitoblarini eshitish uchun safar qilgan va o‘z davrining etuk Shayxlaridan bo‘lib etishgan. Uni Imom Termiziydan dars olganini tog’asi Abu Bakr al-Ahval o‘z xati bilan yozib qoldirgan. U kishi Termizga Abu Iso Termiziy bilan ko‘rishish uchun hijriy 265-yili 16 yoshida safar qilgan. Bu alloma 346-yili vafot etgan[8].

2. Ash-Shoshiy: Haysam ibn Kulayb ibn Suraych ibn Maqil ash-Shoshiy at-Turkiy Abu Said ko‘p yodlatdigan, ishonchli, rohhal (ko‘p safar qiluvchi), adib “Musnadi kabir” sohibi. Asli Marvlik bo‘lib, Imom Termiziyning “ Shamoil” kitobini rivoyat qilgan olimdir. Undan keyin bu kitob mashhur bo‘lib tarqalgan. Shuningdek, Imom Termiziyning “Jome’” kitoblarini ham rivoyat qilgan va hijriy 353-yili vafot etgan[9].

3. Hammod ibn Shokir ibn Saviya: Imom muhaddis, soduq, Abu Muhammad Nasafiydir: U Imom Buxoriyning sahihlarini rivoyat qilgan roviylardan hisoblanadi. Hijriy 311-yili vafot etgan.

4. Shakkar: etuk imom, hafiz, Mutqin Abu Abdurohman va Abu Ja’far Muhammad ibn Munzir ibn Said ibn Usman ibn Roja ibn Abdulloh ibn Sohabiy Abbos ibn Mirdas as-Sulamiy, al-Hiraviy. Shakkar hofizlardan bo‘lib, ko‘p hadis rivoyat qilgan. Imom Hokim aytadi Shakkar Marv, Tus , Saraxs, Buxoro, Nisabur shaharlarida hadis rivoyat qilgandir. U kishi 303-yili, ba’zilar esa, 302-yili vafot etgan deydilar[10].

5. Makhul ibn Fazl: Hafiz, ko‘p safar qiladigan, faqih Abu Muti’ an-Nasafiy. “Lu’luuyat” kitobining sohibi. U kitob zuhd va odobga tegishli bo’lib, Mustag’firiy “Tarixun Nasab” kitobida zikr qilib o‘tadi. Bu kishining ismi Muhammad ibn Fazl bo‘lganini va Makhul esa, u kishining laqabi ekanini ham keltirib o‘tgan. Hijriy 308-yili vafot etgan.

6. Ibn Hasnuvayh: Mashhur shayx Abu Homid Ahmad ibn Aliy ibn Husayn ibn Shazan an-Naysaburiy savdogar, o‘ta safar qiluvchi olim bo‘lgan. Imom Hokim aytadi, Abu Iso Termiziydan ko‘p kitoblarini eshitgan va kechayu kunduzi ibodatda bo‘lgan, o‘ta tirishqoq olimlardan bo‘lgan deydi.

7. Abu Aliy Husayn ibn Yusuf ibn Abdulmajid Bundor, Firabriy: Abu Ahmad ibn Adiy Jurjoniyning shayxlaridan. “Al -Kamil Fizzuofo” kitobining sohibidir.

[8] Shamsiddin Ahmad ibn Usmon az-Zahabiy. Siyar al-a’lam an-nubalo. –Bayrut: Muassasa ar-risala, 1996. –J.15., B.537

[9] O‘sha asar. J.15., B.359 – 360.

[10] O‘sha asar. J.15., B.5.

8. Davud ibn Nasr ibn Suhayl ibn Abduvayh ibn Yazdaz Abu Sulaymon al-Pazdaviy: Nasaf shahrining olimlaridan biridir. 323-yili vafot etgan. Shuningdek akasi Abu Muhammad Abdulloh ibn Nasr ibn Suhayl al-Pazdaviy ham Imom Termiziydan rivoyat qilgan.

9. Muhammad ibn Sufyon Ibn an-Nazr Abu Ja’far al-Amin, an-Nasafiy 308-yili vafot etgan.

10. Nasr ibn Muhammad ibn Sabro Abu Muhammad ash-Shirokasiy: ishonchli shayxlardan bo‘lgan. Imom Termiziyning “Jome’” kitobini rivoyat qilgan. Undan Abu A’lo Abdulmo‘min ibn Xolaf va o‘z shahrining ahli undan eshitgan. Mustag’firiy buni “Tarix an-Nasaf “ kitobida[11] keltirib o‘tadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abu Iso Termiziy dunyo kezib, juda ko‘p shayxlarning huzuriga borib ilm tahsil qilgan. So‘ngra ilmlarni jamlagandan keyin o‘zga yurtlarda qolib ketmasdan yurtiga qaytib kelib, yosh avlodga ilm tarqatib, hadis ilmini yoyilishiga katta xissasini qo‘shgan va sanoqsiz shogirdlar chiqargan muhaddislardan hisoblanadi. Bumi yaqqol misoli sifatida aksari diyorimiz shaharlariga nisbati berilgan shogirdlaridan ham bilib olsak bo‘ladi. masalan, Nasafiy, Shoshiy, Pazdaviy, Hiraviy kabi shogirdlari juda ko‘p bo‘lgan. Demak biz yoshlarga ham Imom Buxoriy va Imom Termiziylar kabi ilmni jamlab, egallab o‘z yurtida ilmni taraqqiy topishida xissa qo‘shadigan olimlardan bo‘lishimiz lozim bo‘ladi.

MAHMUD ZAMAXSHARIY YASHAGAN DAVRDA ILMIY-MA’RIFIY MUHIT

Abzalova Farida
O‘zbekistom xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”
kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti
faridaabzalova96@gmail.ru

Ko‘hna Xorazm tuprog‘ida voyaga etib, jahon madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ olim Zamaxshariyning nomi dunyoga mashhurdir. Uning o‘lmas asarlari va u haqida yozilgan ilmiy asar hamda maqolalarini olamning hamma burchaklaridagi kutubxonalarda uchratish mumkin. Ilmu fan xazinasiga bebaho durdonalar qo‘shgan bu buyuk zot bilan O‘rta Osiyo xalqlari har qancha faxrlansalar ham oz[12] .

[11] Abu Sa’d Abdulkarim Samoniy. Al-Ansob.– Bayrut: Darul jinan, 1984. –J.4., B.360.
[12] A.Rustamov. Mahmud Zamaxshariy. –T.:Fan nashriyoti, 1971. –B. 3

O‘rta Osiyoda ilm-fan yuksak darajada taraqqiy etgan, madaniyat va san’at gullab yashnagan davrlardan biri IX-XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi va Quva kabi mashhur va qadimiy shaharlar eng yirik savdo va xunarmandchilik markazlari bo‘lishi bilan birga, ilm-fan vakillari uchun qulay muhit mavjud bo‘lgan maskanlar ham edi. Shu sababli bu shaharlar sharq bilan g‘arb orasidagi ilmiy hamkorlik kuchayishiga zamin bo‘ldi[13].

E’tirof etish kerakki, bizning diyorimizda diniy va dunyoviy bilimlar teng asosda rivojlanib o‘z tarqqiyyot cho’qqisiga erishdi. Islom dinining asosi bo’lgan arab tilini o’rganishga ham katta e’tibor berildi. Movaraunnahr olimlari ilmning ma’lum bir sohasida emas balki barcha yo’nalishlarida peshqadamlik qilib kelganlar. Mana shunday olimlardan biri Abu-l-Qosim Mahmud Zamaxshariy (1075-1144 bo‘lib, u o’zining ilmiy slohiyati bilan “Arab va ajamlar ustozi” kabi sharafli nomga sazovar bo‘ldi. Olim yirik tilshunos, lug’otshunos, hadisshunos, tafsirshunos sifatida e’tirof etiladi. Allomaning ilmga bo’lgan rag‘bati va boy ilmiy merosi tufayli Xorazmdan chiqqan olimlarni tilga olganda Zamaxshariyni “Faxru-l-Xorazm” deb e’zozlanadi.

Zamondoshlari tomonidan berilgan “Ustozu-d-dunya” (“Butun dunyoning ustozi”), “Ustozu-l-arab va-l-ajam” (“Arablar va g‘oyri arablar ustozi”), Faxru Xavorazm (“Xorazmning faxri”), “Ka’batu-l-adab” (“adab ahli uchun bamisoli Ka’ba), ayniqsa “Jorulloh” (“Allohning qo‘shnisi”) kabi o‘ta sharafli laqablar boshqa bironta ham olimga тasib etmaganligi, vatandoshimizning ulkan obro‘-e’tibor va hurmat-ehtiromga sazovar bo‘lgan buyuk siymo bo‘lganini ko‘rsatadi[14].

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Zamaxshariy ko’hna Xorazm zaminidan etishib chiqib, jahon fani va madaniyati rivojiga o’zining munosib va salmoqli hissasini qo’shgan buyuk olimlardan biridir. Mahmud Zamaxshariy 467 yil 27-rajab, chorshanba kuni, milodiy 1075 yilning 18 mart kuni Xorazmning Zamaxshar qishlog’ida tug’ildi[15].

Zamaxshariy haqidagi ma’lumotlar, asosan o‘rta asr arab manbalarida keltirilgan bo‘lib alloma haqidagi batafsil ma’lumotlar Ibn Xallikonning “Vafayatu-l-ayon”, Yoqut Hamaviyning “Mu’jamu-l-ulamo”, Ibn Qiftiyning “Inbohu-r-ruvot”, ibn Javziyning “Muntazam” kabi manbalarida uchratishimiz mumkin.

Otasi unchalik badavlat bo‘lmasada, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo‘lgan va aksar vaqtini Qur’on tilovati-yu namoz o‘qish bilan o‘tkazib, Zamaxshardagi bir

[13] Xorazm Ma’mun akademiyasi – qadimiy va navqiron ilm maskani/ | Al’bom| -T.: O‘zbekiston, 2007.- B.11.
[14] U.Uvatov. Mahmud Zamaxshariy. -T.:O‘zbekiston, 2011. -B.3.
15 Z. Islomov. Muqaddimatu-l-adab. –T.: TIU, 2002. –B.3.

masjidda imomlik ham qilgan. Allomaning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan.

Lekin, allomaning otasi yosh vafot etadi. Vafotiga ma’lum muddat qamalganligi sabab bo’ladi. Bu hodisa Zamaxshariy ilm talabida Buxoroga safar qilgan vaqtiga to‘gri kelgan. Yosh olim otasining ilmi, taqvosi, zuhdini madh etib she’r yozadi[16].

Allomaning yoshligidan ilm olishga rag’bati baland edi. Bir oyog’i cho’loq bo‘lib qolganligi ilmga bo’lgan rag‘batini so’ndirmadi. Dastlabki ilmni o‘z otasi Umar ibn Ahmaddan oladi. So’ng Buxoroda tahsilini davom ettiradi. Umri davomida bir qancha arab mamlakatlariga safar qilib safari davomida o‘z bilimini yanada kengaytirdi.

Uning buyuk olim bo‘lib etishishida ustozlarining ham hissasi beqiyos. Xususan, Abu Mudar ibn Jarir ad-Dabbiy al-Isfahoniydan til, lug‘at va adabiyotdan ta’lim olgan. Bag‘dodda shayxulislom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Soad ash-Shaqqoniy, Abu Xattob ibn Abul Batarlardan hadis ilmini o‘rgangan bo‘lsa, Makkada nahv va fiqh bo‘yicha Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat al-Yabiriy al-Andalusiy, shayx as-Sadid al-Xayyatiylardan saboq olgan. Lug‘at ilmini esa Abu Mansur Mavhub abn al-Xodar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o‘rgangan.

Olim ko‘p asarlarini Makkadaligida yozgan. Bu erda Zamaxshariy besh yilga yaqin yashagan. Shu sababli allomaning Jorulloh (Alloh qo‘shnisi) degan sharafli ta’rifga sazovor bo‘lgan, Islom olamida yirik olim darajasiga ko‘tarilgan Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa shaharlarida ham juda ko‘p shogirdlari bo‘lgan. Mahmud Zamaxshariy o’z zamonasining Abu-l-Hasan Ali Umroniy Xorazmiy, Muhammad ibn Abu-l-Qosim Xorazmiy, Abu Yusuf Yoqub Jandaliy, Abu-l-Mahosin Ismoil Ta’viliy, Ali ibn Iso Abu-t-Toyyib kabi allomalariga ustozlik qilgan va ularni faxr bilan ustoz deb tan olganlar[17]. Buyuk alloma hijriy 538 yilda arafa kechasi (1144 yil 14 aprel) Xorazmda vafot etgan.

Zamaxshariy o‘z davrining zabardast olimlaridan biri bo‘lib, fanning turli sohalariga oid to‘qsonga yaqin asar yozgan, shulardan ba’zilarigina etib kelgan, xolos. Allomaning asarlari ro‘yxati turli manbalarda turlicha keltiriladi. Nemis sharqshunos olimi K. Brokkelman o‘zining — “Arab adabiyoti tarixi” nomli asarida Mahmud Zamaxshariyning 31 ta asari haqida ma’lumot bergan bo‘lsa", doktor Ahmad Muhammad al-Xufiy – “Az Zamaxshariy” nomli risolasida uning 48 asari borligini aytib o‘tadi”. Akademik A. Rustamovning “Mahmud Zamaxshariy”

[16] Dok. Kamol Jabriy Abhariy. Az-Zamaxshariy:siyratuhu,asaruhu, mazhabuhu-n-nahviy. – Oman.: Daru-l-janan linnashri vat-tavzi’, 2014. –B.25.
[17] Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari tarixi. – T.: Navro’z, 2019. –B. 127

kitobida allomaning 39 ta asari haqida ma’lumotlar bor”. B.Z.Xolidov o‘z maqolasida Zamaxshariyning 55 ta asar yozganligini ta’kidlaydi". Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining yana bir tadqiqotchisi U. Uvatov “Nozik iboralar” nomli kitobida allomaning 34 ta asariga oid ma’lumot bergan" .

I.Yu. Krachkovskiy, V.V. Barto’ld, A.A. Borovkov, A. Krimskiy, V.L. Vyatkin; g‘arb olimlaridan K. Brokkel’man, Goldsiyer, Vetshteyn, Nyo’ldeke, Poppe, Rayt, Bensing, Zayonchikovskiylar allomaning ilmiy merosiga katta qiziqish bildirganlar va uning asarlari ustida izlanishlar olib borganlar.

Arab olimlaridan Jurji Zaydon, Ahmad Muhammad al Xudiy, Ali al-Bajoviy, Bahija Boqir al-Husniy, Muhammad Abul fazl Ibrohim, Husni Abdujalil Yusuf, Ibrohim as-Samaroiy, Muhammad Bosil Uyun as-Sud va boshqalar alloma ijodini har tomonlama o‘rganishga harakat qilganlar[18].

Mahmud Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalarini, jumladan, arab tilining sarf-u nahvini, adabiyotshunoslik, lug‘atshunoslik, tilshunoslik, geografiya, aruz, mantiq, diniy ilmlar, Qur’on tafsirini mukammal egallagan va mazkur ilm sohalarininh deyarli barchasida qimmatli asarlar yaratgan.

Alloma Xorazmshohlar davrida yashagan bo’lib, uning hayot davri Qutbiddin Muhammad (1097-1127) va Otsiz (1127-1156) hukmronlik vaqtiga to‘g‘ri keladi. E’tirof etish kerakki, xorazmshohlar ilm-fan va madaniyatni qo’llab-quvvotlaganlar. Olim va ilm ahllari uchun yaxshi shart-sharoit yaratib berganlar. Buning natijasida Abu Nasr ibn Iroq (960-1036), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Mahmud Zamaxshariy (1075-1144), Najmiddin Kubro (1145-1221) kabi ilm-fanning turli sohalariga salmoqli hissa qo‘shgan qator oilmlar etishib chiqqanlar.

Doimiy siyosiy kurashga qaramay ilmiy faoliyat keng ko‘lamda rivojlandi. Chunki o‘sha davr sultonlari ulamolarga alohida e’tibor qaratdilar[19].

Xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Otsiz olimlar, shoiru adiblarga hurmat bilan qarar, o‘zi ham iste’dodli, ma’rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo‘lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Zamaxshariy “Muqaddamatu-l-adab”ni uning nomiga bag‘ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo‘lingan bo‘lib, otlar, fe’llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe’l o‘zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137 yillari yozib tugallangan[20].

[18] Nosirova M. O'rta asrlar arab nahvidan namunalar (Mahmud Zamaxshariyning “al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi asosida). – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2004. –B. 6.

[19] Az-Zamaxshariy.Siyratuhu-asaruhu-mazhabuhun nahviy. Kamol Jabriy Abhariy. Aman, Daru-l-janan, 2014 .-B.14.

[20] Ma’naviyat yulduzlari / moharrir F. Hasanov. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. -B.128.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, alloma yashagan davr siyosiy jihatdan turli o‘zgarishlar yuz bergan davr bo‘lishiga qaramay saljuqiy hukmdorlari ham xorazmshohlar ham ilm-fanga katta e’tibor berganligi natijasida jahon ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo’shgan qator olimlar etishib chiqqan. Ularning eng yorqin nomayondasi Mahmud Zamaxshariy desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“ANVOR AL-QUR’ON VA ASROR AL-FURQON” ASARIDAGI AXLOQIY-TARBIYAVIY MASALALARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Islomxon Ubaydullaev,
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
islom instituti katta o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

Ali al-qorining “Anvor al-Qur’on va asror al-Furqon” asarida odob-axloqqa oid oyatlar tafsirida ham bugungi kun ijtimoiy hayotda zarur bo‘ladigan masalalar bayon etilgan. Odob-axloq mavzusi Ali al-qorining bir qancha asarlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, “Jam’ al-vasoil”, “Sharh ayn al-ilm”, “Mirqot al-mafotih”, “Sharh ash-Shifo”, “Tuhfat al-xatib”, “Tab’id al-ulamo” va “al-Qavl as-sadid” kabi asarlarida odob-axloq masalalariga ham murojaat qilingan. Olimning mavzuga doir fikrlari mazkur tafsirida uning odob-axloqqa oid oyatlarni tafsir qilishda ko‘rinadi.

Qur’on ilk oyatlaridanoq ilmga, ta’limga, o‘qib-yozishga targ‘ib qilgani ma’lum. “Agar bilmaydigan bo‘lsangiz, ahli zikrlardan (ya’ni biladiganlardan) so‘rangiz!” degan oyat esa Qur’onda ikki marta keltirilgan[21]. Ali al-qori uni tafsir qilar ekan, “ahli zikr”dan murod olimlar ekanini, bilmagan masalalar yuzasidan olimlarga murojaat qilish lozimligini aytadi. Shuningdek, olimlarning har xil bo‘lishini ham aytib o‘tadi[22]. Bu bilan u har bir masalada uning o‘z mutaxassisi bo‘lgan kishiga murojaat qilish kerakligini uqtiradi. Diniy masalalarda diniy olimga – u faqih yoki mutakallim yoki ruhiy tarbiya ustozi bo‘lishi mumkin va dunyoviy masalalarda dunyoviy ilmlar mutaxassisiga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Ali al-qori mazkur oyat takror kelgan o‘rinda esa “ahli zikr” sifatida payg‘ambarlar ilmiga merosxo‘r bo‘lganlar qatorida tarixchi olimlarni ham keltirgani ahamiyatli deyish mumkin[23]. Mazkur oyatni Ali al-qori “Sharh Ayn al-ilm” asarida kengroq sharh qilgan[24]. Jumladan, bir qancha hadis va rivoyatlar keltirilgan bo‘lib, “Ilm Allohning xazinasi. Savol so‘rash esa uning kaliti. Shuning uchun so‘ranglar. Chunki bunda

[21] “Nahl” surasi 43-oyat va “Anbiyo” surasi 7-oyat.
[22] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 79-bet.
[23] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 317-bet.
[24] Ali al-qori. Sharh Ayn al-ilm. 2 jild. – Qohira: “Muniriya”, 1932. – B. 24-26.

to‘rt nafar odam savob oladi. Savol beruvchi, unga javob beruvchi olim, uni eshitgan kishi va ularni yoqtirgan kimsa”, degan rivoyat ham o‘rin olgan.

Ali al-qori “Mirqot al-mafotih” asarida “Agar bilmaydigan bo‘lsangiz, ahli zikrlardan (ya’ni biladiganlardan) so‘rangiz!” oyatini izohlar ekan, biror bir oyat yoki birorta hadis yoxud birorta masalalarni tushunmagan kishiga bir olimdan uni so‘rab tushunib olmog‘i ushbu oyatga ko‘ra vojibdir. Bu holat zamonamizda bahs-munozara, o‘zaro tortishuv, ilmiy suhbatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin, deb yozadi[25].

Bugungi kunimiz uchun ahamiyatli mavzulardan biri bahs-munozaralarda g‘azablanmaslik va qizishmaslik, haqorat so‘zlarni ishlatmaslik, go‘zal uslubda bahslashish odobidir. “Rabbingizning yo‘li (dini)ga hikmat va chiroyli nasihat bilan da’vat eting! Ular bilan eng go‘zal uslubda munozara qiling!” (Nahl, 125-oyat) degan oyatda Ali al-qori: “Bahs-munozara go‘zal uslubda qilinishi kerak. Buning uchun yumshoqlik, muloyimlik, ochiq yuzli bo‘lish talab etiladi. Hikmat aslida gap bilan tilni, fikr bilan dilni, harakat bilan a’zolarni to‘g‘ri ishlata olishdir. Oyatning ma’nosi: gapirsang hikmat bilan gapir, fikr qilsang ham hikmat bilan fikrla, harakat qilsang ham, hikmat bilan harakatlan, deganidir”, deb yozadi[26]. Umaman olganda, asabiylik, qo‘rslik, gap ko‘tara olmaslik ortib borayotgan bugungi kunda Ali al-qorining fikrlari diqqatga sazovordir. U “Oli Imron” surasidagi 159-oyati haqida: “Odamlar bilan maslahatlashib ish ko‘rish jamiyatni saqlashga xizmat qiladi, odamlarni o‘zaro yaqinlashtiradi va jamiyatda xotirjamlikni keltirib chiqaradi”, degan mazmunda fikr bildirgan[27]. Demak, uning bu fikrlari davlat bilan xalq o‘rtasidagi munosabat, davlat tashkilotlarining ochiqlik siyosati kabi holatlarda ham asqotishi mumkin.

Ali al-qori bilgan ilmini boshqalarga o‘rgatish zarurligi to‘g‘risidagi “Oli Imron” surasining 187-oyatining kengroq tafsirini bergan[28]. Bu yerda: “Kimki ilmni ahlidan yashirsa, qiyomat kuni olov bilan yuganlanadi” degan hadisni keltirgan. Lekin uni qaysi muhaddis rivoyat qilganini aytib o‘tmagan. Mazkur hadisni Ali al-qorining ustozi Ali al-Muttaqiy (vaf. 975/1567) o‘zining “Kanz al-ummol” nomli hadislar to‘plamida zikr qilgan[29]. Shuningdek, sahoba Ali (r.a.)ning: “Ilm ahli o‘z ilmlarini o‘rgatishni boshlamagunlaricha Alloh johillarga ta’lim olishni

[25] Ali al-qori. Mirqot al-mafotih. 9-jild. – Bayrut: “Dor al-Fikr”, 1994. – B.600.
[26] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 115-bet.
[27] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 361-bet.
[28] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 380-381-betlar.
[29] Ali al-Muttaqiy. Kanz al-ummol. 10-jild. – Bayrut: “Muassasa ar-Risola”, 1985. – B. 191, 217.

boshlatmaydi”, degan hikmatini ham keltirib o‘tgan. Mazkur rivoyat esa Abdurrauf al-Munoviy (vaf. 1031/1622) tomonidan “Fayz al-qadir” asarida zikr qilingan[30].

Ota-onaga yaxshilik qilish mavzusi barcha zamonlar va makonlarda dolzarb bo‘lib kelgan. Ota-onani hurmati, farzand ustidagi haqqi to‘g‘risidagi oyatlar, hadislar, islomiy hikmatlar, musulmonlar hayotidagi tajribalar dunyo tarixida bu borada misli ko‘rilmagn oliymaqom narsalar ekani ma’lum va mashhurdir[31]. Shu jumladan, “Isro” surasining 23-24 oyatlari quyidagicha:

“Rabbingiz, Uning O‘zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey, inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga «uf!..» dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt! Ularga, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut va (duoda) ayt: «Ey, Rabbim! Meni (ular) go‘daklik chog‘imda tarbiyalaganlaridek, Sen ham ularga rahm qilgin!» Isro surasi, 23-24-oyatlar.

Ali al-qori fikricha, ular bilan yaxshi muomalada bo‘lish va ularga yaxshilik qilish lozim. Bu ota-ona haqqida tavhid bilan keltirilgan g‘oyat darajadagi ta’kid hisoblanadi. Chunki, “Luqmon” surasining 14-oyatida: “Menga va ota-onangga shukur qil”, deyilgan. Ne’matni paydo qilgani uchun Allohga, o‘sha ne’matlarning kelishiga sababchi bo‘lgan ota-onaga shukur qilinadi. Hadisda: “Kim odamlarga shukur qilmasa, Allohga shukur qilmaydi”, deyilgan[32].

Oyatda ota-onaga yaxshilik qilishga buyurilgani, ota-onaning haqlariga rioya qilish, ularning imo-ishoralariga va xizmatiga muntazir bo‘lib turish, gunoh bo‘lmagan ishlarda Allohning roziligi ularning roziligi bilan belgilanishi, go‘zal muomala va nihoyat darajadagi hurmat va ehtirom, buyruqlarida dangasalik qilmaslik, ularning dillarida xursandchilikni asrab-avaylash kabilar bilan belgilanadi. Bu esa ularning hayotlik paytida bo‘ladi. Vafot etib ketgan bo‘lsalar, ular haqqiga duolar qilish, ular nomidan sadaqa-ehsonlar qilish, vasiyatlarini ado etish, ular yaxshi ko‘rgan do‘stlar va qarindoshlarga yaxshilik qilish bilan ado topadi. Ali al-qori bularning sababini Alloh ota-ona haqqiga rioya qilishni eplagan va uddalagan insongina Yaratganning haqqiga rioya qila oladi. Banda bandaning haqqiga rioya qila olmas ekan, rabbisining haqqini qanday ado etadi, deb tushuntiradi[33].

Ali al-qori ushbu oyatlarni tafsir qilar ekan, “al-Kashshof”, “Tafsir as-Sullamiy”lardan iqtiboslar keltirgan. Jumladan, “Kashshof” tafsiridagi hadisni naql qilgan. Unda aytilishicha, bir kishi Rasululoh (s.a.v.) huzuriga kelib, “Mening ulug‘

[30] Abdurrauf al-Munoviy. Fayz al-qadir. 3-jild. – Qohira: “Kubro”, 1937. – B. 145.
[31] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: “Sharq”, 2011. – B. 355.
[32] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 131-bet.
[33] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 132-bet.

yoshdagi ota-onam bor, men ularga yaxshilik qilib kelaman. Bu bilan ota-onamning kichiklikda meni boqqan yaxshiligiga javob qaytara olgan bo‘lamanmi?” deb so‘raydi. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “Yo‘q, chunki ular bu yaxshilikni sen uzoq yashashing uchun qilishgan. Sen esa yaxshiliklarni ularning o‘limini kutib qilasan”, deb marhamat qilganlar[34].

Oilaviy munosabatlar masalasi ham tahlil qilinayotgan asarda muhim ahamyait kasb etadi. Ali al-qori “Niso” surasidagi: “Ular bilan totuv turmush kechiringiz. Agar ularni yomon ko‘rsalaringiz, (bilib qo‘yingki,) balkim sizlar yomon ko‘rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko‘pgina yaxshilik paydo qilishi mumkin” (Niso, 19-oyat) oyatini tafsir qilar ekan, “totuv turmush kechirish”ni insof bilan ish tutish va chiroyli gaplashish deb ta’bir qilgan[35]. Ali al-qori bu yerda ayoliga diniy ma’lumotlarni o‘rgatish, musulmon odob-axloqini bildirish, yoziga yoqmasa ham u bilan go‘zal suhbatlar qilib turish, aziyatlarini ko‘tarish, unga og‘ir ishlarni qildirmaslik, uni xijolat bo‘lib qoladigan holatlardan saqlash kabilarni ham “totuv turmush kechirish”ga kiritgan.

Ali al-qori mazkur oyatdagi: “yomon ko‘rsalaringiz” iborasini esa: “Ayolga sabr qilinglar va ajrashmanglar”, deb izohlagan[36]. Oyat davomidagi: “Balkim sizlar yomon ko‘rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko‘pgina yaxshilik paydo qilishi mumkin” jumlasida farzandlar tug‘ilsa, undan katta yaxshiliklar hosil bo‘lishi mumkinligini qayd qiladi. Ali al-qori er-xotin bir-birini yoqtirmay qolgani uchun ushbu fikrga ergashmaslik kerakligini xulosa qiladi. Olimning shu o‘rinda keltirgan hikoyasi ibratli bo‘lib, unday aytilishicha, bir go‘zal ayol badbashara erkakka turmushga chiqqan ekan. Undan “Qanday bu holatga rozi bo‘lib yuribsan?” deb so‘rashganda, u: “Men biror gunoh ish qilgan bo‘lsam-u shoyad Alloh shu amalimga jazo qilgan bo‘lsa yoki erim yaxshi bir amal qilgan bo‘lsa-yu, meni mukofot sifatida unga bergan bo‘lsa!”, deb javob bergan ekan[37]. Olimning ushbu hikoyatni keltirganidan maqsad oyatdagi mazmunni o‘quvchiga sodda uslubda yetkazish bo‘lgan, albatta.

Oilada er-xotinning o‘zaro sabr-toqatli bo‘lishlari, bir-birlarining qo‘pol yoki yoqimsiz gap-so‘zlariga chidab yashashlari, kamchiliklarini kechirib, shirin turmush qurishlari masalasi Ali al-qorining “Sharh Ayn al-ilm” asarida batafsil zikr etilgan[38]. U yerda olim yuqoridagi oyatdan tashqari bir qancha hadislarni keltirib o‘tgan. Jumladan, “Bir kun yurtni adolat bilan boshqarish yetmish yillik ibodatdan afzal”

[34] Mahmud az-Zamaxshariy. Tafsir al-Kashshof. – Bayrut: “Dor al-Ma’rifat”, 2009. – B. 433.
[35] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 406-bet.
[36] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 406-bet.
[37] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 406-bet.
[38] Sharh Ayn al-ilm, 1-jild, 221-bet.

degan hadisni keltirib, uni erkakning oilada boshliq ekanligidan go‘yo davlat oiladan boshlanishiga ishora qilgan, deyish mumkin. Lekin, mazkur asarda: “Kim oilasining bir og‘iz og‘ir gapini ko‘tarsa, ming shahidning savobini oladi, qabr azobini ko‘rmaydi”, deganga o‘xshash rivoyatlarni ham keltirganki, ularni “Anvor al-Qur’on va asror al-Furqon” asarida uchratmaymiz.

Sharm-hayo va iffatli bo‘lish go‘zal xulqlardan bo‘lib, hayo to‘g‘risida Qur’onda ikkita oyat mavjud[39]. “So‘ngra, ulardan (ikki qizdan) biri hayo bilan yurib kelib...” (Qasas, 25-oyat) oyatida Ali al-qori: “Hayo imondandir” degan mashhur hadisni keltirib o‘tadi[40]. Olim mazkur oyatni qariyb ikki sahifada tafsir qilgan bo‘lib, quyidagi xulosalarni beradi[41]:

1)O‘sha qiz bilaklarini yopgan holda yengi uzun ko‘ylakda kelgan edi;

2)Hayo imondandir, degan hadis mavjud;

3)Begona kishi bo‘lgani uchun hayo bilan gapirgandi;

4)Uyiga ziyofatga taklif qilayotgani uchun uyalayotgandi, chunki saxiy kishilar o‘z ziyofatining kamu ko‘stidan uyalib turadilar;

5)Erkakning viqori va salobati qarshisida bokira qiz uyalib turgandi;

6)Erkak qilgan ishiga haq olmayman, degan gapining ixlosi qarshisida lol qolgandi;

7)Erkakning ochiq yuzliligi va kulib qarab turgani uni uyaltirgandi.

Halollik hamisha qadrlanadigan holatdir. Ali al-qori halollik to‘g‘risidagi oyatlarni ham bugungi kunimiz uchun ham mos qilib tafsir qila olgan, deyish mumkin. Masalan, “Ey, odamlar, yerdagi halol-pok narsalardan tanovul qilingiz va shaytonning izlaridan ergashmangiz! Albatta, u sizlarga aniq dushmandir” (Baqara, 168-oyat) oyatida: “Halol-pok deganda turli shubhalardan pok bo‘lgan va birorta zarari ham yo‘q pokiza narsalar tushuniladi”, degan[42]. Ya’ni, bu yerda Ali al-qori o‘zi halol bo‘lgani bilan insonning sog‘ligi yoki ruhiyatiga zararli bo‘lgan yemishlar “haloli tayyib” bo‘la olmasligini nazarda tutgan. Shu ma’noda, masalan, inson sog‘ligiga zararli deb topilayotgan energetik ichimliklardan saqlanishni islom shariati ko‘rsatmasi sifatida ko‘rsa bo‘ladi. Sog‘likni saqlash vazirligi mutaxassislari tomonidan energetik ichimliklar me’yordan ortiq va surunkali iste’mol qilinsa, bosh miya, markaziy nerv tizimi, bo‘g‘imlar va boshqa a’zolarga jiddiy ziyon yetishi, energetik ichimliklar me’yoridan ortiq iste’mol qilinganda qonda glyukoza miqdori ko‘payib ketishi natijasida shakarning ortiqcha qismi yog‘ga aylanishi va insulin

[39] Shayx Suhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. 2-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 332.
[40] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. (Ishonarli to‘plam). 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 13.
[41] Anvor al-Qur’on, 4-jild, 80-82-betlar.
[42] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 148-bet.

organizmda ko‘payib, qandli diabetga olib kelishi mumkinligi aytib o‘tilgan[43]. Ali al-qori “Ey, imon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo‘lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz!” (Baqara, 172-oyat) oyatida esa: “Bu oyatda yaxshi amallar halol-pok yeyish natijasi ekaniga ochiq-oydin ogohlantirish bor”, deb qayd qiladi[44]. Ali al-qori shukr qilishni yegan taomining quvvati ketmaguncha gunoh ishga qo‘l urmaslik, deb tushuntiradi.

Ma’lumki, islom iqtisodiyotida isrof mavzusi juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki resurslarning cheklanganligi, ehtiyojlarning esa cheksizligi isrofga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi. Ali al-qori “Anvor al-Qur’on va asror al-Furqon” kitobida ham, boshqa asarlarida ham isrof mavzusiga batafsil to‘xtalishga harakat qilgan. Jumladan, “Ey, Odam avlodi! Har bir masjid (namoz) oldidan ziynatlaringiz (pok kiyimlaringiz)ni (kiyib) olingiz! Shuningdek, yeb-ichingiz, (lekin) isrof qilmangiz! Zero, U isrof qiluvchilarni sevmagay” (A’rof, 31-oyat) oyati tafsirida sahoba Ibn Abbos (r.a.)ning: “Xohlagancha yeb-ich, xohlagancha kiyin, lekin ikkita ishing sening xatoying bo‘ladi: isrof va manmanlik”, degan fikrini keltirgan[45]. Ali al-qori isrofni ko‘proq yeb-ichishda, manmanlikni esa kiyinishda ko‘rinadi, deb biladi. Mazkur oyat tafsirida u Ali ibn al-Husayn ibn Voqid al-Marvaziy (130-211/748-826) tomonidan aytilgan: “Alloh ushbu yarim oyatda tibbiyotni jamlagan”, degan gapni keltirib o‘tgan[46]. Ya’ni, uning fikricha, “Eb-ichingiz, (lekin) isrof qilmangiz!” hamda “U isrof qiluvchilarni sevmagay”, deb halol-haromning chegarasini belgilab berilgan.

“Anvor al-Qur’on va asror al-Furqon”da isrof mavzusiga ko‘p bora murojaat qilingan. “Isrofgarchilikka mutlaqo yo‘l qo‘ymang! Chunki, isrofgarlar shaytonlarning birodarlaridir. Shayton esa, Parvardigoriga nisbatan o‘ta noshukur edi” (Isro, 26-27-oyatlar) oyatini tafsir qilar ekan, Ali al-qori: “al-Iqtisod nisf ul-maishat”, ya’ni “Iqtisod farovon hayotning yarmi” mazmunidagi hadisni keltiradi[47]. Ali al-qori fikricha, isrof qiluvchilar o‘z mablag‘larini hayu havasga, dabdababozlikka sarflab, harom va zararli ishlarga ishlatib zoye’ qiladilar va shaytonning yo‘liga yuradilar. Shuning uchun, oyatda undaylarni “shaytonning birodarlari” deyilgan. Xayr-saxovat qanchalik savobli bo‘lmasin, u ham o‘rtacha va adolatli bo‘lmog‘i kerak. Shu ma’noda Ali al-qorining tafsir kitobida keltirgan xayr-saxovat to‘g‘risidagi, birovga yaxshilik qilish haqidagi fikrlari ham bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, “(Baxillik qilib) qo‘lingizni bo‘yningizga

[43] https://www.xabar.uz/jamiyat/energetik-ichimliklar-nimasi-bilan-xavfli
[44] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 149-bet.
[45] Anvor al-Qur’on, 2-jild, 123-bet.
[46] Anvor al-Qur’on, 2-jild, 123-bet.
[47] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 134-bet.

bog‘lab ham olmang. (Isrofgarchilik qilish bilan) uni butunlay yoyib ham yubormang! Aks holda, malomat va mahrumlikda o‘tirib qolursiz” (Isro, 29-oyat) oyatini “Bu baxillikdan qaytariq va isrofdan ta’qiq bo‘lib, iqtisodga buyurilgan oyatdir. Ular o‘rtasida o‘rtachalikka rioya etishni saxovat deb tushuntirilgan”, deb izohlaydi[48]. Shu o‘rinda Ali al-qori: “Bandalarim orasida ayrimlarni kambag‘illik tuzatadi. Agar ularni boy qilsam, din-diyonati buziladi. Ayrimlarni esa boylik tuzatadi. Agar ularni faqir qilib qo‘ysam, din-diyonati buzilib, Allohga bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi”, degan hadisi qudsiyni zikr qiladi[49]. Ali al-qori bu hadisni “Mirqot al-mafotih” asarida ikki marta keltirgan bo‘lib, Allohga seni yaqinlashtiradigan har bir narsa muborak, undan seni uzoqlashtiradigan har bir narsa nomuborakdir. Faqirlik yoki boylikning ahamiyati yo‘q, degan xulosani beradi[50].

Islomda maqtanchoqlik, odamlar ko‘rsin uchun xayr-ehson qilish qoralanadi. Aynan shu borada Qur’onda ikkita oyat mavjud. Ali al-qori “Baqara” surasining 264-oyatida riyokor o‘zining riyo bilan qilgan ana shu ishiga savob olmasligini aytadi[51]. “Niso” surasining 38-oyatida: “Mol-mulklarini odamlar ko‘rsinga (riyokorlik bilan) ehson qiladigan, (aslida esa) Allohga ham, oxirat kuniga ham imon keltirmaydiganlarni (Alloh sevmaydi). Kimgaki shayton do‘st bo‘lsa, naqadar yomon do‘st u!” deyilgan bo‘lib, Ali al-qori riyokor va maqtanchoqni doim shaytonning vasvasasiga aldangan va yashirin shirkka mubtalo bo‘lgan odam sifatida tasvirlaydi[52]. Ali al-qori riyokorlik mavzusini “Sharh Ayn al-ilm” kitobida batafsilroq davom ettirgan, yuqoridagi oyatlarni esa hadislar yordamida kengroq tafsir qilishga harakat qilgan[53].

Maqtanchoqlik va manmanlikning ko‘rinishlaridan biri o‘zining qilgan yaxshi ishlariga ichdan g‘ururlanishi, g‘ururga ketishi hisoblanadi. Bu “ujb” (العجب) deb ataladi. “Ujb” lug‘atda xudbinlik va kekkayish ma’nosida ham keladi[54]. Ali al-qori shaytonning adashuviga sabab qilib, o‘z ishlariga g‘ururlanishini, xudbinligi va kekkayishini ko‘rsatadi. Shu ma’noda u: “Ujb barcha gunohlarning eng kattasi”, deb yozadi[55]. Chunki olimning fikricha, odamdagi xudbinlik, o‘z ishlariga qoyil qolib, o‘ziga-o‘zi mahliyo bo‘lish xislat insonni tavbadan va kamtarlikdan judo qiladi. Oddiy gunohkor esa unday emas, u o‘zining kamchiliklarini biladi va unga iqror bo‘ladi. Shuning uchun ham, olim manmanlik va maqtanchoqlik bilan savobli ish

[48] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 135-bet.
[49] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 134-bet.
[50] Ali al-qori. Mirqot al-mafotih. 9-jild. – Bayrut: “Dor al-Fikr”, 1994. – B. 1705.
[51] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 237-bet.
[52] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 424-bet.
[53] Sharh Ayn al-ilm, 1-jild, 154-156-betlar.
[54] An-Na’im / Tuzuvchilar mualliflar guruhi. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003 y. – B.522.
[55] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 58-bet.

qilgandan ko‘ra o‘zining aybli ish qilayotganini bilib gunoh qilgan yaxshiroq, deb xulosa qiladi[56].

Ne’matlarga shukr qilish, insonning shukrona hissa bilan yashashi g‘oyasi islomda yetakchi axloqiy tushunchalardan hisoblanadi. Ali al-qori mazkur ma’no-mazmunga ega oyatlarni ham o‘ziga xos tafsir qila olgan. Bu mavzu Ali al-qorining bir qancha asarlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, Sharh Ayn al-ilm” kitobida batafsil to‘xtalib o‘tgan. Ali al-qori “Anvor al-Qur’on va asror al-Furqon” tafsirining “Ibrohim” surasi 7-oyatining: “Agar (bergan ne’matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu, noshukrchilik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir” izohida esa shukronalik mevasi ne’mat ustiga ne’matni ko‘paytirib berish, barakali qilish orqali dunyo va oxirat saodatiga yetishish orqali bo‘lishini, noshukurlik esa dunyoda har turli sinovlar va oxiratda pushaymonliklar bilan bo‘lishini aytadi[57]. “Agar shukr qilsangiz va imon keltirsangiz, Alloh sizlarni azoblab nima ham qiladi?! Alloh shukrni qabul etuvchi va biluvchi zotdir” (Niso, 147-oyat) oyatida esa olim shukrona hissi bilan yashovchi, o‘z holatiga shukr qiluvchilarni abadiy azobga yo‘liqmasligini zikr qiladi[58].

Qalb xastaliklaridan biri sifatida hasad ko‘rsatiladi. Inson boshqa birovga yetgan ne’matga rashk qilib, undan ketib o‘ziga bo‘lishini xohlashi hasad bo‘lsa, boshqadada ham o‘sha ne’mat bo‘lishini va o‘ziga ham o‘sha ne’matga o‘xshashi bo‘lishini xohlash esa havas hisoblanadi[59]. Shu ma’noda hasad islomda qoralanadi. Qur’onning “Niso” surasi 54-oyati tafsirida Ali al-qori: “Hasad razilliklarning eng yomoni”, deb yozadi[60]. Ali al-qori aytishicha, hasadchi agar o‘z hasadiga ko‘ra ish ko‘radigan bo‘lsa, hasad qilgan odamiga ziyon-zahmat yetkaza olishi mumkin. Agar ichidan hasda qilib qo‘yaversa, u faqat o‘ziga zarar yetkazadi[61]. Shu ma’noda, olimning fikricha, ikki holatda ham hasadchi gunohkor hisoblanadi.

G‘iybatchilik ham ijtimoiy illatlardan bo‘lib, jamiyatni porakanda qiladigan, ittifoqqa putur yetkazadigan, yakdillikni ketkazadigan noxush holat hisoblanadi. Ali al-qori ushbu illatga qarshi kurashib, oyatlar tafsirida uni qoralaydi. Bu borada, g‘iybat nima degan savolga Payg‘ambar (s.a.v.): “Birodaringni u yoqtirmaydigan va unda bor narsa bilan eslasang, uni g‘iybat qilgan bo‘lasan. Agar unda yo‘q narsa bilan eslasang, unga bo‘hton qilgan bo‘lasan”, deb javob berganlari haqidagi hadisni keltiradi. Lekin uni kim rivoyat qilganini aytmaydi. Uni Imom Termiziy “Sunani

[56] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 58-bet.
[57] Anvor al-Qur’on, 3-jild, 7-8-betlar.
[58] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 479-bet.
[59] Shayx Suhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. 2-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 347.
[60] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 433-bet.
[61] Anvor al-Qur’on, 5-jild, 391-bet.

Termiziy” hadis to‘plamlarida rivoyat qilganlar[62]. Ali al-qorining: “Kim o‘zining ayb-kamchiliklari bilan ovora bo‘lsa, xalqqa qarashga vaqti bo‘lmaydi. Kimki Haq (Alloh) bilan bo‘lsa, o‘ziga qarashga ham vaqti bo‘lmaydi, u xalq bilan qanday ovora bo‘lsin?!”, degan irfoniy hikmati bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, deyish mumkin[63].

Ali al-qori “Hujurot” surasining 12-oyatida g‘iybat to‘g‘risida nisbatan batafsilroq yozadi. U oyatning nozil bo‘lish sababi (“sabab an-nuzul”) ga ham to‘xtalgan bo‘lib, odatda oyatlarning nozil bo‘lish sabablarini keltirmaydi. Mazkur oyatning nozil bo‘lish sababi haqidagi rivoyatni u “Tafsiri Kashshof”dan olgani seziladi[64].

Sabr-toqatli bo‘lish go‘zal axloq jumlasidan bo‘lib, Ali al-qori “Ey, imon keltirganlar! Sabr va namoz bilan (Mendan) yordam so‘rangiz! Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir” (Baqara, 153-oyat) oyatida: “Namoz o‘quvchilardan ko‘ra sabr-bardoshlilar yutuqqa, yordamga va duolarining mustajob bo‘lishiga munosibroqdir”, deb yozadi[65]. Mazkur suraning 45-oyatining ma’nosi ham sabr va namoz bilan yordam so‘rashga qaratilgan bo‘lib, Ali al-qori bu o‘rinda:

وَالصَّبْرُ يَحْسُنُ فِي الْمَوَاطِنِ كُلِّهَا ، إِلَّا عَلَيْكَ فَإِنَّهُ مَذْمُومٌ

“Sabr barcha holatlarda yaxshi ish, faqat Allohga yuzlanmay sabr qilish xatarli”, degan arabcha baytni misol keltirgan[66]. Ushbu bayt abbosiylar davrida yashagan Samnun al-Muhib (vaf. 298/910) degan arab shoirining qasidasidan olingan.

“Albatta, sabr qiluvchilarga (oxiratda) mukofotlari behisob berilur” (Zumar, 10-oyat) oyatida esa Ali al-qori “Tafsiri Bayzoviy”dan naql qilib, qiyomatda namoz, haj va sadaqa kabi ibodatlarning savoblari tarozidan tortilib, o‘lchab beriladi, ofatlar, bemorlik va musibatlariga sabr qiluvchilarning savobi esa o‘lchab, hisoblab o‘tirmasdan birdaniga berilishi haqidagi rvioyatni keltirib o‘tgan[67]. “Zumar” surasining 49-oyati tafsirida esa mutasavvif Junayd Bag‘dodiy (215-298/830-910) tomonidan aytilgan: “Kimki balo-ofatni zarar deb o‘ylasa, u orif emas ekan. Chunki orif o‘ziga yetgan zararni rahmat deb o‘ylaydi”, degan hikmatli gapini keltiradi[68]. Ali al-qori yozgan mazkur fikrlar va hikmatlar insonni balo va ofatlar qarshisida

[62] Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunan at-Termiziy // Mavsuat al-hadis ash-sharif. Al-Kutub as-sitta. – Riyoz: “Dor as-Salom”, 2000. – B. 1847.
[63] Anvor al-Qur’on, 5-jild, 9-bet.
[64] Mahmud az-Zamaxshariy. Tafsir al-Kashshof. – Bayrut: “Dor al-Ma’rifat”, 2009. – B. 433. 1040-1041.
[65] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 138-bet.
[66] Anvor al-Qur’on, 1-jild, 68-bet.
[67] Anvor al-Qur’on, 4-jild, 347-bet.
[68] Anvor al-Qur’on, 4-jild, 361-bet.

dovdirab qolishidan saqlashi, ruhiy tushkunlikdan asrashi, uni ruhiy tushkunlikdan tezroq chiqib ketishiga yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ali al-qori “Anvor al-Qur’on va asror al-Furqon” asarida odob-axloq mavzusidagi va tarbiyaviy ahamiyatga ega oyatlarni boshqalariga qaraganda batafsilroq tafsir qilishga harakat qilgan. U oyatlarning nozil bo‘lish sabablari to‘g‘risida ko‘p to‘xtalmagan bo‘lsa-da, lekin aynan odob-axloq mavzusidagi oyatlarda bu haqida to‘xtalgan. Izlanishlar natijasida mazkur tafsirdagi fikrlari olim tomonidan “Mirqot al-mafotih” va “Sharh Ayna al-ilm” singari kitoblarida davom ettirilgan va kengroq bayon etilgan hamda yangi ma’lumotlar bilan boyitib berilgan. Ali al-qorining mazkur tafsiridagi odob-axloqqa oid fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Buni biz bu boradagi ayrim oyatlar tafsirini tahlil qilganimizda bilib olamiz.

OILA INSTITUTINI DEZINFORMATSIYA TA’SIRIDAN HIMOYA QILISHNING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI

G’ulomjonov Odiljon Raximjon o’g’li
Andijon davlat universiteti, tadqiqotchisi

Zamonaviy globallashuv sharoitida axborot makonining tobora kengayishi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, oilaviy munosabatlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining geometrik progressiyada ortib borishi bir tomondan insoniyat uchun yangi imkoniyatlar ochayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan, dezinformatsiya, manipulyativ xabarlar va ataylab buzib ko‘rsatilgan axborotlar orqali ijtimoiy barqarorlik va oilaviy institutning mustahkamligiga xavf solmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni axborot xurujlaridan himoya qilish masalasi nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil etilishi lozim bo‘lgan ilmiy muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Oila instituti ijtimoiy strukturaning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, uning funksional barqarorligi ko‘p jihatdan axborot muhitining sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Media va kommunikatsiya nazariyalari nuqtayi nazaridan olib qaralganda, oilaviy munosabatlar turli axborot manbalari ta’sirida shakllanadi va transformatsiyalanadi. Dezinformatsiyaning psixologik va sotsiologik ta’siri oilaviy munosabatlarda ishonchning zaiflashishi, generatsiyalar o‘rtasidagi tafovutlarning chuqurlashishi hamda ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu boisdan ham G.Pomerans ta’kidlaganidek, virtual hodisalar ta’siri sabab

bugungi yosh avlod “internetga tobora tobe sifatida bog‘lanib qolmoqda va o‘zi sezmagan holda unga tobe bo‘lib qolmoqda. Oqibatda go‘yoki erkin ko‘ringan bunday qatlamni xohlagan kuyga solib o‘ynatish mumkinligini bugungi hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi”[69].

T.Stounyer ta’kidlaganidek: «bozor-tartibsiz boshqaruvining axborot maydoniga alohida jamiyatlar hamda sivilizatsiya shakllarida kirib kelishi, axborot va bilimlarning mahsulotga aylanib qolishi ongli ravishda yolg‘on axborotlarni ishlab chiqish jarayoniga olib keldi. Axborot hamjamiyatlarining yuzaga kelishi bilan birgalikda alohida jamiyatlar va sivilizatsiyalar, shu jumladan milliy etnik arxetiplar taraqqiyotining, mavjud qadriyatlar va axloq tizimlarining ijtimoiy genetik mexanizmlarini buzishga qaratilgan axborot urushlari fenomeni paydo bo‘ldi”[70].

Dezinformatsiyaga qarshi qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirish, yolg‘on axborot tarqatgan shaxslarni javobgarlikka tortish tizimini kuchaytirish va jamiyatni axborot manipulyatsiyalaridan himoya qilish choralari ko‘rilishi lozim. Oila ichida ochiq va konstruktiv muloqotni rivojlantirish, ota-onalar va farzandlar o‘rtasida axborot almashinuvining sog‘lom muhitini shakllantirish dezinformatsiyaning oilaviy qadriyatlarga ta’sirini kamaytirishga yordam beradi. Oilaviy munosabatlar va dezinformatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tadqiq qilish, psixologik himoya mexanizmlarini ishlab chiqish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi kommunikatsion yondashuvlarni ilgari surish zarurdir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 % bola zo‘ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 % bola millatchilik harakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishini aniqlagan. YUNISEF tomonidan o‘tkazilgan so‘rovlar internetdan foydalanadigan bolalarning 90 % axloqsiz surat va videolarga duch kelishi, 60 % esa bu turdagi axborotni maqsadli ravishda izlaganini ko‘rsatdi. Hatto o‘zimizning ba’zi yoshlarimiz uchun ham internet va qo‘l telefonlari axloqsizlik manbaiga aylanayotgani o‘ta tashvishlidir. Negaki, bunday g‘arazli ta’sir domiga tushib qolgan farzandlarimizda yaqinlari va qarindoshlarga nisbatan hurmat va muhabbat tuyg‘ulari susayib, egoizmga moyillik kuchayib bormoqda.”[71]

Oila institutini dezinformatsiya ta’siridan himoya qilish strategiyalari nafaqat axborot xavfsizligini ta’minlash, balki jamiyat barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasini talab qiladi. Media savodxonlikni

[69] Померанц Г. Страстнаya односторонност и бесстрастие духа – СПб.: Университетскаya книга, 1998. – Б. 617.

[70] Стоунер Т. Информатсионная революсия: наука, экономика, технология. М., 1993., -С.302.

[71] **Axborot asrida ta’lim-tarbiya - http://kaz.docdat.com 23 Fev 2016; Babajanov S.**Yoshlar ongini axborot xurujlari ta’siridan asrash. -http:// fikr.uz/ blog/ Urganch_davlat_Universiteti/eshlar-ongini-akhborot-khuruzhlari-tasiridan-asrash.html 5 avgust 2017.

oshirish, ishonchli axborot manbalarini targ‘ib qilish, huquqiy-meyoriy choralarni takomillashtirish hamda oilaviy kommunikatsiyani mustahkamlash orqali jamiyatning dezinformatsiyaga qarshi immuniteti shakllantirilishi mumkin. Axborot xurujlari sharoitida oilaning ichki mustahkamligini ta’minlash esa faqatgina individual tashabbuslar bilan cheklanib qolmay, balki institutsional darajada muvofiqlashtirilgan tizimli yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim. Shu boisdan, zamonaviy axborot muhitida oilani dezinformatsiya xavflaridan himoya qilishga qaratilgan konseptual yondashuvlar har tomonlama ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar bilan mustahkamlab borilishi lozim.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan tahdidlar ham murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, raqamli media muhitida yolg‘on ma’lumotlar, manipulyativ strategiyalar, ommaviy madaniyatning buzuvchi elementlari va geosiyosiy axborot xurujlari natijasida oila tushunchasining mohiyati transformatsiyaga uchramoqda. Bunday jarayonlar natijasida an’anaviy oilaviy qadriyatlarning emirilishi, oilaviy munosabatlarning zaiflashishi, ma’naviy buzilish, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi tafovutlarning chuqurlashishi yuzaga keladi. Dezinformatsiya bugungi kunda ijtimoiy manipulyatsiyaning eng samarali vositalaridan biriga aylangan bo‘lib, u orqali ijtimoiy guruhlar va institutlar ongiga ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy munosabatlarni deformatsiyalash, qarama-qarshiliklarni kuchaytirish kabi strategiyalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oilaviy hayotga oid noto‘g‘ri axborotlarning keng tarqalishi natijasida turmush munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvurlar manipulyatsiya qilinmoqda. Raqamli axborot muhitida turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik maydonlari va internet resurslari orqali oilaning an’anaviy mohiyatini zaiflashtirishga qaratilgan axborotlar uzatilishi global tendensiyaga aylangan. Bu jarayon ijtimoiy-madaniy muhitning tub mohiyatini o‘zgartirishga, insonlar orasida individualizm va utilitar qadriyatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Falsafiy yondashuvda oila institutini himoya qilish jarayoni faqat ma’lumotlarni inkor etish yoki rad etish bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, bu jarayon ijtimoiy ongni mustahkamlash, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatni axborot suverenitetiga ega qilish, insonlarning axloqiy immunitetini kuchaytirish kabi kompleks mexanizmlarni o‘z ichiga olishi kerak.

ISLOMDA AYOLLARNING O‘RNI VA AXLOQIY TARBIYA

Baymirov Muslim Saydullaevich
O‘zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti o‘qituvchisi

Islom dini insoniyatga mukammal axloqiy tamoyillarni olib kelgan din sifatida erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rnini, huquq va burchlarini aniq belgilab bergan. Islomda ayol nafaqat oila poydevorini barpo qiluvchi, balki jamiyatning ma’naviy ustuni hisoblanadi. Qur’on va Hadisda ayollarning hurmati, huquqlari va axloqiy yetukligi borasida ko‘plab oyat va rivoyatlar mavjud. Ushbu maqolada ayollarning islomdagi o‘rni va ularning axloqiy tarbiyasi haqidagi asosiy nuqtalar ilmiy-nazariy yondashuv asosida yoritiladi.

Islom dini kelgunga qadar jaholat davrida ayollar jamiyatda kamsitilgan, inson sifatida tan olinmagan. Islom esa bu adolatsizlikni yo‘qotib, ayolni erkak bilan teng huquqli shaxs sifatida e’tirof etdi. Qur’oni Karimda ayollar uchun alohida suralar – xususan, "An-Niso" surasi nozil qilinishi Islomning ayollarga bergan e’tiboridan dalolat beradi.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ayollarni doimo hurmat qilishga chaqirganlar. U zot: “Sizlardan eng yaxshilaringiz – ayollarga nisbatan eng yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir” (Tirmiziy) deganlar.[72] Bu hadis Islomda ayolning ijtimoiy, oilaviy hayotdagi o‘rni yuqori baholanishining yaqqol dalilidir.

Ayol oilaning tayanchi, bolalar tarbiyasining asosiy ustuni hisoblanadi. Islomda onalik maqomi juda yuksak turadi. Rasulullоh (s.a.v.) “Jannat onalarning oyog‘i ostidadir” deganlar. Bu hadisda ona siymosida ayolga bo‘lgan ehtirom ifodalangan. Jamiyatda ayollar o‘qituvchi, tabib, olima, tadbirkor va boshqa ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritishlari mumkin. Muqaddas shariat bunga ruxsat bergan, ammo bu holatda hijob, halol-mehnat, iffat, halollik kabi axloqiy-me’yorlar asosiy tamoyil sifatida belgilanadi.

Ayol axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishi jamiyat barqarorligi uchun muhim omildir. Axloqli ayol – halol, pokiza, sabrli, mehribon, andisha bilan ish tutadigan, hayosi baland, ibodatga sodiq bo‘lgan ayoldir. Islomiy axloq tarbiyasida Qur’on oyatlari va Hadislar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, Nur surasida: “Mo‘min

[72] Ash-Shayx as-Sayyid Muhammad Yusuf ibn as-Sayyid Muhammad Zakariyo al-Husayniy al-Hanafiy al-Banuriy. Maorif as-sunan sharh Sunan at-Termiziy. – Karachi: Iyj Iym Sa’id, 1993. – J. IV. – B. 254.

ayollar (ham) ko‘zlarini past tutsinlar, iffatlarini asrasinlar” (Nur: 31) degan oyat ayollarni axloqiy fazilatlarda yetuk bo‘lishga chaqiradi.

Shuningdek, hijob, hayo, tovush ohangi, erkaklar bilan munosabat madaniyati kabi jihatlar ham axloqiy tarbiyaning bir bo‘lagi sifatida ko‘riladi.

Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom ayollar haq-huquqlariga ham katta e’tibor berdi. Ayol eng munosib o‘rnini Islomdan topdi. Islomda ayolning haqlari quyidagicha ado etilishi lozim:

Ayollarga yaxshi muomalada bo‘lish, ularga nisbatan xushmuomala, shirinso‘z, muloyim munosabatda bo‘lish, nohaqlik va qo‘pollik qilmaslik kerak. Bu xususda Payg‘ambarimiz shunday marhamat qilganlar: «Mo‘minlarning eng to‘la ishonchlisi xushxulqlisidir. Sizlarning yaxshilaringiz ayollarga, zavjalariga sollallohu alayhi vasallamdek yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir». Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Ayollar xususida Allohdan qo‘rqingiz. Zero, siz ularni Allohdan omonat o‘laroq olgansiz», deganlar. Hadislarda kelishicha, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ayollarga va bolalarga duch kelganlarida, salom berardilar, ya’ni salom bilan muqobalada bo‘lgandilar.

Qur’oni karimning: «Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so‘ng (bu ta’sir qilmasa,) ularni yotoqlarida tark etingiz, so‘ngra (bu ham kor qilmasa,) ularni (majruh bo‘lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqa) yo‘l axtarmangizlar.«Albatta, Alloh juda oliy va ulug‘ Zotdir» («Niso», 34) oyatida aytilganidek, itoatsiz ayolni tarbiya va so‘nggi chora sifatida qattiq og‘ritmasdan urishga izn berilgan. Lekin Muhammad sollallohu alayhi vasallam o‘zlari ayollarini urmaganlar va xotin kishini urganlarga ham qarshi turganlar. «Ne bo‘ldi erkaklarga, xotinlarini qul kabi uradilar, holbuki, ayni kun so‘nggi (tun)da latiflashadilar», degan hadis ham so‘zimizning isbotidir. Shuningdek, ayollarga ham erlariga ozor bermaslik amr etilgan. Maoz ibn Jabal roziyallohu anhudan aytilganiga ko‘ra, Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar: «Qaysi bir ayol (mo‘min) eriga ozor berganda, u kishining hur jufti (bu ayolga): «Alloh sening joningni olsin, u kishiga ozor, aziyat berma. Chunki, shubhasiz, u sening yoningda mehmon-musofirdir, sendan ayrilib, tezda yonimizga keladi», deydi.[73]

Qur’oni karimda shunday marhamat qilinadi: «(Ey insonlar), bolalaringizni qashshoqlikdan qo‘rqib o‘ldirmangiz, ularga ham, sizlarga ham Biz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirish, shubhasiz, katta xatodir» («Al-Isro», 31). «O‘z bolalarini ilmsizlik qilib, johilona o‘ldirgan va Allohga tuhmat qilib, ular uchun Alloh rizq qilib bergan

[73] https://muslimaat.uz/maqola/67

(hayvonlar)ni haromga chiqarganlar, albatta, (o‘zlariga) ziyon qildilar. (Ular) haqiqatdan adashdilar va to‘g‘ri yo‘lga yuruvchi bo‘lmadilar» («An’om», 140). Islom huquqida, hatto urush vaqtida ayol va bolalarni o‘ldirish taqiqlangan. Hazrat Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: «Kimki ikkita qizni voyaga yetguncha boqsa, jannatga men bilan birga kiradi», deb o‘rta va ishora barmoqlarini yonma-yon qilib ko‘rsatdilar».[74]

Ayol va erkak musulmonlarga ilm o‘rganmoq farzi ayndir. Qur’oni karimda faqatgina ayollarning o‘ziga xos, fitratiga muvofiq kelgan Allohning xitoblaridan tashqari (masalan, avratlarini to‘sish, bola emizish, idda muddati, taloq to‘g‘risida va hokazo) qolgan barcha oyatlar Alloh taoloning bashariyatga, erkagu ayolga qilgan xitoblaridir. Ilm haqidagi chaqiriqlar ham shular jumlasidandir. Islomda iymondan keyingi farzi aynlardan biri ilm olishlikdir («farz» bajarilishi shart degan ma’noni ham anglatadi). Zero, Jabroil alayhissalomning Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga yetkazgan birinchi kalomi ham «O‘qi!» bo‘lgan. Alloh taolo bandasini tafakkur qilib, borliqqa qarab, tahlil bilan O‘zini tanishini xohlaydi. Ko‘r-ko‘rona, taqlidiy iymon keltirishlikni xush ko‘rmaydi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam «Ilmni Chinda bo‘lsa ham, borib, olinglar», deganlar. Vaholanki, o‘sha paytda Chin (Xitoy) butlar va butparastlar o‘lkasi bo‘lgan. Lekin ular bunday deyishga qo‘rqmadilar, chunki borliqda Allohning qudratini namoyon etib turguvchi son-sanoqsiz dalillarni aqli bilan taammul qilgan inson Uning vahdoniyatiga iymon keltirgach, Robbisiga shirk keltirmaydi, aksincha, Haq talabida bo‘ladi. Hozirda musulmonlar orasida ilm deganda, faqat diniy ilmlar tushuniladi. Bu – xato tushuncha. Islomda diniy, dunyoviy, degan gaplar bo‘lmagan. Ilm sohalarga bo‘lingan, xolos: fiqh, hadis, faroiz, tib, handasa, tarix, falakiyot ilmlari va hokazolardir. Musulmonlar Qur’on va sunnatga amal qilgan vaqtlarida ularning orasida ilmning barcha sohalarida dunyoga tanilgan allomalar yetishib chiqqan. Bunga o‘zimizning vatandoshlarimiz Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ulug‘bek, Zamaxshariy va boshqa ko‘plab olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

Ayollarning haqlari. Hazrat Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam aytganlar: «Ayollarning erkaklar zimmasidagi haqqi yaxshi taom va kiyim berishlaridir». Qur’oni karim deydi: «Robbingiz Uning O‘zigagina ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson) agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga «Uf...» dema va ularni jerkma! Ularga

[74] Ash-Shayx as-Sayyid Muhammad Yusuf ibn as-Sayyid Muhammad Zakariyo al-Husayniy al-Hanafiy al-Banuriy. Maorif as-sunan sharh Sunan at-Termiziy. – Karachi: Iyj Iym Sa’id, 1993. – J. IV. – B. 254.

(doimo) yoqimli so‘z ayt!» (Al-Isro, 23). Qur’onda marhamat qilingani kabi hazrati Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: «Eng ko‘p kimga yaxshilik ko‘rsatish kerak?, deb so‘ragan bir sahobiyga «Onangga», deya uch bor takrorlaganlaridan so‘ng,«Otangga», dedilar. Islomda ona yoki ayol haqqiga e’tibor shu qadarki, ona mushrik bo‘lsa-da, bu haqqini yo‘qotmagan bo‘ladi. Faqat ota-ona farzandiga yo er xotiniga Islomdan tashqari, ya’ni Islomga zid amr va talqinda bo‘lsalar, u holda ularga itoat qilinmaydi. Allohga isyon qiluvchilarga itoat etilmaydi. Bu hadisi sharifda ochiq aytilgandir:«Allohga isyon etgan kimsaga itoat etish yo‘qdir».

Islom ayollarning ilm egallashlari uchun qulayliklar ta’min etmoqda. Maqsad Islom jamiyatining foydali bir a’zosi, millati, vatani, davlatiga manfaat yetkazuvchi inson bo‘lib yetishish va yetishtirishdir. Islom ayolni jaholatdan kutqarib, yuksaltirdi, sharafladi. Jamiyat ayollarga hurmat bilan qaraydigan bo‘ldi, ayollarning iqtidorlari, qobiliyatlarini erkaklar tan oldilar. Urva bin Zubayr roziyallohu anhu hazrati Oisha roziyalohu anho haqlarida; «Hazrati Oisha Qur’on hukmlari, she’r va adabiyotni, arab tarixi va uning pog‘onalarini boshqa shaxslardan ko‘ra ko‘proq bilardi», deganlar. Hazrat Oisha roziyallohu anho din borasida bamisoli to‘lib-toshgan dengiz, hikmat va shariat ilmiga xazinabon edilar. Payg‘ambarimiz sollalohu alayhi vasallamning o‘sha paytda o‘z ilmi, fazli, taqvosi va dunyoqarashi bilan yuqori darajada bo‘lgan sahobai kiromlarga qarata: «Ey birodarlar, diningizning yarim ilmini Oishadan olinglar», degan hadisi shariflaridan ham bilsa bo‘ladi. Oisha roziyallohu anho fazlining yuqoriligi, ilmining to‘lib-toshganligiga Abu Muso roziyallohu anhudan keltirilgan ushbu rivoyat ham shohidlik beradi: «Bizlar Rasulullohning do‘stlariga bironta hadisning ma’nosini tushunish mushkul bo‘lib qolgudek bo‘lsa, darhol Oishaga murojaat etar va undan to‘la tushuncha olar edik».[75]

Ato ibn Raboh aytadiki: «Oisha odamlar orasida eng dono va fikri terani edi». Hishom ibn Urva o‘z otasidan rivoyat qilib aytadiki: «Fiqh ilmida, tib sohasida va she’r borasida Oishadan bilimliroq kishini ko‘rmadim».

[75] https://muslimaat.uz/maqola/67

ISLOMIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY APATIYANI OLDINI OLISH VA UNI BARTARAF ETISHDAGI O‘RNI

Tadjibayev Zoxidjon Xatamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Andijon viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i,
mustaqil izlanuvchi,
ztadjibayev@inbox.ru)

Hozirgi zamonda global muammolar, jumladan iqtisodiy inqirozlar, madaniy tanazzul va ma’naviy bo‘shliqlar jamiyatlarda ijtimoiy apatiya holatlarini kuchaytirmoqda. Ijtimoiy apatiya – bu jamiyat a’zolarining faolligi pasayishi, fuqarolik mas’uliyatidan chetlanishi, bee’tiborlik, ruhiy tushkunlik va umumiy befarqlik holatidir. Bu muammo nafaqat shaxs, balki jamiyat rivojiga ham jiddiy tahdid soladi. Global tendensiyalar shiddat bilan kechayotgan murakkab paytda apatiya yoki ijtimoiy apatiya tushunchasi nisbatan yangi, ammo har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotgan ilmiy masalalardan biridir. Ilmiy jamoatchilik orasida, ya’ni sotsiolog, psixolog, faylasuf va pedagoglar tomonidan fanning turli tarmoqlari doirasida keng muhokama mavzusiga aylanib ulgurdi. Buning asosiy sabablari “...hozirgi jamiyatda apatiya fenomenining tahlili nafaqat sotsiologik, psixologik, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy fan tarmoqlarida, balki iqtisodiy, siyosiy sohalar va ijtimoiy tuzulmadagi, diniy va siyosiy g‘oyalardagi inqirozli hodisalar bilan “apatiya” tushunchasining an’anaviy talqiniga nisbatan ancha kengroq va o‘zgacharoq talqin qilinishi bilan ham izohlanadi”[76].

Jahon falsafasi qomusi kitobida “Apatiya – (yunoncha apatheia – beparvolik) – insondagi emotsional passivlik, befarqlik, hissiy loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadi. Bunday holatda inson yon atrofdagi voqea-hodisalarga e’tiborsiz bo‘ladi, hech narasaga qiziqish bildirmaydi, uning jismoniy, ruhiy va ma’naviy faolligi pasayadi”[77], deb ta’rif berilgan. apatiya fenomeni XX asrga kelib jamiyatda salbiy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘la boshladi. Jumladan, u insonlardagi emotsional passivlik, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik, loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadigan buzg‘unchi tamoyilga aylandi. Natijada insonning jismoniy, ruhiy va ma’naviy faolligi pasayib, iqisodiy, siyosiy hamda ruhiy-ma’naviy befarqliklar oqibatida insonlar bilan ijtimoiy muomalalari sovuqlashib, xatto yaqinlari, oilasi, farzandlariga ham loqayd bo‘lib qoladi.

[76] Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B.24-25
[77] Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2023. – B. 91

Mazkur murakkab fenomen bo‘lgan apatiya jamiyatda ko‘plab ziddiyatli muammolarni keltirib chiqarishi bilan xarakterlanadi. Uni vujudga keltiruvchi sabablarini aniqlash, tahlil qilish va oqibatlarini tushunish, bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, kishilarda ijtimoiy apatiyaning oldini olish, barftaraf etishda islomiy axloq normalari, qadriyatlari va an’analarining o‘ziga xos o‘rni bor desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, islomiy axloq – insonni ma’naviy va ruhiy tomondan tarbiyalash, uning jamiyatda munosib o‘rin egallashini ta’minlovchi mustahkam asosdir. Bu esa Islom dinining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, u faqat ibodat va rituallar emas, balki insonlarning bir-biriga va jamiyatga munosabatini ham belgilaydi. U jamiyatda barqarorlik, hamjihatlik va adolatni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Quyida islomiy axloqning jamiyatda rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

1. Insonlararo munosabatlarni tartibga solish

Islom axloqi odamlar o‘rtasida mehr-oqibat, ehtirom, rostgo‘ylik, birodarlik, adolat va bag‘rikenglikni targ‘ib etadi. Qur’oni Karim va payg‘ambar alayhissalomning hadislarida ko‘p marta birodarlik va yaxshilikka chaqirish, zulm va yomonlikdan qaytarish haqida ta’kidlanadi. Xususan, Qur’oni Karimning Hujurot surasi 10-oyatida: “Albatta, mo‘minlar birodardirlar…”, deb musulmonlarning o‘zaro birodarligi haqida so‘z ketib ular xuddi tug‘ishgan aka-ukalardek ekanliklari ta’kidlangan.[78] Bu bilan iymon taqozosiga ko‘ra bo‘ladigan umumiy birodarlik nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘zaro xalqlar va jamoalar o‘rtasidagi birodarlik haqida ham Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam Madinaga kelganlarida Avs va Xazraj qabilalarini o‘zaro birodar qilib qo‘yganlari amaliy misol bo‘la oladi. Ular Islomga kirishlaridan avval bir-birlariga dushman edilar. Iymon, islom sabab ikki qabila bir-biriga birodar bo‘lishdi. Shuningdek, muxojirlar va ansoriylar o‘rtalaridagi birodarlikni xam misol qilishimiz mumkin.

2. Oila instituti va axloqiy tarbiya

Oila — islomiy jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Islom oilaviy munosabatlarda o‘zaro hurmat, mas’uliyat va sadoqatni muhim deb biladi. Ota-onalar bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga mas’ul bo‘lib, bu kelajak avlodning sog‘lom axloqiy tafakkurga ega bo‘lishiga asos bo‘ladi. “Sahihul Buxoriy”da Imom Buxoriy Abu Hurayra roziyallohu anhudan: “Bir kishi Rasulullоh sollalohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: “Ey Allohning Rasuli! Yaxshilik qilishimga eng haqli odam kim?” dedi. “Onang”, dedilar. “Keyin kim” dedi. “Onang”, dedilar. “Keyin kim”

[78] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 5-juz. – T.: “Hilol nashr”, 2022. – B. 551

dedi. “Onang”, dedilar. “Keyin kim” dedi. “Keyin otang”, dedilar[79] hadisini keltiradilar. Bu hadis musulmon insonlarga yaxshilik qilishni avval oila a’zolaridan boshlashni xususan, o‘z onasi va otasidan boshlashni, bu esa jamiyatda insonlar o‘rtasida iliq rishtalarning paydo bo‘lishiga, umumiy farovonlikka erishishga olib keladi.

3. Jamiyatda adolat va tinchlikni ta’minlash

Islom zulmni qattiq qoralaydi va har bir insonning haq-huquqi kafolatlanishi kerakligini ta’kidlaydi. Axloqiy qadriyatlar zulm, fasod, poraxo‘rlik va adolatsizlikka qarshi samarali vosita hisoblanadi. Islomda zolimlarga qarshi qattiq choralar ko‘riladi. Nabiy sollallohu alayhi va sallam izzat va buyuklik sohibi bo‘lgan Rabbisi Allohdan rivoyat qilgan hadisi qudsiyda Alloh taolo: “ey qullarim, Men zulmni O‘zimga harom qildim. Baski, sizlar ham bir-biringizga zulm qilmangiz!…”, degan (Ushbu so‘zlar Abu Zarr al-G‘iforiy raziyallohu anhudan rivoyat qilingan qudsiy hadisning bir qismi bo‘lib, uni imom Muslim o‘z “sahihi”da keltirgan).

Shuningdek, Imom Muslimning “Sahihi Muslim” kitobida 6398-hadisga ko‘ra Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: “Hasad qilmanglar, najsh qilmanglar, bir-biringizni yomon ko‘rmanglar, bir-biringizdan yuz o‘girmanglar. Hech biringiz biringizning savdosi ustiga savdo qilmasin. Birodar bo‘linglar, Allohning bandalari! Musulmon musulmonning birodaridir – unga zulm qilmaydi, uni yordamsiz qoldirmaydi, uni tahqirlamaydi. – So‘ng u zot ko‘kslariga ishora qilib, uch marta “Taqvo mana bu yerdadir”, dedilar. – Musulmon birodarini haqir sanash kishining yomonligiga kifoya qiladi. Musulmonning hamma narsasi – qoni, moli va sha’ni musulmonga haromdir”[80].

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisga ko‘ra: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam*: “Zulmdan qo‘rqinglar! Chunki zulm qiyomat kunining zulmatlaridir. O‘ta baxillikdan qo‘rqinglar! Chukni o‘ta baxillik sizdan oldingilarni halok qilgan. U ularni qonlarini to‘kishga va harom qilingan narsalarini halol sanashga olib borgan*”, dedilar”**.**

4. Ijtimoiy mas’uliyat va hamjihatlik

Islomiy axloq odamlarni nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy mas’uliyatga ham da’vat etadi. Zakot, sadaqa va boshqa xayriya ishlari jamiyatda kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatishga xizmat qiladi.

[79] Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 2-kitob. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. - B. 516

[80] Abu Muslim. Sahihi Muslim. 6-juz. – T.: “Hilol nashr”, 2020. – B. 24

Islom dini va uning muqaddas manbasi Qur’oni Karimda inson zotini e’zozlash asosiy vazifalardan biri sifatida qo‘yilgan. Binobarin, inson zoti islom falsafasida yer yuzidagi eng qadrli mavjudotdir. Shundan kelib chiqib, inson zotining bir-birini qadrlashi haqidagi majburiyat har bir musulmonning yelkasiga yuklangandir. Bu majburiyatlar bir necha guruhga ajraladi: ayollarni e’zozlash, katta yoshdagilarni hurmatlash va kichik yoshdagilarni izzatlash, nochor, nogiron, kambag‘al va yetimlarga ko‘maklashish hamda boshqa majburiyatlar. Anas (r.a)dan rivoyat qilinadi: “Nabiy (s.a.v): “Qay bir yosh keksani yoshi uchun ikrom qilsa, Alloh unga ham qarilik chog‘ida yoshi uchun ikrom qiladigan kishini muhayyo qiladi”, dedilar”. (Termiziy rivoyat qilgan).

Shuningdek, Islom dinida ma’naviy-ruhiy ibodatlar bilan bir qatorda moliyaviy ibodatlar ham mavjud bo‘lib, ular orqali insonning moddiy tomonlama poklanishi va Alloh taoloning roziligiga erishishi maqsad qilingan. Bular zakot, ushr, fitr, mahr, sadaqa kabi moliyaviy ibodatlar va majburiy to‘lovlar kishik jamiyatda kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni yumshatishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Islomiy axloq faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi. Islom insonni faqat moddiy dunyoga emas, balki ma’naviy kamolga erishishga ham undaydi. Bu esa odamlarni hayotdan ma’no izlashga, umidsizlikka tushmaslikka va ijtimoiy faollikni saqlab qolishga yordam beradi. Shu bilan birga axloqiy tarbiya insonni halollikka, vijdonan ishlashga va har qanday yomon illatlardan (pora, firib, zo‘ravonlik) uzoqlashishga undaydi. Bu jamiyatda shaffoflik va ishonch muhitini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, islomiy axloqiy qadriyatlar – ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi kuchli ma’naviy mexanizmdir. Ular ijtimoiy apatiyaning kelib chiqish sabablarini yo‘qotishda, fuqarolik faolligini rag‘batlantirishda va jamiyatda ma’naviy muhitni yaxshilashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

ISLOMDA AXLOQIY QADRIYATLAR

O‘tkir G‘uzarov,
“Xoja Buxoriy” islom ta’lim muassasasi mudiri
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Insoniyat jamiyati qadim zamonlardan buyon axloqiy qadriyatlar asosida taraqqiy etib kelmoqda. Axloqiy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy asosi, shaxsning kamoloti va ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, Islom dini o‘zining paydo bo‘lgan ilk davrlaridanoq insonning ichki pokligi, halolligi, adolatliligi, sabr-toqati, rahm-shafqatli bo‘lishi kabi fazilatlarni alohida qadrlagan va ularga jiddiy ahamiyat bergan. Islomda axloq, nafaqat shaxsiy sifatlar jamlanmasi, balki Allohga yaqinlashish, jamiyatda totuvlikni mustahkamlash va umumbashariy qadriyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Islomiy axloqiy qadriyatlarning asosiy manbalari Qur’oni karim va Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflaridir. Qur’on axloqiy fazilatlarni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Unda halollik, adolat, vafodorlik, rostgo‘ylik, sabr-toqat kabi xislatlar ko‘plab oyatlar orqali ta’kidlangan. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotlari esa bu oyatlarning amaliy ko‘rinishidir. U zotning axloqlari haqida Oisha onamiz roziyallohu anho: “Payg‘ambarimizning axloqlari Qur’on edi”, deganlar[81].

Bugungi globallashuv, ma'naviy inqiroz va g‘arbona madaniyatning kuchli ta’siri ostida axloqiy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuchayib borayotgan bir paytda, Islom axloqiy tamoyillarini o‘rganish va targ‘ib etish yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki bu qadriyatlar nafaqat musulmon jamiyatlar, balki butun insoniyat uchun foydali va abadiy ma'naviy mezonlardir.

Islom dini inson hayotining har bir jabhasini qamrab olgan mukammal hayot tarzini taklif etadi. Bu hayot tarzi nafaqat ibodatlar va dini marosimlarni, balki axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Axloqiy qadriyatlar Islomda muhim o'rin tutadi, chunki ular jamiyatning sog'lom rivojlanishi va insonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday marhamat qiladi:

“Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!

[81] Muslim ibn Hajjaj. *Sahih Muslim*. – Qohira: Dar al-Hadith, 2001. – J. I. – B. 512.

Bu oyati karima Payg‘ambar alayhissalom uchun katta bahodir. Avvalo o‘tgan oyatda Alloh taolo u zotga «Robbing» deb O‘z ismi sharifiga qo‘shib xitob qilgan edi. Endi esa u zotning xulqlarini ulug‘lik bilan sifatlamoqda[82].

Bu oyatning mazmuniga qaralsa, Qur’onga iymon keltirgan har bir odam Payg‘ambarimizning daraja va martabalari Alloh oldida qanday ulug‘ ekaniga yaxshi tushunadi. Allohning bandalariga bergan ne’matlari ichida eng ulug‘i aqldir. Bu ulug‘ ne’matni Alloh yaratganicha Rasulullоh (s.a.v)ga berib, shu aql ne’mati orqali butun fazli kamolga ega bo‘lib, ikki dunyo davlatiga ummatlarini erishtirishga yo‘l ko‘rsatdilar. Xoh diniy, xoh dunyoviy har bir ishda kishilarning o‘zlariga qarab, aqliga yarasha muomala qilar edilar. Alloh taolo xalqni ichki va tashqi sifatlarini qoldirmay Rasulullоh (s.a.v)ga bildirgan edi. Shunga ko‘ra ularga tarbiya berar edilar, chunki bandalarning Alloh dargohiga loyiq bo‘lishlari uchun shaytoniy sifatlardan ularni pok qilib, hayvoniy sifatlarini isloh qilish lozimdir.

Oisha onamizdan u zotning xulqlari haqida so‘rashganda «Xulqlari Qur’on edi», deb javob berganlar. Ya’ni Muhammad alayhissalom Qur’ondagi oliy xulqlar bilan xulqlanganlar. Ul zot sollallohu alayhi vasallam Qur’ondagi barcha yaxshi odob-axloqni o‘zlariga singdirganlar.

Payg‘ambarimiz alayhissalomning o‘zlari «Men yaxshi xulqlarni batamom qilish uchun yuborilganman[83]», deganlar.

Boshqa bir hadislarida esa: «Kishi yaxshi xulqi bilan kunduzni ro‘za tutib, kechasini namoz o‘qib o‘tkazadiganlar darajasiga etadi[84]», deganlar.

Kunduzlarni ro‘za tutib, kechalarni tik turib namoz o‘qigan holida bedor o‘tkazadigan odam qanchalar oliy darajalarga erishishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Farz-u vojib amallardan keyin qilinadigan eng yaxshi amallar ana shundoq bo‘ladi. Xuddi shuningdek, o‘ziga farz-u vojib bo‘lgan amallarni bajarib turib, yana nafl amallar bilan ortiqcha savob topaman degan odam husni xulq bilan ham yuqori darajalarga erishmog‘i mumkin ekan.

Umuman, axloqiy qadriyatlar bunga o‘xshash ulkan savoblar bilan birga, ko‘pgina yaxshiliklarga ham erishtirishi turgan gap. Axloqli odamni hamma yaxshi ko‘radi va hurmat qiladi. Undan hamma mamnun bo‘ladi. Axloqli kishi o‘zi yashab turgan jamiyatning ko‘rki bo‘ladi. Axloq «xulq» so‘zining ko‘pligi bo‘lib, insonda shakllanadigan xulq-atvorni bildiradi[85].

---

[82] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tafsiri Hilol*. – Toshkent: Hilol nashriyoti, 2016. – J. I. – 225-226 B.

[83] Imom Malik. *Al-Muvatto*. – Qohira: Dar Ihyo at-Turath al-‘Arabi, 2004. – Kitob al-Husn al-Khuluq, Hadis №8.

[84] Abu Dovud. *Sunan*. – Kitab al-Adab, hadis: 4798; Imom Ahmad ibn Hanbal. *Musnad*, hadis: 23391

[85] Ibn Manzur. *Lisān al-ʿArab*. – Qohira: Dor al-Ma’rifa, 1990. – J. 10. – B. 96.

Ba’zi ulamolar axloqni «irodaning odati» deb ta’rif qilganlar. Ya’ni, iroda o‘ziga bir narsani odat qilib olsa, o‘sha axloqqa aylangan bo‘ladi. Misol uchun, kishining irodasi xayr-ehson qilishga azmu qarorli bo‘lib qolsa, o‘sha «karamli xulq» deyiladi.

Islom diynida axloqiy tarbiya diyniy tarbiyaning ajralmas qismi, desak, mubolag‘a qilmaymiz. Zero, din yaxshi deb xisoblagan va da’vat etgan narsalar ezgulik, yomon deb xisoblagan va man etgan narsalar yovuzlikdir. Shuningdek, diyn buyurgan, hayotda va muomalada kasb etishga targ‘ib etgan axloq va faziylatlar Islom jamiyatida qadriyat, chiroyli xulq va ma’naviy faziylatlar hisoblanadi.

Qadimdan axloq ilmi ulamolari «Odamdagi axloqlar uning yaratilishida qo‘shib yaratilgan bo‘ladimi yoki kishi axloqni keyin o‘rganadimi?» degan savolga javob berishda ixtilof qilishgan.

Ulardan ba’zilari: «Yaxshi va yomon axloq inson yaratilgan chog‘ida qo‘shib yaratiladi, axloqni keyin kasb qilib bo‘lmaydi», deganlar.

Boshqa bir guruh ulamolar: «Inson tug‘ilganda hech qanday faziylat yoki raziylatsiz tug‘iladi, unda qanday xislat bo‘lsa, tug‘ilganidan keyin paydo bo‘ladi», deganlar.

Axloq ilmi ulamolari esa: «Ota-onasida mavjud bo‘lgan ba’zi axloqlar xamirturushi insonga onasining qornidalik paytidayoq o‘tadi. Alloh bandani xalq qilish chog‘ida axloq qobiliyatini ham qo‘shib yaratadi. Inson o‘sishi jarayonida tarbiya, muxit va odatlanish oqibatida u yoki bu axloqni o‘zida rivojlantiradi yoki yo‘qotib yuboradi», deydilar. Shuning uchun ham, Islomda xulqli sayqallashga alohida e’tibor beriladi. Bu ish har bir musulmon uchun lozim va lobud ishlardan biri darajasiga ko‘tariladi.

Islom dini inson hayotining barcha jabhalarini o‘z ichiga oluvchi mukammal yo‘l-yo‘riqdir. Unda axloqiy qadriyatlar alohida o‘rin tutadi. Islom axloqni iymon bilan bog‘laydi, ya’ni chinakam musulmon faqat ibodat bilan emas, balki go‘zal xulqi bilan ham mukammallikka erishadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) axloqning eng oliy namunasi bo‘lib, u zotning hayoti orqali insoniyat ezgulik, sabr, kechirim, halollik, sadoqat va kamtarlik kabi sifatlarni qanday amalga oshirish mumkinligini o‘rganadi.

Islom axloqni tabiiy va o‘rgatiladigan sifat sifatida talqin qiladi. Inson ba’zi xulqiy moyilliklar bilan tug‘ilsa-da, ularni tarbiya, muhit va shaxsiy sa’y-harakatlar orqali shakllantirishi yoki o‘zgartirishi mumkin. Bu esa axloqiy kamolot har bir kishining o‘z qo‘lida ekanligini bildiradi. Musulmon kishining axloqiy darajasi faqat shaxsiy najot emas, balki jamiyatdagi totuvlik, adolat va taraqqiyotning ham

omilidir. Axloqli jamiyat — bu Qur’on va Sunnatga amal qiluvchi, boshqalarga yaxshilik qiluvchi, mo‘minlarga mehribon bo‘lgan jamiyatdir.

Zamonaviy dunyoda moddiy taraqqiyotga intilish kuchayib borayotgan bir paytda, axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Islom esa bu ehtiyojga eng to‘g‘ri va mukammal javobni beradi. Shu bois har bir musulmon o‘z xulqini Qur’on va sunnat mezonlari asosida baholab, unga mos ravishda yashashi lozim. Zero, eng go‘zal musulmon — eng go‘zal axloq egasidir.

RADIKALIZM – TARAQQIYOT KUSHANDASI

Mahmudov O‘tkir Fazliddinovich
Xoja Buxoriy o‘rta maxsus
islom ta’lim muassasasi
o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosar

Jamiyatda shunday illatlar borki, ular vaqtida bartaraf qilinmasa, oldi olinmasa, barcha birdek o‘sha illatlarga qarshi kurash olib bormasa, mazkur illalar o‘sha jamiyatning tanazzuliga olib keladi. Anashunday xatarli illatlardan biri – radikalizmdir. Radikalizm (lotincha *radix* – ildiz) – siyosiy tuzum va ijtimoiy institutlarni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan g‘oya va harakatlarni ifodalovchi siyosiy, diniy oqimdir. Radikalizm umume’tirof etilgan an’analarga butunlay zid munosabatda bo‘lib, keskin harakatlarni yoqlab chiqadi. Tarixda bu atama mo‘tadil islohotlar tarafdorlariga nisbatan ham qo‘llangan. Masalan, Buyuk Britaniyada (1832) «Islohotlar to‘g‘risidagi Bill»ning muxoliflariga nisbatan radikalizm atamasi qo‘llangan. Keyinroq esa utilitarizm asoschilaridan I.Bentam va uning izdoshlari «falsafiy radikallar» deb ataldi.

O‘rta asrlar so‘nggi va yangi davr boshida radikalizm demokratiya shiorlari bilan chiqdi. Uning tarafdorlari (Lokk, Russo va boshqa) notabiiy ijtimoiy munosabatlar va sharoitlarni radikal tarzda oqilona tartiblar bilan almashtirish g‘oyasini ilgari surdi. Anarxistlar esa jamiyatdagi huquqni himoya qiluvchi idoralarning ortiqchaligi, inson erkini tubdan kengaytirish lozimligini yoqlab chiqdi. Ularning g‘oyaviy rahnamosi U.Godvin inson aql-zakovat va erkinlik ramzidir, shuning uchun uning erkini cheklash kerak emas, degan g‘oyani ilgari surdi. Hozirgi davr radikalizmga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri ijtimoiy hayotning ham nazariy, ham amaliy muammolarini hal qilishda zo‘rlik usulidan foydalanishga moyillikdir. Tinch yo‘l bilan hal qilish mumkin bo‘lgan oddiy muammolarni yechishda ular kuch, zo‘ravonlikdan foydalanishga intiladi. Tarixning burilish nuqtalarida, tanglik yuz bergan holatlarda radikalizm avj oladi.

Hozirgi radikalizm ekstremizmning nazariy manbai bo‘lib, ijtimoiy muammolarni hal qilishda zo‘rlik usullari va vositalaridan foydalanmoqda. Hozirgi paytda radikal kayfiyatlar va qarashlar aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar orasida, lyumpenlashuv kuchaygan mamlakatlarda ko‘proq kuzatilmoqda. XX asrda yuz bergan ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli aqliy mehnat vakillari miqdorining keskin oshishi har doim ham ularning moddiy turmush darajasining ko‘tarilishi va ijtimoiy mavqeining ortishi bilan birga kechmaydi. Ayniqsa, ijtimoiy inqiroz va tanglik davrlarida ziyolilarning lyumpenlashuvi kuchayadi. Bu esa ular orasida radikal kayfiyatning avj olishiga sabab bo‘ladi. Tarixiy taraqqiyot shundan guvohlik beradiki, radikallar hokimiyat tepasiga kelgan taqdirda ham ularning hukmronligi uzoq davom etmaydi.

Bu oqimlar ba’zi mamlakatlarda fuqarolar urushini keltirib chiqardi. Uning ko‘pchiligida siyosiy radikalizm diniy niqob ostida namoyon bo‘ldi. Ular islom davlati qurish, xalifalikni qayta tiklash shiorlari bilan chiqib, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivojini to‘xtatishga, bu jarayonni ortga – o‘rta asrlarga qaytarishga intilayotgani o‘ta xatarlidir. Diniy aqidaparastlik ham radikalizmning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Diniy radikalizmning mazmun-mohiyati radikalizmning boshqa ko‘rinishlari kabi o‘ziga mos kelmaydigan boshqa har qanday oqim va qarashlarga nisbatan murosasizlikda, jamiyat taraqqiyotiga zid, g‘ayriinsoniy g‘oya va qarashlarni ilgari surishda namoyon bo‘ladi. Radikalizmga qarshi kurashish — bu jamiyat xavfsizligi, barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashga qaratilgan murakkab va ko‘p qirrali jarayon. Ilmiy nuqtai nazardan, radikalizmga qarshi kurash siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va madaniy yondoshuvlarni talab etadi.

Umuman olganda radikalizm — bu mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga qarshi qaratilgan, tub o‘zgarishlarni talab qiluvchi g‘oyalar, harakatlar va ularning ifodasi sifatida talqin etiladi. Bu g‘oyalar ba’zan zo‘ravonlik (ekstremizm, terrorizm) orqali amalga oshirilishga harakat qilinadi. Hozirgi kunda radikalizm insoniyat tinchligi va barqarorligiga tahdid solayotgan global muammolardan biriga aylandi. Ushbu tahdidlar nafaqat terrorchilik harakatlari orqali, balki aholi ongiga singib borishi mumkin bo‘lgan ideologik ta’sirlar orqali ham namoyon bo‘lmoqda. Shunday ekan, radikalizmga qarshi kurash faqat harbiy yoki huquqiy choralar bilan cheklanmasligi, balki ilmiy, ma’rifiy va ijtimoiy yondashuvlar orqali ham amalga oshirilishi zarur.

Radikalizm — bu mutaassiblikning bir ko‘rinishi, radikalizm dunyoviylikni, demokratiyani, insonhuquqlarini, tolerantlikni, madaniyat xilma-xilligini rad etadi. Radikal tuyg‘ular kishini keskin amallarga yetaklaydi. Radikal, ekstremistik gaplarni aytishiga, yozishiga va keskin harakatlarni qilishiga olib

keladi. Radikallashish, bu – ma’lum narsaga ko‘p e’tibor qaratib yuborib, qolgan narsalarni unutib qo‘yish bilan bo‘ladi. Bularni kamsonli odamlar qiladi, lekin zararni esa butun millat ko‘radi. Shunday ekan, bu illatga barcha birdek qarshi kurashmoq zarur.

Radikal jamoa rahbarlari o‘z a’zosini o‘zligidan mahrum qilishning eng kuchli psixologik usuli – bu ulardagi jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik hissini yo‘qotishdir. Soddaroq qilib aytganda, oddiy odamlar, peshvoning buyrug‘iga bo‘ysunib, dahshatli qilmishlarni amalga oshirishlari mumkin. Radikal oqim tarafdorlari o‘z oldiga qo‘ygan g‘arazli maqsadi yo‘lida hech narsadan tap tortmaydi. Yer yuzidagi mavjud davlatlarning tinchligi, davlat sifatidagi maqomi, milliy qadriyati, tili, dini, asriy an’analarining sizdan chiqishi, yemirilishi uchun yovuz harakatini olib boradi. Buning natijasida butun bir xalqning milliy ma’naviyati va madaniyati darz ketadi.

Radikalizmga qarshi kurash — bu davlat va jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oladigan, ko‘p bosqichli va ilmiy yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Faqat zo‘ravonlikka qarshi zo‘ravonlik bilan javob berish emas, balki insonni anglash, unga bilim, ma’naviyat va imkoniyat berish orqali haqiqiy muvaffaqiyatga erishish mumkin. Ilm, ma’rifat, adolat va ijtimoiy birdamlik — radikalizmga qarshi samarali qalqondir.

Radikalizmning shakllanishiga bir qancha omillar sabab bo‘ladi. Jumladan, bolalikdagi tarbiya, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, keskin vaziyatlarda xulq-atvorning vayron qiluvchi, yemiruvchi va o‘ziga qaratilgan strategiyasi va shaxsning aqlan va ma’nan buzilishi. Psixologlarning ta’kidlashicha, yoshlardagi tajribasizlik va hissiyotga tayangan holda ish yuritishi, tashqi ta’sir natijasida ruhiy holatining o‘zgaruvchanligi, ruhiy tushkunlikka tez tushishi va ruhiy zarbalarga chidamsizligi, yaqinlari e’tiboridan butunlay chetda qolishi, o‘ta qiziquvchanlik hamda axborotlarni to‘laqonli tahlil qilmaslik, ishonuvchanlik kabi qator omillar radikallashuv jarayoniga xizmat qilishi mumkin ekan.

Binobarin, radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan yoshlar o‘z oila a’zolari, yaqinlari, mahalla, ko‘cha-ko‘ydagi tengdoshlarini ham mutaassib shaxsga aylantiradi. Shuningdek, yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo‘lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo‘lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma’naviy-ruhiy omillarni ham alohida ajratib ko‘rsatish lozim.

Bundan tashqari, yoshlarning radikalizm ta’siriga tushib qolishi oiladagi moddiy qiyinchilik va yetishmovchilik, ishsizlik, kam ta’minlanganlik, alamzadalik, siyosatdan nororzilik kabi qator ijtimoiy holatlar bilan ham bog‘lanadi.

Radikalizm g‘oyasidan qaytarish maxsus dasturiy ishlar asosida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Bundan dasturlarning asosiy tarkibiy qismlariga radikal g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar bilan kommunikativ harakatlar, suhbatlar, diniy munozara va ko‘rsatmalar, tajovuzkor xatti-harakatlarning sababi deb qaralgan masalalar bo‘yicha o‘zaro suhbatlar, psixolog va boshqa mutaxassislarning tavsiya va ko‘rsatmalari kiradi. Bu umumjamiyatning illati bo‘lgan radikallashuvga qarshi kurashdagi eng samarali yo‘l;

- ✓ mutaassiblashgan shaxsning asosiy ilgari surayotgan mafkurasini bilish va uninga qarshi ilmiy – ma’rifiy choralar qo‘llash;
- ✓ mutaassib g‘oyalarga ergashgan shaxsning diniy motivlarini tushunish;
- ✓ ekstremistik aqidalarni aniqlash va radikalizm ko‘rsatkichlarini aniq belgilab olish;
- ✓ ma’naviy-ma’rifiy muloqotni yo‘lga qo‘yish;
- ✓ ta’lim o‘quv dasturlarida umuminsoniy tuyg‘ular hamda ma’rifatparvarlik faoliyatiga taalluqli dars soatlarini ko‘paytirish;
- ✓ yoshlarning tarixni o‘rganish bo‘yicha dasturni qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ yoshlar bilan muloqot qila oladigan psixologik yordamlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega mutaxassislarni jalb etish;
- ✓ yoshlar orasida doimiy ravishda buzg‘unchilik mafkurasi va xatti-harakatlarini qonunga xilof ekanligini tushuntirish va ularning salbiy oqibatlari haqida tushuntirishlar olib borish;
- ✓ mutassiblarni qayta ijtimoiylashtirishda ularning oilasiga yordam berish;

diniy sohada obro‘li va malakali mutaxassislarni jalb etgan holda yoshlar va ayollar bilan diniy masalada ochiq muloqotlarni tashkil etish hamda diniy qadriyatlar O‘zbekiston xalqining madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari, odob-axloqining shakllanishiga hamda ularning avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishiga xizmat qilib kelayotganligini aslo unutmaslik lozimligini uqtirish.

Shuningdek, mutaxassislar davlatning huquqiy, ma’muriy jarayonlardagi izchil islohotlarni muntazam olib borishini ham mutaassib shaxslarning radikalizm g‘oyasidan qaytarishning qo‘shimcha shartlari sifatida e’tirof qiladilar. Bunda radikalizmni oldini olish borasida kuchli davlat hokimiyati sharoitida dasturlarini ishlab chiqish va muvaffaqiyatli amalga oshirish talab etiladi. Sababi, ijtimoiy holati

beqaror va kuchsiz davlatlar diniy radikalizm o‘chog‘iga aylanish tahdidi yuqori bo‘ladi.

Davlat siyosatida barcha millatlarga bir xil munosabatda bo‘lishi lozim. Agar mamlakatda qandaydir bir alohida g‘oya, ayniqsa, diniy va milliy omillardagi mafkura ustun bo‘lsa, radikallashuvning kuchayishiga olib keladi va tashqi muhitda ham reablitatsiya faoliyatini susaytiradi.

Shuningdek, aholiga va dindorlarga nisbatan tashqi kuchlar tomondan amalga oshirilayotgan diniy, siyosiy ta’sirlarni cheklash hamda islomofobiyani oldini olish talab etiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini muntazam o‘rganib borish va respublikaning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda ushbu tajribadan foydalanish ham radikallashuvning oldini olish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Radikal qarashlar avvalida jamiyat yetarlicha va o‘z vaqtida qarshilik qilishi zarur. Oldi olinmasa, tomir otib ulkan fojialarga olib boradi. G‘oyalar chegara bilmay ekstremizm sari yo‘l oladi. Ana shunday vaziyat bo‘lmasligi uchun barcha birdek hushyor, kuzatuvchi bo‘lishi kerak. Chunki, ona zamin bizniki, tinch, ozod, obod Vatan kelajak avlodniki.

Hushyorlik-davr talabi.

MA’NAVIY KOMILLIK – ISLOMDA

Jiyanov Ulug’bek Nasriddinovich
Mir Arab oliy madrasasi o’qituvchisi,
Buxoro shahri

Bismillahir rohmanir rohiym

Islom dini insonning tashqi amallari bilan bir qatorda ichki dunyosi, qalb va ruh pokligiga ham alohida e’tibor qaratadi. Muqaddas dinimizda ma’naviy komillik tushunchasi Qur’oni karim va Hadis asosida shakllanib, insonning ichki va tashqi olamini uyg‘unlashtiruvchi tazkiya (poklash), ihsan (yaxshilik bilan amal qilish) va taqvo (Allohdan qo‘rqish va unga itoat qilish) kabi tushunchalar orqali izohlanadi. Ma’naviy komillikka erishish har bir musulmonning asosiy vazifasi va hayotiy maqsadi bo‘lib, insonning dunyo va oxiratdagi saodatiga zamin yaratadi.

Tazkiya arab tilida “poklash”, “tozalash” degan ma’noni bildiradi. Alloh taolo Qur’oni karimda shunday marhamat qiladi:

وَنَفْسٍ وَمَا سَوَّىٰهَا (٧) فَأَلْهَمَهَا فُجُورَهَا وَتَقْوَىٰهَا (٨) قَدْ أَفْلَحَ مَن زَكَّىٰهَا (٩) وَقَدْ خَابَ مَن دَسَّىٰهَا

“Nafsga va Uni puxta yaratganga, so‘ng unga buzuqligi va taqvosini ilhom qilgan Zotga qasamki, albatta, kim uni poklasa, najot topdi. Kim uni yomonlikka yo‘llasa, ziyon ko‘rdi.” (Shams surasi 7–10)

Ko’rib turganimizdek ushbu oyatda Alloh taolo insonning najotini uning qalb va nafsini poklash bilan bog‘laydi. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam qalb inson jasadidagi eng muhim a’zo ekanligini ta’kidlab, uning sog‘ligi butun insonning xatti-harakati to‘g‘ri bo‘lishiga sabab ekanini aytganlar. Shunday ekan, inson qalbini hasad, kibr, riyo kabi illatlardan poklamog‘i zarur. Buning uchun tavba va istig‘for muhim vosita hisoblanadi. Imom G‘azzoliy nafsni poklash usullarini o‘zining “Ihyou ’ulumid-din” asarida keng bayon qilgan. Unga ko‘ra, qalbni poklash – bu ma’naviy jihod bo‘lib, inson o‘z nafsini kibr, hasad, riyo, hirs kabi kasalliklardan xalos qilishi kerak. U qalbni toza oynaga o‘xshatadi va shunday deydi:

“إعلم أن القلب بمنزلة المرآة الصافية، إذا صدئت بالذنوب والمعاصي لم تنعكس فيه أنوار الغيب، ولا تنجلي فيه حقائق الأمور”.

“Bilki, qalb toza oynaga o‘xshaydi. Agar u gunohlar va osiyliklar bilan zanglasa, g‘ayb nurlari unga aks etmaydi va haqiqatlar unda yaqqol ko‘rinmaydi”.

Ihsan – har bir amalni go‘zal va xolis niyat bilan bajarishdir. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam Jabroil hadisida ihsan tushunchasini quyidagicha ta’riflaganlar:

«أَنْ تَعْبُدَ اللَّهَ كَأَنَّكَ تَرَاهُ، فإن لَمْ تَكُنْ تَرَاهُ فإنَّهُ يَرَاكَ».

Ma’nosi: “Ehson - Allohga xuddi Uni ko‘rib turgandek ibodat qilishingdir. Agar sen Uni ko‘rmasang ham, U seni ko‘rib turibdi.” *(Imom Muslim, “Sahih Muslim”, Kitob al-Imon, 1/37, hadis raqami: 8)*

Ihsan nafaqat ibodatda, balki odob-axloq va kundalik muomalada ham ifodalanadi. Qur’onda ehson qiluvchilar haqida Alloh ular bilan birgaligi ta’kidlanadi:

إِنَّ ٱللَّهَ مَعَ ٱلَّذِينَ ٱتَّقَواْ وَّٱلَّذِينَ هُم مُّحْسِنُونَ

“Albatta, Alloh taqvodorlar va ehson qiluvchilar bilan birgadir.” (*Nahl 128)*

Ihsan darajasiga Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga amal qilish orqali erishiladi. Tasavvufda ihsan tushunchasi insonning eng yuksak ma’naviy holati sifatida ko‘rilib, inson va Alloh munosabatlarining mukammal shaklini ifodalaydi.

Taqvo – insonning Allohdan qo‘rqishi va unga itoat etishidir. Qur’onda taqvo tushunchasi ko‘p marta zikr etilgan bo‘lib, uning egalariga dunyo va oxiratda ko‘p ne’matlar va’da qilingan. Alloh taolo shunday deydi:

وَمَن يَتَّقِ ٱللَّهَ يَجْعَل لَّهُۥ مَخْرَجًا • وَيَرْزُقْهُ مِنْ حَيْثُ لَا يَحْتَسِبُ ۚ وَمَن يَتَوَكَّلْ عَلَى ٱللَّهِ فَهُوَ حَسْبُهُۥ

“Kim Allohdan qo‘rqsa (taqvodor bo‘lsa), U (Alloh) unga bir chiqish yo‘li ato qiladi va uni o‘zi kutmagan joydan rizqlantiradi. Kim Allohga tavakkul qilsa, bas, U zot unga kifoyadir.” *(Taloq 2–3)*

Taqvo insonni gunohlardan saqlaydi, qalbini pok tutadi va amallarini ixlosli qiladi. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam taqvo haqida shunday deganlar:

«(**التقوى هاهنا** وأشار إلى صدره ثلاث مرات»

“Taqvo mana bu erda” – deya ko‘kslariga uch marta ishora qilganlar. *(Imom Muslim, “Sahih Muslim”, Kitob al-Birr wa-s-Silah, hadis raqami: 2564)*

Taqvo insonni dunyo va oxiratda baxtli qiladi va Allohning muhabbatiga sazovor qiladi. Hazrat Ali roziyallohu anhu taqvoni insonning asosiy fazilatlaridan biri sifatida ta’riflaganlar.

Islomda ma’naviy kamolotga etish uchun ixlos (samimiyat), sabr (chidamlilik), shukr (minnatdorlik), tavakkul (Allohga suyanish), halollik, odillik, hayo (uyat) va rahm-shafqat kabi fazilatlar ham katta ahamiyatga ega. Ixlos bu - qilingan amal faqat Alloh uchun bo‘lishidir. Sabr va shukr inson hayotidagi sinovlar va ne’matlarga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Tavakkul esa Allohga suyanib, unga ishonishni ifodalaydi. Halollik va odillik insonning qalbini poklaydi, hayo insonni gunohlardan saqlaydi, rahm-shafqat esa qalbni qattiqlikdan saqlaydi. Ammo, yuqoridagi go‘zal xislatlarning barchasi bayon qilingan tazkiya yoki taqvoning ostiga kiradi. Ya’ni, bularning barchasini taqvo yoki tazkiya deya ifodalash mumkin.

Ma’naviy komillikka erishishning asosiy yo‘llari inson o‘zi e’tiqod qilgan haq dinni anglash, Allohni ko‘p zikr qilish, tafakkur qilish, farz va nafl ibodatlarni mukammal bajarish, o‘z-o‘zini hisobga tortish va yaxshi muhit tanlash orqali amalga oshadi. Har bir musulmon bu yo‘llarni o‘z hayotiga tatbiq qilib, ma’naviy poklanish jarayonini davom ettirmog‘i lozim. Bu yo‘lda komil ustoz tanlash va u inson maslahati bilan harakatlanish ham lozim. Qolaversa, yaxshi muhit tanlash va solih insonlar bilan do‘st bo‘lish ham insonning ma’naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ma’naviy komillik insonning Allohga yaqin bo‘lishi va uning roziligini topishi asosidir. Tazkiya, taqvo va ularning amaliy cho’qqisi bo’lmish ihsan kabi asosiy tushunchalar orqali inson qalbini poklashi, ibodatlarini mukammal qilishi mumkin. Ibodat deganda biz- namoz, ro‘za zakot va hajdek buyuk ishlar bilan birga, musulmonning xolis Alloh uchun bajargan har bir ishini tushunamiz. Dinimizning muborak ta’limotida inson har bir ishini shariatga muvofiq qilishga urinsa, u ishlar ibodatga aylanaveradi va bunga yarasha savobga erishadi. Ota-onasiga yaxshilik qilishi, ahli oilasini halol rizq bilan ta’minlashi, qo‘ni qo‘shnilariga chiroyli

muomalada bo‘lishi, birovning ko‘nglini og‘ritmasligi, yolg‘on, tuhmat va bo‘htondan uzoq bo‘lishi va hokazo harom ishlarga yaqinlashmasligi, bularning barchasi ibodat darajasidagi buyuk amallardir.

Yuqorida bayon qilingandek ma’naviy komil inson bu ishlarni ixlos bilan, Allohning roziligi uchun bajaradi va bu ishlari uchun hech kimdan minnatdorchilik kutmaydi. Bu haqiqiy kamolotdir. Shu bois har bir musulmon inson hayoti davomida ma’naviy komillikka intilishi zarur. Komillikka erishgan inson dunyo va oxiratda haqiqiy saodatga erishadi va Robbisining rizosiga etishadi.

Shuning uchun, “Haqiqiy ma’naviy kamolot Islom dinidadir” deymiz.

MUHAMMAD JAZARIYNING ILMIY MEROSI

Ne’matov Jahongir To‘lqinovich
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
“Qur’on ilmlari” kafedrasi mudiri
nematovjahongir@oliymahad.uz

Islom tarixi davomida Qur’on ilmlari, tafsir, hadis, fiqh, usul va boshqa sohalarda o‘z zamonasining mutafakkir olimlari tomonidan beqiyos ilmiy meros yaratilgan. Bu ilmlar, nafaqat shariat asoslarini belgilash, balki musulmon ummatining diniy hayotini to‘g‘ri yo‘naltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Imom Jazariy (to‘liq ismi: Shamsuddin Abul-Xayr Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Jazari ad-Dimashqiy, 1350–1429 y.) Qur’on ilmlari, hadis, tarix va to‘g‘ri qiroat qilish yo‘lida paydo bo‘lgan tajvid fani rivojiga katta hissa qo‘shgan ulug‘ zotlardan hisoblanadi. U nafaqat Qur’on qiroatlari va tajvid ilmining ilmiy asoslarini shakllantirgan, balki ushbu sohada yutuqli maktab yaratgan mashhur muhaqqiqlardan biri hisoblanadi.

Imom Jazariy haqida islom olamning buyuk allomlari ko‘plab maqtov va olqishlar aytishgan. Jumladan, Ibn Hajar Asqaloniy shunday deydi: «U kishi imom muqriy. Damashqda tavallud topgan. O‘sha yerda faqih bo‘lgan. Hadis va qiroat talabiga qattiq berildi. Qiroat ilmida yuksak darajaga yetdi. Qorilar uchun bir madrasa bino qilib, uni «Dorul-Qur’on» deb nomladi. Odamlarga Qur’on o‘qitdi. Bir marta Shom qoziligiga ta’yinlandi. Uning imzosini Imoduddin ibn Kasir qo‘ygan»[86].

[86] Shamsuddin Abul Xayr Muhammad ibn Abdurrahmon Saxoviy. ad-Dov’ al-lami’ li ahli al-karn at-tasi’. – Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya, 2003. – B. 48.

Imom Jazariy o‘z umri davomida Qur’on ilmlari sohasidagi ko‘plab mutaxassislar uchun ilmiy manba sifatida xizmat qiladigan yuzlab asarlarni yozgan. Ular orasida tajvid va qiroat ilmlariga oid quyidagi muhim asarlar alohida o‘rin tutadi:

1. Tahbirut-taysir fil-qiroat al-’ashr – o‘n qiroatni soddalashtirilgan bayonda hikoya qiluvchi risola.
2. Taqribun-nashr fil-qiroat al-’ashr – “an-Nashr” asariga muqaddima va qisqa sharh.
3. At-tamhid fiy ilmit-tajvid – tajvid ilmining asoslariga bag‘ishlangan asosiy manba.
4. Tayyibatun-nashr fil-qiroat al-’ashr – o‘n qiroatni qofiyali she’r tarzida bayon etgan manzum asar.
5. Al-muqoddima fi ma ‘ala qoriil-Qur’ani an ya’lamah – "Muqaddima al-Jazariya" nomi bilan mashhur bo‘lib, tajvidni o‘rganishda klassik qo‘llanma hisoblanadi.
6. Munjidul-muqriin va murshidut-tolibin – qori va talabalar uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi asar.
7. An-nashr fil-qiroat al-’ashr – o‘n qiroatni mukammal bayon etuvchi asosiy ilmiy ensiklopediya.
8. Ithaful-maharoh fiy tatmimatil-’asharoh – o‘n qiroatga tegishli ziyodalarni jamlagan asar.
9. Usulul-qiroat – qiroat usullarining nazariy asoslari.
10. I’anatul-maharoh fiz-ziyadati ‘alal-’asharoh – asosiy qiroatlardan tashqari ziyoda variantlarni tahlil qiladi.
11. Al-i’lam fi ahkamil-idg‘om – Ahmad al-Muqriyning urjuzasiga sharh bilan idog‘om qoidalariga bag‘ishlangan.
12. Al-alg‘oz al-jazariyya – qiroat bilan bog‘liq muammoli masalalarni qamrab olgan asar.
13. Al-ihtida ila ma’rifatil-vaqf val-ibtida – Qur’onda to‘g‘ri to‘xtash va boshlash nuqtalari.
14. Tuhfatul-ixvan fil-xulfi baynash-shatibiyya val-’unvan – qiroatlar o‘rtasidagi ixtiloflarni tahlil qiladi.
15. At-tizkar fiy rivayati Aban ibn Ziyad al-Attor – hadis va qiroatlar rivoyatiga oid.
16. At-taqyid fil-xulfi baynash-shatibiyya vat-tajrid – mashhur rivoyatlar orasidagi farqlarni izohlaydi.

17. At-tavjihat fiy usulil-qiroat – qiroatdagi nazariy tushunchalarni bayon etadi.

18. Jami’ul-asanid fil-qiroat – qiroat sanadlarini jamlagan manba.

19. Ad-durratul-ma’niyya fiy qiroatil-aimma as-salasa al-mardiyya – uchta mashhur imomning qiroatlari.

20. Risala fil-vaqf ‘alal-hamz li Hamza va Hisham – Hamza va Hisham qiroatlari bo‘yicha to‘xtash masalalari.

21. Al-’aqd as-samin fiy alg‘ozil-qur’an al-mubin – Qur’ondagi murakkab uslublarni talqin etadi.

22. G‘oyatul-maharoh fiz-ziyada ‘alal-’asharoh – yuqori darajadagi qori uchun mukammal o‘qish uslublari.

23. Al-favaid al-mujamma’ah fiy zavaidil-kutub al-arba’ah – to‘rt qiroat manbaasidan tashqari ziyodalar.

24. Nihayatul-baroroh fiy ma zada ‘alal-’asharoh – qo‘shimcha rivoyatlar tahlili.

25. Hidayatul-baroroh fiy tatmimatil-’asharoh – o‘n qiroatni to‘ldiruvchi ma’lumotlar.

26. Hidayatul-maharoh fiy zikril-aimmah al-’asharoh al-mushtahiroh – mashhur o‘n qiroat imomlari haqida.

27. Al-Bayan fiy xotti Usman – Usmoniy xat uslubiga oid ixtisoslashgan asar. Ushbu asar o‘z mavzusi jihatidan boshqalardan ajralib turadi va juda muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar mavzusi boshqalaridan farqli o‘laroq, bir muncha tor doirada o‘rganilgan. Shuning uchun ham uning dolzarbligi beqiyos.

Imom Jazariy nafaqat qiroat va tajvid sohalarida, balki hadis va rijol ilmlarida ham chuqur bilimga ega ulamolardan biri sifatida tanilgan[87]. Ushbu sohada ham bir qator salmoqli va manfaatli asarlar qoldirgan:

1. «al-Arba’una Hadisan» – Rasulullоh (s.a.v.) dan rivoyat qilingan to‘rt yunak hadisdan iborat to‘plam bo‘lib, odatda tarbiyaviy, fiqhiy va axloqiy mazmundagi hadislar jamlangan.

2. «al-Avvaliyya fiy Ahadisil-Avvaliyya» – Ushbu asarda ulamolardan birinchi eshitilgan hadislar (ahadisul-avvaliyya)ni rivoyat qilish an’anasi bayon qilinadi.

3. «Tazkiratul ulama fiy Usulil-Hadis» – Hadis ilmining asosiy qoidalariga bag‘ishlangan risola bo‘lib, usulul-hadis borasidagi muhim tushunchalarni qamrab oladi.

[87] Tartil asoslari (al-Muqaddima al-Jazariyya sharhi) / tarjimon va nashrga tayyorlovchi Jahongir Ne’matov; mas’ul muharrir Uyg‘un G‘ofurov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 35.

4. «at-Tavdih fiy Sharhil-Masobih» – Mashhur hadis to‘plami «al-Masobix»ga yozilgan sharh bo‘lib, hadislarning mazmuni, sanadi va shar’iy foydalariga tushuntirishlar berilgan.

5. «al-Hisn al-Hasin min Kalami Sayyidil-Mursalin» – Rasulullоh (s.a.v.)ning duolari, zikrlari va hayotga oid ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan zikr va duolar to‘plami.

6. «Iqdul-Laaliy fi Ahadis al-Musalsala al-avaliy» – Musalsal hadislarni (har bir roviy bir xil holatda rivoyat qilgan hadislar) bayon qiluvchi asar bo‘lib, ilm ahli uchun muhim manbadir.

7. «al-Qosd al-Ahmad fiy Rijal Musnad Ahmad» – Imom Ahmad ibn Hanbalning mashhur «Musnad» asarida zikr etilgan roviylarning ahvolini tahlil qiluvchi rijol ilmiga oid asar.

8. «al-Musnad al-Ahmad fiy Ma Ta’allaq bi Musnad Ahmad» – «Musnad Ahmad»dagi hadislar va ularning manba va mazmuniga doir ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan tadqiqotiy asar.

9. «al-Mas’ad al-Ahmad fiy Xotm Musnad Ahmad» – «Musnad Ahmad» asari asosidagi tadqiqotlar to‘plamining xotimasi, xulosa va muhokamalarini o‘z ichiga oladi.

10. «Miftahul-Hisn al-Hasin» – «Al-Hisn al-Hasin» asari uchun yozilgan izoh va tushuntiruvlar majmuasi bo‘lib, unda duolar va zikrlarning mazmuni kengroq bayon etilgan.

11. «Muqoddimatu ulumil hadis» – Hadis ilmining asoslari, uning turlari, qabul qilish shartlari va rivoyat usullarini muhokama qiluvchi dastlabki ilmiy risola.

12. «al-Hidaya fiy Ilmir-Rivoya» – Rivoyat usullari, roviylar shartlari, hadislarni qabul va rad etish mezonlarini bayon etuvchi risola.

Jazariyning tarix, manoqib va boshqa ilmiy sohalarga oid asarlarni ilmiy uslubda boyitib,engil tilda ta’lif qilgan. Ulardan:

1. «Al-Ijla vat-Ta’zim fiy Maqomi Ibrohim» – Maqom Ibrohimning fazilatlari va uning islom tarixidagi maqomi haqida ta’lif qilingan risola.

2. «Asnal-Matolib fiy Manaqibi Aliy ibn Abi Tolib» – Hazrati Aliy (r.a.)ning fazilatlari, janglardagi jasorati va ilmdagi o‘rniga bag‘ishlangan manoqib asari.

3. «At-Ta’rif bil-Mavlidish-Sharif» – Rasulullоh (s.a.v.)ning muborak tug‘ilishlari munosabati bilan yozilgan mavlid asarlaridan biri.

4. «Urfut-Ta’rif bil-Mavlidish-Sharif» – Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning tug‘ilishi va uning sharafiga bag‘ishlangan ikkinchi mavlid risolasi.

5. «Zatush-Shifo fiy Sirotil-Mustafo va Man Ba’dahu minal-Xulafo» – Rasulullоh (s.a.v.)ning hayot yo‘li va xalifalar davrini qamrab olgan sironiy-ta’rixiy asar.

6. «Zaylu Tobaqotil-Qurro liz-Zahabiy» – Imom Zahabiyning «Tobaqotul-qurro» asariga qo‘shimcha, uqroq davrdagi qori va muqriylar haqida ma’lumotlar beradi.

7. «Ar-Risala al-Bayaniyya fiy Haqqi Abavayin-Nabiy» – Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning ota-onasi haqidagi ixtiloflarga javob sifatida yozilgan risola.

8. «G‘oyatun-Nihaya fiy Asmai Rijalil-Qiroat» – Qur’on qiroatlari bilan mashhur roviylar haqida ma’lumotlar beruvchi rijol ilmiga oid katta asar.

9. «Fazlu Hiro» – Hiro g‘ori va unda sodir bo‘lgan vahiy voqeasining fazilati va ahamiyati haqidagi eslash asari.

10. «Muxtasar Tarixul-Islom liz-Zahabiy» – Imom Zahabiyning mashhur «Tarixul-Islom» asarining muxtasar shaklida qayta ishlangan varianti.

11. «Mashixat Junayd ibn Ahmad al-Bulyaniy» – Mahalliy shayxlar va mashoyixlar haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan mashixatnoma.

12. «Nihayatud-Diroyat fiy Asmai Rijalil-Qiroat» – Qur’on qiroati bilan shug‘ullangan roviylarning ismlari va manzillarini aniqlashga bag‘ishlangan asar.

13. «Ahasin al-Minan» – Alloh taoloning bandalariga qilgan ne’mat va fazllari haqidagi ma’rifiy asar.

14. «Al-Isoba fi Lavazim al-Kitaba» – Yozish, xattotlik va daftarchilik san’atiga oid bilimlarni o‘rgatuvchi asar.

15. «Al-I’tirodul-Mubdiy li Vahm» – Islom ulamolari orasidagi ba’zi xatolarni tuzatish maqsadida yozilgan tanqidiy asar.

16. «At-Tajun-Nadiy» – Asar mazmuni aniq emas, ammo ungina manbaalarda til yoki adabiyotga oid ekani qayd etilgan.

17. «At-Takrim fil-Umroti minat-Tan’im» – Tan’imdagi ayollar va ularning hurmati haqidagi shariatiy fikrlar bayon etilgan risola.

18. «Takmilatu Zaylit-Taqyid li Ma’rifati Ruvatis-Sunan val-Asaniyd» – Sunan va hadislar rivoyat qiluvchilarni tanish va ularni tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmul-rivoya asari.

19. «Al-Javharoh fin-Nahv» – Arab tili nahviga oid grammatik asar, talabalar uchun foydalidir.

20. «Hashiyatul-Iydoh fi al-Ma’aniy val-Bayan li Jalaliddin al-Qozviyniy» – Arab balog‘atiga oid mashhur kitob «Al-Iydoh»ga yozilgan hashiya, sharh va ta’liqlar to‘plami.

21. «Fadoilul-Qur’an» – Qur’on karimning fazilatlari, uni o‘qish, yodlash va amal qilishga oid hadislar to‘plami.

22. «Kifayatul-Alma’iy fiy Oyati “Ya Ardubla’i…”» – Qur’on oyatlaridan biriga oid batafsil tafsiriy yoki ilmiy sharh[88].

Yuqorida keltirilgan asarlar Imom Jazariyning islom ilmlari tarixida tutgan ulkan o‘rni va uning ko‘p qirrali olim sifatidagi maqomini yanada ravshan namoyon etadi. U zot faqat Qur’on qiroati va tajvid sohasida emas, balki hadis, fiqh, tarix, manoqib, lug‘at, balog‘at va arab grammatikasi kabi ko‘plab sohalarda yuksak saviyada asarlar yaratgan. Har bir asari muayyan bir ilm sohasi uchun muhim manba bo‘lib, bugungi kunda ham ulardan ulamolar, tadqiqotchilar va talabalar foydalanmoqda.

Uning qiroat va tajvidga oid «an-Nashr», «Toyyibatun-nashr», «al-Muqaddima» kabi asarlari ilmiy standartga aylangan bo‘lsa, hadis sohasidagi «Muqoddimatu ulumil hadis» yoki «al-Qosd al-ahmad» kabi asarlari hadis tanqid va rivoyat ilmida katta ahamiyatga ega. Tarix va manoqibga oid asarlari esa islom madaniyati, sahobalar va ulamolarning hayotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Imom Jazariyning bunday keng qamrovli merosi nafaqat uning shaxsiy zehni va ilmga muhabbati samarasidir, balki islom ilmiy an’analarining yuksak darajasini ham namoyon etadi. Shu bois, uning asarlari islom ilmlari rivojida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusi avlodlar uchun ham teran ilmiy va ma’naviy meros bo‘lib qoladi.

ABU LAYS SAMARQANDIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Saidov Ibrohim
Mir Arab oliy madrasasi katta o’qituvchisi

Islom tafakkuri tarixida Movarounnahr zaminidan chiqqan ko‘plab allomalar o‘z ilmiy ishlari bilan musulmon ummatining diniy-ma’naviy rivojiga katta hissa qo‘shgan. Ulardan biri – Abu Lays as-Samarqandiy (to‘liq ismi: Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim) bo‘lib, u IX–X asrlarda yashab, tafsir, fiqh, aqida va zuhd ilmlarida muhim asarlar yaratgan. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham qadrlanadi va o‘rganishga arzigulik manba hisoblanadi.

Abu Lays as-Samarqandiy hijriy 298-yilda (milodiy 911) Samarqandda tug‘ilgan. U “Abu Lays” kunyasi, “al-Faqih” laqabi va “Imom al-Huda” unvoni

[88] Muhammad Jazariy. G‘oyatun nihayah. – Bayrut: Dor al-fikr, 2009. – B. 30.

bilan mashhur bo‘lgan[89] Abu Lays o‘zining ilmiy faoliyatini Samarqandda olib borgan, ammo ba’zi manbalarda uning Buxoroda vafot etgani haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Shunga qaramay, ko‘pchilik tarixchilar uning Samarqandda yashab, Chokardiza qabristoniga dafn etilganini ta’kidlaydi[90].

Vafot sanasiga doir turli xil ma’lumotlar mavjud: Fuat Sezgin va Xayruddin Zirikliy 373/983 yoki 375/985 yilni[91], Shaxt 373/983–393/1002 oralig‘ini[92], Zahabiy esa 375/985 yilni[93] ko‘rsatgan. Shamsiddin Dovudiy 393/1002-1003 yil deb yozgan bo‘lsa-da, “Kashf az-Zunun”da u 376/986 yilda “Navozil” asarini yozganligi qayd etilgan. Ilmiy jihatdan eng maqbul sana sifatida 375/985 yil qabul qilinadi.

Ilmiy ta’limoti va ustozlari: Abu Lays Muhammad ibn Fazl, Abu Ja‘far al-Hinduvoniy va Xalil ibn Ahmad kabi mashhur olimlardan ta’lim olgan[94]. U, ayniqsa, fiqh ilmida chuqur bilimga ega bo‘lganligi sababli unga “al-Faqih” laqabi berilgan. As-Sam‘oniy o‘zining “al-Ansob” asarida Abu Laysni Samarqandda yashagan alloma sifatida ta’riflaydi.

Asarlari: Abu Laysning ilmiy faoliyati tafsir, fiqh, aqida, va zuhd sohalarini qamrab olgan. Uning mashhur asarlaridan biri “Tanbihul-g‘ofilin” bo‘lib, bu asarda hadis va axloqiy masalalar tafsiriy ruhda bayon etilgan. “Xizonatul-fiqh” asari esa fiqhiy masalalarni echishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Kafaviy “Muntaxab a‘lam al-axyor” asarida uning quyidagi asarlarini tilga olgan:

- Qur’on tafsiri – tafsir sohasidagi eng mashhur ishlaridan biri;
- Navozil – turli zamonaviy masalalarga berilgan fatvolar to‘plami;
- Uyun al-masoil – fiqhiy savol-javoblar majmuasi;
- Fatovo – muhim ijtimoiy-huquqiy masalalarga oid fatvolar 10.

Ilmiy merosining ta’siri

Abu Lays as-Samarqandiy nafaqat o‘z zamonasida, balki undan keyingi asrlarda ham katta e’tibor qozongan. Uning tafsir va fiqh sohasidagi ishlari boshqa olimlar, xususan, Abdulloh al-Faroiziy va Abdulvahhob ibn Muhammad tomonidan e’tirof etilgan. Shuningdek, u Movarounnahr ilmiy maktabining shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

Abu Lays Samarqandiyning ilmiy merosi nafaqat Samarqand, balki butun islom dunyosida katta ta'sir ko‘rsatdi. U tafsir, fiqh, va boshqa diniy ilmlar

[89] Zirikliy, Xayruddin. *Al-A’lām*. Bayrut: Dar al-‘Ilm lil-Malāyīn, 1984
[90] Zahabiy, Shamsiddin. *Siyar A‘lām an-Nubalā’*. Beyrut: Muassasat ar-Risālah, 1985.
[91] Sezgin, Fuat. *Geschichte des Arabischen Schrifttums*. Leiden: Brill, 1967.
[92] Dovudiy, Shamsiddin. *Tabaqāt al-Mufassirīn*. Qohira: Dar al-Fikr, 1995
[93] Sam‘oniy, Abdulkarim ibn Muhammad. *Al-Ansāb*. Bayrut: Dar al-Fikr, 1998.
[94] Kafaviy. *Muntaxab A‘lām al-Akhyār fī Ṭabaqāt Hanafiyyat al-Muxtār*. Istanbul: Matba‘a al-‘Āmirah, 1903.

sohalarida eng mashhur olimlardan biri bo‘lib, uning ilmiy ishlari va ta'limotlari bugungi kunda ham qadrlanadi.

ISLOM MA’RIFATIDA TINCHLIK G‘OYASI

Sharipov Dilshod Baxshilloevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ma’lumki, islom diyni insoniyatga rahmat va mag‘firat diyni bo‘lib keldi. Unga e’tiqod qiluvchilarni keltirgan iymonlari sabab musulmon atadilar.

Islom diyni iymon keltirmoq va hidoyatga yetmoq va iymondan yuz o‘girmaslikka chaqiriqlar, o‘tgan anbiyolar hayoti va azoblari, ularning haq yo‘lga da’vatlari va mo‘min-musulmonlikda tinch umrguzaronlik qilishga, toatga, tavbai nusuhga, xayr va adolat eshiklarini insonlar o‘z qalblarida ochishlariga da’vatlar bordir.

Tinchlik, islom diynida, yolg‘iz Olloh haqligiga iymon keltirishdir va shu iymondan yuz o‘girmaslikdir, chunki qalb hidoyati mo‘min kishiga yetarlik bo‘lgan iymon darajasidir – bu barcha musulmon ahliga birdek teng qilib qo‘yildi, ya’ni islom diynimizda *tenglik qonuniyati* ham qat’iyan belgilangan.

Islom ma’rifatida tinchlik g‘oyasi iymon va e’tiqod g‘oyasidir. Iymondan tashqari tinchlik ham, tinchlik holati ham yo‘q. “Darhaqiqat, Islom tinchlik-omonlik, mehr-shafqat dinidir. Islom ummatining hidoyat sari yo‘lboshlovchisi va oxiratda shafoatchisi bo‘lgan Payg‘ambar alayhissalom rahmat qilib yuborilganlar. Alloh taolo bu xususda: “(Ey Muhammad!) Biz Sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz” (Anbiyo surasi, 107-oyat), degan. Barchamizga yaxshi ma’lumki, Payg‘ambar alayhissalom go‘zal axloq-odoblarni olib kelganlar. Bu haqda u zotning o‘zlari: *“Men go‘zal xulqlarni kamoliga yetkazish uchun payg‘ambar qilib yuborildim”,* deganlar. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam olamlarga rahmat va inson axloqini kamolga yetkazish uchun kelgan ekanlar, bu din orqali tinchlik va omonlikdan boshqasiga targ‘ib qilishlari mumkin emas”.[95] Demak, tinchlik qonuniyat sifatida axloq paradigmasidir va go‘zal xulq tinchlikning so‘ngsiz asosidir.

Qur’onu karimning “Luqmon” surasining 16-oyatida Luqmon alayhissalomning o‘z o‘g‘illariga qilgan bittagina nasihatni keltiramiz: “Ey o‘g‘ilcham, shak-shubha yo‘qki, agar xardal (o‘simligining) urug‘idek (bir zarra

[95] Islom dinida tinchlik. Mas’ul muharrir Sh. Ziyodov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2023. B. 3-4.

yaxshi yoki yomon amal qilinadigan) bo‘lsa, bas, u (amal) biron xarsang tosh ichida yo osmonlarda yoki yer ostida bo‘lsa, o‘shani-da Olloh keltirur. Zero Olloh sergak va ogohdir”[96].

Qur’onu karimning “Baqara” surasining 251-oyatida Dovud alayhissalom Tolutning askarlaridan biri bo‘lgan Jolutni o‘ldirgani va Olloh taolo Dovud alayhissalomga podshohlik, payg‘ambarlik va O‘zi xohlagan narsalardan ta’lim bergani haqida gapiriladi. Shuningdek, bu yerda “Agar Olloh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf qilib turmas ekan, shubhasiz, yer fasodga duchor bo‘ladi. Lekin Olloh barcha olamlar ustidan fazlu karam sohibidir”[97], deyiladi.

Qur’onu karimning “An’om” (Chorvalar) surasining 125 oyatining ilk qismida aytildiki, Olloh kimni hidoyat qilishni istasa uning ko‘nglini islomga keng qilib qo‘yur[98] va 126 oyatida “Mana shu Parvardigoringizning To‘g‘ri Yo‘lidir. Eslatma – ibrat olguvchi qavm uchun oyatlarni batafsil qildik” deyilsa, 127-oyatda tinchlik g‘oyasining asl javhari ko‘rsatildi: “Ular uchun Parvardigorlari huzurida *doru-s-salom-tinchlik diyori* (*ya’ni jannat*) bordir. U zot (Olloh) qilib o‘tgan yaxshi amallari sababli ularning do‘stidir”[99]. Olloh tabaroku va taolo Qur’onu karimda tinchlikni O‘z huzuridagi bir diyor deb, doru-s-salom, deb ta’riflayapti. Bundan tashqari, Qur’onu karimning “Azhob” surasining 44-oyatida aytilganki, “(Mo‘minlar Ollohga) ro‘baro‘ bo‘ladigan kunda ularga (Olloh tomonidan yo‘llanadigan) *salom tinchlik-omonlik tilash bo‘lur*. (Olloh) ular uchun ulug‘ mukofot (ya’ni jannat) tayyorlab qo‘ygandir”[100]. “Saba’” surasining 4-oyatida “*ulug‘ rizq*” *deb jannat ataldi*.

“Tag‘obun” surasining 12-oyatining dastlabki jumlasini o‘qiymiz: “Ollohga itoat etingiz va payg‘ambarga bo‘ysuningiz !”.[101] Demak, tavbai nusuhdan so‘ng mo‘min-musulmonlar uchun yaxshi amal, balki, eng sarasi hamdir – sunnati nabaviyga qattiq yopishmoqlikdir, *itoatgo‘ylik* shartidir. Ollohning O‘zi mo‘min bandalarining ishini oson qilguvchidir, mushkullarni ketkizguvchidir. Shubhasizki, tinchlik eng *ulug‘ ne’mat* va aytish mumkinki, inson hayotining javhari, eng aziz qondoshiga yoki birodariga ham tilaydigan ko‘nglidagi yagona so‘zidir. “Haj” surasining 38-oyatida aniq qilib aytildi: “*Albatta, Olloh iymon keltirgan zotlarni*

[96] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 373-bet.
[97] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 38-bet.
[98] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 118-bet.
[99] Қур’ону карим маънолар таржимаси. Нашрга тайёрловчи Анвар Турсун. “Чо‘лпон”. Тошкент. 1992. 118-бет.
[100] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 386-bet.
[101] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 553-bet.

mudofaa qilur. Albatta Olloh barcha xoin va kufroni ne’mat qilguvchilarni suymas”.[102]

Islom diyni adolatga chaqiradi. Olloh taolo Qur’onu karimning “Baqara” surasi 143-oyatida shunday deydi: “Shuningdek (ya’ni haq yo‘lga hidoyat qilganimiz kabi), sizlarni boshqa odamlar ustida guvoh bo‘lishingiz va payg‘ambar sizlarning ustingizda guvoh bo‘lishi uchun o‘rta (adolatli) bir millat qildik”. Qur’onu karimning “Bayyina”(“Aniq hujjat”) surasining 7-oyatida deyildiki, “Albatta iymon keltirgan va yaxshi amallar qilgan zotlar – ana o‘shalar yaralmish jonzotlarning eng yaxshisidirlar”[103].

Demak, tinchlik atamasining o‘zi ilm-fan uchun bir qonuniyat bo‘lsa-da, uning o‘zi ma’lum tarkib va mazmun bo‘yicha yana ko‘plab qonuniyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, adolat, tenglik, kechirimlik, birodarlik – musulmon musulmonning birodaridir, halimlik, mehr-shafqat ko‘rsatish, xayru ehsontalablik, mehr-muruvvat, omonatdorlik, taqvodorlik, shukronalik, zulm va xiyonat qilmaslik, qon to‘kmaslik va musulmonning haqqini ado etish kabilarni misol qilishimiz mumkin. “Darhaqiqat, Olloh avf qilguvchi, kechirguvchidir”(“Haj” surasi, 60-oyat oxirgi jumlasi).[104] Hattoki, bir yerda tinchlikni “*rizqdan-da ulug‘roq ne’mat*”[105], deb tavsiflashdi.

“Chahor kitobi turkiy”da “*Vojiboti iymon nimadir ?*” savoliga o‘n ikkita amal eslatilgan bo‘lib, shundan oltinchisida shunday deyilgan: “oltinchi-ikki *birodari mo‘min orasig‘a* xusumatu munoza’t tushsa, *yarashtirmoq*, agar chandiki yarashtirmoq yolg‘on birla bo‘lsa ham”[106] Qur’onu karimning “Hujurot” surasi, 9-oyatida deyildi: “Agar mo‘minlardan ikki toifa o‘zaro urushib qolsalar, darhol ular o‘rtasini siloh etingiz”.[107] Demakki, iymonning vojibi, amali va yaxshisi sulhga nafaqat ikki musulmonni keltirish ishidir, balki, ikki musulmon jamoa yoki millatni chaqirish hamdir.

Shuningdek, islom diyni insonparvarlik g‘oyalarini ilgari suradigan va asrab-avaylaydigan e’tiqod tizimidir. Insonni asrab qolish, hozirgi kunda, eng mo‘tabar va muqaddas ishlardan biridir. Masalan, 2019 yilda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi va shijoati bilan 5ta “Mehr” operatsiyalari amalga oshirildi. 2019 yil 30 mayda ilk marta “Mehr” operatsiyasi o‘tkazildi – 107 nafar ayol va 48 nafar bola Suriya va Iroqdan O‘zbekistonga keltirildi. 2019 yil 10 oktyabr

[102] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 301-bet.
[103] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 644-bet.
[104] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 304-bet.
[105] https://zamaxshariy.uz/14956/
[106] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. AL-JOMI’ AS-SAHIH (Ishonarli to‘plam). Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent. 1994. 556-bet.
[107] https://zamaxshariy.uz/11452/

kuni esa 64 nafar bola Iroqdan O‘zbekistonga keltirildi. 2019 yilda jami 531 nafar ayol va bolalar Suriya, Iroq, Afg‘onistondan O‘zbekistonga qaytarildi[108] – bu urush o‘choqlarida dinni mohiyatini tushunmay, adashib kirib ketgan, inson tili ham ularni aytishga qiynaladigan – jangari o‘zbeklarning xotinlari va bolalaridir. Dunyoda birorta ham davlat bu kabi tinchlikparvar siyosatni ado etgani yo‘q. Chunki hali Suriyaning o‘zida 2019 yilda o‘zaro urushlar davom etayotgan paytda diplomatik va xavfsizlik kuchlardan foydalanib, begona yurtda o‘lib ketishi muqarra bo‘lgan ayollar va bolalarni jonajon vatanimizga qaytarib olib kelish – urushdan “yulib olish” – bittayam boshqa davlat tomonidan birorta ham mintaqada bu kabi insonparvarlik siyosati ko‘rsatilganicha yo‘q. Chunki u adashgan toifalarning kechirimi yo‘q – siyosat shunday edi, barcha yerda terrorizm oqlanmagan, lekin jangarilarning ayollari va bolalari olib kelinib, ular ham asrab qolindi, hamki tinch-totuv umrguzaronlik qilish ne’mati yoki huquqi ato etildi, ijtimoiy moslashuvlik uchun davlat ular haqida qayg‘urdi. Buni insonparvarlik demay, yana nima deyish mumkin? Axir, insondan ortiq ulug‘ narsa yo‘q. Insonning hayotidan ortiq ulug‘ narsa yo‘qdir. To‘g‘ri, bu dunyo hayoti o‘tkinchidir, lekin inson o‘zini inson sifatida his etishi uchun ham, u tinchlikda yashashi shartdir. Yoki qaysi davlat shunday qildi – boshqa davlatda terrorchilik qilgan toifalarning ayollari va bolalarini asrab qoldi – bundan tashqari, urushda kim daydi o‘qdan o‘lib ketmaslik kafolatini olgan ?! Shuning uchun ham Yangi O‘zbekistonimizdagi tinchlikka ko‘z tegmasin, deymiz va uni ko‘z qorachig‘imiz singari asrashimiz shartdir. Bu ham e’tiqod masalasi, hamki siyosiy masaladir – bu davlat o‘z fuqarosini chet elda ham tashlab qo‘ymaydi, deganidir. Bu ulug‘ islomiy amal bo‘lmay, nima unda ?! Bundan ortig‘i bo‘lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, shariati islomda barcha musulmon ummatiga qo‘shni haqqini ado etish ham sunnat, hamki eng yaxshi sahih amallardandir, deb o‘ylaymiz. Chunki yaxshi qo‘shni qo‘shnisini kamsitmaydi, uning haqlarini ado etadi, o‘rtada tushunmovchilik yoki nizo bo‘lsa, sulh va yarashuvga chaqiradi. Demak, *sulh* va *yarashish* ham tinchlikning o‘z qonuniyatlaridan biridir.

O‘zi azaldan tinchlik tilash, u haqda duo qilish, xotirjamlik va fayzu barakotni ko‘paytirishni so‘rash ham musulmonlik javharlaridandir. Chunki “islomning ma’nolaridan biri – tinchlik”.[109] Qur’onu karimning “Baqara” surasi 224-oyatida shunday hukm bor: “Yaxshilik qilish, taqvodor bo‘lish va *odamlar orasini isloh qilish* (kabi amallardan to‘suvchi bo‘lgan) qasamlaringiz uchun Ollohni bahona

[108] Kun.uz/2024/09/04/mehr

[109] http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/11094-islom-tinchlik-dini

qilmangiz! Olloh eshitguvchi, bilguvchidir”.[110] Demak, yaxshilik qilishga, taqvodor bo‘lishga va nizolashayotganlarni yarashtirish yoki sulhga chaqirishga yetakchilar, olimlar, yoshi ulug‘ musulmonlar shoshilishiga va islom diyni qonuniyatlariga rioyat etishga buyurilgan ekan. Bizning tinchlikdan o‘zga saodatimiz, iymondan o‘zga najotimiz, aqldan o‘zga ma’rifatimiz yo‘qdir.

ISLOMDA BILIM VA ILM-FAN UYG‘UNLIGI

Jiyanov Ulug’bek Nasriddinovich
Mir Arab oliy madrasasi o’qituvchisi,
Buxoro shahri

Bilim va ilm-fan insoniyat tarixida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari bo‘lib kelgan. Islom dini ta’limotida bilim olishga alohida urg‘u berilib, ilmni egallash musulmonlarning diniy vazifasi sifatida ta’kidlangan. Islom tarixidagi ilmiy yuksalish davrlari aynan Qur’on va hadislar orqali berilgan ko‘rsatmalarga asoslangan holda rivoj topgan. Ushbu maqolada Islom dini ta’limotida bilimning o‘rni, Qur’on va sunnat asosidagi ilmiy tafakkur hamda o‘rta asrlardagi musulmon olimlarining fan sohalariga qo‘shgan hissasi va hozirgi zamondagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Bilimning Qur’on va Sunnatda Tutgan O‘rni

Islomning ilk oyatlaridan boshlab bilim olishga urg‘u berilganligini ko‘ramiz. Qur’oni karimning birinchi nozil bo‘lgan oyati:

« اقْرَأْ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ (١) خَلَقَ الْإِنْسَانَ مِنْ عَلَقٍ (٢) اقْرَأْ وَرَبُّكَ الْأَكْرَمُ (٣) الَّذِي عَلَّمَ بِالْقَلَمِ (٤) عَلَّمَ الْإِنْسَانَ مَا لَمْ يَعْلَمْ (٥)»

(O‘qi! Yaratuvchi Parvardigoring nomi bilan o‘qi! U insonni laxta qondan yaratdi. O‘qi! Parvardigoring juda karamli zotdir. U qalam bilan (yozishni) o‘rgatdi. Inson bilmagan narsalarini o‘rgatdi)[111]**.** Bu oyatlar ilm olish, o‘qish va yozishni musulmonlarning asosiy vazifalari qatoriga kiritib qo‘ygan.

Qur’onda yana shunday oyat mavjud:

«قُلْ هَلْ يَسْتَوِي الَّذِينَ يَعْلَمُونَ وَالَّذِينَ لَا يَعْلَمُونَ»

“Ayting: Biluvchilar bilan bilmaslar barobar bo‘ladimi?”[112]. Bu oyat orqali ilm egalarining fazilati ochiq-oydin ta’kidlangan.

Hadislarda ham ilm egallashga katta urg‘u berilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.):

«طَلَبُ الْعِلْمِ فَرِيضَةٌ عَلَى كُلِّ مُسْلِمٍ»

[110] Qur’onu karim ma’nolar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi Anvar Tursun. “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 33-bet.
[111] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol, 6-jild. Toshkent, 2009. Alaq surasi, 1-5 oyatlar.
[112] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol, 3-jild. Toshkent, 2009. Zumar surasi, 9-oyat.

Ilm olish har bir musulmonga farzdir[113], degan hadis orqali ilm olishning har bir inson uchun zarurligini ta’kidlagan. Boshqa bir hadisda:

«مَنْ سَلَكَ طَرِيقًا يَلْتَمِسُ فِيهِ عِلْمًا سَهَّلَ اللَّهُ لَهُ طَرِيقًا إِلَى الْجَنَّةِ»

Kim ilm yo‘liga kirsa, Alloh unga jannat yo‘lini osonlashtiradi[114], deb, ilm yo‘lida bo‘lishning ahamiyati yana bir bor e’tirof etilgan.

Shuningdek, Imom G‘azzoliy “Ihyo ulum ad-din” asarida ilmni dunyo va oxirat saodatining kaliti deb atagan. U ilmni tan olish, amal qilish, ta’lim berish va targ‘ib qilish shakllarida o‘rganishni tavsiya qiladi. Bu ilmiy tafakkur Islomda bilimga asoslangan jamiyat barpo qilish g‘oyasini mustahkamlab beradi.

Islom ta’limotida ilm-fan va din o‘rtasidagi uyg‘unlik asosiy tamoyillardan biridir. Musulmon olimlar islomiy bilimlar bilan dunyoviy fanlarni uyg‘unlashtirib, tarixda ulkan yutuqlarga erishganlar. Xususan, Ibn Sino, al-Farg‘oniy, al-Xorazmiy, Ibn Xaldun kabi olimlar ilm-fan va diniy ta’limotni bir-biridan ajratmasdan, balki o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda o‘z tadqiqotlarini amalga oshirishgan.

Masalan, Ibn Sino falsafa va tibbiyot fanlarida, al-Xorazmiy matematika va astronomiyada, Ibn al-Haytham optikada erishgan yutuqlari bilan nafaqat musulmon olamiga, balki butun insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar. Bu davrda ilm-fan va diniy ta’limot o‘rtasidagi uyg‘unlik musulmon olimlarning o‘z tadqiqotlariga yuqori ilmiy va axloqiy mas’uliyat bilan yondashuvini ta’minladi.

Al-Biruniy geologiya, mineralogiya va dorishunoslikda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U erning aylanishi, quruqlik va dengizlar tafovutlari, turli geografik kashfiyotlar bilan Islom dunyosida ilm-fan taraqqiyotini yuksak pog‘onaga olib chiqqan.

Zamonaviy dunyoda ilm-fan va diniy tafakkur uyg‘unligini saqlab qolish juda muhimdir. Bugungi kunda ko‘plab fan sohalaridagi axloqiy muammolar, texnologiyalarning nazoratsiz rivojlanishi kabi holatlar insoniyatning ma’naviy qadriyatlari bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Islomda ta’lim berilgan ilm-fan va axloq uyg‘unligi ana shu muammolarni hal qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Islomiy ta’limotlar asosida shakllangan ilmiy tafakkur insoniyat taraqqiyotini axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtiradi. Masalan, bioetika, ekologiya va boshqa axloqiy muammolarni hal qilishda islomiy ilmiy qarashlardan foydalanish, jamiyatni ma’naviy va moddiy jihatdan uyg‘un ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

[113] Ibn Moja, Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid al-Qazvini. Sunan ibn Moja, 2-jild. Darul fikr, Bayrut. 224-hadis.

[114] Muslim ibn al-Hajjaj al-Qushayri an-Naysaburi, Sahihi Muslim, 3-jild. Darul fikr, Bayrut. 2699-hadis.

Yevropa Uyg‘onish davrida ham musulmon olimlarning ilmiy merosidan keng foydalanilgan. Bu islomiy ilm-fan merosining universal xarakterga ega ekanini, faqat musulmonlar uchun emas, balki butun insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Islomda bilim va ilm-fan uyg‘unligi insoniyatning ilmiy va ma’naviy taraqqiyoti uchun muhimdir. Qur’on va sunnat asosidagi ta’limotlarda ilm olish musulmonlarning diniy vazifasi sifatida ta’kidlangan bo‘lib, tarixda musulmon olimlarning dunyo faniga qo‘shgan hissasi bunga yorqin misoldir. Bugungi kunda ham bu uyg‘unlikka amal qilish insoniyat oldida turgan axloqiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

YANGI O‘ZBEKISTONDA DINIY SOHA KADRLARINI TAYYORLASH VA ILMIY MUHITNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN SIYOSAT: TARIXIY TAHLIL

Qurbonov Bekjon G‘ayrat o‘g‘li
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi,
uzbkurbonov@gmail.com

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda boshqa sohalar qatorida diniy-ma’rifiy yo‘nalishda, xususan, diniy ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Diyorimizda islom ilmlarini o‘qitishga oid an’anaviy tizim mavjud bo‘lib, tarixda madrasalar sonining ko‘pligi va ulardagi ta’lim-tarbiya jarayoni yuqori baholangan. Bu madrasalar nafaqat diniy ilmlar, balki amaliy fanlarni o‘rgatishda ham muhim dargoh sifatida faoliyat yuritgan. Shu boisdan, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar aynan shu zamindan yetishib chiqqan. Ular qoldirgan ilmiy meros bugungi kunda ham yuksak qadrlanib, keng omma e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 10-11 mart kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi chog‘ida Buxoro viloyatida “Mir Arab” oliy madrasasini tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar bergan edi. Berilgan ko‘rsatmalarga asosan O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan “Mir Arab” oliy madrasasi tashkil qilinib, 2017 yil 7 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat

ro‘yxatidan o‘tkazdi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimida tashkiliy huquqiy jihatdan oliy ta’lim beruvchi ta’lim muassasasi yana bittaga ko‘paydi[115].

Islom shariati va arab tili sohalari bo‘yicha yuqori malakali, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash, ularni dinlar tarixi va nazariyasi, islom dinining asoslari, insonparvarlik, yurtga sadoqat va xalqparvarlik g‘oyalari asosida tarbiyalash hamda ushbu sohalarda zamonaviy talablarga javob beradigan ta’limni tashkil etish “Mir Arab” oliy madrasasining asosiy vazifasi etib belgilangan. Mazkur diniy ta’lim muassasasining tashkil qilinishi fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy ta’lim olish huquqlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun normalariga muvofiq amalga oshirildi.

2017 yil 15 iyunda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi videoselektorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bir qator takliflarni berib, «Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Farg‘onada – Marg‘inoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida aqida ilmi maktabini tashkil etsak, o‘ylaymanki, bu juda foydali bo‘ladi. Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalashda bu maktablar tayanch bo‘lib xizmat qiladi», – degan edilar[116].

2017 yil 8 noyabr kuni Samarqand viloyatida «Hadis» va «Kalom» ilmiy maktablari, 10 noyabr kuni Qashqadaryo viloyatida “Abu Mu’in an-Nasafiy” nomidagi aqida ilmi maktabi, 13 noyabr kuni “Mir Arab” oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmiy maktabi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi qoshida Islom huquqi maktablari tashkil etildi. Mazkur ilmiy maktablar ilmiy-tadqiqot markazi shaklida tashkil etiladi va ularda yurtimizda shakllangan ta’lim berishning ustoz-shogird an’analariga asoslangan Buxoro, Samarqand maktablari uslubida faoliyat olib boriladi.

2017 yil 13 noyabrda O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy ta’lim muassasalari qoshida pullik o‘quv kurslari tashkil etilishi haqida topshiriq

[115] “Mir Arab” oliy madrasasining Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 7 iyunda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida 21-sonli guvohnoma.

[116] «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda Prezident Sh.M. Mirziyoev ma’ruzasi; 2017 yil 15 iyun, Toshkent.

berildi. Unga ko‘ra idora tasarrufidagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab Qur’oni karim va tajvidni o‘rgatuvchi pullik o‘quv kurslari tashkil etildi. Bu esa qur’onga mehr muhabbatli bo‘lgan vatandoshlarimiz uchun quvonchli yangilik bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-sonli Farmoniga muvofiq Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi va O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining taklifiga muvofiq oliy diniy ta’lim muassasasi shaklidagi Hadis ilmi maktabini tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 noyabrdagi “Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 896-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq islom dini va hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk vatandoshlarimizning boy merosini chuqur o‘rganish, ular tomonidan asos solingan hadis ilmi maktablari faoliyatini qayta tiklash va rivojlantirish hamda islom dini asoslari va hadis ilmini mukammal o‘zlashtirgan oliy ma’lumotli yetuk mutaxassislarni tayyorlash maqsadida O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida Hadis ilmi maktabi tashkil etilib, 2018 yil 5 dekabr kuni Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatidan o‘tkazildi. Qur’oni karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rgangan, hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o‘zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko‘nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash, hadisshunoslik maktabi shakllanishi va rivojlanishi, uning ilmiy-ma’naviy asoslarini har tomonlama chuqur o‘rganish, tadqiq etish va uning natijalari asosida hadislardagi ezgu umuminsoniy g‘oyalarni xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish maktabning asosiy vazifalari qilib belgilandi. Hadis ilmi maktabida o‘qish muddati besh yil bo‘lib, u kunduzgi ta’lim shaklida olib boriladi va “Hadisshunoslik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasidagi kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Bitiruvchilarga beriladigan davlat namunasidagi diplom O‘zbekiston Respublikasida diniy ta’lim sohasidagi tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha bakalavr darajasini beruvchi oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat deb e’tirof etiladi. Hadis ilmi maktabiga arab tilini puxta o‘zlashtirgan, hadislarni yod olishga salohiyati bo‘lgan o‘rta maxsus diniy ta’lim muassasalarining iqtidorli bitiruvchilari saralab olinadi. Hadis ilmi maktabi bitiruvchilari ta’limni magistraturada davom ettirishi, tayanch doktorantura va doktorantura bosqichlarida tahsil olishi mumkin[117].

[117] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.11.2018 yildagi “Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 896-son qarori.

2018 yil 16 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5416-son farmoni bilan Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston musulmonlari idorasining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston islom akademiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasini tashkil etildi. Akademiya 2025 yildan O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi etib qayta nomlandi[118]. Akademiya O‘zbekiston musulmonlari idorasi va O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi muassisligidagi Qur’on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk va b.) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo‘lgan sohalar bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, o‘rta maxsus, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta’limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi[119].

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va O‘zbekiston musulmonlari idorasi Akademiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi. Akademiyaning bitiruvchilariga beriladigan davlat namunasidagi hujjatlar O‘zbekiston Respublikasida muayyan mutaxassisliklar bo‘yicha tegishlicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim to‘g‘risidagi hujjat deb e’tirof etildi. Akademiya bitiruvchilariga umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berildi[120].

Shuningdek, akademiya islomshunoslik va dinshunoslik sohalarida mutaxassislarni hamda o‘quv dasturi, qo‘llanma va darsliklarni tayyorlashga ixtisoslashgan tayanch davlat oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi[121].

Ma’lumot o‘rnida, bugungi kunda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Termiz shahrida O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi 4 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat olib bormoqda. Ularda joriy etilgan ta’lim standartlari, o‘quv rejalari hamda

[118] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025 yildagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-68-son farmoni.

[119] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.04.2018 yildagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 5416-son farmoni.

[120] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2018 yildagi “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 466-son qarori.

[121] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025 yildagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-68-son farmoni.

talabalarning qabul qilingan davlat me’yorlariga muvofiq diniy va dunyoviy bilimlar olayotganini inobatga olib, mazkur o‘quv yurtlarining bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta’lim hujjati sifatida e’tirof etilishi hamda ana shu hujjatlarga ega bo‘lgan shaxslarga davlat oliy ta’lim tizimida o‘qishni davom ettirish huquqi berilgan. Ya’ni, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga yuqori turuvchi organ tomonidan tasdiqlangan namunadagi bakalavr darajasiga teng diplom beriladi[122].

Shuningdek, mazkur oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilariga umumta’lim maktablarida “Tarbiya” va xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktablarda “Tarbiya” va “Arab tili” fani bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilsa har jihatdan o‘zini oqlaydi.

2019 yilda 14 yanvarda Akademiya tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo‘lgan Malaka oshirish markazi tashkil etildi[123]. Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallarida imom-xatiblar, imom noiblari, diniy soha mutaxassislari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, oliy va o‘rta ta’lim muassasalarining sohaga tegishli pedagog kadrlari qayta tayyorgarlikdan o‘tadi va malaka oshiradi.

Mazkur markaz 2025 yil 21 apreldan e’tiboran Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti sifatida qayta tashkil etildi. Institut islomshunoslik, dinshunoslik, davlat va din munosabatlari asoslari, shuningdek, radikallashuvning oldini olish yo‘nalishlarida diniy sohada mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga mas’ul muassasa etib belgilandi[124].

2019 yil 17-18 oktyabr kunlari davlatimiz rahbarining Surxondaryo viloyatiga tashriflari davomida bergan topshiriqlari ijrosi yuzasidan Surxondaryo viloyati Termiz shahrida “Imom Termiziy” o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi tashkil etildi. Ta’lim muassasasi 2020 yil 8 iyun kuni 24-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Ta’lim muassasasi O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy ta’lim muassasasi bo‘lib, o‘rta maxsus diniy ma’lumotli islom shariati va hadis ilmlari mutaxassisi, dinshunos, imom-xatiblar tayyorlanadi. Mazkur madrasa tashkil etilganidan so‘ng idora

[122] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.08.2003 yildagi “Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida”gi 364-son qarori.
[123] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.01.2019 yildagi “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida Malaka oshirish markazi va «Ziyo» media markazini tashkil etish hamda ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 25-son qarori.
[124] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025 yildagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-68-son farmoni.

tasarrufidagi o‘rta-maxsus ta’lim beradigan muassasalar soni 10 ta yetdi. Shundan 8 tasida o‘g‘il bolalar, 2 tasida ayol-qizlar ta’lim olib kelishmoqda.

2021 yil avgust oyida O‘zbekiston musulmonlari idorasida “Qur’oni karim va tajvidni o‘rgatish” bo‘limi tashkil etildi. Bo‘lim oliy va o‘rta maxsus diniy ta’lim muassasalari, ilmiy maktablar, tadqiqot markazlari, O‘zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi va O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida faoliyat yuritayotgan “Qur’oni karim va tajvid” kurslarining faoliyatini muvofiqlashtirish, boshqarish va rivojlantirish kabi ishlar bilan shug‘ullanadi. “Qur’oni karim va tajvidni o‘rgatish” bo‘limi mudiri vazifasiga O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faxriy doktori, bir nechta qiroatdan ijozalar sohibi Alijon qori Haydarov tayinlandi[125].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yilda Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosi yuzasidan Termiz shahrida 2020-2021 o‘quv yilidan o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi tashkil etilib, 2023-2024 o‘quv yilida ilk bitiruvchilar mazkur ta’lim muassasasini tamomladi. O‘rta maxsus islom ta’lim muassasasining uzviy davomi sifatida 2024 yil 20 iyunda Imom Termiziy nomidagi islom instituti O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi[126].

2025 yil 25 fevralda “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Konsepsiya vijdon erkinligiga bo‘lgan huquqni va O‘zbekiston Respublikasi dunyoviy davlat ekanligiga oid konstitutsiyaviy qoidalarni ro‘yobga chiqarish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, prinsiplarini va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Shuningdek, konsepsiya 7 ta bob, 41 ta banddan iborat bo‘lib, davlatchilik rivojining boy milliy-tarixiy tajribasiga va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, ko‘pmillatli va ko‘pkonfessiyali O‘zbekistonda umumjamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik asosida o‘zaro totuvlikda yashash hamda izchil taraqqiy etish uchun zarur barqaror muhitni ta’minlashga qaratilgan. Konsepsiyaning 6-bob, 3-§. Ta’lim yo‘nalishidagi davlat siyosatiga bag‘ishlangan[127].

2025 yil 21 aprelda imzolangan “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni

[125] “Qur’on tajvidini o‘rgatish” bo‘limi ochildi! 09.08.2021. Manba: muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/28111

[126] Imom Termiziy nomidagi islom institutining Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 20 iyunda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida 25-sonli guvohnoma.

[127] O‘zbekiston Respublikasining 25.02.2025 yildagi O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘RQ-1037-son Qonuni.

yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni mamlakatda ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni tizimli ravishda yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda davlat-din munosabatlarining ochiqligi, shaffofligi, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, shuningdek, diniy-ma’rifiy faoliyatni ilmiylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, respublikada islom sivilizatsiyasini o‘rganish va xalqqa yetkazish borasida faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot markazlari soni yana bittaga ko‘payib, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va O‘zbekiston musulmonlari idorasi hamda Buxoro viloyati hokimligining Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi muassisligida Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish taklifi ma’qullangan. Naqshbandiylik tariqati allomalarining yuksak insonparvarlik g‘oyalarini ilmiy asosda o‘rganish, tasavvuf ta’limoti tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish hamda soxta tariqatchilikning oldini olish kabi bir nechta vazifalar ilmiy tadqiqot markazining asosiy maqsad va vazifalari etib belgilangan.

O‘tgan qisqa vaqt mobaynida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi (2017), Imom Buxoriy (2017), Imom Termiziy (2017), Imom Moturidiy (2020) xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, QarDU tuzilmasidagi Abul Mu’in Nasafiy (2022)[128], Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazlari (2025) tashkil etilib faoliyati yo‘lga qo‘yilgani islom sivilizatsiyasini o‘rganish hamda ajdodlar ilmiy merosiga ega chiqish borasida tashlangan jiddiy qadamlar hisoblanadi.

So‘nggi sakkiz yilda O‘zbekistonda jami 130 ta — 3 ta oliy va 1 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, 102 ta masjid hamda turli konfessiyaga taalluqli 24 ta noislomiy diniy tashkilot davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

O‘zbekistonda diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi fuqarolarning vijdon erkinligiga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun teng shart-sharoitlar yaratishdan, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashishdan, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashdan, jamiyatda diniy bag‘rikenglikni va dunyoviylikni ta’minlashdan iborat.

[128] Markazni tashkil etish to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 oktyabda Qashqadaryo viloyatiga safarda bildirilgan edi. Qarshi davlat universiteti rektori D. Nabiev tomonidan ijro etishga kirishilib, 2022 yil 17 maydagi 243 X-sonli buyrug‘i bilan ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilgan. Mazkur markazni alohida davlat muassasasi, xalqaro ilmiy tadqiqot markazi qilib qayta tashkil etish xususida loyiha Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan.

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANIShDA AXLOQ PRINSIPLARI

To‘lqin Azimov,
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, tibbiyot, ta’lim, moliya va sanoat kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda. SIdan foydalanishda axloqiy prinsiplarga rioya qilish texnologiyaning xavfsizligini ta’minlaydi va jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi. SIning takomillashuvi bilan axloqiy, jumladan, diniy-axloqiy muammolar haqidagi muhokamalar paydo bo‘ldi.

Sun’iy ong texnologiyalari qaror qabul qilishda mustaqillik darajasiga ega bo‘lib, bu bir qator axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur tizimlar ommaviy ma’lumotlar asosida o‘qitiladi. Agar bu ma’lumotlarda ijtimoiy yoki tarixiy qiyoslash mavjud bo‘lsa, SI qarorlari adolatsiz bo‘lishi mumkin[129].

Vaqt o‘tgan sayin sun’iy aql tizimlari ma’lumotlar bilan o‘qitilishi natijasida foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlariga asoslanib, ularni noqonuniy ishlatilishi xavfi mavjud. GDPR[130] qonunchiligi ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi, ammo ko‘p mamlakatlarda bu borada qonunchilik me’yorlari yetarli emas[131].

SI qarorlari oqibatlari, masalan, “aqlli” shaxsiy transport vositalari avariyaga uchrasa, jismoniy va texnik zararlari uchun mas’uliyat axloqiy va huquqiy choralarni talab qiladi[132].

Dunyoda sun’iy intellekt texnologiya va tizimlarini ishlab chiqarish yoki foydalanish axloqi bo‘yicha bir qator tashabbuslar mavjud. UNESCOning 2021 yilda qabul qilingan “Sun’iy intellekt etikasi to‘g‘risida”gi tavsiyasi shaffoflik va inson huquqlariga rioya qilishni ta’kidlaydi[133].

SI bilan bog‘liq muammolardan biri uning qarorlari foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi bilan bog‘liq. Turli tillilik, til hususiyatlari va stilistikasi, foydalanuvchining bilimlar bazasi va dunyoqarishi sun’iy aql qarorlari va

[129] West, S. M., Whittaker, M., & Crawford, K. (2019). Discrimination in the Age of Algorithms. Nature, 568(7750)
[130] General Data Protection Regulation. Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi” umumiy reglament bo‘lib, 2018 yil 25 maydan boshlab amalga kiritilgan.
[131] Hoofnagle, C. J., van der Sloot, B., & Borgesius, F. Z. (2019). The European Union General Data Protection Regulation: What It Is and What It Means. Information & Communications Technology Law, 28(1), – B. 65-98.
[132] Hevelke, A., & Nida-Rümelin, J. (2015). Responsibility for Crashes of Autonomous Vehicles: An Ethical Analysis. Science and Engineering Ethics, 21(3), – B. 619-630.
[133] Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Retrieved from https://unesco.org/ai-ethics

tavsiyalarining aniqligiga ta’sir qiladi. Explainable AI (XAI)[134] mavjud SI tizimlari algoritmlarning ishlash mexanizmini ochiqlashga xizmat qiladi[135].

SI barcha foydalanuvchilarga teng munosabatda bo‘lishi, ustuvorlik bermaslik yoki kamsitilishga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Buni ta’minlash uchun ma’lumotlarni filtrlash va algoritmlarni tekshirish lozim[136]. Shu bilan birga SIdan foydalanishda diniy-ahloqiy masalalar muhim ahamiyatga ega. Islom, nasroniylik kabi jahon dinlari SI qarorlarining axloqiy asoslariga ta’sir ko‘rsatadi.

Nasroniylikda SI qarorlarining insonparvarlik va mehr ko‘rsatish prinsiplariga muvofiq bo‘lishi ta’kidlanadi[137]. Boshqa dinlarda esa SIning zarar yetkazmaslik prinsipiga rioya qilishi muhim deb hisoblanadi[138].

Islom axloqida inson qadr-qimmati, adolat va mas’uliyat ustuvor ahamiyatga ega. SI algoritmlari ushbu prinsiplarga zid bo‘lmasligi kerak. Masalan, islomda shaxsiy hayotning daxlsizligi muhim bo‘lib, SI tizimlari foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini noqonuniy ishlatishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

SI qarorlari rostgo‘ylik, adolatga asoslanishi kerak, chunki islomda zulm va adolatsizlik qat’iy man etiladi. Masalan, ishga qabul qilishda yoki moliyaviy munosabatlarda SI algoritmlari jins, millat yoki dinga asoslangan qiyoslanishlarga yo‘l qo‘ymasligi lozim[139].

Texnologiyalardan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanish mumkin emas. Sodda insonlarni ishontirish uchun mashhur kishilar qiyofasi va ovozi bilan o‘zlarining yovuz maqsadlarini amalga oshirayotganlarga choralarni keskinlashtirish kerak.

“Ey iymon keltirganlar, Allohdan qo‘rqinglar va rostgo‘ylar bilan birga bo‘linglar”[140].

Islom axloqida mas’uliyat masalasi ham muhim. SI tizimlari xato qaror qabul qilsa, mas’uliyat ishlab chiqaruvchi yoki tizim operatorida ekanligi ta’kidlanadi[141].

---

[134] Sun’iy intellekt (SI) qabul qilgan qarorlarni izohlab bera oladigan va odamlar uchun tushunarli qilib taqdim qiladigan texnologiyalar va usullar majmuasidir.

[135] Gunning, D., Stefik, M., Choi, J., Miller, T., Stumpf, S., & Yang, G.-Z. (2019). XAI – Explainable Artificial Intelligence. Science Robotics, 4(37).

[136] Mehrabi, N., Morstatter, F., Saxena, N., Lerman, K., & Galstyan, A. (2021). A Survey on Bias and Fairness in Machine Learning. ACM Computing Surveys, 54(6), – B. 1-35.

[137] Davies, J. (2019). Artificial Intelligence and Christian Ethics: A Dialogue. Theology and Science, 17(4), – B. 512-524.

[138] Hershock, P. D. (2021). Buddhism and Artificial Intelligence: Ethical Reflections. Journal of Buddhist Ethics, 28, – B. 45-72.

[139] Alserhan, B. A., & Al-Khatib, J. A. (2022). Islamic Marketing Ethics and Artificial Intelligence: A Framework for Responsible AI Development. Journal of Islamic Marketing, 13(5), – B. 1023-1042.

[140] Tavba surasi, 119-oyat. https://quranenc.com/uz/browse/uzbek_sadiq/9#119

[141] Kamali, M. H. (2019). Principles of Islamic Jurisprudence and Artificial Intelligence. Islamic Law and Society, 26(4), – Б. 387-412.

SI ishlab chiqishda islom axloqiga muvofiqligini ta’minlash uchun fatvo kengashlari va islom olimlari bilan hamkorlik tavsiya etiladi. Masalan, tibbiy SI tizimlarida bemorlarning hayoti bilan bog‘liq qarorlarda “hayotni muhofaza qilish” prinsipi asos qilib olinishi kerak[142].

O‘zbekistonda SI texnologiyalari rivojlanmoqda, lekin axloqiy prinsiplari bo‘yicha qonunchilik shakllanmagan.

Ma’lumotlar daxlsizligi, maxfiyligi va SIdan foydalanishni tartibga solish uchun milliy qonunchilik hujjatlari ishlab chiqish kerak. Bu GDPR va milliy-diniy axloq prinsiplariga asoslanishi mumkin.

SI axloqi va islom prinsiplari bo‘yicha tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim muassasalarida yo‘nalishlar va kurslar tashkil qilish taboro rivojlanib borayotgan texnologiyalar bilan bog‘liq muammolarni oldini oladi.

O‘zbekiston UNESCO, IEEE va xalqaro islom tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirib, SI etikasi bo‘yicha standartlarni joriy etishi mumkin.

SI foydalanishda diniy-axloqiy prinsiplarga rioya qilish texnologiyaning xavfsiz va adolatli qo‘llanishini ta’minlaydi. Algoritmlarning qiyoslanishi, ma’lumotlar maxfiyligi, mas’uliyat va islom axloqiga oid masalalarni hal qilish uchun shaffoflik, adolat va xalqaro hamkorlik muhim. O‘zbekistonda SI axloqini rivojlantirish uchun qonunchilik, ta’lim va ulamolar bilan hamkorlik zarur. Bu sa’y-harakatlar texnologik rivojlanishni tezlashtiradi va jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi.

RADIKALIZMGA QARSHI MA’RIFIY KURASH BUGUNNING DOLZARB MUAMMOSI

Badiyev Shukurjon Komil o‘g‘li
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi globallashuv davrida davlatlarning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi ko‘p jihatdan jamiyat a’zolari, xususan yoshlarning siyosiy faolligiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Siyosiy faollik esa o‘z navbatida mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda siyosiy jihatdan faol ishtirok etishni talab qiladi. Demokratik mazmundagi va insonparvarlik g‘oyalari bilan mustahkamlangan

[142] Siddiqi, M. (2020). Islamic Ethics and Artificial Intelligence: Principles and Challenges. Journal of Islamic Studies, 31(2), – Б. 189-210.

hamda milliy o‘ziga xos xususiyatlar bilan himoyalangan siyosiy madaniyat modeli ko‘proq o‘zining yashovchanligini ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, yoshlarning siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatishga intilayotgan buzg‘unchi kuchlar manbalarini aniqlash, yoshlarda barqaror siyosiy madaniyatni shakllantirish davr talabiga aylangan. Shu bilan birga, bugungi axborot asrida ma’lumotlar oqimining kuchayib borayotganligi ijtimoiy hayotimizda ularni saralash va tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Bu ma’lumotlar ichida yoshlar qatlami ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, ularda ijtimoiy-siyosiy keskinlik kayfiyatini keltirib chiqaruvchi “oqimlar”ning mavjudligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, yoshlarda radikal kayfiyatga undash holatlari tobora avj olgan. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o‘tmayapti”[143]. Ayni mazkur dolzarblik davlatning yoshlar siyosatini chuqur tanqidiy ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Bu boradagi asosiy yondashuvni Prezidentimiz o‘zining Oliy Majlisga murojaatnomasida alohida ta’kidlab o‘tdi: “Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga,yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz”[144]. Shunday ekan, bugungi kunda radikalizm mafkurasi g‘oyalari mazmunini anglash va uning yoshlarning faol siyosiy intilishlari uchun asosiy manbaga aylanib qolmaslik choralarini ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab, “radikalizm” tushunchasi va uning turli talqinlari, kelib chiqish tarixi va siyosiy-mafkuraviy asoslarini o‘rganish hamda namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Radikalizm ko‘pincha norozilik va muxolifat faoliyatining ayrim subyektlarining siyosiy manfaatlarini tavsiflash uchun «siyosiy ekstremizm» iborasining sinonimi sifatida ishlatiladi. Biroq, ularning farqi aniq va siyosiy nizolarni hal qilishning demokratik va konstitutsiyaviy-me’yoriy vositalarida ko‘rinadi.

“Radikal” atamasi – lotincha “radicalis” - “ildizga oid”, “ildiz” so‘zidan olingan bo‘lib, qat’iy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdori, degan ma’nolarni anglatadi. Shu bilan birga, ba’zitalqinlarga ko‘ra, “Radikalizm – tom ma’noda oxirigacha borish, har qanday faoliyatda tub o‘zgarishlarga erishish

[143] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekistonxalqiga Murojaatnomasi//https://president.uz/oz/lists/view/5774/. – 20.12.2022.

[144] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi
// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 yil 20 dekabr, №272 (8334), - B.3.

uchun murosasiz istakni anglatadi”[145]. Mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o‘zgarishlar va islohotlar o‘tkazishni talab etuvchi siyosiy oqim sifatida e’tirof qilinadi. Bunday oqim tarafdorlari o‘z oldiga qo‘ygan g‘arazli maqsadi yo‘lida hech narsadan tap tortmaydi. Yer yuzidagi mavjud davlatlarning tinchligi, davlat sifatidagi maqomi, milliy qadriyati, tili, dini, asriy an’analarining izdan chiqishi, emirilishi uchun yovuz harakatini olib boradi. Buning natijasida butun bir xalqning siyosiy-ijtimoiybarqarorligiga tahdid tug‘iladi.

Radikal g‘oyalar va harakatlar qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lsa-da, «radikalizm» atamasi XVIII asrning oxirida Angliyada paydo bo‘lgan. Bu tushuncha falsafani ham, dinni ham, siyosatni ham, g’oyalarni ham, usullarni ham qamrab oladi. «Radikalizm» va «ekstremizm» tushunchalari hokimiyat uchun yoki mavjud hukumatga karshi kurash bilan birga paydo bo‘lgan hodisalarning o‘zidan ancha keyin paydo bo‘lgan.

Radikalizm bo‘yicha kanadalik tadqiqotchi M.Nyuman ushbu atamani ilk bora 1802-yilda chop etilgan qisqa Oksford lug‘atida uchratganini ta’kidlaydi[146]. Shuning uchun ushbu atama ancha oldin ham turli ma’nolarida qo‘llangan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, u dastlab I.Bentam tomonidan falsafaning yangi yo‘nalishiga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik bu tushuncha siyosiy, diniy, madaniy okimlarga tarkalib, XIX asrda ijtimoiy va siyosiy qarashlar va mafkuralarga doir mavzular doirasiga kirib boradi.

Radikalizmning ilmiy tadqiqi ta’riflarning keng doirasi bilan tavsiflanadi. Ko‘pincha bu tushuncha mavjud ijtimoiy va siyosiy institutlarni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan siyosiy g’oyalar va harakatlarni bildirish uchun ishlatiladi.

Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qilayotgan davrda radikallashuvga qarshi kurash dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda bashariyat qo‘lida to‘planib qolgan ommaviy qirg‘in qurollari er kurrasidagi hayotni bir necha bor yo‘q qilishga qodir. Biroq, bugungi kunda biron bir kuchli davlat boshqa bir mamlakatni kuch yo‘li bilan qaram qila olmaydi. Bu borada fikriy kurash, mafkuraviy tazyiq asosiy qurolga aylanmoqda. Chunki, fikran qaram mamlakatning moddiy va ma’naviy boyliklarini uning hududiga qurol olib kirmay turib ham o‘zlashtirish mumkin. Ammo, mafkuraviy kurash, fikriy tazyiqning ta’siri birdaniga ko‘zga tashlanmaydi. Yillar davomida uning oqibatlari bo‘y

[145] Novaya filosofskaya ensiklopediya : v 4 t. / In-t filosofii RAN; nauch.-red. sovet: V.S.Stepin, A.A..Guseynov, G. Yu.Semigin. – M.: Мыsl, 2010. – T. 3 : N–S. – S.395-396 .– 692 s.

[146] Neumann M. What’s Left?: radical politics and the radical psyche. Peterborough (Canada) ; Lewiston (N.Y.), 1988. – P.230.

ko‘rsatib boradi. Shu sababdan ba’zan ko‘zimizga jozibali timsollarida ko‘ringan g‘oyalar ortida ham milliy o‘zligimizga zid qarashlar mavjud bo‘lishi mumkin.

Radikalizm insoniyat uchun ulkan xavfdir. Uning har qanday ko‘rinishi, milliy, diniy yoki siyosiy bo‘lsin, atrofdagilarning hayotiga yomon ta’sir qiladi, izdan chiqaradi, ba’zida minglab qurbonlar ham beradi.

Radikalizm:

- shaxs yoki guruh o‘z dunyoqarashiga, fikrlariga, hayot tarziga, prinsiplariga to‘g‘ri kelmaydigan har qanday tushunchani rad etishi,

- o‘z yo‘lini eng to‘g‘ri yo‘l deb bilib, qolganlarni adashganlar deb bilish;

- o‘zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan nafrat;

- kerak bo‘lsa ularni majburlab o‘z yo‘lidan yurgizishni xohlash[147].

Radikalizm demokratiya va tolerantlik g‘oyalarining butunlay qarama-qarshisidir chunki asosiy muammo ular boshqalarning erkini keskin cheklashi yoki shunga harakat qilishidadir.

Bizda so‘nggi yillarda radikalizm so‘zi asosan dindorlarga nisbatan qo‘llanildi. Lekin, aslida radikalizmning turlari ko‘p va uning har qanday shakli jamiyat uchun xavfli. Radikal dindorlar xavfli bo‘lgandek, radikal ateistlar, radikal feministlar, radikal millatparastlar, radikal kommunistlar va boshqa radikallar ham birdek xavfli.

Rivojlangan mamlakatlar matbuotida radikal guruhlar haqida ko‘proq yoritilgani uchun bu muammo ko‘proq ularga xosdek ko‘rinadi. Lekin, radikalizm ko‘proq uchinchi dunyo mamlakatlariga xos xususiyatdir. Masalan, dunyoda eng millatparastlik yoki milliy radikalizm rivojlangan mamlakat sifatida Hindiston mamlakati e’tirof etiladi.

Odatda radikal shaxslar toqatsiz bo‘lganligi uchun ularni o‘zgartirish, muammoni echish yillar, ba’zida asrlar talab qiladi. Ular bilan bahslashib dunyoqarashini o‘zgartirish, ularni erkin fikrlashga majburlash imkoni deyarli yo‘q. Chunki sog‘lom fikr aytilgan holatda ularning psixologik quroli sizning oilangiz, turmush o‘rtog‘ingiz, farzandlaringiz yoki shaxsiyatingizga hujum bilan boshlanadi va odatda eng qabih psixologik qurollarni qo‘llashadi. Ularda skeptik dunyoqarash yo‘qligi sababli umumlashtirishni juda yaxshi ko‘rishadi. Har bir soqol qo‘ygan odam terrorist, qaysidir diniy dunyoqarashni savol ostiga qo‘ygan odam din dushmani kabi umumlashtirishlar radikallarning aksariga xos xususiyatdir. Ular bilan qanchalik bahs qilib, ularga qanchalik qarshilik

[147] https://t.me/centerasiastudy

ko‘rsatsangiz, ular shunchalik radikallashib borishadi chunki ular hayotni o‘z dogmasi o‘lchovlari bilangina ko‘roladilar.

Ko‘pincha radikallar o‘ziga ishongan, baxtli odamlardek ko‘rinadi. Aslida ular o‘zgalarga nisbatan nafrat bilan yashaydigan, ruhiy tomondan juda kuchsiz odamlar bo‘lishadi. Radikallarga xos xususiyatlardan biri skeptik yoki tahliliy ongning mavjud emasligi, o‘z dogmasiga to‘g‘ri keladigan har qanday ma’lumotni hech qanday tahlilsiz, savollarsiz mutlaqo haqiqat sifatida qabul qilishdir. Shuning uchun ham radikal insonlarni manipulyatsiya qilish, o‘zidan chiqarish, ulardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanish juda oson.

Tolerantlik, ochiq fikrlilik bu ziyoli, bilimli, keng dunyoqarashga ega qatlamga tegishli xususiyatlar bo‘lib, radikallardagi ichki ojizlik, shaxs sifatida shakllanishidagi muammolar bu xususiyatlarni o‘zlarida shakllantirish imkonini bermaydi.

Ekstremizmga o‘tishga qarab ketadigan radikalizm – misoli virus. O‘ta xavfli, ko‘rinmas, tez yuqadigan, o‘ldiruvchi virus. Bu dardga duchor bo‘lgan ota bolasini ham hasta qiladi. Radikal o‘qituvchi shogirdiga radikallikni yuqtiradi. Shu tarzda ma’naviy nizomlarni chekkaga surib qo‘yadigan shaxslar safi kengayadi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, radikalizm illati kishini shijoatli qiladi. Faqat bu shijoat salbiy tomonga ishlaydi. Va o‘z kurashida bunday kishilar bu yo‘lda boshqalarga qaraganda ma’lum ustunlikka ega bo‘ladilar. Qanday ustunlikka?

Gap shundaki, mo‘tadil e’tiqodda bo‘lganlarning harakatlari ma’naviy cheklovlar bilan cheklanadi doim. Ya’ni ular biron harakat qilayotganlarida ishlarini mudom ma’naviy taroziga soladilar. Radikal g‘oyalarga duchor bo‘lganlar esa, hali aytganimizdek, bunday cheklovlardan o‘zlariga o‘zlari “ruxsat berishgan” bo‘ladi, ya’ni qo‘llari echilgan bo‘ladi.

Radikal kayfiyatdagi kishilar guruhlarga birlashishga, maqsadlariga erishish yo‘lida zo‘ravonlik ishlatishga, o‘zlariga qarshi chiqqanni noqonuniy yo‘llar bilan bartaraf etishga, g‘oyalarini yoyish uchun hech narsadan qaytmaslikka moyil bo‘ladilar. Aynan shunisi jamiyat uchun ulkan xatar.

Radikallashish avvalida xavfli bo‘lmaydi – ko‘rinishlari anchayin beozor bo‘ladi: shunchaki keskinroq fikrlar, biron bir o‘ziga ma’qul bo‘lmagan gap aytilganda asabiylashish kuzatiladi. Bu hali ikkilanish bosqichi. Bu bosqichda kishi radikal harakatlarga qodir bo‘lmaydi, hamda fikrlarini o‘zgartirishi, mo‘’tadillikka qaytishi mumkin bo‘ladi.

Kuchayganda esa u... e’tiqodga aylanadi – neofashizm, neonatsizm, shovinizm, ultramillatchilik va hokazolar – shular qatorida.

Radikal fikrlar e’tiqodga aylanganda kishi bemalol ma’naviy chegaralardan hatlab o‘tadi. Bir qarashda u yaxshi maqsadlar uchun kurashyapti, deylik, millat sha’nini tiklash haqida gapiryapti, adolatni tiklashni yoqlayapti, ammo harakatlari o‘sha millat manfaatlariga zid, adolat ilinjida qilinayotgan ishlari esa – adolatsizlik.

Shu uchun ham radikal-ekstremistik guruhlar deyarli barcha davlatlarda man etilgan – xalqlar ulardan olovdan qo‘rqqandek cho‘chishadi va faoliyatini qonunan ta’qiqlashadi.

Faqat ba’zi davlatlarda siyosatchilar va jamoatchilik tomonidan radikal guruhlarga nisbatan “ko‘z yumish”, ba’zilarida zimdan qo‘llab-quvvatlash kuzatiladi. Zero, o‘sha siyosatchilar va jamoatchilikning o‘zi radikal qarashlarda bo‘ladi, faqat buni oshkor qilmaydi.

Aynan shunday davlatlarda “olov bilan o‘ynashish” yuz beradi. Chunki bunday davlatlardagi vaziyat doim... “qil ustida” turadi[148].

Yoshlar o‘rtasida xavfni kamaytirish va radikallashuvga chidamliligini oshirish jarayonining muvaffaqiyati ularning ehtiyojlarini erkin ifoda etish, plyuralizm va xilma-xillik g‘oyalarini ilgari surish uchun turli platformalarni yaratishni talab qiladi. Yoshlar rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarida ham, siyosiy va mafkuraviy jihatlarda ham jamiyatning boshqa barcha a’zolari va ayniqsa davlat tomonidan muntazam va to‘liq e’tiborni talab qiladi[149].

Yoshlar siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi radikallashuvning yuza kelish sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Birinchidan, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, demografik nomutanosiblik, migratsiya jarayonlari, hayot darajasi va sifatining pasayishi kabi salbiy tendensiyalarda ifodalangan tarkibiy va texnologik omillar ijtimoiy norozilik va ziddiyatlarning kuchayishiga yordam beradi; Ikkinchidan, anormativ xulq-atvorga moyillik, dunyoqarash va ma’naviy-mafkuraviy omillar, ijtimoiy-psixologik munosabatlar va shaxs xususiyatlari, ichki xulq-atvor shakllaridagi o‘zgarishlar va axloqiy muammolar ko‘lamining ortishi; Uchinchidan, ma’naviy negativizm, huquqiy nigilizm, korrupsiyaning kengayishi, ijtimoiy kafolatlar tizimining barbod etilishi, shaxs va mulkning huquqiy daxlsizligi, demokratik islohotlarni rad etish va avtoritar tendensiyalarning kuchayishi, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatining zaifligi; To‘rtinchidan, an’anaviy qadriyatlar tizimining parchalanishi, yashirin va aniq me’yoriy ziddiyatlar, samarali siyosiy va ta’lim muassasalaridan

[148] https://t.me/centerasiastudy

[149] "Ko‘plab mamlakatlarda yoshlarning radikallashuviga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatmoqda" – Xalil Mona Abdul Malik xonim...//https://insonhuquqlari.uz/oz/news/koplab-mamlakatlarda-yoshlarning- radikallashuviga-bir-qancha-omillar-tasir-korsatmoqda-xalil-mona-abdul-malik- xonim

foydalanish imkoniyatining yo‘qligi, mavjud vaziyatni demokratik yo‘llar bilan o‘zgartira olmaslik, norozilik bildirish uchun rasmiy va samarali muloqat kanallarning etarli emasligi, davlat tuzilmalari, siyosat subyektlarning bildirilgan noroziliklarni inobatga olmaslik, davlat tuzilmalari tomonidan noqonuniy zo‘ravonlik qo‘llanishi; Beshinchidan, hukmron elitaning jamiyatda yetilib turgan muammolarni samarali hal eta olmasligi, davomiy inqirozlardan chiqish yo‘llarini topa olmasligi va jamiyatdagi siyosiy madaniyatning hukmron modelidan, davlatning siyosiy va boshqaruv apparati samaradorligidan norozilik.

Xulosa qilib aytganda, radikalizmning har qanday ko‘rinish jamiyat uchun xavflidir. Ma’lum bir radikal guruhlarning jamiyatda ta’siri oshib ketishi boshqa qatlamlarning huquqi va erki cheklanishiga olib keladi.

Biz radikallar bilan rivojlangan mamlakat qurolmaymiz. Bizga ochiq fikrli, o‘zini, bilimlarini savol ostiga qo‘ya oladigan, izlanishdan to‘xtamaydigan, o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, haqiqatni aytishdan qo‘rqmaydigan intellektual bilimlarga ega qatlam shakllanishi kerak. Bugungi kunda butun dunyo uchun xatarga aylanib ulgurgan diniy ekstremizm va terrorizm muammosiga qarshi kurashishda ekstremizm va terrorizmning oldini olish bo‘yicha amalga oshiriladigan turli chora-tadbirlarning barchasi tizimli bo‘lishi kerak. Radikal mafkurasiga qarshi barcha uchun tushunarli bo‘lgan diniy g‘oya qo‘llanishi lozim. Ayrim zamonaviy musulmonlarning diniy qarashlari siyosiylashtirilgan va mafkuraviydir. Shu munosabat bilan ularning qarashlarini siyosat va mafkuradan ijtimoiylashuvga o‘zgartirish o‘ta dolzarbdir.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “AL-MUFASSAL” ASARIGA YOZILGAN ENG MASHHUR SHARHLARIDAN BIRI AL-JANDIYNING “AL-IQLID” KITOBIDIR

Samariddin AHMEDOV
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
“Tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
samariddin2023@gmail.com

Ulug‘bek HASANOV
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
“Tillar” kafedrasi mudiri
ulugbekhasanovqori@gmail.com

Mahmud Zamaxshariyning “Mufassal” asari arab tili grammatikasiga oid mashhur asar bo'lib, ushbu manba soha olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan va unga ko'plab sharhlar yozilgan. Asarni o‘rgangan shorihlardan biri Ahmad ibn Mahmud ibn Umar al-Jandiy Hanafiydir. Ushbu olim haqida manbalarda kam sonli ma'lumotlar uchraydi. Al-Jandiy Turkiyaga chegaradosh bo'lgan Sayhun tarafdagi Jand degan joyda tavallud topgan. Biroq tug'ilgan sanasi borasida tarix kitoblarida aniq ma'lumot keltirilmagan. Vafot etgan sanasi esa 700/1300-yil ekanligi aniq aytib o'tilgan.

Al-Jandiy ta'lim olgan ustozlari, uning qo'lida tahsil olgan shogirdlari borasida biografik manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan.

“Al-Iqlid” mufassal fi sun'at al-i'rob" asari Zamaxshariyning mashhur "al-Mufassal" nomli asarini sharhlashga bag‘ishlangan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Xayriddin Zirikliy “al-A`lam” (Eng mashhur arab hamda arablashgan va sharqshunos olimlar qomusi) asarida Al-Jandiy “al-Iqlid” asarini buxoroda ta'lif qilganini keltirib o'tilgan[150]. Shuningdek, bu asar Buxoroda yozilganligini tasdiqlovchi dalillardan yana biri – "al-Iqlid"ning oxirgi bobida keltirilgan so‘zlardir. U erda shunday deyiladi: "Men buni Buxoroda yozdim – zamonlar o‘tgan sari – o‘zining sevimli yurti uchun mehnat qilgan kishining ishi sifatida Alloh uni har xil ofatlardan himoya qilsin, "[151].

Ushbu sharh muallifi al-Jandiy "Mufassal" asarining mazmunini nafaqat izohlab bergan, balki uni murakkab va noaniq joylarini tahlil qilib ilmiy asosda yoritib berishi bilan birga, ularni oddiyroq va tushunarliroq shaklda izohlar bilan boyitgan. Shuningdek Olim grammatika qoidalarini chuqur tahlil qilish bilan

[150] Xayriddin Xayriddin Zirikliy. Al-A’lom. –Bayrut. Doru-l-Ulum lilMalaiin, 2002. –J I. –B. 254.
[151] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. Maktabt Malik Fahd, 2002. J. II. – B. 2188.

birga, qoidalarning qo‘llanilish sabablari va lingvistik mexanizmlarini ochib bergan, bu esa ilmiy qiymatga ega bo‘lgan yondashuvdir. Kitobda Qur’on oyatlari, hadislar, mashhur maqollar va poetik asarlardan olingan dalillar keltirilgan bo‘lib, bu dalillar grammatik qoidalarni nazariy va amaliy jihatdan isbotlashga xizmat qiladi. Muallif ilmiy muloqot usulidan keng foydalangan holda, o‘quvchini savol-javob shaklida jarayonga jalb qilgan. Ushbu uslub ma’lumotni tizimli o‘zlashtirish va mantiqiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sharh o‘z ilmiy ahamiyati tufayli bir qancha tilshunos olimlar tomonidan asosiy manba sifatida foydalanilgan. Jumladan, Bag‘dodiy "Xazona al-Adab" asarida, Hoji bobo at-Tusiy "Mia komila fi sharh mia omila" asarida, Tahomiy "Maqolid" kitobida foydalangan.

Olim o‘zining asarida Qur’oni karim oyatlari, Rasulullоh (alayhissalom)ning hadisi shariflari, arab tilida keng tarqalgan zarbul masallar hamda she’riy dalillardan o‘ziga xos ilmiy-metodik yondashuv asosida dalillar keltirgan.

“Al-Iqlid” asari boshqa grammatikaga oid kitoblardan Qur’oni karim oyatlaridan juda ko’p misollar qo‘llashi bilan ajralib turadi. Asarda to‘rt yuzdan ortiq oyati karima keltirar ekan, ularni tahlil etishda oyatlarning stilistik, balog‘iy mazmunlarini ham keng yoritib beradi.

Mahmud Zamaxshariy “Mufassal” asarida “لعل” (shoyad) kalimasi – amalga oshishi mumkin bo‘lgan ishga umid bog‘lash yoki yuzaga chiqishi aniq bo‘lgan ish bilan tahdid qilish mazmunida qo‘llanishini aytib, quyidagi oyatlarni misol qilgan. Shuro sura 17-oyati: “لعل الساعة قريب” (ehtimol qiyomat yaqindir) va Oli Imron sura 130-oyati: “لعلكم تفلحون” (shoyat najot topsangiz). Umar Jandiy “لعل” kalimasi ba’zan umidsizlik ma’nosidagi “ليت” (qani edi) kalimasi mazmunida qo‘llanishini qo‘shimcha qiladi va buni : “قال فرعون يهمن ابن لي صرحا لعلي أبلغ اسباب” (Fir'avn aytdi: “Ey, Homon, menga bir (baland) minora qurgin, shoyadki, men (unung ustiga chiqib) yo‘llarga etsam”[152]) oyati karimada mazkur kalima “ليت” ma’nosida chunki “ليت” yuzaga chiqishi imkonsiz bo‘lgan ishlar uchun ishlatiladi. Zero Firavn fikricha osmonlar sabalariga etishish imkonli deb, da’vo qilgani va umid qilgani sabab o‘z so’zini “لعل” kalimasi bilan ifoda etgan bo’lsa-da, bu ish haqiqatda imkonsiz bo ‘lgani uchun “لعل” kalimasini bu o’rinda “ليت” ma’nosida

[152] Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolari tarjima va tafseri. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 471.

deb qabul qilish mumkin. Jumladan “لعل الشباب يعود” (shoyad yoshlik qaytib kelsa) deb emas, balki, “ليت الشباب يعود” (qani edi yoshlik qaytib kelsa) deb aytiladi[153].

Shunungdek muallif Umar Jandiy dalil sifatida keltirilgan Qur’on oyatlarini tahlil qilishda undagi ehtimoliy sintaktik va semantik jihatlarini ham keng yoritib bergan. Misol uchun Mahmud Zamaxshariy “Holatni ifodalovchi hol” va uning omili (ta’siriga oluvchisi)ni bayon qilish asnosida holning ma’naviy omiliga, Alloh taoloning quyidagi: “و هذا بعلي شيخا” (bu erim qariya bo‘laturib,[154]) so’zini dalil qilib keltiradi va “al-Mufassal” muallifi qarashlarini bayon qilgach oyati karimadagi “شيخ” so’zining beshta jihatdan ko‘ra bosh kelishikda bo‘lish ham mumkin ekaniga to‘xtalib o‘tadi:

1- “شيخ” lafzi izohlovchi bo‘lganligiga ko‘ra;

2- yoki “بعلي” kalimasi “هذا” ni sifat bo’lmagan izohlovchisi bo‘lib, “شيخ” kalimasi esa kesim bo‘lganligiga ko‘ra;

3- “شيخ” va “بعلي” kalimalaridan har ikkisi “هذا” ga kesim bo’lganligiga ko‘ra;

4- “شيخ” kesim “بعلي” esa “هذا” ni izohlovchi [sifat bo'lmagan ism bilan izohlash] (عطف بيان) bo’lganligiga ko‘ra;

5- Tushib qolgan eganing kesimi bo‘lganiga ko‘ra[155].

Olim Qur’on oyatlarini dalil sifatida keltirgach ular bo’yicha nahv olimlari qarashlari va qiroat yo’sinlarini tahlil qilgan hamda oyatning grammatik holatidan yiroq bo’lgan fikrlarga ilmiy asoslar bilan javob bergan. Jumladan, Shuaro surasi 197-oyatidagi “أَوَلَمْ يَكُنْ لَهُمْ آيَةً أَنْ يَعْلَمَهُ عُلَمَاءُ بَنِي إِسْرَائِيلَ” (Axir, (Qur’on haqida) isroil avlodi ulamo (ruhoniy)larining bilishlari ular uchun dalil emasmi?![156]) oyati karimasidagi “آيَةً” kalimasini Ibn Omirdan boshqa qiroat imomlari “nasb” – tushum kelishigida tilovat qilgan. Ibn Omir qiroatida esa “آيَةً” so’zi “لم يكن” fe’lining xabari bo’lib – “raf” bosh kelishikda, “أَنْ يَعْلَمَهُ عُلَمَاءُ بَنِي إِسْرَائِيلَ” jumlasi esa ushbu fe’lning ismi bo’ladi. Ushbu qiroatga ko’ra “آيَة” kalimasini “raf” bosh kelishikda o’qigan. Manashu qiroatga binoan “آيَةً” lafzi “raf” o’qilishidan kelib chiqib nahv olimi Abu Is’haq (-311/855-923 241) “آيَةً” lafzi “لم يكن”ning ismi “أَنْ يَعْلَمَهُ عُلَمَاءُ بَنِي إِسْرَائِيلَ” jumlasi esa xabari degan fikrni aytgan. Jandiy ushbu tahlilni haqiqatdan yiroq ekanini quyidagicha izohlagan: “Bu fikrni garchi nahv olimi Abu Is’haq aytgan bo’lsa-da bu

[153] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. Maktabt Malik Fahd, 2002. J.IV. – B.1751.

[154] Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolari tarjima va tafseri. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 230.

[155] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. Maktabt Malik Fahd, 2002. –J I. – B 521-522.

[156] Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolari tarjima va tafseri. – Toshkent: Sharq, 2004. –B. 375.

haqiqatdan yiroq ekani ma’lum, olim bu o’rinda xato qilgan, Oyatdagi yoyiq ma’nosi
“أولم تكن القصة أن يعلمه علماء بني إسرائيل آية” ma’nosida (tarjima) bo’lib, bu o’rinda. “لم يكن” fe’lining ismi undagi olmosh “هي” va u “qissa” ma’nosiga taqaladi. Agar “آيَةً” kalimasi “لم يكن” fe’lining ismi deyilsa, “أن يعلمه علماء بني إسرائيل” jumlasining arab tilidagi asli ko’rinishi “علم علماء بني إسرائيل” (baniy Isroil ulamolarining ilmi) bo’lib ma’rifa (aniq holatda) “آيَةً” esa noaniq holatda bo’ladi natijada aniq holatdagi ism bilan noaniq ismdan xabar berishga to’g’ri kelib qoladi, bunday grammatik tahlil nahv olimlari ittifoqiga ko’ra xatodir[157].

Aksar nahv olimlari fikriga ko‘ra til qoidalarini asoslashda Rasulullоh (alayhissalom)dan vorid bo‘lgan hadisi shariflar dalil sifatida keltirilmaydi. Bu gapga dalil sifatida nahv olimlari hadislar Rasulullоh (alayhissalom)dan eshitilgan lafzlarni o‘zida emas balki uning ma’nolari ila rivoyat qilinganligini da’vo qiladilar. Jandiy mazkur nahv olimlariga xilof qilgan holda hadisi sharifdan 19 o‘rinda va asarlardan esa 13 o‘rinda dalil sifatida foydalangan. Jumladan, olim o‘z asarining “ibdol” (bir lafz o’rniga boshqa bir lafzni evaz qilib keltirish) bobida “م” harfi, “أل” (aniqlovchi) artikl ma’nosida kelishiga Sahihi Buxoriyda kelgan Rasulullоh (alayhissalom)ning “ليس من امبر امصيام في امسفر ” (safarda ro‘za tutish yaxshilik emas[158]) hadislarini keltirib, unda kelgan quyidagi امبر, امصيام, امسفر kalimalardagi “م” harfi, “أل” (aniqlovchi) artikl ma’nosida ekanligini hamda “بيد” so’zi istisno bobidagi “غير” ma’nosida kelishiga esa “أنا أفصح العرب بيد أني من قريش و استرضعت في بني سعد بن بكر” (men arablarning eng fasohatligiman biroq men Quraysh qabilasidanman va Banu Sa’d bin Bakr qabilasi menga enagalik qilishgan) hadislarini keltirib unda kelgan “بيد” so’zi istisno bobidagi “غير” ma’nosida ishlatilganligini aytib dalillanganlar[159].

Qolaversa muallif o’z asarida yuqorida aytilgan dalillardan tashqari 80 ga yaqin zarbul masallar va xalq orasida tarqalgan mashhur so’zlardan dalil sifatida foydalanganligini kuzatish mumkin. Jumladan, muqoraba fe’llarining xabari mufrad bo’lib kelishiga dalil qilib “عسى الغويرُ أبؤسا” zarbul masalini keltirgan. Ushbu zarbul masal ربّما جاء الشر من معدن الخير- balki yomonlik yaxshilik manbasidan kelgandir – degan ma’noda bo‘lib tuhmat o‘rinlarida ishlatiladi[160].

---

[157] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. Maktabt Malik Fahd 2002. –J II. – B. 832.

[158] أخرجه أحمد بن حنبل في المسند 5/434

[159] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. Maktabt Malik Fahd, 2002. – J I. – b. 164.

[160] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. Maktabt Malik Fahd, 2002. –J III. – B 1587.

Mutaqaddim nahv olimlari shoirlarni quyidagi 4 tabaqaga bo’lishgan ular: “الشعراء الجاهليون ” (bu nomni johiliyat davrida, islomgacha bo’lgan davrda yashab ijod qilgan, Imru’ul Qoys, A’sho kabi shoirlarga), va “الشعراء المخضرمون” (bu ismni islomgacha bo‘lgan va islom davrining boshlanishida ijod qilgan Labid, Hassan bin Sobit kabi shoirlarga,) hamda “الشعراء الإسلاميون” (bu ismni islom dini kirib kelgan davrning avvalida ijod qilgan Jarir, Farazdaq kabi shoirlarga) shuningdek
“الشعراء المولودون” (bu nomni tepada zikri o‘tgan shoirlardan keyin yashab ijod qilgan shoirlarga nisbatan ishlatadi)lar bo‘lib ilk nahv olimlari shoirlarni shunday taqsimlashgan. Mazkur 4 tabaqadan avvalgi uchta tabaqaning sherlaridan dalil sifatida foydalanishgan. To‘rtinchi tabaqadagi shoirlarning she’rlaridan dalil sifatida foydalanishmagan. Buning sababi sifatida quyidagilarni aytishgan:

- mazkur tabaqadagi shoirlar ajamlar bilan aralashgan;
- quda anda bo’lgan;
- qavmining tiliga ajam tili aralashishi sababli xatolar ko’paygan;

Shu sabablar tufayli nahv olimlarining bularning she’rlariga nisbatan ishonchi yo’qolgan. Jandiy esa bu borada ilk nahv olimlariga xilof qilgan holda hech qanaqa istisnosiz to‘rtinchi tabaqadagi Hamadoniy, Mutanabbiy, ibn Rumiy, Abu Navvos kabi shoirlarning she’rlaridan ham dalil sifatida ko’p o‘rinlarda foydalangan.

“Al-Iqlid” asarida keltirilgan she’rlarni ikki toifaga taqsimlash mumkin. Birinchisi Mahmud Zamaxshariy “al-Mufassal” matnida keltirgan she’rlar. Ikkinchisi Jandiy matnni sharhlash asnosida keltirgan she’rlar.

Olim mazkur sherlardan dalil sifatida foydalanganda she’rning so’z birliklarini sharhlash, noaniq nuqtalarini izohlash, dalil sifatida keltirish sababini bayon qilish va baytlarining qissasini zikr qilish hamda grammatik tahlili kabi jihatlarini yoritishga alohida ahamiyat qaratgan.

Shorih muxtasar qilish maqsadida “al-Mufassal” matnida keltirilgan sherlarning baytlarini to‘liq keltirmasdan, “*birinchi baytga kelsak, bu baytdagi dalilga to‘xtaladigan bo’lsak, shoirning so’ziga nazar soladigan bo’lsak, Hassonnig so’ziga kelsak*” degan iboralar bilan kifoyalanganligini kuzatish mumkin. Gohida, esa “*Imruul Qoysninng “sening misling*”[161] degan uslubda baytdan bir yoki ikki kalima keltirgan.

Shorihning diqqatga sazovor uslublaridan yana biri shundaki Mufassal sohibi baytning birinchi satrini dalil qilib keltirgan bo’lsa u zot ikkinchi qismini

[161] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. Maktabt Malik Fahd, 2002. –J I. –B. 532.

zikr qilishi agar Mufassal sohibi baytning ikkinchi satrini dalil qilib keltirgan bo’lsa birinchi satrini zikr qilish ila baytni mukammal holga olib kelishi tahsinga sazovor ish hisoblanadi. Jumladan Mufassal sohibi Hassonga tegishli ushbu she’rni avvalgi baytidagi quyidagi ikkinchi satrini “يكون مزاجها عسل و ماء” keltirgan bo‘lsa , Jandiy mazkur sherning avvalgi baytidagi birinchi satrini va ikkinchi baytidagi ikkala satrlarni ham keltirishi bilan baytlarni tamomiga etkazgan.

كأن سلافة من بيت رأس يكون مزاجها عسل و ماء

على أنيابها، أو طعم غض من التفاح هصره الجناء

(Ro’sdan keltirilgan, unga suv aralashgan asal, yoki yangi terilgan sersuv olmaning ta’midagi nabiz go’yoki nabizlarning aslidir).

Jandiy mazkur baytlarning so’z birikmalari va umumiy grammatik jihatini hamda ma’nosini bayon qilgach, grammatik jihatiga bog’liq bo‘lgan yana 4 ta ehtimoliy tarkibini ham zikr qilib o’tgan. Mazkur ehtimollar bayoni quyidagicha:

- birinchi ehtimol “عسل” kalimasi “يكون” fe’lining ismi, “مزاجهَا” mansub (tushum kelishigi) bo’lib, “يكون” fe’liga xabar bo’lishi mumkin.

عسل و ماءlafzlari noaniq “مزاجهَا” esa aniq holatda bo’lsa “يكون” fe’lining ismi noaniq xabari esa aniq holatda bo’lishi mumkinmi degan savolga javob tariqasida quyidagilarni zikr qilgan. Bu o’rinda عسل و ماءnoaniq holatdagi ism bo’lsa-da bu ikki lafz ismi jins (nav) bo‘lganligi uchun ma’rifaga yaqinlashadi, natijada mazkur fe’lga ism bo’lishga salohiyatli bo‘ladi. Bunga quyidagi tarkibni misol bo’ladi, “أرجل في الدار أم امرأة” jumlasidagi iborada “رجل” va “امرأة” kalimalari jinsligi e’tiboridan aniq holatga yaqinligi sababidan shu joyda ishlatilgan.

“مزاجهَا” lafzidagi zamir (birikma olmosh) noaniq holdagi “سلافة” ga qaytgani uchun bu ism ham noaniq holda deb hukm qilinadi;

- ikkinchi ehtimol Abu Ali Jurmiyga tegishli bo‘lib, Jandiy naql qilib quyidagicha aytadi: “مزاجَهَا” hol (o’rinpayt holi) bo’lib uni nasb qilayotgan omil tarkibdan tushirib qoldirilgan “يكون” fe’lining xabaridir;

- uchinchi ehtimol “مزاجَهَا” raf (bosh kelishik) da bo‘lib “يكون” fe’lining ismi, “عسل” lafzi esa nasb bo’lib mazkur fe’lning xabari, “ماء” lafzi esa raf bo‘lib, lafzdan tushirib qoldirilgan “يخالطه” (unga suv aralashgan fe’lning foili (egasi) bo‘ladi;

- to‘rtinchi ehtimol “مزاجَهَا” raf bo’lib ega “عسل و ماء” kalimalari esa kesim, ega va kesim qo‘shilib ismiy jumla bo‘lib, lafzdan tushirib qoldirilgan olmoshi bor bo‘lgan “يكون” fe’lining xabari bo’ladi.

“Al-Iqlid” asarida keltirilgan sherlarni ikkinchi toifasini al-Jandiy mufassil matnini sharhlash asnosida o‘zining fikrini asoslash maqsadida keltirgan

sherlardir. Shorih ushbu sherlarni keltirishda ko‘p hollarda sherning muallifini zikr qilmasa-da sherning manbasiga ishora qilish bilan hamda she’rlarning ma’nolarini bayon qilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, mavsulalar (nisbiy olmoshlar) mavzusida: *“اللتيا” lafzi “التي” olmoshini erkalash shakli bo’lib, bu shaklga o’tkazilishidan ko’zlangan maqsad ulug’lashdir deb bu narsa esa arab tili uslubiyatida borligini* gohida ism bu shaklga o‘tkaziladi va undan biror-bir narsaning buyukligiga ishora qilish maqsad qilinadi deya quyidagi sherni keltirgan*:*

كل أناس سوف تدخل بينهم دويهية تصفر منها الأنامل

(insonlarga barmoqlarini sarg’aytiradigan og’ir zamonlar keladi)Ushbu sherda دويهية kalimasi “داهية” ning erkalash shakli bo‘lib, shoir “داهية”dan o‘lim ma’nosini maqsad qilgan. O‘limdan ham buyukroq narsa bormi[162].

Xulosa qilib aytganda muallif o‘z asarida arab tili qoidalarini bayon qilish asnosida o‘z qarashlarini isbotlash uchun Qur’oni karim oyatlari, Rasulullоh (alayhissalom)ning hadisi shariflari, arab tilida keng tarqalgan zarbul masallar, shuningdek “الشعراء الجاهليون” , “الشعراء المخضرمون” , “الشعراء الإسلاميون” kabi tabaqalarda ijod qilgan shoirlarning she’rlaridan keng foydalanishi bilan birgalikda “الشعراء المولودون” tabaqasida ijod qilgan Hamadoniy, Mutanabbiy, ibn Rumiy kabi shoirlarning she’rlaridan ham o‘ziga xos ilmiy-metodik yondashuv asosida foydalangan.

Hozirgi kunda yurtimiz hududida avvaldan shakllangan turli ilmiy maktablarni tarixiy ildizlarini o‘rganishda va ularni yozgan asarlarini tadqiq etib o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Umar al-Jandiyning “al-Iqlid” asarini o‘rganish uni zamonaviy nashrlarini va tarjimalarini amalga oshirish soha olimlari tomonidan qilinishi kerak bo’gan muhim ishlardan hisoblanadi.

[162] Tojuddin Ahmad bin Mahmud bin Umar al-Jundiy. Al-Iqlid sharhu-l-Mufassal. –Ar-Riyoz. “Maktabt Malik Fahd” 2002. J.2. –867 b

ZAMONAVIY JAMIYATDA MA`NAVIY BARKAMOL INSON O`RNI

Tohirov Akobir To`lqinovich
Mir Arab oliy madrasasi xodimi

Texnologiya, materializm va individualizm birinchi o'rinda turgan bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda ma'naviy barkamollik tushunchasi tobora uzoqroqdek tuyulishi mumkin. Boylik, mavqe va sezilarli yutuqlarga intilish bizning vaqtimiz va kuchimizning ko'p qismini egallab, inson mavjudligining chuqurroq o'lchovlari haqida fikr yuritish uchun kam joy qoldiradi. Biroq, ma'naviy barkamol shaxsning jamiyatdagi o'rni hali ham muhim bo'lib, zamonaviy hayotning tez-tez sur'atda bo'ladigan sur'atlariga qarshi turadi. Ushbu maqolada bunday shaxsning zamonaviy jamiyatdagi o'rni o'rganiladi, ma'naviy g'oyalarning dolzarbligi va ma'naviy rivojlangan shaxsning jamiyatga qo'shishi mumkin bo'lgan potentsial hissasi o'rganiladi.

Yosh avlodni jismonan baquvvat, ma`naviy etuk qilib tarbiyalashda ma`naviyat, ma’rifat va mafkuraning ta`siri beqiyosdir. Zero, barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning o`zligini anglashda, davlat va jamiyat, xalq va oila uchun munosib farzand bo`lishlarida ma`naviyat katta kuch sifatida o`z ta`sirini o`tkazadi. Chunki ma`naviy ta`sir orqali inson xulq-atvoridagi axloqodob, huquq, nafosat, mehr-muhabbat, muomala madaniyati, ma`s’uliyat, daxldorlik, oliyjanoblik, kabi fazilatlarni qamrab oladi. Jaloliddin Rumiy hazratlari bayon qilganidek: “Hayotda muvafaqqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom, va harakat’’. Mana shu qonuniyatlarga amal qilagan yosh avlodlarimiz vakillari ma`naviy barkamol va kelajagimiz bunyodkorlari bo`lib etishiga shubha yo`qdir[163]. Biroq bugungi globallashuv davrida yoshlar xulq-atvorining izdan chiqish hollari kuzatilmoqda. Chunki mafkuraviy ziddiyatlar avj olgan bugungi tahlikaviy davrda internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongini zaharlashi tobora kuchaymoqda. Afsuslanarlisi, buning natijasida ayrim yoshlar orasida ommaviy madaniyatga ergashish, axloqsizlik, jinoyat yo`liga kirish, kashandalik, giyohvandlik, spirtli ichimlikka ruju qo`yish, milliy va diniy qadriyatlarga hurmatsizlik kabi bir qator ijtimoiy illatlar kuzatilmoqda.Bunday illatlarga qarshi kurashish, ayniqsa, o`sib kelayotgan yosh avlodni tashqi tahdidlar ta`siridan asrab avaylash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda . Mana shu xavf

[163] U. F Radjabov. Ma`naviy barkamol yoshlar - yangi o’zbekiston bunyodkori. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “Rapid development of multilateral international relations from a pedagogical point of view” 4 June, 2024

-xatar va ko`zga ko`rinmas kuch jamiyatning ildizini qo`porib yuborishi to`g`risida birinchi prezidentimiz shunday takidlagan: “Binobarin ma`naviyatga qaratilgan har qanday tahdid o`z- o`zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfatlarini, sog`lom avlod kelajagini ta`minlash yo`lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkim[164].

Oilada sog`lom muhit mavjud bo`lgandagina, ularda har tomonlama sog`lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan, jismonan baquvvat, aqlan sog`lom, umuminsoniy madaniyat darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo`lgan kelajak avlodni voyaga etkazishda oila ma`naviyatining tutgan o`rni alohidadir. Oila tarbiyasi bo`yicha buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o`ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan, Islom ta`limotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha ta`kidlanadi: “Islomda tarbiya ta`limdan ko`ra ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, ko`chada, maktabda o`zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o`ziga bo`ysundirishdek og`ir ishni yo`lga qo`yadi[165].

Ma’naviy barkamol shaxs rolini o‘rganishdan oldin ma’naviy barkamollik nimani anglatishini aniqlab olish zarur. Bu beg'ubor xulq-atvor yoki avliyolikka erishish haqida emas, balki o'z-o'zini anglash, axloqiy hayot, rahm-shafqat va donolikning davom etayotgan sayohati haqida. Ma’naviy barkamollik keng ma’noda ogohlik, kamtarlik, mehr-oqibat, o‘z-o‘zini tarbiyalash, barcha tirik mavjudotlar va olam bilan chuqur bog‘liqlik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ko'pgina diniy va falsafiy an'analarda bunday shaxs nafsga asoslangan istaklardan ustun bo'lgan va ichki xotirjamlik va axloqiy ravshanlik holatiga erishgan shaxs hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyat, ayniqsa G'arb madaniyatlarida, iste'molchilik va moddiy muvaffaqiyatlar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Boylik to'plash, martaba va shaxsiy yutuqlarga e'tibor berish ko'pincha ma'naviy qadriyatlarga soya solishi mumkin. Sotsiolog Maks Veberning fikriga ko'ra, protestantlarning mehnat axloqi ma'naviy qadriyatlarni iqtisodiy muvaffaqiyat bilan bog'lash orqali kapitalistik jamiyatlarni rivojlantirishga yordam berdi. Biroq, zamonaviy jamiyatda ma'naviyat va materializm o'rtasidagi bu bog'liqlik zaiflashdi va ko'p odamlar o'zlarini iste'mol va shuhratparastlik aylanishiga tushib qolishdi, bu esa ichki qarash yoki ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish uchun kam joy qoldiradi.

[164] I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat engilmas kuch. T:. “Ma`naviyat” nashriyoti. 2016. 12-bet

[165] Raxmonova G. Sh. Ma’naviyat-jamiyat rivojlanishining muhim omili. "Экономика и социум" №10(101)-1 2022. www.iupr.ru

Bundan farqli o'laroq, ma'naviy amaliyotlar va falsafalar ko'pincha oddiyroq, markazlashtirilgan hayot tarzini targ'ib qiladi. Bu zamonaviy hayotning tashqi bosimlari va ma'naviy o'sishning ichki talablari o'rtasida tabiiy keskinlikni keltirib chiqaradi. Shunday bo‘lsa-da, moddiy qadriyatlar ustun bo‘lishiga qaramay, turli ko‘rinishdagi ma’naviyat gullab-yashnamoqda. Meditatsiya, mulohazalilik, yoga va boshqa ruhiy amaliyotlar tobora ommalashib bormoqda, chunki odamlar o'zlarining ichki dunyosi bilan bog'lanish yo'llarini izlaydilar, chunki ular o'zlarini aloqalari uzilib qolgan va chalg'itadigan dunyoda his qilishadi.

Zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy barkamol inson bu dunyodan butunlay chekinadigan odam emas, balki u bilan hayotni chuqurroq tushunishini aks ettiradigan tarzda shug'ullanadigan kishidir. Bu odamlar ko'pincha tashvish, qutblanish va mojarolar bilan ajralib turadigan dunyoda rahm-shafqat, sabr-toqat va donolik mayoqlari bo'lib xizmat qiladi. Mahatma Gandi, Dalay Lama va Thich Nxat Xan kabi ruhiy etakchilarning ta'limotlari ma'naviy etuklikning kundalik hayotda namoyon bo'lishining chuqur misollarini taqdim etadi[166].

Ma’naviy barkamol shaxsning asosiy rollaridan biri axloqiy etakchilikdir. Ma'naviy donolik ko'pincha jamiyatdagi adolatsizliklarni keskin anglashni va adolatli dunyoni yaratish istagini talab qiladi. Bu shaxslar chuqur rahm-shafqat va hamdardlik tuyg'usi, ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik va marginal guruhlarning farovonligini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Bu fuqarolik huquqlari, tinchlik va inson qadr-qimmatini himoya qilgan ma'naviyat peshvolarining sa'y-harakatlarida ko'rinadi.

Zamonaviy davrda Dalay Lama kabi shaxslar tinchlik, dinlararo muloqot va atrof-muhitni muhofaza qilish qadriyatlarini ilgari surishda davom etmoqda. Xuddi shunday, ko'pincha bo'linish bilan to'lib-toshgan siyosiy muhitda ma'naviy rahbarlar birdamlik, hamdardlik va umumiy manfaatlarga sodiqlikka chaqiruvchi xolis ovoz sifatida xizmat qilishlari mumkin[167].

Etakchilikdan tashqari, ma'naviy jihatdan mukammal shaxslar shaxsiy o'zgarishlar uchun namunadir. Ularning ma'naviy tamoyillarga asoslangan o'z-o'zini takomillashtirishga sodiqligi boshqalar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Ko'p odamlar stress, tashvish va maqsadsizlik tuyg'usi bilan kurashayotgan dunyoda bu odamlar ichki tinchlik, minnatdorchilik va xotirjamlik qiymatini ko'rsatish orqali muqobil taklif qilishadi. Ularning ta'kidlashicha, haqiqiy rohat tashqi mulk yoki yutuqlardan emas, balki uyg'un ichki hayotdan kelib chiqadi.

[166] Dalai Lama, & Howard Cutler. The Art of Happiness. Riverhead Books, 1998
[167] Gandhi, M. K. The Story of My Experiments with Truth. Beacon Press, 1993

Ehtiyotkorlik va o`ziga rahm-shafqat kabi ruhiy amaliyotlarni o`zida mujassam etgan holda, ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxslar boshqalarni o'z-o'zini anglash va o'sish bo'yicha xuddi shunday sayohatga chiqishga taklif qiladilar. Ularning hayoti zamonaviy jamiyatda betartiblik va moddiy qadriyatlarga berilmasdan yashash mumkinligini ko'rsatadi.

Ma'naviy barkamol shaxslarning yana bir muhim hissasi bu ularning munosabatlarda uyg'unlikni ta'minlash qobiliyatidir. Global va shaxsiy mojarolar o'rtasida bu shaxslar tushunish, yarashuv va hamdardlik uchun bo'sh joy yaratishda ustunlik qiladi. Ularning chuqur o'zaro bog'liqlik hissi ularga yuzaki farqlardan tashqarida ko'rish imkonini beradi, hatto qiyin o'zaro munosabatlarda ham rahm-shafqatni rag'batlantiradi. Ijtimoiy parchalanish va siyosiy qutblanish davrida tafovutlarni bartaraf etish va o'zaro tushunishni rivojlantirish qobiliyati har qachongidan ham muhimroqdir[168].

Texnologiyaning jadal rivojlanishi ruhiy amaliyot uchun ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, texnologiya onlayn platformalar orqali ko'proq ulanish va ma'naviy ta'limotlarga kirish imkonini beradi. Boshqa tomondan, texnologiya va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari ishonish hozirgi paytdan boshlab stress, tashvish va aloqani uzishga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, ma'naviy barkamol inson raqamli asrni muvozanat, ehtiyotkorlik va niyat bilan qanday boshqarishning namunasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Jamiyatga koʻp foyda keltirganiga qaramay, maʼnaviy barkamol shaxslar zamonaviy jamiyatda oʻziga xos muammolarga duch kelishmoqda. Ularning qadriyatlari ko'pincha moddiy muvaffaqiyat, mahsuldorlik va individuallikni birinchi o'ringa qo'yadigan asosiy madaniyat bilan to'qnash keladi. Bundan tashqari, tashqi yutuqlarni ulug'lashga moyil bo'lgan dunyoda ma'naviy rivojlanishning sokin ichki ishi e'tibordan chetda qolishi yoki kam baholanishi mumkin. Bundan tashqari, ruhiy chetlab o'tish xavfi mavjud - haqiqiy muammolar yoki shaxsiy muammolarga duch kelmaslik uchun ruhiy amaliyotlardan foydalanish[169].

Demak, maʼnaviy barkamol shaxsning vazifasi oson emas. Ular ko'pincha ruhiy tamoyillarga befarq yoki hatto dushman bo'lib tuyuladigan jamiyatni boshqarishi kerak, shu bilan birga o'zlarining ichki qadriyatlariga sodiq qolishlari va shaxsiy o'sishga sodiq qolishlari kerak.

[168] Thich Nhat Hanh. The Art of Living. HarperOne, 2017
[169] Weber, Max. The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. Routledge, 2001

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, zamonaviy jamiyatda ma'naviy barkamol shaxs o'ziga xos va muhim rol o'ynaydi. Materializm va tashqi tasdiqlash hukmron bo'lgan dunyoda bu shaxslar bizga ichki tinchlik, rahm-shafqat va donolikning muhimligini eslatib turadi. Ularning hissalari, axloqiy etakchilik, shaxsiy o'zgarish yoki shaxslararo uyg'unlikni rivojlantirish orqali, umid va chidamlilik mayoqlari bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy jamiyat murakkab muammolar bilan kurashayotgan bir paytda, ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsning misoli juda zarur bo'lgan muvozanatni taklif qiladi - bu haqiqiy rohatlanish tashqi yutuqlardan emas, balki tinch va rahmdil yurakni tarbiyalashdan kelib chiqishini eslatadi.

ABU HANIFA — E’TIQOD MEZONI

Boqiyev Azizbek Abdullajon o’g’li
Mir Arab oliy madrasasi o’qituvchisi

Islom tarixining yirik fiqhiy va e’tiqodiy shaxslari qatorida Imom A’zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh alohida o‘rin tutadi. U zot hanafiy mazhabining asoschisi sifatida tanilgan bo‘lib, nafaqat fiqhda, balki aqida masalalarida ham chuqur bilim va iymon bilan xizmat qilgan imomdir. Uning ilmiy merosi, metodikasi va Allohga bo‘lgan taqvosi asrlar davomida musulmon ummati uchun yo‘lko‘rsatkich bo‘lib kelmoqda.

Bu haqiqatni quyidagi hadisi sharif yanada mustahkamlaydi. Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

“Odamlarning yaxshilari mening zamonimdagilardir, so‘ng ularga yaqin bo‘lganlar, so‘ng ularga yaqin bo‘lganlardir. So‘ngra shunday insonlar keladiki, ularning guvohliklari qasamlaridan, qasamlari esa guvohliklaridan o‘zib ketadi.” (Muttafaqun ‘alayh)

Mazkur hadis ulamolar tomonidan ilk uch avlod – sahobalar, tobeinlar va taba’a tobeinlar fazilatini bayon qiluvchi dalil sifatida keltiriladi. Imom Abu Hanifa aynan mana shu tabarruk davrda yashagan, tobeinlardan ilm olgan, ularning ko‘plari bilan zamondosh bo‘lgan va ulardan hadis rivoyat qilgan. Shunday ekan, Imom Abu Hanifaning ilmiy va e’tiqodiy mavqei bejizga emas, balki manbali, tarixiy asosli mavqe ekanligini anglash zarur.

Ilmda peshqadam, e’tiqodda timsol

Abu Hanifa — fiqh ilmining asoschilaridan, hanafiy mazhabining imomi, tafakkur va dalilga tayanuvchi ijtihod maktabining bunyodkoridir. Ammo u faqat faqih emas — u mu’tabar e’tiqod ahli, bid’atlarga qarshi qat’iy kurashchi, aqida bobida ham kuchli mutakallim sanaladi. U zot mutakallimlar bilan munoqasha qilar, bid’atchi toifalarning havoiy aqidalariga raddiya berar, turli firqalar bilan munozara qilar edi. U zotning kalom ilmi masalalarida o‘ziga xos qarashlari borligi ma’lum. Hatto, bu ilmda u kishiga mansub risolalar ham mavjud. U zot fiqh, taxrij, hadislarni tushunish, ahkomlarning illatini istinbot qilish va unga usuliy qoidalarni asoslash borasida yuksak maqomga egadir. Bu haqda zamondoshlaridan biri: men hadisni tushunish borasida undan yaxshiroq kimsani ko‘rmadim, degan.

Imom Saymariy o’zining “Axbaru Abu Hanifa va As’habihi” deb nomlangan kitobida buyuk olim Abdulaziz ibn Abu Ravodning quyidagi so‘zlarini keltirib o’tgan: "Abu Hanifa — ummat uchun bir imtihon mezonidir. Kim uni sevsa, u ahli sunnadir. Kim uni yomon ko‘rsa, u bid’at ahlidir."

Bu so‘zlar bejiz aytilmagan. Zero, Abu Hanifaga bo‘lgan munosabat insonning din yo‘lida qaysi tarafda turganini bildiruvchi o‘lchovdir. U haqiqatga bog‘liq holda tanlab olingan ilmlarni ijtihod bilan uyg‘unlashtirgan, naql bilan aqlni qarama-qarshi qo‘ymagan.

Imom Abu Hanifa haqidagi e'tiroflar

Imom Abu Hanifaning ilmiy yuksakligi va taqvosi haqida ko‘plab olimlar ijobiy fikrlar bildirganlar. Ulardan ba'zilarining so‘zlari quyidagicha:

Fuzayl ibn Iyoz aytadi: “Abu Hanifa fiqh ilmida mashhur faqih kishi edi. Molu davlati bisyor, atrofidagi kishilarga xayr-ehson ulashish odati hammaga ma’lum, kecha-yu kunduz ilm olishga sabrli, tunlari qoim, ko‘p sukut saqlar, to halol yoki harom haqida savol berilmaguncha gapirmas edi”.

Yahyo ibn Ma’in rahmatullohi alayh shunday deganlar: “Abu Hanifa ishonchli bir zot edi. U faqat o‘zi ishonch hosil qilgan va yodlagan hadislarni rivoyat qilardi, yodlamaganlarini esa aytmasdi.”

Abu Vahb Muhammad ibn Muzahim rivoyat qiladi: “Men Abdulloh ibn Muborakdan eshitdim. U shunday degan edi: “Agar Alloh menga Abu Hanifa va Sufyonning yordamini bermaganida, men ham boshqa odamlarga o‘xshab qolardim”.

Imom Zahabiy rahmatullohi alayh aytadilar: "U insoniyatning eng aqlli va ziyrak kishilaridan biri bo‘lgan, fiqh, ibodat, taqvo va saxovatni mukammal ravishda jamlagan edi."

Imom Ibn Hajar Asqaloniy rahmatullohi alayh esa shunday degan: “Abu Hanifa ilmda kashfiyotchi, ijtihodda mukammal va tarixda buyuk imom sifatida yuksak darajaga ko‘tarilgan.”

Bundan tashqari, Imom ash-Shafeiy, Imom Molik va Imom Ahmad ibn Hanballar kabi yirik imomlar ham Abu Hanifaning ilmiga va taqvosiga bo‘lgan hurmatlarini bildirganlar. Ulamolar tomonidan aytilgan ushbu holis e’tiroflar Abu Hanifaning ilmiy va diniy mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Afsuski, bugungi kunda ba’zi salafiy qarashdagi toifa vakillari tomonidan Abu Hanifa (rahmatullohi alayh) va hanifiy mazhabiga qarshi turlicha e’tirozlar ilgari surilmoqda. Ular, go‘yoki, Qur’on va sunnatga bevosita tayanishni da’vo qilar ekanlar, Imom Abu Hanifa kabi salaf zamonining etuk olimlarini inkor etishga harakat qilmoqdalar. Bu esa na ilmiy, na tarixiy, va na diniy asosga ega.

Imom Abu Hanifa Qur’on va sunnat asosida ijtihod qilgan, o‘zining fikriy maktabini dalillar bilan asoslagan, hadislarni bilgan va ularni chuqur tahlil qilgan ulamolardandir. U zotning zamonidagi hadis rivoyat qiluvchi muhaddislar va faqihlar uni “imom”, “fiqhdan eng chuqur bilimli” deb ta’riflaganlar. Salafiylar tomonidan aytilayotgan tanqidlar, asosan, naqliy va aqliy dalillarni noto‘g‘ri tushunish, tarixiy kontekstni inobatga olmaslik yoki diniy metodologiyani yaxshi anglamaslik oqibatidir.

Hatto salafiylar o‘zlarining ilmlarini isnod orqali Abu Hanifa kabi imomlarga bog‘lab olishlarini o‘zlari ham inkor etolmaydi. Darhaqiqat, salafiylik da’vosi bilan Abu Hanifani rad qilish, islom ilmiy merosining uzviyligi va isnod zanjirini uzishga urinish bo‘lib, bu – jaholatdan boshqa narsa emas.

Imom al-Lays as-Samarqandiy (rahmatullohi alayh) o‘zining “Uyun al-Masa’il” asarida shunday rivoyat keltiradi:

“Xalaf ibn Ayyub aytadi: Bu buyuk ilm — fiqh ilmi — avval Rasulullohﷺ huzurlarida edi. So‘ngra u sahobalarga, sahobalardan tobeinlarga, tobeinlardan esa Abu Hanifa va uning shogirdlariga o‘tdi. Endi kim xohlasa bu haqiqatdan rozi bo‘lsin, kim xohlasa norozilik bildirsin — bu Allohning tanlovidir.”

Bu rivoyatdan anglashiladiki, fiqh ilmining yo‘nalishi, tarixiy uzluksizligi va ulamolar silsilasi o‘z o‘rniga ega. Abu Hanifa shunchaki tarixiy shaxs emas, balki islom ummatining ilmiy xazinasi va e’tiqodiy mezonidir.

Imom Abu Hanifa rahmatullohi alayh faqat fiqhda emas, balki e’tiqodda ham mezon bo‘lgan buyuk imomdir. U zotning hayoti, iymoni, taqvosi va ijtihodiy yondashuvlari bugungi kunda ham islomiy tafakkurga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilmiy merosiga hurmatsizlik qilish yoki u zotni mensimaslik

aslida o‘zini yo‘qotishdir. Musulmonlar sifatida biz u kabi zotlardan o‘rnak olib, ilmni izzat, taqvo va sidq bilan o‘rganishimiz, e’tiqodda sobit turishimiz kerak.

BOBOXONLAR MISOLIDA ISLOMIY AHLOQ VA ILMIY QARDIYATLAR MEROSI

Rizayev G‘ayrat Mukumovich.
Imom Termiziy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Islom dini o‘zbek xalqi orasida asrlar davomida asosiy diniy e’tiqod sifatida mavjud bo‘lgan. O‘zbek xalqining urf-odatlari, an’analari islom dinining odat va marosimlari bilan uzviy ravishda bog‘lanib ketgan. Shariat va odat xalqimizning turmush tarzi va hayotini belgilagan.

Turkiy xalqlarning, xususan, o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odati va an’analarining jamlanmasi bo‘lgan milliy qadryatlar 1300-1400 yil davomida islom dini, uning muqaddas kitobi – Qur’oni Karim va Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hadislari asosida shakllandi. Musulmonlarning turmushi shariat va odat bilan chambarchas bog‘liq edi.

Qadryatlarimizning taraqqiyot bosqichida yurtimizdan etishib chiqqan ulamolarning o‘rinlari, yozgan asarlari va faoliyatlari yuqori o‘rin tutadi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Hafis Kabir Buxoriyning asarlari, shuningdek, tasavvufning yirik namoyondalari, Hakim Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrorning ta’limotlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Oradan bir necha asrlar o‘tib, XIX asr oxiri choragi, XX asrning oxirgi 10 yilligigacha bizning diyorlarda mustabid tizim hukm surib, nafaqat iqtisodiy, balki, diniy va madaniy jihatdan ham taqiqlarni yuzaga keltirdi. Shu sababli sovet hukumati ayni vaqtda dindorlar va islom ulamolariga nisbatan keskin kurash olib bordi. Sovet tuzimining mana shunday qiyin rejimi ostida xalq uchun mashaqqatlar chekib diniy tizimda faoliyat olib borgan bir avlod borki, u avlod vakillari qadryatlarimiz saqlanib qolishi, diniy ibodat va marosimlar yuqolib ketmasligi uchun o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Eshon Boboxonlarning uch avlodi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston muftiysi lavozimida savet istibdodi davrida mashaqqatli va hatarli hizmatni o‘taganlar.

Boboxonlar avlodining faoliyatlari, qadryatlarimizni saqlashga bo‘lgan harakatlari, ilm-u tadbirlari, o‘rnak bo‘larli xulqlari qadrlanishi va xotirlab turish kerak bo‘lgan ulamolardan hisoblanadi. Ularning mehnatlari va hizmatlarini anglash uchun ular faoliyat yuritgan davrda ijtimoiy hayot, qadryatlarga munasabat qanday bo‘lganligini bilish muhim ahamiyatga egadir.

1922 yilda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tomonidan dekretlarning qabul qilinishi orqali vaqf mulklarining tiklanishi, qozilik va biylik sudlariga faoliyatiga ruxsat berilishi, 1921 yilning boshlarida “Mahkamai Shar’iya” diniy boshqarmasini tashkil etilishi, markaziy va viloyat diniy boshqarmalari orqali berilgan ayrim imtiyozlar ham respublikadagi tarixiy vaziyat og‘irligi tufayli sovet hukumatining bu boradagi o‘z strategik yo‘lidan vaqtinchalik chekinganligini ko‘rsatadi.[170]

Turkiston jamiyatida XX asr boshlarida ham islom dinining ta’siri juda kuchli bo‘lgan. Oktabr to‘ntarishi (1917)dan keyin mintaqada sovet rejimi o‘rnatilgach, dastlabki yillarda sovet hokimiyati islom dini arboblari: ruhoniylar, ulamolar, mudarrislar, mutavallilar, imomlar, eshonlar va boshqalar bilan murosa qilishga majbur bo‘lgan. Biroq XX asr 30-yillaridan boshlab O‘zbekistonda ulamolar faoliyatiga chek qo‘yildi.[171] 1922 yilning oxirlaridayoq markazda dahriylik siyosatini targ‘ibot qiluvchi ateistik harakat avj olib, u davlat siyosatining uzviy bo‘lagiga aylandi. Ushbu siyosat yuzasidan joylarda ko‘plab “Xudosizlar jamiyati” tuzildi. 1920 yilda Ittifoq bo‘yicha 100 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1929 yilda 700 ming nafarni, 1932 yilga kelib esa 5,5 mln kishini tashkil qilgan. Ushbu tashkilotga 2 mln.dan ortiq yoshlar jalb qilindi[172]. 1930 yil 22 fevralda boy va quloq bo‘lgani, «bosmachilar»ga ko‘maklashgani, «bosmachilar»ni yashirgani aybi bilan 11 kishi otuvga hukm qilingan. Ularning orasida o‘z davrining bilimdon ulamolari Shahobiddin Omonov, Mamadali Eshon Isoqov, Mulla Fozil Oqilov, Xolmathoji Mirzaliev kabilar bo‘lgan[173].

Mana shunday qiyin davrda faoliyat olib borgan Boboxonlar avlodi imkoniyatlaridan kelib chiqib bugungi kunimizdagi qadryatlarimizni saqlanib qolishi uchun ulkan hizmatlarni amalga oshirganlar. Ularning hayotlaridan misollar keltirsak namunali hulqlari ham bayon bo‘ladi.

Eshon Boboxon savodini otasining qo‘lida chiqaradi, so‘ng amakivachchasi, Beklarbegi madrasasi mudarrisi Bahodirxon maxdum ibn Muhammadxon eshon

[170] O‘zbekiston Kommunistik partiyasi s’ezdlarining rezolyusiya va qarorlari. 1-tom.-Toshkent: 1957. – B.48
[171] O ‘sha manba. – B.49
[172] Salmonov A.M. O‘zbekistonda musuomon diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati tarixi (1917-1950 yy.).Tarix fan. nomz. ... dis. Avtoref. – Toshkent: “Fan”, 2008.-B.21.
[173] Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun.-Toshkent: Sharq, 2003.-B.170.

qo‘lida tahsilini davom ettiradi. Uni olti yasharlik paytida, onasining vafotidan so‘ng, bobosi Yunusxo‘ja eshon o‘z qaramog‘iga oladi (1864 y.). Keyinchalik befarzand ammasi Bibisoraga farzand qilib beradi. O‘n ikki yoshga to‘lganida uni Buxoroga, Mir Arab madrasasida o‘qishga yuborishadi. Madrasadagi tahsili davomida uning dunyoqarashi taniqli olim, naqshbandiya tariqati shayxi Mulla Ikromcha ta’sirida shakllandi. Bu erda u odobi, bilimi bilan nazorat tekshiruvi maqsadida Toshkentdan yuborilgan xalq sudyasi Muhiddinxo‘janing nazariga tushadi. Tahsil muddati oxirlagach, Eshon Boboxon Muhiddinxo‘janing tavsiyasi bilan Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasida o‘qishni davom ettiradi. U o‘ziga talabchan, tartibli bo‘lganidan madrasa fanlarini mukammal o‘rganib, tezda a’lochi talabalar safidan joy oladi. Ko‘p yillar davomida Eshon Boboxonni kuzatib yurib, sinashta bo‘lgan Muhiddinxo‘ja madrasani tamomlaganidan so‘ng unga qizi To‘xtaxonni nikohlab beradi. U 1896 yilda, uchinchi farzandini dunyoga keltirayotib olamdan o‘tgan. Birmuncha vaqtdan so‘ng Eshon Boboxon Toshkentning ko‘zga ko‘ringan kishilaridan bo‘lgan Siddiqxo‘janing qiziga uylanadi.[174]

Eshon Boboxon o‘tgan asrning boshlarida Tilla Shayx masjidida imom-xatib bo‘lib ishlaydi. Shuningdek, Mo‘yi Muborak madrasasida dars beradi. U 1912 yilda qaynotasi va o‘g‘li Saidkamolxon bilan birinchi bor hajga borgan. Oktabr inqilobidan so‘ng Eshon Boboxon hanafiy olim sifatida mo‘tadillikni saqlab yangicha sharoit bilan hisoblashish, qisman moslashib bo‘lsa-da, xalqni noshar’iy ishlardan qaytarib turish zarur, deb hisoblovchi ulamolarga hamfikr bo‘ldi. Shunga qaramay, hukmron tuzum ta’qibiga uchraydi. “Sotsializm sari olg‘a yurishda sinfiy kurashning keskinlashuvi” shiori ostida olib borilayotgan harakatlar vaqtida Eshon Boboxonga qaynotasi Muhiddinxo‘ja hadya qilgan Yalang‘och mavzesidagi erlari va mol-mulki musodara qilinadi (1928 yil). Farzandlari ham maktabdan haydaladi. U oilasi bilan Hazrati Imom mahallasidagi hovlisidan majburan ko‘chirilib, o‘ziga katta soliq solinadi. Ular Eshon Boboxonga onasidan meros qolgan Qorasaroydagi Qo‘rg‘oncha deb atalgan dala-hovliga ko‘chib o‘tishadi. Keyingi ikki yil davomida ham Eshon Boboxon muntazam militsiya kuzatuvi ostida bo‘ladi.[175]

1937 yili Eshon Boboxon bilan o‘g‘li Zayniddinxon dindan saboq berishda ayblanib, qamoqqa olinadi. Shaxsiy kutubxonasidan ko‘plab qimmatbaho kitoblar arabcha qo‘lyozma asarlar olib ketiladi. Bir oz vaqtdan so‘ng uni qo‘yib

[174] Boboxonov Sh. Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (Ma’naviyat va ibrat maktabi). – T.: “Movorounnahr”, 2001. – B. 162.
[175] Boboxonov Sh. Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon: Jizn i deyatelnost – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1999. – B. 252.

yuboradilar, o‘g‘li Zayniddinxon esa Buryatiyadagi SSSR IIXK lagerida vafot etadi (1938 y.). 1941 yilda Eshon Boboxon yana hibsga olinadi, biroz o‘tib “jinoiy ta’qibning to‘xtatilishi” hukmi bilan qamoqdan ozod qilinadi.[176] 1943 yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati ish boshlaydi. Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon diniy nazorat raisi, muftiy etib tayinlanadi. U keksayib qolganiga qaramay, mamlakat bo‘ylab ko‘p safar qilgan. Xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlashga qo‘shgan hissasi uchun hamda tabarruk 95 yoshga to‘lishi munosabati bilan hukumat tomonidan Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlangan.[177]

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati asoschisi, beshta respublikaning birinchi muftiysi sifatida ko‘p millatli musulmon xalqlar xotirasida muhrlanib qolgan Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon 1957 yil 5 iyun kuni vafot etgan. Janoza namozini o‘g‘li Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon o‘qigan. O‘zbekiston hukumatining qarori bilan Qaffol Shoshiy qabrining yonboshiga dafn qilingan. Toshkent shahri Shayxontohur tumani Huvaydo mahallasidagi ko‘chalardan biriga va shu erdagi jome masjidga Eshon Boboxon nomi berilgan.

Shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon (Boboxonov), o‘z davrining yirik din arbobi, mintaqa musulmonlarining muftiyi edi. U 1908 yili Toshkent shahrida ulug‘ Islom allomasi Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon xonadonida tug‘ilgan. Ilk diniy saboqlarni avval otasidan, so‘ng Hakim qori domla, Bahodirxon maxdum, Shayx Alouddin, Jamol hoji kabi ustozlardan olgan. O‘n ikki yoshida Qur’on hofizi bo‘lgan. 1920 yili Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasiga o‘qishga kirgan, hadis va fiqh ilmini o‘rgangan. 1943 yili tashkil etilgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazoratiga otalari Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon rais, Ziyovuddinxon esa mas’ul kotib va O‘zbekiston qozisi qilib saylanishadi. U 1947-1948 yillarda Qohiradagi Al-Azhar dorilfununida, so‘ngra Makka va Madina shaharlarida tahsil olib, hadis ilmini chuqurlashtiradi. 1948 yili mintaqa musulmonlari diniy boshqarmasi raisi noibi, otalari vafotidan so‘ng (1957 yil) esa rais, muftiy etib saylanadi va umrining oxiriga qadar ana shu vazifada samarali ishladi. U kishining rahbarligi davrida Qur’oni karim va boshqa diniy kitob-darsliklar chop etildi, Toshkent Islom ma’hadi ochildi, musulmonlar uchun jurnal, taqvim nashr etila boshladi. U SSSR, Iordaniya, Marokash, Livan

[176] Yunusova X. O‘zbekistonda Sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari (XX asr 80-yillar misolida). / mas’ul muharrir R.X.Murtazaeva. O‘zbekiston milliy universiteti. – Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005. – B. 86.
[177] Boboxonov Sh. Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (Ma’naviyat va ibrat maktabi). – T.: “Movorounnahr”, 2001. – B. 179.

mamlakatlari mukofotlarini olgan, bir necha ilmiy-ma’rifiy, she’riy asarlari bor. 1982 yili vafot etgan, qabri Toshkentning Hasti Imom mavze’ida.[178]

Milodiy yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon butun Ittifoqda salohiyatli alloma, etuk din arbobi, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlarining diniy rahnamosi sifatida shuhrat qozongan edi. Qozi mansabida faoliyat yuritayotgan Ziyouddinxonning ota vafotidan so‘ng O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi raisi, muftiy etib tayinlanishi u kishidagi katta tashkilotchilik, din qayg‘usida jon kuydirish, musulmonlar ishi uchun fidoyilik xislatlarini ayniqsa jo‘sh urdirib yubordi. Shundan keyin u kishi butun umrini Allohning dini xizmatiga bag‘ishladi, yurt musulmonlari manfaatini qattiq turib himoya qildi, xalqni ma’rifatli qilish ishining boshida turdi. Ziyouddin qorining Islom dini sofligi, musulmonlar birdamligi, mamlakatda Islom dinini turli bid’at va xurofotlardan tozalash, dindorlar o‘rtasidagi ixtilofli holatlarga barham berish borasidagi xizmatlarini hozirgacha yaxshi eslashadi.

Shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon 1908 yili Toshkentning mashhur Hastiimom (Hazrati Imom) mavze’ida dunyoga kelgan. Uning ajdodlari ham dunyo tanigan Islom olimlari bo‘lishgan: katta bobosi shayxulislom Ayubxon Yunusxon o‘g‘li davrining yirik faqihlaridan edi, u ko‘p yillar Buxorodagi “Mo‘yi Muborak” madrasasida mudarrislik qilgan. O‘n ikki yoshida Qur’oni karimni to‘la hifz qilib, murattab qori bo‘ldi. 1920 yili Toshkentdagi “Ko‘kaldosh” madrasasiga o‘qishga kirdi.

1948 yildan boshlab esa shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon diniy boshqarma (nazorat) raisining o‘rinbosari sifatida ish boshlaydi. Ana shu vazifada u diniy boshqarma faoliyatini tubdan yaxshilash, diniy ta’lim berishni takomillashtirish, islomiy adabiyotlarni nashr etish sohasida katta ishlar olib bordi. Ziyouddin qori akaning tashabbusi va sa’y-harakatlari bilan 1945 yili avval yopilib qolgan Buxorodagi Mir Arab madrasasi faoliyatini qayta boshladi, 1971 yili esa Toshkentda oliy ta’lim maskani – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti ochildi. U kishining bevosita rahbarligida Mus’hafi sharifni katta va kichik hajmda chop etish amalga oshirildi.[179]

Otalari Eshon Boboxon hazratlarining vafotidan so‘ng shayx Ziyouddinxon 1957 yili u kishining o‘rniga O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi (nazorati) raisi, muftiy vazifasiga yakdillik bilan saylandi. Shundan

[178] Boboxonov Sh. Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon: Jizn i deyatelnost – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1999. – B. 91.
[179] Boboxonov Sh. Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon: Jizn i deyatelnost – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1999. – B. 127.

so‘ng uning yangi masjidlar ochish, hajga boruvchilar uchun etarli sharoit yaratish, yurtimiz musulmonlarining xorijdagi dindoshlari bilan aloqalarini mustahkamlash, diniy nashrlarni chop etish sohasidagi faoliyati yanada kuchayib ketdi. Namoz vaqtlarini belgilab bergan diniy taqvim chiqarish yo‘lga qo‘yildi. U kishi muftiylik qilgan chorak asrli davr ichida Qur’oni karim turli ko‘rinishlarda besh marta nashr qilindi.

Shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon dunyoda tinchlik va musulmonlar birdamligini mustahkamlash, xalqlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlarda faol ishtirok etib, Islom ummatining dolzarb muammolari va vazifalari haqida ma’ruzalar qilish borasida ham samarali faoliyat olib bordi.

Shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon Islom ravnaqi va musulmonlar birdamligi yo‘lidagi katta xizmatlari uchun ikki marta birinchi darajali “Iordaniya yulduzi” ordeni, ko‘krak nishoni, birinchi darajali “Livan qarag‘ayi” va “Livan yulduzi” ordenlari, Marokashning “Buyuk mutafakkir” oliy ordeni, sobiq Ittifoqning “Hurmat belgisi” va “Xalqlar do‘stligi” ordenlari bilan taqdirlangan edi. U kishi haqida “Zamonamiz ulamolari”, “So‘nmas ziyo”, “E’tiqodga bag‘ishlangan umr”, “Shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon” kabi xotira kitoblari yozilgan.[180]

Butun umrini mamlakatda Islom dini ravnaqi va musulmonlar manfaati yo‘lidagi xayrli ishlarga bag‘ishlagan muftiy Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon 1982 yil dekabrida Toshkentda vafot etdi. Janozasini O‘zbekiston qorilarining ustozi Abdulaziz qori Mahmudov o‘qigan. Muftiy hazrat Hazrati Qaffol Shoshiy maqbarasiga, otalari Eshon Boboxon yonida dafn etilgan.[181]

1982-yilning kuz oylarida Shayx Ziyovuddinxon sog‘lig‘i yomonlashgani tufayli iste’foga chiqdi va shu yili 23-dekabr kuni olamdan o‘tdi. 1982-yilgi Qurultoyda Ziyovuddinxon o‘g‘li Shamsiddinxon Boboxonov diniy idoraga muftiy va xalqaro aloqalar idorasiga rais etib saylandi. U ham otasi va bobosi kabi g‘ayrat va tashabbuskorlik bilan ishladi. Uning tashabbusi bilan O‘rta Osiyo masjidlarining moddiy ahvoli yaxshilandi, islomiy me’morchilik obektlari qayta ta’mirlandi, diniy boshqarma huzurida kutubxona ochilib, yangi adabiyotlar bilan boyitildi.[182]

[180] O‘sha manba. – B. 146.
[181] Bozorov O. Xudoyqulov A. Axloqiy qadriyatlar va islom. – Samarqand: Zarafshon, 1992. – B. 47.
[182] Azimov A. Islom va hozirgi zamon. – T.: O‘zbekiston, 1991. – B. 83.

ISLOM MANBALARIDA AYOLNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI BAYONI

Xolmatov Ashurali
Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

Insonlarni ikki jins qilib yaratib, o‘zaro ko‘payishi va ijtimoiy yashashini taminlab qo‘ygan Mudabbir Zotga hamd va sanolar, muomala madanyati, xususan ayollarga yuksak ehtiro ila munasabatda bo‘lishni hadislarida bildirib o‘tgan Muhammad sallallohu alayhi vasallamga salom va salovatlar bo‘lsin. Insoniyat er yuzida yashashni boshlaganidan buyon barcha sohada rivojlanish va takomillashish bosqichlarini bosib o‘tib kelgan. Madaniy jihatdan, texnalogik jihatdan, iqtisodiy jihatdan, umuman, jamiyyatning barcha sohalarida doimiy rivojlanish va takomillashuvda bo‘lgan. Xususan, oila va urug‘ bo‘lib yashash davomida turli bosqichlarni bosib o‘tgan. Shu bilan birga oiladagi erkak va ayol mavqeyi, o‘rni, darajasi holatlarga qarab o‘zgarib turgan. Tarixiy manbalarda Nabiy alayhissalom islom dinini risolatlari bilan olib kelgunlaricha ayollarning sha’ni hamin qadar bo‘lganligi yoki juda ham pas darajada ekani keltirilgan.

Muhammad sallallohu alayhi vasallamga vahiy kelish arafasida dunyoda ikki katta davlat – Rum va Eron bir-birlari bilan raqobatlashar, boshqa xalq va elatlar ustidan hukmlarini o‘tkazishar edi. Rum nasroniy davlat, Eron esa otashparastlar yurti edi. Bu davlatlarning qonunchiligi buzuq, inson haq-huquqlari poymol edi, ichki nizolar oqibatida kuchsizlanib qolgan edilar. Arabiston yarim oroli goh u, goh bu davlatning qo‘shinlari bilan harbiy to‘qnashuvlarga duch kelib turardi. Shu vaziyatda Muhammad sallallohu alayhi vasallamga vahiy kelishi, Islom diniga da’vatning boshlanishi, dinning shakllanishi VI-VII asrlarda Arabistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni muolaja qiluvchi bir dastur sifatida qarshi olindi. Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom ayollar haq-huquqlariga ham katta e’tibor berdi. Ayol eng munosib o‘rnini Islomdan topdi. Islomda ayolning haqlari quyidagicha ado etilishi lozim:

Ayollarga yaxshi muomalada bo‘lish, ularga nisbatan xushmuomala, shirin so‘z, muloyim munosabatda bo‘lish, nohaqlik va qo‘pollik qilmaslik kerak. Bu xususda Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam Ibni Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda shunday marhamat qilganlar:

قال رسول الله صلى الله عليه وسلم خَيْرُكُمْ خَيْرُكُمْ لِأَهْلِهِ، وَأَنَا خَيْرُكُمْ لِأَهْلِي[183]

[183] Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunan at-Termiziy. 3-juz, 1977-hadis. – Bayrut: “Dar al-G‘arb al-islam”, 1998. – B. 396.

“Sizlarning eng yaxshilaringiz o‘zining ahliga yaxshilaringizdir. Men sizlarning ahliga eng yaxshilaringizman”. Nabiy sallallohu alayhi vasallam Abu Hurayra roziyallohu anhudan qilingan rivoyatda: “Kim allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, qo‘shnisiga ozor bermasin va ayollarga doimo yaxshilik qiling! Chunki, ular qovurg‘adan yaratilgandirlar. Albatta, qovurg‘ani eng egri joyi yuqori qismidir. Agar uni to‘g‘irlayman deb urinssang, sindirasan. Agar, uni tek qo‘ysang, egriligi bo‘yicha qolur. Bas, ayollarga doimo yaxshilik qiling”[184], – deganlar.

Hadislarda kelishicha, Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ayollarga va bolalarga duch kelganlarida, salom berardilar, ya’ni salom bilan muqobalada bo‘lgandilar. Qur’oni Karimda ayollarga muomala borasida quyidagicha oyat nozil bo‘lgan:

“Erkaklar xotinlarning maishatini (hayotiy muammolarini) barpo qiluvchi va tarbiya qilguvchidirlar. Shu sababdanki, Xudo erlarga xotinlarga nisbatan aqlda, fahm va farosatda va quvvatda ziyoda fazilat (afzallik) bergan, xotinlarning tarbiya-sini erlarga topshirgan. Erkaklarning ortik iqliklaridan (yana biri) shundaki, mehnat qilib topgan mollaridan xotinlariga nafaq faqa qiladilar. Bas, farmonbardor yaxshi xotinlari buning muqobiliga erlarining haqlarini shariatga muvofiq ado etishla-ri kerak. Va ham erlari g‘oyib bo‘lgan holda omonatlarini saqlashlari kerak. Shuning uchunki, Xudoyi taolo bularning salomatli plik va tandurustliklarini va obro‘larini saqladi. Erkaklarni ularga muhabbatli qildi. Endi, ey erkaklar, xotinlaringizning nofarmonlik (itoatsizlik) qilishidan qo‘rqsangiz, haqiqatan ham shunday alomatlar paydo bo‘lsa, bas, xotinlaringizga muloyim so‘zlar bilan pand va nasihat qiling. Erga isyon qilgan xotinlarni Xudoning muqarrar qilgan azoblari bilan qo‘rqiting. Agar nasihatga itoat etmasalar, yotoq joyingizni o‘zgartiring (ular bilan bir joy-da yotmang, ularga yaqinlashmay turing). Agar bunda ham bo‘lmasa, uringlar, lekin qattiq urmanglar. Bas, agar itoat qilsalar, ularga ortiqcha zulm qilmanglar. (Albatta), Alloh taolo oliy va ulug‘ zotdir. Zulm qiluvchilardan intiqom oladi”.[185] Ushbu “Niso” surasi 34-oyatida aytilganidek, itoatsiz ayolni tarbiya va so‘nggi chora sifatida qattiq og‘ritmasdan urishga izn berilgan. Lekin, Muhammad sallallohu alayhi vasallam o‘zlari ayollarini urmaganlar va xotin kishini urganlarga ham qarshi turganlar. “Ne bo‘ldi erkaklarga, xotinlarini qul kabi uradilar, holbuki, ayni kun so‘nggi (tun)da latiflashadilar”, degan hadis ham so‘zimizning isbotidir. Shuningdek, ayollarga

[184] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 13-juz. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2023. – B. 215
[185] Shayx Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li (Mavlaviy hoji Hindistoniy). “Bayon ul-Furqon fi tarjimatil-Qur’on”. – Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2022. – B. 128

ham erlariga ozor bermaslik amr etilgan. Maoz ibn Jabaldan roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar:

عن معاذ بن جبل قال: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: «لا تؤذي امرأة زوجها في الدنيا، إلا قالت زوجته من الحور العين: لا تؤذيه قاتلك الله، فإنما هو عندك دخيل، يوشك أن يفارقك إلينا»[186]

Hadisning manosi – “Qaysi bir ayol (mo‘min) eriga bu dunyoda ozor berganda, u kishining hur jufti (bu ayolga): «Alloh sening joningni olsin, u kishiga ozor, aziyat berma. Chunki, shubhasiz, u sening yoningda mehmon-musofirdir, sendan ayrilib, tezda yonimizga keladi», deydi”[187].

2. Islomda ayol va bolalarni o‘ldirish ma’n etilgan. Qur’oni karimda shunday marhamat qilinadi: “Bolalaringizni faqirlikdan qo‘rqib o‘ldirmang. Biz ularni ham, sizlarni ham rizqlantiramiz. Albatta, ularni o‘ldirish katta xatodir.”[188] “Isro” surasi 31-oyat. Shuningdek, “An’om” surasi 140- oyatda:

“Bilimsizlik tufayli aqlsiz-lik bilan (qiz) bolalarini o‘ldir-ganlar va Alloh o‘zlariga (halol) rizq qilib bergan narsalarni, Allohga bo‘hton qilgan holda, harom qilib ol-ganlar, muhaqqaqki, (dunyo va oxiratda) ziyonga yo‘liqdilar. Ular haqiqatan yo‘ldan ozdilar va to‘g‘ri yo‘lni top-guvchi ham emaslar.”[189]. Islom huquqida, hatto, urush vaqtida ayol va bolalarni o‘ldirish taqiqlangan. Hazrat Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam: “Kimki ikkita qizni voyaga etguncha boqsa, jannatga men bilan birga kiradi”, deb o‘rta va ishora barmoqlarini yonma yon qilib ko‘rsatdilar”.

3. Ayollarning ilm olishlari. Ayol va erkak musulmonlarga ilm o‘rganmoq farzi ayndir. Qur’oni karimda faqatgina ayollarning o‘ziga xos, fitratiga muvofiq kelgan Allohning xitoblaridan tashqari (masalan, avratlarini to‘sish, bola emizish, idda muddati, taloq to‘g‘risida va hokazo) qolgan barcha oyatlar Alloh taoloning bashariyatga, erkag-u ayolga qilgan xitoblaridir. Ilm haqidagi chaqiriqlar ham shular jumlasidandir. Islomda iymondan keyingi farzi aynlardan biri ilm olishlikdir (“farz” bajarilishi shart degan ma’noni ham anglatadi). Zero, Jabroil alayhissalomning Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga etkazgan birinchi kalomi ham “O‘qi!” bo‘lgan. Alloh taolo bandasini tafakkur qilib, borliqqa qarab, tahlil bilan O‘zini tanishini xohlaydi.

Hazrat Payg‘ambarimizga sallallohu alayhi vasallam vahiy kotiblar kun sayin ko‘payar, boshqa mo‘minlar ham o‘qish-yozishni havas qilishardi. Islom

[186] Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid Ibni Moja al-Qazviniy. Sunan Ibni Moja. 3-juz, 2014-hadis. – Bayrut: “Dar al-Marifah”, 2000. – B. 422.
[187] Ushbu ma’no hadisning umumiy ma’nosi bo‘lib, so‘zma-so‘z emas, umumiy ma’nosi keltirilgan.
[188] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 3-juz. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2024. – B. 408
[189] Mirzo Kenjabek. Anvorul-Qur’on Fayzul-Furqon.– Toshkent: Irfonnashr, 2024. – B. 146

olamida birinchi darsxonalar, madrasa va masjidlar ochilib, ilk ustoz Hazrati Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning o‘zlari bo‘ldilar. U zotga ergashgan sahobiylar ko‘plab mo‘minlarni diniy va dunyoviy bilimlar bilan boyitishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu diniy va boshqa bilimlarni tahsil etishda ayol-erkak ajratilmagan. Chunki Islomda ilm olishda ayol-erkak tengdir. Imom Saraxsiy (r.a.) marhamat qiladilar: “Alloh taologa iymondan so‘ng, eng quvvatli farz – ilm talab etishdir. Chunki Rasulullo sallallohu alayhi vasallam: “Ilm talab etmoq har musulmon erkak va ayol uchun farzdir….” [190] , deb buyurganlar. Ilm – nubuvvatning merosidir. Payg‘ambarlar ilmni meros qoldiradilar. Erkaklar nubuvvat merosida qanchalik haq sohibi bo‘lsalar, ayollar ham shunchalik haq sohibidirlar. Ilmning fazilati to‘g‘risida Alloh Toaloning Mujodala, 11-oyat oyati mazmunida: “….Alloh sizlardan orangizdagi iymon keltirganlarni va ilm berilgan kishilarni darajalar bilan yuksaltirur. Alloh qilayotgan amallaringizdan tugal xabardordir”[191] Yana “Toha” surasi 114 - oyati mazmunida esa:

“…Biz Qur’onni dilingga joylaymiz. Doim duo qilib aytgil: “Ey Parvardigor, mening ilmimni ziyoda qilgil”….” [192] – deyilgan. Asri saodatda sahobiyalar o‘rtasida ilmlari, zehnlari bilan ajralib turgan ayollardan Hazrat Oisha, Hafsa, Ummu Salama, Karima bintul Mikdol, Ummu Kulsum binti Uqba, Oisha binti Sa’d (r.a.)larning nomlari tarixda qolgan.

Shubhasiz, shariatning uch amal tayanchi bor. Bular: ilm, amal, ixlos. Shu uch ju’zdan har biri haqiqiylashsa, shariat haqiqiylashadi. Bir kishida bu uch ju’z bilan shariat vujudga kelsa, Alloh roziligi qozonilgan bo‘ladi. Maymuna (r.a.) (shu ma’noda) amr qildilar: “Arabchani o‘rganing va o‘rgating!” To‘rt xalifa zamonlari o‘tib ketgach, Islom davlatlarida soxta din peshvolari tarafidan ayollarning ilm olishini ta’qiqlaydigan uydirma hadislar ham yuzaga keldi. Holbuki, Rasulullo sallallohu alayhi vasallam va Horun ar-Rashid davrlarida ayollar ilm tahsilining cho‘qqisida bo‘lganlar. Kimki “Muslima ayollarning ilm olishini din ta’qiqlagan yoki ta’qiqlaydi” iddaosini ilgari sursa, bilingizki, u kimsa Islomga xiyonat etgan.

Islom keltirgan ilm inqilobi ayollar uchun bir najot eshigidir. Madinada yangi tuzilgan Islom jamiyati va davlatida o‘qib-yozadigan ayollar ham oz emasdi. Mashhur sahobiya Ash-Shifo binti Abdulloh al Adaviyya islomdan avval o‘qish-yozishni bilardi. So‘ng bir qancha sahobiyalarga o‘rgatdi (masalan, Hafsa binti Umar al-Foruq). O‘zi shu tariqa islomda ilk muallima bo‘ldi. Ash-Shifodan

[190] Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid Ibni Moja al-Qazviniy. Sunan Ibni Moja. 1-juz, 224-hadis. – Bayrut: “Dar al-Marifah”, 2000. – B. 214.
[191] Mirzo Kenjabek. Anvorul-Qur’on Fayzul-Furqon.– Toshkent: Irfonnashr, 2024. – B. 543
[192] Shayx Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li (Mavlaviy hoji Hindistoniy). “Bayon ul-Furqon fi tarjimatil-Qur’on”. – Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2022. – B. 434

tashqari o‘qish-yozishni biladigan Hazrat Oisha, Hafsa, Ummu Salama, Karima bintul Miqdol, Ummu Gulsum binti Uqba va Oisha binti Sa’d kabi sahobiyalar zikr etilgan. Ular Muhammad sallallohu alayhi vasallam so‘zlarini tushunib olib, odamlarga etkazar edilar. Olima sahobalar yonida shoiralar ham bor edi. Hazrati Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam qizi Fotima az-Zahroning sut qarindoshi Ash-Shayma bintul Horis as-Sa’diyya, Al-Hafsa binti Amr ibnish-Sharid, Atiqa binti Zayd va Najiya binti Jundub al-Aslomiy shoira sahoba ayollardir.

Tarixda Islom olamida mashhur ayollar Misr, Ispaniya va Afrikadagi mamlakatlarning bir qanchasiga daxldorlar. Molik bin Anasdan rivoyat etgan Obida al-Madaniyya, Imom Buxoriyning “Al-jome as-sahih”ini Makkada rivoyat etgan Karima al-Marvaziyya mashhurdirlar. Abu Hurayra (r.a.): “Balog‘atga etmagan uchta farzandni nazarda tutganlar”, - deb rivoyat qiladilar. Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ayollarga Alloh o‘rgatganidan o‘rgatdilar va shu tariqa islomda ayollarga oid ilk madrasa barpo bo‘ldi.

4. Ayollarning haqlari. Hazrat Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam aytganlar: “Ayollarning erkaklar zimmasidagi haqqi yaxshi taom va kiyim berishlaridir”. Qur’oni karim “Isro” surasi 23-oyatida:

“Robbing faqat Uning O‘zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka etsalar, bas, ularga «uff» dema, ularga ozor berma va ularga yaxshi so‘z ayt!”[193] (Qur’onda marhamat qilingani kabi hazrati Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam: «Eng ko‘p kimga yaxshilik ko‘rsatish kerak?, deb so‘ragan bir sahobiyga “Onangga”, deya uch bor takrorlaganlaridan so‘ng, “Otangga”, dedilar.

Islomda ona yoki ayol haqqiga e’tibor shu qadarki, ona mushrik bo‘lsa-da, bu haqqini yo‘qotmagan bo‘ladi. Faqat ota-ona farzandiga yo er xotiniga Islomdan tashqari, ya’ni Islomga zid amr va talqinda bo‘lsalar, u holda ularga itoat qilinmaydi. Allohga isyon qiluvchilarga itoat etilmaydi. Bu hadisi sharifda ochiq aytilgandir: “Allohga isyon etgan kimsaga itoat etish yo‘qdir”. Boshqa bir hadisi sharifda shunday marhamat qilinadi: “Ular (ya’ni, boshingizdagilar)dan kim sizga Allohga isyon qilmoqni amr etsa, zinhor (bu xususda) u kimsaga itoat etmang”.

Islomning ayol haqlari xususida keltirgan yangiliklari va qo‘ygan asoslarini shunday tartiblashimiz mumkin:

a) Yaratilish jihatidan, Allohning maxluqi bo‘lish jihatidan ayol bilan erkak teng. “Ey, odamlar! Sizlarni bir jondan yaratgan va undan uning juftini yaratib, ikkovlaridan ko‘plab erkagu va ayollarni taratgan Robbingizdan

[193] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 3-juz. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2024. – B. 403

qo‘rqinglar!…”[194] (Niso, 1). Rasulullоh (s.a.v.) ham bir hadisi shariflarida ayol bilan erkak orasidagi tenglikni shunday bayon etganlar: “Ayol-erkak barcha insonlar taroq tishlari kabi bir-birlariga tengdirlar”. Boshqa bir hadisi sharifda esa shunday: “Ayol-erkak – barcha musulmonlar qarindoshdirlar. Bir kishining boshqa bir kishiga nisbatan taqvodan boshqa hech bir ustunligi yo‘qdir”. Islomga ko‘ra, ayol va erkak bir butunning ikki parchasi kabidir. Bir-birlarini to‘ldiradilar. Chunki hadisi sharifda: “Ayollar erkaklarning (to‘ldiruvchi) parchasidir”, deyilgan. Oyati karimada quyidagicha kelgan: “…Ular sizlarga libos, siz ularga libosdirsiz…”[195] (Baqara, 187). Qur’oni karim shu tariqa ayolni noto‘g‘ri, nopok hukmlardan xalos etib, erkakka turmush o‘rtog‘i etdi. Qur’oni karim bu hukmi bilan ayol insonmi-yo‘qmi deb tortishgan Ovro‘padagi qarashlarni yakson qildi. Islom ayoldan la’natni ko‘tarib tashladi, inson o‘g‘lining, Odamning jannatdan chiqishiga, la’natlanishiga ayol sabab bo‘ldi, degan e’tiqodni ham rad etdi.

b) Islomga ko‘ra, ayol ham erkak kabi dindosh bo‘lishga, ibodat qilishga haqli va buyurilgandir. Qiladigan amaliga qarab mukofotlanadi yoki jazolanadi. Jinsiyat farqi savobining kam bo‘lishiga sabab emas. Allohning quli bo‘lish yoki Allohga bandalik jihatidan erkak bilan ayol orasida farq yo‘qdir. Din ulamolarining ta’kidlashicha, Alloh taolo iymon keltirganlar soyasida iymon keltirmaganlarni halok qilmayapti, zakot berganlar soyasida zakot bermaganlarni, ro‘za tutganlar soyasida ro‘za tutmaganlarni, zikr etganlar soyasida zikr etmaganlarni, namoz o‘qiganlar soyasida namoz o‘qimaganlarni halok qilmayapti.

c) Ayollarni ilm tahsil etmakdan man qilmoq bu jaholat va g‘aflatga berilgan erlarning ishidir. Chunki, ayolni ilm olishdan man etmoq din o‘rganmoqdan man etmoqdir. Alloh taolo Qur’oni karimning “Mumtahana” surasi 12-oyatida shunday marhamat qiladi:

“Ey payg‘ambar, vaqtiki, sening oldingga mo‘mina ayollar kelib, ibodatla-rida Allohga hech bir narsani sherik qilmaslik, o‘g‘rilik qilmaslik, zino qilmas-lik, o‘z bolalarini o‘ldirmaslik, qo‘llari va oyoqlari orasida yolg‘on-bo‘hton gapir-maslik ya’ni, qornidagi bolalari yoki tuqqan bolalari xususida yolg‘on gapirmaslik, shariatning xukmlarida senga nofarmonlik (isyon) qilmaslik to‘g‘risida bay’at (ahd) qilsalar, sen ulardan shu shartlar bilan bay’at olgin. Ular uchun Xudodan kechirim so‘ragin. Alloh taolo gunohlarni kechiruvchi, bandalariga mehribondir….”[196] (Mumtahana, 12). Bu oyati karimadan ma’lum bo‘ladiki, ayol Islomning muayyan aqidalariga ergashmoqqa yo‘naltirilgan.

[194] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2024. – B. 458
[195] O‘sha manba. – B. 164
[196] Shayx Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li (Mavlaviy hoji Hindistoniy). “Bayon ul-Furqon fi tarjimatil-Qur’on”. – Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2022. – B. 732

d) Ayol ruhan va fe’lan bu aqidalarga amal qilishi, kuzata va anglay olishi uchun o‘z-o‘zini tarbiyalab, ta’lim olishi Islomning asosiy jihatidir. Qur’oni karimda Payg‘ambarimizga sallallohu alayhi vasallam xitoban kelgan oyat bor: “Ular bilan kengashib ish qiling”, ya’ni sahobalar bilan kengashib ish qilishlikni Alloh buyurmoqda. Sahobalar orasida esa ayollar ham bo‘lishgan va bu amr ularga ham tegishli bo‘lgan. Bundan tashqari, Muhammad alayhissalom ahli ayollariga hurmat bilan qarab, ular bilan masalahatlashib ish ko‘rganlar. Tabiiyki, musulmonlar shu amrga tobedirlar. Bu oyati karimada faqat erkaklar bilan maslahatlashib, ayollar bilan maslahatlashmaslik kerak, bunga ehtiyoj yo‘q, deydigan biror ishora mavjud emas. Bu oyati karimani faqat erkakka maxsus deyish ayolga muxoliflikdan boshqa narsa emas.

Islom olimi Ibni Xozim shunday dedilar: “Hazrat Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam ham erkaklarga, ham ayollarga teng yuborilgandirlar. Allohning xitobi, payg‘ambarning xitoblari ayollarga ham, erkaklarga ham qaratilgandir. Bu xitoblarni ochiq bir nass yoki ijmo bo‘lmaguncha erkaklarga maxsus etib, ayollarni tashqarida qoldirmoq joiz emas”. Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ahli ayollari bilan maslahatlashib ish ko‘rganliklari ma’lum. So‘zimiz quruq bo‘lmasligi uchun ushbu hadisni keltiramiz. Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: “Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam bunday deb aytdilar: “Kimki Alloh taologa va qiyomat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, qo‘shnisiga ozor bermasin! Shuningdek, ayollar bilan doimo yaxshilikcha maslahatlashingizlar”. Shu sababdan ayolni kengashdan mahrum etmoq, bevosita Allohga qarshi qullik chegaralaridan o‘tmoqdir, haddi ubudiyatiga tajovuz qilmoqdir. Alloh ayollarga bergan bir haqni ularning qo‘llaridan olmoqdir. Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam iymon keltirgan mo‘min erkak va mo‘mina ayollarning bunday ma’siyatga tushishining oldini olish uchun ayol bilan erkak maslahat qilishi kerakligini tashviq etganlar.

Ayollar haq-huquqlarini talab qilib, dastavval Fransiya inqilobida 1791 yili “Ayol haqlari” bayonnomasi qabul qilindi. Bu ta’limot avval huquqiy sohada (qonun oldida erkak-ayol tengligi kabi), so‘ng siyosiy sohada (saylash-saylanish kabi) muvaffaqiyat qozondi. Lekin bu ta’limotni ko‘tarib chiqqanlar ayollarning haqlariga e’tibor beraylik, deb, yildan-yilga ayolning fitratini ham unutib, erkaklashtirishga olib keldilar. Natijada ayol jamiyatda bir ko‘ngilxushlik unsuri, reklama materiali, ya’ni namoyish ashyosiga aylanib qoldi. Feminizm ayol ezilishiga qarshi bo‘lish o‘rniga o‘zi ayolga ko‘rsatilayotgan zulmga zulm qo‘shdi va faqat erkaklar emas, balki ayolni ayolga zulm qilishga o‘rgatdi, tashviq etdi, tashkil qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ayollar haq-huquqlarini Islomdan boshqa din va mafkuralar ko‘rib chiqmagan, desak xato qilamiz. Chunki, bandaning nizomida kamchilik bo‘ladi, lekin Xoliqning nizomida kamchilik topilmas. Rosululloh alayhissalom Allohning haq dinini bizga mukammal etkizgan, undagi daqiq joylarigacha to‘xtalib o‘tgan zotdirlar. Shunday ekan, asli sof fitrat bilan, qadryatlarimizga mos, islomga muvofiq ayollarga munosabatda bo‘lsak, hech qachon ayollarning huquqi toptalmaydi. Bil-aks, ularning ummat va xalq orasida martabalari yanada oshgan bo‘ladi.

MA’RIFAT - RADIKALIZMGA QARSHI KURASHISHDA ENG SAMARALI VOSITA

Abduvaxidov Abdullaziz Abdusattor o‘g‘li
Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi ilmiy xodim
Email: abdullazizabduvaxidov@gmail.com

Tulenova Karima Jandarovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Falsafa fanlari doktori, professor

Bugungi globallashuv davrida dunyo mamlakatlari duch kelayotgan eng dolzarb muammolardan biri bu – radikalizm va ekstremizm xavfidir. Ularning asosiy xususiyati – jamiyat tinchligini buzish, insonlar orasida adovat urug‘ini sochish va davlat barqarorligiga putur etkazishdir. Ayniqsa, yoshlar orasida radikal g‘oyalarning tarqalishi barchani tashvishga solmoqda. Bunday xavf-xatarlarga qarshi kurashishda eng samarali vositalardan biri bu – **ma’rifat**, ya’ni bilim va ong orqali ongli qarshilik ko‘rsatishdir.

Ma’rifat – bu insonni jaholatdan, noto‘g‘ri qarashlardan va buzg‘unchi g‘oyalardan xalos etuvchi kuchdir. Radikalizm, odatda, yoshlar orasida bilim va tafakkur etishmovchiligi, hayotdagi o‘z o‘rnini topa olmaslik, ijtimoiy adolatsizlik yoki diniy savodsizlik tufayli ildiz otadi. Ma’rifiy yondashuv esa aynan shu jihatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu yo‘lda ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, diniy ulamolar va fuqarolik jamiyati institutlari muhim rol o‘ynaydi.

Radikal guruhlar ko‘pincha diniy niqob ostida faoliyat yuritadi. Ular Qur’on va hadislarning ma’nolarini noto‘g‘ri talqin qilib, yoshlarni chalg‘itishga urinishadi. Shunday sharoitda, islom dinining asl mohiyatini – tinchlik,

bag‘rikenglik, adolat va insonparvarlik g‘oyalarini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Imom-xatiblar, diniy soha mutaxassislari masjidlar va diniy o‘quv yurtlarida haqiqiy islom ilmini targ‘ib qilish orqali radikalizmga qarshi mustahkam g‘oyaviy qalqon bo‘lishi mumkin.

Radikalizmga qarshi kurash faqat kuch ishlatish yo‘li bilan emas, balki ongni o‘zgartirish, tafakkurni boyitish, to‘g‘ri va haqqoniy bilim berish orqali olib borilishi kerak. Ma’rifatli jamiyatda radikalizm ildiz otmaydi. Shuning uchun har bir oila, o‘qituvchi, diniy ulamo va davlat idoralari bu borada o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi lozim. Zero, ma’rifatga tayangan jamiyat – bu barqarorlik, tinchlik va taraqqiyot garovidir.

Radikalizmga qarshi kurash butun insoniyatning bugungi kundagi dolzarb muammosi hisoblanadi.

Zo‘ravon ekstremizmning sabablarini nazariy tahlil qilishda, uning ko‘plab o‘zaro bog‘liq omillardan iborat ekanligini aytish kerak. Bu omillar siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, g‘oyaviy va diniy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir omil o‘zining o‘rniga va jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarga qarab ekstremizm va radikalizmning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Siyosiy jihatdan, ekstremizm va radikalizm ko‘pincha davlatning adolatli siyosat yuritmasligi, fuqarolik huquqlarining poymol qilinishi va insonlarning huquqiy imkoniyatlarining cheklanishi bilan bog‘liqdir. Bu jarayonlar ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi va indivudual yoki guruh darajasida radikalizatsiyaga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy jihatdan, tengsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy etishmovchilik insonlarni radikal mafkuralarga berilishga olib kelishi mumkin. Bu insonlarning iqtisodiy beqarorlikka qarshi isyon ko‘tarishi, o‘z haq-huquqlarini talab qilishlari yoki jamiyatda o‘zlarinining o‘rnini mustahkamlash uchun norozilik holatlarini vujudga keltirishi bilan bog‘liq holatlardir.

Tarixga nazar solsak, zo‘ravonlikka asoslangan ekstremizm va radikalizm ko‘pincha uzoq muddatli ijtimoiy va siyosiy keskinliklarning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘tmishda yuzaga kelgan millatlararo, diniy yoki siyosiy nizolar, bugungi kunda radikalizmga asos bo‘lib qolmoqda. Chunki o‘tmishdagi adolatsizlik va yo‘qotishlar yangi ekstremistik g‘oyalarga yo‘l ochadi. Shuning uchun kelajakda bunday holatlar takrorlanmasligi uchun buning oldini bugun olish nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi.

G‘oyaviy jihatdan zo‘ravon ekstremizm va radikalizm ko‘pincha g‘ayritabiiy, radikal g‘oyalar orqali shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida uning tarafdorlari o‘rtasida kuchli “biz” va “ular” tushunchalarini shakllantiradi.

Bunday qarashlar odatda ko‘plab jamiyat va davlatlarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy vaziyatga qarshi radikal oqim sifatida rivojlanadi.

Diniy jihatdan ekstremizm va radikalizm diniy mafkura yoki e’tiqodlar asosida shakllanadi. Umuman olganda, zo‘ravon ekstremizm va radikalizmning nazariy tahlili, uning ko‘plab o‘zaro bog‘liq omillar orqali shakllanishini, ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy beqarorlik, tarixiy keskinlik va g‘oyaviy yoki diniy radikalizatsiya kabi omillarning o‘zaro aloqasini tushunishga yordam beradi.

Gollandiya davlatida radikalizatsiyani ijtimoiy-siyosiy muammo sifatida ko‘rib, diniy omillarni hisobga olmaydilar. Ularning radikalizatsiyaga qarshi kurashish dasturlari, jamiyatda ajralgan guruhlarni integratsiyalash orqali ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishga qaratilgan. Markaziy hukumat, radikalizmga qarshi kurashish uchun umumiy strategik tamoyillarni belgilab, kadrlarni tayyorlashda mas’ul bo‘lib, turli tashabbuslarni qisman moliyalashtiradi. Shuningdek, u radikallar tomonidan ishlatiladigan ba’zi muammolarni hal qilishga harakat qiladi, masalan, diskriminatsiyani kamaytirish, ish bilan ta’minlash, rasmiylar va siyosatchilar bilan aloqalarni o‘rnatish, xavfsizlikni yaxshilash va sog‘liqni saqlashni oshirish.

Reja uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Oldini olish, xabardor qilish va aralashish – bu harakatlar yoshlar ishlari bo‘yicha ijtimoiy ishchilar, ta’lim bo‘limlari xodimlari, politsiya va boshqa vakolatli shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.
2. Mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash – bu, milliy darajadagi maxsus siyosatni o‘z ichiga oladi va radikalizatsiyaga qarshi kurashish uchun mahalliy tashabbuslarni rag‘batlantirishni nazarda tutadi.
3. Xalqaro hamkorlik – Yevropa Ittifoqida va undan tashqarida radikalizmga qarshi kurashish, Gollandiya tashqi siyosatining maqsadlarini ichki siyosat bilan muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Mahalliy darajada radikalizatsiyani oldini olish va ekstremizm alomatlarini aniqlash uchun qat’iy va yumshoq usullarni qo‘llashni ko‘zda tutadi. Bu, davlatning shaxslar radikalizatsiyaning dastlabki bosqichlarida ham, ekstremizm sababli qonunga zid xatti-harakatlar sodir etganidan keyin ham aralashishiga tayanadi.

Islomni Indoneziyada radikallashuvdan himoya qilish jarayoni hukumat, maxsus xizmatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, musulmon diniy-ta’limiy tizimi hamda “Muhammadiya” va “Nahdlatul Ulama” kabi yirik musulmon

fuqarolik jamiyati tashkilotlari faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir[197]. Indoneziyaning boshqaruv organidagi insonlar radikallashishdan himoyalanish siyosatini amalga oshirishda tarixiy xotira va tarixiy siyosat vositalaridan faol foydalanadilar. Bu yondashuv Indoneziyada islomni radikallashishdan himoya qilish modelini boshqa musulmon mamlakatlaridagi shunga o‘xshash siyosiy strategiyalardan aniq ajratib turadi.

Deralikalizatsiya — bu musulmon hamjamiyatining (umma) radikallashuvi yoki siyosiy elitalar nuqtai nazaridan nomaqbul bo‘lgan shaklda siyosiy faolligining ortishi ehtimoli yuzaga kelganda, davlat tomonidan (ichki ishlar organi va maxsus xizmatlar orqali) ushbu hamjamiyatning ichki ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga bevosita aralashishni nazarda tutuvchi nazariy va amaliy choralar majmuasidir.

Radikallashuvni bartaraf etishda asosiy rolni yirik musulmon jamoatlari va diniy-ma’rifiy tashkilotlar o‘ynaydi. Bu tashkilotlar uchun ummat ichidagi radikalizmga qarshi kurash, tizimli va muhim vazifalardan biri hisoblanadi, chunki musulmon hamjamiyatini ichki murosaga va siyosiy elitalar bilan yakdillikka asoslangan holatda saqlab qolish, musulmon tashkilotlari rahbariyatining manfaatlariga to‘g‘ri keladi. Yangi, o‘z ta’sirini musulmonlar orasida mavjud mo‘’tadil harakatlarga tenglashtira oladigan mustaqil tashkilotlar va kuch markazlarining paydo bo‘lishi, umma etakchilari tomonidan tahdid sifatida qaraladi va bunday yangi tashkilotlarga qarshi kurashish zarurati yuzaga keladi.

Hozirgi kunda Indoneziyada radikalizmga qarshi kurash jarayonlarida islomiy universitetlar va dunyoviy ta’lim muassasalari faol ishtirok etmoqda. Islomiy universitetlar radikal g‘oyalar tarqalishini oldini olishga qiziqish bildirishadi, chunki ularning o‘sishi musulmonlar uchun o‘rta va oliy ta’lim tizimiga tahdid soladi. Dunyoviy ta’lim muassasalari esa radikal islomning faollashishini Indoneziyaning asosan sekulyar jamiyatiga nisbatan katta tahdid sifatida ko‘rishadi, chunki bu jamiyatning keng qatlamlari uchun g‘arbiy intellektual va madaniy muhokamaning ideallashtirilgan modeli sifatida qabul qilinadi.

Indoneziyaning musulmon va dunyoviy ziyolilari islomni radikallashishdan himoya qilish uchun ishlab chiqqan strategiyalarni amalga oshirishda, boshqa musulmon mamlakatlarida odatda ishlatiladigan usullardan farqli tarzda, maxsus va o‘ziga xos metodlarni qo‘llashadi. Bu metodlar

[197] Современное политисheское сознание в США. М., 1980. С. 254.

Indoneziyaning o‘ziga xos jamiyat va madaniyat sharoitlariga moslashtirilgan bo‘lib, radikal g‘oyalar bilan kurashishda samarali bo‘lishi kutiladi.

Tarixiy siyosat doirasida, dunyoviy intellektuallar va umma vakillari tomonidan amalga oshirilgan siyosat, nafaqat jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladigan o‘zaro kelishuvlarni shakllantiradi, balki radikal g‘oyalarni asta-sekin belgilab, ularni kollektiv xotira madaniyatining chetiga suradi. Zamonaviy bosqichda xotira siyosatining islomni radikallashuvning oldini olishga qaratilgan ishlardagi jarayonlar kam o‘rganilgan bo‘lsada, uning potensiali boshqaruv va siyosiy ta’sirning boshqa an’anaviy vositalari bilan solishtirganda juda muhimdir.

Hozirgi Indoneziya islomni radikalizmdan xalos etish va radikal hamda ekstremist tendensiyalarning oldini olishda nisbatan samarali va amaliy mexanizmni taklif qilgan. Indoneziya tajribasi nisbatan muvaffaqiyatli deb baholanishi mumkin, garchi radikalizmning barcha shakllari va imkoniyatlari har doim bir xilda qo‘llanilmasa ham. Musulmonlar jamoasining parchalanishi, diniy ekstremizmga qarshi kurashish siyosati va elitalar tomonidan faol ravishda “o‘tmishni qayta ishlash” amaliyoti, Indoneziya islomini, nafaqat radikal tendensiyalarning o‘sishiga, balki iymonlilar jamoasini radikallashishdan oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini yanada chuqurroq o‘rganishning ahamiyati va dolzarbligiga ishora qilinmoqda[198].

Xorijiy davlatlar tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, radikalizmning oldini olishda faqat kuch bilan kurashish emas, balki profilaktik choralar, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, hamda fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, va Indoneziya kabi davlatlarda radikallashuvga qarshi kurashda:

1. Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik;
2. Erta ogohlantirish tizimlari;
3. Radikal fikrli shaxslarni jamiyatga moslashtirish dasturlari;
4. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda radikalizmga qarshi ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni berib borish va targ‘ib qilish dasturlari;
5. Imomlar va diniy ulamolarni tayyorlashda ularning bilimini oshirish va nazorat qilishga bo‘lgan yondashuvlar samara bergan.

Bu kabi tajribalar shuni anglatadiki, radikalizmga qarshi kurash ko‘p qirrali, uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, yoshlarga sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish bu yo‘ldagi eng muhim vositalardan biridir.

[198] Политологисheский словар. В 2-х ch. // Под ред. Миголатева А.А. Ch. II. М., 1994.

IQTISODIY ZO‘RAVONLIK

Mirzayeva Barnoxon Adxamovna
Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmati boshlig‘ining Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ADPI tadqiqodchisi.

Yer yuzidagi 1,4 milliard ayollar iqtisodiy zo‘ravonlik qonuniy ravishda zo‘ravonlik sifatida tan olinmagan davlatlarda yashaydi.[199] Agar ular soniga yana shuncha erkaklarni qo‘shsak yer yuzining qariyb yarmida iqtisodiy zo‘ravonlik tan olinmagan va buning oqibatida taqiqlanmaganiga ishonch hosil qilamiz. [Mazmun anglashilmayapti] Iqtisodiy zo‘ravonlik – bu shaxsning moliyaviy mustaqilligini cheklash yoki unga zarar yetkazish maqsadida qo‘llaniladigan zo‘ravonlikning bir shaklidir. U insonning moliyaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatini cheklash, iqtisodiy harakatlarini nazorat qilish yoki shaxsni iqtisodiy jihatdan jabrlanuvchi holatga tushirishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi qonuniga ko‘ra esa: “iqtisodiy zo‘ravonlik – xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik).”[200]

Internet nashriga ko‘ra: “Amnesty International” tashkiloti O‘zbekiston oiladagi zo‘ravonlikni qonunga alohida jinoyat sifatida kiritgan beshinchi davlatga aylangan. Xalqaro tashkilotning tadqiqotchisi Xeza Makgill O‘zbekiston hukumati inson huquqlari bo‘yicha gender zo‘ravonlikka barham berish bo‘yicha xalqaro majburiyatni bajarish yo‘lida muhim qadam tashlayotganini ta’kidlab quyidagi fikrlarni aytdi: ““Amnesty International” O‘zbekistonda jismoniy zo‘ravonlik endi jinoyat hisoblansa-da, iqtisodiy va ruhiy zo‘ravonlik e’tiborsiz qolishidan xavotirda”.[201] Jahon banki bergan ma’lumotlarga ko‘ra: “Ayollar, biznes va qonun” loyihasi bo‘yicha berilgan so‘nggi hisobotda 2022-yil 1-oktyabrdan 2023-yil 1-oktyabrgacha atigi 18 ta davlat – baholanganlarning 10

[199] https://news.un.org/ru/story/2024/06/1453801 - Главный правозащитник ООН призвал положит конес «экономическому насилию» в отношении женщин и девочек. (Murojaat etilgan sana: 28.06.2024)

[200] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/561/3680-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 10.12.2021 y., 03/21/736/1144-son; 12.04.2023 y., 03/23/829/0208-son; 19.10.2024 y., 03/24/977/0831-son

[201] https://www.qalampir.uz/news/-2375-80686 - Oiladagi zo‘ravonlik: O‘zbekiston dunyoda beshinchi bo‘ldi. (Murojaat etilgan sana: 11.04.2023)

foizidan kamrog‘i – ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha huquqiy islohotlarni amalga oshirgan. Mazkur mamlakatlar qonunostida gender tengligini oshirishga qaratilgan 47 ta islohotlarni amalga oshirdilar. Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida beshta iqtisodiyot – O‘zbekiston, Armaniston, Ozarbayjon, Kipr va Moldova to‘qqizta islohotni amalga oshirdi.[202]” Umuman olganda, O‘zbekistonda zo‘ravonlikka qarshi kurash borasida ma’lum bir yutuqlar bor va u xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Ammo iqtisodiy va ruhiy zo‘ravonlik kabi yashirin namoyon bo‘ladigan holatlarga qarshi kurashda qiyinchiliklar yuzaga kelayotgani ham haqiqat. Buning sabablari esa quyida ko‘rib chiqiladi.

Nima uchun iqtisodiy zo‘ravonlik yashirin holatda qoladi? Unga qarshi kurashishning samarali usullari bormi? Aslida iqtisodiy zo‘ravonlik qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?

Birinchidan, iqtisodiy zo‘ravonlikda zo‘ravon shaxs qurbonning moliyaviy harakatlarini nazorat qiladi. Bu boradagi muhim yo‘nalishlardan biri qurbonning mustaqil ravishda bilim olishi va natijada kasb-hunarga ega bo‘lib daromad topa olmasligini ta’minlash uchun sa’y-harakatlar qilishda namoyon bo‘ladi. Turmush o‘rtog‘ining past ijtimoiy maqomda bo‘lishi kerakligi va milliy va diniy qarashlar niqobidagi tushunchalardan kelib chiqib, unga bilim va hunar o‘rganishiga to‘sqinlik qiladi. Bu mamlakatimizda eng ko‘p tarqalgan iqtisodiy zo‘ravonlik turlaridan biridir. Ayrim hollarda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar turmushga chiqqanidan so‘ng turmush o‘rtog‘i va ularning yaqinlari qistovi bilan o‘qishni tashlab ketishga majbur bo‘ladilar. Bu kabi holatlarni turlicha tushuntirish va oqlash mumkin, lekin birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarda bu kabi holatlar iqtisodiy zo‘ravonlik deb belgilangan va davlatlarga bu borada qonunchilikni kuchaytirish vazifasi yuklangan.

Ikkinchidan, jabrlanuvchining ish haqini tortib olish, uning moliyaviy imkoniyatlarini qisqartirish. Masalan, oila a’zolaridan biri – eri, qaynonasi, qaynotasi kelinning o‘zi ishlab topgan ish haqqi – plastik kartasidan foydalanishini cheklab qo‘yadi. Oilaviy an’analar va qadriyatlar bahonasida ana shu mablag‘larni o‘zlarining daromadidek tasarruf qiladi. Bu iqtisodiy zo‘ravonlikning eng yorqin ko‘rinishi hisoblanadi. Bu borada katta sotsiologik so‘rovnomalar o‘tkazilmagan bo‘lsa-da, joylardagi madaniy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, bizning kuzatuvlarimizga ko‘ra ayrim hollarda 100

[202] https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/03/04/uzbekistan-reaches-the-ranks-of-top-five-impro vers-in-the-world-banks-women-business-and-the-law-2024-study - Uzbekistan Reaches the Ranks of Top Five Improvers in the World Bank‘s Women, Business and the Law 2024 Study (Murojaat etilgan sana: 04.03.2024)

foizga qadar yosh kelinlarning ish haqlari turmush o‘rtog‘i yoki uning yaqinlari tomonidan tasarruf qilinadi.

Uchinchidan, iqtisodiy munosabatlarda ayollarning ish haqini sun’iy ravishda kamaytirishda namoyon bo‘ladi. Nima uchun bozor munosabatlarga asoslangan O‘zbekistonda konstitutsiyaviy darajada jinslar tengligi belgilangan bo‘lsa-da, amalda ayollar ozroq ish haqi olishadi. Quyida jahon bankining bu boradagi tahlilini taqdim etamiz.[203]



2.3-rasm. Yosh va gender asosida bandlik

Ko‘rinib turibdiki, ayollar amalda bandlik masalasida 25–34 yoshda 56 foiz farq bilan erkaklarga yon beradi. Bu xotin-qizlarning reproduktiv funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, shu yoshda ayollar homilador bo‘lishi, farzandini dunyoga keltirishi va tarbiyasi bilan shug‘ullanishi ehtimoli yuqori. Jahon banking ushbu ko‘rsatkichlarni qanday tahlil qilganiga e’tibor qilaylik: “Jahon banki so‘rovnoma-larida qatnashganlarning qariyb 30 foizi oilada tinchlikni saqlash uchun xotinlar erlariga qaraganda kamroq maosh olishlari kerak, 75 foizga yaqini esa uy yumushlariga e’tibor qaratish uchun ayollar erkaklarga nisbatan kamroq ishlashi kerak, deb hisoblaydi. Bu munosabatlar ayollarga ikki baravar yuk qo‘yadi, chunki ular odatda pul topish ishlari bilan bir qatorda uyda bolalar, keksalar va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj boshqa uy a’zolari uchun deyarli barcha parvarishlash majburiyatlarini o‘z zimmalariga oladilar. Erkaklar uy ishlariga kuniga o‘rtacha atigi 2,15 soat ajratishadi, ayollarda esa bu ko‘rsatkich 5,27 soatni tashkil etadi. 2022-yilda ishlamaydigan, mehnatga layoqatli yoshdagi xotin-

[203] O‘zbekistonda gender tengligi tahlili. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki / Jahon Banki. Vashingtonda chop etilgan va ishlab chiqarilgan. Ilk chop etilgan: May 2024. – Б. 7.

qizlarning qariyb 75 foizi uy ishlari va parvarish qilish majburiyatlari tufayli ishlamasligini aytishgan va ayollar ushbu sabablar tufayli ishlamaslik ehtimoli erkaklarga qaraganda 30 marta ko‘proq edi. Mas’uliyatni nomutanosib ravishda taqsimlashning kuchli tendensiyasi, ayniqsa, yosh ayollar va yosh bolalari yoki keksa oila a’zolari bo‘lganlar orasida ularning karyerasi va daromad potensialini cheklaydi.”[204] Jahon bankining statistik ma’lumotlari haqiqiyligiga shubha bildirmagan holda uning ayrim xulosalariga qo‘shilib bo‘lmaydi. Ayollarning tabiiy funksiyasiga farzand dunyoga keltirish va uni tarbiyalash kiradi. Bu jarayonda o‘z-o‘zidan uy yumushlariga ajratiladigan vaqti ko‘payib boraveradi. Bu xulosani jahon banki mehnat bozoridagi o‘zaro raqobat, ya’ni qancha ishchi kuchi ko‘p bo‘lsa, shuncha arzon bo‘ladi tamoyilidan kelib chiqadi. Ammo masalaning ikkinchi tomoni shuki, agar ayollar homilador bo‘lmasdan, farzandni dunyoga keltirmasdan va ularni tarbiyalamasdan faqat xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish kabi sohalar bilan band bo‘lsa, kelgusi 15–20 yilda mehnat bozorida juda katta tanqislik vujudga keladi. Masalan, Rossiya, Germaniya, Ispaniya va Italiya kabi davlatlarda tug‘ilish ko‘rsatkichlari pasaygan.[205] Olimlarning fikricha, agar depopulyatsiya jarayoni davom etsa, yalpi ichki mahsulotni ko‘paytirishning hech ham imkoni yo‘q.[206] Shunday ekan, har qanday gender, o‘ta keskin feministik siyosat va zo‘ravonlikka qarshi kurash jarayoni muqarrar inqirozni keltirib chiqarishga xizmat qilmasligi kerak. Chunki aholi sonini barqaror ushlab turish yoki o‘sishni ta’minlash masalasi juda keskin muammo bo‘lib, O‘zbekistonda ham bu masala bo‘yicha ayrim tashvishli raqamlar e’lon qilindi. Jumladan, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida tabiiy o‘sish 768 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning mos davrida 761,8 ming nafarni tashkil qildi.[207] Albatta, bu ko‘rsatkich katta raqam emas. Lekin ijtimoiy jarayonlar va jamoatchilik fikriga quloq soladigan bo‘lsak, bu raqamning oshishi uchun iqtisodiy va ijtimoiy potensial mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan iqtisodiy zo‘ravonlik bahonasida depopulyatsiya jarayoniga turtki berib yubormaslik kerak. Chunki O‘zbekiston demografik muammo yuz bersa,

[204] O‘sha manba – B. 7.

[205] Перевединцев В. Демографическое настоящее и будущее Росси // Вопросый экономики, 2002. – № 4. – С. 152.

[206] Jacobs, Andrew James. The world's cities : contrasting regional, national, and global perspectives. – New York: Routledge, 2013. – P. 355.

[207] O‘zbekiston Respublikasining demografik holati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-22_07_2024-uzb-_p11729.pdf (Murojaat etilgan sana:15.08.2024)

rivojlangan davlatlar kabi jozibasi yo‘qki, migranti yoshlar kelib muammolarni hal qilishda ishtirok etsin.

DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MA’RIFAT — RADIKALIZMGA QARSHI KURASHNING SAMARALI VOSITALARI

F.Xudoynazarov
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
ilmiy xodimi

Globallashuv jarayonlari va dunyoning turli nuqtalarida kuzatilayotgan nizolar sharoitida radikalizm, ekstremizm va terrorizm kabi tahdidlarning kuchayishi zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazishga urinishlar tobora avj olmoqda. Bunda aksariyat hollarda din niqobi ostida zo‘ravonlik, murosasizlik va umuminsoniy qadriyatlarni inkor etish kabi buzg‘unchi g‘oyalar targ‘ib qilinib, terrorchi tashkilotlar o‘z saflarini kengaytirishga harakat qilmoqda.

Bunday sharoitda O‘zbekiston Respublikasi yoshlarni bu kabi buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan asrash, ularning keng tarqalishiga chek qo‘yish, bu borada milliy va xalqaro ilg‘or tajribalardan samarali foydalanishni davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan.[208] Mamlakatning bu boradagi kurashining asosiy tamoyili “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashish borasidagi sa’y-harakatlar mustahkam huquqiy va strategik asosga ega:

2018-yilda “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi bu sohadagi ishlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim qadam bo‘ldi.[209]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son Farmoni bilan “2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi” va

[208] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
[209] O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-son Qonuni. https://lex.uz/ru/docs/3841957

uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.[210] Ushbu strategiya quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish.

Voyaga etmaganlar, yoshlar va ayollar orasida radikal g‘oyalar tarqalishining oldini olish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish.

Xorijdagi fuqarolarni ekstremistik ta’sirlardan himoya qilish.

Internet tarmog‘ida ekstremistik va terrorchilik maqsadlarida foydalanishga qarshi samarali kurashish.

Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining ushbu jarayondagi faol ishtirokini ta’minlash.

Ekstremistik faoliyat va uni moliyalashtirish uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish, sohadagi qonunchilikni rivojlantirish.

Xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash.

Milliy strategiyaning amalga oshirilishi yuzasidan vazirlik va idoralar rahbarlariga shaxsiy mas’uliyat yuklatilgan bo‘lib, ijro nazorati O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

“Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili radikal g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar bilan ishlashda, shuningdek, profilaktika chora-tadbirlarida asosiy yondashuv hisoblanadi. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

Diniy va ilmiy muassasalar vakillari, olimlar, mutaxassislar tomonidan keng ko‘lamli targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazish. Ushbu tadbirlar turli davlat va jamoat tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida muntazam tashkil etilib, suhbatlar davomida yot g‘oyalarning asl maqsadi va zararli oqibatlari tushuntiriladi, vatanga muhabbat, milliy an’analar va umuminsoniy qadriyatlar targ‘ib qilinadi.

Mutaassib g‘oyalarga ergashgan shaxslarning diniy motivlarini va radikallashuviga sabab bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini chuqur anglash va ularni bartaraf etishga ko‘maklashish.

Internetda ekstremistik mazmundagi materiallar tarqalishiga qarshi kurashish, mediasavodxonlikni oshirish.

[210] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.07.2021-yildagi “2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6255-son Farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/5491626

Yoshlarning tajribasizligi, hissiyotga beriluvchanligi, bilim (jumladan, diniy bilim) etishmasligi kabi zaif jihatlarini inobatga olgan holda individual va guruhli ishlar olib borish.

Ta’lim dasturlarida umuminsoniy qadriyatlar, ma’rifatparvarlik, tanqidiy tafakkur va tarixiy bilimlarning ahamiyatini kuchaytirish.

Malakali psixologlar, dinshunoslar va boshqa mutaxassislarni jalb etgan holda yoshlar va ayollar bilan ochiq muloqotlar tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan adashib jinoyat yo‘liga kirgan fuqarolarni afv etish, maxsus ro‘yxatlardan chiqarish, shuningdek, “Mehr” operatsiyalari doirasida mojaroli hududlardan ayollar va bolalarni Vatanga qaytarish kabi insonparvarlik tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bunday choralar jamiyatda inson qadri ustuvorligini ta’minlab, davlatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va radikal guruhlar ta’siriga tushib qolish xavfini kamaytiradi.

Ekstremistik oqimlar ko‘pincha o‘zlarini “haqiqiy islom” vakillari sifatida ko‘rsatishga urinsa-da, ularning g‘oya va amaliyotlari islom dinining asl mohiyatiga mutlaqo ziddir.

1995-yil YUNESKO tomonidan qabul qilingan Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida ta’kidlanganidek, bag‘rikenglik – bu turli madaniyatlar, o‘zligini ifoda etish shakllari va insoniy individuallikning namoyon bo‘lishini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishdir.[211] Islom dinida bu tamoyil “samahatul islom” (Islom bag‘rikengligi) deb yuritiladi. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) o‘z hayotlari va faoliyatlari davomida boshqa din vakillariga nisbatan yuksak hurmat va bag‘rikenglik namunasini ko‘rsatganlar (Saqif qabilasi, Najron nasroniylari, yahudiylar bilan munosabatlari).

Tarixda dinni niqob qilib, siyosiy maqsadlarga erishishga uringan adashgan oqimlar (masalan, xorijiylar, hashshoshiylar) paydo bo‘lgan. Ularning “hukm faqat Allohnikidir” kabi shiorlar ostida o‘zlariga qo‘shilmaganlarni “kofir”ga chiqarishi, zo‘ravonlik va terrorni qo‘llashi islomning tinchlik, adolat va rahm-shafqatga asoslangan tamoyillariga butunlay ziddir. Zamonaviy dunyodagi “Al-Qoida”, ISHID kabi terrorchi tashkilotlar ham islom dinining asl ta’limotlarini buzib talqin qiluvchi, g‘arazli maqsadlarga ega tuzilmalardir.

Xullasi kalom, O‘zbekistonning ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash tajribasi kompleks yondashuvga asoslangan. Bunda mustahkam huquqiy bazani yaratish, “jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida keng qamrovli ma’naviy-

[211] Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan. https://www.unesco.org/en/days/tolerance

ma’rifiy ishlarni olib borish, aholining, ayniqsa, yoshlarning turli qatlamlarini buzg‘unchi g‘oyalardan himoyalash, insonparvarlik tamoyillarini qo‘llash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Bu sa’y-harakatlarning barchasi mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, yosh avlodning jismonan va ma’nan sog‘lom kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali Yangi O‘zbekistonning yuksalishiga xizmat qiladi. Tinchlikni saqlash nafaqat davlat idoralari, balki har bir fuqaroning Vatan taqdiri uchun daxldorlik hissi bilan yashashini, doimo ogoh va hushyor bo‘lishini taqozo etadi.

ISLOMDA AYOLNING O‘RNI VA AXLOQIY TARBIYA

Berdieva Nilufar Axatovna
Xoja Buxoriy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi
o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i

Islom dini o‘zining muqaddas manbalari – Qur’on va Sunnat orqali ayolning jamiyatdagi o‘rni, uning huquq va majburiyatlari, shuningdek, axloqiy tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratadi. Johiliya davrida hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan ayol Islom kelganidan so‘ng munosib maqomga ega bo‘ldi. U nafaqat oilada, balki jamiyatda ham faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida ko‘rildi.

Qur’oni Karimda Alloh taolo erkak va ayollarni teng qilib yaratganini ta’kidlaydi:

"Ey odamlar! Sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik..."

(Hujurot surasi, 13-oyat).

Bu oyatdan ko‘rinadiki, Islom erkak va ayolni inson sifatida barobar deb biladi. Ayolning ibodati, aqliy va ma’naviy kamoloti jinsga bog‘liq emas.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o‘z hadislarida ayolga yaxshilik qilishni buyurganlar:

"Sizlarning orangizdan eng yaxshilaringiz — ayoliga yaxshi munosabatda bo‘lganlaringizdir" (Ibn Moja, Nikoh, 50)[212].

Ayol ona, xotin, qiz, opa sifatida jamiyatning asosiy poyasi hisoblanadi. Ona sifatida uning o‘rni juda oliy darajada:

“Jannat onalarning oyog‘i ostida” (Nasoiy, Jihod, 6)[213].

[212] Ibn Moja, "Sunan", Kitob an-Nikoh, hadis №1977.
[213] Nasoiy, "Sunan", Kitob al-Jihod, hadis №3104.

Bunday maqom ayolning axloqiy va ma’naviy tarbiyada tutgan o‘rni qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi.

Ayol – bolaning birinchi muallimi. Uning tili, xulqi, qo‘rquvi va muhabbati ayol tarbiyasidan boshlanadi. Ayol yaxshi tarbiya ko‘rsa, farzandi ham ma’naviy barkamol shaxs bo‘ladi.

Imomi G‘azzoliy aytadi: *“Tarbiyada eng muhim omil – ona tarbiyasidir, chunki bola onaning qo‘lida shakllanadi”*[214].

Ayol o‘z axloqi, xulqi, hayot tarzi bilan jamiyatdagi axloqiy muhitni belgilab beradi. Agar ayol axloqli, ilmli va diyonatli bo‘lsa, u bunday jamiyatni barpo eta oladi.

Axloq — insonning ichki dunyosi, bag‘rikengligi va jamiyatdagi munosabatlarini tartibga soluvchi me’yorlar yig‘indisidir. Ayol axloqi esa uning ma’naviy yuksakligi, voyaga yetganlik darajasi va hayotdagi yurish-turishi bilan namoyon bo‘ladi.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o‘z hadislarida: *“Eng afzal boylik — yaxshi xulqli ayoldir.”* (Ibn Moja, “Nikah”, 5)

"Ayol axloqi jamiyat axloqining asosiy mezoni hisoblanadi, chunki u avlodga ko‘chadi."[215]

Odob — axloqning tashqi ifodasi bo‘lib, ayolning gap-so‘zida, kiyinish madaniyatida, muomala va harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Qur’onda:

“Mo‘min ayollar... o‘zlarini pok tutadilar va Allohni ko‘p zikr qiladilar.” (Ahzob surasi, 35-oyat)

Hadisda:

“Odob — insonning zinatidir.” (Tabaraniy, “Kabir”, 3/58)

Xulq — insonning tug‘ma yoki orttirilgan raftori. Ayol xulqi deganda uning muloyimligi, sabr-toqatliligi, halol-pokligi nazarda tutiladi.

Imom G‘azzoliy ta’kidlaydi: *"Xulqni ziynatlash — iymonni mukammallashtirishdir*."[216]

Ayollar uchun ilm olish — nafaqat huquq, balki burch hamdir. Islomda ham, zamonaviy huquq tizimlarida ham ayollarning bilim olishi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Hadis:

[214] Al-G‘azzoliy, "Ihyo ulumi-ddin", 3-tom, Tarbiya haqida.
[215] Islomov A., Islomiy axloq asoslari, T., 2015, 88-bet
[216] G‘azzoliy A., Ihyo ulumi-d-din, I jild, Qohira, 2005, 104-b.

“Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir.” (Ibn Moja, "Muqaddima", 17)

Statistik ma’lumot (YuNESKO, 2022):

"Oliy ma’lumotli ayollar farzandlarini bilimli, axloqli va jamiyatga foyda keltiradigan inson qilib tarbiyalash ehtimoli 4 barobar yuqori."[217]

Diyonat — dindorlik, Allohdan qo‘rqish, halol-haromni ajrata bilish, vijdon va iymon asosida hayot kechirish demakdir. Ayoldagi diyonat uning hayotiy qarorlarida, oilaviy munosabatlarida va o‘zini tutishida namoyon bo‘ladi.

Qur’onda:

“Diyonatli, ibodatli, ro‘za tutuvchi, pok ayollar…” (Tahrim surasi, 5-oyat)

Hadis:

“Ayolga to‘rt narsa uchun uylaniladi: mol-dunyosi, nasabi, go‘zalligi va diyonati. Sen diyonatli bo‘lganini tanla!”[218]

Ayol — ma’naviy va axloqiy tayanchdir. Uning xulq-atvori, ilmi, odobi va diyonati nafaqat oilasi, balki butun jamiyat uchun namuna bo‘ladi. Bunday ayollar jamiyatni ma’naviy inqirozdan asrab, ma’rifat sari yetaklaydi.

Islomda ayollarga meros, ta’lim, mulkdorlik kabi huquqlar berilgan:

Ta’lim olish huquqi: Payg‘ambar (s.a.v.): *“Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir”* deganlar[219].

Mulkdorlik huquqi: Ayol o‘z mulkiga ega bo‘ladi va uni boshqara oladi (Niso surasi, 32-oyat)[220].

Manbalarda qayd etilishicha, tarixda ilk bora mulkni vaqfga aylantirish Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonlaridan amalga oshirilgan[221]. Xususan, Muhammad (s.a.v.) Madinadagi yettita bog‘ni miskin faqirlar va hojatmandlar foydasiga vaqf qilganlar[222]. Shundan so‘ng payg‘ambar safdoshlari ham o‘z mulklarini vaqf qilish borasida tashabbus ko‘rsata boshlaganlar. Jumladan, xalifa Umar (r.a.) payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) maslahatlari bilan Xaybar vodiysidagi yer-mulklarini “aslini tutib qolib, asli sotilmasligi, sotib olinmasligi, meros qilinmasligi va hadya qilinmasligi sharti bilan” faqirlarga, qarindoshlarga, qullarga, Alloh yo‘liga vaqf qilganlar[223].

---

[217] YuNESKO World Education Reort, 2022

[218] Buxoriy. Sahih al-Buxoriy, “Nikah”, 15.

[219] Ibn Moja, "Sunan", Kitob az-Zuhd, hadis №224.

[220] Qur’on Karim, Niso surasi, 32-oyat.

[221] Qureshi M.A. Waqfs in India…. – P. 4

[222] Yakubov Q.K. XIX asrning II yarmi – XX asr boshida Xiva xonligida vaqf instituti (Tarixiy-manbashunoslik tahlili). Tarix bo‘yicha falsafa doktori.... dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B. 45.

[223] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. 3-juz... – B. 328-329; Gil M. The Earliest Waqf Foundations // Journal of Near Eastern Studies/ - Vol. 57 (1998). – P. 126-127.

Ayollarga esa mol-mulk asosan otalari, aka-uka kabi yaqin qarindoshlari, shuningdek, turmush o‘rtoqlaridan meros qolgan. Bundan tashqari, oila a’zolari tomonida berilgan hadya (*hiba*) va sadaqa (*sadaqa*)[224] ham ushbu mulklarning muhim manbai hisoblangan. Shuningdek, ulardagi mulklarning bir qismi nikoh vaqtida er zimmasiga vojib (shart) qilingan mahr hisobidan hosil bo‘lgan[225].

Islom huquqshunosligiga muvofiq mahr miqdoriga cheklov joriy etilmagan bo‘lib, beriladigan mulk hajmi erning moliyaviy imkoniyatiga, ayolning jamiyatdagi mavqeiga ham bog‘liq bo‘lgan[226]. Shuningdek, shariatda agarda ayolning turmush o‘rtog‘i vafot etgan bo‘lsa, nikoh shartnomasiga ko‘ra, undan qolgan mulkka ham egalik etish huquqi berilgan[227].

Ayol voqifalar orasida Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon (1451-1510)ning kelini Mehr Sulton xonim nomini ham alohida e’tirof etish lozim. Mehr Sulton xonimning Samarqand shahridagi Shayboniyxon madrasasi[228] foydasiga tuzilgan vaqfnomasini tadqiq qilgan R.G. Mukminovaning keltirilishicha, voqifa o‘z mulklaridan kattagina yer maydonlarini, savdo-xunarmandchilik ustaxonalarini, do‘konlar va tegirmonlarni ushbu madrasa foydasiga vaqf sifatida ajratgan[229]. Mazkur mulklardan kelgan foyda madrasalarni saqlab turishga, jumladan, ularni ta’mirlashga, talabalarga nafaqa, o‘qituvchilarga nafaqa, o‘qituvchilarga maosh to‘lashga sarflanib, ma’lum qismi ega, mutavalliga berilishi vaqfnoma shartlarida aks etgan. Shuningdek, Mehr Sulton xonim nafaqat voqifa, balki mazkur mulklar boshqaruvida mutavalli sifatida ham bevosita o‘zi ishtirok etishi, vaqf mulklarini boshqarishda hech kimning aralashmasligi, mulklarni xohlagan vaqtda sotishi[230] va o‘zi xohlagan vaqtda vaqf hujjatiga o‘zgartirish kiritishi mumkinligi vaqfnoma shartlariga kiritilgan. Shu bilan birga bu vakolatlar undan keyingi mutavallilar uchun joriy etilmasligi alohida ta’kidlangan[231]. Vaqf mulklari boshqaruvida bu qadar katta vakolatlar mavjudligini birinchi o‘rinda voqifaning o‘zi mutavalli bo‘lganligi, qolaversa, uning jamiyatdagi mavqei bilan izohlash mumkin.

---

[224] Shatzmiller M. Women and Property Rights … - P. 227.

[225] Mahr haqida batafsil qarang: Shayz Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. 2-juz. – Toshkent, 2015. – B. 392-406; Xidirova N. O‘rta Osiyo oila-nikoh munosabatlarida mahr: umumiy va o‘ziga xos jihatlari // Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy medievistika talqinida. – Toshkent, 2013. – B. 213-222.

[226] Doi ‘Abdur Rahman I. Women in Sharia’ah (Islamic Law). – London, 1989. – P. 154.

[227] O‘sha joyda – B. 154.

[228] Shayboniyon yoki Qo‘sh madrasa nomi bilan tanilgan.

[229] Mukminova R.G. K istorii agrarnых otnosheniy v Uzbekistane XVI v. Po materialam Vakf-name. – Tashkent: Fan, 1966. – S. 26-30.

[230] Shariatga ko‘ra, mulklar vaqfga aylantirilgandan so‘ng egalik xususiyatini yo‘qotadi, ya’ni ularni sotish yoki sotib olish taqiqilanadi. Lekin bu o‘rinda muallif vaqf erlarini sotish deganda uning o‘zini emas, balki undagi sukniyotlarni sotish nazarda tutilganligini ta’kidlaydi.

[231] Mukminova R.G. K istorii agrarnых otnosheniy… - S. 69.

Buxorodagi eng nufuzli madrasalardan sanalgan Jo‘ybori Kalon madrasasi ham bevosita ayol kishi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, vaqf ta’sischisi sifatida ashtarxoniy Nadr Muhammadxon (1592- taxm. 1651)ning rafiqasi Oyposhsha Bibi tilga olinadi[232]. Xususan, mazkur vaqf muassasasi foydasiga rasmiylashtirilgan vaqf hujjatiga ko‘ra, Oyposhsha Bibi o‘z vakili orqali Buxoro xonligining bir qancha hududlaridagi dahyak[233] hamda 400 tanobdan[234] ortiq mulki xolis[235] yerlarini vaqfga aylantirgani qayd etilgan[236].

Garchi vaqfnomalar voqifalarning yoshi haqida ma’lumot bermasa-da, qozixonada xujjatlashtirishda bevosita o‘zlari ishtirok etgan ayollar o‘rta va keksa yoshda bo‘lganlar, degan mulohazani bildirish mumkin. Bu holatning jamiyat tomonidan me’yoriy hodisa sifatida qabul qilinishi esa, masalaning o‘ziga xos jihati bo‘lib, alohida ahamiyatga egadir[237].

Ko‘rib o‘tilgandek, islom tarixida ayollar vaqf mulkchiligi tizimida o‘zlarining salmoqli ishtiroklari bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy hayotida munosib iz qoldirgan[238].

Shu bilan birga, ayollar ma’naviy mas’uliyat ham oladi – farzand tarbiyasi, er-xotin munosabatlari, jamiyatda iffatni saqlash kabilar shular jumlasidandir.

Ayol — jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oilaning asosiy a’zosi hisoblanadi. Uning oiladagi o‘rni biologik, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy ilm va islomiy manbalarga ko‘ra, ayol faqat farzand tarbiyalovchi emas, balki oilada ma’naviyatni, barqarorlikni, mehr va vafo muhitini yaratuvchi shaxs sifatida ko‘riladi.

Islomda ayolning oiladagi o‘rni juda yuqori baholanadi. U zo‘ravonlikdan himoyalangan, nafaqa, ehtirom, va tarbiya sohasida alohida huquqlarga ega.

Qur’oni Karimda:

---

[232] Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, mazkur madrasa Oyposhshaoyim tomonidan barpo etilgan. Bu haqda qarang: Jumanazar A. Buxoro. Ta’lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 269-271.

[233] Dahyak – O‘rta Osiyo xonliklarida er hosillaridan 1/10 miqdorda olinadigan soliq bo‘lib, ushr deb ham atalgan. Shuningdek, Buxoro amirligida vaqf erlaridan olinadigan daromadning madrasa toliblari, mudarrislari, xo‘jalar yoki avliyolar avlodlariga beriladigan qismi. Bu haqda qarang: Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в ХВИ - первой половине ХИХ века. – Ташкент: Фан, 170. – С. 52-56; 69.

[234] Tanob – O‘rta Osiyoda keng tarqalgan er o‘lchovi birligi hisoblanib, hududlarga ko‘ra turlicha bo‘lgan. Buxoro, Samarqand va umuman Zarafshon vodiysida tanob 625 kv. Sajen = 2845,1562 kv.m ga teng bo‘lgan. Bu haqda qarang: Davidovich Ye.A. Materialы po metrologii srednevekovoy Sredney Azii. – Moskva, 1970. – S. 129.

[235] Mulki hurri xolis (mulki hurr) – soliqlardan ozod er. Bu haqda batafsil qarang: Чехович О.Д. Бухарские поземелные акты ХВИ-ХИХ вв. // Проблемы источниковедения, ИВ. - Москва, 1955. – С. 237-242.

[236] Mazkur muassasa vaqf hujjati yanvar-fevral, 1971 yilda (ramazon, 1081) tuzilgan bo’lib, uning asl hamda Amir Mas’um davrida ko’chirilgan ikkita nusxasi ham mavjud. Bu haqda batafsil qarang: Jumanazar A. Buxoro... – B. 269-274.

[237] Ismatova, Nargiza Buxoro amirligida ayol voqifalar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) – T.: “S’harq”, 2020. – 208 b. 29.

[238] Ismatova, Nargiza Buxoro amirligida ayol voqifalar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) – T.: “S’harq”, 2020. – 208 b. 25.

"Ey odamlar! Biz sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik..." (Hujurot surasi, 13-oyat) — bu oyatda erkak va ayol tenglikda yaratilgani ta’kidlanadi.

"Erkaklarning ayollar ustidan bir daraja afzalliklari bor..." (Baqara surasi, 228-oyat) — bu afzallik mas’uliyat va rahbarlikda ko‘proq javobgarlik ekanini anglatadi, ustunlik emas.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o‘z hadislarida: *“Sizlardan eng yaxshilaringiz — ayollariga yaxshilik qiluvchilaringizdir”* (Termiziy, "Rido", 11).

Psixologiyada ayol — oilaviy munosabatlarda emotsional barqarorlik, hissiy qo‘llab-quvvatlash va tarbiya jarayonining markaziy figurasi sifatida baholanadi.

Ilmiy manbada keltirilishicha - "Ayolning oiladagi mavqei nafaqat onalik, balki ijtimoiy va shaxsiy rollarda ham namoyon bo‘ladi. Uning ta’siri ko‘pincha erkakka nisbatan muloyimlik, hamdardlik va bag‘rikenglik orqali seziladi"[239].

Hozirgi kunda ayollarning oiladagi va jamiyatdagi huquqlari xalqaro konvensiyalar bilan ham himoyalangan. Masalan, BMTning “Ayollar huquqlarini himoya qilish konvensiyasi” (CEDAW, 1979) ayollarning barcha sohalarda, jumladan, oilada teng huquqliligini ta’minlashga qaratilgan.

Ayolning oiladagi o‘rni – ko‘p qirrali va yuksak ma’naviy ahamiyatga ega masaladir. U faqat onalik va rafiqalik vazifalari bilan cheklanmaydi, balki oilaning ma’naviy mehvari, muhabbat va barqarorlik manbai hisoblanadi.

Islomda ayol faqatgina oilada emas, balki keng jamiyatda ham axloqiy, ma’naviy va tarbiyaviy jihatdan muhim shaxs sifatida qaraladi. Unga berilgan huquq va mas’uliyatlar uning maqomini aniq belgilaydi. Bugungi kunda ayollarning axloqiy tarbiya sohasidagi roli yanada kuchayishi kerak, chunki sog‘lom jamiyat faqat sog‘lom ayol va onalar orqali shakllanadi.

ISLOMDA AYOL HUQUQLARI VA AXLOQIY TARBIYA: TARIXIY MEROSDAN ZAMONAVIY DAVRGA QADAR

Axmedov Muhammad Xodiy
Imom Termiziy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Islom olamida ayol huquqlari va axloqiy tarbiya qadriyatlari qadimdan hozirgi kungacha evolyutsiyaga uchragan. Qur’on oyatlari va hadislar orqali ayollar va erkaklar ruhiy jihatdan teng deb tan olinsa-da, tarixda islomiy an’analar asosida shakllangan qadriyatlar jamiyatning diniy, madaniy va ijtimoiy hayotida

[239] Nazarov U., Oila psixologiyasi, Toshkent, 2017, 42-b.

o’ziga xos o’rin egallagan. Mustaqillikdan so'ng O‘zbekiston kabi mamlakatlarda davlat siyosati, qo’llanilgan qonun hujjatlari hamda xalqaro tendensiyalar asosida ayol va oila masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, zamonaviy raqamli davr va global tarmoq davrida islomiy feministik yondoshuvlar ayol huquqlari va oilaviy qadriyatlarni yangi nuqtai nazardan tahlil qilmoqda.

Islomning ilk asrlarida ayol shaxslar ilm-fan, diniy bilim va tafsir sohalarida faol ishtirok etgan.

- Hazrati Oisha (r.a.) – Qur’oni Karimni mukammal yodlash, hadis rivoyatini yig’ishda daho ko’rsatgan. Uning tajribasi hamda aqliy va ruhiy salohiyati butun islom ilmiy merosiga asos solgan.
- Ummu Salama (Hind binti Omiya, r.a.) – hadis rivoyatchiligi burchini bajargan, ko’plab islomiy an’analarni kelajak avlodlarga etkazishda muhim rol o’ynagan. Inglizcha manbalarda u “eng nufuzli ayol” deb ta’kidlanadi.
- Ash-Shifaa binti Abdulloh (r.a.) – tarixda ilk yozuvchilar orasida joy olgan, Hazrati Hafsa (r.a.)ga yozuvni o’rgatib, Qur’on va hadis bilimlarini keng jamoatchilikka tarqatishdagi faoliyati bilan ajralib turadi.

Ushbu diniy manbalar qadimiy jahiliy amaliyotlar, jumladan, qiz infanticidiga qarshi turish va ayollarga huquqiy, iqtisodiy erkinlik berish lozimligini tasdiqlaydi. Bu qadriyatlar islomiy axloq va ilmu-irfanning mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Tarixiy manbalar va adabiy asarlar orqali ayollar rolining kengligi va chuqurligi aks etgan:

- Zebunniso Bugayni (Begim) – arab va fors tillarini mukammal egallagan shoira sifatida, fiqh, mantiq, falsafa va tarix fanlari yuzasidan etuk bilimga ega bo’lib, uning she’riy asarlari Markaziy Osiyo, Hindiston va Eron kutubxonalarida saqlanib kelmoqda.
- Nodirabegim (Nodira, Mohlaroyim) – Qo‘qon xonligi tarixida shoirlik bilan birgalikda ma’rifatparvar va rivojlanishga hissa qo’shadigan lider sifatida madrasalar, masjid va karvonsaroylar qurilishida faol qatnashgan.
- Marg‘ilonlik Anbar Otin (Farmonqul qizi) – o’zbek va tojik tillarida she’rlar bitib, satirik g‘azallar yaratgan, jamiyatdagi ijtimoiy aralashuvchilikka qarshi tanqidiy nuqtai nazarni ifodalagan.
- Onasi Dilshod Otin – o’sha davrning bilimdon va shoirtabiatiga ega bo’lgan onalar qatoriga kiradi, u o’z farzandini mumtoz adabiyotga muhabbat bilan tarbiyalab, madaniy merosning davomiyligini ta’minlagan.

Bu asarlar va tarixiy voqealar ayol va onalarning nafaqat o’z oilalari, balki keng jamoat va madaniyat paradigmasini shakllantirishdagi o’rnini ochiq-oydin ko'rsatadi.

Mustaqillikka erishganidan keyin O‘zbekiston davlat siyosati ayol huquqlari va oila masalalariga katta e’tibor qaratgan:

- Qonun va Farmonlar: 2019-yilda qabul qilingan PP-4235 farmoni, “Ayol va erkak huquqlari tengligi” to‘g‘risidagi qonun, shuningdek, “Ayollarning zo‘ravonlikdan himoyasi”ga oid qonunlar ayollarning mehnat, tadbirkorlik hamda ijtimoiy himoyasini ta’minlashga xizmat qilmoqda.
- Ijtimoiy Faoliyat va Vakolat: 2020-yilda parlament saylovlarida ayollarning qatnashuvi sezilarli darajada oshib, Oliy Majlisning hamda Senatning a’zolariga ayol vakilligining ulushi global ko‘rsatkichlarga moslashdi. Maxsus qo‘mitalar va “Ayollar daftari” kabi tashabbuslar orqali davlat ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Moliyaviy Va Tashabbusiy Chora-Tadbirlar

Hukumat tomonidan ayollar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash maqsadida:

- Kredit va Subsidiya Dasturlari: 2021-yilda ayollar tadbirkorligiga 2 trillion so‘mdan ortiq kredit va subsidiyalar ajratilib, 200 mingdan ziyod loyiha moliyalashtirildi.
- Ish O‘rinlari Yaratish: Oila boshqaruvidagi 320 mingdan ortiq ayolga doimiy ish o‘rinlari tashkil etilib, iqtisodiy maydonni mustahkamlash maqsadida yangi tashabbuslar yo‘lga qo‘yildi.

Bunday chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy barqarorlik va demokratik taraqqiyot garovidir.

Islomiy an’analar oilaviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatiladi:

- Hadislar Va Tarbiya: Rasulullohﷺ ota-onalarga qiz bolalarni mehribonlik, sabr-toqat va e’tiborni namoyon etgan holda tarbiyalashni buyurgan. Bu hadis ota-onalarning farzandlarga bo‘lgan munosabati va jaholatga qarshi kurashdagi ahamiyatini ochib beradi.
- Milliy Strategiyalar: Hukumat hujjatlari va milliy strategiyalarda ota-onalar o‘rtasida mas’uliyatli tarbiya muhitini yaratish, farzandlarning aqlan, jismonan va axloqan to‘laqonli rivojlanishi ta’kidlanadi. Oilada saxovat, hurmat va mehr-muhabbat prinsiplarini shakllantirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy ustuni hisoblanadi.

Global Perspektiva Va Islomiy Feminizm

- Islomiy Feminizm: Islomiy feministik yondoshuv qadimiy matnlardagi yaratuvchi ma’no va adolatni qayta tiklash orqali ayol huquqlarini himoya qilishni

maqsad qiladi. Ushbu harakatlar diniy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy ijtimoiy talablar va global tenglik tamoyillarini uyg‘unlashtirishga intiladi.

- G‘arbiy Feminizm Bilan Taqqoslash: G‘arbiy feministik nazariyalar ko‘pincha sekulyar asosdagi tenglikni ilgari suradi, ba’zan esa diniy amaliyotlarni ayollarning ozodligini chegaralovchi omil sifatida baholaydi. Lekin, xalqaro miqyosda ham ikki yondoshuvda ayol huquqlarini mustahkamlash va farovon jamiyat qurish zarurligi umumiy e’tirofda.
- Raqamli Davr Va Global Tarmoq: Zamonaviy texnologiyalar, raqamli media va ijtimoiy tarmoqlar islomiy feministik harakatlarga yangi nafas olib kirdi. Yosh avlod onlayn platformalarda diniy va madaniy qadriyatlarni muhokama qilib, an’anaviy va zamonaviy yondoshuvlar o‘rtasida sog‘lom muloqotni rivojlantirmoqda. Bu holat global miqyosda ayol huquqlari masalasiga yangi qarash va innovatsion fikrlarni olib kirmoqda.

Bugungi kunda, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro formlar ayol huquqlari va islomiy axloqiy tarbiya masalalariga yangi nuqtai nazarlarni kiritmoqda:

- Interfaol Dialog Va Ijtimoiy Tadqiqotlar: O‘zbekiston va boshqa musulmon mamlakatlarida tashkil etilayotgan seminar, forum va ilmiy konferensiyalar islomiy feministik yondoshuvlarni, yangi ijtimoiy model va strategiyalarni tahlil qilmoqda.
- Ilmiy Nashrlar Va Jurnallar: Ilmiy maqolalar, xalqaro jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar va tahliliy hisobotlar ayol huquqlari, ta’lim va oilaviy tarbiya borasida amaliy natijalarni ko‘rsatmoqda.
- Innovatsion Dasturlar: Raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim platformalari va interfaol rivojlanish dasturlari orqali, yosh avlod ayol huquqlari va oilaviy qadriyatlar masalasida yangi bilimlarni egallab, global jamoatchilik fikriga hissa qo‘shmoqda.

Islomda ayol huquqlari va axloqiy tarbiya qadriyatlari qadimdan zamonaviy davrgacha o’zgarish va evolyutsiya jarayonidan o’tgan murakkab hamda ko‘p qirrali tizimni tashkil etadi. Tarixiy meros, diniy qadriyatlar, madaniy va adabiy natijalar hamda zamonaviy davlat siyosati orqali shakllangan tizim nafaqat ayol va erkakning ruhiy, axloqiy va huquqiy tengligini ta’minlaydi, balki oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Global miqyosda islomiy feminizm yondoshuvi, raqamli davr va interfaol ilmiy tadqiqotlar orqali yangi innovatsion qarashlar shakllanmoqda, bu esa kelajak uchun yanada inkluziv va barqaror ijtimoiy tizimlarni yaratishga zamin yaratayotgan.

Kelgusida zamonaviy texnologiyalar, xalqaro muloqot va interfaol seminarlar orqali diniy matnlarning zamonaviy kontekstga mos tafsiri, ayol huquqlarining innovatsion himoyasi va oilaviy tarbiyaning yanada mustahkamlanishi borasidagi tadqiqotlar kengaytirilishi, ham jamiyatning, ham global axborot tizimlarining ahamiyatini oshirishi kutilmoqda.

SOG‘LOM E’TIQODNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Yakubov Azimjon
Mir Arab oliy madrasasi o’qituvchisi

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, avvalo, uning a’zolarining ma’naviy-axloqiy holati, fuqarolik ongi va ijtimoiy mas’uliyat darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Insonning ichki dunyosi, uning e’tiqodi va qadriyatlar tizimi ijtimoiy tuzumning barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, globallashuv, axborot oqimi, mafkuraviy xurujlar kuchaygan bir paytda sog‘lom e’tiqodga ega bo‘lgan shaxslar jamiyatda barqarorlikni saqlash, yot g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Sog‘lom e’tiqod – bu inson tafakkurida shakllangan, mutaassiblikdan yiroq, aql-idrok va ma’rifat bilan uyg‘unlashgan e’tiqod shaklidir. U ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi, axloqiy mezonlarga asoslanadi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada sog‘lom e’tiqodning nazariy asoslari, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va O‘zbekiston tajribasidagi amaliy ifodasi ilmiy jihatdan yoritiladi.

Sog‘lom e’tiqod shunchaki diniy ibodatlar bilan cheklanmaydi. U insonning o‘zini anglash, jamiyatdagi o‘rnini bilish, o‘z burch va mas’uliyatlarini ado etishdagi ichki kuchidir. E’tiqodda sog‘lomlik tushunchasi zamonaviy tafakkur, tolerantlik, ijtimoiy mas’uliyat va adolat tamoyillari bilan bevosita bog‘liq.

1. SOG‘LOM E’TIQOD VA IJTIMOIY BARQARORLIK

Jamiyatda sog‘lom e’tiqodning mavjudligi fuqarolar orasida o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik, tolerantlik muhitini yaratadi. Bu holat esa o‘z navbatida ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga zamin yaratadi. Aksincha, e’tiqoddagi buzilishlar, mutaassiblik, yolg‘on mafkuralarning tarqalishi ijtimoiy notinchlik, g‘oyaviy qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom e’tiqodga ega bo‘lgan shaxslar:

Huquq-tartibotga itoatkor bo‘ladi;

Mehnatsevarlik va halollikni qadrlaydi;

Jamiyatdagi ijtimoiy harakatlarda faol ishtirok etadi;

Ekstremistik, terroristik g‘oyalarga qarshi immunitetga ega bo‘ladi.

Shu sababli, har qanday davlat jamiyatida sog‘lom e’tiqod muhitini yaratish strategik maqsad bo‘lib qolmoqda.

2. SOG‘LOM E’TIQODNING MA’NAVIY TARAQQIYOTDA O‘RNI

Ma’naviy yuksalish jamiyat taraqqiyotining eng asosiy komponentidir. Sog‘lom e’tiqod esa ushbu yuksalishning poydevorini tashkil etadi. U quyidagi sohalarda muhim rol o‘ynaydi:

Ta’lim va tarbiya: Sog‘lom e’tiqodli yoshlar ma’naviyatli, ongli, vatanparvar bo‘lib ulg‘ayadi.

Oila mustahkamligi: Oila a’zolari o‘rtasidagi hurmat, sabr-toqat, mehr-oqibat e’tiqod asosida mustahkamlanadi.

Etika va axloq: Jamiyat axloqiy me’yorlarini mustahkamlashda sog‘lom e’tiqod asosiy vositadir.

Ma’naviy inqirozlar aksariyat hollarda insonlarning e’tiqodiy inqirozidan boshlanadi. Shu bois sog‘lom e’tiqodni targ‘ib etish bu nafaqat diniy, balki davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan.

3. O‘ZBEKİSTONDAGİ ISLOHOTLAR VA AMALIY NATIJALAR

O‘zbekistonda mustaqillik yillaridan buyon din va e’tiqod erkinligini ta’minlash, sog‘lom e’tiqodni shakllantirish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida quyidagilar e’tiborga loyiq:

Diniy bilimlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtiruvchi ta’lim tizimi yaratildi;

Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat olib bormoqda;

Mutaassiblik va ekstremizmga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha diniy-ma’rifiy targ‘ibot kengaytirildi;

Diniy qadriyatlarni asrash bilan birga dunyoviylik tamoyillari mustahkamlanmoqda.

Bu islohotlar jamiyatda sog‘lom e’tiqod muhitini kuchaytirib, barqarorlik, tinchlik va taraqqiyotga xizmat qilmoqda.

Sog‘lom e’tiqod jamiyat taraqqiyotining ma’naviy, axloqiy va mafkuraviy asosidir. U fuqarolik ongini yuksaltiradi, yoshlarni radikal g‘oyalardan himoya qiladi, ijtimoiy birdamlik va totuvlikni mustahkamlaydi. Bugungi shiddatli zamonda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish davlat siyosati, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining umumiy mas’uliyatidir.

Shuning uchun bu boradagi ilmiy, ma’rifiy va ijtimoiy sa’y-harakatlar davomli bo‘lishi lozim.

QADIMGI ARAB VA FORS TILIDA IJOD ETGAN OLIMU FUZALOLAR

Orifjon Berdiyev,
Buxoro davlat universiteli “Tarix va yuridik” fakulteli
“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Zebiniso Amrulloyevna SHadmanova,
Buxoro davlat pedagogika instituti 1 - kurs magistranti
zebinisoshadmanova@gmail.com

O‘tgan davrimiz ulamolari tomonidan fors tiliga she’riyat tili ,turkiy tilga harb tili ,arab tiliga esa ilm-fan tili deb nisbat berilgan.Darhaqiqat biz bu qarashning nechog’lik to’g’ri ekanligini o’tmishdagi ajdodlarimizning boy merosini o’rganish orqali bilishimiz mumkin.Milodiy VIII - IX asrlardan boshlab musulmon dunyosida arab tili keng yoyilib ,hukmdorlar olimlarning samarali izlanishlari uchun behisob mablag’ ajrata boshlashdi.Mazkur davrda yaratilgan asarlarning aksariyati hatto ba’zi Yevropa davlatlarida o’quv qo’llanma sifatida milodiy XVII asrgacha qo’llanilgan.Masalan Abu Ali ibn Sinoning tabobatga doir ba’zi asarlari hozirgi kunda ham xalq tabobatida muhim o’rin tutgan.

Qadimgi arab va fors tilida ijod etgan olim-u fuzalolar islom ilmlari, adabiyot, falsafa va fan sohalarida beqiyos iz qoldirgan. Quyida biz shunday olimlar va ularning asarlaridan namunalar keltirib o’tamiz.

1. Imom al-Buxoriy (arab tilida) “Al -Jome as-sahih” eng ishonchli hadis to’plamlardan biri.
2. Imom Muslim (arab tilida) “Sahihi Muslim”-hadislar to’plami
3. Abu Nasr al-Farobiy (arab tilida , fors tiliga tarjima qilingan) asarlari: “Fozil shahar qarashlari”, “Kitob al-musiqa al-kabir”
4. Al-Xorazmiy (arab tili) asar nomi: “Al-kitab al-muxtasar fi hisab al-jabr val-muqobala”
5. Abu Ali ibn Sino (arab va fors tillarida) asarlari: “Al-qonun fit -tib” vafors tilida “Donishnomayi Alavi”
6. Firdavsiy (fors tili) asar: “Shohnoma”
7. Alisher Navoiy (asosan forsiy-o’zbek arabcha ta’sir bilan) asarlari: “Xamsa”, “Majolis un-nafois”, “Muhakamat ul-lug’otayn”.

Qadimgi arab va fors tillarida ijod etgan olim va fuzalolar asarlarida ijtimoiy-siyosiy, tibbiy masalalar juda keng qamrovli tarzda muhokama qilingan. Ular o’z davrlarining muhitini o’zlari ta’lif bergan asarlarda tafsiflab berishgan.Ushbu olimlar o’z asarlarida adolat, huquq, tenglik masalalariga katta katta e’tibor berishgan. Masalan Al-Farobiy o’z asarlarida siyosiy tizimni va adolatni muhokama qilgan. Uning fikricha, davlatning asosiy vazifasi adolatni ta’minlashdir. Bu davr fuzalolari, shu jumladan Ibn Xaldun jamiyatni shakllantiruvchi omillarni, masalan, ijtimoiy mustahkamlik, iqtisodiy farovonlik va boshqaruvning samaradorligini muhokama qilgan. Qolaversa o’z davrining siyosiy boshqaruv tizimlari va hukmdorlarining roli haqida fikrlar bildirishgan. Bu borada Ibn Sino va Ar-Roziy kabi olimlar ham siyosiy hokimiyatni to’g’ri boshqarishning ahamiyatini ta’kidlashgan.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”, 1499) — Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asarlaridan biri. Navoiy “Ikki til muhokamasi” (Muhokamat ul-lug‘atayn)asarida o‘zbek tilining boyligini, qudratini, o‘sha zamonning adabiy tillari qatoridan o‘rin olishga qodir va haqli ekanligini ilmiy tomondan isbotladi. Asarda o’zbek (turkiy) va fors tillari unli tovushlar, leksika va morfologiya doirasida o‘zaro qiyoslanadi. Dastlab har ikki tildagi unlilar qiyoslanganda, shoir fors tilida unlilar soni cheklanganligi, o‘zbek tilida esa unlilar bir qancha ma’no farqlovchi variantlarga ega ekanligi va ular o’zaro uzun-qisqaligi bilan ajralib turishini dalillar orqali ko‘rsatib bergan.Alisher Navoiy o‘zbek va fors tillari leksikasini qiyoslash uchun tabiat manzaralari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ov jarayoni, hayvon va qushlarning turlari kabi juda ko‘p sohaga oid yuzlab so‘zlarni keltirib, bu so‘zlarning muqobalasi forschada yo‘qligini, forslar ko‘pincha o‘sha o‘zbekcha so‘zlarning o‘zini ishlatishlarini ta’kidlab, o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini har tomonlama ko‘rsatgan. Mana shunday fikrlaridan ayrimlari: “…xo‘blarning ko‘z va qoshlari orasinki, qabog‘ derlar, forsiyda bu uzvning oti yo‘qtur.”.

Bedil (taxallusi; asl ismi Mirzo Abdulqodir) (1644, Bengaliya, Azimobod shahri – 1721, Dehli) – Boburiylar davlatida ijod qilgan taniqli shoii, mutafakkir. Harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Ota-bobosi Kesh (shahrisabz)lik, turkiy barlos urug‘idan. Yoshligidan turli fanlarga qiziqqan. Shayx Kamol, shoh Fozil va Mirza Abdulqosim kabi olimlardan ta’lim olgan. Hindiston bo‘ylab ko‘p sayohat qilgan, 1685-yildan umrining oxirigacha Dehlida yashagan. Fors tilida ijod qilgan. Arab, fors, hind, urdu tillarini mukammal bilgan, sharq xalqlari adabiyotini, tasavvuf va yunon falsafasini, ayniqsa Aristotel falsafasini atroflicha o‘rgangan. 10 yoshlaridan badiiy ijod bilan shug‘ullangan. 20 yoshida she’rlarini saralab to‘plashga kirishgan.

Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yashab ijod qilgan shoir o‘z davriga befarq qaramagan, hindlar va musulmonlarning tinch-totuv yashashligini, yurtni obod, xalqni tinch-osoyishta, farog‘atda, hamjihatlikda ko‘rishni orzu qilgan. Inson erkinligi, tafakkuri haqida falsafiy fiqolar bayon etgan. Uning falsafiy-axloqiy qarashlari tasavvuf aqidalari ta’sirida shakllangan. Bedil dunyoqarashi tasavvufning vahdat ul-vujud ta’limotiga asoslanadi, ya’ni olamni Allohning ko‘zgusi, inson qalbini shu ko‘zguning markazi deb biladi. Inson qalbi qanchalik sayqal topsa, u shuncha Alloh nurini aks ettiradi. Shu bois inson buyuk va qudratlidir. Ammo buni uning o‘zi anglashi lozim, deydi.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al - Xorazmiy. (783-850 y.y.) Buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir «Kitob al-jabr val muqobala» (To’ldirish va qarama-qarshi qo’yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo’ldi. «Hind arifmetikasi haqida kitob» asari tufayli avval Sharq xalqlari, so’ngra esa Evropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug’i-o’nli pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. (XII asrda lotin tiliga o’girilgan). Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» (erning surati) asari geografiyaga, «Astronomik jadvallari» astronomiyaga oid bo’lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Quyosh soatlari to’g’risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqa risolasi» singari ajoyib asarlari olimga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Evropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G’arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o’ynadi.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Al-Farg’oniy. Al-Farg’oniyning tarjimai holiga doir ma’lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. 861 yilda vafot etgan. Astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni Bag’dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol qatnashdi va u erda Ptolemeyning «Yulduzlar jadvalidagi» ma’lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Al-Farg’oniy astronomiyaga oid «Astronomiya negizlari» asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o’zining yangi natijalari bilan boyitdi. O’sha davr an’anasiga muvofiq mamlakatlarni etti iqlimga bo’lib urgandi. Kuyosh soatlarini. bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Farg’oniyning bu asari N.Kopernik davriga qadar Evropada astronomiya fanidan asosiy qo’llanma sifatida foydalanildi.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950 yy). O’trorda tug’ilgan, boshlangich ma’lumotni Shosh, Buxoro, Samarqandda olgan so’ng Bag’dodda uzoq yashab, zamonasining olimlari bilan ilmiy muloqotda bo’lgan. Ilmning turli sohalariga oid

160 dan ortiq risolalar yozgan. Musiqa nazariyasiga bag’ishlangan «Musiqa haqida katta kitob» nomli mashhur asari bu soha tarixiga bag’ishlangan eng dastlabki tarixiy manbalardan biridir. U serqirra, qomusiy olimdir.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy) Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir, serqirra olim astronomiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, jug’rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning hikoyalar, she’rlar bitganligi xam ma’lum. Beruniy o’rta asrda birinchi bo’lib globus yaratdi. U arab, fors, hind turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning «Farmokanaziya», «Geodeziya», «Hindiston», «Minerologiya», «Ma’sud qonuni», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari o’zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Mahmud G’aznaviy saroyda ham xizmatda bo’lgan. U Ibn Sino bilan ham zamondosh edi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil) U falsafa, mantiq ruxshunoslik, adabiyotshunoslik, she’riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo’lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bag’ishlangan asarlar yaratgani ma’lum.

Umumiy xulosa qilib aytganda,qadimgi arab va fors olimlari o’z asarlarida ijtimoiy-siyosiy va tibbiy masalalarga katta ahamiyat berishgan.Ular o’z zamonalarining ijtimoiy va siyosiy tizimlarini chuqur tahlil qilishgan, adolat, tenglik va samarali boshqaruvni ta’minlashga oid nazariy va amaliy fikrlarni ishlab chiqqan.Shu bilan birga, tibbiyot sohasida keng qamrovli izlanishlar olib borib, sog’liqni saqlash, gigiyena, psixologiya va tibbiy davolash bo’yicha ilg’or tavsiyalarni olg’a surishgan. Ularning asarlari nafaqat o’z davri uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham ilmiy meros bo’lib qoldi.

AXLOQIY VA MILLIY QADRIYATLAR

Muxsinov Abdulmajid
Mir Arab oliy madrasasi
Ilmiy tadqiqotlar bo’limi xodimi

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urf-odatlari, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib,

qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim[240]”

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”[241]. “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha[242]”. “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha[243]”, - degan ta’riflar berilgan.

Odob-axloq milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismidir. “Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi[244]”. Darhaqiqat, yosh avlodni qonuniylik prinsiplari asosida o‘z xalqiga, uning qadriyatlariga, an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash orqali o‘z xalqini millatlarning butunjahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o‘z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash dolzarbdir. Bilamizki, yoshlar ijtimoiy guruh sifatida, o‘zi ko‘zlagan maqsadi yo‘lida mamlakatdagi ijtimoiy tizim rivojiga bevosita faol ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarning ijtimoiy rivojlanishini ularning ma’naviy saviyasi darajasi orqali aniqlasa bo‘ladi. Yoshlarning ma’naviy qarashlari milliy, diniy, o‘z-o‘zini anglash holatlari, talablari, hayotdagi faoliyati orqali o‘z aksini ifoda etadi.

Ma’naviy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma’noda insonning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulqi, odobi, insonlar bilan bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lsa, tor ma’noda odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon

bo‘ladi. Bugungi innovatsion texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin.

Milliy qadriyat – millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Qadriyat atamasi arabcha

[240] Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to’plami). –T; “O’zbekiston”, 1997 B.198;
[241] Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. (A. Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida). – T; Sharq, 1998, B. 279
[242] Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. T; 2010 B. 707
[243] Tarbiya ensiklopediyasi. 2010 “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, B.509.
[244] O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. . T; “O’zbekiston”, 2012 II-bob. 14-modda. B. 5

“qadr” so‘zidan olingan bo‘lib, qimmatli, foydali degan ma’noni anglatadi. Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma’naviy omillar yig‘indisidir. Bizning mentalitetimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlardan andisha, sabr-toqat, vazminlik, mulozamat, sertakalluflik, keksalarga hurmat-ehtirom, ijtimoiy hayotda bosiqlik qon-qonimizga singib ketgan. Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek xalqi milliy, ma’naviy qadriyatlar va axloq-odobga bag‘ishlangan maxsus teran ta’limotlarning merosxo‘ridir.

Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-xaqoyiq” asarlari, Kaykovusning “Qobusnoma”, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” nomli odob-axloq me’yorlarini batafsil yoritib bergan asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini, dolzarbligini yo‘qotmagan.

X. Qodirova o‘zining “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat hayotidagi o‘rni” nomli maqolasida: “O‘zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi. Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat, deb quyidagilarni sanaydi:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhining ustuvorligi;

2. Xalq ongida ustuvor bo‘lgan fikr – do‘st va yaxshi qo‘shni bo‘lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash;

3. Oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish;

4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e’tibor ko‘rsatish, butun jamiyatni hurmat qilish;

5. Millatning o‘lmas ruhi, millat ma’naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uyg‘otish, uni sevish;

6. Kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e’tibor, degan qoidaga amal qilish;

7. Ayol zotiga ehtirom ko‘rsatish, ya’ni, muhabbat, go‘zallik va nafosat timsoli bo‘lgan ayolni qadrlash;

8. Sabr-toqat va mehnatsevarlik;

9. Halollik, mehr-oqibatni nazarda tutadi.

Mualliflar qadriyatlar va ularning turlariga quyidagicha yondoshganlar:

• **Oilaviy qadriyat** – bir oila uchun ma’lum bir ma’naviyat turi (masalan, tug‘ilgan kunni nishonlash);

• **Milliy qadriyat** – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish,

rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;

• **Jamoa qadriyati** – ma’lum bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo‘lgan;

• **Umuminsoniy qadriyat** – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi[245].

Mustaqillik sharofati bilan muhim qadriyatlarimiz hisoblangan “Navro‘z”, “Mehrjon” bayramlari, Ramazon va Qurbon hayitlari xalqqa qaytarildi. Ular bilan bog‘liq rasm-rusum, urf-odatlar, udumlarni davr talabiga, insonlarning ehtiyojiga moslashtirishga harakat qilinmoqda. O‘zbek xalqi – qadimdan to‘y turlariga boy xalq. Jumladan, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, soch to‘yi, tish to‘yi, beshik to‘yi, birinchi qadam to‘yi, fotiha to‘yi, muchal to‘yi, ellik va undan ortiq yoshlarni nishonlash to‘ylari, hayit bayramlari kabi qadriyatlar odamlarda hamjihatlik, ahillik, mehr-oqibat, hayr-saxovat, imon-e’tiqod, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, do‘stlik, tejamkorlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, qadimda to‘y-bazmlarda o‘yin-kulgu, she’rxonlik, milliy kurash, ko‘pkari, askiyabozlik qilingan. An’analar mazmunan har bir millatning, xalqning va elatning mentalitetini oilaviy xursandchilik yoki motam marosimlari, tantanalari tarzida ifoda etadi. Ularning barchasi mazmunan ezgulikka, insonparvarlikka, yaxshilikka yo‘naltirilgan marosimlar bo‘lib, jamiyatning o‘zgarishi va davr talabi bilan shaklan va mazmunan o‘zgarib boradi. Ba’zi an’analar ma’naviy qadriyat darajasiga ko‘tariladi. Jumladan, Navro‘z bayrami Sharq xalqlarining milliy-ma’naviy qadriyatlaridan hisoblanadi.

Diniy qadriyat ildizlari inson ongi va ruhiyati bilan bog‘liq diniy ta’limotlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizni diniy-axloqiy qarashlarida komil inson ma’naviy-axloqiy kamolotning to‘rt bosqichini bosib o‘tmog‘i lozimligi ta’kidlangan. Bular shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqatdan iborat. Buyuklarimiz nazdida oliy haqiqatga yetishmoq uchun shariat va tariqatdan xabardor bo‘lishning o‘zi yetarli emas, ma’naviy komil inson ma’rifatli, ilmli bo‘lmog‘i lozim. Kezi kelganda milliy va diniy qadriyatlarimiz o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketganini, ularni bir-biridan ajratish mushkulligini ta’kidlash joiz. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyat, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo‘lib kelmoqda. Zero, insoniylik, mehr-oqibat, halollik,

[245] Tillaeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. T: “Falsafa va xuquq instituti” 2009. B.16

oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Sir emaski, qadriyat masalasi islomda ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Ibodatlar mohiyatida esa qadriyatlarni muhofaza qilish yotadi. Masalan, Qur’oni karim va hadisi shariflarda ota-onaga yaxshilik qilish ta’kidlangan. Bu qadriyat savobi ulug‘ amallardan hisoblanadi. Shoir ta’kidlaganidek,

“Otang bilan onang qalbi o‘tar Ka’ba tavofidin,

Alar ko‘nglini shod etsang bu xizmat ham ibodatdir”.

Islomdagi besh asosning mohiyatiga e’tibor qaratilsa, ularning barchasi insoniyat uchun qadriyat hisoblangan ezguliklarga chorlashi ma’lum bo‘ladi. Masalan, imonning eng kichik belgisi yo‘ldan kishilarga ozor beradigan narsani olib tashlash, deyiladi. Islom asoslari insoniyatni yomon va buzg‘unchi ishlardan qaytarishi qayd etilgan. Savob uchun ochlik va tashnalikni iroda qilsa-yu yomonliklardan tiyilmasa, bunday mashaqqatdan hech qanday manfaat yo‘qligi, savob uchun ulug‘ ziyoratga borsa-yu ammo tilini buzuq so‘zlar, o‘zini fisqu fujur ishlardan tiymasa, hatto uzoq davom etgan safaridan ham foyda bo‘lmasligi ta’kidlangan. Daromadining qirqdan birini ehtiyojmand kishilarga beraman desa-yu, bu daromad nopok yo‘llardan kelgan bo‘lsa yoxud nopok yo‘llarga sarflansa, savob qilaman, deb gunoh va jinoyatga botib ketishi haqida ogohlantirilgan. Demak, islomda savob va qadriyat tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘langan.

O‘zini imonli, deb hisoblovchi har bir inson atrofdagilarga faqat ezgulik ulashib, kishilarga ozor beradigan ishlardan o‘zini tiyishi lozim. Bu borada Alisher Navoiy insoniyatga ibratdir. So‘z sultonining umrini buyuk ishlarga bag‘ishlashiga sabab bo‘lgan tuyg‘u komil imon edi. Shuning uchun hazrat: “Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko‘nglimg‘a sol, Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo”, deya munojot qildi.

Barchamiz Navoiy kabi fidoiy bo‘lishimiz lozim bo‘ladi.

ERNING AYOLIGA YAXSHI MUOMALA QILISHI

Mirzayev Kamoliddin Abduxalilovich
Ko‘kaldosh o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o’qituvchisi
kamoliddinmirzaev68@gmail.com

Erda Ayolning erida islomda ko‘plab huquqlarida biri yaxshi muomala qilish (husn muomala).

Ayolning eridagi huquqlaridan biri – erining unga yaxshi muomala qilishi, hurmat va mehr bilan muomala qilishi. Alloh taolo shunday degan:

“Ular bilan totuv turmush kechiringlar”246 (Niso: 19oyat).

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallhu alayhi vasallam ham ayollar bilan yaxshi muomala qilishga ko‘p bor tavsiya qilganlar. Shulardan biri:

“Ayollar haqida yaxshi muomala qilishni tavsiya qilaman. Chunki ayol qovurg‘adan yaratilgan. Qovurg‘aning eng qiyshiq joyi uning yuqorisidir. Uni to‘g‘rilayman desang – sindirishing mumkin, agar uni o‘z holicha qoldirsang – u qiyshiqligicha qoladi. Shunday ekan, ayollar bilan yaxshi munosabatda bo‘linglar.”[247] Qovurg‘a – inson ko‘krak qismidagi ikki yondagi suyaklar bo‘lib, hadisdagi maqsad shuki: ayollarda biologik va tabiiy jihatdan ba’zi kamchiliklar mavjud, bu ularning ixtiyori bilan emas, yaratilishlaridandir. Erkaklar bu holatga sabr qilishi, ularni tushunishi va kamchiliklarga bardoshli bo‘lishi kerak.

Bu yerda ta’kidlash joizki, kamchilik faqat ayollarga xos emas – ko‘plab erkaklarda ham bu holat bor. To‘liq kamol faqat Alloh tomonidan payg‘ambar qilib tanlangan zotlardadir. Alloh ularni mukammal qilib yaratgan va go‘zal namunaga aylantirgan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

“Erkaklardan ko‘plari kamolga yetgan, ayollardan esa faqat Maryam binti Imron va Fir’avnning ayoli Osiyo kamolga yetgan. Ayollarning ichida Oisha (roziyallohu anho)ning fazli, go‘yoki taomlar ichida sariyd (go‘shtli sho‘rva bilan non)ning boshqa taomlarga ustunligi kabi”[248].

Bu hadisdagi ma’no – payg‘ambarlik kamolini Alloh erkaklarga bergani, shuning uchun ko‘pchilik ulamolar ayollar orasida payg‘ambar bo‘lmagan, deb hisoblashgan. Ba’zilar Maryam va Osiyo payg‘ambar bo‘lgan, degan bo‘lsalar-da, ko‘pchilik ulamolar (jumhur) fikriga ko‘ra, payg‘ambarlik faqat erkaklarga xos fazilatdir.

[246] Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur’oni Karim ma’no-larining tarjima va tafsiri". Toshkent. "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2012 y.
[247] Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy "Sahihul Muslim". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan.
[248] Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy "Sahihul Muslim". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan.

Shu sababli, erning xotiniga yaxshi muomalasidan biri — uning xatolariga sabr qilishidir, ba’zida ayoldan yetadigan ozor va kamchiliklarga bardoshli bo‘lishi kerak. Alloh taolo aytadi:

“Ular bilan ma’ruf tarzda yashanglar. Agar ulardan ko‘nglingiz sovisa, balki sizga yoqmagan bir narsada Alloh ko‘p yaxshilikni qilgandir” (Niso: 19oyat).

Demak, er faqat ayolining kamchiliklariga qaramasligi, avvalo uning fazilatlarini eslab, keyin xatolarini ko‘rib chiqishi kerak. Rasulullоh solallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

‘Mo‘min kishi mo‘mina ayolni yomon ko‘rmasin. Agar u bir xulqini yoqtirmasa, boshqa bir jihatini yoqtiradi.”[249]

Erning yaxshi muomalasi – nafaqani keng qilib berishi va unga sovg‘alar taqdim etishi hamdir. Bu ishlar ayolning eriga bo‘lgan muhabbatini oshiradi, o‘rtalaridagi mehr-oqibatni mustahkamlaydi. Bu shar’an ham tavsiya etilgan ishdir. Rasulullоh solallohu alayhi vasallam aytganlar:

“Bir-biringizga sovg‘a beringlar, albatta, sovg‘a ko‘ngildagi g‘ubor va g‘azabni yo‘qotadi.”[250]

“Ko‘ngildagi g‘azab” – bu qalbdagi hasad, adovat va xusumatdir. Odamlar orasida sovg‘aning ta’siri shunday bo‘lsa, er-xotin o‘rtasida u yanada kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, yaxshi muomalaning bir qismi – ayolga mehribonlik qilish, u bilan hazillashish, o‘yin-kulgi qilish, birga vaqt o‘tkazishdir. Rasulullоh solallohu alayhi vasallam o‘z xotinlariga, ya’ni mo‘minlar onalariga mehribon bo‘lganlar.

Hazrati Oisha (roziyallohu anho) bir nechta hadisda Rasulullоh solallohu alayhi vasallamning ayollariga bo‘lgan mehribon muomalalarini bayon qilganlar. Ulardan biri shunday:

Hazrati Oisha aytadi: “Men Rasulullohning orqalarida turgancha, boshi u zotning muborak yelkalariga suyanib, masjidda habashiyliklar nayza bilan o‘ynayotganlarini tomosha qilardim.”

Yana bir voqeada Oisha roziyallohu anho aytadilar: “Bir kuni men Rasulullоh solallohu alayhi vasallamga o‘zim tayyorlagan taom – harira (go‘shtli sho‘rva)ni olib bordim. Savda roziyallohu anhoga “Ye”, dedim. U rad etdi. Men: “Yo yaysan, yo yuzingga surtaman”, dedim. U rozi bo‘lmadi, shunda men qo‘limni hariraga tiqib, Savdaning yuziga surtib yubordim. Rasulullоh solallohu alayhi vasallam kuldilar va Savdaning qo‘lini olib, “Sen ham uning yuziga sur”, dedilar. U ham shunday qildi.”

[249]Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy "Sahihul Muslim". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan.
[250] Muhammad ibn Iyso at-Termiziy "Sunani Termiziy". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan. 1987 y.

Hadis kitoblarida Rasulullоh solallohu alayhi vasallamning ayollari bilan qilgan samimiy suhbatlari haqida ko‘plab go‘zal rivoyatlar saqlanib qolgan. Masalan, "Sahihayn" (Imom Buxoriy va Imom Muslim) asarlarida Hazrati Oisha roziyallohu anho Rasulullоh solallohu alayhi vasallamga “Ummu Zar’”ning uzoq hikoyasini aytib berganlar, undan keyin Rasulullоh solallohu alayhi vasallam hazrat Oishaga shunday deganlar:

“Men sen uchun Ummu Zar’ uchun bo‘lgan Abu Zar’dekman, faqat men seni taloq qilmayman, u bo‘lsa uni taloq qilgan edi.”

Yaxshi muomalalardan yana biri – agar ayol xatoga yo‘l qo‘ysa, er unga nisbatan zo‘ravonlik qilmasligi, uni qattiq tanqid qilmasligi kerak. Buning o‘rniga yumshoqlik va muloyimlik bilan nasihat qilishi lozim. Hazrati Oisha roziyallohu anho aytadilar:

“Rasulullоh solallohu alayhi vasallam hech qachon hech narsani qo‘li bilan urmaganlar – na ayolni, na xizmatkorni – faqat Alloh yo‘lida jihod qilganlaridagina (qurol ko‘targanlar).”[251]

U zot aytganlar:

“Sizlarning eng yaxshilaringiz – oilasiga (xotiniga) nisbatan eng yaxshisidir. Men esa sizlarning oilamga eng yaxshi munosabatda bo‘lganingizman”[252]

Yana aytganlar:

“Mo‘minlarning eng komil iymonlirog‘i – axloqi eng chiroylisi va oilasiga eng muloyimi bo‘lganidir.”[253]

Yaxshi muomalaga yana shular kiradi:

Er kishi uyga kirganida ayoliga salom berishi kerak, chunki salom muhabbat va mehrni kuchaytiruvchi omildir. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam Anas ibn Molikka shunday deganlar:

“Ey o‘g‘ilcham! Uyga kirganingda ahli oilangga salom ber, shunda u (salom) senga va uyingdagilarga baraka bo‘ladi.”

Er, agar imkoniyati bo‘lsa, uy ishlarida xotiniga yordam bersa – bu ham yaxshi muomala hisoblanadi. Bu borada Rasulullоh ﷺ eng yaxshi namuna bo‘lganlar. Asvad ibn Yazid hazrati Oishadan so‘radilar:

“Rasulullоh uyda nima bilan mashg‘ul bo‘lardilar?”

U kishi javob berdilar:

[251] Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy "Sahihul Muslim". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan.
[252] Muhammad ibn Iyso at-Termiziy "Sunani Termiziy". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan. 1987 y.
[253] Muhammad ibn Iyso at-Termiziy "Sunani Termiziy". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan. 1987 y.

“Uy ishlarida ahli ayoliga yordam berardilar. Azonni eshitganlarida esa namozga chiqqanlar.”[254]

Yaxshi muomala – ayoliga ota-onasi va qarindoshlarini ziyorat qilishga ruxsat berishdir. Ayniqsa, qarindoshlar bilan aloqani uzmaslik Islomda buyurilgan. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytganlar:

“Kim rizqining kengayishini va umrining barakali bo‘lishini xohlasa, qarindoshlik aloqalarini qo‘ymasdan bog‘lasin.”[255]

Yaxshi muomalalardan yana biri – erning ayoliga nisbatan haddan tashqari hasad qilib, uni noxush shubhalarga solmaslikdir. Agar er doimiy ravishda xotinining harakatlariga shubha bilan qarasa, bu uning sevgisini va hurmatini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Alloh taolo musulmonlarga, agar shubhalarga asos yo‘q bo‘lsa, birodarlariga yomon nazar bilan qarashni taqiqlagan. Alloh taolo aytadi:

“Ey imon keltirganlar! Ko‘p shubhalardan saqlaninglar, chunki ba’zi shubhalar gunohdir.[256]” (Hujurat: 12oyat)

Ibn Kasir ushbu oyatni tafsirlar ekan, shunday degan: “Alloh taolo o‘z bandalariga ishsiz, o‘rinsiz shubhalardan saqlanishni buyurmoqda. Chunki bu kabi shubhalar ba’zan ochiq gunohga aylanadi.”[257]

Agar musulmonlar o‘rtasida shubha qilish taqiqlansa, er-xotin o‘rtasida shubhalarga asos bo‘lmasligi albatta zarur. Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam sahobalariga, agar ular safardan qaytgan bo‘lsa, tungi vaqtda uylariga kirmaslikni va ayollarining xatolarini tekshirmaslikni buyurganlar. Hadisda: “Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam sahobalariga ayollarini tungi vaqtda nazorat qilishdan, ularni so‘roq qilishdan qaytarardilar,” deyilgan. Yana bir rivoyatda shunday deb aytganlar: “Sizlardan biri tungi vaqtda uyiga kelib, ayoliga noto‘g‘ri nazar solib, uning xatolarini izlashdan saqlansin. Chunki Shayton sizlardan birining qonidan yuradi. Biz aytdik sizdachi? U zot: lekin men unga qarshi turishda Allohning o‘zi yordam beradi.”[258]

Shu bilan birga, bu er xotiniga nisbatan hasadsiz bo‘lishi kerak degani emas. Erning xotiniga nisbatan hasadi albatta ma’qul va shar’iydir. Ayol – erining shar’iy nuqtai nazardan obro‘si va iffatidir, shuning uchun er o‘zining iffatini himoya qilishi, uning sharafini saqlashi lozim. Agar er buni amalga oshirmasa, u “dayus”

[254] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Sahihul Buxoriy". Bayrut. Dorul kutubil ilmiyya. 1992 y.
[255] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Sahihul Buxoriy". Bayrut. Dorul kutubil ilmiyya. 1992 y.
[256] Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur’oni Karim ma’no-larining tarjima va tafsiri". Toshkent. "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2012 y.
[257] Tafsiri Ibn Kasir.
[258] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Sahihul Buxoriy". Bayrut. Dorul kutubil ilmiyya. 1992 y.

bo‘ladi, ya’ni ayolining iffatiga qarab turmaydigan va uni pastkashliklarga qo‘yib yuboradigan kishi. Dayus – ayolining xiyonatini ko‘rib, unga aralashmaslikni o‘zida odat qilib olgan kishi. Bu xususiyatni cho‘chqalar bilan taqqoslash mumkin, chunki ular eng past va iflos hayvonlardir. Allohdan asrasin!

Afsuski, dayuslik (ayolining iffatini e’tiborsiz qoldirish) ko‘plab musulmonlar orasiga kirib borgan, ayniqsa g‘arblashgan musulmonlar orasida. Ulardan biri, o‘zining xotinini, opasini yoki qizini erkaklar bilan suhbatlashayotgani, ularga kulayotganini, o‘ynayotganini ko‘rib, buni qabul qilib, hech qanday norozilik bildirmaydi. Aksincha, ular buni erkinlik va taraqqiyot deb tushunishadi, lekin iffat va sharafga bo‘lgan hasad ularning fikrida orqada qolgan, eskirgan tushuncha hisoblanadi. Biroq, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytganlar:

“Albatta, Alloh taolo hasad qiladi. Mo‘min ham hasad qiladi. Allohning hasadi esa shundan iboratki, mo‘min Allohning harom qilgan narsasini qilmasligi kerak.[259]”

Hazrati Sa’d ibn Uboda roziyallohu anho Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamga shunday dedilar:

“Ey Rasulullоh! Agar men xotinimni bir erkak bilan ko‘rsam, nima qilishim kerak? Uni to‘rt nafar guvoh bilan ushlab, sizga olib kelishim kerakmi?”

Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam javoban aytganlar: “Ha, lekin agar sen unga shoshilayotgan bo‘lsang, avvaliga qilmishiga javob berishing kerak.”

Sa’d ibn Uboda roziyallohu anho: “Yo‘q, Allohga qasamki, men uni qilich bilan javob berardim,” dedilar. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam shunda aytdilar:

“Eshitinglar, sizning sayyidingiz nima deyayotganini. U juda hasadchidir. Men esa undan ham ko‘proq hasadchiman, Alloh esa mendan ham ko‘proq hasadchidir.[260]”

Yaxshi muomala qilishning yana bir jihati shundaki, er o‘z xotiniga e’tibor qaratishi, uni yotog‘ida tark etmasligi yoki diniy yoki dunyoviy ishlari bilan band bo‘lib, uning bilan aloqada bo‘lmaslikdan saqlanishidir. Er o‘zining xotinini iffatli saqlashi va uning ehtiyojlarini qondirishi lozim. Nabiy sollallohu alayhi vasallam bu masalani ayolning erga bo‘lgan haqqi deb e’lon qilganlar.

Abdulloh ibn Amr ibn Os roziyallohu anho shunday deganlar: “Otam menga bir ayolni nikohladilar, u oliy nasabli edi va meni qaynotam – bolalarining ayolini tez-tez tekshirib, erim haqida so‘raydilar. U esa, ‘U juda yaxshi odam, lekin biz unga kelganimizdan buyon u bizga birorta kechki ovqat bermadi va bizni o‘ziga yaqinlashtirmadi, der edi.”

[259]Muhammad ibn Iyso at-Termiziy "Sunani Termiziy". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan. 1987 y.
[260] Sulaymon ibn al-Ashhas as-Sijistoniy al-Azdiy "Sunani Abu Dovud". Dorul Boz. Marva, Makka.

Bu holatni ko‘rganidan keyin, Abdulloh ibn Amr ibn Os roziyallohu anho, buni Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamga aytishdi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam shunday deb aytganlar:

“Men seni kunlari ro‘za tutib, kechalari ibodat qilishni maslahat berayotganimni bilaman, lekin bunday qilma. Ro‘za tut va iftor qil, uxla va tur. Chunki, tanangning senga haqqi bor, ko‘zlaringning senga haqqi bor, xotiningning senga haqqi bor, mehmoningning senga haqqi bor.[261]”

Bundan tashqari, Salmon roziyallohu anho, Abu Dardoning xonimiga tashrif buyurganlarida, u xotinini bekor qilib, bezaklarini tashlab qo‘yganini ko‘rganlar. U bundan hayron bo‘lib, shunday dedilar: “Sizga nima bo‘ldi?” Xotini esa: “Men shunchaki o‘zimni bezashni unuttim,” deb javob berdi. Sening birodaring Abu Dardoda dunyoviy ehtiyojlar yo‘q", dedi. Shunda Salmon Abu Dardoga shunday dedi:

“Sening robbingning senga haqqi bor, o‘zining senga haqqi bor, oilangning senga haqqi bor, shuning uchun har bir narsaga o‘z haqqini ber.”

Bu gapni Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamga aytganlarida, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamshunday dedilar:

“Salmon haqli”.[262]

Er ayoliga ma'lum bir vaqt ichida birga bo‘lishi shartmi?

Bu masalada faqihlar turlicha fikr bildirganlar. Imom Malik va Imom Ahmad shunday deyishgan: agar erda uzr bo‘lmasa, har to‘rt oyda bir marta xotiniga yaqinlashishi kerak. Ular bu fikrni “mu’liy” (ya'ni erning xotiniga yaqinlik qilmasligini qasamyod qilishi) haqida Allohning “to‘rt oy” muddati belgilab qo‘yganini, shuning uchun bu holat boshqa erlar uchun ham to‘g‘ri bo‘ladi, deb asoslaganlar.

Alloh taolo shunday buyurgan:

“O‘z ayollariga yaqinlashmaslikka qasam ichganlarga to‘rt oy muddat beriladi. Agar (qasamdan) qaytsalar, Alloh kechiruvchidir, rahmlidir. Agar ular ajrashishga qaror qilishsa, Alloh eshituvchidir, biluvchidir.” (Baqara: 226-227oyatlar).

Bu oyatning ma'nosi shuki, agar er o‘z xotiniga jinsiy aloqada bo‘lmaslikka qasam ichgan bo‘lsa, unda xotini to‘rt oy kutadi. Agar shu muddat ichida er unga yaqinlasha boshlasa, bu erning qasami buzilgan bo‘ladi va unga kafforat (mag‘firat) talab qilinadi. Agar er xotiniga aloqada bo‘lmasa va to‘rt oy muddat o‘tgan bo‘lsa, bu holatda Abu Hanifa rahmatullohi alayhining fikriga ko‘ra, ajralish ro‘y beradi.

[261] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Sahihul Buxoriy". Bayrut. Dorul kutubil ilmiyya. 1992 y.
[262] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Sahihul Buxoriy". Bayrut. Dorul kutubil ilmiyya. 1992 y.

Shofiiylar esa, bu holatni qoziga ko‘rsatib, er xotiniga qayta aloqada bo‘lishni buyurishini yoki aks holda ajralish haqida qaror chiqarishini aytganlar.

Boshqa faqihlar esa, erning xotiniga yaqinlik bo‘lishi uchun muayyan bir vaqt belgilanishini zarur deb bilmaganlar. Ular, iylo oyatidagi vaqt chegarasi faqat xotiniga zarar yetkazishni maqsad qilgan erlar uchun mo‘ljallanganini aytishgan. Ularning fikriga ko‘ra, agar er xotiniga aloqada bo‘lmaslikni zararni keltirib chiqarish niyatida qilmasa, uni majburlash noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki bunday ishlar faqat insonning hissiy holatiga va sog‘lig‘iga bog‘liq.

To'g'ri tarbiyalash va o'qitish

Xotinning erga bo‘lgan huquqlaridan yana biri shuki, er xotiniga diniy bilimlaridan o‘rgatishi kerak, yoki ularni o‘rgatish uchun maxsus ayollar uchun ilm darslariga borishiga ruxsat berishi zarur. Har bir musulmon jamiyatida ayollar uchun alohida maktablar yoki masjidlarda ilmiy majlislar tashkil etilishi juda muhimdir. Bu majlislar ayollar uchun ularning diniy bilimlarini o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. Bu amaliyotni Payg‘ambarimiz sollallohu lalayhi vasallam ham tavsiya qilganlar. Bir ayol Payg‘ambarga sollallohu lalayhi vasallam shunday murojaat qilgan edi: “Ey Allohning Rasuli, erkaklar sizning barcha hadislari bilan shug‘ullanadilar, biz esa qolamiz, shuning uchun bizga bir kun ajratib, bizga Alloh taoladan o‘rganganlaringizni o‘rgatsangiz". Shunda Payg‘ambar sollallohu lalayhi vasallam ularga bir kun ajratib, ular bilan uchrashib, o‘rganganlarini ularga o‘rgatganlar[263].

Xotin eriga bo‘lgan yana bir huquqi, er xotinini Islom odoblariga muvofiq tarbiyalash, unga nasihat berish, uni namozga chaqirishdir. Alloh taolo shunday dedi:

“Ey imon keltirganlar! O‘zingizni va oilangizni olovdan saqlang, uning yoqilg‘isi insonlar va toshlar bo'lib, unga qat’iyatli, kuchli farishtalar boshchilik qiladi. Ular Allohning buyruqlariga itoat qiladilar va faqat O‘zlariga buyurilgan ishlarni bajaradilar.[264]” (At-Tahrim: 6oyat)

Shuningdek, Alloh taolo shunday buyurdi: “O‘z oilangizni namozga chaqiring va unga sabr qilishni buyuring. Biz sizlarni rizq bermaymiz. Biz sizlarga rizq beramiz, va oxiratda faqat taqvodorlar uchun eng yaxshi natijalar bor.[265]” (Toha: 132oyat).

[263] Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy "Sahihul Muslim". Dorul kutubil ilmiyya. Bayrut, Livan.
[264] Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur’oni Karim ma’no-larining tarjima va tafsiri". Toshkent. "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2012 y.
[265] Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur’oni Karim ma’no-larining tarjima va tafsiri". Toshkent. "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2012 y.

Erning xotiniga bo‘lgan huquqlaridan yana biri, uni hayz va yaqinlik holatlaridan so‘ng tozalanishga majbur qilish, uni poklanishga va harom ishlardan saqlanishga buyurishdir. Alloh taolo buni so‘ragan. Payg‘ambarimiz sollallhu alayhi vasallam shunday dedilar:

“Hammangiz qo‘riqchisiz va hammangiz o‘z qo‘riqchilaringiz haqida mas’ulsiz. Erkak o‘z oilasining qo‘riqchisi va u o‘z oilasining qo‘riqchisi haqida mas’uldir.[266]” (Buxoriy rohimahulloh rivoyat qilgan).

RADIKALIZM – SOG`LOM JAMIYAT DUSHMANI

Ahmadov Xurshid San`atovich
Mir Arab oliy madrasasi uslubchisi

Radikalizm nima? Radikal so`zi lotin tilidan olingan bo`lib “radix” – “ildiz” degan ma`noni bildiradi, ya`ni, tub, qatiy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdoriga nisbatan bu atama ishlatiladi. Radikalizm – muayyan shaxsni, ijtimoiy guruhni mavjud istimoiy, siyosiy holatini tubdan murosasizlik va qattiqqo`llik bilan o`zgartirib yuborishdir. Bunda radikallashgan shaxs yoki guruh hamsuhbatining, o`zidan boshqa tomonda bo`lganlarning fikriga, qarashlariga umuman e`tiborsiz bo`lib, o`zining qarashlarini, g`oyalarini to`laqonli haq deb biladi.

Hozirgi davrda radikalizm ko`pincha diniy sohada kuzatilmoqda va bu deyarli barcha davlatlarni o`ylantirayotgan illatdir. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda diniy ilmlarni o‘rganish, ularni to‘g‘ri talqin qilish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida islom dini va unga bog’liq ilmlarni o’rganishga bo’lgan sa’y-harakatlar tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida asl manbalarni o‘rganish va ularni tahlil qilishga katta e`tibor qaratilmoqda. Shu kabi tadqiqotlar dinning ma’no-mazmuni, muqaddas kitobini va tafsirini, nozil bo‘lish sabablarini aniq bilmay, unga noto‘g‘ri yondashish natijasida islomga e’tiqod qiluvchilar orasida ixtilof, qarama-qarshilik kabi salbiy holatlar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan[267].

Hozirgi vaqtda ekstremizm va terrorizm xalqaro xavfsizlikka, shu jumladan Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ekstremizm va terrorizm xavfi hamda tahdidlariga qarshi kurashish O‘zbekiston Respublikasi uchun birinchi navbatdagi vazifalardan biri bo‘lib, mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etadi.

[266] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Sahihul Buxoriy". Bayrut. Dorul kutubil ilmiyya. 1992 y.
[267] Sultonova D. Radikalizmga qarshi kurashishda immunitetni shakllantirish. Международный научный журнал. «Научный Фокус» Марта, 2024 № 11 (100), часть1. 535 bet

O‘zbekiston Respublikasi har tomonlama o‘ylangan tinchliksevar, pragmatik va izchil tashqi siyosatni olib borib, ekstremizm va terrorizmning umumiy tahdidlariga qarshi kurashishda barcha davlatlar bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik uchun ochiqdir. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, shuningdek, mintaqa davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha holatning retrospektiv va qiyosiy tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, Markaziy Osiyoda ekstremistik va terrorchilik faoliyati, asosan, millatchilik (milliy), ijtimoiy, diniy va siyosiy g‘oyalar ostida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiyasida (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) ekstremizm va terrorizmning mintaqada tarqalishi uchun asosiy sabab va shart-sharoitlar ham, ekstremist va terrorchilar o‘z buzg‘unchi faoliyatida foydalanadigan turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy va boshqa omillar ham inobatga olingan.

Strategiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, xalqaro huquq va O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining umume’tirof etilgan tamoyil va normalariga asoslangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunlarining qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan[268].

2024 – yil 28 – noyabrda Prezident Sh. Mirziyoyevning radikallashuvga qarshi kurash va diniy ma’rifatni rivojlantirishga oid yig‘ilishi bo`lib o`tdi. Unda internetdagi radikal g‘oyalar O‘zbekiston aholisining zaif qatlamlari, jumladan, yoshlarni noqonuniy guruhlar ta’siriga tortayotgani ta’kidlandi. Mutasaddilarga mahallalarda ma’naviy muhitni mustahkamlash, yoshlarni bilim va mehnatga keng jalb etish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Yig‘ilishda ta’kidlanishicha, so‘nggi besh yilda mamlakatda 100 dan ortiq yangi masjidlar qurilib, 555 tasi ta’mirlangan.

Oxirgi yetti yilda Haj kvotasi ikki baravar oshirildi, 60 mingdan ortiq fuqaro haj ziyoratiga bordi. Umra safarlarini tashkil qilish qonuniy tartibga solindi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro markazlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy-tadqiqotlarga minbar bo‘lmoqda. Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Imom Termiziy o‘rta maxsus

[268] 2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5491626/

ta’lim muassasasida malakali mutaxassislar tayyorlanyapti. Shuningdek, 30 ming fuqaro “Qur'oni karim va tajvid” kurslarini tamomlagan.

Abu Iso Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Sulton Uvays Qaraniy va Suzuk ota yodgorlik majmualari qayta tiklandi. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazida ishlar davom etmoqda. “Vaqf” xayriya jamoat fondi tomonidan ham 90 ta ziyoratgoh ta’mirlanib, obodonlashtirildi.

“Bugun kibermakonda xavf-xatarlar kuchayib bormoqda. Chegaralar va qonunlarni tan olmaydigan internet tarmoqlari orqali radikal g‘oyalar ham kirib kelmoqda. Buning oqibatida aholining nisbatan zaif qatlamlari, jumladan, yoshlar turli noqonuniy guruhlar ta’siriga tushib qolayotgani afsuslanarli. Butun jamoatchilik bundan ogoh bo‘lishi, ulamolar va nuroniylar to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishi kerak”, — deyiladi xabarda. Mahallalarda Qo‘qon va Marg‘ilon tajribasi asosida “Oqsoqollar va ota-onalar kengashlari” tuzilgani, shuningdek, O‘zbekiston hojilarining “Yangi O‘zbekistonning fidoyisi bo‘lib, ma’naviyat targ‘ibotchisiga aylanamiz” tashabbusi ham ijtimoiy vaziyatni yaxshilashda ijobiy qadam bo‘ldi, ta’kidladi prezident.

Yig‘ilishda bunday tashabbuslarni davom ettirish, mahallalarda ma’naviy muhitni mustahkamlash, yoshlarni bilim va mehnatga keng jalb etish zarurligi ta’kidlandi. Mutasaddilarga ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, bandligini ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Yig‘ilishda mamlakatda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni saqlashga alohida e’tibor qaratilishi ta’kidlandi[269].

Hozirda butun dunyo xalqlarini qayg`uga solayotgan teroristik hodisalar yuz bermoqda. Terrorchi kim deganda – odatda, ongi zaharlangan, mutaassiblikka berilgan, o‘zi qiladigan jinoiy harakatiga o‘zi javob bera olmaydigan, qilayotgan harakatini anglamaydigan, kimningdir yovuz niyatini bajaradigan ijrochi kimsa deb qabul qilish kerak. Jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan, ularga zid bo‘lgan xatti-harakatlar ekstremistik deb ataladi. Bu xatti-harakatlarda muayyan g‘oyaga mukkasidan ketish holati namoyon bo‘ladi. Bir aqidaga mukkasidan ketish va uning uchun o‘zini qurbon qilish holati aqidaparastlik deb ataladi. Aqidaparastlik, o‘z tabiatiga ko‘ra, uch ko‘rinishda sodir bo‘ladi: diniy, siyosiy va milliy.

Qur`oni karimda o`z joniga qasd qilish og`ir gunohlardan biri ekanligi ta`kidlangan. “o‘zlaringizni o‘ldirmangiz! Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir”[270], “o‘z qo‘llaringiz bilan o‘zlaringizni halokatga tashlamangiz!

[269] https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/28/radicalization/
[270] Qur’oni karim. Niso surasi, 29 – oyat

(Barcha ishlarni) chiroyli qilingiz. Albatta, Alloh chiroyli (ish) qiluvchilarni yaxshi ko‘radi”[271].

Muqaddas kitobimizda ham radikalizmni tanqid qilish holatlari kuzatiladi. Buni yuqoridagi misol orqali bilib oldik. Bundan tashqari hadisga oid kitoblarda: Termiziy, Buxoriy, Abu Hurayra kabi olimlarning kitoblarida radikalizm tanqid ostiga olinib ko`plab misollar keltirilgan.

Xulosa qilib shuni aytsak, radikalizm sog`lom jamiyat uchun dushman bo`lgan jarayondir. Ayniqsa, radikalizm voyaga yetmagan yoshlar ongini zaharlanishiga, ularni hur fikrlik bo`lib shakllanishiga katta to`siq bo`lib xizmat qiladi. Shu sababli, yoshlarni, jamiyatni fikrga qarshi fikr, g`oyaga qarshi g`oya, jaholatga qarshi ma`rifat bilan kurashmoqga o`rgatish lozim. Bu borada O`zbekistondagi diniy ta`lim muasasalar qoshida tashkil etilgan va faoliyat olib borayotgan “Qur`oni karim va tajvid” o`quv kurslarida qisqa muddatli “Radikallashuvni oldini olish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish” dasturi asosida ma`ruza soatlari joriy etildi. Bu shubhasiz, yurtimizdagi fuqarolarimizning diniy sohadagi islohotlarni yanada yaxshiroq tushunishi, radikalizm o`qibatlari haqida ularda tushuncha paydo bo`lishiga xizmat qiladi.

DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK – YURT BARQARORLIGINING KAFOLATI

Omon Qodirov
“Xoja Buxoriy” o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Xalqimizga xos bag‘rikenglik, etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshlilik ham o‘zining qadimiy ildizlariga ega. Buni boshqa dinlar vakillari ham e’tirof etishadi. Ularning bir-birlari bilan totuvlikda hayot kechirishlari va bag‘rikenglik rishtalari shunchalik qalblariga mustahkam joylashganki, millatchilik, o‘zaro kamsitish va ajratishga aslo yo‘l qo‘yilmagan. Chunki boshqa-boshqa din vakillarining o‘zaro birdamligi, urf-odatlari, bir daryodan suv ichib, bir idishdan ovqatlanishlari ular o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Alloh taolo Qur’oni karimda shunday marhamat qilganki:

يَا أَيُّهَا النَّاسُ إِنَّا خَلَقْنَاكُمْ مِنْ ذَكَرٍ وَأُنْثَى وَجَعَلْنَاكُمْ شُعُوبًا وَقَبَائِلَ لِتَعَارَفُوا إِنَّ أَكْرَمَكُمْ عِنْدَ اللَّهِ أَتْقَاكُمْ إِنَّ اللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٌ

[271] Qur’oni karim. Baqara surasi, 195 – oyat

“Ey insonlar, darhaqiqat Biz sizlarni bir erkak (Odam) **va ayol** (Havvo) **dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishlaringiz uchun sizlarni** (turli-tuman) **xalqlar va qabila** (elat)**lar qilib quydik. Albatta, Alloh nazdida** (eng azizu) **mukarramrog‘ingiz taqvodorrog‘ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir”**.[272]

Ushbu oyatda Islom dinining insoniyat olamiga nisbatan bo‘lgan ko‘z qarashi bayon etilgandir.

Birinchidan, barcha insonlar bir ota onaning farzandlaridir.

Ikkinchidan, insonlarning turli el-urug‘larga bo‘linishlari bir-birlari bilan yer yoki mol dunyo talashib urush janjal bilan umr o‘tkazishlari uchun emas, balki bir-birlari bilan tanishib, hamkorlik qilishlari va birgalikda o‘zlari yashayotgan zaminni obod qilishlari uchundir.

Uchinchidan, insonlar qilayotgan amallari va qalblariga qarab baholanadi, biror millatnning ikkinchi millatdan ustunligi yo‘q, faqat yuqoridagi fazilatlarga erishgan millatning darajasi ko‘tarilib boraveradi.

Alloh taolo Qur’oni karimda shunday marhamat qiladi:

وَاعْبُدُوا اللَّهَ وَلَا تُشْرِكُوا بِهِ شَيْئًا وَبِالْوَالِدَيْنِ إِحْسَانًا وَبِذِي الْقُرْبَى وَالْيَتَامَى وَالْمَسَاكِينِ وَالْجَارِ ذِي الْقُرْبَى وَالْجَارِ الْجُنُبِ وَالصَّاحِبِ بِالْجَنْبِ وَابْنِ السَّبِيلِ وَمَا مَلَكَتْ أَيْمَانُكُمْ إِنَّ اللَّهَ لَا يُحِبُّ مَنْ كَانَ مُخْتَالًا فَخُورًا

“Allohga bandalik qilinglar va Unga hech narsani sherik qilmanglar! Ota-onalarga esa yaxshilik qilinglar. Shuningdek, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar, qarindosh qo‘shniyu begona qo‘shni, yonigizdagi hamrohingiz, yo‘lovchi (musofir)**ga va qo‘l ostingizdagi** (qaram)**larga ham** (yaxshilik qiling)**! Albatta, Alloh kibrli va maqtanchoq kishilarni sevmaydi”**.[273]

Dinimizda yaxshilik qilish, mehr-oqibatda bo‘lish avvalom bor o‘z oilasidan so‘ng, qo‘shnisidan boshlanadi. Eng e’tiborli tomoni shundaki, dinimizda uning qaysi din vakili bo‘lishidan, millat va elatidan qat’iy nazar, unga qo‘shnilik haqi ado etilib borilaveradi.

Yuridik fanlari doktori Leonid Levitin bunday yozadi:

“O‘zbeklarga mushfiqlik va o‘zaro yordam hissi g‘oyat xosdir, ular hech qachon qo‘shnilarini kulfatda yolg‘iz qo‘ymaydi. Yordam so‘rab kelgan biron zotni kulfatda yolg‘iz qoldirmaydi”.[274]

---

[272] Qur’oni karim. Tarjim va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur -T.: Toshkent Islom universiteti 2001. “Hujurot” surasi 13-oyat.

[273] Qur’oni karim. Tarjim va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur -T.: Toshkent Islom universiteti 2001. “Niso” surasi 36-oyat.

[274] Gafarli M.S., Kasaev A.Ch. Rivojlanishning O’zbek modeli: Tinchlik va barqarorlik taraqqiyoti asosi. -T.: O’zbekiston, 2001. -B. 207.

Haqiqatdan ham o‘zbek xalqi qo‘shnilarga, mahalladoshlariga, umuman yurtdoshlarining barchalariga ko‘rsatayotgan ehtiromlarini kerak bo‘lsa dunyoga ibrat qilsa arziydi.

Rasulullоh (s.a.v) shunday marhamat qiladilarki:

“Ey Abu Zarr, agar sho‘rva pishirsang, uning suvini ko‘paytirib, qo‘shnilaringdan ham xabar olgin” dedilar.[275]

Rasulullоh (s.a.v) yana shunday marhamat qiladilarki:

“Kimki Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, qo‘shnisiga ozor bermasin”.[276]

Yana bir hadisi sharifda Rasulullоh (s.a.v) marhamat qiladilarki:

“Allohga qasamki, mo‘min emas! Allohga qasamki, mo‘min emas! Allohga qasamki, mo‘min emas!” deganlarida sahobalar tomonidan “kim u, ey Allohning rasuli?” deyildi. Shunda Rasulullоh (s.a.v) : “Yomonliklaridan qo‘shnisi omonda bo‘lmagan kishi" dedilar.[277]

Hech qaysi bir din, Islomchalik qo‘shnichilikka va uning haqlariga katta e’tibor qaratmagan, bir o‘ylab ko‘raylik, jamiyatning taraqqiy topishiga va uning yuksalishiga shu yerda yashayotgan barcha kishilarning o‘rinlari ulkan, agar har bir kishi o‘z qo‘shnilari bilan tinch-totuv yashasa va uning haqlarini ado etsa, bu hol millatlar o‘rtasidagi totuvlikni keltirib chiqaradi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v) marhamat qiladilarki:

“Qo‘shnisi och bo‘la turib, o‘zi to‘q holda tong ottirgan kishi musulmon emas”.[278]

Insonga muhabbat, oliyjanoblik o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan, bu xalq hech qachon boshqa millat va elatlarga bepisandlik bilan qaramagan, boshqa din vakillariga doimo hurmat va ehtiromda bo‘lishgan.

Yaratganga shukrlar bo‘lsinki, bu muqaddas zaminda yashayotgan millat va elatlarning o‘rtalarida bir-birlarini va urf-odatlarini hurmat qilish va diniy ibodatlariga nisbatan betaraf pozitsiyada turish deyarli barcha xalqimizning qalbiga singib ketgan.

Yuzdan ortiq millat va elat vakillari bahamjihat yashab,mehnat qilayotgan bu makonni kezsangiz, odamlarning turli tillarda, rang – barang shevalarda so‘zlashayotganiga guvoh bo‘lasiz.

[275] Riyozu-s-solihiyn. Anvar Ahmad tarjimasi -T.: Movarounnahr, 2004. -B.160.
[276] Juma mav’izalari. Ikkinchi kitob. -T.: Movarounnahr, 2004. -B.50.
[277] Riyozu-s-solihiyn. Anvar Ahmad tarjimasi -T.: Movarounnahr, 2004. -B.161.
[278] Juma mav’izalari. Ikkinchi kitob. -T.: Movarounnahr, 2004. -B.85.

Shuni ta’kidlash zarurki, mamlakatimizda mo‘min-musulmonlar qatorida, xristian, yahudiy va boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchi kishilar ham o‘z ibodatlarini bemalol amalga oshirib bormoqdalar.

Diniy bag‘rikenglikda hukumatimiz tomonidan hech bir din vakili ajratilmagan, chunki yurtimizda 16 ta diniy konfessiya faoliyat olib bormoqda. Ular:

1. Islom.
2. Rus pravoslav cherkovi.
3. Rim – katolik cherkovi.
4. Yevangil xristian Baptistlar cherkovi.
5. To‘liq injil xristianlar cherkovi.
6. 7– kun xristian adventistlar cherkovi.
7. Novapostol cherkovi.
8. Yevangel lyuterantlar.
9. Arman apostol cherkovi.
10. Iegovo shohidlari.
11. Golos Boje xristian cherkovi.
12. Koreys protestantlar cherkovi.
13. Yahudiylar diniy jamoalari.
14. Bahoiy diniy jamoalari.
15. Krishnani anglash jamiyati.
16. Budda ibodatxonasi.

Irlandiyalik islomshunos olim M. Uott shunday degan edi:

“Evropaliklar musulmon madaniyatidan, ...ayniqsa, falsafa va tibbiyot sohasida, o‘zlarining qanchalik qarzdor ekanliklarini his qilganlaricha yo‘q. Ko‘pincha musulmonlar madaniyatining ijobiy ta’siri va ko‘lamini pasaytirish, hatto tamoman esga olmaslikka urinamiz. Bizning musulmonlar bilan yaxshi munosabatimiz ularning oldida qanchalik qarzdor ekanligimizni tan olishga majbur qiladi. Buni yashirish yoki tan olmaslik soxta g‘ururdan boshqa hech narsa emas”.[279]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hamkorlik insoniyat hayoti va turmushida muhim o‘rin egallash bilan birgalikda kichik tashvishlardan ortib, katta ofatlarni bartaraf etishda muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi. Hamkorlik tufayli o‘zaro munosabatlar yuksalib borishi, mamlakatlararo va millatlararo bag‘rikenglik mustahkamlanishi ro‘y beradi.

[279] Уотт У.М. Влияние Ислама на средневековую Европу. М.: 1976. -Б .24.

TAHOVIY AQIDASIDA IYMON MASALASI: MOTURIDIY VA SALAFIYLAR TALQINIDA

Xudoyqulov Jahongir
Buxoro davlat universiteti Islomshunoslik yo‘nalishi magistranti

Iymon tushunchasi eng muhim masalalardan biri bo‘lib, u ilohiyot, kalom, fiqh va tasavvuf kabi fanlar doirasida keng muhokama etilgan. Qur’oni karim va sahih hadislarda iymon har bir musulmonning asosiy aqidaviy mezoni sifatida ta’riflangan bo‘lsa-da, uning lug‘aviy va istilohiy ta’rifi, tarkibiy qismlari, amallarga nisbati, ortishi-kamayishi kabi jihatlari mutakallimlar o‘rtasida ixtilofli bo‘lib qolgan. Bu ixtilof ayniqsa ahl as-sunna val-jamoa va salafiylar orasida dolzarb masala bo‘lib qolmoqda[280].

Ushbu masala atrofida yozilgan eng muhim manbalardan biri bu – Imom Abu Ja’far at-Tahoviy (v. 321 h.) tomonidan yozilgan al-‘Aqida at-Tahoviyya asaridir. Bu risola hanafiy fiqh maktabi doirasida yozilgan bo‘lsa-da, unda e’tiqodga oid asosiy tamoyillar ixcham, aniqlik bilan ifodalangan. Asarda muallif tomonidan ijtihodiy yoki falsafiy bahslardan yiroq turib, e’tiqodiy qadriyatlar bayon qilingan. Bu esa uni barcha sunniy maktablar uchun umumiy asos bo‘lishiga xizmat qilgan[281].

Mazkur asarning mashhurligi sababli unga tarix davomida turli yondashuvdagi ulamolar tomonidan bir nechta sharhlar yozilgan. Jumladan, Moturidiylar tomonidan – Shujoiddin Mangubars, Imom al-Bayoziy, al-G‘aznaviy; Salafiylar tomonidan esa – Ibn Abil ‘Izz al-Hanafiy, ibn Usaymin kabilarning sharhlari mashhurdir[282]. Aynan mana shu sharhlar orqali iymon tushunchasiga oid maktablar o‘rtasidagi farqlar chuqurroq namoyon bo‘ladi.

At-Tahoviy iymon haqidagi mashhur iborasida quyidagicha deydi:

الإيمان هو الإقرار باللسان والتصديق بالجنان

(“Iymon – til bilan iqror va qalb bilan tasdiqdir”)[283].

Ushbu ibora dastlab qaralganda salafiy va moturidiylar tomonidan birdek qabul qilinadigan jumla bo‘lib tuyuladi. Biroq tafsilotlarga kirilsa, bu iborani har ikki maktab turlicha talqin qiladi. Moturidiylar bu ta’rifga amalni kiritmaydi, chunki ular nazdida iymonning asli faqat tasdiqdan iborat bo‘lib, til bilan aytish

[280] Yo’ldos’hev M. Islom aqidasi va kalom ilmi. – Tos’hkent: TDYI nas’hriyoti, 2019. – B. 78–81.
[281] Allohverdiyev Z. Imom at-Tahoviy va uning aqidasi. // “Imom Moturidiy merosi va hozirgi davr” maqolalar to’plami. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2021. – B. 45–48.
[282] Zayniddinov A. Islomda ye’tiqodiy maktablar. – Tos’hkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 95–96.
[283] Abu Ja’far at-Tahoviy. al-’Aqida at-Tahoviyya. – Qohira: Maktabat al-Azhar, n.d.

shart emas, ammo dunyoda musulmon hukmini berish uchun kerak bo‘ladi[284]. Salafiylar esa ushbu ta’rifga amalni ham kiritadi, ya’ni ularning nazarida iymon – tasdiq, iqror va amal birligidan iboratdir[285].

Tahoviy matnining mana shu qisqa, ammo keng talqinga ochiq iborasi ahli sunna va salafiy e’tiqodiy maktablari o‘rtasidagi tafovutlarni ko‘rsatib beruvchi kalit nuqtadir. Mazkur maqola ana shu tafovutlarni ilmiy asosda, manba va sharhlar orqali qiyosiy tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: At-Tahoviyning “Aqida” asarida bayon etilgan iymon tushunchasini moturidiy va salafiy maktablar talqinida o‘rganish, ular o‘rtasidagi farqli yondashuvlarni aniqlash, asosiy fikriy-metodologik farqlarni ochib berish, moturidiy maktabining mo‘tadilligini isbotlashdan iborat.

Imom Abu Ja’far at-Tahoviy (vaf. 321/933) hanafiy fiqhiy maktabining etuk vakillaridan biri bo‘lib, musulmon e’tiqodi bo‘yicha muxtasar, ammo asosli risolasi – *al-‘Aqida at-Tahoviyya* bilan tanilgan[286].

Tahoviy tomonidan yozilgan ushbu risola sunniy aqidaning umumiy mezonlarini ifodalashga qaratilgan bo‘lib, unda murakkab kalomiy istilohlardan ko‘ra daliliy soddalik va ixchamlik afzal ko‘rilgan. Aynan shu jihati tufayli asar barcha sunniy oqimlar uchun qabul qilingan asosiy matnlardan biriga aylangan[287].

Iymon ta’rifi: matn va talqinlar

Tahoviy iymon tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi:

الإيمان هو الإقرار باللسان والتصديق بالجنان

(“Iymon – til bilan iqror va qalb bilan tasdiqdir”)[288].

Bu ibora e’tiqodiy qarashlarning umumiy ifodasi bo‘lsa-da, unga yozilgan sharhlar ushbu jumla orqasida turli fikr va metodologik yondashuvlarni ko‘rsatadi. Asosan, ikki asosiy maktab – moturidiylar va salafiylar bu ta’rifni bir-biridan farqli talqin qiladilar.

a) Moturidiy talqini (al-G‘aznaviy sharhi asosida)

Moturidiy aqidaviy yondashuvga ko‘ra, iymon faqat qalb bilan tasdiqdan iborat bo‘lib, til bilan aytish – dunyoviy hukm uchun shart sanaladi. Bu fikrni Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Imom al-Bayadiy va boshqa mutakallimlar bir ovozdan tasdiqlaganlar. Imom Umar ibn Ishoq al-G‘aznaviy o‘zining sharhida bu jumlani quyidagicha izohlaydi:

[284] Umar ibn Is’hoq al-G‘aznaviy. S’harh al-’Aqida at-Tahoviyya. – Qohira: Maktabat al-Azhar, n.d. – B. 22–25.
[285] Ibn Abil ‘Izz al-Hanafiy. S’harh al-’Aqida at-Tahoviyya. – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, n.d. – B. 75–76.
[286] Allohverdiyev Z. Imom at-Tahoviy va uning aqidasi. // “Imom Moturidiy merosi va hozirgi davr” maqolalar to’plami. – Samarqand: Imom Buxoriy XIITM, 2021. – B. 45–46.
[287] Zayniddinov A. Islomda e’tiqodiy maktablar. – Tos’hkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 92–93.
[288] Abu Ja’far at-Tahaviy. al-’Aqida at-Tahoviyya. – Qohira: Maktabat al-Azhar, n.d.

الإيمان هو التصديق فقط، ولا يدخل فيه العمل

(“Iymon faqat tasdiqdir, unga amal kirmaydi”)[289].

Uning fikricha, amal – iymonning mevasidir, ammo tark qilinsa iymonning o‘zi saqlanib qoladi. Ya’ni, kimki gunoh qilsa, u fosiq bo‘ladi, lekin kofir bo‘lmaydi.

Qur’oni karimdagi quyidagi oyat bu yondashuvga dalil qilinadi:

إِنَّ الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ

(“Albatta, iymon keltirgan va yaxshi amallar qilganlar...”) [al-Baqara: 25]

Bu oyatda “iymon” va “amal” alohida zikr qilinayotgani, ularning mustaqil tushunchalar ekaniga dalolat qiladi, deb hisoblanadi[5].

b) Salafiy talqini (Ibn Abil ‘Izz sharhi asosida)

Salafiylar, xususan Ibn Abil ‘Izz al-Hanafiy, ushbu ta’rifni sharhlab, iymonni uch qismdan iborat deb ta’riflaydi: qalb bilan tasdiq, til bilan iqror, a’zolar bilan amal. U o‘z sharhida shunday deydi:

الإيمان قول وعمل، يزيد وينقص

(“Iymon – so‘z va amal bo‘lib, ortadi va kamayadi”)[290].

Bu yondashuvga ko‘ra, amalni butunlay tark qilgan kishi, ayniqsa namozni mutlaqo tark etsa, kofir hisoblanadi. Ibn Abil ‘Izz, Ibn Taymiy va Ibn Qayyim ta’sirida amalni iymonning asosiy tarkibiy qismi deb bilgan va iymon–amal ajralmas bog‘liqlikda bo‘lishi kerak deb e’tiqod qilgan.

Iymon va amal o‘rtasidagi tafovut

Moturidiylar amalni iymondan ajratib qarashadi: amal – amaliy farz, iymon – qalbdagi ishonchi. Al-G‘aznaviy bu borada yozadi:

العمل ليس من ماهية الإيمان، بل هو من ثمراته

(“Amal – iymon mohiyatidan emas, uning samarasidir”)[291].

Salafiylar esa, amalni iymonning tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Ular uchun amalni tark etish – ayniqsa bilib-bilib – iymonning so‘nishiga, hattoki butunlay yo‘q bo‘lishiga olib keladi.

Shu asosda, ikki maktab o‘rtasidagi asosiy tafovut quyidagilardir:

Masala	Moturidiylar	Salafiylar
Iymon ta’rifi	Tasdiq va iqror	Tasdiq, iqror va amal
Amalning iymondagi o‘rni	Samara (tashqi ko‘rinish), mohiyatdan emas	Iymonning ajralmas bo‘lagi

[289] Umar ibn Is’hoq al-G‘aznaviy. S’harh al-’Aqida at-Tahoviyya. – Qohira: Maktabat al-Azhar, n.d. – B. 22–25.
[290] Ë’ldos’hev M. Islom aqidasi va kalom ilmi. – Tos’hkent: TDYI, 2019. – B. 80–82.
[291] Ibn Abil ‘Izz al-Hanafiy. S’harh al-’Aqida at-Tahoviyya. – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, n.d. – B. 75–76.

Masala	Moturidiylar	Salafiylar
Amalni tark etgan kishining hukmi	Fosiq, lekin mo‘min	Kofir (xususan namozni tark qilsa)
Iymon ortadi/kamayadimi?	Yo‘q – sobit (faqat amal ortadi/kamayadi)	Ha – amalga qarab ortadi va kamayadi

Tahoviy aqidasida iymon ta’rifi soddaligi bilan har ikki maktab tomonidan qabul qilingan bo‘lsa-da, unga yozilgan sharhlar orqali tub metodologik tafovutlar yuzaga chiqqan. Moturidiylar, xususan Imom al-G‘aznaviy, iymonni qalbdagi tasdiqqa asoslanadi, amalni esa iymondan ajratadi. Salafiylar, ayniqsa Ibn Abil ‘Izz, iymonni amal **bilan to‘liq bog‘liq** holatda talqin qiladi. Ushbu tafovutlar nafaqat nazariy, balki fatvo va ijtimoiy hukmlar darajasida ham farq qiladi.

Iymonning ortishi va kamayishi: qat’iy tasdiqmi yoki amalga bog‘liq holatmi?

Moturidiy aqidaviy ta’limotining eng asosiy va barqaror nuqtalaridan biri bu – iymonning sobitlik haqidagi qarashidir. Moturidiylar nazdida iymon bu – qalb bilan Alloh va Uning rasuli aytgan narsalarga qat’iy ishonch bilan tasdiq berishdir. Bu tasdiq kuchaymaydi va zaiflashmaydi, chunki u sifat emas, qat’iy ishonchning o‘zidir[292].

Imom Abu Mansur al-Moturidiy aytadi:

الإيمان هو التصديق، والتصديق لا يزيد ولا ينقص

(“Iymon bu – tasdiqdir. Tasdiq esa ortmaydi va kamaymaydi”)[293].

Imom al-G‘aznaviy bu fikrni chuqurroq izohlab, Qur’ondagi “ziyodalashish”ga doir oyatlar haqida shunday deydi:

الزيادة في الإيمان المذكورة في القرآن إنما هي زيادة الطمأنينة والأعمال لا التصديق

(“Qur’onda zikr qilingan iymonning ziyodasi – tasdiq emas, balki xotirjamlik va amallardagi ortishdir”)[294].

Bu pozitsiya musulmon iymoni – sifat darajasida o‘zgaruvchan emas, balki “bor” yoki “yo‘q” holatda mavjud bo‘ladi, degan kalomiy qoidaga asoslanadi. Amal esa, har qanday taqvodorlik, ibodat, axloqiy etuklikning mahsulidir – ammo iymon emas.

[292] Ë’ldos’hev M. Islom aqidasi va kalom ilmi. – Tos’hkent: TDYI, 2019. – B. 84–86.
[293] Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-Tavhid. – Istanbul: IRCICA, 2003. – B. 340.
[294] Umar ibn Is’hoq al-G‘aznaviy. S’harh al-’Aqida at-Tahoviyya. – Qohira: Maktabat al-Azhar, n.d. – B. 33–37.

Salafiylar esa, aksincha, amalni iymonning tarkibiy qismi deb hisoblab, iymonning ortish-kamayishini amallar bilan bog‘laydilar. Ibn Abil ‘Izz shunday deydi:

الإيمان يزيد بالطاعة وينقص بالمعصية

(“Iymon itoat bilan ortadi, ma’siyat bilan kamayadi”)[295].

Bu qarash iymonni fazilatlar yig‘indisiga aylantiradi. Moturidiylar esa iymonni bu tarzda talqin qilishni ilmiy jihatdan nazariy jihatdan zaif va tasdiqni amaliy holatga aylantirib yuboruvchi xavfli yondashuv deb hisoblaydilar[296].

Gunohi kabira va iymon: gunohi kabira takfirga asos bormi?

Moturidiylar nuqtai nazariga ko‘ra, **gunohi kabira – fosiqlikdir, lekin kufr emas**. Buning sababi shundaki, iymon – qalbdagi tasdiq, gunoh esa bu tasdiqqa zid emas. Abu Hanifaning mashhur bayonida shunday deyilgan:

لا نكفر أحدًا بذنب ما لم يستحله

(“Hech bir kishini biror gunoh bilan kofir demaymiz, agar u uni halol deb bilmasa”)[297].

Bu yondashuv Qur’oni karimdagi asosiy oyat bilan mustahkamlanadi:

إِنَّ اللَّهَ لَا يَغْفِرُ أَنْ يُشْرَكَ بِهِ وَيَغْفِرُ مَا دُونَ ذَٰلِكَ لِمَن يَشَاءُ

(“Alloh shirkdan boshqa har qanday gunohni xohlagan bandasiga mag‘firat qiladi”)[298]

Moturidiylar ushbu oyatga asoslanib, **“namozni tark etgan” yoki “zino qilgan” musulmonni kofir deb atash – Qur’onga ziddir**, deb hisoblaydilar. Al-G‘aznaviy bu borada shunday deydi:

من ارتكب الكبائر لا يكفر، لأنه لا يزول التصديق بها

(“Katta gunoh qilgan kishi kofir bo‘lmaydi, chunki tasdiq yo‘qolmaydi”)[299].

Salafiylar esa, Ibn Abil ‘Izz al-Hanafiy orqali, **amalni mutlaqo tark etgan (xususan namozni)** kishini kufr bilan ittihom qiladilar. Ularning asosiy dalili quyidagi hadisdir:

العهد الذي بيننا وبينهم الصلاة، فمن تركها فقد كفر

(“Biz bilan ular o‘rtasidagi farq – namozdir. Kim uni tark qilsa, kufrga tushdi”)[300].

---

[295] Ibn Abil ‘Izz al-Hanafiy. S’harh al-’Aqida at-Tahoviyya. – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, n.d. – B. 92.
[296] Zayniddinov A. Islomda e’tiqodiy maktablar. – Tos’hkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 94–95.
[297] Abu Hanifa. al-Fiqh al-Akbar. – Qohira: Maktabat al-Halabiy, 1965.
[298] Qur’oni karim. Niso surasi. 48-oyat.
[299] Umar ibn Is’hoq al-G‘aznaviy. S’harh al-’Aqida at-Tahawiyya. – Qohira: Maktabat al-Azhar, n.d. – B. 33–37.
[300] Ahmad ibn Hanbal. Musnad al-Imam Ahmad ibn Hanbal. – Qohira: Dar al-Hadith, 1995. – J. 5. – B. 346; Abu Dovud. Sunan Abi Dawud. – Bayrut: Dar al-Fikr, 2001. – Kitob as-Salat, bob: Hukmi tarki-s-salat, hadis № 466; Termiziy. Sunan at-Termiziy. – Qohira: Maktabat al-Ma’arif, 2000. – Hadis № 2621. – B. 575; Ibn Moja. Sunan Ibn Majah. – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, 2002. – Hadis № 1079; an-Nasaiy. as-Sunan al-Kubro. – Bayrut: Dar al-Kutub al-’Ilmiyya, 1994. – J. 1. – B. 232.

Moturidiylar bu hadislarga ham **fiqhiy usuliy tafsir** bilan yondashib, bunday hadislardagi “kofir” so‘zini **shar’iy kufr emas, balki amaliy jihatdan tanbeh** sifatida izohlaydilar. Fiqhda "kofir" so‘zi ba’zan "jiddiy ogohlantirish" ma’nosida ham ishlatilgan. Shunday ekan, gunohkorni gunohi bilan takfir qilish –**xavorijlik deb** tanqid qilinadi[301].

Moturidiy maktabda iymon – qat’iy, o‘zgarmas tasdiqdir. U amal bilan kuchaymaydi, gunoh bilan kamaymaydi, balki mavjud yoki mavjud emas holatidadir. Shuningdek, katta gunoh iymonni buzmaydi, agar uni halol deb bilmasa. Bu qarash Qur’on oyatlari, sahih hadislarga, Imom Abu Hanifa, al-Moturidiy va ularning izdoshlariga asoslanadi.

Salafiy maktab esa iymonni amal bilan bog‘lab, uni kuchayuvchi va zaiflashuvchi holatga aylantiradi. Gunohni esa, ayniqsa namoz tarkini, kufr darajasida baholaydi. Bu yondashuv tahoviy matni ruhiga emas, balki salafiy tafsirga yaqinlashadi.

Shu bois, **Tahoviy aqidasi** matnidagi **“الإيمان هو الإقرار باللسان والتصديق بالجنان”** iborasi moturidiylar nuqtai nazaridan to‘liq izohlanadi, salafiylar esa unga qo‘shimcha ma’no yuklaydi.

Islom aqidasi tarixida iymon tushunchasi eng ko‘p bahs-munozaraga sabab bo‘lgan masalalardan biri bo‘lib, bu borada ahl as-sunna va-l-jamoa va adashgan toifalar o‘rtasida muhim metodologik tafovutlar shakllangan. Imom Abu Ja’far at-Tahoviy tomonidan yozilgan *al-‘Aqida at-Tahoviyya* risolasi bu masalada qisqa, ammo fundamental bayonotlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu matnda keltirilgan **“الإيمان هو الإقرار باللسان والتصديق بالجنان”** iborasi iymonning tabiati haqidagi turli talqinlarga yo‘l ochgan bo‘lsa-da, bu jumla, eng avvalo, **Moturidiy yondashuv bilan uyg‘unlikda** talqin etilishi ilmiy asosga egadir.

Moturidiylar iymonni qalb bilan bo‘lgan qat’iy tasdiq sifatida ko‘radilar. Bu yondashuv Qur’on va sunnatga asoslanib, iymonni amallardan ajratib turadi, uni ruhiy-ichki e’tiqod darajasida barqaror holatda tushuntiradi. Iymonning ortishi-kamayishiga oid oyatlar va hadislar esa, ularning fikricha, amal va taqvo darajalariga taalluqlidir. Bu yondashuv, ayniqsa Abu Hanifa, al-Moturidiy, al-G‘aznaviy kabi kalom ilmi mutaxassislari tomonidan tafsilotli asoslab berilgan.

Aksincha, salafiy maktab vakillari, xususan Ibn Abil ‘Izz, iymonni amal bilan birga talqin qilgan holda, uni o‘zgaruvchan va kamayuvchi-ortuvchi holat deb tushuntiradilar. Ularning yondashuvi iymonni fazilatlar yig‘indisiga

[301] Allohverdiyev Z. Imom Moturidiy va bugungi kun aqidaviy muammolari. – Samarqand: XIITM, 2021. – B. 52–54.

aylantirib yuborishi, shuningdek, katta gunohlarni takfirga eltuvchi xavfli oqibatlarga olib borishi mumkin.

Tahoviy matnining o‘zi umumiy ifodada yozilgan bo‘lsa-da, unga yozilgan **Moturidiy yo‘nalishdagi sharhlar** – ayniqsa Imom al-G‘aznaviy ta’lifi – ushbu asarning asl mohiyatiga yaqinroq talqinni taqdim etadi. Chunki bu sharhlar hanafiy fiqhiy asoslar, kalomiy tartib va Qur’on-tafsir metodlariga sodiq holda yozilgan.

Shu bois, zamonaviy islomiy tafakkurda aqidaviy barqarorlikni saqlash, takfirga olib boruvchi haddan oshishlarning oldini olish, ummat birligini ta’minlash uchun **Moturidiy ta’limotidagi iymon tushunchasi** asosiy ilmiy mezon sifatida qayta tiklanishi muhim ahamiyatga ega.

TAHOVIY AQIDASIDA IYMON MASALASI: MOTURIDIY VA SALAFIYLAR TALQINIDA

Naqibxonov Saidasror Osimxon o‘g‘li,
UZXIA “Tarix (islom sivilizatsiyasi)” 2-bosqich magistranti,
“Hadis va islom tarixi fanlari” kafedrasi kabinet mudiri
naqibxonovsaidasrorxon @gmail.com

Shayx Muhammad Said Ramazon Butiyning ilmiy hayoti otasi Mulla Ramazon qo‘lida boshlangan. U dastlab Ziqoqu-l-qarmaniydagi boshlang‘ich madarasaga qatnadi. Bu maktabda din, arab tili va matematikadan ta’lim berilar edi. Keyinchalik otasi uni shayx Hasan Habannaka Maydoniy huzuriga, Manjak masjidiga yubordi. Bu masjid keyinchalik “At-tavjihu-l-islamiy” institutiga aylantirilgan. O‘g‘lini ushbu shayx huzuriga olib borar ekan, otasi unga shunday degan:

“Ey o‘g‘lim! Agar Allohga eltuvchi yo‘l ko‘cha tozalashda bo‘lganida edi, seni ko‘cha supuruvchi qilgan bo‘lar edim. Ammo men ko‘rdimki, Allohga eltuvchi yo‘l – U zotni va Uning dinini o‘rganishdadir[302].”

1953-yilda Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy Damashqdagi “At-tavjihu-l-islamiy” institutida shar’iy bo‘yicha o‘rta ta’limni tamomladi. Aynan shu yili u majburiy harbiy xizmatga chaqirildi. Xizmatni kechiktirishning yagona yo‘li oliy darajadagi rasmiy tan olingan dargohda o‘qishni davom ettirish edi. Shu boisdan u al-Azhar universitetining shariat fakultetiga o‘qishga kirdi. Chunki o‘sha paytda Damashq universitetida Shariat fakulteti hali ochilmagan edi.

[302] Muhammad Said Ramazon Butiy. Haza validiy. – Damas’hq: Doru-l-fikr, 2020. – S. 59.

Shuningdek, ota-onasining yagona farzandi bo‘lgan shaxslar uchun majburiy harbiy xizmatdan ozod qilishga oid qonun ham hali joriy etilmagan edi.

Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy 1955-yilda al-Azhar universitetida oliy ta’lim yakunlab, oliy ma’lumotli shaxs bo‘lib, “Bakalavr” darajasini oldi. Shu yilning o‘zida Ramazon Butiy al-Azhar universitetining Arab tili fakultetiga ham ro‘yxatdan o‘tib, pedagogika yo‘nalishida diplomga ega bo‘ldi.

Shayx Muhammad Said Butiy 1957-yilda Damashq shahriga qaytib kelganidan so‘ng, o‘z faoliyatini ta’lim sohasida davom ettirib, o‘qituvchilar safiga qo‘shildi. 1958-yilda Misr va Suriya o‘rtasida yuzaga kelgan siyosiy birlik muhitidan – ayniqsa, prezident Jamol Abdulnosir rahbarligidagi ittifoq g‘oyalaridan – ilhomlanib, bir qator maqolalar yozdi. Ushbu maqolalar keyinchalik uning ilk bosma asari – “Fi sabili-l-lah va-l-haqq” (“Alloh va Haq yo‘lida”) nomi ostida nashr etildi. Qariyb uch yil davomida u Homs shahrida islomiy tarbiya fanidan dars berdi. 1965-yilda Damashq universiteti Shariat fakulteti doktori Mustafo Siboiyning tavsiyasi bilan assistent (stajyor-o‘qituvchi) lavozimiga tayinlandi va qisqa muddat shu erda faoliyat olib bordi.

1965-yilda u ilmiy safar doirasida al-Azhar universitetining Shariat fakultetiga yuborildi. U erda “Zavabitu-l-maslahati fi-sh-shariati-l-islamiyya (Islom shariatida maslahaning mezonlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqoti asosida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu doktorlik dissertatsiyasi “oliy darajali imtiyoz” bilan baholanib, dissertatsiyani universitet hisobidan nashr ettirish tavsiya etildi. Shu yiliyoq Shayx Muhammad Said Butiy Damashq universitetining Shariat fakultetiga o‘qituvchi sifatida tayinlandi. 1970-yilda dotsentlik unvoniga, 1975-yilda esa professorlik maqomiga sazovor bo‘ldi. Xuddi shu yili u Shariat fakulteti dekan o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. 1977-yilda esa mazkur fakultetning dekani etib tayinlanib, 1993-yilga qadar, ya’ni nafaqaga chiqquniga qadar, mazkur lavozimda faoliyat yuritdi[303].

Shuningdek, 2002-yilda u Damashq universiteti bilan shartnoma asosida hamkorlik qilgan holda “Aqida va dinlar” kafedrasi mudiri lavozimida xizmat qildi. Ta’kidlash joizki, Shayx Muhammad Said Ramazon Butiyning ilmiy ixtisosligi fiqh va uning asoslari sohasiga taalluqli bo‘lgan.

Shayx Muhammad Said Butiy o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan tanilgan bo‘lib, u islom ilmlarining turli sohalariga oid asarlar tasnif qilgan. Ayniqsa, fiqh, usulul fiqh, aqida hamda diniy-ma’rifiy va intellektual munoqasha va munozaralarga doir yozgan asarlari alohida e’tiborga loyiqdir. Manhajda unga

[303] Muhammad Said Ramazon Butiy. Ad-da’va va-l-jihad va-l-islami-s-siyasiy. – Bayrut: Markazu-l-hazorati litanmiyati-l-fikri-l-islamiy, 2012. – S. 16-17.

xilof qilgan kishilar bilan bo‘lgan diniy va fikriy bahs-munozaralarda ham faol qatnashgan. Bundan tashqari, u nasihat, axloqiy-ma’naviy va ruhiy mavzularda ham chuqur ta’sirli asarlar yozgan. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiyning asarlarida hatto eng murakkab masalalar ham nafis, o‘tkir va ravon uslubda bayon etiladi. Uning tasnif uslubi bayon fasohati va ilmiy saviyasiga putur etkazmagan. U “sodda, ammo chuqur” yozish uslubi orqali o‘quvchiga turli janrlardagi murojaat shakllarini – ya’ni bayon, tavsif, bahs-munozara, targ‘ib, himoya, tanqid va ayrim holatlarda tanbeh ifodalarini – mahorat bilan etkazadi. Ayniqsa, ayrim mavqelarda uning uslubi keskin va prinsipial bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shu bois u ko‘plab diniy va intellektual shaxslar bilan bahs-munozaralarga kirishgan. Bu jihati bilan faqat da’vat bilan kifoyalangan yoki ixtiloflardan chetda qolgan ko‘plab da’vatchilardan ajralib turgan[304]. Ilmiy shakllanishida dastlab otasi Mulla Ramazon va ustoz Hasan Habannakaning ta’siri katta bo‘lib, ularning qo‘li ostida kamol topgan bo‘lsa, keyinchalik Mustafo Sodiq Rofe‘iy, Imom G‘azzoliy kabi mutafakkirlarning asarlaridan chuqur ilhom olgan.

Shuningdek, Shayx Muhammad Said Ramazon Butiyning ilmiy shakllanishida Ali Tantoviy[305] va boshqa zamondosh mutafakkirlarning fikriy qarashlarini ta’siri bo‘lgan.

Shayx Muhammad Said Ramazon Butiyning yozuvchi sifatidagi faoliyati ilk bor Damashqda tahsil olayotgan davrida, ya’ni 1949-yilda boshlangan. Uning birinchi maqola yozish tajribasi “Amama-l-mar’ati” (Ayol oldida) nomli maqolasi bilan bog‘liq bo‘lib, u mazkur maqolasini o‘sha paytda mashhur bo‘lgan “At-Tamaddunu-l-islamiy” (Islomiy tamaddun) jurnaliga taqdim etgan. Ushbu jurnalni Ahmad Mazhar Azma nashr etar edi. U Butiyning maqolasini iliq kutib olib, birinchi chiqqan sonida uni chop etishga va’da bergan va bu va’dasini bajargan. Maqola chop etilganida, Butiyning ismi yoniga “adib” (yozuvchi) unvoni ham qo‘shib yozilgan. Bu narsa Muhammad Said Ramazon Butiyning qalbida o‘chmas quvonch va faxr tuyg‘ularini baxsh etgan[306].

Ma’lumki, Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy arab tilidan tashqari yana bir necha tilni mukammal egallagan bo‘lib, u turk, kurd va ingliz tillarida

[304] Muhammad Said Ramazon Butiy. Ad-da’va va-l-jihad va-l-islami-s-siyasiy. – Bayrut: Markazu-l-hazorati litanmiyati-l-fikri-l-islamiy, 2012. – S. 239.

[305] Ali Tantoviy – XX asrning mas’hhur islom olimi, ëzuvchi va notiq bo’lgan. U 1909-yil 12-iyunda Damas’hqda (Suriya) tug‘ilgan va 1999-yil 18-iyunda Jiddada (Saudiya Arabistoni) vafot etgan. Ali Tantoviy diniy ulamolar oilasida tug‘ilgan. Uning bobosi Misrdan kelib, al-Azhar universitetida tahsil olgan, otasi va tog‘asi ham taniqli islom olimlari bo’lgan. Ali Tantoviy Damas’hqdagi mas’hhur Maktab Anbar maktabida o’qigan, so’ngra Damas’hq universitetida huquq va adabiët bo’yicha tahsil olib, 1932-yilda bitirgan.

[306] Muhammad Said Ramazon Butiy. Ad-da’va va-l-jihad va-l-islami-s-siyasiy. – Bayrut: Markazu-l-hazorati litanmiyati-l-fikri-l-islamiy, 2012. – S. 25-26.

ham ravon so‘zlasha olgan. Quyida uning yozgan asarlari haqida ma’lumot keltiriladi:

1. تجربة التربية الإسلامية في ميزان البحث “Tajribatu-t-tarbiyati-l-islamiyya fi mezoni-l-bahs”

Kitobda zamonaviy tarbiya jarayoni islomiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

2. دفاع عن الإسلام والتاريخ “Difa’ ani-l-islam va-t-tarix”

Bu asarda islomga va uning tarixiy asoslariga qarshi qaratilgan da’volarga ilmiy asoslangan javoblar beriladi.

3. حقائق عن نشأة القومية “Haqoiq an nash’ati-l-qovmiyya”

Asar millatchilik g‘oyasining tarixiy ildizlari va uning islomiy qadriyatlarga zid jihatlarini ochib beradi.

4. في سبيل الله والحق “Fi sabilillah va-l-haqq”

Bu kitob muallifning ilk maqolalaridan iborat bo‘lib, diniy va ijtimoiy mavzularni yoritadi.

5. السبيل الوحيد في زحمة الأحداث الجارية “As-Sabilul-vahid fi zahmati-l-ahdasi-l-jariya”

Bu asar, zamonaviy ijtimoiy va siyosiy voqealarga Islom nuqtai nazaridan yondashadi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy bu asarda jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolar va voqealar haqida fikr yuritadi, ularning echimini Islom shariatiga asoslaydi. Asarda, alohida e’tiborini jamiyatdagi islohlar va hozirgi zamon muammolariga qaratgan.

6. العقيدة الإسلامية والفكر المعاصر “Al-Aqidati-l-islamiyya va-l-fikri-l-muasir”

Asar islom aqidasining zamonaviy dunyoqarashlar bilan munosabatini o‘rganadi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy zamonaviy fikr va aqidaviy muammolarni ilmiy tahlil qiladi va ularning Islom aqidasiga ta’sirini ko‘rsatadi.

7. حوار حول مشكلات حضارية “Hivar havla mushkila hazoriyya”

Bu asar, asosan, zamonaviy madaniyat va Islomning o‘zaro munosabatlarini tahlil qiladi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy madaniyatlararo muloqot va turli fikrlar o‘rtasidagi muammolarni Islomiy nuqtai nazardan o‘rganadi.

8. على طريق العودة إلى الإسلام ، رسم لمنهاج، وحل المشكلات “Ala toriqi-l-avdati ila-l-islam, rasm liminhaj va hall limushkilat”

Bu asar, Islomga qaytish va uning asosiy prinsiplarini jamiyatda qanday tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatadi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, Islomni jamiyatga qaytarish jarayonida yuzaga kelgan muammolar va ularning echimini o‘rganadi.

9. مسألة تحديد النسل “Mas’ala tahdidi-n-nasl”

Bu asar, ahl al-fiqh va jamiyatdagi naslni cheklash yoki ko‘paytirish masalasini tahlil qiladi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, Islomda naslni boshqarish va uning huquqlari haqida fikr bildiradi.

10. السلفية مرحلة زمنية مباركة لا مذهب إسلامي “As-Salafiyyatu marhala zamaniyya mubaraka la mazhaba islamiy”

Bu asar, salafiylikni vaqtincha bir bosqich sifatida tahlil qiladi va salafiylikning Islomdagi o‘rni haqida bahs yuritadi.

11. قضايا فقهية معاصرة “Qazoya fiqhiyya muasiro”

Bu asarda, zamonaviy fiqhiy masalalar va ularning echimi muhokama qilinadi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy zamonaviy jamiyatda yuzaga kelgan fiqhiy masalalarni shar’iy nuqtai nazardan baholaydi.

12. حرية الإنسان في ظل عبوديته الله “Hurriyatu-l-insan fi zilli ubudiyyatihi lillah”

Asar, insonning erkinligi va uning Allohga bo‘ysunishidagi munosabatni tahlil qiladi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, insonning erkinligi faqat Allohga xizmat qilish orqali haqiqiy erkinlikka erishishini ta’kidlaydi.

13. الحوار سبيل التعايش مع التعدد والاختلاف “Al-hivar sabilu-t-ta‘ayusha ma‘a-t-taaddud va-l-ixtilaf”

Bu asarda, turli madaniyat va e’tiqodlar o‘rtasidagi muloqot va hamjihatlikka chaqiriladi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, zamonaviy dunyoda turli fikrlar o‘rtasidagi farqlarni qanday hal qilish kerakligini muhokama qiladi.

14. الإسلام والعصر تحديات وآفاق “Al-Islam va-l-asr, tahadiyyat va afoq”

Bu asar, Islomning zamonaviy dunyo bilan yuzlashishi va yangi asrda yuzaga kelgan imkoniyatlar va qiyinchiliklarni tahlil qiladi.

15. الله أم الإنسان أيهما أقدر على رعاية حقوق الإنسان؟ “Alloh ami-l-insan, ayyuhuma aqdaru ala riayati huquqi-l-insan?”

Asar, inson huquqlari va ularni himoya qilishda Allohning o‘rni va insonning o‘rni haqidagi bahslarni o‘rganadi.

16. أوربة من التقنية إلى الروحانية: مشكلة الجسر المقطوع “Uruba mina-t-taqniya ila-r-ruhaniyya: mushkilatu-l-jisri-l-maqtu‘”

Bu asar, texnologiyaning rivojlanishi va uning ruhiyatga ta’siri haqida muhokama qiladi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, zamonaviy dunyoning texnologik taraqqiyoti va ruhiy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni topishga intiladi, bu orqali ruhiyatning o‘zini saqlab qolish zarurligini ta’kidlaydi.

17. من الفكر والقلب “Mina-l-fikr va-l-qalb”

Ushbu asar, fikr va qalb o‘rtasidagi aloqani o‘rganadi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, fikrning va qalbning inson hayotidagi o‘rnini tahlil qiladi va ularning bir-biriga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu asar fikr va qalbning muvozanatida yashashga chaqiradi.

18. هذا ما قلته أمام بعض الرؤساء والملوك “Haza ma qultuhu amama ba’zi-r-ruasai va-l-muluk”

Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy bu asarda o‘zining ba’zi siyosiy va diniy qarashlarini, ba’zi hukmdorlar va rahbarlar bilan bo‘lgan muloqotlarida aytgan fikrlarini taqdim etadi. Asar, diniy va siyosiy masalalar bo‘yicha Butiyning qarashlarini yoritadi.

19. نقض أوهام المادية الجدلية “Naqzu avhami-l-maddiyati-l-jadaliyya”

Bu asar materializm va uning noto‘g‘ri asoslarini tanqid qiladi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, mantiqiy va ilmiy yondashuvda materializmining zaif tomonlarini ochib beradi va uning Islomiy dunyoqarashga muvofiqligini tahlil qiladi.

20. كبرى اليقينيات الكونية وجود الخالق ووظيفة المخلوق “Kubro-l-yaqiniyyoti-l-kavniyya: Vujudu-l-Xoliqi va vazifatu-l-maxluq”

Bu asar, dunyoning yaratilishi va odamning dunyodagi o‘rni haqida. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, yaratuvchi (Alloh) va yaratilganlar (inson) o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rib chiqadi va ularning mavjudlik maqsadini tahlil qiladi.

21. البدايات باكورة أعمالي الفكرية “Al-Bidayat: Bakura a‘maliyyi-l-fikriyya"

Ushbu asar muallifning ilmiy va falsafiy ishlari va g‘oyalari bilan tanishish uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib, uning ilmiy yo‘lini yoritadi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy o‘zining fikr va ilmiy qarashlarini qanday shakllantirganini tahlil qiladi.

22. هذه مشكلاتنا “Hazihi mushkilatuna”

Bu asar, zamonaviy dunyoda musulmonlar duch kelayotgan muammolarni ko‘rib chiqadi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, jamiyatdagi ijtimoiy, diniy va siyosiy muammolarga ilmiy va diniy nuqtai nazardan yondashadi.

23. هذه مشكلاتهم “Hazihi mushkilatuhum”

Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy bu asarda, boshqa xalqlarning duch kelgan muammolarini va ularning hal qilish yo‘llarini tahlil qiladi. Ularning yondashuvlarini o‘rganib, musulmonlarga qanday darslar olish mumkinligini ko‘rsatadi.

24. مد الإسلام ملاذ كل المجتمعات “Maddu-l-islam malazu kulli-l-mujtama’at”

Bu asar, Islomning barcha jamiyatlar uchun qanday ma’naviy boshpana bo‘lishi mumkinligini muhokama qiladi. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy Islomning umumbashariy ahamiyatini ta’kidlaydi.

25. التعرف على الذات هو الطريق المعبد إلى الإسلام “At-Taarruf ala-z-zot Huva-t-toriqu-l-muabbad ila-l-islam”

Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, insonning o‘zini tanishi va shaxsiyatining maqsadini anglash orqali Islomga qanday qaytish mumkinligini yoritadi. O‘zlikni tushunish, Islomga yo‘l ochuvchi kalit sifatida qaraladi.

26. يغالطونك إذ يقولون “Yug‘olitunaka iz yaqulun”

Bu asarda Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, musulmonlar va boshqa guruhlar orasidagi qarama-qarshiliklarni va ularning g‘oyalari bilan yuzma-yuz kelgan muammolarni tahlil qiladi. U turli qarashlarni inkor qilish va ularni ilmiy va diniy yondashuv orqali to‘g‘rilashga chaqiradi.

27. اللامذهبية أخطر بدعة تهدد الشريعة الإسلامية “Al-La mazhabiyya axtaru bid‘atin tuhaddidu-sh-shariati-l-islamiyya”

Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, lamazhabiyya (mazhabga befarqlik) fikrining Islomda qanday xavf tug‘dirishini muhokama qiladi. U ushbu oqimning shar'iy jihatdan qanday muammolar keltirishi mumkinligini ta’kidlaydi.

28. المذاهب التوحيدية والفلسفات المعاصرة “Al-Mazahibu-t-tavhidiyya va-l-falsafatu-l-muasira”

Bu asarda Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, bir Xudoga iymon keltiruvchi din va falsafalarning qarashlarini taqqoslaydi. Uning fikricha, barcha to‘g‘ri e’tiqodlar faqat bir Xudoga iymon keltiradi, va bu turli tafakkur oqimlarini birlashtiradi.

Muhammad Said Ramazon Butiy asarlari islom ilmlarining turli sohalarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli ilmiy merosdir. Uning fiqh, aqoid, siyrat va islom falsafasi sohalaridagi asarlari nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki diniy va axloqiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega. Butiy o‘zining asarlarida ilmiy tahlilni chuqur va metodik yondoshuv bilan amalga oshirgan bo‘lib, bu uning islom ilmlarini tasniflash va tizimlashtirishdagi o‘ziga xos uslubini ko‘rsatadi. Uning ilmiy faoliyati va yozgan asarlari bugungi kunda ham islom ilmlari tadqiqotchilari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Butiyning ilmiy merosi zamonaviy islom tafakkuri va ilm-fanining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan va bundan keyingi avlodlar uchun ham ahamiyatini saqlab qoladi.

KAMOL IBN HUMOMNING ISLOMIY BILIMLARIGA QO‘SHGAN HISSASI VA TA’LIM USLUBI

Islomova Sayyora
Buxoro davlat universiteti
Islomshunoslik yo‘nalishi magistranti

Kamol ibn Humomning ilmiy salohiyati va uslubiy yondashuvlari nafaqat o‘z davridagi, balki undan keyingi asrlardagi ko‘plab ulamolar fikriga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. U Qohira va boshqa islomiy ilm markazlarida ko‘plab shogirdlar etishtirgan bo‘lib, bu shogirdlar orqali allomaning ilmiy maktabi keng yoyilgan va barhayot qolgan. Manbalarda Kamol ibn Humomga bevosita taalluq qilgan 40 dan ortiq shogird nomi tilga olinadi. Ulardan ayrimlari o‘zlari ham etuk mujtahid, faqih va mutakallim sifatida tarixda qoldilar. Kamol ibn Humom o‘z shogirdlarini faqatgina matn yodlash emas, fikr yuritish, bahs qilish, dalilni tahlil qilishga o‘rgatgan. Shuning uchun ham ularning yozgan sharhlarida mustaqil yondashuv, ijtihodiy tahlil va mohiyatga e’tibor kuchli seziladi. Masalan, Qutlubug‘o o‘z sharhida ustozidan iqtiboslar keltirarkan, ba’zida o‘z ixtilofini ochiq bildiradi, ammo bu munozara odobi va ilmiy hurmat doirasida bo‘ladi[307]. Uning shogirdlari tomonidan yozilgan sharhlar keyingi asrlarda madrasalarda asosiy darslik sifatida o‘qitilgan. Bu esa Kamol ibn Humomning ilmiy maktabi barqaror davom etganligini ko‘rsatadi. Xususan, Hindiston, Usmoniylar davlati, Misr va Movarounnahr hududlaridagi hanafiy madrasalarida ushbu maktabga mansub asarlar keng qo‘llanilgan. Tadqiqotchi A. Alimov bu haqida shunday deydi: “Kamol ibn Humom o‘z shogirdlarini ijodkor olim sifatida tayyorlagan. Ular faqatgina matn quli emas, balki mustaqil dalil ishlab chiquvchi, uslubiy tafakkur yurituvchi bo‘lib etishgan”[308].

Ilmiy metodologiyasining xususiyatlari: Kamol ibn Humomning ilmiy faoliyatida chuqur tahlil, mantiqiy tartib, tanqidiy fikrlash va hujjatli dalillarga tayanish uning asosiy metodologik xususiyatlaridandir. U ilmni nafaqat rivoyat (naql), balki ra’yi (fikr) orqali ham anglash va rivojlantirish zarurligini targ‘ib qilgan. Uning asarlarida uslubiy yondashuv o‘ta izchil, dalil asosli va aqliy-tahliliy ruhda kechadi.

1. Tanqidiy yondashuv

Kamol ibn Humom an’anaviy fiqhiy matnlarga ko‘r-ko‘rona ergashmagan. “Fath al-Qodir”da Marg‘inoniyning “al-Hidoya”sini sharhlash chog‘ida muallif fikrini har doim ham to‘liq qabul qilmaydi. U, dalillarga asoslanib, ayrim fatvolarni qayta ko‘rib chiqadi, ba’zilarini rad etadi yoki

[307] Sahaviy S’h. Ad-dav’ al-lami’. – Jild 10. – B. 117.
[308] Alimov A. Islom huquq tafakkuri taraqqiётida ulamo maktablari. – Tos’hkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 141.

ijtihodiy tarzda yangilaydi[309]. Masalan, u qiyos va istihsonga oid masalalarda ko‘plab taklifiy pozitsiyalar bildirgan.

2. Daliliy asosga tayangan fikr yuritish

Uning barcha asarlarida, xususan “Fath al-Qodir” va “at-Tahrir”da dalilsiz iqtiboslar yoki taqlidiy fikrlar uchramaydi. Har bir fikr Qur’on, Sunnat, Ijmo yoki Qiyos asosida mustahkamlanadi. Agar dalil etarli bo‘lmasa, u ehtiyotkorlik bilan sukut saqlaydi yoki ehtimolli mulohaza bildiradi[310]. Kamol ibn Humom hanafiylik doirasida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, boshqa fiqhiy va aqidaviy maktablar qarashlarini yaxshi bilgan. “At-Tahrir”da hanafiy va shofe’iy istilohlarini tizimli ravishda solishtirgan, “al-Musayarah”da esa ash’ariy va mu’taziliy fikrlar bilan moturidiy yondashuvlarni bir-biriga tahliliy taqqoslab bergan[311]. Bu yondashuv uning keng ilmiy doiraga ega olim bo‘lganini ko‘rsatadi. Kamol ibn Humom naqlni (rivoyat, matn) asos deb biladi, biroq bu asosni tushunishda aqlni vosita sifatida ishlatadi. Ayniqsa aqidaviy masalalarda u aqliy dalilni asosiy isbot vositasi sifatida ko‘radi. “Al-Musayarah” asarida imon, ilohiy sifatlar, qadar kabi mavzularni tahlil qilishda bu metod yaqqol ko‘zga tashlanadi[312]. Kamol ibn Humom hanafiylikda to‘xtab qolgan taqlidiy fikrlarga tanqidiy yondashgan. U “ijtihod eshiklari yopilgan” degan fikrni rad etgan va ijtihodiy faoliyatni har bir davrda davom ettirish zarurligini uqtirgan. Bu jihat “Fath al-Qodir”da qayta-qayta ta’kidlanadi[313].

Ushbu metodologik yondashuvlari tufayli Kamol ibn Humomni “hanafiylikda ijtihodiy fikrni tiklagan mujtahid” deb baholash mumkin. Uning yondashuvi yassilangan fikrlar ustidan ijodiy va daliliy bahs yuritishga asoslangan.

Tadqiqotchi O. Sultonov bu borada shunday deydi: “Kamol ibn Humom metodologiyasi — rivoyat bilan kifoyalanmaydigan, aqlga tayanadigan, dalilga qarab hukm chiqaradigan yondashuvdir. Bu esa hanafiylikda yuksak bosqich bo‘ldi”[314].

Keyingi hanafiy olimlarga ta’siri :Kamol ibn Humomning ilmiy merosi o‘zidan keyingi asrlarda hanafiy fiqh, usul va kalom tafakkurining yuksalishida muhim omillardan biri bo‘ldi. Uning asarlari ko‘plab ulamolar tomonidan asosiy manba sifatida qabul qilindi va keng qo‘llanildi. Bu ta’sir bevosita shogirdlari

[309] Kamol ibn Humom. Fath al-Qodir. – Qohira: Matba’a al-Maimaniyya, 1319 h. – Muqaddima.
[310] Ibn Hajar Asqaloniy. Ad-dav’ al-lami’. – Qohira: Matba’a Bulaq, 1316 h. – Jild 6. – B. 312.
[311] Ibn Amir al-Hajj. At-taqrir va’t-taḥbir. – Qohira, 1316 h. – Jild 1. – B. 10–13.
[312] Qutlubugo Qosim ibn. S’harh al-Musayarah. – Qohira: Matba’a Bulaq, 1317 h. – B. 18–21.
[313] Sultonov O. O‘rta asr islom tafakkurida ijtihod masalasi. // Ijtimoiy fanlar, 2021, №4. – B. 68.
[314] O‘s’ha manba. – B. 69.

orqali, shuningdek, bilvosita – asarlarining o‘qilishi, sharhlanishi va fiqhiy muomalada qo‘llanishi orqali namoyon bo‘lgan.

Xususan, mashhur damashqlik faqih Ibn Obidin (vaf. 1252 h.) o‘zining “Rodd al-Muhtar” asarida Kamol ibn Humomning “Fath al-Qodir” asariga ko‘p marotaba murojaat qiladi. U Kamol ibn Humomni ijtihodiy salohiyatga ega faqih sifatida tan olgan va unga “zamonaviy mujtahid” deya ta’rif bergan. Ibn Abidin uning fikrlariga daliliy ishonch bilan tayanadi va ularni boshqa hanafiy ulamolari bilan taqqoslaydi[315]. Muhammad Zohid al-Kavsariy (vaf. 1371 h.), XX asrning etuk hanafiy kalomshunosi sifatida, Kamol ibn Humomni hanafiy fiqhida dalilga asoslangan yondashuvning namoyandasi deb hisoblaydi. U Kamol ibn Humom haqida shunday yozadi: “U – chuqur ijtihod ahlining biri, sukutli, ammo fikri teran, kalomda ham, fiqhda ham etuk edi”. Al-Kavsariy uning “Fath al-Qodir” va “al-Musayarah” asarlarini qayta nashr ettirishga hissa qo‘shgan va o‘z maqolalarida unga tez-tez murojaat qilgan[316]. Kamol ibn Humomning ta’siri Markaziy Osiyoda ham sezilgan. Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa shaharlardagi hanafiy madrasalarida “al-Musayarah” asari XIX asrgacha kalom fanining asosiy matni sifatida o‘qitilgan. Unda berilgan mantiqiy, daliliy va muvozanatli aqidaviy yondashuv, ayniqsa moturidiylikni o‘rganishda asosiy o‘quv qo‘llanmasi vazifasini bajargan. Madrasalarda bu asar “Sharh al-Musayarah” va “al-Musamarah” sharhlari bilan birga dars sifatida berilgan[317]. Kamol ibn Humom Hindiston hanafiy ulamolari tomonidan ham yuqori baholangan. Xususan, Shibliy No‘moniy, Fazl Ahmad Moroliy kabi olimlar uni hanafiy fiqhda mustaqil yondashuvning namunasi sifatida e’tirof etishgan. Ularning fikricha, Kamol ibn Humom asarlari ijodiy tafakkurni, dalilga tayangan fikr yuritishni, va ko‘r-ko‘rona taqliddan voz kechishni o‘rgatadi. Ular “Fath al-Qodir”ni “Hanafiya ijtihodiy tafakkurining eng yuksak namunasi” deb atashgan[318]. O‘zbekiston olimlaridan N. To‘raev bu borada quyidagicha yozadi: “Kamol ibn Humom faqatgina hanafiy fiqhda emas, balki islomiy tafakkurning metodologik taraqqiyotida ham o‘chmas iz qoldirgan. Uning yondashuvi faqat matnni o‘rganish emas, balki unga tanqidiy, daliliy va tizimli qarash madaniyatini rivojlantirgan”[319].

[315] Ibn Obidin. Rodd al-Muhtar ’ala ad-Durr al-Muxtor. – Qohira: Dar al-Fikr, 2003. – Jild 1.
[316] Kavsariy M.Z. Maqolat. – Qohira: Maktabat at-Turath al-Islamiy, 1969. – B. 251.
[317] Qosim ibn Qutlubug‘o. S’harh al-Musayarah. – Qohira: Matba’a Bulaq, 1317 h. – B. 15–30.
[318] No‘moniy S’h. Imom Abu Hanifa va uning maktabi. – Lakhnau: Nadvat al-’Ulama, 1911. – B. 89.
[319] To‘raev N. Markaziy Osiё kalomiy tafakkuri va uni s’hakllantirgan omillar. // Ilohiёt va tafakkur. – Tos’hkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2022. – B. 98–99.

Shu tariqa, Kamol ibn Humomning fikrlari, asarlari va metodologiyasi keyingi asrlarda hanafiy ulamolar uchun ilhom manbaiga aylangan, uning ijtihodiy va daliliy maktabi esa mintaqaviy fiqhiy tafakkurga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

RADIKALIZMGA QARSHI MA'RIFIY KURASH

Xushvaqtova Sarvinoz
Jamoat xavfsizligi universiteti
Yurisprudensiya fakulteti 1-bosqich talabasi
Sxushvatova730@gmail.com

Radikalizm va ekstremizm bugungi kunda global xavfsizlikka tahdid solayotgan asosiy omillardan biridir. Bu borada avvalambor radikalizmga ta’rif berib o‘tsak; Radikalizm — bu ijtimoiy, siyosiy yoki diniy tizimni fundamental o‘zgartirish yoki qayta qurishga chaqiruvchi va tezkor, keskin usullarga tayanadigan g‘oya yoki harakatni anglatadi. Radikalizm, odatda, mavjud tizimni tubdan isloh qilish, unga qarshi chiqish va yangilanishni amalga oshirish maqsadida yuzaga keladi. Bu, shuningdek, mavjud ijtimoiy yoki siyosiy tizimga nisbatan, o‘zgartirishlarga bo‘lgan kuchli ishonchni ifodalaydi, bunda o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun radikal choralar ko‘rish yoki o‘zgarishlarni shoshilinch tarzda amalga oshirishga harakat qilinadi. Radikalizm, o‘zining tabiati bilan, ko‘pincha qonuniy yoki ijtimoiy normalar bilan ziddiyatga kirishadi, chunki uning tarafdorlari o‘z fikrlarini, g‘oyalarini yoki qadriyatlarini to‘liq amalga oshirish uchun keskin, tezkor va ko‘pincha zo‘ravon usullardan foydalanadilar. Bunday harakatlar nafaqat siyosiy, balki diniy, ijtimoiy va madaniy tizimlarga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Radikalizmning salbiy jihatlari ko‘pincha uning tenglikni, adolatni va inson huquqlarini to‘liq e’tiborga olmasligi bilan bog‘liq. Ba’zan radikalizm ekstremizmga aylanadi, bu esa boshqa guruhlar yoki jamiyatlarning manfaatlariga qarshi zo‘ravonlik yoki yovuzlikka olib kelishi mumkin. Biroq, ba’zi hollarda radikalizm, yangi g‘oyalar va ijtimoiy o‘zgarishlar kiritish orqali jamiyatni yangilashga yordam berishi mumkin.

O’zbekiston ham bu illatlarga qarshi kurashishda faol ishtirok etib, ma’rifiy yondashuvni asosiy vosita sifatida tanlagan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan diniy-ma’rifiy sohada keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. So’nggi yillarda 100 dan ortiq yangi masjidlar qurilib, 555 tasi ta’mirlangan. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy

xalqaro markazlari tashkil etilib, diniy-ma’rifiy faoliyatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda[320]. Milliy qadriyatlar va an’analar radikalizmga qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi. O’zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida o’tkazilgan tadbirlarda yoshlarni radikalizm, terrorizm, ekstremizm kabi salbiy oqimlardan himoya qilishda milliylik omilining ahamiyati ta’kidlangan. Tadbirlar davomida ommaviy madaniyat niqobi ostida tarqatilayotgan axloqiy buzuqlik va zo’ravonlik g’oyalariga qarshi kurashish zarurligi qayd etilgan[321].

Mahalla institutlari radikalizmga qarshi kurashda asosiy ijtimoiy tuzilma sifatida faoliyat yuritmoqda. Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida “Markaziy Osiyoda zo’ravon ekstremizmning oldini olish” loyihasi doirasida mahalla rahbarlari uchun o’quv mashg’ulotlari o’tkazildi. Treninglar davomida ishtirokchilarning huquqiy savodxonligi oshirilib, radikal tashkilotlarning insonlar ongiga ta’sir ko’rsatish usullari haqida ma’lumotlar berildi[322].Yoshlar radikalizmga qarshi kurashda muhim rol o’ynaydi. Toshkentda o’tkazilgan xalqaro konferensiyada yoshlarning terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashdagi o’rni muhokama qilindi. Anjumanda yoshlar o’rtasida radikalizmga qarshi immunitetni shakllantirish va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish masalalari ko’rib chiqildi[323].Oliy ta’lim muassasalarida radikalizmga qarshi ma’rifiy tadbirlar muntazam o’tkazilmoqda. Andijon Davlat Universitetida “Ekstremizm va terrorizm missionerlik g’oyalariga qarshi ma’naviy-ma’rifiy tasviriy targ’ibot” mavzusida tadbir o’tkazildi. Tadbirda ekstremizm va terrorizmning diniy va madaniy kontekstdagi noto’g’ri talqinlari va uning yosh avlod ongiga salbiy ta’siri haqida ma’lumotlar berildi. O’zbekiston radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda o’ziga xos tajribaga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan to’g’ri yo’ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog’lom hayotga qaytarish maqsadida keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlari tizimli tashkil etildi. Natijada, aqidaparastlik g’oyalari ta’siriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqaro ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarildi[324]. Diniy-ma’rifiy tadbirlar radikalizmga qarshi kurashda muhim vosita hisoblanadi. Farg’ona viloyatida o’tkazilgan tadbirda ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari haqida ishchi-xodimlarga tushuntirishlar berildi. Tadbirda mutaassib oqimlar

[320] https://https://iiau.uz/index.php/oz/news/2756
[321] https://uza.uz/oz/posts/mahallalarda-zoravon-ekstremizm-va-radikalizmga-orin-yoq_332240
[322] https://uza.uz/oz/posts/terrorizm-ekstremizm-va-radikalizmga-qarshi-kurashda-yoshlarning-orni_242770
[323] https://azot.uz/oz/news/ekstremizm-va-terrorizmga-qarshi-kurash-borasida-diniy-marifiy-tadbir
[324] https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247764

tomonidan internet orqali tarqatilayotgan ekstremistik mazmundagi materiallarga qarshi kurashish zarurligi ta’kidlandi[5].”Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida O’zbekistonda keng ko’lamli ma’rifiy ishlar amalga oshirilmoqda. 2023-yil 28-fevraldagi Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari shakllantirilmoqda. Bu yo’nalishda yosh avlodda ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda[6].Internet orqali tarqatilayotgan radikal g’oyalarga qarshi kurashda yoshlar o’rtasida ogohlikni oshirish muhimdir. O’zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida o’tkazilgan davra suhbatida ekstremizm va terrorizm bilan bog’liq tahdidlarning oldini olish, diniy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, mutaassib oqimlar tomonidan ijtimoiy tarmoq platformalarida ilgari surilayotgan da’volar haqida so’z yuritildi.Radikalizmga qarshi kurashda ma’rifiy yondashuv eng samarali vositalardan biridir. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan diniy-ma’rifiy islohotlar, yoshlar bilan ishlash, mahalla institutlarini faollashtirish kabi chora-tadbirlar radikalizmga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida ham bu yo’nalishda ishlarni davom ettirish va yangi tashabbuslarni ilgari surish zarur.

Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro tajriba ham muhim ahamiyatga ega. BMT, UNESCO va OECD kabi tashkilotlar bu borada keng qamrovli dasturlarni ilgari surmoqda. Masalan, UNESCOning “Zo‘ravon ekstremizmning oldini olishda ta’limning roli” yo‘riqnomasi orqali davlatlarga ekstremizmga qarshi ta’lim yondashuvlarini tatbiq etishda ko‘mak berilmoqda.OECD ham bu borada ta’lim orqali ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish, yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish bo‘yicha tavsiyalar bermoqda. Ularning hisobotlarida ekstremizmga qarshi immunitet faqat jazolovchi mexanizmlar emas, balki ongli ta’lim orqali shakllanishi zarurligi aytilgan.[7]Keniyada esa 2014 yildan boshlab maktablar va oliy ta’lim muassasalarida radikallashuvga qarshi kurashish bo‘yicha alohida metodikalar ishlab chiqilgan. Ularda talabalarning ijtimoiy ongini yuksaltirish, jamoatchilik faoliyatiga jalb etish va ekstremistik targ‘ibotga qarshi immunitetni shakllantirish asosiy vazifa qilib belgilangan.[8] O‘zbekistonda radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda ma’rifiy yondashuv asosiy vosita sifatida tanlangan. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: O‘zbekistonda “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida diniy-ma’rifiy sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga

oshirilmoqda. 100 dan ortiq yangi masjidlar qurilib, 555 tasi ta’mirlandi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlar orqali Islom dini tinchlikparvarlik va bag‘rikenglik dini ekanini targ‘ib qilmoqda[1]. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2026-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya qabul qilindi. Unda radikalizmning ildiziga etuvchi omillar – ijtimoiy, g‘oyaviy, madaniy va iqtisodiy sabablar – chuqur o‘rganilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks yondashuvlar nazarda tutilgan[2]. Oliy ta’lim muassasalarida muntazam ravishda ekstremizmga qarshi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Masalan, Andijon Davlat Universitetida “Ekstremizm va terrorizm missionerlik g‘oyalariga qarshi ma’naviy-ma’rifiy tasviriy targ‘ibot” mavzusida tadbir o‘tkazildi. Bunday ishlanmalar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi oshirilmoqda[9]. Mahalla institutlari radikalizmga qarshi kurashda asosiy ijtimoiy baza sifatida shakllanmoqda. Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida “Markaziy Osiyoda zo‘ravon ekstremizmning oldini olish” loyihasi doirasida mahalla rahbarlari uchun o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi. Bu orqali joylarda barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shilmoqda. Yoshlarning radikal g‘oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish uchun ular bilan alohida ishlash muhimdir. Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada yoshlarning radikalizmga qarshi kurashdagi roli alohida e’tirof etildi[325]. Radikalizmga qarshi kurashda diniy-ma’rifiy tushuntirish ishlari muhim o‘rin tutadi. Farg‘ona viloyatida ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlariga bag‘ishlangan targ‘ibot ishlari olib borildi[326]. Bundan tashqari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan radikal g‘oyalarga qarshi kurashda axborot xavfsizligi muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida o‘tkazilgan davra suhbatida bu masala atroflicha muhokama qilindi[327]. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan to‘g‘ri yo‘ldan adashganlarni jamiyatga qaytarish bo‘yicha ijtimoiy reabilitatsiya ishlari tizimli olib borilmoqda. Bu esa radikal qarashlarga berilganlarni sog‘lom fikrlashga yo‘naltirishda ijobiy natija bermoqda[328]. Xalqaro doirada ham O‘zbekistonning radikalizmga qarshi kurashdagi sa’y-harakatlari yuqori baholanmoqda. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar mamlakatimizning “ma’rifat bilan kurashish" tajribasini o‘rganmoqda.

[325] https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247764
[326] https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/21/NamDU-ARM-7099 Diniy_ekstremizm_va_terrorizmga_qarshi_kurashning_ma_zTt8sUR.pdf
[327] https://en.wikipedia.org/wiki/Violent
[328] https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonning-ilgor-tashabbuslari-dunyo-miqyosida-qollab-quvvatlanmoqdahttps://uza.uz/oz/posts/ozbekistonning-ilgor-tashabbuslari-dunyo-miqyosida-qollab-quvvatlanmoqda

Xulosa qilib aytganda, radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda ma’rifiy yondashuv eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta’lim tizimi orqali yoshlarni ongli va immunitetli qilib tarbiyalash, mahalla va diniy institutlarni faollashtirish kabi tashabbuslar bu yo‘nalishda muhim natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Jahon tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, ekstremizmga qarshi barqaror natijalarga faqat bilim, tarbiya va ijtimoiy adolat orqali erishish mumkin. Bu chora-tadbirlarning izchil davom ettirilishi jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

ISLAM AND RELIGIOUS TOLERANCE

Sharopov Sarvar Faxriddinovich
Master’s Student, 1st Year
Field of Study: Islamic Studies
International Islamic Academy of Uzbekistan
ORCID: 0009-0009-5516-2414
sharopovsarvar433@gmail.com

Religious tolerance is one of the foundational values of Islam, deeply embedded in its theological principles and historical practice. Rooted in key Qur’anic teachings such as «There is no compulsion in religion» (Qur’an 2:256), Islam envisions a world of religious plurality and mutual respect. This article explores how Islamic teachings promote tolerance through theological concepts like *fitrah* (natural disposition), *khalīfah* (vicegerency), and recognition of *Ahl al-Kitāb* (People of the Book). It highlights historical examples—such as the Constitution of Medina, the Ottoman millet system, and convivencia in Al-Andalus—that demonstrate the practical implementation of these principles. The paper also examines how modern Muslim scholars reconcile traditional Islamic values with contemporary human rights discourses. Despite challenges in application, Islamic teachings offer a strong moral and legal foundation for religious pluralism and peaceful coexistence.

Religious tolerance represents one of the most essential aspects of Islam, deeply rooted in its foundational texts and historical practice. This paper examines the concept of religious tolerance in Islam, its theological foundations, historical manifestations, and contemporary challenges.

Theological Foundations of Religious Tolerance in Islam. The Qur’an, Islam’s holy book, establishes fundamental principles that support religious

tolerance. One of the most frequently cited verses regarding religious diversity states: «There shall be no compulsion in religion» (Qur’an 2:256)[329]. This foundational principle establishes that faith must be a matter of personal conviction rather than coercion. The Qur’anic worldview acknowledges religious pluralism as part of divine design, stating: «If your Lord had willed, He would have made mankind one community, but they continue to differ» (Qur’an 11:118)[330].

Islamic theology recognizes that diversity in religious belief is part of God’s plan for humanity. The Qur’an emphasizes this reality: «For each We have appointed a divine law and a traced-out way. Had Allah willed, He could have made you one community. But that He may try you by that which He has given you. So vie one with another in good works» (Qur’an 5:48)[331]. This verse not only acknowledges religious plurality but frames it within a context of healthy competition in virtuous deeds.

The Islamic concept of tolerance extends beyond mere acceptance to include principles of justice and fairness toward all people regardless of their religious beliefs. The Qur’an instructs: «Allah does not forbid you from dealing kindly and justly with those who do not fight you because of religion and do not expel you from your homes» (Qur’an 60:8)[332]. This establishes that peaceful relations with non-Muslims are not merely permitted but encouraged.

Historical Examples of Religious Tolerance in Islamic Societies. The Prophet Muhammad’s conduct provides numerous examples of religious tolerance. Upon establishing the first Islamic polity in Medina, he instituted the «Constitution of Medina,» a social contract that guaranteed religious freedom for all communities, including Jewish tribes[333]. This document is considered by many scholars to be one of the earliest constitutional guarantees of religious pluralism.

During the early Islamic caliphates, particularly under the Umayyad and Abbasid dynasties, religious minorities frequently held prominent positions in administration, science, and medicine. Christians, Jews, and Zoroastrians contributed significantly to the intellectual and cultural flourishing of these

[329] Abdullah Yusuf Ali. The Holy Qur’an: Text, Translation and Commentary. Lahore: S’haikh Muhammad As’hraf Publis’hers, 2016. p. 102.
[330] Muhammad Asad. The Message of the Qur’an. Gibraltar: Dar Al-Andalus Limited, 2018. p. 334.
[331] Seyyed Hossein Nasr (editor). The Study Quran: A New Translation and Commentary. New Ërk: HarperOne, 2021. p. 285.
[332] M.A.S. Abdel Haleem. The Qur’an: A New Translation. Oxford: Oxford University Press, 2019. p. 370.
[333] Muhammad Hamidullah. The First Written Constitution in the World. Lahore: S’h. Muhammad As’hraf, 2016. p. 44.

societies[334]. This practice reflected the Qur’anic principle that diversity contributes to human advancement and knowledge.

The Ottoman Empire’s millet system represents another historical example of formalized religious tolerance in Islamic governance. Under this system, recognized religious communities maintained substantial autonomy in managing their internal affairs, including education, family law, and worship practices[335]. While not perfect by modern standards of equality, this system allowed diverse religious communities to thrive for centuries under Muslim rule.

Islamic Spain (Al-Andalus) is often cited as an exemplary period of religious coexistence. During its peak period, Muslims, Christians, and Jews participated in a shared cultural and intellectual life that produced remarkable achievements in philosophy, science, architecture, and arts[336]. The great Jewish philosopher Maimonides developed his most important works in this environment, demonstrating how religious tolerance fostered intellectual creativity across faith boundaries.

Theological Concepts Supporting Tolerance. Several key theological concepts in Islam provide a framework for religious tolerance. The concept of «fitrah» (natural disposition) suggests that all humans are born with an innate inclination toward belief in God and moral behavior[337]. This universal human nature creates a foundation for mutual respect across religious differences.

The Islamic concept of «khalīfah» (vicegerency) teaches that all humans, regardless of religious identity, share the responsibility of stewardship over creation[338]. This shared role implies a fundamental dignity and purpose that transcends religious boundaries.

Islam recognizes a special relationship with «Ahl al-Kitāb» (People of the Book), primarily Jews and Christians, acknowledging their adherence to divine revelation. The Qur’an permits social relationships with these communities, including marriage to Jewish and Christian women and consuming food prepared by them, indicating a high level of social integration was envisioned[339].

[334] Dimitri Gutas. Greek Thought, Arabic Culture. London: Routledge, 2017. p. 175.
[335] Karen Barkey. Empire of Difference: The Ottomans in Comparative Perspective. Cambridge: Cambridge University Press, 2018. p. 128.
[336] María Rosa Menocal. The Ornament of the World: How Muslims, Jews, and Christians Created a Culture of Tolerance in Medieval Spain. Boston: Back Bay Books, 2019. p. 87.
[337] Abu Hamid al-Ghazali. The Foundations of the Articles of Faith. Trans. Nabih Amin Faris. Lahore: S’h. Muhammad As’hraf, 2017. p. 219.
[338] Seyyed Hossein Nasr. Man and Nature: The Spiritual Crisis in Modern Man. Chicago: ABC International Group, 2018. p. 96.
[339] Mahmoud Aëub. A Muslim View of Christianity: Essays on Dialogue. Maryknoll: Orbis Books, 2019. p. 134.

Contemporary Expressions of Islamic Religious Tolerance. In modern nation-states with Muslim majorities, approaches to religious tolerance vary considerably. Countries like Indonesia, Senegal, and Tunisia have developed constitutional frameworks that protect religious freedom and foster pluralism, drawing on Islamic principles while incorporating contemporary human rights standards[340].

Modern Muslim scholars have articulated theological frameworks for religious pluralism that build upon classical concepts while addressing contemporary challenges. Scholars like Abdolkarim Soroush, Abdullahi Ahmed An-Na’im, and Khaled Abou El Fadl have developed approaches that emphasize universal human dignity and rights as consistent with Islamic principles[341].

Interfaith initiatives led by Muslim organizations demonstrate practical commitment to religious tolerance. The Amman Message (2004), A Common Word Between Us and You (2007), and the Marrakesh Declaration (2016) represent significant contemporary efforts to articulate Islamic principles of tolerance and cooperation with other religious communities[342].

Textual Analysis of Key Qur’anic Passages. A deeper examination of Qur’anic texts reveals nuanced approaches to religious diversity. The verse «To you be your religion, and to me my religion» (Qur’an 109:6) establishes a principle of mutual respect and non-interference in religious matters[343].Classical exegetes like al-Tabari interpreted this as establishing clear boundaries between faith communities while maintaining peaceful coexistence.

The Qur’an acknowledges salvation possibilities beyond the Muslim community: «Indeed, those who believed and those who were Jews or Christians or Sabeans—those who believed in Allah and the Last Day and did righteousness—will have their reward with their Lord, and no fear will there be concerning them, nor will they grieve» (Qur’an 2:62)[344]. This verse has generated extensive theological discussion about the scope of divine mercy and salvation.

The Qur’anic commandment to «invite to the way of your Lord with wisdom and good instruction, and argue with them in a way that is best» (Qur’an 16:125)

[340] Giora Eliraz. Islam in Indonesia: Modernism, Radicalism, and the Middle East Dimension. Brighton: Sussex Academic Press, 2019. p. 153.
[341] Abdolkarim Sorous’h. Reason, Freedom, and Democracy in Islam: Essential Writings of Abdolkarim Sorous’h. Trans. Mahmoud Sadri and Ahmad Sadri. Oxford: Oxford University Press, 2020. p. 129.
[342] Prince Ghazi bin Muhammad. A Common Word: Muslims and Christians on Loving God and Neighbor. Grand Rapids: Eerdmans, 2018. p. 78.
[343] Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir al-Tabari. Jami’ al-Bayan ‘an Ta’wil ay al-Qur’an (The Comprehensive Exposition of the Interpretation of the Verses of the Qur’an). Cairo: Dar Hajr, 2018. p. 624.
[344] Fakhr al-Din al-Razi. Mafatih al-Ghayb (The Keys to the Unknown). Beirut: Dar al-Fikr, 2019. p. 147.

establishes ethical guidelines for religious discourse that preclude coercion or hostility[345]. This approach emphasizes persuasion through reasoned argument rather than force.

Bridging Theological and Human Rights Approaches. Contemporary Muslim scholars have worked to harmonize Islamic concepts of religious tolerance with international human rights frameworks. Scholars like Abdullahi Ahmed An-Na’im argue for a methodology that recognizes the historical context of classical jurisprudence while emphasizing Qur’anic ethical principles that support equal citizenship regardless of religion[346].

The «maqasid al-shari’ah» (higher objectives of Islamic law) approach offers a methodology for developing contemporary understandings of religious tolerance. By focusing on core objectives like the protection of faith, life, intellect, family, and property, this approach prioritizes human dignity and welfare over literalist readings of historical legal opinions[347].

Muslim feminists have contributed important perspectives on religious tolerance, noting that gender justice and religious pluralism often face similar obstacles from patriarchal and authoritarian interpretations of religion. Scholars like Amina Wadud and Asma Barlas argue that authentic Qur’anic interpretation supports both gender equality and religious tolerance[348].

Islamic teachings on religious tolerance combine theological principles, ethical guidelines, and legal frameworks that have historically allowed for significant religious diversity within Muslim societies. While implementation has varied across time and place, core Qur’anic values of human dignity, justice, and recognition of diversity provide resources for addressing contemporary challenges of religious pluralism.

The ongoing intellectual and social effort to articulate and implement Islamic concepts of religious tolerance represents an important contribution to global discussions of religious pluralism and peaceful coexistence. By recovering the spirit of tolerance embedded in Islamic sources while honestly addressing historical and contemporary failings, Muslims contribute to building more inclusive societies where diversity is recognized as a divine gift rather than a problem to be solved.

---

[345] Ibn Kathir. Tafsir al-Qur’an al-’Azim (Interpretation of the Great Qur’an). Riyadh: Dar Taybah, 2017. p. 591.
[346] Abdullahi Ahmed An-Na’im. Toward an Islamic Reformation: Civil Liberties, Human Rights, and International Law. Syracuse: Syracuse University Press, 2018. p. 159.
[347] Jasser Auda. Maqasid al-S’hariah as Philosophy of Islamic Law: A Systems Approach. London: International Institute of Islamic Thought, 2019. p. 237.
[348] Amina Wadud. Qur’an and Woman: Rereading the Sacred Text from a Woman’s Perspective. Oxford: Oxford University Press, 2020. p. 96.

SOG'LOM ETIQODNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Turg'unov Xurshid Axlimirzayevich
BuxDU Islomshunoslik yo'nalishi magistranti.

Har bir jamiyatning barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va insonlar orasida sog‘lom munosabatlarning shakllanishi muayyan ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi. Bu qadriyatlarning eng muhimlaridan biri — sog‘lom e’tiqoddir. E’tiqod — insonning hayotga, yaratuvchiga, o‘ziga va jamiyatga bo‘lgan munosabatini belgilab beruvchi ichki kuchdir. U inson ruhiyatini tozalaydi, uni ezgulikka, halollikka, sabr-toqat va bag‘rikenglikka yetaklaydi. Shu bois sog‘lom e’tiqod nafaqat shaxs, balki butun jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olganda, sog‘lom e’tiqod masalasi nafaqat diniy manbalarda, balki zamonaviy ilmiy izlanishlarda ham chuqur tahlil etilgan. Jumladan, Imom Moturudiy, Imom Abu Muin An Nasafiy, Nuriddin Sobuniy kabi allomalar inson e’tiqodining shakllanishi, axloqiy poklanish va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilganlar. Zamonaviy davrda esa Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va boshqa ma’naviyat targ‘ibotchilari e’tiqodni shunchaki diniy amal sifatida emas, balki ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi omil sifatida ko‘rsatganlar.

Sog‘lom e’tiqod tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

Sog‘lom e’tiqod — bu nafaqat diniy qarashlar to‘plami, balki shaxsning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi, uni ezgulikka undovchi ichki asosdir. Islom aqidaviy maktablari, xususan, Moturidiylik va Ash’ariylik ta’limotlarida e’tiqodga ongli yondashish, aql va naql uyg‘unligi alohida ta’kidlanadi. Imom Moturudiy ta’limotiga ko‘ra, e’tiqod — faqat taqlid emas, balki tafakkur, dalil va ishonch asosida shakllanishi kerak. Bu esa sog‘lom e’tiqod tushunchasini mutaassiblikdan, johilona ishonchdan farqlaydi.

Shuningdek, Nuriddin Sobuniy o‘zining “Al-Bidoya fi Usulid-din” asarida e’tiqodni Allohga yaqinlashtiruvchi, insonni jamiyatga foydali bo‘lishga undovchi ruhiy kuch sifatida talqin etadi. E’tiqodli kishi halollik, sabr, poklik, mas’uliyat kabi fazilatlarni hayotida ustuvor tutadi. Bu esa shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish madaniyatini shakllantirib, uni jamiyat uchun foydali a’zoga aylantiradi.

E’tiqod va jamiyatdagi barqarorlik

E’tiqodning jamiyatdagi o‘rni — bu insonlar orasidagi ishonch muhitining asosidir. Sog‘lom e’tiqodga ega inson boshqalarga nisbatan adolatli, halol va bag‘rikeng munosabatda bo‘ladi. Bunday shaxslar ko‘p bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy

ziddiyatlar kamayadi, huquqbuzarlik darajasi past bo‘ladi, fuqarolik mas’uliyati ortadi.

Islom dinining asosiy tamoyillari — zulm qilmaslik, yolg‘on gapirmaslik, boshqalarning haq-huquqini poymol qilmaslik, odob-axloqga rioya qilish — bularning barchasi sog‘lom e’tiqod bilan bog‘liq. Sog‘lom e’tiqodli jamiyatda axloqiy qadriyatlar mustahkam bo‘ladi, bu esa milliy birlik va taraqqiyot uchun muhim zamin yaratadi.

Islom axloqida bir insonni aybsiz holda ayblash yoki uning ichki e’tiqodini baholash – ya’ni uni dindan chiqqan, fosiq yoki gunohi kabira egalari qatoriga kiritish – nihoyatda og‘ir va mas’uliyatli ish sanaladi. Ayniqsa, bu kabi ayblovlar omma orasida bo‘lsa, jamiyat ichki birlik va ishonchdan mahrum bo‘ladi.

Gunohi kabira masalasida sog‘lom e’tiqod yondashuvi

Islom aqidasi sog‘lom e’tiqodni shakllantirishda mo‘tadillik, rahmat va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslanadi. Ahli sunna val-Jamoa e’tiqodiga ko‘ra, kufrdan boshqa katta gunohlarni sodir etgan musulmonlar dindan chiqmaydi, ularning iymoni barqaror qoladi. Bu masalada Nuriddin Sobuniy o‘zining “Al-Bidoya fi Usulid-din” asarida chuqur tahlillar keltirib, katta gunoh qilgan kishi dindan chiqmaydi, deb ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, inson gunohi bilan emas, iymoni bilan musulmon sanaladi.

Bu fikr Ahl as-Sunna manbalarida quyidagi jumla orqali ifodalangan:

"قال أهل السنة: من ارتكب كبيرة دون الكفر لا يُعتبر كافرًا، ولا منافقًا، ولا يخرج عن الإيمان، وإن مات من غير توبة، فإما أن يغفر الله له بفضله وكرمه، وإما أن يعاقب بقدر جنايته، ثم يُدخله الجنة بشفاعته.

وعند الخوارج يُعتبر كافرًا، يُلحق بالكفر، وعند المعتزلة خرج من جملة الإيمان، فإذا مات من غير توبة خُلِّد في النار".

Tarjimasi:

“*Ahl as-Sunna vakillari aytadilarki: Kim kufrdan boshqa katta gunoh qilsa, u kishi na kofir, na munofiq bo‘ladi, na imondan chiqadi. Agar u tavbasiz vafot etsa, Alloh uni fazli bilan kechiradi yoki qilgan gunohi miqdorida jazolaydi, so‘ngra uni shafoat sababli jannatga kiritadi. Xavorijlar esa bunday kishini kofir deb biladi, Mu’tazila esa uni imondan chiqqan deb hisoblab, agar u tavba qilmay vafot etsa, abadiy do‘zaxda qoladi.”*

Bu yondashuv sog‘lom e’tiqodda mutaassiblikdan yiroq, iymon va amal o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlashni ko‘zda tutadi.

"والصحيح ما قاله جماعة من أهل السنة، لقوله تعالى: (إِنَّ اللَّهَ لَا يَغْفِرُ أَنْ يُشْرَكَ بِهِ، وَيَغْفِرُ مَا دُونَ ذَٰلِكَ لِمَنْ يَشَاءُ)،

والأمة توارثت من عصر النبي ﷺ إلى يومنا هذا الصلاة على من مات من أهل القبلة، والدعاء لهم مع علمهم بارتكاب الكبائر،

وكذا اشتهر الاستغفار لهم، والاستغفار مع ختم الصلوات لوالديهم وأقاربهم ومعارفهم من غير تقييد، مع اعتقادهم أن الاستغفار للكافر لا يجوز.
وعقيدتنا أن حقيقة الإيمان هو التصديق، والإقرار أمارة عليه،
فمن وجد منه الإقرار عند تصديق القلب اتصف بكونه مؤمنًا،
فلا يتبدل التصديق بالتكذيب، والإقرار بالإنكار لا يُوصف بكونه كافرًا،
وإذا لم يكن كافرًا كان مؤمنًا، إذ لا واسطة بين التصديق والتكذيب،
إلا الشك والتوقف، وأنه كفر بالإتفاق.
وأما غالب الأمر وارتكاب المعاصي إذا لم يكن بطريق الاستحلال والاستخفاف،
لا يكون تكذيبًا وردًا لأمر الله تعالى، بل يكون ذلك إما لغلبة شهوة، أو حمية، أو أنفة، أو كسل، "

Tarjimasi:

“*To‘g‘ri qarash — ahli sunnaning bir guruhining so‘zidir. Chunki Alloh taoloning ushbu so‘zlari bor: “Ey, Iymon keltirganlar Alloh Taologa chin tavba qilinglar.” (Tahrim surasi, 8-oyat).*

Ummat Nabiy (s.a.v.) zamonidan tortib bugungi kungacha — qiblaga yuzlanib vafot qilgan (ya’ni, musulmon bo‘lgan) kishilarga janoza namozini o‘qib, duo qilishni davom ettirib kelmoqda, ularda katta gunoh sodir etganlar borligini bilgan holda.

Shuningdek, mo‘minlar uchun istig‘for qilish, namozlardan keyin ota-onasi, qarindoshlari va tanishlari uchun istig‘for qilish mashhur bo‘lgan, bu istig‘forlar ularning katta gunoh sohibi emasligiga bog‘lanmagan.

Ularning e’tiqodicha, iymonning haqiqati — bu tasdiq (qalban ishonish), og‘iz bilan iqror bo‘lish esa uning belgilaridan biridir.

Kimda qalban tasdiq bilan birga og‘zaki iqrorlik topilsa, u mo‘min deb sifatlanadi.

Chunki tasdiq rad (inkor) bilan o‘zgarmaydi, iqrorlik inkor bilan almashmaydi.

Shuning uchun u kishi kofir deb aytilmaydi. Agar kofir bo‘lmasa — demak mo‘mindir. Chunki tasdiq bilan inkor o‘rtasida faqat shubha yoki to‘xtab turish (ya’ni, iymon keltirmay ham, inkor etmay ham turish) mavjud bo‘lishi mumkin, bu esa ittifoq bilan kufr sanaladi.

Ammo odatda, katta gunoh sodir qilish — agar u halol sanash yoki Allohning amrini mensimaslik bilan birga bo‘lmasa — bu Allohning amrini inkor qilish va yolg‘onga chiqarish sanalmaydi.

Balki bu (gunoh) nafs istagi, g‘urur, or, g‘azab yoki dangasalik kabi sabablardan bo‘lishi mumkin.”

"وكيفَ وقد اقترنَ بذلك خوفُ العقابِ ورجاءُ العفوِ، والْـعَزْمُ على التوبةِ.
وهذا كلُّه ثمِرَّةُ الإيمان، وأمارةُ تصديقِ الوعدِ والوعيدِ.

مثاله: من أمر الطبيبُ المريضَ بشربِ الدواءِ أوْ نهى عن شيءٍ، فوَصَفَهُ المريضُ وقَبِلَ ذلك منه، ولكن مع ذلك قد يُقْدِمُ على شربِ ما ضَرَّه، أو يمتنع عن شربِ ما نَفَعَه، مع خوفِ الضررِ والندامةِ على ذلك، وإيمانهِ من الطبيبِ والخوفِ من ملامتهِ، ورجاءُ الدّاراكِ منه، لا يكونُ هذا دَفْعًا لأمرِ الطبيبِ، ولا استخفافًا بحقِّه".

Tarjimasi:

“*Axir bu holatda jazodan qo‘rqish, kechirimga umid qilish va tavbaga qat’iy qaror hamrohlik qilmoqda-ku! Bularning barchasi imonning alomati va va’da hamda ogohlantirishlarga ishonch belgilaridir.*

Buni quyidagicha misollash mumkin: bir tabib bemorga dori ichishni buyursa yoki biror narsani taqiqlasa, bemor tabibning gapini qabul qilib, unga ishonsa-da, ba’zida unga zarar yetkazadigan narsani ichib qo‘yadi yoki foydali narsani ichmaydi. Bu holatda bemor zararidan qo‘rqadi, pushaymon bo‘ladi, tabibga bo‘lgan ishonchi, undan ranjimaslik istagi va unga bo‘lgan hurmati saqlanib qoladi. Bu esa tabibning buyrug‘ini inkor etish yoki unga mensimay qarash degani emas."

Gunohi kabira masalasida sog‘lom e’tiqod yondashuvi — Ahli sunna val-Jamoa pozitsiyasi bo‘lib, u iymon va amal orasidagi muvozanatni saqlaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, katta gunoh sodir etgan musulmon, agar kufr niyati yoki istihzoning alomati bo‘lmasa, iymondan chiqmaydi. Chunki imon — qalbdagi tasdiqdir. Odamzod zaif tabiati sabab ba’zida gunohga qo‘l uradi, ammo unda tavbaga intilish, jazodan qo‘rqish va Allohning kechirimiga umid bo‘lsa, bu uning imoni barqaror ekanidan dalolat beradi. Gunoh qilganlarni dindan chiqarishga shoshilish sog‘lom e’tiqodga emas, mutaassiblikka olib boradi. Shu bois, jamiyatda sog‘lom e’tiqodni yoyish — rahmat, tavba va muvozanatli yondashuv asosida bo‘lishi kerak.

Shu bois, sog‘lom e’tiqod asosida jamiyatda bag‘rikenglik va mo‘minlarga nisbatan adolatli munosabatni qaror toptirish, nafaqat diniy nuqtayi nazardan, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarbdir. Bu yondashuv O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan diniy-ma’rifiy siyosatda ham o‘z aksini topmoqda. Shu nuqtai nazardan Prezidentimizning quyidagi qarori aynan sog‘lom e’tiqodga asoslangan yondashuvning amaliy ifodasidir:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2021–2026-yillarga mo‘ljallangan diniy-ma’rifiy soha faoliyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasi”da quyidagilar belgilangan:

“O‘zbekiston bundan keyin ham diniy sabablarga ko‘ra buzg‘unchi mafkuralar ta’siridan jabr ko‘rgan shaxslarga har tomonlama ijtimoiy-huquqiy va moddiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni davom ettirishni

maqsad qilgan.”

Ushbu konsepsiyada, shuningdek, O‘zbekiston hududida asrlar davomida shakllangan, dindorlar orasida tinchlik va bag‘rikenglikni keng yoygan an’anaviy islom dinining asosiy g‘oyalaridan fuqarolarning xabardorligini oshirish, jumladan ekstremizm va terrorizm g‘oyalarini islom diniga zid ekanligini tushuntirish bo‘yicha keng axborot-ma’rifiy ishlarni olib borish zarurligi ta’kidlangan.

Bu yondashuv, ya’ni sog‘lom e’tiqod asosida jamiyatda bag‘rikenglik va mo‘minlarga nisbatan adolatli munosabatni qaror toptirish, nafaqat diniy nuqtayi nazardan, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarbdir. Ushbu qaror, ayniqsa, jamiyatda islohotparvarlik, kechirimlilik, bag‘rikenglik kabi ijtimoiy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Sog‘lom e’tiqod — bu faqat diniy tushuncha emas, balki ijtimoiy taraqqiyot, axloqiy poklik va jamiyat barqarorligining asosiy omilidir. U kishini halollikka, ezgulikka, javobgarlikka, sabr va bag‘rikenglikka chorlaydi. Imom Moturudiy, Abu Muin an-Nasafiy va Nuriddin Sobuniy kabi allomalar ta’limotida sog‘lom e’tiqod aqliy tafakkurga, dalilga asoslanadi.

Bugungi globallashuv va ma’naviy inqiroz sharoitida jamiyatda sog‘lom e’tiqodni mustahkamlash nafaqat diniy, balki ijtimoiy, ma’naviy va madaniy barqarorlik uchun ham muhim hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, yurt tinchligi, xalq birdamligi va taraqqiyotining kafolatidir.

DIN VA ILM: ISLOMIY BILIM VA ZAMONAVIY ILM-FAN UYG‘UNLIGI

Asror Vahobov
“Imom Termiziy” nomidagi islom instituti talabasi

Islom dini ilmga nihoyatda katta ahamiyat beradi. Qur’oni Karimda, Toha surasining 114-oyatida «Ey Robbim, meni ilm bilan ko‘proq ziynatla» degan duo orqali ilmga bo‘lgan hurmat va intilishning muqaddasligi ta’kidlanadi. Shuningdek, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom “Ilm izlash har bir musulmon erkak va ayolga farzdir” degan hadisni (Ibn Moja, Sunan) ifoda qilib, ilmni diniy va dunyoviy sohalarda muhim vazifa sifatida belgilagan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda “Islomiy bilim va zamonaviy ilm-fan uyg‘unligi” dolzarb mavzu sifatida qaralib, diniy an’analar va zamonaviy ilmiy yondoshuvlarni uyg‘unlashtirish zarurati kuchaymoqda.

Islom tafakkurida tavhid (yagonalik) tamoyili asos bo‘lib, yaratilgan olamni anglash va tadqiq qilish Allohning buyuk san’atini kashf etish bilan barobar

sanaladi. Qur’onda Oli Imron surasining 190-oyatida, «Samovot va er yaratilishi, tun va kunduz almashinishi – aql egalari uchun Allohning mo‘jizalaridandir» degan oyat kelib, olamni kuzatish va tafakkur qilish ilmiy izlanishlarga da’vat etuvchi asos sifatida ifodalanadi. Bundan tashqari, Mujodala surasining 11-oyatida «Alloh iymon keltirganlarni ham, ilm berilganlarni ham martabalarda yuksaltiradi» deyilgan bo‘lib, bu oyat ilmning ruhiy va ijtimoiy maqomini aniq belgilaydi. Zumer surasining 9-oyati esa ilmga ega bo‘lganlar bilan bo‘lmaganlar orasidagi farqni ko‘rsatib, tafakkur ustunligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Hadislar orqali ilm izlash nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar to‘plashda ham achchiq ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Masalan, Abu Dovud rivoyat qilgan hadisda: “Kimki ilm talab qilmasa, u do‘zax oloviga bog‘langan kishidek ahvolda bo‘ladi.”

Bu rivoyatlar musulmon uchun ilmning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini, shuningdek, diniy e’tiqod bilan uni uyg‘unlashtirish zarurligini ochiqchasiga ko‘rsatadi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, VIII–XIV asrlar musulmon ilm-fanning oltin davri sifatida qabul qilinadi. Bayt al-Hikma – Bag‘doddagi ilmiy markaz – yunon, fors va hind olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qilish va yangi ilmiy g‘oyalarni yaratishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu davrda yuzlab olimlar ilm-fanning turli sohalarida daho yutuqlariga erishib, jahon ilmiy merosiga o‘z hissalarini qo‘shganlar:

- **Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy (780–850):** Algebra fanining asoschisi bo‘lib, uning nomidan “algoritm” atamasi paydo bo‘lgan. U hind-raqamlari tizimini joriy etish orqali zamonaviy matematik hisoblash usullariga zamin yaratgan.
- **Abu Rayhon al-Biruniy (973–1048):** Astronomiya, matematika, fizika, tibbiyot va tarix fanlarida chuqur tadqiqotlar olib borgan. Uning “Kitob al-Hind” asari ilm-fan tarixida muhim manba hisoblanadi.
- **Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) (980–1037):** Tibbiyot, falsafa va tabiiy fanlarda “Qonun” asari orqali Yevropa ilmiy maktablariga katta ta’sir ko‘rsatgan.
- **Al-Farobiy, Ibn Rushd (Averroes) va Moturidiy kabi olimlar** ham dindan kelib chiqqan tafakkur asosida falsafiy va ilmiy qarashlarni yoritib, ilm-fan va din uyg‘unligini namoyon etishgan.

Bugungi kunda musulmon olimlar ham qadimiy an’analarni davom ettirib, zamonaviy ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqdalar:

- **Misrlik fizik Ahmed Zewail** femtosekund kimyosi bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lib, ilm-fan va texnologiya sohalarida musulmon olamining yuksalishini ko‘rsatdi.
- **Islom falsafasi va g‘arb fani uyg‘unligi** borasida taniqli olimlardan biri bo‘lgan Seyyid Huseyn Nasr, diniy qadriyatlar va zamonaviy ilmiy uslub o‘rtasidagi uyg‘unlikni nazariy jihatdan yoritib, xalqaro miqyosda fikr almashuvini kengaytirdi.
- Zamonaviy ta’lim tizimlarida, sun’iy intellekt, biotexnologiya, kosmik tadqiqotlar kabi sohalarda ilmiy izlanishlar faqat texnik bilimlarni emas, balki axloqiy yondashuvni ham talab qilmoqda. Islomiy prinsiplar, xususan “Khalifat ul-arz” tushunchasi doirasida, er yuzining muhofazasi va adolatli resurs taqsimoti qadriyatlari muhim mezon sifatida keltiriladi. Qur’onda atrof-muhitni asrash, isrof qilmaslik va resurslarni adolatli taqsimlash haqidagi oyatlar ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishda zamonaviy ilmiy qarashlarga asos bo‘lishi mumkin.

Ushbu yondoshuv, ilm-fan va diniy e’tiqodning bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida rivojlanishi, musulmon yoshlarni sog‘lom e’tiqod va tanqidiy fikrlashga, shuningdek, global raqobatbardosh bilimlarga ega bo‘lishlariga xizmat qiladi.

Islomiy bilim va ilm-fan uyg‘unligi diniy an’analar va zamonaviy ilmiy tafakkur o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qur’on va hadislar ilm izlashni rag‘batlantiradi, tarixiy tajriba esa musulmon olimlarining yuksak ilmiy yutuqlariga guvohlik beradi. Zamonaviy global ilmiy erishuvlar, texnologik inqiloblar va axloqiy tamoyillarga asoslangan yangi metodlar yordamida diniy va dunyoviy bilimlarning uyg‘unligi jamiyatda ilmiy taraqqiyot, axloqiy etuklik va e’tiqodiy barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratadi.

Kelgusida, diniy matnlarning zamonaviy kontekstga mos tafsiri, ilmiy-texnikaviy yangiliklar hamda muvozanatli ta’lim tizimi orqali musulmon jamiyatlar yanada mustaqil va raqobatbardosh ilmiy avlodni etishtira oladi.

ISLOM DINI VA BAG‘RIKENGLIK

O‘rolov Sunnatilla
“Imom Termiziy” nomidagi islom instituti talabasi

Islom dini insonlarning ruhiy taraqqiyoti, axloqiy qadriyatlari va jamiyatdagi tinch-totuvlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Diniy e’tiqod hamda hayotiy qadriyatlar kontekstida bag‘rikenglik – ya’ni turli din vakillari, millatlar va etnik guruhlar orasida hurmat, hamjihatlik va birgalikda yashash ma’nosini anglatadi. Tarixiy jihatdan O‘zbekiston qadimgi davllardan boshlab ko‘plab millat, til va din vakillari uchun tinch-totuv yashash maskani bo‘lgan.

Bugungi kunda ham davlatimiz Konstitutsiyasi va tegishli qonunlar asosida barcha fuqaroning diniy e’tiqodi va dunyoqarashi hurmat qilinadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqida bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik va qalb saxovati qadriyatlari ta’kidlanib, xalqimizning milliy mentalitetining ajralmas qismi sifatida ifodalanadi.

Islom dini bag‘rikenglikni Qur’oni Karim oyatlari orqali ham ochiq ifodalaydi. Masalan:

- “Din haqida majburlash yo‘q” (Qur’on, Surah Al-Baqarah, Ayat 256): Ushbu oyat imon keltirishda majburlash yo‘qligini, ya’ni har bir insonning o‘z tanlovi asosida e’tiqodini shakllantirish huquqini tasdiqlaydi.
- “Sizlarga sizning diningiz, menga esa mening dinim” (Qur’on, Surah Al-Kafirun, 6): U ham din bo‘yicha mustaqil tanlov va har bir kishining o‘z e’tiqodini hurmat qilish tamoyilini ifodalaydi.
- “Albatta, agar Rabbim xohlasa, albatta, hamma iymon keltirar edi” (Qur’on, Surah Yunus, Ayat 99 ga yaqin oyatlar).

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham bag‘rikenglik va mehr-muhabbat tamoyillarini o‘z hadislarida ta’kidlagan. Masalan:

- Bir mashhur hadisda shunday deyilgan: “Musulmonlar bir tanadir. Ularning qismi og‘riydi, bir-birining dardini his qiladi.” Ushbu hadis musulmonlar orasida birdamlikni, hamjihatlikni va bir-biriga ko‘rsatilgan mehrni ifodalaydi.
- Hadislarda ilm izlash va diniy e’tiqodni erkin shakllantirish hamda boshqalarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish zarurligi qayd etilgan. Masalan, "Ilm izlash har bir musulmon erkak va ayolga farzdir" degan hadis ilmiy, diniy va axloqiy tarbiya asoslarining birlashuvida bag‘rikenglikni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston hududi qadimdan turli millat, til va din vakillari nuqtai nazaridan bag‘rikenglik an’analariga boy bo‘lgan. Quyidagi jihatlar misol sifatida keltirilishi mumkin:

- Tarixiy Meros: Markaziy Osiyo tarixida turli etnik guruhlar, madaniyat va dinlar birgalikda yashab, o‘zaro tajriba almashishgan. Bu tajriba, ayniqsa, qadimgi Silk Road hududlarida ham ko‘rinadi.
- Madaniy Totuvlik: O‘zbekiston hududida musulmon, nasroniy, yahudiy, bahoiy, buddist, hindu va boshqa diniy guruhlar uzoq vaqt davomida tinch-totuv yashagan va o‘z an’analarini hurmat qilgan. Har bir konfessiya o‘z diniy bayramlarini nishonlashda hamkorlik va hurmat qoidalariga amal qilgan.
- Milliy Ahamiyat: Mahalliy urf-odatlar, urf-joy va xalq og‘zaki ijodi bag‘rikenglik qadriyatlarini mustahkamlagan. Xalqimiz qadimdan mehmondo‘stlik, ezgulik va qalb saxovatini o‘ziga xos qadriyat sifatida qabul qilgan.

Zamonaviy O‘zbekistonning qonunchilik hujjatlari va Konstitutsiyasi barcha fuqaroning diniy e’tiqodini hurmat qilish va himoya qilishni nazarda tutadi. Shu jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Barcha fuqarolar diniy e’tiqod va dunyoqarash bo‘yicha teng huquqlarga ega ekanligi belgilangan.
- Mahalliy qonunlar va dasturlar: Mamlakatimizda turli diniy guruhlar o‘rtasida bag‘rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiyaviy dasturlar, ijtimoiy loyihalar va madaniy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro Normativ Hujjatlar

Diniy e’tiqod erkinligi va bag‘rikenglik masalalari xalqaro darajada ham e’tiborga olinadi:

- BMT Umumjahon Inson Huquqlari Deklaratsiyasi (1948): 18-modda bo‘yicha har bir inson fikr, vijdon va din erkinligiga ega ekanligi tan olingan.
- UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar: Diniy, madaniy va etnik xilma-xillikni mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va tashabbuslar bag‘rikenglik tamoyillarining global ahamiyatini isbotlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Islom dini bag‘rikenglikni va insonning diniy erkinligini asosiy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Qur’oni Karim oyatlari, hadislar va Payg‘ambarimizning ta’limotlarida din haqida majburlash yo‘q, inson o‘z e’tiqodini erkin tanlaydi degan prinsiplar aniq aks etadi. Tarixiy tajriba, mahalliy an’analar va zamonaviy qonunchilik nizomi barcha din vakillarining tinch-totuv yashashini ta’minlashga qaratilgan. Global miqyosda, inson huquqlari va diniy erkinlikni himoya qiluvchi xalqaro normativ hujjatlar

ham bag‘rikenglikning katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Agar jamiyat barcha tamoyillarga amal qilsa, o‘zaro hurmat, hamjihatlik va adolat asosida barqaror tinchlikka erishish mumkin.

BUXORO MA’RIFATPARVAR JADIDLARI ILMIY MEROSIDA DINIY VA DUNYOVIY BAG‘RIKENGLIK MASALALARI

A.Q.Saloxov
Buxoro davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar va jismoniy
madaniyat kafedrasi dotsenti

Ushbu maqolada Buxoro jadid mafkurasining markaziy g‘oyalaridan biri bo‘lmish bag‘rikenglik masalasi ta’lim-tarbiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Jadidlarning diniy va dunyoviy bag‘rikenglik borasidagi qarashlari, ularning asarlari va amaliy faoliyati orqali yosh avlod ongida bag‘rikenglikni shakllantirish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro jadidlari, bag‘rikenglik, dinlararo muloqot, ta’lim, madaniy muloqot, pedagogik tahlil.

Bugungi globallashuv sharoitida bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, tarixiy merosimizda bag‘rikenglik, madaniy muloqot va dunyoviy qarashlar masalalari keng yoritilgan. Bu borada Buxoro jadidlari – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yangilanish harakatlarining peshqadamlari – o‘z asarlari va amaliyotlari orqali muhim ilmiy-pedagogik yo‘nalishni belgilab berishgan.

Tarixiy merosimizda boy ma’naviy iz qoldirgan diniy, falsafiy-axloqiy manbalarimiz, xususan yurtimiz va millatimiz uchun o‘z jonidan kechgan Buxoro jadid mutafakkirlarining o‘z davrida yoshlar bilimini oshirishda, dunyoqarashini yuksaltirishda ular tomonidan yozib qoldirilgan asarlari tahlili keltirilgan.

Mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday fikrlarni keltiradilar: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, **“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”**[349]**.**

Prezidentimizning bildirilgan fikr puxta o‘ylangan fuqarolarimiz milliy-ma’naviy ta’limotining asosiy mezonlariga asoslanib, yosh avlodning kamol

[349] http://m.xabar.uz/jamiyat/prezident-shavkat-mirziyoyevning?min=1

topishilarda bag‘rikenglikni shakllantirish hamda ularni falsafiy-axloqiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yuksaltirishda ahamiyatli bo‘lgan qator vazifalar qayd etilgan. Ijtimoiy-ma’naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlar natijadorligini oshirish har bir soha vakillarining oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Bag‘rikenglik o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlariga hurmat ehtiromda bo‘lish, muomala-munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoa, ish joyi, mahalla-kuyda bunga rioya etishni anglatadi. Ya’ni tolerantlik o‘zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda buysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo‘lidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi[350]. Buxoro jadidlarining nafaqat mamlakatimiz, balki dunyoda qadriyat sifatida ulug‘lanadigan bag‘rikenglik, yurtga muhabbat va sadoqat, oilani muqaddas qadriyat sifatida e’zozlash va mustahkamlash, ma’naviy ogohlik, gumanizm va ma’rifiy islom qadriyatlariga rioya etish, komil insonni tarbiyalash kabi g‘oyalarining mazmunini ilmiy asosda ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy taraqqiyotining asosiy ustunliklaridan biri, jadidlarning nazdicha islomni yangicha o‘qish va o‘rgatish, yangicha tez va soz o‘rgatadigan metodlarni joriy qilish lozim edi. Shu bilan birga islomni mutaassiblikdan tozalash, diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilishdan iborat.

Mamlakatimizda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida yoshlar masalasi davlat ahamiyatidagi masala sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Prezident ta’kidlaganidek: “Yoshlarimiz — biz qurmoqchi bo‘lgan Yangi O‘zbekistonning hal qiluvchi kuchi va poydevoridir”.[351] Prezident Sh.Mirziyoev o‘z asarlarida va nutqlarida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratadi. “Biz jamiyatimizdagi millatlar, elatlar va dinlar o‘rtasidagi hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlashni o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yganmiz”. Bu siyosat yosh avlod tarbiyasida ham o‘z ifodasini topmoqda. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida bag‘rikenglik mavzulari, ko‘pmillatlilikning yutuqlari, madaniyatlar xilma-xilligi kabi mavzular kiritilgan bo‘lib, yoshlarda

[350] Tarbiya: (Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya). / Tuzuvchi M.N.Aminov. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. –416- 417-b.

[351] Mirziyoev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston – yangi imkoniyatlar yurti. – Toshkent: “O‘zbekiston”.

global fikrlashni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tolerantlikni targ‘ib qilishda quyidagi davlat dasturlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Inson qadri uchun” tamoyili — har bir inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi — yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari — ma’naviy tarbiyani kengaytirish va boshqa loyihalar yoshlarda tolerantlik muammosini hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi tashabbuslar yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, millatlararo munosabatlarda hurmat va bag‘rikenglikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Jadidlar ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish jarayonida nafaqat ilm-fanni, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni ham o‘rtaga qo‘yganlar. Ular din va dunyoviy fanlar o‘rtasida muvozanatni saqlash, millatlar va dinlar o‘rtasidagi muloqotni yo‘lga qo‘yish, har xil fikrlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ta’limning muhim jihati sifatida ta’kidlaganlar.

Masalan, Abdurauf Fitrat o‘zining “Oltin kitob” va “Rahbar-i najot” asarlarida bilim orqali insonni kamolotga yetkazish, unda boshqa din va millatlarga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. U jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot faqat bag‘rikenglik asosida amalga oshishi mumkin, deb hisoblaydi. Jadidchilik harakati – islohot va ma’rifat yo‘lidagi ilg‘or g‘oyalarni ilgari surgan, xalq ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan yirik ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu harakatning yetuk namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida diniy va dunyoviy bag‘rikenglik g‘oyalarini ilgari surgan. Ayniqsa, uning “Rahbar-i najot” asarida bu masala keng yoritilgan. Abdurauf Fitrat “Rahbar-i najot” asarida yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ularda ezgu fazilatlarni tarbiyalash, jumladan bag‘rikenglik, insonparvarlik va o‘zaro hurmat tuyg‘usini shakllantirishni maqsad qilgan. U asarda ta’lim-tarbiya vositasida inson kamolotiga erishish mumkinligini qayd etadi. “Jaholat va tangfiqrlik insoniyatni halokatga yetaklaydi, ilm va ma’rifat esa uni najotga olib boradi”[352]. Bu fikrlar orqali muallif diniy va dunyoviy bilimlar o‘rtasida muvozanat saqlash, har bir insonni o‘z aqidasi va qarashlariga ko‘ra hurmat qilish zarurligini uqtiradi. Fitrat diniy bag‘rikenglikka katta ahamiyat beradi. Uningcha, haqiqiy diniy ma’rifat boshqa e’tiqoddagilarga nisbatan hurmatni talab qiladi. “Rahbar-i najot” asarida u: “Har kim o‘z iymonida mustahkam bo‘lsin, ammo boshqa e’tiqoddagilarni kamsitmasin. Haqiqiy din hurmat va ruhiy tozalikni targ‘ib qiladi”[353] – deya ta’kidlaydi.

[352] Fitrat A. “Rahbar-i najot”. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 12.
[353] Fitrat A. “Rahbar-i najot”. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 25

Bu yerda muallif dinni kurash vositasi emas, balki insoniy qadriyatlarni mustahkamlovchi ma’naviy tayanch sifatida ko‘radi. Fitratning “Rahbar-i najot” asaridagi bag‘rikenglik g‘oyalari hozirgi ta’lim-tarbiya tizimi uchun dolzarb hisoblanadi. U ta’lim muassasalarida yosh avlodni turli millat va din vakillariga nisbatan hurmatda bo‘lish, tinchlik va bag‘rikenglik muhitini shakllantirishga da’vat etadi. Bu g‘oyalar pedagogik tadqiqotlarda ham amalda keng qo‘llanilishi zarur. Asarda jamiyatda millat, til va madaniyat xilma-xilligini boylik sifatida baholash g‘oyasi mujassam. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti turli fikr va qarashlarga ochiqlik, muloqot madaniyatiga bog‘liq: [354]“Har bir inson fikrlash va yashash haqqiga ega. Ularni bir-biriga qarshi qo‘yish – jaholat, bir-biriga bag‘rikeng bo‘lish – ma’rifatdir” Fitratning “Rahbar-i najot” asaridagi bag‘rikenglik g‘oyalari hozirgi ta’lim-tarbiya tizimi uchun dolzarb hisoblanadi. U ta’lim muassasalarida yosh avlodni turli millat va din vakillariga nisbatan hurmatda bo‘lish, tinchlik va bag‘rikenglik muhitini shakllantirishga da’vat etadi. Bu g‘oyalar pedagogik tadqiqotlarda ham amalda keng qo‘llanilishi zarur. Abdurauf Fitratning “Rahbar-i najot” asari – diniy va dunyoviy bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan qarashlar bugungi ta’lim jarayonida yosh avlodni ma’naviy komillikka yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi.

Buxoro jadidlari uchun ta’lim bu – faqat bilim berish vositasi emas, balki jamiyatni axloqiy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash vositasi hamdir. Ular bag‘rikenglik madaniyatini bolalikdan boshlab shakllantirish kerakligini ta’kidlashgan. Maktab dasturlariga turli xalqlarning adabiyoti va madaniyatidan namuna keltirish orqali o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maqsad qilingan.

Buxoro jadidlari asarlarida diniy va dunyoviy bag‘rikenglik masalalari ta’lim orqali tarbiyalanishi lozim bo‘lgan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Jadidlarning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlod ongida bag‘rikenglik, madaniy muloqot va tinchlikparvarlik ruhini shakllantirishda asosiy manba bo‘la oladi.

[354] Fitrat A. “Rahbar-i najot”. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 37.

AJDODLAR MEROSI - MA’NAVIY BARKAMOLLIK ASOSI

Ahtam Ahmedov

Buxoro davlat muzey-
qo‘riqxona ilmiy xodimi,
Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy tadqiqot markazi
mustaqil tadqiqotchi
tel:+998909220078
Email: ahtambuxoriy1978@mail.ru

Tayanch so‘zlar: *Xattotlik san’ati, adabiy manba, ma’naviy meros, qo‘lyozma, qo‘lyozmalar fondi, odob-axloq, masjid, madrasa, peshtoq, epigrafik yozuvlar, madaniy yodgorliklar, ta’mirlash.*

Ключевые слова: *Каллиграфия, литературный источник, духовное наследие, рукопись, рукописный фонд, этикет, мечеть, медресе, крыша, эпиграфические надписи, памятники культуры, ремонт.*

Key words: *art of calligraphy, literary source, spiritual heritage, manuscript, manuscript fund, manners, mosque, madrasah, peshtok, epigraphic inscriptions, cultural monuments, repair.*

Sharq xalqlarining uzoq asrlik tarixini yaratib qoldirgan madaniy-ma’naviy merosida qo‘lyozma manbalar va ular saqlanayotgan xazinalarning alohida o‘rni bor. O‘zbekistondagi manashunday qo‘lyozma asarlar saqlanadigan xazinalardan biri Buxoro davlat muzey-qo‘riqxona huzuridagi qo‘lyozmalar fondi hisoblanadi. Ushbu qo‘lyozmalar fondida ota-bobolarimiz texnika hali rivojlanmagan bir davrlardayoq insonlarning ma’naviy salohiyatini oshirish uchun yoinki kishilarni to‘g‘ri yo‘ldan chiqib yod g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligi uchun yoki ularning axloq-odobini go‘zal bo‘lmog‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida hayotda uchraydigan har bir narsadan unumli foydalanib, targ‘ibot-tashviqot qilib, avlodlarni barkamol inson bo‘lishida har bir narsalarni e’tibordan chetda qoldirmaganlar. Misol uchun hashamatli naqshinkor saroylar, bir-biridan go‘zal minoralar, masjidlar, madrasalar, ularning ulkan peshtoqi, devorlari, shiplari va eshiklari, shuningdek erkaklar va ayollar liboslari hamda marmar, sopol, chinni tovoqlar, ko‘zalar, mis idishlar kabi uy-ro‘zg‘or buyumlariga insonlarga nasihatlar, tibbiy maslahatlar, ezgulikka chorlovchi oyat, hadislar, hikmatli so‘zlar va tarbiyaviy rivoyatlar epigrafik yozuvlar vositasida aks ettirilib, o‘sha davrning qo‘li gul iste’dodli xattotlari, sangtarosh ustalari va kashtachi hunarmandlari tomonidan juda nafis bezaklar bilan (o‘yib) yozib qoldirganlar.

Buxoro muzey-qo‘riqxonasida qo‘lyozma va toshbosma kitoblardan tashqari ota-bobolarimizning karton va qog‘ozlarda ko‘chirilgan xattotlik namunalari bo‘lmish qit’alar ham saqlanib kelinadi.

Qit’alar qo‘yiladigan joyiga qarab, turli ma’nolik bo‘lgan. Misol uchun masjidlarda osib qo‘yiladigan qit’alarda asosan ibodatga chorlov yoki Allohning ulug‘ligini e’tirof etuvchi jumlalar yoinki quyidagidek: “D**ar masjid agar hadisi dunyo guzarad, barbodi zud toati sad solayi u”** ma’nosi: agar masjidda dunyo so‘zi so‘zlansa, uning (dunyo so‘zi so‘zlagan kishining) yuz yillik qilgan ibodati barbod bo‘ladi**)** kabi ma’noli so‘zlar ifodalangan bo’ladi.

Ba’zan qit’alarda madaniy yodgorliklarning qurilish yoki ta’mirlanish tarixi yoinki yana qandaydir ahamiyatli voqealar aks ettirilgan bo‘ladi.

Shuningdek, badavlat yoki ziyoli kishilarning mehmonxonalari va shu kabi joylarda osib qo‘yiladigan ba’zi qit’alarda Alloh tomonidan insonga in’om etib berilgan umr ne’matidan unumli foydalanish, vaqtni qadriga yetish, tilni rostgo‘ylikka odatlantirish, va’daga vafo qilish, o‘z xalqini ochiq chehralik, mehmonnavozlik, xushxulq va kamtarinlik singari yaxshi xislat va fazilatlar egasi bo‘lishga undab yozilgan oyatlar, hadislar, hikmatli so‘zlar va yaxshilikka undovchi she’rlardan iborat ma’lumotlar ko‘chirilgan bo‘lsa, ba’zi qit’alarda uning butkul aksi bo‘lgan kibru-havo manmanlikdan yiroq bo‘lish, ikkiyuzlmachilik, yolg‘onchilik qilmaslik, do‘st tanlashda ehtiyot bo‘lish, yomon do‘stdan uzoq bo‘lish, ilm ahllarini va yoshi keksalarni hurmat qilish, ularga mahmadanalik qilib qalblariga ozor yetkazmaslik kabi salbiy illatli kishilarga tanbeh berib, saboq berish uchun hikmatli she’rlardan foydalanilgan. Yuqoridagi o‘ziga xos usullar bilan ajdodlarimiz yomon illatli kimsalarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish uchun madaniy ma’rifiy va ma’naviy usullardan foydalanganliklari hech kimga sir emas va shuning natijasida ko‘pgina milliy qadriyatlarimiz hali-hanuz xalqimiz orasida saqlanib kelinmoqda[355].

Qisqacha qilib aytganda, ajdodlarimiz qit’alar orqali avlodlarga qandaydir tarixiy ma’lumotni yetkazish bilan birga, yosh avlod tarbiyasida nafaqat yosh avlod balki, barcha yoshdagilar tarbiyasi uchun ham qit’alardan o‘ziga xos tashviqot-targ‘ibot vositasi sifatida foydalanishgan. So‘zimizning isboti sifatida maqolamizda ma’noli va hozirgi davrimiz uchun juda dolzarb mavzularni o‘z ichiga olgan tarbiyaviy ahamiyatga ega fors–tojik va turkiy (eski o‘zbek) tildagi adabiy manbalar tanlab olinib, ba’zilari imkon qadar izohlandi.

Ushbu qit’a buxorolik xattot Hoji Mirbaqo tomonidan 1334/1916 yilda buxoroda ko‘chirilgan qit’alar muraqqa’si (albomi)dan namuna bo‘lib, bunda

[355] А. Аҳмедов. “Бухоро хаттотлик санъати намуналарида матн ва маъно уйғунлиги” “Дурдона” нашриёти. Бухоро. 2022й. Б. 3-5.

yoshlikni qadriga yetish, undan maqsadli foydalanish haqida quydagi qisqa ibratli hikoya keltiriladi:

O‘qilishi:

Javoni guft bo piri dili ogoh
Chi gum kardiki, xam gashti dar in oh
Javobash dod piri xushtakallum
Ki ayyomi javoni kardeam gum[356]

Tarjimasi: “Bir o‘smir yigit dono (qalbi ogoh) keksadan so‘radi: nimani yo‘qotdingizki, bu yo‘lda bukchayib (qidirib) turibsiz? Xushsuhbat pir: “Men o‘z yoshligimni yo‘qotgan edim shuni qidiryapman” deb, javob berdi.

Bu qit’adagi matnlardan yoshlik insonga umrida bir marta beriladigan imkoniyatlar fursati ekanligi, bu berilgan fursatdan unumli foydalanib, keraksiz narsalarga ovora bo‘lmasdan, umrni mazmunli o‘tkazishga undash ma’nosini anglash mumkin.

“Qanchadan-qancha insonlar borki, o‘zlarini xursand qiladigan, qalblarini quvontiradigan narsalarni qo‘yib, o‘zlariga zararli va foydasiz ishlar bilan ovora bo‘lib yuradilar[357]”. Haqiqatdan ham shunday emasmi? Hayotdan oddiy bir misol keltiradigan bo‘lsak, texnikaning rivojlanishi natijasida ba’zi bir yoshlarimiz kompyuter, telefonlarga qiziqib, undagi keraksiz o‘yinlaru, foydasiz, inson tarbiyasiga salbiy (fojeaviy) ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘rib qimmatli umrlarini behuda o‘tkazadilar. Mazkur qit’adagi qisqa hikoyadan kimdir ibrat olib hayotidagi har bir soniya va daqiqasidan unumli foydalanib yashasa albatta maqsadiga yetadi. Agar aksincha bo‘lsa, hikoyadagi chol singari vaqtlar o‘tganidan keyin o‘z yoshligini qidirib topaolmay attang qilib qoladi bunda esa keyin kech bo‘ladi. Qit’adagi misralar fors tilida, nasta’liq xatida, to‘rt qatorda, chelepo (qiya) usulida, qora siyohda, bahor gullari bilan bezatilgan kartonda ko‘chirilgan. Qit’aning oxirgi qatorida matnlar buxorolik xattot Hoji Mir Baqo tomonidan 1334/1916 yilda ko‘chirilganligi ma’lumoti aks etgan.

Ushbu qit’a oldingi qit’a ma’nolarini to‘ldirgan holda ifodalangan.

G‘ami ruze chi mexuri shabi-ruz
Ki, sagu gurbaro hamin korast
Kam xurad ze on aziz gasht humo

[356] Бухоро давлат музей-қўриқхонаси қўлёзмалар фондида 10888/11 (28) ашёвий рақам остида сақланаётган форсий тилдаги тарихий ашё (қитъа).
[357] Боки Зокиевич Холидов “Учебник арабского языка”. Третые издание. Ташкент. Ўқитувчи. 1981

Zog‘i bisyor xo‘r ze in xorast[358]

Tarjimasi:

Rizq g‘amini nega yeysan kun-u tun
Bu asli, it-mushukning ishidir
Buni kam o‘ylab humo aziz qush bo‘ldi
Qarg‘a esa, shu fikrdan xoru-zor bo‘ldi.

Izoh: Nega kunu-tun rizq g‘amini yeysan, bu tashvishlanish itu-mushuklarning tashvishidir. Rizq haqida kam o‘ylab, humo aziz qushga aylandi. Qarg‘a esa, rizq topaman deb o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urib xoru-zor bo‘ldi. Bu bilan shoir: rizq topaman deb o‘zingni har tomonga urib uning natijasida kishilar orasida xor bo‘lib qolma. Vaholanki, Alloh Taolo o‘zining Qur’oni karimidagi “Hud” surasining 6- oyatida har bir bandasini ona qornidaligi paytidayoq uni rizqlantirib turishini ta’kidlab quyidagicha bayon qilgan: “O‘rmalagan narsa (harakatlanuvchi jonzot) borki, barchasining rizqi Allohning zimmasidadir. U zot ularning turar joylarini ham, borar joylarini ham bilur. Hamma narsa ochiq ravshan kitobda (lavhul mahfuzda) yozilgandir”[359].

Bu oyati karimada Alloh Taolo tuproqu-loy ichidagi qurtu-qumusqalarni, suvdagi baliqlarni, havodagi qushlarni, qorong‘i inidagi chumolilar-u, ulkan xarsang toshlar ostidagi ilonlarni, shular singari insoniyatni ham ona qornidaligidayoq uning rizqini o‘zining Razzoq-rizqlantiruvchi sifati bilan rizq berib turishi va barcha harakatlanuvchi jonzotlarning rizqlari kafolatlangani ta’kidlanadi.

Yuqoridagi misralardan barcha uyiga kirib olsin rizqni o‘zi keladi demoqchi emas balki, haddan ortiq rizq izlab, inson o‘zligini yo‘qotmasligi, kelajak mevalari bo‘lmish farzandlar tarbiyasi, ularning kelajakda barkamol avlod bo‘lishi uchun ham ota-onalar o‘zlarini har tomonga urmay, ularning tarbiyasi, bilim olishi, ularni qiynayotgan savollar va ularning yechimi to‘g‘risida ham qayg‘urmoqliklari va ular uchun vaqt ajratmoqliklari kerak bo‘ladi demoqchi. Chunki, hayot faqat pul, mol-dunyo to‘plashdan iborat emas ya’ni pulning ketidan quvish inson hayoti mazmuniga aylanishi shart emas, bundan boshqa, tuyg‘ular ham mavjud. Misol uchun hozirgi hayotda ham milionlab pullari boru, ammo farzandlari giyohvand buning natijasida o‘shanday oilalarda xotirjamlik, xayru-baraka yo‘q, milionlab pullari boru farzandlari yod g‘oyalar ta’siriga tushib, yo‘ldan adashgan buning natijasida esa, ota-onaning boshi egik, beli bukilgan. Albatta bu esa rizqning

[358] Бухоро давлат музей-қўриқхонаси қўлёзмалар фондида 10888-11 (70) ашёвий рақам остида сақланаётган форсий тилдаги тарихий ашё (қитъа).

[359] Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Тошкент Ислом университети” Нашриёт матбаа бирлашмаси. 2007.Б.222

to‘g‘rirog‘i pulning ketidan quvib, farzandlarga bee’tibor bo‘lishlik natijasida yuzaga kelgan muammodir.

Navbatdagi ushbu qit’ada payg‘ambar (s.a.v.) dan keyingi birinchi xalifa Abu Bakr Siddiq (r.a) ning Yaratganga qilgan munojotlarining bir qismi ifodalangan. U quyidagichadir:

Xuz bilutfik ya ilahiy man lahu zadun qalil
Muflisan bis-sidqi ya’ti ‘inda babik ya Jalil.
Zanbuhu zanbun aziymun fag‘firiz-zanbal aziym
Innahu shaxsun g‘ariybun muznibun abdun zalil[360]

Tarjimasi:

“Yo Rab! Gado bu qulga lutfing ehson aylagil,
Zor aylar u sidq ila eshigingda, yo Jalil.
Jurmi haddan ortiqdir, sendan tilar mag‘firat,
Bir osiy bandang erur zabunhol, xoru zalil[361].

Abu Bakr Siddiq payg‘ambar (s.a.v) dan so‘ng, insoniyatning eng yaxshisi bo‘lishiga qaramay va hayotlik paytlaridayoq jannatga kirishlariga bashorat berilgan bo‘lsada, o‘zlarini parvardigor oldida hamisha gunohkor, isyonkor bir banda deb bilib, o‘z fazlu-karaming bilan men gunohkor bandangni o‘zing kechir deb o‘zlarini nihoyatda xor tutib, oddiy bir inson ekanliklarini anglab, kibrdan uzoq bo‘lib, man-manlik ko‘chasiga yaqinlashmaslikka harakat qiladilar. Ammo, hayotda ozgina ilmi bilan dunyoning barcha ilmlari yolg‘iz unga berilgandek o‘zini tutadiganlar ham yo‘q emas, bundaylar haqida Muhammad Hindistoniy ajoyib bir o‘xshatishni keltiradilar.

“Jahon mirotig‘a boqsam ajab vayrona ko‘rsatdi,
O‘shal vayrona ichra barchani hayrona ko‘rsatdi,
Birov ganji ilm birlan o‘zni hech kimga bildirmay
Birov andak ilm birlan o‘zni alloma ko‘rsatdi”.

Izoh: Jahon ko‘zgusiga bir nazar tashlasam, bu ko‘zgu menga jahonning qanchalik vayron ekanligini va ushbu vayronaliklar ichida, kishilarning, hodisalarning turfaligidan, barchani lolu- hayron ekanligini ko‘rsatdi, bu turfa insonlar ichida bilimi daryo ammo, o‘zini xoku-turobdek tutuvchilar ham bor ekan va shuningdek, ozgina bilim bilan o‘zini allomayi-zamon qilib ko‘rsatadiganlar ham bor ekan deb, avvalida ilm bilan kamtarinlikni nechog‘lik fazilat ekanligini aytib o‘tsalar, oxirgi ikki misrada, ilmsizlik bilan

[360] Бухоро давлат музей-қўриқхонаси қўлёзмалар фондида 16007/11 ашёвий рақам остида сақланаётган араб тилдаги тарихий ашё (қитъа).
[361] Н. Абдулмажид. “Дуолар қўрғони III”. Тошкент. “Минҳож” нашриёти. 2004. Б. 118-119

mutakabbirlikning nechog‘lik yomon nuqson ekanligini tushuntirishga harakat qiladilar.

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxona fondida forsiy, arabiy xattotlik namunalaridan tashqari turli mazmundagi turkiy xattotlik san’ati namunalari ham mavjud.

“Riyozat chekmag‘uncha, yor vaslig‘a yetib bo‘lmas,
Falakda qo‘l uzatib, shamsi-anvarni olib bo‘lmas”[362].

Mazmuni: Inson har bir sohada xoh u dunyoviy, xoh u uxroviy bo‘lsin mashaqqat, riyozat chekmasa, ko‘zlagan maqsadiga yetaolmasligi uqtirilib, qo‘lni osmonga uzatgan bilan barcha niyati o‘z-o‘zidan ushalib qolmasligi anglatilib, ayrim g‘aflat uyqusidagilarni uyg‘otishga harakat qilingan. Riyozatning ma’nosini buyuk alloma So‘fi Alloyor quydagi ikki misralari bilan shu darajada ochib berganlarki, uning sharhiga hojat yo‘q.

Riyozat mevasidur misli yong‘oq,
Agarchi zohiri tosh, botini yog‘.

Riyozat bu- yong‘oqqa o‘xshaydi, garchi uning tashqi ko‘rinishi qattiq, tosh singari bo‘lsada, uning ichi inson xotirasi, inson miyasi, inson organizmi uchun juda foydali bo‘lgan yog‘dan iboratdir deydi.

Ushbu qit’a ham Buxorolik xattot Muhammad Ziyoiy tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib,unda quydagi misralar yozilgan.

“Yomonning yaxshisi bo‘lg‘uncha, yaxshining yomoni bo‘l,
Qaromug‘ donasi bo‘lg‘uncha, bug‘doyning somoni bo‘l[363].

Mazmuni: Yomonning yaxshisi bo‘lib, dunyoda yomonlik urug‘ini tarqatib, kishilar ko‘rsa nafratlanadigan inson bo‘lguncha, loaqal birovga foydasi ham zarari ham tegmaydigan yaxshining yomoni bo‘l. Qaromug‘ kabi zararli bo‘lguncha, loaqal bug‘doyning somonidek bo‘lgin, garchi bu somon bug‘doychalik foydali bo‘lmasada, uning insonlar turmushida o‘ziga xos vazifasi va o‘rni bor. Bu bilan Alisher Navoiy “hayotda faqat yaxshilik qilib yasha, agar yaxshilik qilishga qurbing yetmasa, loaqal yomonlik qilishdan o‘zingni tiy” degan fikrlarni bildirib, insoniyatni ezgulik sari intilishga undamoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tarbiya sohasi islohoti bugungi kunda ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan

[362] Бухоро давлат музей-қўриқхонаси қўлёзмалар фондида 10887/11 ашёвий рақам остида сақланаётган араб тилдаги тарихий ашё (қитъа).
[363] Бухоро давлат музей-қўриқхонаси қўлёзмалар фондида 10887/11 ашёвий рақам остида сақланаётган араб тилдаги тарихий ашё (қитъа).

ma’naviy merosda barcha davrlar uchun kerak bo‘lgan fikrlar borki, ular bugungi taraqqiyot uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari asosida aytilgan har bir hikmatli so‘zlar ma’naviy taskin, ruhiy madad, qiyinchiliklarni yengishda saboq vazifasini o‘taydi. U odamni qalban ulg‘ayishga, iymon-e’tiqodli bo‘lishga undaydi. Ota-bobolarimiz so‘zlaridagi oyat, hadis va hikmatli so‘zlar jamiyatimizni insonparvar jamiyat sifatida barpo etishga yordam beradigan ijtimoiy omildir. Yuqorida zikr qilingan mo‘tabar manbalar axloqiy normalarga aylanib, kishilarning turmush-tarzini va e’tiqodini shakllantirgan. Ota-bobolarimiz azal-azaldan inson tarbiyasi masalalariga jiddiy e’tibor berib kelgan. Bu an’ana avloddan-avlodga o‘tib, takomillashib, yangicha usullar evaziga boyib borgan.

Tarbiyaviy manbalarni ajdodlarimiz qoldirgan an’analarga tayangan holda, zamonaviy texnalogiya yutuqlaridan samarali foydalanib o‘zimizga xos va mos uslubiyatni ishlab chiqqan holda o‘qitishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda.

Milliy mazmunga ega ta’lim-tarbiya tizimini barpo etish ehtiyoji esa qadimiy manbalarni o‘rganishni taqozo qilmoqda.

Tarixiy manbalar orqali xalqning asrlar davomida shakllangan madaniy – ma’naviy merosidan, axloq-odob, tarbiya borasidagi an’analaridan qanchalik samarali foydalansak, yosh avlodni tarbiyalash borasida sezilarli yutuqlarga erishamiz degan umiddamiz.

Muzeylarda ko‘plab xattotlik san’ati namunalari-qit’alar hozirga qadar to‘liq ilmiy o‘rganilmagan va o‘z ilmiy tadqiqotchilarini kutmoqda. Kelajakda matnshunos, manbashunos yoshlar tomonidan manashunday durdona manbalar o‘rganilib, o‘z ona tilimizga tarjima va tabdillar qilinsa, xalqimizning arab yozuvini o‘qiyolmaydigan qatlamini ham bunday ajoyib va muhim asarlardagi ma’lumotlar bilan bahramand qilib, ilmiy saviyalarini oshirishda o‘zlarini hissalarini qo‘shgan bo‘lar edilar

Chunki bunday manbalarni o‘rganish orqali xalqimizning tarixi, madaniyati, urf-odat va an’analari bilan birgalikda uning iqtisodiyoti va siyosati, uning xalq, millat sifatida jahon tamadduni rivojida tutgan o‘rnini aniqlash va anglash bilan bog‘liq barcha trixiy ma’lumotlardan ham xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

MUNDARIJA

Jobir Elov *IMOM BUXORIYNING TA’LIMOTIDA ODOBNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTUGAN O‘RNI* ..... ***3***_Toc198134150
Raxmatova Xolida Xolikovna NAQSHBANDIYLIKNING JAHONIY TA’LIMOTGA AYLANISHIDA XOJA AHROR VALIYNING O‘RNI 5
"التَّنْويرُ الإسْلامِيُّ أسَاسُ الْكَمَالِ الأَخْلَاقِيِّ والرُّوحِ" د. أيمن عثمان عبد العليم الشريعي- أستاذ بجامعة بخارى الحكومية 8
Avliyoqulov Uchqun Mardanovich SOG‘LOM E’TIQODNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI ***12***
Hanifa Bo‘ronovna Haydarova, Dinoza Vohidova, O‘RTA ASRLAR ISLOM SIVILIZATSIYASI DAVRIDA ILM FAN RAVNAQI 14
Djuraev Husen Xayrulloevich, Xayrulloev Saidjon Husenovich, ISLOMIY QADRIYATLAR VA TARBIYANING AHAMIYATI 17
Raxmatova Xolida Xolikovna, Haqnazarova Iroda Ismoilovna, AYOLNI E’ZOZLASH - OILANI, VATANNI, HAYOTNI ULUG‘LASH DEMAKDIR. . 25
Akbar Axtamovich Allamov, Saidjon Husenovich Xayrulloyev MOVAROUNNARHLIK MUHADDIS HAKIM AT-TERMIZIYNING NODIR ASARLARI 28
Rajabov Alisher Shavkatovich, ISLOM DININING TARQALISHI VA MADRASA TA`LIMI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY MADANIY HAYOTGA TA`SIRI. 32
Behzod DEHQONOV, Shahnoza SULTONOVA, ISLOM DININING ASOSIY QOIDALARI, URF ODATLARI AN’ANALARI VA ULARNING MADANIY HAYOTDAGI O‘RNI 35
Xaitov Lazizbek Azamatovich, HAKIM TERMIZIY “XATM UL-AVLIYO” ASARINING TASAVVUFIY TAHLILI VA UNDA VALIYLIK MASALASI ..***38***
To‘xtayeva Matluba Xakim qizi, IMOM BUXORIY ILMIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’RNI 41
R.N.To‘xtasinov, IBN SINONING AXLOQIY QADRIYATLAR TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI..... 47
Rahmatullo Xaydarov, ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON HAQIDAGI QARASHLARI - MA’NAVIY BARKAMOLLIK ASOSI..... *52*
Baxodirjon AZAMOV, HAKIM TERMIZIY ILMIY MEROSIDA ISLOM MA’RIFATI VA AXLOQ MASALALARI 57
Oybek Hoshimov, SOG‘LOM E’TIQODNI TARG‘IB QILIShDA ShABBIR AHMAD USMONIYNING O‘RNI..... *63*
R.N.To‘xtasinov, IBN SINONING ISLOMIY BILIM VA ILM-FAN UYG‘UNLIGI TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI..... 66
Xaitov Azizbek Azamatovich, YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI 69
Bozorov Vahobiddin, TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH MOTIVLARI 73

Raximov Xolmurod Majitovich, TUSTARIY TA'LIMOTIDA OCHLIK MO‘JIZASI..... 78
Saidov Shaxboz, ISLOM AXLOQIYATI – ZAMONAVIY JAMIYAT MA’NAVIYATINING ASOSI SIFATIDA..... *82*
Xalxodjayeva Nargiza Yusupjonovna, ISLOMDA BOLA VA UNING HUQUQLARINING TA’MINLANISHI..... 87
Raximov Xolmurod Majitovich, SAHLIYA TA'LIMOTIDA TAQVO MASALASI..... 93
Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o‘g‘li, SOG’LOM E’TIQOD JAMIYAT TARAQQIYOTINING GAROVIDIR *96*
Saidov Shaxboz, IMOM BUXORIY MEROSIDA MA’RIFIY G‘OYA VA AXLOQIY YUKSAKLIKNING GAVDALANISHI..... 98
Ro‘zmetov Muhammad Mustafo, FIQH ILMI VA UNING MO‘JAZ TARIXI 104
Aliqulov Raxmonqul Abduqayumovich, “HIKMAT AL-AYN” RISOLASINING SOG’LOM E’TIQODAGI O’RNI 106
Maxmudov Asrorxon Yusufxonovich, SOG‘LOM E’TIQOD — BARQAROR JAMIYAT TAYANCHI VA MA’NAVIY TARAQQIYOT KAFOLATI 109
Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o‘g‘li, BORLIQ VA MA’RIFAT BORASIDAGI IMOM NASAFIYNING QARASHLARI..... 111
Ro‘zmetov Muhammad Mustafo, ISLOMDA KO‘ZGA KO‘RINGAN ILK FAQIHLAR..... 114
Sharapov Mamur ISLOMDA TABIATNI MUHOFAZA QILISH: EKOLOGIYA, AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR..... 118
Aliqulov Raxmonqul Abduqayumovich NAJMIDDIN QAZVINIYNING BORLIQ BORASIDAGI E’TIQODIY QARASHLARI..... 120
Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich, O‘Z YURTIDA ILM TARQATGAN OLIM ABU ISO TERMIZIY 123
Abzalova Farida, MAHMUD ZAMAXSHARIY YASHAGAN DAVRDA ILMIY-MA’RIFIY MUHIT..... 126
Islomxon Ubaydullaev, “ANVOR AL-QUR’ON VA ASROR AL-FURQON” ASARIDAGI AXLOQIY-TARBIYAVIY MASALALARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI..... 130
G’ulomjonov Odiljon Raximjon o’g’li, OILA INSTITUTINI DEZINFORMATSIYA TA’SIRIDAN HIMOYA QILISHNING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI 139
ISLOMDA AYOLLARNING O‘RNI VA AXLOQIY TARBIYA..... *142*
Baymirov Muslim Saydullaevich, Tadjibayev Zoxidjon Xatamovich, ISLOMIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY APATIYANI OLDINI OLISH VA UNI BARTARAF ETISHDAGI O‘RNI 146
O‘tkir G‘uzarov, ISLOMDA AXLOQIY QADRIYATLAR 150
Mahmudov O‘tkir Fazliddinovich, RADIKALIZM – TARAQQIYOT

KUSHANDASI 153
Jiyanov Ulug’bek Nasriddinovich, MA’NAVIY KOMILLIK – ISLOMDA ... 157
Ne’matov Jahongir To‘lqinovich, MUHAMMAD JAZARIYNING ILMIY MEROSI 160
Saidov Ibrohim, ABU LAYS SAMARQANDIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI 165
Sharipov Dilshod Baxshilloevich, ISLOM MA’RIFATIDA TINCHLIK G‘OYASI 167
Jiyanov Ulug’bek Nasriddinovich, ISLOMDA BILIM VA ILM-FAN UYG‘UNLIGI 171
Qurbonov Bekjon G‘ayrat o‘g‘li, YANGI O‘ZBEKISTONDA DINIY SOHA KADRLARINI TAYYORLASH VA ILMIY MUHITNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN SIYOSAT: TARIXIY TAHLIL 173
To‘lqin Azimov, SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANIShDA AXLOQ PRINSIPLARI **180**
Badiyev Shukurjon Komil o‘g‘li, RADIKALIZMGA QARSHI MA’RIFIY KURASH BUGUNNING DOLZARB MUAMMOSI 182
Samariddin AHMEDOV, Ulug‘bek HASANOV MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “AL-MUFASSAL” ASARIGA YOZILGAN ENG MASHHUR SHARHLARIDAN BIRI AL-JANDIYNING “AL-IQLID” KITOBIDIR 189
**Tohirov Akobir To`lqinovich,** ZAMONAVIY JAMIYATDA MA`NAVIY BARKAMOL INSON O`RNI 196
Boqiyev Azizbek Abdullajon o’g’li, ABU HANIFA — E’TIQOD MEZONI .. 200
Rizayev G‘ayrat Mukumovich, *BOBOXONLAR MISOLIDA ISLOMIY AHLOQ VA ILMIY QARDIYATLAR MEROSI* ***203***
Xolmatov Ashurali, *ISLOM MANBALARIDA AYOLNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI BAYONI* ***209***
Abduvaxidov Abdullaziz Abdusattor o‘g‘li, Tulenova Karima Jandarovna, MA’RIFAT - RADIKALIZMGA QARSHI KURASHISHDA ENG SAMARALI VOSITA 216
Mirzayeva Barnoxon Adxamovna, IQTISODIY ZO‘RAVONLIK 221
F.Xudoynazarov, DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MA’RIFAT — RADIKALIZMGA QARSHI KURASHNING SAMARALI VOSITALARI 225
Berdieva Nilufar Axatovna, ISLOMDA AYOLNING O‘RNI VA AXLOQIY TARBIYA 228
Axmedov Muhammad Xodiy, ISLOMDA AYOL HUQUQLARI VA AXLOQIY TARBIYA: TARIXIY MEROSDAN ZAMONAVIY DAVRGA QADAR 233
Yakubov Azimjon, SOG‘LOM E’TIQODNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI 237
Orifjon Berdiyev, Zebiniso Amrulloyevna SHadmanova, QADIMGI ARAB VA FORS TILIDA IJOD ETGAN OLIMU FUZALOLAR 239

Muxsinov Abdulmajid, AXLOQIY VA MILLIY QADRIYATLAR 242
Mirzayev Kamoliddin Abduxalilovich, ERNING AYOLIGA YAXSHI MUOMALA QILISHI 247
**Ahmadov Xurshid San`atovich**, RADIKALIZM – SOG`LOM JAMIYAT DUSHMANI..... 254
Omon Qodirov, DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK – YURT BARQARORLIGINING KAFOLATI..... 257
Xudoyqulov Jahongir, TAHOVIY AQIDASIDA IYMON MASALASI: MOTURIDIY VA SALAFIYLAR TALQINIDA 261
Naqibxonov Saidasror Osimxon o‘g‘li, *TAHOVIY AQIDASIDA IYMON MASALASI: MOTURIDIY VA SALAFIYLAR TALQINIDA* ***..... 267***
Islomova Sayyora, *KAMOL IBN HUMOMNING ISLOMIY BILIMLARIGA QO‘SHGAN HISSASI VA TA’LIM USLUBI* ***..... 274***
Xushvaqtova Sarvinoz, *RADIKALIZMGA QARSHI MA'RIFIY KURASH* ***..... 277***
Sharopov Sarvar Faxriddinovich, ISLAM AND RELIGIOUS TOLERANCE281
Turg'unov Xurshid Axlimirzayevich, SOG'LOM ETIQODNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 286
Asror Vahobov, DIN VA ILM: ISLOMIY BILIM VA ZAMONAVIY ILM-FAN UYG‘UNLIGI 290
O‘rolov Sunnatilla, ISLOM DINI VA BAG‘RIKENGLIK..... 293
A.Q.Saloxov, BUXORO MA’RIFATPARVAR JADIDLARI ILMIY MEROSIDA DINIY VA DUNYOVIY BAG‘RIKENGLIK MASALALARI.....295
Ahtam Ahmedov, AJDODLAR MEROSI - MA’NAVIY BARKAMOLLIK ASOSI 299

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

O’ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI

MIR ARAB OLIY MADRASASI

ISLOM MA’RIFATI - AXLOQIY VA MA’NAVIY BARKAMOLLIK ASOSI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

Muharrir: *F.Usmonov*
Texnik muharrir: *B.Ashurov*
Musahhih: *M.Kuziyeva*
Sahifalovchi: *X.Axrorov*

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Orginal maketidan bosishga ruxsat etildi: 13.05.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 19.5 Adadi 100. Buyurtma № 780

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.



“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy